O‘zbekiston Respublikasi Oliy va O‘rta maxsus ta’lim vazirligi

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

I. J. Yuldashev

O‘. Nosirov

KUTUBXONA – AXBOROT XIZMATI: NAZARIYASI VA AMALIYOTI

O‘quv qo‘llanma

TOSHKENT - 2020

Annotatsiya

O‘quv qo‘llanmada foydalanuvchilarga kutubxona – axborot xizmati ko‘rsatishning nazariy asoslari va umumiy uslubiyotini yoritish asosiy maqsad qilib qo‘yilgan. Shunga muvofiq kutubxona – axborot xizmati ko‘rsatishning maqsadi, vazifalari, tamoyillari, kutubxonalarning shaxsning ijtimoiylashuvidagi roli, kutubxona muloqoti, foydalanuvchilarni o‘rganish muammolari, mutolaa madaniyati, axborot madaniyatini shakllantirish masalalari ko‘rib chiqilgan. Kutubxonalarda foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatish tizimi, uning shakllari va usullari, texnologiyasi yoritib berilgan.

O‘quv qo‘llanmaning so‘nggi boblari virtual (elektron) kutubxona xizmatining rivojlanishi, kutubxona – axborot xizmatining XXI asrdagi rivojlanish yo‘nalishlarining dolzarb masalalarini yoritishga bag‘ishlangan.

O‘quv qo‘llanma “Kutubxona – axborot faoliyati (kutubxonachilik va bibliografiya)” ta’lim yo‘nalishi talabalari, “Kutubxona – axborot xizmati: nazariyasi va amaliyoti” kursi va boshqa kutubxonashunoslik fanlari o‘qituvchilari uchun mo‘ljallangan.

Shuningdek, ushbu o‘quv qo‘llanmadan kutubxonalarda foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatish bo‘limlarining kutubxonachilari ham foydalanishlari mumkin.

Kirish

Bugungi kunda kutubxona – axborot xizmati koʻrsatish ijtimoiy --hayotning tezkorlik bilan oʻzgaruvchan sharoitlariga zudlik bilan moslashishni, uning vositalari, shakllari va usullarini takomillashtirib borishni talab qilmoqda. Shunga muvofiq axborotlardan erkin foydalanish imkoniyatini kengaytirish foydalanuvchilarga oʻz oʻzini aqliy rivojlantirish va takomillashtirishlari uchun yordam koʻrsatish, oʻqitish amaliyotiga ta'limni insonparvarlashtirishga oid mamlakatimizdagi hamda xorijiy mamlakatlardagi tajriba va yutuqlarni umumlashtirish asosida yondashuv ehtiyoji paydo boʻlmoqda. Axborot xizmati koʻrsatish, axborot savodxonligini oshirish – izlagan manbani topish, zaruriy axborotlar bilan ta'minlashgina emas, balki , olingan axborotni tahlil qilish, tarkibiy qismlarga ajratish, qayta birlashtirish, umumlashtirish, xulosalash va olingan bilimdan foydalana bilish ham demakdir.

Kutubxona faoliyati axborot xizmatining (bibliografik, hujjatlar, faktografik va boshq.) barcha turlarini qamrab oladi. Shunga koʻra kutubxona – axborot xizmati ijtimoiylashtiruvchi institut boʻlgan kutubxonaning tarkibiy qismi sifatida ijtimoiy subyektlarning ehtiyojlarini qondirish va rivojlantirish maqsadida jahon axborot resurslari asosida kutubxona - bibliografik va axborot faoliyati vositalari yordamida turli usullar va shakllarda kutubxona - bibliografik va axborot mahsulotlarini hamda xizmatlarini taqdim etishdan iboratdir. Xizmat koʻrsatish zamonaviy kutubxonalarning yetakchi funksiyalaridan boʻlib, tizimga kiruvchi barcha boʻlimlarning faoliyatini hamda ular tomonidan amalga oshiriladigan texnologik jarayonlarni uygʻunlashtirilgan tarzda maqsadga yoʻnaltirishdir.

Kutubxona–axborot xizmatining maqsadidan kelib chiqqan holda mualliflar "Kutubxona – axborot xizmati: nazariyasi va amaliyoti" kursining asosiy mavzulari: kursning predmeti, tamoyillari, maqsad va vazifalari, kutubxona – axborot xizmati koʻrsatishning xalqaro miqyosdagi va mamlakatimizdagi huquqiy meyoriy asoslari, kutubxonachi va foydalanuvchilarning ijtimoiy – madaniy jarayondagi teng ishtiroki, mutolaa madaniyatini shakllantirish, axborot

madaniyati, muloqot madaniyati, kutubxonachi va foydalanuvchi hamkorligida kutubxonachining yetakchilik roli, kutubxona – axborot xizmatining shaxsning ijtimoiylashuvidagi o‘rni, yakka tartibda va oilaviy xizmat ko‘rsatish nazariyasi va texnologiyasi asoslarini, mamlakatimizda va xorijda kutubxona – axborot xizmati ko‘rsatishning ustuvor yo‘nalishlarini yoritishga kengroq to‘xtalib o‘tishga harakat qildilar.

O‘quv qo‘llanmasidan foydalanuvchilarga yanada qulaylikni yaratish va tushunishni osonlashtirish maqsadida “Kutubxona – axborot xizmati: nazariyasi va amaliyoti” kursini o‘rganish jarayonida ko‘p qo‘llaniladigan atamalarning izohli lug‘ati ham ilova qilindi. Ayni chog‘da kitob o‘zbek tilidagi dastlabki o‘quv qo‘llanmasi bo‘lganligi uchun uning ayrim nuqsonlardan xoli bo‘lmasligi ham tabiiydir. Shu boisdan o‘quv qo‘llanma haqidagi barcha tanqidiy fikr mulohazalar, taklif - istaklar uchun oldindan minnatdorchilik bildiramiz va kelgusi ishlarda inobatga olamiz.

I. BOB. “Kutubxona – axborot xizmati: nazariyasi va amaliyoti’’ kursining predmeti, tamoyillari, maqsadi va vazifalari.

1.1. “Kutubxona–axborot xizmati: nazariyasi va amaliyoti” kursiga kirish.

1.1.1. “Kutubxona –axborot xizmati: nazariyasi va amaliyoti” kursining kutubxonashunoslik fanlari tizimidagi o‘rni va uning boshqa fanlar bilan aloqadorligi.

“Kutubxona–axborot xizmati: nazariyasi va amaliyoti kursi (keyingi o‘rinlarda “kutubxona–axborot xizmati”) “Kutubxona–axborot faoliyati” mutaxassisligi bo‘yicha kadrlar tayyorlash tizimida alohida o‘rin egallaydi va foydalanuvchilar bilan ishlashning nazariy hamda amaliy muammolarini tadqiq etish esa o‘z navbatida ushbu yo‘nalishda o‘qitilayotgan fanlarning rivojlanishi uchun ham muhim ahamiyatga egadir.Ushbu kursning mazmuni “Kutubxonashunoslik”, “Bibliografiyashunoslik”, “Arxivshunoslik: nazariyasi va tarixi”, “Kutubxona – axborot faoliyatini boshqarish”, “Kutubxona fondlari va kataloglari” kabi kurslar bilan chambarchas aloqadorlikda o‘rganiladi.

“Kutubxona–axborot xizmati” kursida jamiyat hayotida kutubxonalarning ijtimoiy o‘rni va roli, kutubxona – axborot xizmati jarayonining mazmuni, vazifasi singari nazariy qoidalari kutubxonachilarning foydalanuvchilar bilan hamkorligi va ular faoliyatini yo‘naltirishga tatbiqan yanada aniqlashadi.

Kutubxonalarda foydalanuvchilar bilan ishlashning asosiy maqsadi ularning muloqot, ma’lumot va axborotga bo‘lgan talabini to‘la qondirish hamda ehtiyojlarining mazmuni va yo‘nalishiga faol ta’sir ko‘rsatishdan iboratdir.

Uning muvaffaqiyati ko‘p tomonlama kutubxona fondining tashkil etilishi va shakllantirilishiga, ular mazmunining kutubxona an’anaviy va elektron kataloglari tizimi orqali qanchalik chuqur ochib berilganligiga bog‘liqdir.

Shu bilan bir vaqtda kutubxona fondlari va kataloglari bilan ishlash ham foydalanuvchilarga har tomonlama sifatli xizmat ko‘rsatishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. “Kutubxona – axborot xizmati” kursining “Kutubxona fondlari va

kataloglari” kursi bilan bog‘liqligi ushbu yo‘nalishlar rivojlanishiga muvofiqligidan kelib chiqadi.

Kutubxona–axborot xizmati kutubxona–axborot faoliyati jarayonlarini boshqarishning umumiy qonuniyatlariga ham asoslanadiki, ularni bilish mutolaani tashkil etish, ma’lumot va axborotlar bilan ta’minlashni ham ilmiy asosda boshqarishga imkon beradi. Kutubxonashunoslikda kutubxona ishini rejalashtirish va tashkil etish, ular faoliyatini tahlil etish va hisobga olish muammolarining hal etilishi mutolaa va xizmat ko‘rsatishni tashkil etish masalalariga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatish nazariyasi va amaliyotining rivojlanish tarixini chuqur bilish mutolaa madaniyatini shakllantirish, axborotdan foydalanishning bugungi kundagi muammolarini hal qilishga yordam beribgina qolmay, foydalanuvchilar bilan olib boriladigan ishlarning kelajagini oldindan ko‘ra bilish imkonini ham beradi.

“Kutubxona –axborot xizmati” kursini yanada chuqurroq o‘rganishda xorijiy mamlakatlarda kutubxonachilik ishining tarixi, ma’lumotlar va axborotlar bilan ta’minlashning bugungi kundagi holatini bilish alohida ahamiyatga ega ekanligidan tashqari ularning ilg‘or va ijobiy natijalar berayotgan tajribalarini ijodiy qo‘llashga yordam beradi. Bugungi kunda fanlar rivojlanishining muhim qonuniyatlaridan biri ular o‘rtasida uzluksiz integratsiya jarayonlarining kuchayib borayotganligi bo‘lib, kutubxonashunoslik fanlari ham ko‘pgina fanlarning bo‘limlari va mavzulari mazmuniga ko‘ra yaqinligiga qarab hamkorlikda tadqiqot ishlarini amalga oshiradi.

Jumladan, “Kutubxona–axborot xizmati” kursi va “Madaniyat sotsiologiyasi” fanining integratsiyasi jarayonida yangi ilmiy yo‘nalish – mutolaa sotsiologiyasi shakllandi. Mutolaa sotsiologiyasi muloqotning ma’naviy madaniyatni o‘zlashtirish usuli ekanligi, inson ma’naviy dunyosini shakllantirishda kitobning roli, kitob mutolaasi, targ‘iboti va tashviqoti, ommaviy axborot vositalari tizimida kitob va mutolaaning o‘rni, turli ijtimoiy guruhlar mutolaa ehtiyojining mazmuni va xususiyati, foydalanuvchilar qiziqishi shakllanishining ijtimoiy shart-sharoitlari, foydalanuvchilar mutolaasini tashkil etishda kutubxonachining roli

muammolarini tahlil qiladi. Ushbu tahlillar asosidagi tadqiqotlar foydalanuvchilar bilan ishlashning yanada samaraliroq usullarini topish va qo‘llashga yordam beradi. Shu bilan bir paytda kutubxonashunoslikdagi foydalanuvchilar sonining o‘zgarish dinamikasi, foydalanuvchilar qiziqishining o‘zgarish yo‘nalishi, foydalanuvchilar qizikishi va mutolaasi, mutolaa uchun sarflanadigan vaqt, mutolaa va uning turli ijtimoiy guruhlarda namoyon bo‘lish xususiyatlariga oid masalalar madaniyat sotsiologiyasi fanida ham keng o‘rganiladi.

“Kutubxona–axborot xizmati” kutubxonashunoslikning qismlaridan biri sifatida o‘z mazmuniga ko‘ra pedagogika faniga yaqindir. Ta’lim va tarbiya jarayonining yo‘nalishlarini tahlil qilish asosida pedagogika “tarbiya pedagogik jarayon sifatida”, “jamoa tarbiya obyekti sifatida”, “shaxs tarbiya obyekti sifatida” masalalarini o‘rganadiki, bu tushunchalarda uning tomonidan o‘rganiladigan yo‘nalishlar mohiyati aks etadi. Ushbu asosiy pedagogik tushunchalardan kelib chiqqan holda kutubxonashunoslik fanlari tarbiyaviy jarayon qonuniyatlarini o‘rganadi.

Kutubxonalarda foydalanuvchilar bilan ishlash manbalarini tanlash va o‘zlashtirish, mutolaaning mazmuni va xususiyatiga faol ta’sir o‘tkazish, pirovard maqsadi barkamol insonni tarbiyalashdan iborat bo‘lgan pedagogik jarayondir. Shunga ko‘ra kutubxona mutolaaga rahbarlik qilishdan iborat bo‘lgan pedagogik funksiyani amalga oshiradi. Kutubxonalar faoliyatida umumiy uzluksiz ta’lim va mustaqil ta’lim pedagogik qonuniyatlar asosida amal qiladi. Umumpedagogik, umumdidaktik tamoyillar va ilmiy qoidalar foydalanuvchilar bilan ishlash jarayonida keng qo‘llaniladi. Kutubxona – axborot xizmati jarayonida ushbu tamoyillar va qoidalardan foydalanishda ijodiy yondashuvga alohida e’tibor berish talab qilinadi. O‘z navbatida kutubxonada yoshlar mutolaasiga rahbarlik qilishda qo‘lga kiritilgan yutuqlardan pedagogika fani ham faol foydalanadi.

“Kutubxona–axborot xizmati” kursining psixologiya fani bilan o‘zaro aloqadorligi va o‘zaro ta’siri natijasida yangi yo‘nalish – kutubxona psixologiyasi shakllandi. Bu holat shu bilan bog‘liqki ijtimoiy psixologiya, shaxs psixologiyasi yutuqlarini umumlashtirmasdan, mutolaa psixologiyasi va kitob g‘oyasini his

qilmasdan foydalanuvchilar qiziqishi, uning shakllanishi va rivojlanishi sharoitlarini chuqur o‘rganmasdan foydalanuvchilar mutolaasiga rahbarlik qilishning nazariy va amaliy muammolarini hal etish yo‘llarini ishlab chiqish mumkin emas. Foydalanuvchilar bilan ishlashning nazariy va amaliy masalalarini hal etishda ularning qiziqishlari va psixologik xususiyatlarini hisobga olish asosida psixologiya yutuqlaridan keng foydalanish alohida ahamiyatga egadir. O‘z navbatida psixologiya fani hissiy idrok muammolarini tadqiq qilishda kutubxonashunoslikning foydalanuvchilar va kitob mutolaasiga, axborotga bo‘lgan ehtiyoj va uning qondirilishiga oid ma’lumotlarga tayanadi. “Kutubxona – axborot xizmati” kursi bibliografiyashunoslik xususan, tavsiya bibliografiyasi nazariyasi bilan o‘zaro chambarchas aloqadorlikdadir.

Fan va ishlab chiqarishga kutubxona–axborot xizmati ko‘rsatish, foydalanuvchilar mutolaasiga yordam berishda bibliografik metodlar keng qo‘llaniladi. Tavsiya bibliografiyasi foydalanuvchilar mutolaasiga yordam berishning eng muhim vositalaridan biridir. O‘z navbatida bibliografiyashunoslik kutubxonashunoslikning foydalanuvchilarni o‘rganish, ular bilan ishlashning pedagogik – psixologik asoslariga oid ma’lumotlardan keng foydalanadi.

Tavsiya bibliografiyasi va foydalanuvchilar mutolaasiga yordam berish o‘rtasidagi chambarchas aloqadorlik shu bilan taqozolanadiki, foydalanuvchilarning qiziqishlarini o‘rganmasdan turib, ularning ehtiyojlari va talablariga to‘la javob bera oladigan tavsiya bibliografik qo‘llanmalarini yaratish mumkin emas. “Kutubxona – axborot xizmati” axborotlashtirishning axborot ehtiyojlari va axborot xizmatlari ko‘rsatish yo‘nalishlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Ayniqsa, bugungi kunda kutubxona – axborot xizmati axborotlashtirish tizimidagi eng asosiy muassasalardan biri hisoblanadi. Hozirgi paytda yangi axborot texnologiyalarining kutubxonalar hayotiga shitob bilan kirib kelayotganligi natijasida kompyuterlar orqali masofaviy konferensiya o‘tkazish, elektron pochtalardan, axborotlarni tezroq yetkazish maqsadida elektron jurnallardan foydalanish ko‘pchilik uchun yangilik emas.

Internet tizimlari axborot bilan ta’minlash shakllarini takomillashtirish bilan birga kutubxonalarning kishilar hayotida tutgan o‘rnini ham tubdan o‘zgartirib yubordi. “Kutubxona – axborot ximati” kursi kitobshunoslik bilan ham bog‘liq bo‘lib, uslubiy jihatdan kitobning mazmuni, maqsadi, kimlarga mo‘ljallanganligi va boshqa xususiyatlari hamda xossalarini bilishni talab qiladi. Kitobshunoslik o‘z navbatida kutubxonashunoslikning foydalanuvchilar qiziqishlari va ehtiyojlari bo‘yicha nazariy va uslubiy qoidalaridan keng foydalanadi.

Yuqorida ko‘rib o‘tilganidek, foydalanuvchilarga kutubxona – xizmati ko‘rsatish nazariyasi va uslubiyoti kutubxonashunoslikga oid fanlar bilangina emas, boshqa ijtimoiy-gumanitar hamda maxsus fanlar bilan bog‘liqlikda va aloqadorlikda rivojlanadi. Ushbu fanlarning nazariy qoidalari va eksperimental natijalariga asoslanib kutubxona – axborot xizmati nazariyasi takomillashib borishidan tashqari boshqa fanlarning rivojlanishiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

1.1.2. Kursning predmeti va asosiy tushunchalari.

Yuksak ma’naviyatga ega bo‘lgan komil insonni shakllantirish, jamiyat a’zolarining ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayot sohasidagi ulkan o‘zgarishlarga daxldorligi hissini tarbiyalash orqali faolligini oshirish vazifalari kutubxonalarning majmuaviy faoliyati sifatida foydalanuvchilar bilan ishlashni ham muntazam takomillashtirib borishni talab qiladi. U mutolaaga rahbarlik, ma’lumot va axborot bilan ta’minlashni birlashtiradi, mutolaa qonuniyatlarini o‘rganish asosida turli bosma nashrlar, ma’lumotlar, axborotlarni targ‘ib qilish, yakka tartibda va ommaviy ta’sir o‘tkazish vositalari yordamida foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatishning turli-tuman shakllari orqali amalga oshiriladi. Ushbu faoliyatning tarixi, nazariyasi, metodikasi va tashkil etilishining qonuniyatlari “Kutubxona – axborot xizmati” kursining predmetini tashkil etadi.

Kutubxona –axborot xizmatining asosiy mazmunini o‘zaro aloqador bo‘lgan ikki yo‘nalish –foydalanuvchilar mutolaasiga rahbarlik va axborot bilan ta’minlash ifoda etadi. Foydalanuvchilar mutolasini tashkil etish–barkamol avlodni shakllantirish maqsadida ommaviy mutolaa madaniyati mazmuniga ta’sir o‘tkazishning o‘ziga xos tizimidir. Bunday ta’sir o‘tkazish jamiyat ma’naviy

hayotini ijtimoiy boshqarish mexanizmlaridan biri bo‘lib xizmat qiladi va bosma mahsulotlarni nashr etish, tarqatish hamda targ‘ib qilish jarayonlarini muayyan tartibga solish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Foydalanuvchilar mutolaasiga rahbarlik qilish tushunchasi tor ma’noda foydalanuvchilar tomonidan bosma nashrlarni, ma’lumotlarni tanlash, idrok qilish va baholash, mutolaaning mazmuni va xarakteriga ta’sir o‘tkazishning kutubxona – bibliografik tizimidir.

Kutubxonaning butun faoliyati (kutubxona fondini boyitish, kataloglarni tashkil etish va h.k…) orqali namoyon bo‘lsada foydalanuvchilar bilan ishlash turli metodlar va vositalar yordamida amalga oshiriladi. Bu jarayonda adabiyotlar targ‘iboti va tavsiyasi asosiy o‘rinni egallaydi.

Mutolaa madaniyatini shakllantirish foydalanuvchilar bilan ishlashning asosiy yo‘nalishi bo‘lsa, uning nazariyasi – “Kutubxona – axborot xizmati” kursining asoslaridan biridir. Jamiyat taraqqiyotining bugungi bosqichida foydalanuvchilar bilan ishlashning o‘zaro aloqador bo‘lgan metodlari va yo‘nalishlari, vazifalari, tamoyillarini, uning barkamol avlod tarbiyasi, mutolaani tashkil etish va axborot bilan ta’minlash tizimidagi o‘rnini har tomonlama o‘rganish alohida dolzarb masaladir. Foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatish muammosiga majmuaviy yondashuv uni tizimli tahlil qilishni talab qiladi. Bu faoliyatning subyekti, obyekti va vositalari ushbu tizimni tashkil etuvchi, o‘aro ta’sir va aloqadorlikda bo‘lgan tarkibiy kismlar sifatida yuzaga chiqadi. Kursni o‘rganish davomida “mutolaa”, “mutolaa madaniyati”, “bibliografik”, “ma’lumot – axborot xizmati”, “yakka tartibda xizmat ko‘rsatish”, “ommaviy xizmat ko‘rsatish”, “kutubxona muhiti”, “hujjat”, “axborot”, “axborot bilan ta’minlash”, “kutubxona reklamasi”, “kutubxona – axborot xizmati texnologiyasi” singari ko‘pgina tushunchalar qo‘llaniladi. So‘nggi paytlarda “kutubxona marketingi”, “kutubxona menedjmenti”,“kutubxona muloqoti”, “kutubxona konfliktologiyasi”, “kutubxona etikasi” singari tushunchalar ham paydo bo‘ldi.

Axborotlashgan jamiyatning rivojlanishi va kutubxonalarning axborot bilan ta’minlash funksiyasining kuchayishi “axborot madaniyati” tushunchasini shakllantirdi.

Kutubxonalarda telekommunikativ texnika va texnologiyalarning qo‘llanila boshlashi va kutubxona xizmati ko‘rsatishning an’anaviy jarayonlari o‘zgarishi natijasida axborot bilan ta’minlashning yangi shakllari paydo bo‘ldi. Bugungi kunda “virtual abonoment”, “virtual xizmat”, “virtual foydalanuvchi”, “hujjatlarni elektron shaklda yetkazish” singari yangi tushunchalar qo‘llanilmoqda.

Kutubxona–axborot xizmati tizimida faoliyat ko‘rsatuvchilar asosan “foydalanuvchi” va “kutubxonachi”dir. Foydalanuvchi tushunchasi kutubxona – axborot xizmatidan foydalanuvchi barcha jismoniy va yuridik shaxslarga nisbatan (abonoment, tadbir qatnashchisi, kitobxon, jurnalxon) umumlashtirilgan atama sifatida qo‘llaniladi.

Mutolaa–matn orqali qayd etilgan xabarlar, axborotlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan kommunikativ faoliyatdir. Bu murakkab kommunikativ tizim muallif – nashriyot - nashr mahsuloti, uni tarqatish tizimi, targ‘ibot, tavsiya, elektron tizim – foydalanuvchini o‘z ichiga olgan bo‘lib, tizimdagi har bir bo‘lim jamiyat bilan bog‘langan. U yoki bu fan nuqtai nazaridan mutolaa jarayonini o‘rganish kommunikativ tizimdagi qaysi bo‘limning asosiy o‘rinni egallashiga bog‘liqdir.

Kutubxonashunoslikka oid fanlar ushbu tizimdagi “nashr mahsuloti – kutubxona - foydalanuvchilar auditoriyasi” yo‘nalishini o‘rganadi. Tizimdagi nashr mahsuloti – axborot, tavsiya va targ‘ibotning turli-tuman vositalariga, kutubxona – ma’naviy-ma’rifiy va ilmiy muassasalar tizimiga, foydalanuvchilar esa axborot, tavsiya va targ‘ibot ta’siri o‘tkazishga yo‘naltirilgan tinglovchilar tizimiga taalluqlidir. Kutubxona ishi jarayoni kutubxona – nashr mahsulotlari va foydalanuvchilar auditoriyasidan tashqari o‘zaro ta’sir ko‘rsatuvchi murakkab tizimni qamrab oladi.

Foydalanuvchi–axborot, tavsiya, targ‘ibot ta’siri o‘tkazish hamda shu paytning o‘zida tanlangan faol subyekt sifatidagi obyektdir. Turli sotsiologik tadqiqotlarda mutolaaning uzluksizligi, nashr mahsulotlariga munosabatning maqsadiga ko‘ra kishilarni aholining faol mutolaa qiluvchi qismiga kiritish yo‘nalishi yetakchilik qilishi holatlari ham uchraydi. Lekin bu ko‘rsatgichlar o‘zgaruvchan xususiyatga egadir. Mutolaaning doimiyligi va uzluksizligi

kishilarning bo‘sh vaqti va kasbiy faoliyatiga bog‘liq ravishda o‘zgarib turadi. Shuning uchun ham mutolaa xossalariga bog‘liq bo‘lgan asosiy farq qiluvchi belgini aniqlash zarurdir.

Bunday farq qiluvchi belgi - mutolaa shaxsning ma’naviy ehtiyojlarini qondiruvchi faoliyatiga aylanishidir. Ushbu faoliyat jarayonida subyektning ongida uning nashr mahsuloti bilan o‘zaro munosabatlarini tartibga soluvchi mutolaa psixologiyasi shakllanadi. Shunga ko‘ra, foydalanuvchi – o‘ziga xos mutolaa psixologiyasiga ega bo‘lgan, ayni paytda muallif, nashr mahsuloti, uni tarqatish va targ‘ib qilish tomonidan ta’sir ko‘rsatiladigan, o‘zining ma’naviy ehtiyojlariga muvofiq doimiy mutolaa bilan shug‘ullanuvchi ijtimoiy subyektdir.

Kutubxona faoliyati, mutolaa madaniyati, foydalanuvchilar qiziqishini o‘rganishga oid sotsiologik va ijtimoiy – psixologik tadqiqotlar munosabati bilan “foydalanuvchilar auditoriyasi” tushunchasi ham qo‘llaniladi. Foydalanuvchilar auditoriyasi–nashriy axborotlar, jumladan kitoblar va davriy nashrlarning muayyan turidan foydalanuvchi ko‘pchilik foydalanuvchilardir.

Kutubxona foydalanuvchilari auditoriyasi – yakka manbadan (AKM) turli adabiyotlarni olishga yo‘naltirilgan auditoriyalar tizimi hamdir.

Foydalanuvchilarni o‘rganish ular bilan olib boriladigan ishlarni sotsiologik, pedagogik – psixologik jihatdan asoslashga yo‘naltirilgan faoliyat hisoblanadi. Bu kutubxonaning foydalanuvchilar bilan olib boriladigan ishlarining shart-sharoiti va ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, kutubxona ishi samaradorligini baholash uchun asos yaratilishidan tashqari mutolaani boshqarish jarayonida qaytariluvchi aloqani ham ta’minlaydi.

Kutubxonalarda foydalanuvchilarni o‘rganish mutolaa va foydalanuvchilar auditoriyasini o‘rganish tizimida muhim o‘rin egallaydi va uning nazariyasi, tamoyillari, metodlari “Kutubxona – axborot xizmati” kursining alohida bo‘limini tashkil etadi. Foydalanuvchilarni alohida guruhlarga ajratish – ularni mutolaa va foydalanuvchilar psixologiyasini shakllantirishga qat’iy ta’sir o‘tkazish belgilariga ko‘ra guruhlashtirishdir. Foydalanuvchilarni guruhlashtirishda demografik, ijtimoiy-kasbiy, ijtimoiy-psixologik belgilariga ham e’tibor qaratiladi.

Kutubxonalarda adabiyotlarni targ‘ib qilish foydalanuvchilar mutolaasiga yordam berish, ular ongi va hatti-harakatiga ta’sir ko‘rsatish maqsadida nashr mahsulotlari haqida bilimlar va baholarni targ‘ib qilish jarayoni hisoblanadi. Shuning uchun nashr mahsulotlari maxsus kommunikativ vosita sifatida ularda ilgari surilgan turli g‘oyalar, qarashlar, nazariyalar ta’limotlarni ommalashtirish, tushuntirish maqsadida tavsiya va targ‘ib qilishni taqozo etadi.

Adabiyotlarning kutubxona–bibliografik tavsiyasi va targ‘iboti umumiy targ‘ibot faoliyati qonuniyatlariga asoslangan holda amalga oshiriladi.

Kutubxonalarning axborot bilan ta’minlash faoliyati – olimlar, mutaxassislar, talabalar va boshqa foydalanuvchilar guruhlarini ularning qiziqishlari va ehtiyojlariga ko‘ra ta’minlanadigan axborot – bibliografik ta’minot tizimining qanchalik yo‘lga qo‘yilganligi bilan belgilanadi.

Kutubxonalarning foydalanuvchilar bilan ish olib borishdagi ushbu yo‘nalish davlat , ilmiy axborot tizimining alohida qismi hisoblanadi.

Kutubxonada kutubxonachining olimlar va mutaxassislar bilan olib boradigan ish faoliyati ularning tor doiradagi kasbiy axborot ehtiyojlarini qondirish bilangina cheklanib qolmaydi. Bunda foydalanuvchilarga axborot – bibliografiya xizmati ko‘rsatish va ular mutolaasiga rahbarlik qilish unsurlari uyg‘unlashib ketadi.

Kutubxona–axborot faoliyati va foydalanuvchilar mutolaasiga rahbarlik qilishning o‘zaro aloqadorligi foydalanuvchilar bilan ishlashda ular faoliyatini boshqarish mexanizmining jamiyat ma’naviy hayotini ijtimoiy boshqarish qonuniyatlariga bo‘ysunishiga ko‘ra taqozolangandir. Mutolaa jarayonini boshqarish uchun bir tomondan, foydalanuvchilarni nashr mahsulotlari haqidagi axborot bilan ta’minlash, ikkinchi tomondan, foydalanuvchi psixologiyasiga faol ta’sir o‘tkazish, foydalanuvchi qiziqishlarini va didini shakllantirish, manbalarni baholay bilish malakasini rivojlantirish, namunali foydalanuvchi hatti-harakati va hakozolar zarurdir.

Mutolaa jarayonini samarali boshqarish uchun foydalanuvchilar auditoriyasini muntazam o‘rganib borishdan iborat bo‘lgan qaytariluvchi aloqa

ham muhim ahamiyatga ega. Axborot bilan ta’minlash va mutolaaga raxbarlik bir – birini takozo kiladi va o‘zaro aloqadorlikdagi faoliyatda foydalanuvchilarni o‘rganish natijalariga tayanadi.

Foydalanuvchilar bilan ishlash ushbu ikki yo‘nalishni mexanik tarzda birlashtirmaydi. Majmuaviy xususiyatga ega bo‘lgan bir butun faoliyat sifatida u o‘zining metodologik asosiga tayanadi. Ushbu metodologik asoslar ilmiylik, tizimlilik, foydalanuvchilarga yakka tartibda yondashuv kabilardan iboratdir.

Shu bilan birga, mutolaaga rahbarlik (foydalanuvchilarning nashr mahsulotlari bilan ishlashda ongli va faol munosabatlarini rivojlantirish) yoki axborot bilan ta’minlashdagi (tezkorlik, to‘liqlik) ba’zi jihatlar alohida talablarga bo‘ysundiriladi.

Takomillashtirilgan ta’lim-tarbiya asosida yuksak ma’naviyatni shakllantirish, barkamol insonni tarbiyalash, XXI asrda mamlakatimizni rivojlangan mamlakatlar darajasiga ko‘tarish singari o‘zaro aloqador vazifalarni amalga oshirish kutubxonalarning ham asosiy maqsadidir.

Umuman, foydalanuvchilar bilan ishlashning butun tizimi tomonidan amalga oshiriladigan majmuaviy xususiyatga ega bo‘lgan masalalar, xususan, mutolaaga kutubxona – bibliografik rahbarlik va kutubxonaning axborot bilan ta’minlash faoliyati yuqorida ta’kidlangan vazifalarni amalga oshirish zaruratidan kelib chiqadi. Foydalanuvchilar bilan yakka tartibda va ommaviy ish olib borishning ko‘pgina metodlarini asosli uyg‘unlashtirilgan tarzda qo‘llash majmuaviy vazifalarni hal qilishga imkon beradi. Shu bilan bir vaqtda suhbatlar, kitob ko‘rgazmalari, bibliografik sharhlash va boshqa metodlar aniq masalalarning hal etilishiga qarab tavsiya- targ‘ibot yoki axborot xususiyatiga ega bo‘lishi mumkin.

Foydalanuvchilarga kutubxona–axborot xizmati ko‘rsatish-foydalanuvchilar qiziqishlari va ehtiyojlarining qondirilishi, axborot so‘rovlari, mutolaaga rahbarlik, axborot – bibliografik ta’minot singarilar orqali amalga oshiriladi va uni foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatishning tashkiliy shakllari tizimi sifatida ta’riflash mumkin.

Shunday qilib, umumiy maqsad, vazifalar, metodologik tamoyillar asosida birlashgan, o‘zaro aloqadorlikdagi asoslar (mutolaa va foydalanuvchilarni o‘rganish), mazmuniy yo‘nalishlar (foydalanuvchilar mutolaasiga rahbarlik qilish va ularni axborot bilan ta’minlash), tashkiliy shakllar (foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatish) birligidagi majmuaviy faoliyat sifatida foydalanuvchilar bilan ishlash qonuniyatlarini o‘rganish–kutubxona–axborot xizmati kursining predmetini tashkil etadi. Foydalanuvchilar bilan ishlashning turli jihatlarini alohida hamda o‘zaro bog‘liqlikda ko‘rib chiqish bir tomondan, uning har bir unsurining o‘ziga xos yo‘nalish ekanligi, ikkinchi tomondan, o‘zaro aloqadorlikdagi va o‘zaro ta’sir o‘tkazuvchi bir butun faoliyat sifatida ko‘rib chiqishga imkon beradi.

Kutubxonalarda foydalanuvchilarni o‘rganish jamiyatning ma’naviy hayoti, foydalanuvchilar auditoriyasi, mutolaa tizimida, mutolaaga kutubxona-bibliografik rahbarlik–mutolaa madaniyatini tarbiyalash umumdavlat tizimida, kutubxonalarning axborot xizmati – umumdavlat milliy axborotlashtirish tizimida, foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatish – ularni nashr mahsulotlari va axborot bilan ta’minlash tizimida muhim xalqa bo‘lib xizmat qiladi.

II. BOB. Foydalanuvchilarga kutubxona – axborot xizmati ko‘rsatish tamoyillari.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi 42-moddasida ta’kidlanganidek: “Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g‘amxo‘rlik qiladi”. Shuningdek, 29 moddasida: “Har kim fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim o‘zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga esa, amaldagi konstitusiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir. Fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi faqat davlat siri va boshqa sirlarga taalluqli bo‘lgan taqdirdagina qonun bilan cheklanishi mumkin” deb qayd etilgan.

Ularning jamiyat hayotida amal qilishi foydalanuvchilarga kutubxona – axborot xizmati ko‘rsatishning bir qator tamoyillariga asoslanishni talab qiladi. Foydalanuvchilarga kutubxona – axborot xizmati ko‘rsatish tamoyillari – faoliyatning mazmuniga, uslubiyotiga va tashkil etilishiga qo‘yiladigan talablarga nisbatan ilmiy asoslangan qoidalardir. Ushbu tamoyillar bir tomondan, foydalanuvchilarga kutubxona – axborot xizmati ko‘rsatish vazifalariga, ikkinchi tomondan, shaxsning bilimi, e’tiqodi shakllanishi qonuniyatlariga bog‘liq tarzda amal qiladi.

Kutubxonachining ushbu tamoyillarni chuqur bilishi foydalanuvchilar bilan ishlashning metodlari va shakllarini to‘g‘ri qo‘llashiga, ko‘zlangan maqsadlarga erishish samaradorligini oshirish yo‘llarini topishiga imkon beradi.

Foydalanuvchilarga kutubxona – axborot xizmati ko‘rsatish ilmiylik, tizimlilik, majmuaviylik, nashr mahsulotlari, ma’lumotlar va axborotlardan foydalanishda ongli va faol munosabatni tarbiyalash tamoyili, foydalanuvchilarni o‘rganish asosida guruhlashtirilgan tarzda yondashuv tamoyili, ko‘rgazmalilik tamoyili kabilarga tayangan holda amalga oshiriladi.

Ushbu tamoyillar foydalanuvchilarga kutubxona – axborot xizmati koʻrsatish bir butun jarayonining turli tomonlarini aks ettirsada ular bir-birini toʻldiradi, oʻzaro aloqador va bir-birini taqozo qiladi.

2.1. Foydalanuvchilarga kutubxona – axborot xizmati koʻrsatishda ilmiylik tamoyili.

Ilmiylik tamoyili tavsiya qilinayotgan manba mazmunining zamonaviy fan taraqqiyotining rivojlanish darajasiga mos kelishi nuqtai nazaridan yondashuvdir. Ushbu tamoyilga asoslanish kutubxonachidan eng avvalo ilmiy bilishning xarakterli belgilari, alomatlari nimalardan iborat boʻlishini chuqur bilishni talab qiladi.

Odatda bilish amaliyot va qadriyatlarni baholash faoliyati bilan qiyoslanadi. Bilish – bu voqelikning inson tafakkurida aks etishi va takror hosil boʻlish jarayonidir. Uning maqsadi obyektiv haqiqatga erishishdir. Bilish – voqelikning aniq hissiy va tushuncha shaklidagi obrazlar orqali qabul qilinishi, saqlanishi, qayta ishlanishi va tizimga solinishi boʻyicha amalga oshiriladigan faoliyatdir. Kutubxonachi foydalanuvchilarga , ayniqsa, ilmiy faoliyatga qadam qoʻyayotgan foydalanuvchilarga ilmiy bilish jarayoni, bilish bosqichlari, ilmiy bilish shakllari va metodlari haqida ma’lumot bera oladigan darajada ilmiy-falsafiy bilimlarga ega boʻlishi zarur. Bilim bilishning natijasi boʻlib, uning manbai nashr mahsulotlari mutolaasi, axborotlarni tahlil qila bilish va toʻgʻri xulosa chiqarishdir.

Foydalanuvchi shuni anglashi zarurki, bilimlar tizimi muayyan mezonlarga javob bersagina oʻsha ilmiy bilimlar tizimi ilmiy bilim deb tan olinadi.

Ilmiylikning mezonlari quyidagilar hisoblanadi:

1. Obyektivlik yoki obyektivlik tamoyili. Ilmiy bilimlar tabiiy obyektlar mazmunini u qanday boʻlsa shundayligicha ochib berishi bilan bogʻliqdir. Bunda individ manfaatlaridan hamda barcha tabiatdan tashqari kuchlardan begonalashish hodisasi sodir boʻladi. Tabiatni uning oʻzidan kelib chiqqan holda oʻrganish talab qilinadi, shu ma’noda uning oʻzi oʻzini bilishi uchun yetarli boʻladi; predmetlar ham, ularning munosabatlari ham ular qanday holatda boʻlsalar, shundayligicha

oʻrganilishi – tashqaridan hech narsani qoʻshmasdan, ya’ni unga qandaydir bir subyektiv yoki tabiatdan tashqari kuchni aralashtirmasdan oʻrganish zarur.

2. Ratsionallik, aqliy tarzda asoslanganlik, isbot qilinganlik. Kutubxonachi tushuntirishi kerakki, biz kundalik hayotda ayrim fikrlarni bayon qilganimizda kimningdir “fikriga”, “obroʻsiga” tayanamiz. Ilmiy bilimlarda esa biror narsa haqida shunchaki xabar berilmaydi, balki keltirilgan fikrning ma’nosi, mazmunini tasdiqlaydigan zarur negiz, asoslar ham keltiriladi. Bunda yetarli asos keltirish tamoyili amal qiladi.

3. Bilimning oʻziga xos hodisa sifatida uyushtirilishi, uning alohida tizimligi. Bu yerda foydalanuvchilar, gap kundalik oddiy bilimlarni shunchaki tartibga solish toʻgʻrisida emas, balki chuqur anglab yetilgan tamoyillarga koʻra tartibga solish haqida; nazariy tizim haqida ketayotganligini chuqur anglab yetishlari kerak.

4. Sinab koʻrish, tekshirib borish: bu yerda gap ilmiy kuzatuv, amaliyotda mantiq orqali sinab koʻrish toʻgʻrisida boradi. Ilmiy haqiqat amalda tekshiruvdan oʻtgach va tasdigʻini topgach hamma tomonidan e’tirof etiladi.

Kutubxonachi tushuntirishi zarurki, inson bilishini shartli ravishda bir necha turlarga boʻlib oʻrganilishini foydalanuvchilarning har bir guruhi yaxshi bilishi lozim. Bilish oddiy bilish va ilmiy bilishdan iboratdir. Kishilarning odatdagi kundalik hayotlarida borliqdagi predmet va hodisalarni bevosita sezgi a’zolari va tafakkurlari orqali bilishlari oddiy bilishdir. Oddiy bilish kishilarning oʻz hayotiy tajribalari asosida bilish boʻlib, u odatda “sogʻlom fikrlar”da oʻz ifodasini topadi. Oddiy bilish hamma kishilarga xosdir. Ilmiy bilish esa, oddiy bilishdan farqli ravishda borliqdagi predmet va hodisalarning qonuniyatlarini, ularning mohiyatini bilish boʻlib, u odatda ilmiy tadqiqotlar va ilmiy izlanishlar olib borish asosida amalga oshadi. Ilmiy bilish uzoq davom etadigan murakkab va ziddiyatli jarayondir. Ilmiy bilish bilan foydalanuvchilarning ma’lum guruhlari, ya’ni tadqiqotchilar, olimlar shugʻullanishadi.

Foydalanuvchilar tomonidan oʻrganiladigan fanlar qaysi sohaga tegishli ekanligidan qat’iy-nazar, ular borliq va uning turli koʻrinishlari: tabiat, jamiyat,

inson, inson tafakkuri to‘g‘risidagi ilmiy bilish jarayonida vujudga kelgan bilimlar tizimlaridan iboratdir. Ular insonning borliqni bilishi, o‘rganishi va o‘zlashtirishining o‘ziga xos nazariy shakllari bo‘lib, o‘zlarida moddiy va ma’naviy omillarni birlashtiruvchi ko‘p qirrali ijtimoiy hodisadir. Hamma fanlar borliqni ilmiy abstraksiyalarga (mavhumlikka) asoslangan holda nazariy tafakkur shakllari: ilmiy g‘oyalar, ilmiy tushunchalar, kategoriyalar, tamoyillar, muammolar, gipotezalar, nazariyalar va qonunlarda aks ettiradi va ifodalaydi.

Ma’lumki har bir fan sohasida ilmiy izlanishlar olib boruvchi foydalanuvchi (tadqiqotchi) o‘z obyektini o‘rganishga kirishar ekan, o‘rganayotgan predmet yoki hodisa haqidagi bilimlarga birdaniga ega bo‘lmaydi. Buning uchun u bu predmet yoki hodisa ustida ma’lum davr ichida tinmay turli izlanish va tadqiqotlar olib boradi hamda turli xil metodlar va vositalardan foydalanadi, ruhiy va aqliy jarayonlarni boshidan kechiradi. Shundan keyingina u o‘zi tadqiqot olib borayotgan predmet yoki hodisa yuzasidan ma’lum bilimlarni hosil qilishi mumkin. Bunday yangi bilimlar foydalanuvchilarning tadqiqot jarayonida qanday ilmiy metodlardan foydalana bilishlari bilan chambarchas bog‘liq holda shakllanadi.

Fransuz olimi Pyer Laplas ta’kidlaganidek, ilmiy kashfiyotni ochishga yordam bergan “haqiqiy, to‘g‘ri ilmiy metodning fan uchun ahamiyati shu kashfiyotning o‘zidan kam emasdir”.

Metod – eng umumiy ma’noda maqsadga erishish usuli, nazariy tadqiqot va amaliy harakatning muayyan tartibga solingan tamoyillari yig‘indisidir. Ilmiy metodda tadqiqot predmetining mazmuni, uning ichki tabiati ifoda etilganligi uchun muayyan metodga amal qilish foydalanuvchining (tadqiqotchining) xohishiga emas, balki tekshirilayotgan obyekt tabiatiga, ko‘zda tutilgan maqsadga bog‘liqdir.

Demak, bilishning to‘g‘ri metodi, subyekt (foydalanuvchi) xohishining natijasi emas, balki obyektiv dunyo qonunlarining in’ikosi bo‘lmog‘i kerak. Foydalanuvchining (tadqiqotchining) o‘z tadqiqoti jarayonida yangi bilimlarga

erishish uchun qo‘llaydigan turli xil usullari, yo‘llari va vositalari ilmiy bilishning metodlaridir.

Ilmiy bilishning metodlari foydalanuvchining (tadqiqotchining) tadqiqot obyektini bilishi uchun qo‘llagan amaliy va nazariy faoliyat usullaridir.

Kutubxonachi – bu metodlarning ilmiy bilishdagi vazifasi foydalanuvchiga (tadqiqotchiga) o‘rganilayotgan predmet yoki hodisa haqida, uning tabiati va mohiyatini, ularni ifodalaydigan qonun va qonuniyatlarni ochishda yordam berishdan, shu asosda tadqiqotning muvaffaqiyatini ta’minlashdan iborat ekanligini tushuntirib bera olishi zarur.

Ilmiy bilish metodlarini o‘rganish ilmiy dunyoqarashni shakllantiruvchi fan bo‘lgan falsafada metodologiyaning paydo bo‘lishiga olib keladi. Metodologiya ilmiy bilish metodlari haqidagi falsafiy ta’limot sifatida o‘ziga kishilar dunyoqarashi tamoyillari, ularning bir butun amaliy va nazariy faoliyatlariga tatbiqan o‘rganadi.

Metodologiya tushunchasi ko‘p ma’noli bo‘lib, bir o‘rinda borliqni ilmiy bilish va o‘gartirishning metodlari haqidagi nazariyani ifodalasa, ikkinchi o‘rinda u butun ilmiy bilish metodlarining yig‘indisi ma’nosini ifodalaydi. Uchinchi bir o‘rinda esa, metodologiya termini insonning borliqni ilmiy bilishi va o‘zgartirishining eng umumiy metodi ma’nosida qo‘llaniladi.

Metodologiyaga ko‘ra ilmiy tadqiqotlarda qo‘llaniladigan metodlar bir-birlaridan tabiati, xarakteri, qo‘llanish sohalari, darajalariga ko‘ra farqlanadi. O‘z qo‘llanish ko‘lamiga ko‘ra ilmiy metodlarning ba’zilari hamma ilmiy tadqiqotlarda qo‘llanilsa, ba’zilari ko‘pchilik fan sohalarida, uchinchi bir xillari alohida, ayrim fan sohalarida olib boriladigan tadqiqotlardagina qo‘llaniladi.

Hozirgi zamon fanida ilmiy bilishning kuzatish va eksperiment, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, umumlashtirish, abstraksiyalashtirish va konkretlashtirish, tarixiylik va mantiqiylik, ideallashtirish, modellashtirish, formallashtirish singari metodlari mavjuddir. Ilmiy bilishning bu metodlari o‘zaro chambarchas bog‘liqlikda bo‘lib, ular bilishning qaysi bosqichi va qaysi darajasida qo‘llanilishi, o‘zlarining tabiati va xarakterlari bilan bir-biridan farq qiladi.

Bundan tashqari ilmiy bilishda xususiy, alohida metodlar ham mavjud bo‘lib, ular umumiy ilmiy metodlardan farqlanadilar va aniq fan metodlari deyiladi. Masalan, texnika fanlarida grafik metod; tarix, adabiyotshunoslik va tilshunoslik fanlarida qiyosiy tarixiy metod; san’atshunoslik fanlarida romantizm va realizm kabi xususiy aniq metodlar qo‘llaniladi. Ilmiy bilimlar rivojlanishida muayyan bosqichlarni bosib o‘tadi va bu bosqichlar ilmiy bilishning shakllari deyiladi. Ilmiy bilishning bunday shakllarining asosiylarini ilmiy g‘oya, badiiy g‘oya, muammo, gipoteza, nazariya va ilmiy bashorat tashkil etadi. Bilish jarayonlari haqida foydalanuvchilarga yo‘nalish berishda ijtimoiy bilish va uning o‘ziga xos xususiyatlari haqida ham muayyan tasavvur xosil qilinishi zarur.

Ijtimoiy bilishning mohiyati shundaki, u kishilarning (ya’ni har bir foydalanuvchining) jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy faoliyatlarining mavjudlik shakllari bo‘lgan munosabatlarining in’ikosidan iboratdir. Ijtimoiy bilish bunda kishilar ijtimoiy-amaliy faoliyatlari bilan, bu munosabatlar sohibi bo‘lgan jamiyatdagi kishilarning bilim darajalari bilan bog‘liq bo‘ladi.

Ijtimoiy bilish faqat jamiyatdagi moddiy-ijtimoiy faoliyatlar va munosabatlarni hamda ularning qonuniyatlarini bilishdangina iborat bo‘lmasdan, balki jamiyatdagi ma’naviy, mafkuraviy faoliyatlar va munosabatlarni, ularning qonuniyatlarini bilishni ham o‘z ichiga oladi. Ijtimoiy bilish, shu bilan birga, insonning o‘zini ham, uning tabiatdagi va jamiyatdagi o‘rnini, insonning taqdiri, uning hayotining ma’nosini va mazmunini bilishdan ham iboratdir.

Kutubxonachi foydalanuvchilarning ijtimoiy bilishni yuzaga keltiradigan asosiy omillardan biri ehtiyojlar va manfaatlar ekanligini tushunib yetishlari uchun yordam berishi kerak. Chunki, har qanday ijtimoiy bilish jamiyat ijtimoiy ehtiyojlari bilan, jamiyatdagi kishilarning moddiy va ma’naviy manfaatlari bilan uzviy bog‘liq tarzda yuzaga keladi. Shuning uchun ham har bir foydalanuvchi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ulkan ijobiy o‘zgarishlar, turli yo‘nalishlardagi vazifalarning bajarilishi kishilarning anglangan ehtiyojiga aylanishi bilan chambarchas bog‘liq ekanligini tushunib yetishi kerak. Ilmiylik

tamoyiliga asoslangan holda faoliyat yuritishda ilm-fan sohasidagi yetakchi olimlar, mutaxassislar bilan uchrashuvlar, muntazam ravishda suhbatlar tashkil etish, ilmiy faoliyatga oid manbalarni, axborotlarni tavsiya etish orqali ham kutubxona-axborot xizmatining ushbu yo‘nalishining rivojlanishini muayyan darajada ta’minlash mumkin.

2.2. Foydalanuvchilarga kutubxona–axborot ximati ko‘rsatishda tizimlilik tamoyili

Foydalanuvchilar bilan ta’limiy, tarbiyaviy, axborot ta’minotiga oid ishlar olib borish o‘zining xususiyati va qamroviga ko‘ra farq qiladi. Agar foydalanuvchilar tarkibi juda xilma xil ekanligi hisobga olinadigan bo‘lsa ular bilan ish olib borish tizimli tarzda tashkil etilishi zarur bo‘ladi. Hatto eng yaxshi kitoblarni mutolaa qilishga tizimli yondashmaslik o‘rganilayotgan muayyan masala uchun keragidan ortiq vaqt va kuch sarflashni talab qiladi. Mutolaaning muayyan izchillikda, muntazam, ketma-ketlikda amalga oshirilishi bilimlarni ongli ravishda o‘zlashtirish, qimmatli vaqtni tejashga imkon beradi. Bundan tashqari muayyan tizimga solinmagan, turli parchalarni umumiy matndan ajratib o‘rganish mustahkam bilim bermaydi, ma’rifiy dunyoqarashni shakllantirmaydi. Bosma nashr mahsulotlari va axborotlarning mazmuniga ko‘ra mantiqiy aloqadorlikni chuqur anglash orqaligina foydalanuvchilarda mustahkam e’tiqod shakllanishi mumkin. Kutubxona – axborot xizmati ko‘rsatishda foydalanuvchilarda eng avvalo mantiqiy izchillikka amal qilish malakasi shakllantirilishi kerak. Ma’rifiy dunyoqarash bilimlarning bosqichma-bosqich yig‘ilishi va ularning e’tiqodga aylanishi orqali hosil bo‘ladi.

Turli foydalanuvchilarda mutolaa uzluksizligi va izchilligi bir xil bo‘lmaydi va bu foydalanuvchining shaxs sifatidagi psixologik o‘ziga xosligi, uning mutolaa maqsadi va motiviga, qiziqishlariga bog‘liq bo‘ladi. Bunda umumta’lim va maxsus tayyorgarlik darajasi alohida ahamiyatga egadir.

Kutubxonachi foydalanuvchilarning bosma nashr mahsulotlari, turli ma’lumotlar va axborotlarning boshqa manbalardagi mavzular bilan ichki aloqadorligiga asoslanishi ko‘nikmasining shakllanishiga asosiy e’tiborni qaratishi kerak.

Mutolaaning muntazamliligi va tizimliligi u yoki bu mavzuning o‘ziga xosligi va mazmuni tomonidan belgilanadi. Kutubxonachi foydalanuvchiga avval yengilroq, so‘ngra jiddiy va qiyinroq manbani tavsiya etadi. Bunday yo‘l bilish jarayonining odiydan murakkabga tomon olib boruvchi qonuniyatlariga ko‘ra taqozolanadi. Kutubxonachilar foydalanuvchilarga manbalarni tavsiya qilishlarida oddiydan murakkabga, eng quyi bosqichdan oliy bosqichga tomon rivojlanish tamoyiliga amal qilishlari kerak. Shuningdek, bosma nashr mahsulotlari, ma’lumotlar, axborotlarni tavsiya etishda faqat ijtimoiy yoki faqat tabiatshunoslik fanlariga e’tibor qaratmasdan foydalanuvchilar ongida boshqa fanlar bilan ham aloqadorlik mavjud ekanligi haqida fikr hosil qilinishi kerak.

2.3. Foydalanuvchilarga kutubxona – axborot xizmati ko‘rsatishda majmuaviylik tamoyili.

Foydalanuvchilarga kutubxona – axborot xizmati ko‘rsatishda majmuaviy yondashuv uch darajada amalga oshiriladi:

1) bir butun ta’lim-tarbiya tizimi darajasida;

2) ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimi darajasida;

3) alohida olingan har bir kutubxona yoki kutubxonalar tizimi darajasida.

Majmuaviy yondashuv muayyan hududda joylashgan klub, kinoteatr, tetar, muzey tomonidan o‘tkazilayotgan tadbirning kutubxona – axborot xizmati ko‘rsatish texnologiyalari va metodlari tomonidan yanada to‘ldirilishi, boyitilishidir. Masalan, muzey tomonidan “Amir Temurning boshqaruv, bunyodkorlik, madaniyat va ilm-fan taraqqiyotida tutgan o‘rni” mavzusida ilmiy-amaliy anjuman o‘tkaziladigan bo‘lsa, kutubxona ushbu mavzudan kelib chiqqan holda quyidagi yo‘nalishlarda adabiyotlar ko‘rgazmasini tashkil etishi mumkin:

1. Amir Temur boshqaruvida qonunchilik, rahbarlik tamoyillari va mashvarat.

2. Amir Temur va temuriylar davrida ilm-fan, san’at va adabiyotning rivojlanishi.

3. Amir Temur diplomatiyasi.

4. Amir Temur davrida hunarmandchilik va savdo.

5. Temur va temuriylar davrida davolash muassasalari.

6. Amir Temur muvaffaqiyatlarining ma’naviy omillari.

7. Amir Temur davlati va yagona Turkiston g‘oyasi.

8. Amir Temur davrida bog‘ yaratish san’ati.

Ushbu ko‘rgazmada “Temur tuzuklari”, Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma”, I.Mo‘minovning “Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli” asarlari, xorij va mamlakatimi tarixchilari hamda yozuvchilarning ko‘plab asarlarini aks ettirish mumkin.

Hududda faoliyat ko‘rsatayotgan bir qancha madaniy-ma’rifiy muassasalarining mavjud imkoniyatlarini majmuaviy tarzda birlashtirish tadbir samaradorligini yanada oshirishga imkon beradi. Majmuaviy tarzda yondashishda tasviriy san’at namunalaridan, turli ashyolardan, badiiy, hujjatli filmlardan parchalar berilishi uning tarixiy, badiiy-estetik, tarbiyaviy ta’sirini oshirishga yordam beradi.

2.4. Bosma nashr mahsulotlari, ma’lumotlar va axborotlardan foydalanishda ongli va faol munosabatni tarbiyalash tamoyili.

Nashr mahsulotlari, ma’lumotlar, axborotlardan foydalanish, mutolaa jarayonida ongli va faol munosabat tamoyilining qo‘llanilishi ilmiy bilish qonuniyatlariga asoslanadi. Demak, o‘zining maqsadi va xususiyatiga ko‘ra bilish jarayoni bo‘lgan mutolaa foydalanuvchilardan izchillik, onglilik, faol tafakkur yuritishni talab qiladi.

Bilim manbai sifatida mutolaaning samaradorligi insonning shunchaki o‘qishiga emas, uning qanday o‘qishiga qarab belgilanadi. Shuning uchun ham

mutolaa tafakkurga, mazmunning umumlashtirilishiga va taqqoslashga asoslanishi kerak. Muloqot jarayonida onglilik darajasi va ijodiy faollikka koʻra foydalanuvchilarning uch guruhi ajratib koʻrsatiladi: Birinchi guruh uchun nashr mahsuloti, maʼlumot va axborotga nisbatan passiv munosabat mavjud boʻlib, tafakkurning yetarli darajada rivojlanmaganligi, oʻz shaxsiy "men"ini mutolaa qilinayotgan manba mazmunidan ajrata olmasligi, tanqidiy munosabatning shakllanmaganligi xosdir. Ikkinchi guruh foydalanuvchilar uchun mutolaa jarayonida manbalarga faol munosabat shakllangan, rivojlangan abstrakt tafakkur mavjud boʻlgan holat xos boʻlib, mutolaa qilingan manbani tahlil qila oladigan, taqqoslaydigan, muallif bilan munozaraga kirisha oladigan, manbalar orqali olgan bilimini amaliy faoliyatida qoʻllay oladigan darajaga yetgan boʻladi. Lekin ushbu guruh foydalanuvchilar oʻz tafakkurining oʻzgartiruvchi kuchini anglab yetmagan, manbalar mazmunini chuqurlashtirish, rivojlantirish, yangi gʻoyalarni yaratish darajasiga yetmagan boʻladilar. Uchinchi guruh foydalanuvchilar manba mazmunini anglab yetishlaridan tashqari faol rivojlantirish asosida amaliy maqsadlar yoʻlida foydalana oladilar. Ular uchun mutolaa ijodiy tadqiqot xususiyatiga ega boʻla boradi. Mutolaa madaniyatining muhim koʻrsatgichlaridan yana biri mutolaaning shunchaki qiziquvchanlikdan tubdan farqlanib, uning bilish va maʼrifiy dunyoqarashlik motivining rivojlanishidir.

Kutubxonachi foydalanuvchilarni ularning umumtaʼlim, maxsus tayyorgarlik darajasi, tafakkur erkinligining oʻz hayotlarida va jamiyat hayotida qanchalik ahamiyatga ega ekanligini ongli ravishda anglashlari sari yoʻnaltira bilishi kerak.

Kutubxonachining masʼuliyatli vazifalaridan yana biri – foydalanuvchini zarur nashr mahsuloti, maʼlumot yoki axborotni mustaqil, tejamkor vositalar orqali topa bilish, oʻz imkoniyatlari va qiziqishlariga mos keluvchi shaxsiy samarador mutolaa tizimini shakllantira bilishiga oʻrgatishi kerak.

Ushbu maqsadlarda kutubxonalar tizimli tarzda kutubxonashunoslik va bibliografiya, axborotshunoslikka oid bilimlarni ham keng targʻib qilishlari kerak.

Bundan asosiy maqsad foydalanuvchilarga ma’lumot – bibliografiya tizimi, axborot xizmati haqida bilim berish, kerakli ma’lumotlar va axborotlarni topish metodikasini, ilmiy, maxsus va badiiy adabiyotlar bilan ishlashning sinalgan va samarali usullarini o‘rgatishdir.

2.5. Kutubxona–axborot xizmati ko‘rsatishda foydalanuvchilarni o‘rganish asosida guruhlashtirilgan tarzda yondashuv tamoyili.

Foydalanuvchilarga kutubxona – axborot xizmati ko‘rsatishda kutubxonachilar muntazam tarzda ularning yoshi, kasbi, ma’lumoti, millati, psixologik holati bilan bog‘liq bo‘lgan vaziyatlarda muloqotda bo‘ladilar. Ushbu xususiyatlar nashr mahsulotlarini, ma’lumotlarni, axborotlarni tinglash va mutolaa qilishda muayyan o‘ziga xoslikni vujudga keltirganligi uchun ularning ehtiyojlari, so‘rovlari, qiziqishlarini alohida hisobga olishlari zarur. Shuning uchun ham kutubxonachi foydalanuvchilarni chuqur o‘rganish asosida ularga xizmat ko‘rsatishning mazmuni, metodlari, tashkiliy tomonlarini guruhlashtirilgan tarzda olib borishi kerak.

Guruhlashtirilgan tarzda yondashuvning eng muhim va murakkab jihati foydalanuvchilarning muayyan ijtimoiy-kasbiy va demografik guruhlarga mansubligini aniqlashdir. Chunki, jamiyat taraqqiyoti jarayonida uning ijtimoiy tizimi ham o‘zgarib boradi. Bugungi kunda mamlakatimining ijtimoiy-kasbiy tizimida tadbirkorlar, kichik va o‘rta biznes vakillari, fermerlar, xizmat ko‘rsatish sohasi xodimlari, ishlab chiqarish sohasi xodimlari, turli mutaxassislar, boshqaruv sohasi xodimlari, intelligensiya vakillari faoliyat ko‘rsatmoqdalar.

Kutubxonachilar foydalanuvchilarga chuqurlashtirilgan tarzda xizmat ko‘rsatishda malaka darajasi, kashfiyotchilik va yangiliklar yaratishi, tadbirkorligi, innovatsion texnologiyalardan foydalana bilishi kabi omillarga ham e’tibor berishlari kerak.

Shuningdek, kutubxonachi foydalanuvchining qiziqishi, uning mutolaa faoliyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi individual va ijtimoiy-psixologik o‘ziga xosligini ham hisobga olishi zarur.

Nashr mahsulotlari, ma’lumotlar va axborotlar mazmunini qabul qilishda foydalanuvchining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda kutubxonachi unga tafakkurini yanada rivojlantirishga xizmat qiladigan manbalarni tavsiya qilishi kerak. Foydalanuvchilarni guruhlarga ajratishda ilmiy asoslanganlik mutolaaga rahbarlik va kutubxona – axborot xizmatini keng yoyishning zaruriy shartidir.

Foydalanuvchilarga guruhlashtirilgan tarzda yondashish ularning qiziqishlarini har tomonlama hisobga olishga asoslanadi. Foydalanuvchilar qiziqishi, ularni kutubxonaga jalb etish, ta’limiy, tarbiyaviy, axborot ta’siri o‘tkazish, ular bilan ish olib borish samaradorligini oshirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omildir. Foydalanuvchilarning mavjud qiziqishlarini aniqlash va hisobga olish kutubxonachiga nisbatan qo‘yilgan talablarning o‘ta muhim jihati hisoblanadi.

Uning boshqa muhim yo‘nalishlaridan yana biri kutubxonachi foydalanuvchi qiziqishining oddiy kuzatuvchisi emas, tarbiya maqsadlaridan kelib chiqqan holda foydalanuvchi qiiqishining shakllanishiga faol ta’sir ko‘rsata oladigan shaxs hamdir. Foydalanuvchi qiziqishi-harakatlanuvchi, rivojlanuvchi faollik bo‘lib, quyi bosqichlarda qiziquvchanlikdan, oddiy mashg‘ulotdan iborat bo‘lsa, yuqori bosqichlarda onglilik, irodaviy sifatlarga ega bo‘lib, tashabbuskor qiziqish darajasiga yetadi.

Kutubxonachining foydalanuvchilar qizikishiga ta’sir ko‘rsatishi odatda quyidagi yo‘nalishlarda yuz beradi:

1) mavjud qiziqishlarni aniqlash, baholash va yanada rivojlantirishni tashkil etish;

2) yangi qiziqishlarni shakllantirish, ularni mustahkamlash va kuchaytirish;

3) qayta tarbiyalash orqali nomaqbul qiziqishlarni bartaraf etish, yangi yo‘nalishdagi qiziqishlarni shakllantirish.

Foydalanuvchilar qiziqishining rivojlanishi bir tomondan nashr mahsulotlari, ma’lumotlar, axborotlarning mazmuniga bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan mutolaani tashkil etishning metodlarini to‘g‘ri qo‘llay bilishga bog‘liqdir.

2.6. Foydalanuvchilarga kutubxona–axborot xizmati koʻrsatishda koʻrgazmalilik tamoyili.

Koʻrgazmalilikning mohiyati oʻrganilayotgan obyektning hissiy qabul qilinishi va uning asosida aniq koʻrgazmali obrazlar koʻrinishidagi tasavvurning hosil boʻlishidir. Koʻrgazmalilik tamoyiliga amal qilinganda eshitish organlari bilan bir qatorda koʻrish organlari ham jalb etiladi. Shuning uchun ham xalqimizda “yuz marta eshitgandan koʻra bir marta koʻrgan maʼqul” degan maqol juda oʻrinli qoʻllaniladi. Koʻrgazmalilik oʻzlashtirilgan bilim, koʻnikma va malakaning foydalanuvchilar xotirasida uzoq vaqt saqlanib qolishiga yordam beradi.

Kutubxonachining foydalanuvchilar va turli manbalar bilan ishlashidagi tamoyillardan biri sifatida qoʻllaniladigan koʻzgazmalilik obyektiv zarurat tarzida bilish jarayoni qonuniyatlaridan kelib chiqadi va jonli mushohadadan abstract (mavhum) tafakkur sari harakatlanadi. Voqelikning mushohada etilishi, hissiy bilish – bilimning faqat boshlangʻich pogʻonasi boʻlib, undan abstrakt tafakkurga va amaliyotga tomon rivojlanishi bilish jarayonining oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga rivojlanishga asoslangan doimiy yoʻlidir.

Akademik I.P.Pavlovning oliy nerv faoliyati fiziologiyasi haqidagi taʼlimotiga koʻra, birinchi va ikkinchi signal tizimlari inson ongi psixik faoliyatining fiziologik negizi hisoblanadi. Maʼlumki, birinchi signal tizimi mohiyat eʼtibori bilan odamda ham, hayvonlarda ham bir xildir. Birinchi signal tizimining faoliyati bosh miya katta yarim shari qobigʻida betaraf qoʻzgʻatgichlarga shartli reflekslar hosil qilishdan iborat. Hayvonlarning doimo oʻzgarib turuvchi tashqi muhitga moslashuviga imkon beruvchi birinchi signal tizimi borliqni hissiy inʼikos ettirishning fiziologik asosi hisoblanadi. Muayyan tabiiy qoʻzgʻatgichlar (rang, taʼm, xid) mazkur tizimning signallari boʻlib ximat qiladi.

Odam esa psixik faoliyatning fiziologik mexanizmi qoʻshimcha ikkinchi signal tizimi bilan ish koʻradi. Bunda til birligi – soʻz signal vazifasini bajaradi.

Ana shu ma’noda so‘z turli narsalar va ularning turli belgi, xossa hamda sifatlari aniq qo‘zg‘atgichlarning ifodalovchisidir.

So‘z ikkinchi tartibdagi qo‘zg‘atgich hisoblangani uchun aniq qo‘zg‘atgichlarni ifodalovchi, “signallar signali” sanaladi.

Sezgi, hissiy qabullash (idrok) va tasavvurlarda aks etgan narsa va hodisalar nutq, so‘zlar tufayligina narsalardek ifodalanadi. Tashakkurning moddiy tashuvchisi bo‘lgan tovushli belgilar tizimi – so‘zlar keng ma’noda olganda til kishilar o‘rtasida muomala hamda fikr almashuvning zarur quroli bo‘lish bilan bir vaqtda tushuncha, abstraksiyalar ifodalanadigan muhim vosita hamdir.

Shunga ko‘ra, foydalanuvchilarga kutubxona – axborot xizmati ko‘rsatishda adabiyotlarni tavsiya etish birinchi signal tizimidan foydalanish bosqichida emas, jonli so‘z, nutq orqali ifodalanuvchi ikkinchi va bilish faoliyatining uchinchi bosqichi bo‘lgan amaliyot darajasida bo‘lishi lozim.

Ko‘rgazmalilik tamoyilining asosiy maqsadi turli bosma nashr mahsulotlari, ma’lumotlar va axborotlarda ifodalangan maqsad, mazmun, ilmiy va badiiy qimmatni ochib berishdan iborat bo‘lib, ushbu maqsadga erishish faqat “sof” ko‘rgazmalilik orqali emas, so‘z orqali mumkin bo‘ladi.

Kutubxonachi so‘z va nutq orqali foydalanuvchilar diqqatini muhim, dolzarb va ayni vaqtda eng zarur nashr mahsulotlariga, ma’lumotlar va axborotlarga yo‘naltiradi. Ko‘rgazmalilik va so‘z uyg‘unligi ushbu turli manbalarga qiziqishni yanada faollashtirishi va samaradorligini oshirishi kutubxona – axborot xizmati amaliyotida ko‘p bora isbotlangan.

Ko‘rgazmalilik, ayniqsa ochiq kitob fondi sharoitida alohida namoyon bo‘ladi. Kutubxona–axborot xizmatining kafedra tizimi sharoitida foydalanuvchilarning nashr mahsulotlari va boshqa manbalar bilan bevosita aloqadorlikda bo‘lmaganligi uchun kutubxonachi foydalanuvchi bilan suhbat paytida uni kutubxona fondi bilan tanishtirish imkoniyatiga ega emas.

Ochiq nashr mahsulotlari va ma’lumotlar fondi sharoitida esa kutubxonachi, fond, foydalanuvchi o‘rtasida hech qanday to‘siq mavjud emas va natijada bevosita o‘zaro muloqot o‘rnatish uchun qulay sharoit yaratiladi.

Umuman olganda turli vositalarni o‘z vaqtida va uyg‘un tarzda qo‘llash asosida tashkil etilgan har bir tadbir, taqdim etilgan nashr mahsuloti, ma’lumot, tavsiya etilgan axborot foydalanuvchilar tomonidan faol, hissiyot bilan qabul qilinadi.

Foydalanuvchilarga kutubxona–axborot xizmati ko‘rsatishda yuqorida ko‘rib chiqilgan har bir tamoyil o‘ziga xoslikka ega bo‘lsada, ular o‘zaro aloqadorlikda bo‘lib, bir-birini to‘ldirgan holda bir butun tizimni tashkil etadi.

Ushbu tamoyillarning har biri alohida holda foydalanuvchilarga kutubxona – axborot xizmati ko‘rsatishda maqsadga erishish uchun yetarli emasdir. Faqat barcha tamoyillarga majmuaviy tarzda amal qilish asosidagina kutubxona – axborot xizmatining samaradorligini oshirish mumkin.

III. BOB. Kutubxona – axborot xizmati ko‘rsatishning maqsad va vazifalari.

3.1. Barkamol inson tarbiyasi–kutubxona-axborot xizmati ko‘rsatishning asosiy maqsadi.

Kutubxona–axborot xizmati ko‘rsatishning maqsadi jamiyatning maqsadidan kelib chiqadi. Shunga ko‘ra, kutubxona – axborot xizmatining asosiy maqsadi – fanning turli sohalariga oid bosma nashr mahsulotlari va axborotlarni mutolaa va tahlil qilish orqali foydalanuvchilarda komillikka intilish tuyg‘usini uyg‘otishdir.

Islohotlar Strategiyasida belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirish jamiyat a’zolarining qanday intellektual salohiyatga ega ekanligi, qanday ideallarga amal qilishi, ma’naviy yetukligi darajasiga bog‘liqdir. Shu bois foydalanuvchilarga kutubxona – axborot xizmati ko‘rsatish sifatini oshirish, islohotlarni amalga oshirishda faol qatnashuvchi, daxldorlik tuyg‘usiga ega bo‘lgan avlodni tarbiyalash muhim vazifa hisoblanadi.

Jamiyatimizning bugungi taraqqiyoti taqdirini ma’naviy jihatdan yetuk insonlar hal qiladi. Fuqarolarning barcha sohalar bo‘yicha bilimlarni, murakkab texnologiyalarni egallaganligi, yangi g‘oyalar va texnologiyalarni yaratishga intilishi, axloqiy pokligi, mustaqil erkin tafakkur yuritishi ma’naviy barkamollikning zaminidir.

Kutubxona – axborot xizmati jarayonida quyidagi yo‘nalishni kuchaytirish orqali barkamol avlod tarbiyasida kutubxonachilar o‘zlarining munosib hissasini qo‘shishlari mumkin:

1) Kutubxona fondida ma’naviy – axloqiy mazmundagi saralangan manbalarning mavjud bo‘lishiga erishish va foydalanuvchilarga tavsiya qila bilish;

2) Kutubxonada tarbiyaviy jarayonlarning ommaviy, guruhli va yakka tartibdagi shakllarining muntazam va ijobiy natijali bo‘lishi;

3) Kutubxonalarning foydalanuvchilar bilan muloqotining doimiy va sifatli tarzda amalga oshirilishi, bilimli, o‘z ishining fidoyilari bo‘lgan mutaxassislar bilan ta’minlanganligi;

4) Mahalliy ziyolilarning faol qatlamining uyushganligi va kutubxonachilar bilan hamkorligi;

5) Kutubxonalarning boshqa ma’naviy, tarbiyaviy muassasalar bilan muntazam hamkorligining yo‘lga qo‘yilganligi.

Komil inson tushunchasi ilk marta o‘rta asrlarda kelib chiqqan bo‘lib, musulmon Sharqida, asosan, islomiy nuqtai nazardan ta’riflab kelingan. Aslida “Komil inson” tushunchasining dunyoviy mazmuni borligini ham e’tibordan soqit qilish mumkin emas.

“Komil inson” tasavvuf adabiyotida ko‘p marta tilga olinib munozaralarga sabab bo‘lgan va bu haqda maxsus kitoblar ham yozilgan. Shulardan Ibn al-Arabiy, Husayn Voiz Koshifiy, Sayyid Abdulqodir Geloniy, Aziziddin Nasafiylarning risolalarini tilga olib o‘tish mumkin. Ayniqsa Azizidin Nasafiyning “Komil inson”, “Maqsadi Aqso”, “Zubdat ul-Haqoyiq” nomli risolalarida komil inson masalasi insonga aynan hayotiy odamga xos belgilar, axloqiy sifatlar nuqtai nazaridan yondashgan holda yoritilgan.

Aziziddin Nasafiyning komil insonga bergan ta’rifiga ko‘ra, unda to‘rt narsa: yaxshi so‘z, yaxshi fe’l, yaxshi axloq va maorif kamolga yetgan bo‘lishi kerak. Nasafiy nazarida komil inson hayotdan tashqari bo‘lgan allaqanday mavhum zot emas, balki real odamdir. Yaxshi sifatlarni egallab borgan odam shunday martabaga ko‘tarila oladi. Ikkinchi xulosa shuki, komil inson martabasi tariqat va riyozat yo‘li bilan qo‘lga kiradigan yuksak martabadir.

Tasavvuf ta’limotining komil inson haqidagi fikrlarini jamlasak, quyidagi xulosalar kelib chiqadi:

1) Komil inson insonlar jamiyati ichidan yetishib chiqadigan mo‘tabar zotdir. U azaldan martabasi aniq bo‘lgan ruh emas, balki ma’naviy-axloqiy poklanish jarayonida kamolga erishgandir;

2) Shuning uchun har bir shaxs komillikka intilishi va bu yo‘lda muayyan darajaga erishishi mumkin;

3) Komillikning oliy belgisi Haq yo‘lidan borib, xalqqa foyda keltirishdir.

Tasavvuf ta’limotiga ko‘ra insonning so‘zlari va faoliyati uchun oldindan belgilab qo‘yilgan o‘lchovlar mavjud emas. Bilim va boylikka ega bo‘lish odamning say-harakatiga bog‘liq, odam qancha ko‘p g‘ayrat qilsa, bilimi va mol-mulki shunchalik ortib boradi.

Tasavvuf ta’limotida so‘fiylarning amaliy, ruhiy-psixologik mashqlari, o‘z-o‘zini tarbiyalash va chiniqtirish tadbir-usullari ham shakllantirilgan. Shariat, tariqat, ma’rifat, haqiqat tushunchalariga oid qarashlar tizimi qaror topib, tasavvuf alohida ilm sifatida shakllandi.

4) Ushbu talimotga ko‘ra ruhiy kamolot yo‘lining mohiyati, bosqichlari uning namoyondalari tomonidan yoritib berildi.

Shariat–musulmonchilik kamolotining asosi, Rasulolloh s.a.v. ning aytganlari, qat’iy intizom, avomga ham, xosga ham birday tegishli bo‘lgan yo‘ldir.

Tariqat–bashariy vujuddan qutulib, ruhiy kamolotga muyassar bo‘lishga intiluvchi xoslar yo‘li bo‘lib, uning poydevori irfon va g‘aybga oshnolik talabidan iboratdir.

Ma’rifat (arabcha “arafa” – bilmoq so‘zidan yasalgan) tariqatning hosilasi va bevosita davomidir. Tasavvuf ahli nazarida ma’rifat shubhaga zarracha o‘rin qoldirmaydigan ilmdir. Ularning fikriga ko‘ra ochilmagan barcha siru-asrorlar Allohga tegishli bo‘lib, Alloh barcha hikmatlarning jamul-jami, bizning bilimlarmiz uning tafsiri, sharxidir. Demak Allohni bilish uchun tafsirdan buyuk haqiqatga tomon intilish kerak.

Haqiqat – ruhiy, haq yo‘lidan xabar beruvchi kishilar yo‘li bo‘lib, Allohning jamolini ko‘rish uchun intilish, jondan kechib, ishq sharobini ichishga tayyor bo‘lgan alohida shaxslarning tanlangan yo‘lidir. Tasavvufda inson bilimlari uchga bo‘lib o‘rganiladi: birinchisi –aqliy-hissiy bilimlar, ikkinchisi – hol ilmi, uchinchisi – sirru-asror ilmidir. Birinchi ilm zohiriy fanlar bilan shug‘ullanadigan kishilar ilmi bo‘lsa, ikkinchi ilm hol martabasiga ko‘tarilgan kishilar ilmi hisoblanadi. Uchinchi ilm –avliyolar ilmidir. Bu ilm muqaddas ruhlar orqali keladi, shu’la, nur ko‘rinishida qalbga kiradi.

Tasavvuf vakillari bilimni uchga – ilm ul-yaqin, ayn ul-yaqin va haq ul-yaqin bosqichlariga ajratadi.

Birinchi bosqich (ilm ul-yaqin) kitobiy, tahliliy bilim, ikkinchi bosqich (ayn ul-yaqin) o‘z ishtirokidagi tajribaviy bilim, uchinchi bosqich (haqq ul-yaqin) o‘zi tajriba vositasiga aylanib, haqiqatni anglash bilimidir. Bu holat shunday tushuntiriladiki, birinchi bosqichda “olov issiq va kuydiradi” deb aytganlariga ishonish, ikkinchi bosqichda olovning issiq va kuydiruvchi ekanligini sinab ko‘rish, uchinchi bosqichda olovda yonish orqali olovning xususiyatiga ishonish. Bu haqqa yetishish ilmidir.

Biz yuqorida barkamol inson g‘oyasi tasavvuf ta’limotida qanday qo‘yilganligi to‘g‘risidagi ba’zi tafsilotlarni bayon etdik.

Bugungi kunda komil inson haqidagi fikrlar va qarashlarning eng foydali va ijobiy tomonlaridan, shu jumladan islom qadriyatlaridan foydalangan holda mamlakatimizda komil inson to‘g‘risidagi nazariya va uslubiyat metodologik jihatdan O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda, Kadrlar tayyorlash milliy Dasturida, Yoshlar siyosati bo‘yicha davlat Dasturida va boshqa hujjatlarda har tomonlama ishlab chiqilgan. Shularga muvofiq ravishda, ta’lim tizimini zamon talablari darajasiga ko‘tarish, sog‘lom, barkamol, ma’naviyatli yoshlarni tarbiyalash eng muhim vazifa ekanligi belgilab berilgan.

Ma’naviyati boy insongina komil inson bo‘la oladi. Yuksak axloqiy, madaniy va jismoniy fazilatlar har jihatdan uyg‘un bo‘lgan, chuqur va zamonaviy bilimga, ma’rifiy dunyoqarashga ega bo‘lgan inson komil bo‘ladi. Komillikning bosh mezoni insoniylik bo‘lib, insonga xos bo‘lgan ezgu fazilatlar sohibi bo‘lish eng ulug‘ kamolotdir. Bundan tashqari insonni go‘zal qiladigan uning hunari, ilmi va odobi bo‘lib, ular odamni yuksaklikka ko‘taradi, katta obro‘ va shuhrat keltiradi. Zamondoshlarimizning chuqur ilmiy dunyoqarashga, zamonaviy bilim va muayyan kasb egasi bo‘lishi sohasida uyg‘unlikka erishishi kadrlar tayyorlash milliy Dasturi ruhiga singdirib yuborilganligining ham boisi ana shundadir.

Mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalashning barcha yo‘nalishlari kutubxona –axborot xizmati darajasiga chambarchas bog‘liqdir. Ijtimoiy hayotning

barcha sohalariga oid bilimlarni egallashda foydalanuvchilarning ma’naviy ehtiyojlarini va talablarini maqsadga muvofiq ravishda qondirish, muayyan zarur nashr mahsulotlari va axborotlarni tavsiya etish ulardan ma’naviy barkamollik yo‘lida foydalanishlarida kutubxonachilar yaqindan yordam berishlari mumkin.

3.2. Foydalanuvchilarning umumta’lim, umummadaniy tayyorgarligini oshirish.

Jamiyat umumiy ma’lumot darajasining oshib borishi barkamol avlodni tarbiyalashning asosiy shart-sharoitlaridan biridir. Shuning uchun ham mamlakatimizda maktabgacha tarbiyadan tortib oliy ma’lumotli mutaxassislikkacha – turli ta’lim shakllariga alohida e’tibor berilmoqda. Uluksiz ta’lim tizimining barcha shakllarida doimiy tarzda umumta’lim va umummadaniy darajasini oshirishga intilish foydalanuvchilarning kutubxona – axborot xizmatiga bo‘lgan ehtiyojlarining kuchayishiga olib kelmoqda.

Kutubxonalarning foydalanuvchilar guruhlariga ko‘ra qiziqishlarini qondirishi quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

1) Axborot–bilish yo‘nalishi (fan va hayotning turli sohalaridagi yo‘nalishlarni chuqurlashtirish, yangi faktlar va g‘oyalar bilan tanishtirish orqali bilim doirasini kengaytirish);

2) Motivatsion – baholash (shaxsiy qarashlar va ishonchni mustahkamlash);

3) amaliy (kasbiy va umumiy faoliyatda egallangan bilimlarni qo‘llashga harakat qilish).

Ushbu ehtiyojlar va qiziqishlar bir-biridan ajralmagan holda foydalanuvchilarning bilish faolligiga asoslangan motivlarning murakkab majmuasini tashkil etadi.

Foydalanuvchilarga kutubxona – axborot xizmati ko‘rsatishda amalga oshiriladigan ta’limiy funksiya esa quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi: 1) o‘quv jarayoniga yordam berish (kunduzgi, kechki, sirtqi bo‘limlarda); 2) uzluksiz mustaqil ta’lim olishga yordamlashish.

Ta’limiy funksiyani amalga oshirishda kunduzgi, kechki, sirtqi bo‘limlardagi o‘quv jarayonining o‘ziga xosligi hisobga olingan holda turli manbalar va bosma nashrlar, axborotlar tavsiyasi amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, axborot olish manbalari turli-tuman bo‘lgan sharoitda ulardan tanlab foydalanish, eng saralangan manbalarga tayanish ko‘nikmasi ham kutubxonachilar tomonidan shakllantiriladi.

Uzluksiz ta’lim sharoitida bilimlar bosqichma-bosqich, uzluksiz izlanishlar natijasida qo‘lga kiritiladi va ushbu jarayonning tashkil etilishi bir tomondan foydalanuvchining o‘ziga bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan kutubxonachining mahoratiga bog‘liqdir.

3.3. Foydalanuvchilarning kasbga va ixtisoslikka oid bilimlarini oshirish.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi 41-moddasiga ko‘ra “Har kim bilim olish huquqiga ega”dir. Bilim olish huquqi shaxsning asosiy huquqlaridan hisoblanadi va ushbu huquqni aniq hamda to‘liq amalga oshirishda 1997 yil, 29 avgustda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni hamda kadrlar tayyorlash milliy dasturi huquqiy kafolot bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasidagi bilim olish huquqining muhim qoidalarini amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 5 yanvardagi “Uzluksiz ta’lim tizimini darsliklar va o‘quv adabiyotlar bilan ta’minlashni takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori, 1998 yil 5 yanvardagi “Uzluksiz ta’lim tizimi uchun davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to‘g‘risida”gi qarori alohida ahamiyatga ega bo‘ldi.

Bu hujjatlarning barchasi mamlakatimizda yetuk mutaxassislarni tayyorlashga yo‘naltirilgan uzluksiz ta’lim tizimini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda uzluksiz ta’lim tizimi maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi, oliy ta’lim, oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta

tayyorlash, maktabdan tashqari ta’limdan iboratdir. Sanab o‘tilgan har bir yo‘nalish butun, yaxlit tizimning alohida qismi sifatida mavjud bo‘lsada, ularning har birining rivojlanishiga ta’sir o‘tkazadigan maktabdan tashqari ta’limda muhim o‘rin egallovchi muassasa – bu kutubxona hisoblanadi.

Uzluksiz ta’lim tizimida uning turlariga ko‘ra kasb bo‘yicha nashr mahsulotlari, ma’lumotlar, axborotlarni qidirib, kutubxona – axborot xizmatiga faol murojaat qilish foydalanuvchilarning turli guruhlariga xos xususiyatga aylanib bormoqda. Chunki bugungi kunda o‘z ustida muntazam ishlamaydigan, bilimlarini oshirib bormaydigan har qanday mutaxassis zamon talablaridan tezlikda orqada qolib ketishi muqarrardir.

Kutubxonalarning kasbiy mutolaaga doir faoliyati fanning eng yangi yutuqlari, texnika va ilg‘or tajribalar, yoshlarni kasbga yo‘naltirish, malaka oshirish, yangi kasblarni o‘zlashtirish haqidagi nashr mahsulotlari va axborotlarni targ‘ib qilishdan iborat. Ushbu faoliyatning barcha yo‘nalishlari foydalanuvchilarning kasb, mutaxassislik, mehnat faoliyatining xususiyati, ixtisoslik darajasi, maxsus bilimlarini hisobga olgan holda tabaqalashtirilgan tarzda olib boriladi. Albatta, barcha mutaxassisliklar bo‘yicha kasbiy mutolaani tashkil etish murakkab jarayon ekanligini hisobga olgan holda kutubxonalar o‘z faoliyatlarini axborot tarqatuvchi boshqa muassasalar bilan uyg‘unlashtirilgan holda tashkil etishlari zarur.

3.4. Milliy g‘oyani shakllantirish.

Kutubxonada barcha sohalarga oid adabiyotlarni zamonaviy talablar asosida o‘rganish orqali milliy g‘oyani kishilar faoliyatini yo‘naltiruvchi omilga aylantirish imkoniyatlari ham juda kengdir. Bunda eng avvalo milliy g‘oyaga oid adabiyotlar, milliy-madaniy merosni o‘zida ifoda etadigan tarixiy manbalarni foydalanuvchilarga tavsiya etadigan, ularning dunyoqarashini yuksaltiradigan, ruhiy-ma’naviy oziq beradigan tadbirlar majmuini ishlab chiqadigan va amalga oshiradigan muassasalar – eng avvalo kutubxonalardir.

Foydalanuvchilarda milliy g‘oyani shakllantirishda, ularda milliy g‘oyaning asosiy g‘oyalarini ishonch va e’tiqodga aylantirish orqali mamlakatda amalga

oshirilayotgan Islohotlar Strategiyasiga muvofiq ulkan o‘zgarishlarga, huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurilishi vazifalarini amalga oshirishda faol ishtirok etishlarini ta’minlashga yordam beradi.

Milliy g‘oya tarbiyasining asosiy maqsadi – jamiyatning har bir a’zosi va ular timsolida har bir ijtimoiy qatlam, guruhning ijtimoiy tarbiyaviy darajasini ta’minlashdir. Bu, pirovard natijada jamiyat rivojiga turtki beruvchi ilg‘or g‘oyalarning har bir foydalanuvchi tomonidan ongli ravishda o‘zlashtirilishini, uning tafakkur va fikrlash tarziga aylantirilishini taqozo qiladi. Shu ma’noda milliy g‘oya har bir foydalanuvchi ongi va shuurida asriy milliy qadriyatlarimiz, xalqimizning bugungi va kelgusidagi manfaatlarini ifodalovchi eng sog‘lom g‘oya va fikrlar – xalq tafakkuri tarzida o‘z ifodasini topishi lozim.

Yuqorida ta’kidlanganlardan tashqari, milliy g‘oa targ‘iboti:

1) turli xil anjumanlar tashkil etish;

2) dolzarb mavzularda bahs-munozaralar uyushtirish;

3) bahs-munozaralarga kitobxonlarning turli qatlamlarini jalb etish;

4) taniqli kishilar bilan uchrashuvlar tashkil qilish;

5) yangi kitoblar ko‘rgazmalari, taqdimotlari tarzida tashkil etilishi mumkin.

Milliy g‘oya xalqimiz hayoti, mamlakat oldida turgan erkin va farovon hayot, ozod va obod Vatan qurish maqsadini amalga oshirish uchun ma’naviy-ruhiy kuch-quvvat manbai sifatida birlashtirib turadigan, milliy-ma’naviy qadriyatlarimizni tiklab, unga tayangan holda O‘zbekistonda demokratik, adolatli fuqarolik jamiyatini qurish uchun ilmiy-nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kutubxonalarda milliy g‘oya targ‘iboti bir tomondan “g‘oya”, “mafkura” tushunchalari, milliy g‘oyaning mohiyati, milliy g‘oyaning maqsad va vazifalari, “g‘oyaviy bo‘shliq” va zararli g‘oyalar yoritilgan kitoblar, risolalar, jurnallar, gazetalar maqolalarini va boshqa manbalarni foydalanuvchilarga tavsiya etish orqali, ikkinchi tomondan milliy g‘oyaning falsafiy, tarixiy, ma’naviy ildizlari bo‘lgan ilk yozma yodgorliklar, xalq og‘zaki ijodi namunalari, buyuk mutafakkirlarimiz ijodi, jadidchilik harakati namoyondalarining asarlari, XX asr va

bugungi kundagi adabiyotlardagi milliy o‘zlikni anglashga oid ijod namunalarini tavsiya etish va targ‘ib qilish orqali olib boriladi.

Milliy g‘oyaning falsafiy, tarixiy-ma’naviy ildizlarini shartli ravishda quyidagilarga ajratish mumkin:

– milliy jipslikka, birdamlikka, hamjihatlikka undovchi g‘oyalar;

– ogohlikka, tinch-totuvlikka, ichki barqarorlikka undovchi g‘oyalar;

– vatanparvarlik, el-yurt uchun fidoyilikka chorlovchi g‘oyalar;

– el-yurt manfaatlarini shaxsiy va guruhiy manfaatlardan ustun qo‘yishga undovchi g‘oyalar;

– tinch-totuvlikka, taraqqiyotga, bunyodkorlikka, kasb-hunar egallashga chorlovchi g‘oyalar;

– axloqiy komillikka, yetuklikka, xalq farovonligi yo‘lida fidoyilikka undovchi g‘oyalar.

Jumladan “Avesto”da axloqiy meyorlar, qadriyatlarni ifodalashda ezgulik va yovuzlik kuchlari o‘rtasida doimiy qarama-qarshilik mavjudligi, insonda ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal doimiy va uyg‘un bo‘lsa ezgulik yovuzlikdan ustun keladi deyiladi. “Avesto”ning ushbu g‘oyasini milliy ma’naviyatimizning sarchashmalaridan biri sifatida targ‘ib qilish mumkin. Milliy erk va Vatan himoyasi uchun jonni ayamaslik, o‘zaro birlik, jipslik g‘oyalari ilgari surilgan “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Rustamxon”, “Kuntug‘mish” dostonlari, To‘maris, Muqanna, Shiroq haqidagi rivoyatlar, adabiy merosimizning boshqa namunalarini bugungi mustaqillik g‘oyalarining qadim ildizlari sifatida foydalanuvchilarga tavsiya etiladi.

Mazkur manbalarda o‘tmish ajdodlarimizning eng ulug‘ orzu va maqsadlari, ishonch va umidlari aks etgan va ular jahon adabiyotining tengsiz namunalari qatorida e’tirof etiladi.

Qadimgi ajdodlarimizning vatanparvarlik e’tiqodlarini o‘rganish va targ‘ib etish har bir foydalanuvchi va jamiyat yuksalishi uchun qanchalik muhimligi haqida fikr yuritganda aniq manbalar sifatida qadimgi yozma yodgorliklarga murojaat etish mumkin. Turkiy bitiktoshlarning o‘rxun yozuvida bizgacha yetib

kelgan yirik namunalari “Kultegin bitiktoshi”, “Bilga hoqon bitiktoshi”, “To‘nyuquq bitiktoshi”, “Kulichur bitiktoshi” kabilardir.

Albatta bu kabi va boshqa yozma yodgorliklarni o‘rganish va ulardan kutubxona-axborot xizmati jarayonida milliy g‘oyani shakllantirishda foydalanish amaliy ahamiyatga ega. Biz milliy g‘oyani har tomonlama tahlil etayotgan, uning tarixiy ildizlarini aniqlayotgan bir paytda, tabiiyki mazkur yodnomalarda bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini zarracha yo‘qotmagan, ajdodlarimiz uchun eng ardoqli bo‘lgan g‘oyalarga foydalanuvchilar e’tiborini qarata bilish zarur. Chunki o‘z da’vatlarini toshga o‘yib yozayotganida bobolarimiz kelajak avlod ularni o‘rganishiga, ulardan zarur saboq va xulosalar chiqarishiga umid bog‘laganlar. Ushbu bitigtoshlarda aks ettirilgan ijtimoiy g‘oyalar quyidagilardir:

– har qanday yovuzlikka barham berish;

– xalqni parokanda bo‘lib ketishdan saqlab qolish;

– mamlakatni birlashtirish;

–vatan mustaqilligini doimiy asrash;

– turkiy qavmlarning vatani abadiy bo‘lib qolishida jonni ham ayamaslik;

– mamlakatni adolatli qonunlar bilan boshqarish.

Erkka, birlikka da’vat ushbu yodnomalarda shunchaki esdalik uchun bitilmaganidek, foydalanuvchilar tomonidan shunchaki loqayd o‘qilmasligi, mustaqillik va haqiqat yo‘li ekanligi anglatilishi kerak.

Milliy g‘oyaning tarixiy ildizlari haqida so‘z borganda Farg‘oniy, Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Imom Buxoriy, Mahmud Qoshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy kabi daholar tomonidan ilgari surilgan g‘oyalarga alohida e’tibor qaratilishi kerak.

Ayniqsa Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asarida ilgari surilgan g‘oyalar, milliy jipslik uchun zarur bo‘lgan ehtiyojning mahsuli sifatida yaratilgan Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘otit-turk” asari, Yusuf Xos Hojibning davlatning ma’naviy negizlarini mustahkamlash, qudratini oshirish yo‘l-yo‘riqlari sifatida milliy g‘oyaning mazmun-mohiyatini, asosiy tamoyillarini yoritishda katta

ahamiyatga ega bo‘lgan “Qutadg‘u bilig” asarlari haqida foydalanuvchilar to‘la ma’lumotga ega bo‘lishlari kerak.

Alisher Navoiy ijodi Amir Temur va temuriylar davrida boshlangan milliy tiklanish va yuksalish ma’naviyatining cho‘qqisidir. Uning asarlarida ilgari surilgan markazlashgan davlat va uning “adolatli podshohi” o‘zbek elati shakllanishi va rivojlanishi zaruratini, milliy jipslikni ta’minlovchi omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Alisher Navoiy merosini milliy g‘oyamizning ma’naviy ildizi sifatida o‘rganishga asos bo‘ladigan g‘oyalar tizimida quyidagilar alohida ajralib turadi: Birinchidan, bu ta’limotda har bir masala xalq manfaatlari nuqtai-nazaridan tadqiq qilinadi. “Odami ersang demagil odami, Oniki yo‘q xalq g‘amidin g‘ami” misralari uning masalaga yondashuvining asosini va pirovard maqsadini tashkil qiladi. Ikkinchidan, Navoiyning barcha da’vatlari millat va xalq farovonligiga yo‘naltirilganligi bilan birga xalqning moddiy farovonligi, ma’naviy-siyosiy mustaqillik bilan, xususan, davlat mustaqilligi va tinch-osoyishtaligi bilan bir-birini taqozo etuvchi vazifalar sifatida olingan. Uchinchidan, xalqning yuksalishi, farovonligi umumiy manfaatlarni anglashni taqozo etibgina qolmasdan, shaxs manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg‘unlashtirishni taqozo qiladi. Shunga ko‘ra Alisher Navoiyning adabiy merosi millatni va xalqni o‘zi orzu qilgan g‘oyalar atrofida jipslashtirib turuvchi, o‘zlikni anglashga rag‘batlantiruvchi ma’naviy xazina ekanligini har bir foydalanuvchiga uning ijodini chuqur o‘rganishni targ‘ib qilish orqali yetkazilishi kerak.

Milliy g‘oya mazmuni va shakllanishining tadrijiy bosqichlari tizimida jadidchilik oqimining namoyondalari faoliyati hamda ijodini o‘rganish alohida ahamiyatga egadir. Jadidchilik o‘zining haqiqiy ma’nosida xalqimizning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va siyosiy hayotidagi qaramlikka, milliy qoloqlikka, tengsizlikka, adolatsizlikka qarshi kurash va istiqlol yo‘lini topishning g‘oyaviy amaliyoti sifatida maydonga chiqqan edi. Mustamlaka davrida mustabid hukumatning musulmonlar maorifi va diniy e’tiqodi borasidagi rasmiy nuqtai nazari, amaldagi siyosati keskin tus olgan bir paytda jadidlar milliy tarbiya, vatanparvarlik, istiqlol g‘oyalarining avlodlar tafakkuriga ona tilida singdirilishiga

alohida e’tibor qaratdilar. Ularning say-harakatlari qanchalik og‘ir tazyiqlarga duchor bo‘lmasin jasorat va fidoyilik bilan davom ettirilgani faoliyatlari va ijodlari orqali foydalanuvchilarga milliy fidoyilik tushunchasining teran ma’no kasb etishida ma’naviy ibratdir. Shu o‘rinda Mahmudxo‘ya Behbudiy, Munavvar qori, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, CHo‘lpon kabilarning xizmatlarini, ijodlarini alohida o‘rganish joizdir.

Jadidlar millatning haqiqiy millatga aylanishi Turkiston kelajagi uchun zarur ekanligini anglagan holda ahvolni tubdan o‘zgartirmoq uchun uchta muhim masalaga e’tiborni qaratadilar: bular, birinchidan, milliy birlik; ikkinchidan, milliy til; uchinchidan, milliy maorif masalalaridir. Milliy taraqqiyot oldida turgan asosiy vazifalar sifatida olingan bu uch masala o‘z ahamiyatini bugungi kunda ham yo‘qotgani yo‘q. Davr va muhit bilan cheklab bo‘lmaydigan umuminsoniy qadriyatlar jadidlar g‘oyaviy qarashlarida muhim o‘rin tutganini e’tirof etish lozim. Jumladan, Abdulla Avloniy “Tarbiya masalasi biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir” deb ta’kidlar ekan, Vatan va millatning hayot-mamotini, najotini yangi avlod tarbiyasi bilan chambarchas bog‘laydi.

Vatan va millatni sevuvchi barcha fuqarolarni eng ulug‘ ish – tarbiya ishiga mas’uliyat bilan yondashuvga da’vat etadi. Bu da’vat Vatan tuyg‘usi bilan yashaydigan har bir inson uchun, jamiyatning kelajagi uchun chaqiriqdir.

Mafkuraviy tazyiq o‘tkazib kelingan mustabid tuzum davrida ham millat ziyolilarining eng ilg‘orlari ertangi kunga umid uyg‘otish, milliy ongni o‘stirishga qaratilgan g‘oyalarini niqoblangan shaklda bo‘lsada aks ettirganlar. Jumladan, Oybekning “Navoiy”, Maqsud Shayxzodaning “Jaloliddin Manguberdi” kabi tarixiy mavzulardagi asarlari milliy g‘ururni o‘stirish, tarixiy xotirani tiklashda alohida o‘rin tutadi. Yoki, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov she’riyatida milliy o‘zlikni anglash, milliy o‘zlikni saqlash, milliy g‘urur tushunchalari eng yuksak maqomga ko‘tarilgan. Erkin Vohidovning “O‘zbegim”, Abdulla Oripovning “O‘zbekistonda kuz”, “Men nechun sevaman O‘zbekistonni”, “O‘zbekiston” she’rlari matnlari tagida Ona-Vatan, xalqning asriy g‘am-g‘ussalari yashirin tarzda

aks ettirilgan. Bundan tashqari, akademik Ibrohim Mo‘minovning Amir Temurning xalqimiz tarixida tutgan o‘rni va roli haqidagi jasoratli fikrlari, akademik Habib Abdullayevning millatparvarlik ruhidagi faoliyati va ilmiy ijodi, akademik Yaxyo G‘ulomovning vatanimiz tarixini xolisona yoritish yo‘lidagi fidokorona xizmatlari, Muzaffar Xayrullayev, Sa’di Sirojiddinov, Yunus Rajabiy, Begali Qosimov, G‘aybulla Salomov, Ozod Sharofiddinov va yana ko‘plab millatparvar ziyolilarimizning fidoyiliklari evaziga amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar milliy o‘zlikni anglashning o‘sishiga, milliy g‘ururning shakllanishiga xizmat qiladi.

3.5. Ma’rifiy dunyoqarashni shakllantirish.

Har bir foydalanuvchi kutubxonaga qadam qo‘ygunga qadar ham o‘zining muayyan darajasidagi dunyoqarashiga ega bo‘ladi. Uning dunyoga nisbatan o‘z qarashi o‘zi va atrofidagi kishilar, hayot va olam to‘g‘risidagi tasavvurlari, xulosalari mavjuddir. Ushbu tasavvurlar va xulosalar har bir kishining boshqalarga nisbatan munosabatini va kundalik faoliyatining mazmunini belgilaydi. Shu ma’noda dunyoqarash tushunchasi insonning o‘zini o‘rab turgan voqelik to‘g‘risidagi, olamning mohiyati, tuzilishi va o‘zining undagi o‘rni haqidagi qarashlari, tasavvurlari, xulosalariga asoslangan bilimlar tizimidir.

Dunyoqarash o‘zining mohiyati va mazmunga ko‘ra mifologik, diniy, ilmiy-falsafiy dunyoqarash turlariga ajratiladi.

Ulardan har biri o‘ziga xos xususiyatga egadir. Mifologik dunyoqarashning o‘ziga xos xususiyati borliqning fantastik tarzda aks ettirilishidan iborat bo‘lsada undagi axloqiy qarashlar va voqelikka estetik munosabat insonparvarlik g‘oyalariga xizmat qiladi. Shuning uchun bugungi kunda ham ezgu fazilatlar ruhida tarbiyalashning ta’sirchan va samarali omili sifatida foydalanilmoqda.

Mifologik dunyoqarash afsonaviy kuchlarni e’tirof etish bilan bog‘liq bo‘lsa, diniy dunyoqarash ilohiy qudratga e’tiqod bilan bog‘liq va inson qalbidagi emotsional ruhiy holatlar; e’tiqod; e’tiqodning xatti-xarakatlarda ifoda etilishiga bog‘liq holda shakllanadi.

Diniy dunyoqarashni teologiya fani o‘rganadi va u olam va odam munosabati, umrning mazmuni, hayot va o‘lim muammosi kabi masalalarni ilohiyot, diniy e’tiqod tushunchalari bilan bog‘liq holda tahlil qilishning o‘ziga xos tizimidir.

Islom madaniyati jahon madaniyatining ajralmas tarkibiy qismi sifatida insonlarni do‘stlik va hamkorlikka da’vat etmoqda, umuminsoniy axloqiy qadriyatlarga asoslanishga, ilm-fan asoslarini puxta o‘rganishga targ‘ib etadigan ta’limot sifatida namoyon bo‘lmoqda. Hayot ziddiyatlarini bartaraf etish bilan bog‘liq regulyativ faoliyati nihoyatda muhimdir. Umuman olganda dinning barkamol avlodni tarbiyalashdagi o‘rni va ahamiyati beqiyosdir.Falsafiy dunyoqarash tabiat va insoniyat jamiyati taraqqiyotining sabablari va mohiyatini, o‘ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlarini ilmiy asosda tushuntirib beradi. Shuning uchun ham zamonaviy fanning eng yangi yutuqlariga, xulosalariga tayangan, ularni umumlashtirgan holda olam va odam munosabatlari haqidagi dunyoqarashni shakllantiradi.

Olam haqidagi eng umumiy bilim barcha fanlarning yutuqlarini, kashfiyotlarini bir tizimga solish, bog‘lanishlar, o‘zaro aloqadorliklarni umumlashtirish natijasida hosil bo‘ladi. Shunga ko‘ra falsafa dunyoqarash xususiyatiga ega bo‘lgan fan sifatida namoyon bo‘ladi.

Bugungi kunda ma’rifiy dunyoqarashning mohiyati, eng avvalo avval bo‘lganidek, ilmiy-falsafiy dunyoqarash va diniy dunyoqarashni bir-biriga qarama-qarshi qo‘ymaslikdan iboratdir. Shuningdek, ilmiy bilishning metodlarini to‘g‘ri qo‘llash, olingan natijalarni tajribada sinab ko‘rish, amaliyotda qo‘llash, haqiqiy ilmiy manbalarga asoslanish, diniy dunyoqarashda islom dini manbalariga asoslanish, diniy dunyoqarashda islom dini manbalariga tayanish, turli og‘ishlarga yo‘l qo‘ymaslik kabilardan iboratdir. Shuning uchun mamlakatimizda ilm-fanning hamda islom dinining jamiyat taraqqiyotidagi alohida o‘rnini, dunyoqarashini shakllantirishdagi o‘rnini hisobga olishga alohida ahamiyat berilmoqda.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda tashkil etilgan islom sivilizatsiyasi markazi, Xalkaro Islom akademiyasi, Mir Arab oliy madrasasi, Imom Buxoriy va

Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqit markazlari, diniy-ijtimoiy jarayonlarni o‘rganish axborot-tahlil markazi, hadis ilmi markazi “Vakf” hayriya jamoat fondi boy ilmiy-tarixiy merosimizni o‘rganish, uning asosida yoshlarni komillikka yetaklash, jamiyatda barqaror ijtimoiy-ma’naviy muhitni ta’minlashda samarali faoliyat yuritib kelmoqda.

Ushbu faoliyatni yanada takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 16 apreldagi qabul qilingan “Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida quyidagi ustuvor yo‘nalishlar belgilab berildi:

– Jaholatga qarshi ma’rifat g‘oyasi asosida dinning asl insonparvarlik mohiyatini, ezgulik, tinchlik va insoniylik kabi fazilatlar azaliy qadriyatlarimiz ifodasi ekanligini keng yoritish va bu sohasidagi ilmiy-ma’rifiy faoliyatni jadal tashkil etish;

– Islom va jahon sivilizatsiyasiga bebaho hissa qo‘shgan ajdodlarimizning boy madaniy merosini chuqur o‘rganish asosida yoshlarning ongu-tafakkurini shakllantirish;

– Dinni zo‘ravonlik va qon to‘kish bilan bir qatorga qo‘yadigan buzg‘unchi yot g‘oyalarning asl mohiyati va maqsadlari haqida aholining, ayniqsa, yoshlarning xabardorlik darajasini oshirish;

– Jamiyatda milliy va diniy qadriyatlarimizga yot bo‘lgan g‘oyalarga nisbatan toqatsizlik muhitini shakllantirish;

– Jamiyatda bag‘rikenglik, o‘zaro hurmat, mehr-oqibat, tinchlik va totuvlik, ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlashda diniy-ma’rifiy soha vakillarining daxldorlik hissi va ishtirokini yanada oshirish;

– Globallashuv sharoitida jamiyatimizdagi ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligi va e’tiqod erkinligiga tahdid tug‘dirishi mumkin bo‘lgan omillarni barvaqt aniqlash va oldini olishga qaratilgan axborot tahliliy faoliyatini kuchaytirish;

– Diniy va dunyoviy bilimlar uyg‘unligini rivojlantirish asosida ta’lim sifatini oshirish, diniy-ma’rifiy sohada malakali kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning yaxlit tizimini yaratish.

Ushbu farmonda belgilab berilgan barcha ustuvor yo‘nalishlar, ayniqsa, diniy va dunyoviy bilimlar uyg‘unligini rivojlantirish asosida ta’lim sifatini oshirishda kutubxona-axborot xizmati zimmasiga alohida vazifalar yuklanadi.

Bunda bir tomondan fanning buyuk kashfiyotlari orqali ilmiy-texnik yuksalish va uning asosida iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotning yuz berishi tegishli adabiyotlar tavsiyasi orqali tushuntirilishi zarur. Insoniyat o‘z tarixida turli ijtimoiy bosqichlarni bosib o‘tgan. Ming yillar davomida ishlab chiqish usullari o‘zgarmadi. XVIII asrda texnika, so‘ngra ilmiy-texnika inqilobi boshlangach, qisqa muddatda jamiyat taraqqiyotida ulkan o‘zgarishlar yuz berdi. Bor yo‘g‘i 400 yillar avval dunyo xalqlarining yashash tarzida ayniqsa, dehqonchilik sohasida farq juda kam hisoblangan bo‘lsa, bugungi kunda tafovut yer bilan osmon qadar o‘zgarib ketgan.

Insoniyatning kelajagi ham fan taraqqiyoti va uning ishlab chiqarishga joriy qilinishi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham foydalanuvchilarning, ayniqsa, yoshlarning fan asoslarining o‘rganishga bo‘lgan intilishlari rag‘batlantirilishi zarur. Ishlab chiqarishning barcha sohalarida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, ularning yangilarini yaratish, tizimini yaratish mamlakatimizdagi kattayu kichik barchaning burchi ekanligini muntazam targ‘ib qilish zarur.

Ikkinchi tomondan, dinning jamiyat uchun zaruriy ehtiyoj ekanligini to‘g‘ri tushuntira bilish, dinning axloqiy tarbiya orqali iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotda tutgan o‘rnini ko‘rsatib bera bilish kutubxona – axborot xizmatida o‘ta muhim ahamiyatga egadir. Bunda asrlar davomida ajdodlarimizning Qur’oni Karim va hadislar asosida to‘g‘rilik, oliyjanoblik, mardlik kabi insoniy fazilatlarni tarbiyalovchi kodeksni ishlab chiqqanligini asoslab berishning o‘zigina kifoyadir.

Ushbu kodeksga ko‘ra, har bir haqiqiy musulmon:

– Yolg‘iz Ollohga topinadi;

- Olloh amr etgan, Rasulolloh koʻrsatgan tarzda sajda qilib, roʻza tutadi, molining zakotini (rasmiy soliqlarni) toʻlaydi;
- Yetimlarga, kambagʻallarga va muhtojlarga, qarindoshlarga samimiy yordam beradi (“silai rahm”);
- Tahlikali holatlarda oʻzini yoʻqotmaydi, qoʻrqoqlik qilmaydi, Olloh madadiga tayanadi;
- Qiyinchilik, musibat va falokatlarni sabr bilan yengadi, Ollohdan umidini uzmaydi;
- Kattaga hurmatda, kichikka izzatda, har jonzodga shafqatda boʻladi;
- Ilmga intiladi, ustozlarni hurmat qiladi;
- Ahdiga vafo qilib, boshqalarning mulkiga xiyonatdan saqlanadi;
- Oʻz zimmasidagi vazifani bekamu koʻst bajaradi;
- Oʻzini, yashaydigan va ishlaydigan joyini, buyumlarini kir va iflosdan, qalbini nojoʻya fikrlaru tuban tuygʻulardan, tilini nojoʻya soʻzlar aytishdan saqlaydi;
- Oʻzgalarning aybini kovlab, sirlarini yoymaydi;
- Odamlar orasida ixtiloflarni bartaraf etib, ularni tinchlantirishni burch deb biladi;
- Bilmagan narsasi haqida hukm chiqarmaydi;
- Oʻzi va yaqinlarini zino, qimor, ichkilik ichish, riyokorlik, ikkiyuzlamachilik va chaqimchilik kabi qabohatlardan asraydi;
- Boshqalarga qoʻlidan kelgan yordamini ayamaydi, qasd va qasosdan oʻzini tiyadi;
- Nomaqul ish yoki gunoh qilib qoʻysa, darhol Ollohdan magʻfirat soʻrab, xatosini tuzatishga tirishadi;
- Tanballik qilmaydi, xastalarning koʻnglini oladi;
- Ota-ona duosini oladi, vatanini sevadi va xalqidan ajralmaslikka harakat qiladi.

Biz ushbu axloq normalarining xalq ogʻzaki ijodida, ayniqsa, xalq maqollarida alohida oʻrin egallaganligini koʻramiz. Alisher Navoiy asarlari

boshdan oyoq ana shu g‘oya bilan sug‘orilgan. Abdulla Avloniy ta’biri bilan aytganda tarbiya masalasi “biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot yo halokat, yo saodat yo faloqat masalasidir”. Yoshlarning haqiqiy ma’rifatga asoslangan dunyoqarashini shakllantirishda, ilmiy va diniy dunyoqarash uyg‘unligi hamda fanning haqiqiy asoslari, dinning asosiy manbalarini taqdim etishdagi eng asosiy muassasalarning biri kutubxonadir.

Ilmiy dunyoqarash davlatning iqtisodiy-ijtimoiy qudratini oshiruvchi omil bo‘lsa, diniy dunyoqarash axloqiy va ruhiy qudratini ta’minlaydi. Shu jihatdan ma’rifiy dunyoqarashini shakllantirishda ularning bir-birini to‘ldiruvchi ijtimoiy ong shakllariga taalluqli ekanligi kutubxona-axborot xizmati jarayonida alohida hisobga olinishi kerak.

3.6. Axloqiy madaniyatni shakllantirish.

Axloq ijtimoiy ongning eng qadimiy shakllaridan biridir. Axloq va axloq meyorlarining paydo bo‘lishi, asta-sekin shakllanib, taraqqiy etishi insonda insoniylik fazilatlarining paydo bo‘lishi va rivojlanishi uchun zamin yaratdi. Alohida olingan har bir kishi faoliyatini jamoa va jamiyat manfaatlariga bo‘ysundirishga bo‘lgan ijtimoiy ehtiyoj tufayli vujudga kelgan axloq ijtimoiy munosabatlarda nisbiy barqarorlikni ta’minlashga ximat qiladi.

Kutubxona–axborot xizmati jarayonida axloqiy madaniyatni shakllantirishda kutubxonachi axloqiy madaniyat murakkab tuzilishga ega bo‘lib, o‘z ichiga axloqiy qoidalar, tamoyillarni, axloqiy ongni, ularni ro‘yobga chiqarish, singdirish, himoya qilish bilan bog‘liq faoliyat va munosabatlarni qamrab olishini hisobga olishi zarur. Chunki axloqiy madaniyat mavjud axloqiy meyorlarni o‘zlashtirish va ularga rioya qilish darajasidir.

Foydalanuvchilarning axloqiy faoliyati axloqiy bilimlarni egallash, rioya etish, himoya qilish, singdirish kabi jarayonlarni qamrab oladi. Axloqiy faoliyatda axloqiy ong namoyon bo‘ladi. So‘z va hatti-harakatlar birligida axloqiy madaniyat o‘zini yorqin namoyon qiladi. Inson so‘zda bir narsani qayd etib, amaliyotda o‘zi unga rioya qilmasligi, xushmuomalalik, tavoze ortida g‘arazli manfaatlar

yotishidek holatlar axloqiy madaniyatda mazmun va shakl birligi, ular o‘rtasidagi uyg‘unlik alohida ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

Kutubxona–axborot xizmati jarayonida foydalanuvchilarda axloqiy madaniyatni shakllantirishda kutubxonachilar ular e’tiborini tasavvuf ta’limoti vakillarining axloqiy ta’limotlariga qaratishlari maqsadga muvofiqdir.

Tasavvufning axloq-odob haqidagi qarashlari ham islom dinining muqaddas kitobi “Qur’on” va Hadislarga asoslanadi. Shuning uchun ham tasavvufda axloqning barcha qirralari qamrab olingan deb bemalol aytish mumkin. Unda axloqiy meyorlar, ma’naviy xislatlar va fe’l-atvor meyorlarining alohida tizimi ishlab chiqilgan. Bu axloqiy ta’limotning maqsadi insonning ruhiy olamini turli nuqsonlardan tozalab, uni yaramas mayllardan va salbiy xislatlardan xalos qilishdir.

Chunki inson yomon xulq-atvorlardan poklanib, o‘zida go‘zal axloqni shakllantirmagunicha komil inson bo‘la olmaydi. Tasavvufdagi bu dunyoning nozu-ne’matlaridan, shaxsiy huzur-halovatdan voz kechish targ‘ib qilinar ekan, bunda insonning har tomonlama kamolotga erishishi, o‘z jismi, aqli va ruhiyatini taraqqiy ettirishga xalaqit beruvchi ortiqcha havaslar, ayshu-ishratlar, tekinxo‘rlik, ta’magirlik, xullas, inson tabiatida mavjud bo‘lgan barcha salbiy xususiyatlar nazarda tutiladi. Unda poklik, halollik, mehnatsevarlik, kamtarinlik, sabr-qanoatlilik, rostgo‘ylik, to‘g‘rilik, xushfe’llik, mehr-shafqatlilik, muhabbat, ma’rifatlilik, vatanparvarlik kabi eng olijanob insoniy fazilatlar targ‘ib qilinadi, tubanlikka tortuvchi yomon nafs (nafsi ammora) esa keskin qoralanadi.

Tasavvufdagi axloqiy qarashlarga ko‘ra insondagi nafs va ruh o‘rtasidagi kurash doimiy bo‘lganligi uchun o‘zak masala hisoblanadi. Haqiqiy irodali inson o‘z nafsi ustidan g‘alaba qila bilgan insondir. Nafs o‘zining keng ma’nosida kundalik ehtiyojlardan tashqari, boylik to‘plashga ruju qo‘yish, ortiqsa havas, manfaatparastlik singari salbiy xislatlarni ham o‘z ichiga oladi.

Shu jihatdan tasavvufga sufiy shoir Bobo Tohir tomonidan aytilgan: “Tasavvuf – nafsoniy-hayvoniy hayotda o‘lmoq va insoniy hayotda yashamoq” ta’rifi uning mohiyatini to‘la anglatadi deyish mumkin.

Tasavvuf halol va haromni ajratish, harom ishlardan hazar qilish, unga qarshi kurashga da’vat qiladi va nafsi ammoraga raddiya beradi. Shu ma’noda tasavvuf yuksak fazilatlarni yosh avlod ongiga singdirish yo‘lida katta ibrat vazifasini bajaradi. Kutubxona – axborot xizmati jarayonida tasavvufning haqiqiy mohiyatini anglashlari uchun foydalanuvchilarga tasavvuf ta’limotining axloqiy asoslari yoritilgan professor Najmiddin Komilovning “Tasavvuf”, Ibrohim Haqqulovning “Taqdir va tafakkur”, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning “Tasavvuf haqida tasavvur” kitoblari tavsiya qilinishi mumkin.

Foydalanuvchilar ushbu kitoblarni o‘rganib chiqqanlaridan so‘ng Mashrab, So‘fi Olloyor asarlari, Ahmad Yassaviy “Hikmatlar devoni”, Bahouddin Naqshband “Avrod”i, Alisher Navoiy asarlari, Aziziddin Nasafiyning “Komil inson”, Jaloliddin Rumiyning “Ma’naviy - masnaviy” va hokazo asarlarini tavsiya qilish maqsadga muvofiqdir. Axloqiy munosabatlar axloqiy faoliyat jarayonida kishilar o‘rtasida tarkib topadigan o‘zaro bog‘liqlik va aloqadorlikni ifodalaganligi uchun insonning o‘z-o‘ziga, boshqa kishilarga va jamiyatga munosabati uning axloqiy darajasini ifodalaydi.

Foydalanuvchilarda axloqiy madaniyatni shakllantirishda meyorlarning kuchi va shu ma’noda axloqning huquqqa yaqin turishini alohida qayd etish lozim. Shunday bo‘lsada ular o‘rtasidagi farq, xususan, huquqiy tartibga solishning chegarasi axloqiy tartibga solish chegarasidan torroq ekanligi, shunga ko‘ra axloqning huquqdan farqli ravishda ijtimoiy munosabatlarning o‘ziga xos sohalariga kirib bora olishi, huquqning majbur qilish organlariga tayanishi, axloq esa ichki e’tiqodga, jamoatchilik fikriga tayanishini foydalanuvchilar tushunib yetishlari zarur.

Bundan tashqari, foydalanuvchilar axloqiy madaniyatining shakllanishida kasb-kori, ular yashayotgan milliy-madaniy va diniy muhit, turmush tarzi, mavjud munosabatlarning harakteri ham hisobga olinishi kerak.

Axloqiy madaniyatning shakllanishida kutubxona–axborot xizmati jarayonida foydalanuvchilarga tizimli va aniq maqsadga yo‘naltirilgan tarbiyaning o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Bunda har bir foydalanuvchiga yakka tartibda

yondashuv hamda axloqiy madaniyatni kamol toptirishning muhim yo‘nalishi hisoblangan o‘z-o‘zini tarbiyalashga alohida e’tibor talab qilinadi. Chunki, o‘z-o‘ziga talabchan bo‘lish, qarashlari va faoliyatini tanqidiy baholay bilish singari unsurlarni o‘z ichiga oladigan o‘z-o‘zini tarbiyalash mavjud axloqiy meyorlarni shaxsiy e’tiqodga aylantirishning muhim omili hisoblanadi.

3.7. Estetik tarbiya

Har bir foydalanuvchining estetik va badiiy didini o‘stirish, go‘zallikka mehr uyg‘ota bilish kutubxonachining asosiy vazifalaridan biridir. Estetik tarbiya kutubxonada eng avvalo ma’naviy jarayonlar orqali, adabiyot va san’at, adabiyotshunoslik va san’atshunoslik, umuman go‘zallikni his etish tuyg‘ularini shakllantiruvchi nashr mahsulotlarini targ‘ib qilish, tushuntirish orqali amalga oshiriladi. Biz bugungi kunda har tomonlama yetuk inson deb bilganimiz “barkamol inson” – o‘z haq-huquqlarini taniydigan, o‘z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, tevarak-atrofda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, o‘z shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg‘un holda ko‘radigan insonlarni tushunamiz.

Shuningdek, ma’naviy jarayonlarning estetik mazmunini go‘zallikning ijtimoiy xususiyati bilan bog‘liq holda talqin etilgan tasviriy san’at, teatr, kino, musiqa asarlari, badiiy adabiyotlar, targ‘ibot va tashviqot orqali o‘zini jamiyatning ajralmas qismi deb his etadigan, zamonaviy bilimlarni mukammal egallagan, ma’naviy jihatdan yuksak, jismonan baquvvat erkin shaxs bo‘lishi bilan bir qatorda tabiat, jamiyat va insoniy go‘zallikka befarq bo‘lmagan, ulug‘vorlikdan tubanlikni, fojiaviylikdan kulgulilikning farqiga boradigan yuksak didli shaxslarni tarbiyalash, ularda estetik madaniyatni shakllantirish muhim masalaga aylanib bormoqda.

Inson ongli mavjudot sifatida o‘z tafakkurida yetilgan g‘oyalar, nazariyalarni amaliy hayotda qo‘llay olishi bilan hayvonot va nabotat olamidan fark qiladi. Shuning uchun ham insonga buyuk g‘oyalar yaratish, qonuniyatlar nashr etish va ularni jamiyat manfaatlariga bo‘ysundirish singari ulug‘vor vazifalar yuklangan. Qolaversa, jamiyat a’zolarining farovonligiga, ma’naviy tafakkurining

yuksalishiga amaliy yordam koʻrsatmaydigan mavhum gʻoyalar unchalik ahamiyatga ega emas.

Kutubxona–axborot xizmati jarayonida foydalanuvchilarni estetik tarbiyalashning ikkinchi yoʻnalishi estetik didni shakllantirishdir. Estetik did har bir foydalanuvchining yurish-turishida, fikr yuritishida, harakterida, maʼnaviy boyliklarni egallashida, badiiy ijod mahsullarida, atrof-muhitga estetik munosabatlarida yuzaga kelib, shakllantirilishi zarur.

Har bir inson obyektiv olamga faol estetik idrok etuvchi yoki yaratuvchi subyekt sifatida munosabatda boʻladi. Uning bu munosabati moddiy va maʼnaviy obyektlarning estetik sifatlarini sezish, idrok etish va aniqlash jarayonining mazmuni va mohiyatida namoyon boʻladi. Shu sababli estetik didning mazmuni va sifati inson badiiy ijodida muhim ahamiyat kasb etadi.

Did – shaxsning tashqi olam narsa va hodisalari, ijtimoiy hayot hodisalari, kishilar oʻrtasidagi aloqalar va bogʻlanishlarni, munosabatlarni, adabiyot va sanʼat asarlarining qadr-qimmatini, qirralari, xossalari va xususiyatlarini baholash, sifat darajasini aniqlash va ulardan estetik zavqlanish demakdir. Estetik did tugʻma qobiliyat emas, balki tashqi olamdan taʼsirlanish va aniq maqsadga yoʻnaltirilgan tarbiya mahsulidir. Milliy,psixologik, kasbiy, maʼlumot darajasidagi farqlarga koʻra xar bir foydalanuvchining estetik didi bir-biridan farqlanadi. Shuni unutmaslik zarurki har bir foydalanuvchining estetik didi uning nechta nashr mahsulotlarini oʻqib chiqqanligida, did bilan kiyinishida emas, balki ongi va tushunchalarining sofligi va yuksakligidadir.

Estetik did – insonning predmet va hodisalarning estetik koʻrkini baholash qobiliyati sifatida kechinmali xususiyatga ega. His-tuygʻusiz, estetik kechinmasiz estetik did amal qilmaydi. Estetik did muhokamasida “sovuq aql” emas (aqlning rolini inkor etmagan holda) koʻproq maʼnaviy tuygʻular birinchi oʻrinda turadi.

Haqiqiy estetik did muhokamasi goʻzallik tuygʻularining naqadar sof, begʻubor va ulugʻvorligini koʻrsatadi. Bunday sof, begʻubor maʼnaviy boylik uzoq yillar davomida qunt va chidam bilan oʻqish, taqqoslash, tahlil qilish, xulosa chiqarish, amaliy hayotda qoʻllash natijasidagina shakllanadi.

Estetik did umuman inson ma’naviy dunyosining bir tomoni. Masalan, jismoniy chiniqqanlik, ma’naviy soflik, axloqiy poklik, yuksak insoniy ideallar inson go‘zalligining turli tomonlarini ifoda etadi. Shuningdek, estetik, badiiy did, turmush estetikasi–insonning nafosat haqidagi muhokamasining turli ko‘rinishlaridir. Lekin bu ko‘rinishlar alohida zohir bo‘lmaydi, biz ularni ayrim tushunchalar tarzida ajratib olib tekshiramiz. Aslida esa, kishida inson go‘zalligining, did va muhokamasining turli ko‘rinishalri turli nisbatda namoyon bo‘ladi. Kishining didi haqida xulosa chiqarganda, uning kitoblardan va hayotdan olgan tajribasiga ko‘ra muhokama doirasi, fikrlarining mazmuniga qaraladi.

Insonning odatlari bilan didi orasida juda murakkab aloqadorlik mavjud. Did, odat, farosat bir-biriga yaqin tushunchalardir. Odat yaxshi odat va yomon odatga ajratiladi. Yaxshi odat didni bevosita aks ettirmasada, yomon odat kishining didsizligini yaqqol namoyon etadi. Yomon odat bilan farosatsizlikning aloqadorligi murakkab bo‘lib, yomon odatni yo‘qotish mumkin, lekin farosatsizlikka barham berish mushkulroqdir. Masalan, o‘quv zalida baland ovoz bilan gapirish yoki kulishga odatlangan ba’zi foydalanuvchilar o‘zining farosatsizligini his etmasligi mumkin. Didsizlik – meyorni bilmaslik, meyorda gapirmaslik, odob saqlamaslik, muomala qila bilmaslikdan kelib chiqadi. Demak, meyorni bilishning har bir foydalanuvchi uchun faqat kutubxonadagina emas, butun hayot faoliyati davomida alohida ahamiyatga ega ekanligini singdira bilish estetik didni shakllantirishning asosi hisoblanadi. Hayotning turli-tuman hodisalari va shart-sharoitlari tuyg‘ular meyorini taqozo etadi.

Didning go‘zalligi – kishining voqelik haqidagi muhokamasi va unga berilgan bahosida zohir bo‘lgan madaniy tuyg‘ulari bilan ajoyib fazilatlari garmoniyasining (uyg‘unligining) ifodasidir. Kutubxonachi foydalanuvchilarga estetik didni tarbiyalashga oid turli manbalarni tavsiya etishda did muhokamasida tafakkurning roli katta bo‘lsa ham, biron narsaning go‘zalligini ajratishda shu narsaning nisbatan chiroyliligi, boshqa narsalarga qiyosan afzalligi va mohiyati ko‘zda tutilsa ham, bu munosabat tuyg‘ularning yo‘nalishi orqali ifodalanishini tushuntirib bera bilishi kerak. Chunki, tafakkur mazkur predmet yoki hodisaning

mohiyatiga yetsada, lekin yurak jiz etmasa, chinakam estetik zavqlanish hosil boʻlmaydi. Ana shuning uchun ham kutubxona – axborot xizmati orqali estetik tarbiyani amalga oshirishning asosiy vazifalaridan biri – inson estetik kechinmalarining sofligi, yuksakligi va oliyjanobligini tarbiyalashga yoʻnaltirishdan iboratdir.

Lekin, kutubxonachi unutmasligi kerakki, bevosita estetik tuygʻular zavqiga asoslanib estetik baho berishning ham yaxshi, ham yomon tomonlari bor. Yaxshi tomoni shundaki, biror nashr mahsulotini mutolaa qilib, tasviriy san'at namunasini koʻrib estetik zavq olinadi; yomon tomoni shuki, hissiyotlar voqelikdan chetlashib ketishi natijasida foydalanuvchi hayollar, shirin orzular va iliq kayfiyatlar ta'siriga berilib, idrok etilayotgan predmet yoki hodisaga ortiqcha baho berib yuborishi, uning salbiy tomonlarini sezmasligi mumkin. Shuning uchun ham foydalanuvchilarda estetik didni tarbiyalashda estetik kechinmalarning kengligi, sofligi bilan birga real voqelikdan uzoqlashmaslik ham alohida ahamiyatga egadir.

Nozik tabiatlilik, nazokat – kasb yoki hunarning sifati emas, balki inson umumiy taraqqiyotining, kasb va hunar samarasida, inson muomalalarida aks etadigan natijasidir. Shuning uchun ham hayotda uqqan kishi "oʻqigan" kishidan nazokatliroq boʻlishi mumkin. Foydalanuvchilarda estetik didni shakllantirishda uning estetik ideal bilan aloqadorligi mavjudligini unutmaslik kerak. Chunki har bir foydalanuvchining didi ma'lum estetik idealga suyangan, ana shu idealga binoan narsa va xodisalarning goʻzallik sifatiga baho beradi. Estetik didda ma'lum ijtimoiy ideal va goʻzallik tushunchalari, tasavvurlari oʻz ifodasini topadi.

Estetik ideal, ya'ni goʻzallikning oliy shakllari toʻgʻrisidagi tushuncha yoki obraz foydalanuvchilarning faqat san'at asarlaridan bahramand boʻlishi bilangina cheklanib qolmay, insonning umuman voqelikka munosabati va hayotda tutgan oʻrniga ham bogʻliq ekanligi kutubxonachi tomonidan hisobga olinishi kerak. Estetik did masalasida estetik mushohada mazmunining haqqoniy yoki haqqoniy emasligi katta oʻrin tutadi. Bu holat asosan yaxshi va yomon didlarning goʻzallikka bergan baholarida oʻz ifodasini topadi. Sogʻlom estetik didli boʻlishning ahamiyati shundaki, unda insonning har tomonlama takomiliga yoʻl ochiladi. Estetik did

inson uchun aql va qalb koʻzi vazifasini bajaradi. Insonda sogʻlom nafosat tuygʻusi tarbiyalangan boʻlsa u sanʼat asarlarini goʻzallik qonunlari asosida qabul qila olish darajasiga erisha oladi. Haqiqiy estetik did egasi tasavvuridagi goʻzallik juda sof va begʻubordir. Yaxshi did insonni mehnatda ham, soʻzda ham, urf-odatlarda ham kamchiliklarga qarshi xunuklik va bachkanalik, vijdonsizlik va shafqatsizlikka qarshi kurashuvchan qiladi. Yuksak estetik didga erishish uchun har bir foydalanuvchining ilm-maʼrifat va madaniyatni egallashi maʼnaviy yuksaklikka intilishi yoʻli bilangina hal etilishi mumkinligi singdirilishi lozim. Insoniyat tomonidan yaratilgan barcha bilimlarni egallash amaliy jihatdan mumkin boʻlmasada uning asoslarini oʻrganish eng avvalo har bir foydalanuvchining oʻziga, soʻngra ushbu asoslarni egallash uchun yaratilgan shart-sharoitga bogʻliqdir. Hozirgi kunda biron-bir sohaning oʻzini egallash uchun ham juda koʻp vaqt va sharoit talab qilinadi. Binobarin, har bir foydalanuvchining tabiiy ravishda maʼlum mutaxassislik, ilm-hunar atrofiga toʻplanishi va chegaralanishi zarurati tugʻiladi. Har kim maʼlum sohani chuqur egallamay turib oʻzining ijodiy imkoniyatlarini koʻrsata olmaydi. Bundan chegaralanish va tor doirada mutaxassislashish oʻz navbatida didning ham torroq boʻlib qolishiga sabab boʻladi. Shuning uchun ham kutubxona – axborot xizmatida adabiyot va sanʼat asarlari targʻibotiga eʼtiborni kuchaytirish talab qilinadi. Chunki adabiyot va sanʼat asarlarida insonning goʻzallik ideali va irodasi sof va yetuk namunada ifodalangani uchun, ular olamni bilish va his etishga yordamchi tajriba maktabi vazifasini oʻtaydi. Shunga koʻra adabiyot va sanʼat estetik did taraqqiyoti va takomilining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Estetik tarbiyaning muhim qismi badiiy tarbiya boʻlib, foydalanuvchilarda adabiyot va sanʼat asarlariga estetik munosabatda boʻlish maqsadini qoʻyadi. Foydalanuvchilarda adabiyot va sanʼat turlari, janrlari, ularning xususiyatlari, tili, tasviriy va ifodaviy vositalari haqida estetik bilimga ega boʻlish, sanʼat asarlarini badiiy idrok etish, ulardan toʻlaqonli lazzatlanish – badiiy tarbiya asosida yuzaga keladi. Shuningdek, estetik tarbiya kutubxona – axborot xizmati jarayonida milliy gʻoya tarbiyasi, axloqiy tarbiya, mehnat tarbiyasi, ekologik tarbiya bilan aloqadorlikda va bogʻlanishlarda amalga oshiriladi.

Estetik tarbiya foydalanuvchilarning estetik did, estetik ong, estetik ideallarini tarbiyalash, olamni estetik baholash malakasini hosil qilish masalalari bilan bevosita bog‘langan. Foydalanuvchilarni estetik tarbiyalash ularda estetik ehtiyojni yuzaga keltirishdan boshlanadi. Estetik ehtiyoj olamni, tabiatni, jamiyat hodisalarini, insoniy fazilatlarni go‘zallik qonuniyatlari asosida o‘rganish va o‘zlashtirishdir. Kutubxonada amalga oshiriladigan estetik tarbiya, birinchi navbatda, har tomonlana estetik jihatdan rivojlangan, ijodiy faol foydalanuvchilarni tarbiyalashdan iborat. Demak, kutubxonada amalga oshiriladigan estetik tarbiya – adabiyot va san’atga oid nashr mahsulotlarini targ‘ib qilish orqali foydalanuvchilarda olamni, uning turli – tuman narsa va hodisalarini estetik idrok etish, baholash va go‘zallik qonunlari asosida qayta qurish ko‘niklamalarini yaratishga qaratilgan o‘ziga xos ta’sir o‘tkazish tizimidir.

Estetik tarbiya vositalari kutubxona fondidagi adabiyot, adabiyotshunoslik, san’at turlari: arxitektura, bezakli san’at, haykaltaroshlik, tasviriy san’at, raqs san’ati, teatr, kino, sirk, estrada san’ati, musiqa san’atiga oid bosma nashrlardir.

Estetik tarbiya vositalari qatorida estetik qarashlar, g‘oyalar, nazariyalar haqidagi nashr mahsulotlari ham muhim o‘rin egallaydi. Ular foydalanuvchilarning estetik madaniyatini maqsadga muvofiq ilmiy asoslarda yuzaga keltirishga zamin tayyorlaydi, estetik his-tuyg‘ular, estetik ehtiyoj, estetik did va ideallarning paydo bo‘lishi, rivojlanib, takomillashib borishi qonuniyatlarini, tamoyillarini kashf etib, estetik ongning har tomonlama o‘sishiga yo‘l ochadi. Shu yo‘l bilan foydalanuvchilarning estetik madaniyati asta-sekin ularning ijtimoiy e’tiqodiga aylanadi, bilimi, axloq doirasini kengaytiradi. Estetik tarbiya vositalaridan san’atshunoslik fanlari sohalari, xususan, adabiy-tanqidchilik yo‘nalishidagi bosma nashrlar muhim ahamiyatga ega.

Ushbu yo‘nalishidagi nashr mahsulotlari san’at turlari, janrlari haqida ma’lumot berish bilan birga foydalanuvchilarga san’atning o‘ziga xos xususiyatlarini tushuntirib, ularda san’atning g‘oyaviy mazmuni, yo‘nalishi va mohiyati haqida ilmiy tasavvur hosil qiladi. Xususan, tanqidchilikka oid ilmiy tahliliy qarashlar san’at asarlarini baholashga, ularni mustaqil tahlil qila bilishga,

hayotda tutgan o‘rnini aniqlashga yo‘l ochadi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, kutubxonada amalga oshirilayotgan estetik tarbiya umumiy tarbiyaviy jarayonlar bilan uyg‘unlashib, uning omillari, vositalari tizimidan o‘rin egallagandagina kutilgan ijobiy samarani berishi mumkin.

3.8. Sog‘lom ma’naviy ehtiyojni shakllantirish.

Mamlakatimizda bunyod etilayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’naviy zaminlarining mustahkamligi davlat va jamiyat manfaatlarini to‘liq tasavvur etuvchi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘zida mujassamlashtirgan, unga qat’iy amal qiluvchi, el-yurt manfaatini o‘z manfaati bilan uyg‘unlikda his qiladigan shaxs tarbiyasi bilan, unda sog‘lom ma’naviy ehtiyojni shakllantirish bilan chambarchas bog‘liqdir.

Sog‘lom ma’naviy ehtiyojni shakllantirish, bir tomondan, jamiyatda mavjud bo‘lgan intellektual imkoniyatlarga, amalga oshirilayotgan g‘oyaviy tarbiya jarayonlariga, ikkinchi tomonidan, tafakkur erkinligiga va mustaqil fikr yuritishga asoslanadi. Bugungi kunda mazmunan sayoz bosma nashr mahsulotlari, turli axborotlarning, “sariq matbuot” deb ataluvchi gazeta va jurnallarning ko‘payib ketganligi ham sog‘lom ma’naviy ehtiyojni shakllantirishni talab qiladi.

Sog‘lom ma’naviy ehtiyojni shakllantirish muammolarini chuqur tahlil qilish uchun eng avvalo “ehtiyoj”, “faoliyat”, “manfaat” tushunchalarini ko‘rib chiqish kerak. Ehtiyoj o‘zining tizimiga muvofiq xilma-xil bo‘lganligi uchun biologik, psixologik, pedagogik, axloqiy, iqtisodiy, sotsiologik, ijtimoiy-falsafiy kategoriya sifatida o‘rganiladi. Ehtiyoj insonning yashashi va rivojlanishi uchun amalga oshiriladigan hayotiy faoliyatining asosiy sababidir. Hayotiy faoliyat insonning yashashigina emas, o‘zgarish va rivojlanishini ham ta’minlovchi jarayondir. Faoliyatga undovchi asosiy omil ehtiyoj ekanligi bilan birga faoliyat yangi ehtiyojlarni ham vujudga keltiradi.

Ehtiyoj va faoliyatning o‘zaro ta’sir ko‘rsatishi va bir-birini rivojlantirishi inson faoliyatidagi cheksiz jarayondir. Ehtiyojlarning yanada kengayib va murakkablashib borishi natijasida ijtimoiy jarayonlarni vujudga keltirishning yangi

kuchlari – manfaatlar vujudga keladi. Ta’kidlash kerakki, ehtiyoj va manfaat ma’lum darajada bir asosga egadir, chunki har ikkalasida ham inson intilishlari yotadi. Ammo ular o‘rtasida farqli holatlar ham mavjud. Manfaat aniq ijtimoiy faoliyatning sabablarini ifodalaydi. Jamiyatda yuzaga chiqadigan ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy ehtiyojlarning yig‘indisi bir qadar yuqori darajada manfaat kategoriyasida namoyon bo‘ladi. YA’ni manfaatlarda alohida shaxsning, ijtimoiy qatlamlar, millatlar, etnik guruhlar faoliyatining sabablari, niyat-fikrlari, g‘oyalari ifodalanadi. Shuning uchun ham foydalanuvchilarning turli ijtimoiy-demografik guruhlariga kutubxona – axborot xizmati ko‘rsatish jarayonida ehtiyoj, manfaat, faoliyat va uning yangi ehtiyojlarni vujudga keltirishi alohida hisobga olinishi zarur. Manfaat obyektiv ehtiyojlar zaminida shakllanib yuzaga chiqsada, unda sebyektiv omillar ham katta rol o‘ynaydi. Ayniqsa jamiyat ma’naviyatini shakllantirishda manfaat tizimini ehtiyojlar bilan uyg‘unlashtirib olib borish muhim ahamiyatga ega.

Jamiyat tomonidan ongli ravishda muayyan maqsadning qo‘yilishi – bu dunyoqarashga oid bo‘lgan subyektiv hodisa hisoblanadi. Lekin ijtimoiy taraqqiyot ko‘zlangan maqsadga erishish yo‘lida amalga oshiriladigan ongli faoliyatning natijasi bo‘lib qolmasdan, unda kishilarning ongi va irodasiga bog‘liq bo‘lmagan obyektiv qonunlar ham amal qiladi. Ehtiyojlarning yuksalib borishi mana shunday obyektiv qonunlar jumlasiga kiradi. Ehtiyoj muayyan ekologik yoki ijtimoiy tizimning o‘ta zarur, obyektiv va mohiyatli talablarini ifodalaydi, ularni qoniqtirish esa ushbu tizimning ko‘ngildagidek faoliyati va rivojlanishini ta’minlaydi.

Har qanday jamiyatda moddiy va ma’naviy ehtiyojlarning yuksalishi umumijtimoiy obyektiv qonun hisoblanadi. Jamiyatning taraqqiy darajasi va undagi ijtimoiy munosabatlar ehtiyojlarning yuksalishi darajasiga ta’sir ko‘rsatadi.

Kutubxona–axborot xizmati jarayonida shuni unutmaslik zarurki, jamiyatning ma’naviy poklanishi ham ehtiyojlar yuksalishiga bog‘liqdir. Ma’naviy ehtiyojlar yuksalishining yo‘nalishi an’anaviylik ustun bo‘lgan jamiyatda insonning ichki dunyosiga qaratiladi, unga nisbatan ruhiy va axloqiy takomillashish talablari ham oshib boraveradi. Lekin bu yuksalish insonning

bunyodkorlik, ijodkorlik faoliyatida “moddiylashmasa”, voqealashmasa, ya’ni samaraga erishishga qaratilmasa, asta-sekin o‘zining teskarisiga – talabchanlik talabsozlikka, ma’naviyat yuksalishi uning qashshoqlashishiga aylanadi va hakozo.

Kishilar o‘zlarining hayotiy faoliyatlari jarayonida ma’naviy qadriyatlarini idrok etish, o‘zlashtirish, ulardan foydalanishga ehtiyoj sezadilar. Ma’naviy ehtiyoj ijtimoiy – tarixiy taqozalanganlikka ko‘ra ma’naviy qadriyatlardan foydalanishga bo‘lgan ehtiyojdir. Ta’kidlash kerakki, ma’naviy ehtiyojlarni qondirish jarayonida asosan ma’naviy qadriyatlardan foydalanish, ularni idrok qilish, o‘zlashtirish amalga oshadi. Moddiy narsalardan foydalanish ma’naviy ehtiyojlarni qondirish jarayonida bilvosita namoyon bo‘ladi. Shuningdek, ma’naviy qadriyatlar va ma’naviy munosabat orqali kishilarning moddiy ehtiyojlari ham qondirilishi mumkin. Masalan, ko‘pincha moddiy mahsulotlarning ishlab chiqarilishiga ximiya va texnologiyaga oid muayyan bilimlarning rivojlanishi sharoit yaratadi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, ehtiyojlar manfaatlar, qizikishlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, muayyan obyektlarga nisbatan anglagan ehtiyojning paydo bo‘lishi ularni inson faoliyati doirasiga kiritadi. Ehtiyojlar va ularga mos keluvchi manfaatlar insonlarni faoliyatga undovchi birlamchi asosdir.

Keng ma’noda ehtiyoj faoliyat subyektining muayyan shart-sharoitlar tizimida meyorida hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan holatdir.

Kishilarning va jamiyatning barcha ehtiyojlari quyidagi ikki guruhga ajratiladi:

1. Kishilarning va jamiyatning jismoniy yashashi hamda rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan moddiy boyliklar, ekologik muhit va h.k..lardan tashkil topuvchi moddiy ehtiyojlar;

2. Ma’naviy faoliyat va uning mahsulotlariga bo‘lgan ma’naviy ehtiyojlar. Bunga bilish, ta’lim, tarbiya, ular uchun zarur bo‘lgan vositalar, fan va texnikani rivojlantirish, axborot tarqatish, huquq, axloq va san’at kabilarni rivojlantirish-ijtimoiy ishlab chiqarish ma’naviy ehtiyojlari ham kiradi.

Ma’naviy ehtiyojlar moddiy ehtiyojlardan bir qancha o‘ziga xos xususiyatalriga ko‘ra farqlanadi.

Ma’naviy ehtiyojlar tarixiy taraqqiyot davomidagina emas, insonning individual rivojlanish jarayonida ham o‘zgarib boradi.

Ma’naviy qadriyatlarni o‘zlashtirish kishilar tomonidan o‘zaro ma’naviy almashuv va ma’naviy muloqotning o‘ziga xos jarayoni sifatida amalga osha boradi.

Ayniqsa, bugungi sayoz, buzg‘unchi, buzuqlikni targ‘ib etuvchi “asarlar” ko‘payib ketgan sharoitda ma’naviy iste’mol muammosi yanada keskinlashib, ma’naviy bilimlar o‘rniga ko‘r-ko‘rona ergashishga asoslangan jaholat kuchayib borayotganidan ko‘z yumish mumkin emas.

Shuning uchun ham bu muammoga prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev alohida to‘xtalib, 2017 yil, 3 avgustda O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasida quyidagicha ta’kidlagan edi: “Biz jaholat deganda odatda, diniy jaholat, aqidaparastlikni tushunamiz. Lekin bugungi hayotiy jarayonlar jaholat hayotning hamma sohasida ham uchrashi, agar unga o‘z vaqtida kurash olib borilmasa, o‘ta og‘ir oqibatlarga olib kelishi mumkinligini ko‘rsatmoqda. Biz bugun jaholat degan baloga iqtisodiyot sohasida ham, ta’lim-tarbiya, sog‘liqni saqlash, madaniyat tizimida ham, qo‘yingki hayotimizning bari jabhalarida duch kelyapmiz va bu illat qo‘l-oyog‘imizda bamisoli kishan bo‘lib turibdi. Bu kishandan xalos bo‘lmasdan turib taraqqiyot va rivojlanish haqida har qanday gap bo‘lishi mumkin emas.

Ayni vaqtda, madaniyat sohasiga jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish, yoshlarimizni haqiqiy san’atni anglashga o‘rgatish, ularning estetik olamini sog‘lom asosda shakllantirish bo‘yicha oldimizda juda muhim vazifalar turibdi”.

Kishilarning ma’naviy ehtiyojlarini muayyan meyorlar asosida chegaralash juda murakkab bo‘lgan jarayondir.

Jamiyatda sog‘lom ma’naviy ehtiyojni shakllantirish shuning uchun ham muhimki, inson va jamiyatning ma’naviy-axloqiy darajasi qashshoqlashsa moddiy iste’molchilik, buyumparastlik psixologiyasi ham shunchalik kuchayib boradi.

Kutubxonada olib boriladigan ma’naviy faoliyat ham ma’naviy-ijodiy, ham amaliy tomondan har bir foydalanuvchining qamrab olinishidan manfaatdordir.

Mamlakatimizda bunyod etilayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-marifiy zaminlarining mustahkamligi davlat va jamiyat manfaatdorligini to‘liq tasavvur etuvchi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘ziga mujassamlashtirgan, unga qat’iy amal qiluvchi, el-yurt manfaatini o‘z manfaati bilann uyg‘unlikda his qiladigan shaxs tarbiyasi bilan, unda sog‘lom ma’naviy ehtiyojini shakllantirish bilan chambarchas bog‘liqdir.

Har bir insondagi rivojlanishga ehtiyoj, kamolotga, yetuklikka intilish hissi iroda, ruhiy harakat, ichki quvvat va ruhiy ehtiyoj sifatida namoyon bo‘ladi. Bunda ma’naviy ehtiyoj alohida o‘rin egallaydi va uning oqilona, sog‘lom tarzda qondirilishi inson kamoloti uchun katta ahamiyatga egadir.

Sog‘lom ma’naviy ehtiyojni shakllantirish bir tomondan jamiyatda mavjud bo‘lgan iqtisodiy imkoniyatlarga, amalga oshirilayotgan g‘oyaviy tarbiya jarayonlariga, kutubxona – axborot xizmati samaradorligiga, tafakkur erkinligiga va mustaqil fikr yuritishga bevosita bog‘liqdir.

Insonning doimiy ravishda erkinlik, adolat, go‘zallik, kamolotga doimiy intilishi, qobiliyatini namoyon etishga, ijod qilishga urinishi uning ma’naviy ehtiyojidan kelib chiqadi. Ma’naviy ehtiyojlar o‘z navbatida sog‘lom ma’naviy ehtiyojlarga va nosog‘lom ma’naviy ehtiyojlarga bo‘linadi.

Afsuski, ilmiy adabiyotlarda hanuzgacha “Sog‘lom ma’naviy ehtiyoj” tushunchasiga aniq ta’rif berilmaganligidan tashqari, ularning darajasini aniqlovchi mezonlar, ko‘rsatgichlar va alomatlar tizimi ham yaratilmagan.

Bizning fikrimizcha, sog‘lom ma’naviy ehtiyoj – har bir foydalanuvchining mustaqil tafakkur yuritish va tanqidiy baholash asosida o‘z ehtiyojlarini muayyan meyoriy chegarada qondira olish ko‘nikmasi asosida uning kamolotiga xizmat qiladigan, ijobiy qobiliyatlari va fazilatlarini boyitadigan, rivojlantiradigan va shu orqali jamiyat taraqqiyotiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan o‘ziga xos ma’naviy tizimdir. Bundan tashqari ushbu tizim har bir shaxs uchun aniq vaziyatni va istiqbolni belgilay olish, aniq vaziyatlarda faoliyat ko‘rsatishning imkoniyatlaridan foydalana bilish iqtidori, axloqiy madaniyati, bo‘sh vaqtidan oqilona foydalanish malakasi singarilarni ham o‘z doirasiga qamrab oladi.

“Nosog‘lom ma’naviy ehtiyoj” – insonda salbiy ma’naviy-axloqiy qusurlarni shaklllantiradigan, nafs xohishlarining cheksiz avj olishiga, tubanlikka yetaklaydigan va bu orqali jamiyatga ham xavf tug‘diradigan ehtiyojlardir.

Demak, ma’naviy ehtiyojlarning sog‘lom va nosog‘lom ma’naviy ehtiyojlarga ajratilishi shaxs ehtiyojlari va uning jamiyatdagi mavjud meyorlarga muvofiq kelmasligi bilan bog‘liqdir. Bunday qarashlar o‘tmishdagi buyuk mutafakkirlar falsafiy qarashlarida ham alohida o‘rin egallaydi. Masalan, Epikurning falsafiy qarashlariga ko‘ra, ehtiyojlar turli tuman bo‘lib, istak – ehtiyojlarning bir turi – tabiiy va zaruriy, ikkinchisi tabiiy, biroq nozaruriy, uchinchilari esa quruq mulohazalarga asoslangan notabiiy va nozaruriy bo‘lishi mumkin.

Epikurning fikricha insonning tabiiy va zaruriy ehtiyojlari asosiy ehtiyojlardir. Bundan shaxsning ma’naviy ehtiyojlarining sog‘lom yoki nosog‘lom ekanligini ko‘rsatuvchi meyorlarni aniqlash zaruriyati kelib chiqadi. Ushbu masalani XVII-XVIII asrning ko‘plab faylasuflari ham tahlil qilganlar. Chunonchi, shu davrning mutafakkirlaridan biri K.Gelvetsiy shaxsning sog‘lom ehtiyojlari shakllanishida muhitning rolini alohida ta’kidlab, asosiy mezon shaxsning va ijtimoiy manfaatlarning uyg‘unlashuvidir degan qarashni ilgari suradi.

Sharq falsafasi, jumladan Markaziy Osiyo mutafakkirlari ijtimoiy-falsafiy ta’limotida, ayniqsa tasavvufda ehtiyojlar masalasi nafs masalasi bilan uzviy bog‘liq tarzda ifodalanadi. Nafsni boshqara olish sog‘lom ehtiyojlarni qondirishdagi asosiy ma’naviy mezon sifatida insonni zo‘ravonlikka, buzuqlikka, munofiqlikka, yuzsizlikka yetaklaydigan nafsning yo‘lini to‘sish, uni cheklashdir. Bu o‘rinda ta’kidlash joizki, sog‘lom ma’naviy ehtiyojni shakllantirishda tasavvuf ta’limotiga oid adabiyotlarni tanlab tavsiya eta bilish kutubxona xodimidan yuqori bilim va yuksak mas’uliyatni talab qiladi.

Shaxsning sog‘lom va nosog‘lom ehtiyojlari haqida fikr yuritilganda, uning biogenetik va fiziologik ehtiyojlari asosiy mezon bo‘lib xizmat qiladi.

Shunga ko‘ra sog‘lom ma’naviy ehtiyojlar bir tomondan shaxsning o‘zining ma’naviy yetukligiga, kamolotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan, shaxs

va jamiyat manfaatlarining uyg‘unlashuvi faoliyat orqali jamiyat taraqqiyotiga o‘z ijobiy ta’sirini o‘tkazadi.

Lekin, sog‘lom ma’naviy ehtiyojni shakllantirish meyorlari haqida so‘z borganida uning murakkabligini ta’kidlab o‘tish joizdir. Eng muhimi, sog‘lom ma’naviy ehtiyojlarning mohiyati insoniylik ruhi bilan yo‘g‘rilganligidir. Sog‘lom ma’naviy ehtiyoj insondagi qobiliyat, imkoniyat va iste’dodni oqilona kuch-qudratga asoslangan holda yuzaga chiqaradi. Inson o‘zidagi bu imkoniyatlarni muntazam ravishda takomillashtirib, yaratuvchilik faoliyatiga safarbar etishi va shu asosda ma’naviy kamolotiga erishib borishi zarur.

Sog‘lom ma’naviy ehtiyojlar haqiqatga, go‘zallikka, poklikka, imon-e’tiqodga, yaxshilikka, adolatga intilish kabi sohalarni o‘z ichiga olganligi uchun bilish ehtiyoji estetik ehtiyoj, axloqiy ehtiyoj, diniy ehtiyojlar shaklida namoyon bo‘ladi. Bu ehtiyojlarning ayrimlari inson sezgilari, tasavvuri, idroki, tuyg‘ulari orqali shakllanadi, boshqalari esa tafakkur jarayoni bilan bog‘liq tarzda kechadi.

Yoshlarning sog‘lom ma’naviy ehtiyojini har tomonlama asoslangan mafkura, insoniylikka tayangan milliy g‘oya asosidagina shakllantirish va qondirilishiga erishish mumkin. Chunki milliy mafkuramiz xalqimizning azaliy an’analariga, udumlariga, dunyoqarashiga, tafakkuriga, tiliga, milliy qadriyatlariga asoslangan.

Sog‘lom ma’naviy ehtiyojlarning tabiati va fazilatlarini belgilashda axloqiy meyorlar, tamoyillarga asoslanish alohida rol o‘ynaydi. Baxtli hayot orzusi har bir insonda unga nisbatan ehtiyojni shaklllantiradi. Baxtga intilish, baxtli bo‘lish insonlardan yuksak axloqiy fazilatlarga erishishni talab qiladi. Abu Nasr Farobiy baxtga erishish yo‘llari haqida shunday ta’kidlaydi: “Baxt-saodatga erishishning birdan-bir yo‘li – barcha ezgu ishlarni xayrli niyat ila bajarish; fazilatli amallarga tayanish barobarida razolat va baxtsizlik keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan ishlardan o‘zini tiya bilishdir”.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida o‘tkinchi bo‘lsada insoniylikka, axloqiylikka zid bo‘lgan turli holatlarning mavjud bo‘lib turishi sog‘lom ma’naviy

ehtiyojni shakllantirishni muhim ahamiyatga ega bo‘lgan dolzarb masala sifatida yuzaga chiqarmokda.

Harakatlar Strategiyasi mazmunini, maqsadini chuqur idrok etib, ularni amalga oshirish uchun jamiyat a’zolarini to‘la safarbar etish, fuqarolik jamiyati qurilishining faol ishtirokchilariga aylantirish, shubhasiz sog‘lom ma’naviy ehtiyojni shakllantirishni talab qiladi. Ma’naviy ehtiyojni yangilanayotgan jamiyat hamda hozirgi axborot texnologiyalarining ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga shiddat bilan kirib kelayotgan, jahonda globallashuv tendensiyalari kuchayib borayotgan bugungi kun talablariga moslashtirmasdan turib mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijobiy o‘zgarishlarda faol qatnashish mumkin emas. Bundan tashqari davlatlar o‘rtasida yildan yilga kuchayib borayotgan raqobat, ba’zi davlatlarning g‘oyaviy-mafkuraviy tazyiqlari, axborotlar huruji, jaholatga asoslangan tashviqotlarining susaymayotganligi, ma’rifatga asoslangan sog‘lom ma’naviy ehtiyojni shakllantirishni dolzarb masalaga aylantirmoqda.

Fuqarolarning turli ijtimoiy tabaqalari, ayniqsa tajribasiz yoshlar turli hil buzg‘inchi g‘oyalar, “san’at asarlari”ning ta’siriga tushib qolishining oldini olish uchun avvalo ularning ongi va tafakkurini ijobiy mazmundagi bunyodkorlik g‘oyalari sari yo‘naltirish lozim. Sog‘lom ma’naviy ehtiyoj har qanday mutaassablik va qoloqlikdan holi, o‘rganilayotgan, idrok va tahlil etilayotgan hodisalarga tanqidiy, ijobiy, shaxsning o‘ziga va jamiyatga foydali bo‘lgan yaratuvchilikka yo‘naltirilgan talablardan kelib chiqib munosabatda bo‘lishidan iboratdir. Sog‘lom ma’naviy ehtiyoji shakllanmagan xar kanday foydalanuvchi adolat, vatan, millat, xalq manfaati, inson erkinligi, imon e’tiqod singari tushunchalar bilan niqoblanib tavsiya qilinadigan, tashqi ko‘rinishiga ko‘ra jozibali, buzg‘unchi, soxta g‘oyalar ta’siriga tez tushib qoladi.

Sog‘lom ma’naviy ehtiyoj shaxsning mustaqil mulohaza yuritish va tanqidiy baholash ko‘nikmasining shakllanishi hamdir.

O‘zining yashash uchun zarur bo‘lgan moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini yaxshi anglagan kishi uchun vaziyatni va istiqbolni to‘g‘ri baholay olish, mavjud xayotiy variantlardan o‘zi uchun eng ma’quli va maqbulini tanlash imkoniyati

paydo bo‘ladi. Ushbu imkoniyatlar obyektiv shart-sharoitlarda va subyektiv maqsadga qaratilgan subyektiv intilishlardan tashqari fikrlash madaniyatini ham taqozo etadi.

Agar ma’naviyatni o‘zagini yuksak axloq, axloqiy fazilatlar tashkil etishi jihatidan yondashadigan bo‘lsak, chin insoniylikka hos bo‘lgan imon e’tiqod, poklik, halollik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, vijdonlilik singari ko‘plab fazilatlarni har bir foydalanuvchida shakllantirmasdan turib, sog‘lom manaviy ehtiyojlar to‘g‘risida so‘z bo‘lishi mumkin emas. Aqlli odam ongining atributi bo‘lgan iymon e’tiqod markaziy o‘rinda turadi. Darxaqiqat imonli odam insoniyat, jamiyat, muayyan madaniyat qadryatlariga xilof fikr, g‘oyalarni qabul etmaydi, ularning rivojlanishi yo‘llarini to‘sadi. Odam inson uchun kurash jarayonida o‘zi ham komil inson bo‘lib shakllanadi. Shuning uchun ham imonli odamdan ta’magir, yulgich, o‘g‘ri, poraxo‘r, toshbag‘ir, qizg‘onchiq odam chiqmaydi. Bu qusurlar olg‘irlik psixologiyasidan holi bo‘lmagan odamlar, imonsizlarga hos illatdir. Imonli odam fidoyi bo‘lgani uchun ham hamisha go‘zallik oshuftasidir., go‘zallikni his qilish qobilyatiga ega bo‘lgan odam, albatta, imonli bo‘ladi.

Inson ma’naviy ehtiyojlarni qondirishiga intilar ekan, uning aqlga muvofiq ekanligiga asosiy e’tiborini qaratishi lozim. Sog‘lom ma’naviy ehtiyojning shakllanishi va ma’naviy axloqiy tamoyillarga tayangan holda qondirilishi foydalanuvchilarning ijtimoiy faolligini oshiradi va manaviy komilikka erishuvining muhim omili bo‘lib hizmat qiladi. Shunga ko‘ra, soglom ma’naviy ehtiyojni shakllantirish demokratik, erkin fuqorolik jamiyati qurilishida nafaqat faol qatnashish, balki uning ma’naviy asoslarini yanada mustahkamlash, xarakatlantiruvchi kuchiga aylanishiga imkon beradi degan xulosaga kelishi mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, birinchidan, turli usullar va vositalar orqali shakllantiradigan ehtiyojlar tizimida kutubxonda axborot xizmati orqali tarbiyalanadigan sog‘lom ma’naviy ehtiyojlar yetakchi o‘rin tutadi. Ehtiyojlarning boshqa tur va ko‘rinishlari yuzaga kelishi va qondirilishida insoniylik meyorlari va mezonlarini belgilovchi o‘rin egallaydi. Lekin, ta’qidlash kerakki, bu jarayonda

ularning xaqiqiy insoniy mohiyat kasb etishi sog‘lom ma’naviy ehtiyojlarga asoslanadi.

Ikkinchidan, sog‘lom ma’naviy ehtiyojlar o‘zining mohiyatiga ko‘ra shaxs va jamiyat ma’naviy ehtiyojining bir-birini taqozo qiluvchi va o‘zaro aloqadorlikda bo‘lgan dialektikasini aks ettiradigan hodisadir. Bu murakkab hodisaga shaxsiy va ijtimoiy tajriba, ruhiy psixologik hususiyat hamda boshqa ma’naviy axloqiy jihatlar uzviy birlikni tashkil etadi.

Uchinchidan, sog‘lom ma’naviy ehtiyojlarning shakllanishi foydalanuvchilarning faqat ijtimoiy qadriyatlar va meyorlarni o‘zlashtirish darajasi bilan cheklanib qolmaydi, balki shaxsning hayotiy faoliyatida orttirgan tajribasi asosida boyib, jamiyat taraqqiyotiga ijobiy tasir ko‘rsatuvchi omilga aylanib boradi. Shunga ko‘ra foydalanuvchilarda sog;lom ma’naviy ehtiyojni shakllantirishda uning subyektiv va obyektiv shart-sharoitlar zamirida vujudga kelishi va rivojlanishini e’tiborda tutish zarurdir.

To‘rtinchidan, “sog‘lom ma’naviy ehtiyoj” tushunchasi mavhum emas, balki jamiyat va shaxs o‘zaro ta’siri natijasida ma’naviy ehtiyojlarni soglomlashtirishga hizmat qiladigan muayyan qadriyatlar va meyorlar tizimini tashkil etadi. Bularga imon, qanoat, insof, diyonat, e’tiqod, mustaqil fikrlash, aql farosat singari ma’naviy tushunchalar kiradi, ularning shaxs va jamiyat hayotining amaliy tamoyillariga aylanishi asosida shakllangan ma’naviy barkamollik darajasini ifodalaydi.

Beshinchidan, sog‘lom ma’naviy ehtiyojni shakllantirish bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida ma’naviy ehtiyojlarning qaror topishi va uning qondirilishidagi o‘ziga hos hususiyatlarni hisobga olishni talab qiladi.

Chunki, bugungi bozor iqtisodiyotiga asoslangan munosabatlar sharoitida individualizm va hudbinlik o‘z manfaatini boshqalar manfaatidan ustun qo‘yish, insofsizlik, oddiy axloqiy talablarga ham amal qilmaydigan xulq-atvor va psixologiyaning saqlanishiga hozircha zamin mavjuddir. Shuning uchun ham xar bir foydalanuvchida sog‘lom ma’naviy ehtiyojni shakllantirish, ularning faoliyatlari orqali jamiyat barqarorligini saqlash hamda muayyan vaziyatlarda

o‘zlarining yuksak insoniylik tabiatini namoyon qilishlarida muhim omil bo‘lib hizmat qiladi.

IV BOB. Kutubxona-axborot xizmati ko‘rsatishning xalqaro miqyosdagi va mamlakatimizdagi huquqiy meyoriy asoslari

Kutubxona jamiyatning tarkibiy qismi bo‘lganligi uchun uning faoliyati mamlakatda qabul qilingan qonunlar tomonidan boshqariladi. Lekin, axborot almashuvining kuchayishi, ayniqsa, internet vositalarining kuchayishi oqibatida axborot makoni kengayib bir butun jahon axborot makoni shakllandi.

Shunga ko‘ra undan foydalanishga oid qonunlar, qoidalar ham xalqaro miqyosdagi meyorlarga amal qilishni talab qiladi.

Bugungi kunda kutubxona-axborot xizmatini takomillashtirish va samaradorligini oshirishga ijobiy tasir kursatuvchi xalqaro miqyosda va mamlakatimizda qabul qilingan hujjatlar quyidagi uch guruhdan iboratdir:

1) Xalqaro tashkilotlarning (BMT, YUNESKO, Yevropa Kengashi va boshqalar) jahon hamjamiyatining, jumladan, kutubxonalar rivojlanishining umumiy asoslariga oid hujjatlari;

2) Xalqaro tashkilotlarning bevosita kutubxona-axborot xizmati sohasiga doir hujjatlari;

3) Mamlakatimizda kutubxona-axborot xizmati ko‘rsatish O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasiga, Konunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarorlari va Farmonlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarorlariga, O‘zbekiston axborot va ommaviy kommunikasiyalar agentligi qarorlari va yo‘riqnomalariga, Respublika axborot-kutubxona tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha idoralararo Kengash Nizomiga, Axborot-kutubxona markazi Namunaviy Nizomiga amal qiladi.

Hujjatlarning birinchi guruhi xalqaro tashkilotlar faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Inson huquqlari Umumjahon deklarasiyasi (BMT Bosh assambleyasi tomonidan 1948 yil 10-dekabrda qabul qilingan)
- “Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Konvensiya (Yevropa kengashi tomonidan 1950-yilda qabul qilingan)
- “Yevropa madaniy Konvensiyasi” (Yevropa Kengashi tomonida 1954-yilda qabul qilingan)
- “Xalqaro madaniy hamkorlik prinsiplari Deklarasiyasi” (BMT fan, talim, madaniyat bo‘yicha hayati tomonidan 1966-yilda qabul qilingan)
- “Axborotlashgan jamiyat: Yevropaga chaqiriq Siyosiy Deklarasiyasi”(Yevropa kengashi tomonidan Solonikada 1997-yilda qabul qilingan)
- “Axborot hamma uchun” Yevropa dasturi (2000-yil)

Yuqoridagi barcha hujjatlar barcha xalqlar va jamiyatlar hal etishi lozim bo‘lgan asosiy insoniy huquqlar, tafakkur erkinligi, shuningdek, axborotdan erkin foydalanish huquqini taminlashga yo‘naltirilgan.

Ushbu hujjatlar barcha vositalar orqali axborotdan foydalanish, xalqaro miqyosda madaniy aloqalarni kuchaytirish, jahon taraqqiyotining insoniy, aqliy va axloqiy birdamligiga asoslanishi, xalqlar o‘rtasida tinchlik va do‘stlik munosabatlarini kuchaytirish, har bir xalqning turmush tarzi va madaniyatini, adabiyoti va sanatini o‘rganishga imkoniyatlar yaratish, bilimlar va tajribalarni o‘rganish muhitini xosil qilishga chaqirikdir.

Shu bilan birga yangi texnologiyalardan foydalanishda turli maqsadlarning ko‘yilishi natijasida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan xavflarning oldini olish maqsadida barcha mamlakatlar kuchlari va vositalarini birlashtirish masalasi ham ilgari suriladi.

Hujjatlarda yangi axborot texnologiyalari va xizmatlaridan foydalanishda jahon hamjamiyati oldiga qo‘yiladigan vazifalar quyidagilardir:

- Axborot va xizmat ko‘rsatishda milliy va hududiy o‘ziga hoslikni hisobga olish;

- Aholini yangi xizmat va kommunikasiya vositalaridan foydalanishga o‘rgatish;

- Inson huquqlariga zid bo‘lgan zo‘ravonlik, toqatsizlik, g‘oyaviy kurashlarni targ‘ib qilishga qarshi kurashish, ular uchun huquqiy asoslarni ishlab chiqish;

- Elektron texnologiyalar evolyusiyasini muntazam o‘rgatib borish, mualliflik huquqlarini himoya qilish;

Umumlashtirib aytganda, ushbu xalqaro hujjatlar o‘ta muhim bo‘lgan quyidagi masalalarni xal etishni maqsad qilib qo‘yadi:

1) Ananaviylikni saqlash va raqamli madaniy merosni yaratish;

2) Taraqqiyotda uzilish va tengsizlikni qisqartirish;

3) Axborotning erkin oqimining kafolatlanishi, axborotdan foydalanishda adolatlilik;

4) Yangi meyor va tamoyillarda xalqaro kelishuvga erishish

Ushbu xalqaro hujjatlar kutubxonachilik sohasining ham rivojlanishi uchun mustahkam asos bo‘lib hizmat qiladi.

- “Ommaviy kutubxonalar to‘g‘risida YUNESKO Manifesti (1994y);

- “Markaziy Yevropada Kutubxona qonunchiligini isloh qilishga oid tavsiyalar” (1994y);

- “Hozirgi zamon jamiyatida kutubxonalarining roli xaqida Rezolyusiya” (1998y);

- “Yevropada kutubxona siyosati va kutubxonachilik qonunchiligi bo‘yicha yetakchi tamoyillar” (1998y);

-“Yevropada kutubxona konunchiligi bo‘yicha tavsiyalar loyihasi(Strasburg,1999y.);

- “Ommaviy kutubxonalar to‘g‘risidagi Kopengagen deklarasiyasi” (1999y.);

- “Kutubxonalar va intellektual erkinlik haqida Bayonot”(1999y.);

- “Internet to‘g‘risida IFLA Manifesti” (2002y.) ;

- “Maktab kutubxonalari to‘g‘risida IFLA/ YUNESKO Manifesti” (1996y.);

Ushbu xalqaro hujjatlar bevosita kutubxonachilik sohasiga tegishli bo‘lib, jumladan, 1998-yilda Yevropa Kengashi tomonidan qabul qilingan “Yevropa kutubxona siyosati va kutubxonachilik qonunchiligi bo‘yicha yetakchi tamoyillar”da kutubxonaga oid qonunchilikning quyidagi harakat “maydoni” belgilab berilgan:

- So‘z erkinligi va axborotni qabul qilish erkinligi;
- Milliy kitob va axborot siyosatida kutubxonachilikning roli;
- Kutubxonalar va intellektual mulk;
- Kutubxona merosini himoya qilish

Ushbu hujjatda har qandan tasir o‘tkazishlardan holi holda kutubxona fondini shakllantirish, foydalanuvchilarning alohida guruhlariga kutubxona-axborot xizmati ko‘rsatish, kutubxonalarning huquqiy maqomi, mualliflik huquqiga tegishli tamoyillarga oid masalalar yoritib berilgan.

Ayniqsa, IFLA tomonidan qabul qilingan hujjatlarda kutubxonachilik ishini rivojlantirishning quyidagi 10 ta yo‘nalishi belgilab berilgan:

1) Kutubxonachilik ishini qo‘llab quvvatlash;
2) Axborot erkinligi tamoyillarini himoya kilish;
3) Savodxonlik, mutolaa va uzluksiz talimni rivojlantirishga har tomonlama yordam ko‘rsatish;
4) Axborotlardan teng, ochiq va erkin foydalanish;
5) Kutubxonalar va mualliflarning intellektual mulkiy hukuklarini himoya qilish;
6) Jamoaviy resurslarni rivojlantirish, hukukiy va davlat chegaralaridan qatiy nazar hujjatlardan cheklovlarsiz foydalanish;
7) Intellektual merosni asrash;
8) Metodik tavsiyalar, standartlar, meyorlarni targ‘ib qilish;
9) Kutubxonachilar birlashmalari infratizimini qo‘llab-quvvatlash;
10) Texnologiyalar bozorida kutubxonalar qiziqishlarining vakilligi (IFLA xalqaro miqyosda kutubxonalar va foydalanuvchilarning vakili hisoblanadi).

2002-yilda qabul qilingan “Internet to‘g‘risida IFLA Manifesti”da kutubxonalarning huquqlari va foydalanuvchilarning internet resurslaridan foydalanishiga oid asosiy qoidalari belgilab berilgan bo‘lib ular quyidagilardir:

- Intellektual erkinlik har bir kishining huquqi va demokratik asosidir. Intellektual erkinlik kutubxona-axborot faoliyatining ham asosini tashkil etadi;
- Axborotdan erkin foydalanish huquqini ham taminlash-kutubxonachilik kasbining asosiy vazifalaridir;
- Axborot oqimiga to‘sqinlik qilmaslik,axborotdan foydalanishda hammaning tengligiga amal qilish;
- Foydalanuvchilarga axborot va resurslarni taqdim etish, ularni internet va elektron axborotdan foydalanishga o‘rgatish va ushbu xizmatlarni tekin amalga oshirish.

Kutubxona-axborot xizmatiga oid xalqaro hujjatlarda internetdan foydalanish “tarmoq etikasi”ga oid qoidalar ham ishlab chiqilgan bo‘lib ular quyidagilardir:

1) Inson haqida o‘yla;
2) Onlayn tarzidagi kommunikativ holatda hayotdan xatti-harakat qoidalarga amal qilgandek faoliyatda bo‘l;
3) Kompyuter tarmog‘i makonining qaysi nuqtasida turganingni aniq bil;
4) Birovlarning vaqtiga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘l;
5) Onlayn tartibidagi muloqotda hushmuomala bo‘l;
6) Maxsus bilimlar bilan o‘zaro almashuvda bo‘l;
7) Hissiyotlarga berilma;
8) Boshqa kishilarning shaxsiy hayotini hurmat qil;
9) O‘z imkoniyatlaringdan bema’ni maqsadda foydalanma;
10) Boshqalarning xatosiga nisbatan kechirimli bo‘l.

Bunda Internetdan foydalanishda har bir foydalanuvchining axloqiy tamoyillarga tayangan holda o‘z-o‘zini idora qila bilishi, boshqarishiga alohida ahamiyat beriladi.

Hujjatlarning uchinchi guruhi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi;

- Kadrlar tayyorlash milliy dasturi (1997yil 29avgust);

- O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Konuni (2003yil 11dekabr);

- O‘zbekiston Respublikasining “Axborot-kutubxona faoliyati to‘g‘risida”gi Konuni (2011 yil 13-aprel).

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi axborot-resurs markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori(2012 yil, 20mart);

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining elektron kutubxona to‘g‘risidagi namunaviy nizomi hamda axborot-kutubxona va axborot-resurs markazlarida va kutubxonalarda to‘liq matnli elektron-axborot-kutubxona resurslari fondini yaratish reja- jadvalini tasdiklash haqida”gi Qarori (2011 yil 5 iyul);

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus talim vazirligi xuzurida Talim muassasalarida elektron talimni joriy etish markazini tashkil etish to‘g‘risida ”gi Karori (2012yil 25 iyul);

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini tashkil qilish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi Farmoyishi (2017 yil, 12 yanvar);

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi Qarori (2017 yil, 16-sentabr);

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qarori (2019 yil, 10 iyun).

Mamlakatimizda yuqorida takidlab o‘tilgan huquqiy meyoriy hujjatlar asosida umumlashtirilgan tarzda quyidagi maqsad va vazifalar belgilab berilgan:

- Yuqori sifatli kutubxona – axborot xizmatini taminlash hisobiga foydalanuvchilarning mutolaa ehtiyoji va axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish
- Bosma nashr mahsulotlari, malumotlar va axborotdan erkin foydalanish;
- Har bir foydalanuvchining kamol topishi, talim va mustaqil bilim olishi, madaniy faoliyati, bo‘sh vaqtini oqilona tarzda tashkil etishi uchun shart-sharoitlar yaratish.

Bundan tashqari kutubxona-axborot xizmatining quyidagi asosiy vazifalari ham belgilab berilgan:

1) Foydalanuvchilarga kutubxona-axborot xizmati ko‘rsatishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, ularning ilmiy, talim, axborot va madaniyat sohasidagi qiziqishlarini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida tezkorlik bilan qondirish;

2) Foydalanuvchilarga ananaviy xizmat ko‘rsatish bilan birga axborot resurslarini yaratish va jahon ilmiy, talim, axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirib borish;

3) Universal axborot resurslari, milliy va xorijiy nashrlar (bosma nashr mahsulotlari, audio vizual, elektron va boshqa) fondlarni shakllantirish, saqlash va foydalanish uchun berish;

4) Yig‘ma elektron katalog yordamida axborot resurslarini birlashtiruvchi elektron kutubxonalar va malumot bazalarini yaratish;

5) Joylarda axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatish yo‘nalishi bo‘yicha faoliyatni muvofiqlashtirish hamda tashkiliy metodik jihatdan taminlash;

6) Foydalanuvchilarga tabaqalashtirilgan kutubxona axborot xizmati ko‘rsatishni takomillashtirish uchun ularning qiziqishlari, bosma nashrlar, malumotlar, axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini o‘rganish asosida har xil manbalarni taqdim etish;

7) Mutolaa, bilim olish va ijodiy faoliyatda kommunikasiyaga tayangan xolda mustaqillikni shakllantirish uchun shart-sharoit yaratish;

8) Masofadan turib o‘qitishni rivojlantirish bilan birga mustaqil mutolaa ko‘nikmalarini shakllantirish;

9) Kutubxona-axborot xizmatidan muntazam foydalanish ko‘nikmasining shakllanishiga yordamlashish orqali bilimlar, ko‘nikmalar va malaka majmuining bosma nashr mahsulotlari va axborotlar bilan ishlash integrasiyasiga ko‘maklashish;

10) Foydalanuvchilarning mutolaa, mustaqil bilim olish va bo‘sh vaqtlarni oqilona tashkil etishda bosma nashr mahsulotlari, madaniy va axborot faoliyati orqali tasir o‘tkazish;

11) Foydalanuvchilarning umumiy va mutolaa madaniyatini, tahliliy, tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga yordam beruvchi yakka, guruhli, ommaviy ishlarni tashkil etish;

12) Foydalanuvchilarning ilmiy tadqiqot ishi, talim, tadbirkorlik, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish bilan bog‘lik talab va qiziqishlarini, extiyojlarini o‘rganish, ularning qondirilishiga yordam berish;

13) Belgilangan tartibda “Ziyo NET” respublika ilmiy talim axborot tarmog‘iga ulanish, uning resurslaridan foydalanuvchilar barcha guruhlarining foydalanishini taminlash

14) Foydalanuvchilarning kasb mahoratini, malakasini oshirishga yordam berish;

15) Foydalanuvchilarning so‘rovlariga ko‘ra ixtisoslashtirilgan malumotlar bazasini yaratish;

16) Erkin va pullik xizmat ko‘rsatish asosida malumotlar bazasidan foydalanishni, ilmiy-talimiy elektron nashrlar namoyishini tashkil etish;

17) Kundalik axborotlashtirish ishlarini axborot kunlari,yangi bosma nashr mahsulotlari va elektron nashrlarning sharxi va axborot ro‘yhatlari vositasida amalga oshirish;

18) Joriy xabardor qilishni amalga oshirish(axborot kunlari,yangi kelgan nashrlar va materiallar sharhi);

19) Axborot madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish boʻyicha oʻquv mashgʻulotlarini oʻtkazish;

20) Fondlarda nashr mahsulotlari, hujjatlar va materiallar boʻlmagan taqdirda ularni qidirib topish ishlarini amalga oshirish hamda ularni kutubxonalararo abonoment,shu jumladan xalqaro abonoment tizimi orqali taqdim etish;

21) Kutubxona-axborot xizmatini reklama qilish, foydalanuvchilarning ehtiyojini oʻrganish asosida ularning talablariga muvofiq yangi xizmatlarni tashkil etishdan iboratdir

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish ,kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targʻibot qilish boʻyicha komissiya tuzish toʻgʻrisida"gi 2017 yil, 12-yanvardagi Farmoyishi hamda "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targʻib qilish boʻyicha kompleks chora-tadbirlar dasturi toʻgʻrisida"gi 2017 yil, 13- sentabrdagi Qarorida kutubxona-axborot xizmatini yanada yuksak saviyaga koʻtarishning yoʻnalishlari belgilab berilgan. Bular mutolaa madaniyati va kitobxon madaniyatini oshirish , foydalanuvchilar qiziqishi, ehtiyoji,talabi boʻyicha ijtimoiy soʻrovlar oʻtqazish, kutubxona-axborot xizmatiga aholining yanada kengroq qatlamlarini qamrab olish, kitoblar mualliflari bilan ijodiy uchrashuvlar uyushtirish ,mutolaa va kitobxonlik madaniyatini oshirishga doir ishlarni tizimli va samarali tashkil etish , bu borada foydalanuvchilar, kutubxonachilar va targʻibotchilar oʻrtasida "Eng kitobxon maktab" "Eng kitobxon mahalla" "Eng kitobxon oila " "Eng faol kutubxonachi" kabi koʻrik tanlovlarlarning saralash va respublika bosqichlarini yuqori saviyada oʻtqazish kabi vazifalardan iboratdir.

Ushbu vazifalarning amalga oshirilishi kutubxona-axborot xizmati samaradorligini yanada oshirish, davr talablariga mos va monand tarzda takomillashtirib borishga yordam beradi.

V. BOB. Kutubxonachi va foydalanuvchilar kutubxona-axborot xizmati ijtimoiy –madaniy jarayonining teng huquqli ishtirokchilari sifatida.

Kutubxona-axborot xizmatini ijtimoiy - madaniy faoliyat sifatida tushunish kutubxonaning ijtimoiy institut sifatida bilimlarni, axborotlarni yig‘ish va saqlash, asrashdan tashqari ularni avloddan avlodga, insondan insonga yetqazishga ham asoslanadi.

Shunga muvofiq kutubxona-axborot xizmati foydalanuvchilarning ma’naviy, madaniy, talimiy va axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi va kutubxonalarni qonuniyatli tarzda madaniyatlararo va ijtimoiy kommunikasiya institutlari bilan bir qatorga qo‘yadi.

Kutubxona-axborot xizmatining rivojlanish jarayoni uning ishtirokchilari bo‘lgan kutubxonachi va foydalanuvchilarning o‘zaro bog‘liqlikdagi munosabatlarini hisobga olishni talab qiladi. Ushbu jarayonni tashkil etishning samaradorligi iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlarga muvofiq ehtiyojlari o‘zgarib boruvchi foydalanuvchilarni o‘rganish bilan birga kutubxonachilarning ham kasbiy sifatlarini o‘rganishga bog‘liqdir. Shunga ko‘ra kutubxona muloqotini o‘rganish ehtiyoji ham kelib chiqadi.

5.1 Foydalanuvchilarni o‘rgatish umumjahon muammosi sifatida

Mutolaa jarayoni , foydalanuvchilar va ularning hohish istaklari, ehtiyojlarini muntazam o‘rgatib borish dunyoning barcha mamlakatlarida kutubxona-axborot xizmatini yanada yaxshiroq yo‘lga qo‘yish maqsadida amalga oshiriladi.

Tadqiqotlarni tashkil etish , ularda turli usullarning qo‘llanilishi har bir mamlakatdagi shart-sharoit, uning madaniyati,talim tizimi, iqtisodiyoti va siyosati bilan chambarchas bog‘liqdir.

So‘nggi 15-20 yil ichida o‘tkazilgan sosiologik tadqiqotlar natijalariga ko‘ra mutolaa tizimida jahon bo‘yicha quyidagi tendensiya kuzatilgan:

- Mutolaaga ajratilgan vaqtning kamayganligi;
- Mutolaaga qiziqishning pasayganligi;

- Mutolaa jarayoniga koʻngilochar mashgʻulot kabi munosabatda boʻlish.

Ushbu vaziyatni oʻzgartirish maqsadida koʻpgina mamlakatlarda mutolaa jarayonini qoʻllab quvvatlash va rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilingan.

Mamlakatimizda xalqimiz, avvalo yoshlarning manaviy-marifiy, badiiy-estetik talablariga javob beradigan kitoblarni yuksak sifat bilan chop etish, joylarga ,talim muassalariga vaqtida va maqbul narxlarda yetqazish, milliy va jahon adabiyotining eng sara namunalarini tarjima qilish, farzandlarimizga bolalikdan boshlab kitob, jumladan, elektron kitob oʻqish koʻnikmasini shakllantirish, jamiyatimizda mutolaa madaniyati yuksaltirish bilan bogʻliq muhim masalalarni hal etishning dolzarbligidan kelib chiqgan holda Uzbekiston Respublikasi Prezidentining “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targʻibot qilish boʻyicha komissiya tuzish toʻgʻrisida”gi 2017yil,12yanvardagi Farmoyishi , “Kitob maxsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish,kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targʻib qilish boʻyicha kompleks chora-tadbirlar dasturi toʻgʻrisida”gi Qarori qabul qilindi.

Ushbu qarorga koʻra mamlakatimizda internet orqali zarur adabiyotlarni topish va harid qilish imkonini beradigan READER elektron oʻquv qurilmalarini ishlab chiqarishni tashkil etish, ularning axborot bazasiga umumtalim maktablari, akademik lisey va kasb-hunar kollejlari, oliy oʻquv yurtlari uchun darsliklar, oʻquv qoʻllanmalari, ilmiy-uslubiy, ilmiy-nazariy manbalarni joylashtirish,bunday mahsulotlarni arzon narxlarda sotib olish mehanizmini yoʻlga qoʻyish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirishga doir targʻibot ishlarini tizimli va samarali tashkil etish, bu borada foydalanuvchilar va kutubxonachilar oʻrtasida turli mavzularda koʻrik-tanlovlar oʻtkazish,ularning gʻoliblarini ragʻbatlantirib borish chora-tadbirlari belgilandi. Bugungi kunda jamiyatimizda mutolaa madaniyatining shakllanishi sezilarli darjada jonlanib bormoqda.

Koʻpgina tadqiqotchilarning fikriga koʻra bugungi kunda mutolaaning holati jamiyatning umumiy holatiga mos boʻlib, asosiy masuliyat shaxs mavjudligining ijtimoiy shart-sharoitlaridadir. Mutolaa, alohida shaxs singari ijtimoy guruhlarda

ham o‘z “asosi” bo‘lgan siyosat ,iqtisod, mafkura, talim tizimi, ommaviy axborot vositalari, nashriyotchilik faoliyati bilan chambarchas bog‘liqlikda bo‘ladi. Iqtisodiy hayot darajasining pastligi aholining ko‘plab ijtimoiy tabaqalarining qadriyatlarga yo‘nalishlarining o‘zgarishiga olib kelishi o‘z navbatida muloqot va foydalanuvchilar hatti-harakatidagi o‘zgarishlarga ham olib kelishi mumkin.

Shunga ko‘ra mutolaa madaniyati darajasini o‘rganish alohida ahamiyatga ega bo‘lib , foydalanuvchilarni muayyan tiplarga ajratish asosida yondashuv kutubxona-axborot xizmati ko‘rsatish samaradorligini oshirish nuqtai nazaridan ham qimmatlidir

Rossiyalik tadqiqotchilar S.A.Trubnikov, L.I.Belyayeva va boshqalar badiiy adabiyot mutolaasiga ko‘ra foydalanuvchilarni bir qancha tiplarga ajratadilar

Masalan, S.A.Trubnikov ularni quyidagi tiplarga ajratadi:

Birinchi tip-muayyan va aniqlashmagan didga ega bo‘lgan foydalanuvchilar. Ularning manba tanlashi tasodifiylik xususiyatiga ega bo‘lib, so‘rovi “birorta qiziqarliroq kitob bering” tarzida bo‘ladi.

Ikkinchi tip - qiziqishlari va didlari bir tomonlama rivojlangan (tanlashda faqat josuslik, sevgi-muhabbat va sportga oid manbalar) qiziqishlar va didlarning boshqa tomonlari rivojlanmagan foydalanuvchilar.

Uchinchi tip- qiziqishlari bir tomonlama rivojlangan, didlarining boshqa yo‘nalishlari nisbiy rivojlangan foydalanuvchilar bo‘lib, manbani baholash , tanlashdagi xatolardan hulosa chiqara olish iqtidoriga egadir.

To‘rtinchi tip - qiziqishlari har tomonlama, lekin, adabiy-badiiy didning boshqa yo‘nalishlari nisbiy rivojlangan,faol, mualliflar, mavzular va janrlar bilan qiziquvchi foydalanuvchilar.

Beshinchi tip - adabiy-badiiy didi uyg‘un rivojlanmagan, lekin, nashr mahsulotlarini tanlashda faol, qiziqishlari keng va har tomonlama rivojlangan foydalanuvchilar.

Oltinchi tip - adabiy-badiiy didi nisbiy uyg‘un rivojlangan, tanlovi har tomonlama va maqsadga qaratilgan foydalanuvchilardir.

Albatta, foydalanuvchilarni bunday tiplarga ajratish shartli bulib, ular o‘zlarining qiziqishlari,ehtiyojlari,motivlariga ko‘ra alohida va murakkab xususiyatlariga egadir. Bundan tashqari foydalanuvchilarning alohida ehtiyojli guruhlari ham mavjud bo‘lib, ularni o‘rganish kutubxona-axborot xizmati ko‘rsatishdagi muhim ijtimoiy vazifadir.

5.2. Kutubxona-axborot xizmati jarayonini o‘rganishning sosiologik va psixologik yunalishlari

Kutubxona-axborot xizmati jarayonini o‘rganishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

- kutubxona-axborot xizmatidan foydalanuvchilarni bilim, malumot, axborot istemolchisi sifatida o‘rganish;
- kutubxona muassasalarining zahirasini o‘rganish;
- kutubxona-axborot xizmatidan foydalanuvchilar va kutubxonachilarning mutolaasini o‘rganish;
- kutubxonachilar va foydalanuvchilar muloqatini o‘rganish;
- psixologik boshqaruv asoslarini o‘rganish;
- jamoadagi sog‘lom psixologik muhitni yaratish muammolarini o‘rganish;
- kutubxonalararo hamkorlik muammolarini o‘rganish;

Bundan tashqari axborot texnologiyalarini o‘zlashtirish, innovasiyalarni joriy qilishda psixologik to‘siqlarni bartaraf qilish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish, o‘z-o‘zini boshqarish metodlarini egallash, ish joyida, oilada konfliktsiz muloqot o‘rnata bilish masalalarida kutubxonachilarga psixologik xizmat yordam ko‘rsatadi.

Kutubxona-axborot xizmati jarayonida qo‘llaniladigan barcha metodlar foydalanuvchilar psixologiyasida, kutubxona-axborot xizmati amaliyotida, kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimida, bosma va elektron kitoblar bozorini shakllantirishda va boshqa soxalarda keng qo‘llash mumkin bo‘lsagina obyektiv bo‘ladi. Bunda umumiy aloqadorlik va o‘zaro tasir tamoyili asosida yondashiladi. Kutubxona –axborot xizmati jarayonini o‘rganishda kuzatish, eksperiment, so‘rov,

intervyu, statistik metod, suhbat, foydalanuvchi formulyarini tahlil qilish, foydalanuvchilarning talabnoma varaqalarini tahlil qilish, malumot bibliografiya ishlarini tahlil qilish va boshqa metodlardan foydalaniladi.

Kutubxona-axborot xizmati jarayonini o‘rganishning maxsus metodi u yoki bu umumiy metodlardan , kutubxona turiga ko‘ra uning hususiyatlarini hisobga olgan holda malumotlarni hisobga olish vositasi sifatida foydalaniladi

Kutubxona malumotini hisobga olish asosan statistika yo‘li bilan : kutubxona ishini hisobga olish, foydalanuvchi va nashr mahsuloti formulyarini to‘ldirish va boshqa yo‘llar bilan amalga oshiriladi

Ayrim hollarda, vaziyat taqozosi bilan maxsus metodlar foydalanuvchi qiziqishini o‘rganishning hususiy metodi ham bo‘lib kelishi mumkin.

Xususiy metodga foydalanuvchi va nashr mahsuloti formulyarini, malumot-bibliografiya ishlarini, talabnoma qog‘ozini tahlil qilish kabi jarayonlar kiradi.

Kutubxona-axborot xizmati jarayonini o‘rganishda metodni to‘g‘ri tanlash hamda foydalanishda u yoki bu metodning o‘ziga hos xususiyatini hisobga olish lozim. Ayrim-ayrim metodlar yordamida har doim foydalanuvchi qiziqishi va ehtiyojiga doir malumotlarni to‘liq umumlashtirishga erishib bo‘lmaydi. Kutubxona-axborot xizmatini o‘rganishda umumiy va maxsus metodlarni birgalikda qo‘llash orqaligina ijobiy natijalarga erishish mumkin.

5.3 Foydalanuvchilarni o‘rganishning eng umumiy metodlari

Foydalanuvchilarni o‘rganishning eng umumiy metodlari kuzatish va eksperement, so‘rov va intervyu metodlaridir.

Kuzatish o‘rganilayotgan obyekt to‘g‘risida ushbu obyektga bevosita taalluqli hamda tadqiqot maqsadlari nuqtai nazaridan ahamiyatli bo‘lgan faktlarni bevosita idrok etish hamda ro‘yhatga olish yo‘li bilan axborotni to‘plash metodidir.

Tadqiqot metodi bo‘lgan kuzatishning asosiy xususiyati kuzatuvchining kuzatish obyekti bilan aloqasidir. Tadqiqotchining kuzatilayotgan ijtimoiy

hodisalarni emosional (hissiy) idrok etishi, kuzatish natijalariga uning ishtiyoqining, dunyoqarash pozisiyalarining va hokozolarning tasiri shundandir.

Qo‘shilib(ishtirok etgan holda) hamda qo‘shilmay (ishtirok etmagan holda)kuzatish farqlanadi. Qo‘shilmay kuzatishda tadqiqotchi o‘rganilayotgan obyektdan tashqarida turadi va hodisalarda ishtirok etmay,ularni ro‘yhatga oladi.

Qo‘shilmay kuzatishda odatda foydalanuvchilarning katta guruhlari jalb etilgan ommaviy jarayonlarni o‘rganish uchun foydalaniladi. Qo‘shilib kuzatish deb,kuzatuvchi o‘zi kuzatayotgan jarayon qatnashchilari bilan bevosita aloqada bo‘lib,ularning faoliyatida ishtirok etadigan kuzatishi turiga aytiladi (yani kuzatuvchi tadqiq etilayotgan jarayonga qo‘shilgan bo‘ladi).

Bunda tadqiqotchi o‘rganilayotgan guruhga, o‘zining tadqiqotchilik vazifasini yashirib, uning ishtirokchisi sifatida kirgan holda to‘la qushilib kuzatishi natijasidagina eng to‘g‘ri malumot olish mumkin.

Kuzatish metodi kutubxonalarda foydalanuvchilar qiziqishini o‘rganish metodlarining asosini tashkil etadi. Tajribali kutubxonachi mutolaa harakterini kuzatib foydalanuvchining manaviy o‘sishi darajasini aniqlaydi. Bunda mutolaa jarayoni kuzatilayotgan foydalanuvchining formulyariga alohida belgi qo‘yilgandan so‘ng belgilangan muayyan muddatda amalga oshiriladi. Kuzatish bir yilga yoki undan ko‘proq muddatga mo‘ljallangan bo‘lishi mumkin. Kuzatish suhbatni to‘ldiradi, suhbat natijalarining to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini tasdiqlaydi, shuningdek, foydalanuvchi bilan yangidan suhbat tashkil etish uchun material beradi.

Kuzatish metodini qo‘llash natijalarni muntazam tarzda qayd etib borish orqali muayyan foydalanuvchilar guruhining yoki ayrim foydalanuvchining qiziqishi, talabi, ehtiyojini o‘rganishga qaratilgan o‘ziga hos ijodiy jarayon bo‘lishi zarur. Shuningdek, kuzatish metodini qo‘llash orqali chiqarilgan muayyan hulosaning obyektivligi uning boshqa metodlar bilan birgalikda qo‘llanilishiga bog‘liq bo‘ladi.

“Eksperiment” lotincha experimentum (sinov, tajriba)

soʻzidan kelib chiqqan. Eksperiment deganda, juda umumiy tarzda eksperiment oʻtkazilayotgan obyektni shunday tadqiq qilish tushuniladiki, bu tadqiqot jarayonida eksperimental omil (eksperimental tadqiqot uni oʻrganishga yoʻnaltirilgan)ning amal qilishi bilan ushbu obyektning kuzatilayotgan xususiyatlari oʻrtasidagi salbiy aloqalar tugʻrisidagi farazni tekshirish uchun zarur va yetarli boʻlgan sharoitlar (eksperimental sharoitlar) xayolan yoki hayotda yaratiladi. Shunday qilib, eksperimental omilning jamuljam holda kuzatish obyektini tashkil qiladigan omillar bilan oʻzaro tasiri eksperimental tadqiqot predmeti hisoblanadi.

Bazi hollarda biryoʻla bir necha omil eksperimental omil sifatida namoyon boʻlsa, bunday eksperiment koʻp omilli eksperiment deyiladi.

Eksperimental omilni yaratish usuliga koʻra quyidagilar farqlanadi:

- Nazorat qilinadigan eksperiment- bunda tadqiqotchining oʻzi eksperimental omilni ishga soladi va uning tadqiqot obyektiga oʻzgartiruvchilik tasiri oʻlchovini aniqlaydi;
- Nazorat qilinmaydigan (tabiy eksperiment)- bunda tadqiqotchi voqealar jarayoniga aralashmaydi, balki tabiiy holda yuzaga kelgan vaziyatni kuzatadi hamda tahlil qiladi; bu vaziyat doirasida biron-bir hodisa tadqiqot obyektiga qayd etish mumkin boʻlgan muayyan tasir koʻrsatadigan eksperimental omil sifatida talqin qilinishi mumkin

Eksperimental sharoitning yaratilish usuliga bogʻliq ravishda quyidagilar farqlanadi:

1) Tabiy eksperiment-bunda eksperimental omil real vaziyatda tasir koʻrsatadi:

2) Laboratoriya eksperimenti- bu suniy yaratilgan muhitdagi eksperimentdir

Eksperimentga asos qilib olingan farazni isbotlashning mantiqiy tuzilmasiga bogʻliq ravishda quyidagilar farqlanadi:

1) Parallel eksperiment-bunda eksperimental omilning taraqqiyot obyektiga tasirining xususiyati va darajasi toʻgʻrisidagi hulosalar eksperimental va

nazorat guruhlaridagi tadqiq etilayotgan jarayonning holatini qiyoslash yo‘li bilan chiqariladi;

2) Izchil eksperiment – bunda eksperimental obyektning eksperimental omilni joriy etgunga qadar va joriy etilgandan keyingi ahvolining dinamikasi tahlil qilinadi.

Parallel va izchil eksperimentlar qoidalari, amalda, eksperimental va nazorat guruhlarida kuzatish obyektlarining holati eksperimentdan oldin va keyin tahlil qilinganda ko‘pincha, birgina yondashuv doirasida qo‘shilib ketadi.

Tadqiqot obyekti hususiyatiga ko‘ra quyidagilar farqlanadi:

1) Tabiiy ekspriment;

2) Fikriy eksperiment- aniq hodisalar haqidagi axborotlar tahlili orqali amalga oshiriladi

Eksperimentlarni tasnif qilishning boshqa asoslari ham mavjud bo‘lib, ularga muvofiq ilmiy (nazariy va uslubiy) hamda amaliy eksperimentlar, perspektiv (loyihaviy, kelajakka mo‘ljallangan) va retrospektiv (o‘tmish hodisalarini tahlil qilishga mo‘ljallangan) eksperimentlar, tadqiqotchilik va yangiliklarni joriy etuvchi eksperimentlar va hokazolar ajratib ko‘rsatiladi.

Har qanday eksperimentga qo‘yiladigan asosiy metodologik talab qo‘shimcha deb ataladigan, yani eksperimental omillar tarkibiga kirmagan omillarning eksperimentning borishi va natijalariga tasirini bartaraf etishdan iborat. Ijtimoiy eksperimentda eksperement sofligini bunday taminlash ijtimoiy hodisalar va jarayonlarning murakkab, ko‘p omilli tabiati tufayli qiyinlashadi.

Boshqa bir metodologik talab-eksperimental tadqiqotning reprezentativligi (e’tiborliligi) - eksperiment ishtirokchilarining ularning tabiiy sharoitdagi hatti-harakatiga muvofiq keladigan hatti-harakatni taminlash zarurati bilan bog‘liqdir(Bunda gap eksperimental model modellashtirilayotgan hayotiy vaziyatni yetarlicha to‘la takrorlashi lozimligi haqida bormoqda).

Kutubxona –axborot xizmati jarayonida eksperiment metodini qo‘llash kutubxonachilarning saviyasiga va boshqa ko‘pgina sharoitlarga bog‘liq.

Eksperiment dasturini tuzishda va uning natijalarini umumlashtirishda metodik markazlar, oliy talim muassasi ilmiy-tadqiqot bo‘limi va boshqa muassasalar qatnashishi kerak.

Foydalanuvchilar qiziqishini o‘rganishda eksperement metodining muntazam qo‘llanilishi mutolaa qonuniyatlari va turli metodlarning foydali tomonlarini aniqlash imkonini beradi.

Ushbu metodning qo‘llanilishida kutubxona kundaligidan, eksperiment dasturiga moslashtirilgan foydalanuvchi tavsifnomasidan,foydalanuvchi formulyari, ommaviy ishlar bayonnomasi va boshqalardan foydalaniladi.

So‘rov - birlamchi axborot to‘plash metodi bo‘lib, tadqiqotchining tadqiqot mavzusiga oid savollar bilan respondent (so‘raluvchi) ga og‘zaki yoki yozma murojaatini nazarda tutadi. So‘rov birlamchi sosiologik axborot to‘plashning eng keng yoyilgan metodidir.

Sosiologik malumotlarning deyarli 90 foizi shu metod yordamida qo‘lga kiritiladi. Sosiologik so‘rovning asosiy turlari – anketa to‘ldirish va intervyu olishdir.

Anketa to‘ldirish- yozma so‘rov bo‘lib , unda tadqiqotchi bilan respondent o‘rtasidagi muloqot yozma savolnoma (anketa vositasida) olib boriladi.

Anketa respondent tomonidan mustaqil to‘ldiriladi, shu bois undagi savollar tushunarli bo‘lishi kerak.

Intervyu- (ingilizcha intervew – yuzma-yuz suhbat manosini anglatsada, bugungi kunda uning telefon orqali virtual shakllari ham mavjud) – tadqiqotchi (intevyu oluvchi)nig respondent bilan tadqiqot predmetiga tegishli masalalar bo‘yicha muayyan maqsadga qaratilgan suhbatidir.

Bunday suhbat jarayonida intervyu oluvchi bilan so‘ralayotgan respondent o‘rtasida shaxsiy aloqa o‘rnatiladi, natijada intervyu oluvchi istasa istamasa o‘zi olayotgan axborotga tasir o‘tkazadi. Shu sababli bunday axborotning obyektivligi intervyu oluvchining kasbiy tayyorgarligiga va shaxsiy fazilatlariga jiddiy ravishda bog‘liqdir. Ushbu vaziyat axborot to‘plashning bu metodining kamchiligidir.

Lekin, boshqa tomondan qaraganda, intervyu respondentning pozisiyasini to‘laroq va aniqroq bilib olish imkoniyatini beradi, chunki respondent bilan bevosita muloqot, emosional aloqa obyektni yanada chuqurroq bilib olish uchun alohida sharoit yaratadi, bunday sharoitni birorta, hatto eng yaxshi anketa ham yarata olmaydi

Tajribalar ko‘rsatishicha, bitta tadqiqot doirasida ikkala metoddan foydalanish yaxshi natija beradi. Bunda, odatda, anketa so‘rovi bilan qamrab olingan respondentlarning 5-6 foizidan tanlab intervyu olinadi. Bunday intervyu olish: a) anketa malumotlarining to‘g‘riligini tekshirish va b)olingan malumotlar talqinini chuqurlashtirish imkonini beradi. Umuman esa ushbu yondashuv anketa so‘rovining ommaviy ko‘lamda o‘tkazilishini intervyu jarayonida so‘ralayotganlarning subyektiv dunyosiga chuqur kirib borish bilan biriktirish imkoniyatini beradi

So‘rovning alohida turini asosiy manba ekspertlar bo‘lgan ekspert so‘rov tashkil etadi, bunda ekspertlar kasbiy yoki nazariy bilimi, hayotiy tajribasi , obektiv hulosa chiqarishi imkonini beradigan shaxslar bo‘lishi kerak.

Ijtimoiy voqelikni o‘rganish metodi bo‘lgan so‘rovning tarixi XVIII asr oxiriga borib taqaladi. D. Devisning “ Angliyada mehnatkash sinflar oilaviy byudjeti tadqiqi” asari dastlabki shunday tadqiqotlardan bo‘lgan).

Tajribalar ko‘rsatishicha tadqiqot natijalarining eng katta buzilishi tanlashdagi statistik xatoliklardan ham ko‘proq anketa yoki intervyu tizimiga kiritilgan nuqsonlarga bog‘liq bo‘ladi.

Bu soxada etirof etilgan Amerikalik jurnalist Djorj Gellap aynan savollarni tanlash va tariflashni tadqiqot ishining eng qiyin hamda muhim qismi deb hisoblagan. Mohirlik bilan tuzilgan anketa(so‘rovnoma) doimo tadqiqotchilar guruhining ijodiy kashfiyoti, nou-xausi hisoblangan.

Anketa savollarini tariflashga qo‘yiladigan asosiy talablar: 1) savol respondentga tushunarli bo‘lishini;

2) savol tadqiqot predmeti bo‘lgan muammolar mohiyatini qamrab olishga qodir bo‘lishini; 3) savol betaraflik bilan qo‘yilishini ,unda g‘araz bo‘lmasligini

(savol respondentni u yoki bu javobni berishga majbur qilmasligini) taminlashdan iboratdir.

Intervyu metodi bugungi kunda kutubxona axborot xizmatida o‘ziga xos sanat turi darajasida real vaziyatni hamda foydalanuvchining ehtiyojlarini inobatga olishni talab qiluvchi doimiy tarzda o‘zgarib boruvchi amaliyot sifatida foydalanilmoqda. Kutubxonachilar intervyuning sifatini taminlovchi jihatlarini o‘rganish bilan bir qatorda, vaziyatga moslashtirilgan bo‘lishiga etibor berishlari kerak. Kutubxona-axborot xizmatidan foydalanuvchilarning savollari o‘ziga xos bo‘lgani kabi malumot yetkazuvchi intevyu ham o‘zgarib turadi. Intervyu jarayoni umumiy tuzilishiga ko‘ra , birinchidan, foydalanuvchi bilan muloqot o‘rnatish, ikkinchidan, foydalanuvchining ehtiyojini to‘la aniqlash, uchunchidan , berilgan javob qidirilgan savolga qanchalik javob berishi darajasini aniqlashdan iborat bo‘lgan uchta bosqichni qamrab oladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, kutubxonachilar uchun foydalanuvchilarning savoliga to‘g‘ri javob berish, malumot yetkazish jarayonida o‘rnatiluvchi muloqotning eng muhim qismidir. Chunki foydalanuvchilar ma’lumot yetkazib berish jarayonidagi intervyuning qanday kechishini nazorat qilib, kutubxonachining mazkur mu’loqot chog‘idagi hatti-harakatlariga alohida e’tibor qaratadi. Foydalanuvchilar o‘z ehtiyojining naqadar to‘liq qondirilganidan qat’iy nazar, o‘zlariga nisbatan e’tibor bilan munosabatda bo‘lgan kutubxona xodimining xizmatidan doimiy foydalanishni ma’qul ko‘radilar.

Intervyu quyidagi bir necha qismdan iboratdir:

- foydalanuvchi bilan aloqa o‘rnatish;

- savolni muhokama qilish;

- muvaffaqiyatli izlash uchun strategiya ishlab chiqish va uni foydalanuvchiga yetkazish;

- axborotni topish va uni tahlil qilish;

-savolga to‘liq javob berilishini ta’minlash;

- intervyuni tugatish;

Foydalanuvchilar kutubxonaga kelib yoki telefon, elektron pochta, chat orqali masofadan turib kutubxonachi bilan muloqotga kirishganida unga yordam berayotgan odam bilan suhbatlashishga ehtiyoj sezadi.

Foydalanuvchining kutubxona-axborot xizmatiga murojaatidagi yuzma-yuz intervyuda ilk bor muloqotda bo‘lishda samimiylik, hayrhohlik, muloyim munosabatda bo‘lish uning ijobiy bo‘lishini ta’minlaydi.

Aksincha, foydalanuvchini tan olmaslik, u yaqinlashib kelayotganida joyidan qo‘zg‘almaslik, o‘zini mutolaalaga berilgandek ko‘rsatish, yuz ifodasiga ko‘ra malol kelganligini namoyon qilish kabilar muloqot o‘rnatishga to‘sqinlik qiluvchi omillardir.

Foydalanuvchining u yoki bu kutubxonachiga murojaat qilishini belgilab beruvchi omillarni o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda quyidagi beshta omil foydalanuvchining qaror qabul qilishiga asosiy ta’sir o‘tkazadi.

1) Aloqa o‘rnatish. Kutubxonachining muloqotni quyidagi noverbal belgilar orqali boshlashi: diqqat kontakti, tanani moslashtirish, foydalanuvchi tomon harakatlanish, verbal aloqaga o‘tish;

2) Aloqaga tayyorlik, dastlabki holatning ta’sirini saqlab turgan holda foydalanuvchiga bo‘lgan diqqat e’tiborini verbal va noverbal belgilar bilan tasdiqlashi;

3) Masofa. Foydalanuvchi odatda o‘ziga yaqin joyda turgan kutubxonachiga murojaat qiladi;

4) Tanishlik. Foydalanuvchi avval qaysi kutubxonachining yordamidan foydalanganligi, uni tanishi yoki tanimasligi;

5) Jins. Foydalanuvchilarning aksariyati ayol kutubxonachiga murojaat qilishini afzal ko‘radilar.

Kutubxonachining yordam berishga tayyor turishi va uni samimiylik bilan amalga oshirishi foydalanuvchilarga qayta yordam so‘rab murojaat qilishda hijolat tortmasligi uchun sharoit yaratadi.

Eng muhimi, har qanday vaziyatda foydalanuvchi kutubxona hodimi uning savoliga qiziqish bilan qarayotganligini his qilib turishi lozim. Muloqot virtual

uslubda kechgan taqdirda esa, kutubxonachi oʻz qiziqishini namoyon qilishi va, masalan, " Savolingiz meni ham qiziqtirib qoldi, albatta topishga harakat qilamiz" qabilidagi jumlalarni yozish orqali oʻz munosabatini bildirishi lozim.

Foydalanuvchilar ma'lum bir sohaga bagʻishlangan kitoblarni soʻrab, asarning muayyan qismidan oʻzlarini qiziqtirgan ma'lumotni topishga harakat qiladilar.

Ba'zi foydalanuvchilar kutubxonada ma'lum bir kitobning yoʻqligi ular qidirayotgan ma'lumotning topilmasligiga sabab boʻladi, deb oʻylaydilar. Aslida esa kutubxonachi foydalanuvchi izlayotgan ma'lumotni boshqa manba orqali topib berishi mumkin.

Intervyu jarayonida uning muvaffaqiyatli kechishi uchun kutubxonachi foydalanuvchini diqqat bilan tinglashi, oʻzi zarur deb hisoblagan hollarda qoʻshimcha aniqlashtiruvchi savollarni berishi kerak. Masalan:" Hozirgacha tadqiqotingiz mavzusi boʻyicha qanday manbalarni koʻrib chiqdingiz?," Tadqiqotingiz mavzusi boʻyicha yana qanday qoʻshimcha axborotlar olishni istaysiz?"

Kutubxonachi foydalanuvchi qanday axborot izlayotganini toʻliq tushinib yetmagunicha ana shunday aniqlashtiruvchi savollar berishda davom etishi mumkin. Bunday holat virtual tarzdagi intervyu jarayonida ham qaytariladi va kutubxonachi foydalanuvchiga oʻzida mavjud boʻlgan ma'lumotlarni toʻla yetkazishi uchun imkoniyat yaratishi zarur. Kutubxonachi har qanday sharoitda ham foydalanuvchidan koʻra koʻproq fikrlashga oʻrganishi va buni muloqot jarayonida namoyon qilib borishi kerak.

Kutubxonachining axborot izlash jarayoniga foydalanuvchini ham jalb qilishi, axborotni izlash usullarini oʻrgatishi ular oʻrtasidagi muloqotning samarali boʻlishidan tashqari foydalanuvchining kelajakdagi faoliyatida ham qoʻl kelishi mumkin.

Mavzu aniqlashtirib olingandan soʻng kutubxonachi izlash jarayoni strategiyasini shakllantirishi, izlash atamalarini tanlashi va foydalanuvchi uchun eng maqbul boʻlgan manbalarni tanlashi zarur.

Agar kutubxonachi mavzu bo‘yicha yetarli bilimga ega bo‘lmasa, u izlash atamalarini tanlashga foydalanuvchini ham jalb qilishi kerak bo‘ladi.

Kutubxonachining foydalanuvchilar tadqiq qilayotgan mavzularning barchasini to‘liq tushunib yetmasligi tabiiy holat bo‘lganligi uchun kasbi nuqtai nazaridan ma’lumot izlash va yetkazish jarayonida o‘zi ham ma’lumot olishi va muntazam o‘rganib borishi kerak.

Axborot izlash jarayonida kutubxonachi muntazam ravishda foydalanuvchi bilan fikr almashib turishi, taqdim qilingan ma’lumotlar uning ehtiyojini qanchalik darajada qondirayotganligini bilib borishi lozim.

Bu holat foydalanuvchi o‘ziga kerakli ma’lumotni topgunga qadar yoki ma’lumotni qaysi manbalardan izlashni aniqlashtirib olgunga qadar davom etishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanuvchilarning o‘zlari qidirgan ma’lumotni topganligiga to‘liq ishonch hosil qilishi axborot bilan ta’minlash jarayonidagi intervyuning muhim qismi hisoblanadi.

Chunki ayrim kutubxonachilar foydalanuvchilarning axborot bilan ta’minlanganligiga to‘liq ishonch hosil qilmasdan turib izlash jarayonini to‘xtatadilar. Bu noto‘g‘ri bo‘lib, foydalanuvchini kerakli axborot bilan to‘la ta’minlash kutubxonachi faoliyatidagi eng muhim jihatlardan biridir.

Axborot bilan ta’minlash jarayonidagi intervyu yakunlanganidan so‘ng ham foydalanuvchining kutubxonachiga yana murojaat qilishi mumkinligi, unga nisbatan e’tibor nihoyasiga yetmaganligini bildiruvchi yaxshi fikr bildirish muloqotning eng yaxshi yakunidir.

Telefon orqali o‘tkaziluvchi intervyuning yuzma-yuz o‘tkaziluvchi intervyudan farq qiluvchi asosiy jihati shundan iboratki u foydalanuvchidan javobni shu zahotiyoq olish imkoniyatini beradi.

Intervyuning ushbu turida ham foydalanuvchining savollarini chuqur tushunib yetish va aniqlashtiruvchi savollar orqali izlanayotgan ma’lumotlarning butun mazmun-mohiyatini anglab yetish muhim ahamiyatga ega. Izlanayotgan

ma’lumot topilgandan so‘ng savolga javob berilganligi foydalanuvchi tomonidan tasdiqlangandan so‘ng javob topilgan manba ham unga yetkazilishi lozim.

5.4 Foydalanuvchilarni o‘rganishning umumiy metodlari

Foydalanuvchilarni o‘rganishning umumiy metodlariga ekspertlar bahosi, hujjatlar tahlili, foydalanuvchilar avtobiografiyasi tahlili, foydalanuvchilar taqrizini tahlil qilish, kontent tahlil metodlari kiradi. Ekspertlar bahosi metodi kelajakni oldindan ko‘ra bilish xususiyatidagi kutubxonashunoslikka oid tadqiqotlarda, muloqotni o‘rnatishda, turli foydalanuvchilar sifatini baholashda qo‘llaniladi.

Ushbu metod so‘rov metodiga yaqin bo‘lsada undan respondentlar(ekspertlar) ni tanlashga alohida yondashish, xodisalar va jarayonlarga alohida yondashuv asosida ekspertlarning fikrlarini aniqlash, ularni baholashga alohida metodlarni qo‘llagan holda yondashuvga ko‘ra tubdan farq qiladi.

Ushbu metod mayda hisob-kitoblarsiz va qimmatga tushadigan eksperimentlar o‘tkazmasdan turib ham foydalanuvchilar bilan ishlashning alohida tomonlarining rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash imkoniyatini beradi. Ekspertlar mutolaa ehtiyojining rivojlanishi, mutolaa motivasiyasi va qiziqishlarning o‘zgarishi singari bevosita aniqlash qiyin bo‘lgan yo‘nalishlarni oldindan aytib berishlari mumkin.

Albatta shaxs mutolaa yo‘nalishining barcha detallarini emas, uning rivojlanish imkoniyatlari, yo‘nalishlari va qonuniyatlari, tendesiyalarini oldindan bilish mumkin.

Ekspertlar sifatida o‘rganilayotgan muammoga yaqin bo‘lgan mutaxassislar: kutubxonashunoslar, sosiologlar, pedagoglar, psixologlar, kutubxonachi-amaliyotchilar, faol foydalanuvchilar, aqliy mehnat gigiyenasi bo‘yicha mutaxassislar, kutubxona qurilishi bilan bog‘liq bo‘lgan arxitektorlar jalb qilinishi mumkin.

Oldindan belgilashga oid tadqiqot maqsadi va mavzusi aniqlanishi bilan uning barcha yo‘nalishlarini uyg‘unlashtirish va tashkiliy-metodik rahbarlikni amalga oshirish mutaxassis-tahlilchilar zimmasiga yuklanadi.

Ekspertlar bahosi metodi kutubxonadagi muayyan sohaga oid bosma-nashr mahsulotlarini baholash, ularni foydalanuvchilarning qaysi guruhlariga tavfsiya etish mumkinligini aniqlash maqsadida ham keng qo‘llaniladi. Bunda foydalanuvchilarning nashr haqidagi fikrlarini o‘rganish asosida umumlashtirish alohida ahamiyatga egadir.

Foydalanuvchilarni o‘rganishda kutubxonada o‘tkaziladigan tadqiqot metodlaridan biri hujjatlar tahlilidir. To‘g‘ri qo‘llanilgan holda ushbu metod muayyan nashr mahsulotlarining mutolaa darajasi, foydalanuvchilarning nashr mahsulotlari, ma’lumotlar va axborotlar bilan ta’minlanish darajasi, kutubxona ommaviy tadbirlari, foydalanuvchilar tarkibi, shunigdek, foydalanuvchilar ijtimoiy fikri haqida obyektiv ma’lumotga ega bo‘lish imkonini beradi.

Hujjatlarni tahlil qilish metodlari turli-tumandir. Eski metodlar takomillashadi, yangi metodlar paydo bo‘ladi. Ushbu jarayonlar amaliy ehtiyojlar, hujjatlarning o‘ziga xosligi, tadqiqotchilarning maqsadi va yo‘nalishiga ko‘ra taqazolanadi. Hujjatlarni o‘rganish, tahlil qilishga doir barcha metodlarni an’anaviy, formallashtirilgan, miqdoriy metodlarga ajratiladi. Ular o‘zaro farqlansada bir-birini inkor etmaydi, balki bir-birini to‘ldiradi.

An’anaviy metodlar o‘z navbatida umumiy va maxsus metodlarga bo‘linadi. Kutubxona-axborot xizmatidan foydalanuvchilarni tadqiq qilishda foydalaniladigan umumiy metodlar foydalanuvchilar biografiyasini tahlil qilsh, taqrizlar tahlili kabilardir.

Maxsus metodlar esa kutubxona statistikasiga oid materiallar tahlili, foydalanuvchilar formulyari tahlili, ma’lumot-bibliografiya ishi materiallari tahlili, foydalanuvchilar talab varaqasi tahlilidan iboratdir.

Foydalanuvchilar avtobiografiyasi tahlili metodi foydalanuvchilarning qiziqish dinamikasini, ularning idrok qilishining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganiishga xizmat qiladi.

Ushbu metod mutolaa madaniyatini shakllantirish, foydalanuvchilar tipologiyasini ishlab chiqishda ham katta yordam berishi mumkin.

Foydalanuvchilar avtobiografiyasi – bu foydalanuvchining hayot faoliyati davomida nashr mahsuloti va kutubxonaning roli haqidagi yozma axborotidir, Kutubxonachilar koʻp yillardan buyon kutubxona xizmati koʻrsatilayotgan foydalanuvchilarning avtobiografiyasini yigʻadilar. Foydalanuvchilar avtobiografiyasi nashr mahsulotining shaxs rivojlanishiga ta'siri, foydalanuvchilarga xizmat koʻrsatish samaradorlik darajasini har tomonlama chuqur oʻrganishga yordam beradi.

Foydalanuvchi mutolaasi haqida ilmiy asoslangan tasnifga ega boʻlish maqsadida unga oid muhim ma'lumotlarga ega boʻlish uchun qoʻpincha avtobiografiyaning yoʻnaltiruvchi tuzilmasi ham taklif qilinadi. Foydalanuvchilar avtobiografiyasi ularning mazmuni, shakli va moʻljallanganligiga koʻra erkin, savollarga javob tarzida foydalanuvchining oʻzi tomonidan yozilgan yoki kutubxonachi tomonidan uning oʻz soʻziga koʻra yozib olingan shakllarda boʻlishi mumkin.

Savollarning murakkablik darajasi oʻrganilayotgan guruhning ma'lumoti, qiziqishlari darajasini hisobga olgan holda tuziladi.

Foydalanuvchilarni oʻrganishning natijalarini umumlashtirish odatda bir necha foydalanuvchiga tuzilgan individual tavsifnoma, foydalanuvchilarning yetakchi guruhlari uchun guruhiy tavsifnoma tuzish bilan yakunlanadi.

Foydalanuvchilar tavsifnomasining taxminiy tuzilishi quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

1. Foydalanuvchi yoki foydalanuvchilar guruhi haqida umumiy ma'lumotlar(yoshi, kasbiy va boshqa xususiyatlari, bilimlarga qiziqishlari va boshqalar.)

2. Muloqot maqsadi va talablarning yetakchi motivi.

3. Muayyan vaqt davomida mutolaaning mazmuni va xususiyati.

4. Nashr mahsulotiga ehtiyoj va chuqur mutolaa qiziqishlari, ularning rivojlanish yoʻnalishlari.

5. Turli nashr mahsulotlariga berilgan baholar (badiiy, ilmiy-ommabob, kasbga doir va h.k) .

6. Mutolaa madaniyati darajasi va didning rivojlanishi

7. Foydalanuvchilar talabi va qiziqishlarini shakllantiruvchi omillar orasida nashr mahsulotlari haqida axborot beruvchi manbalar, kutubxona va bibliografik xizmatlarning o‘rni.

8. Nashr mahsulotlarining foydalanuvchilarga ta’siri.

Yanada to‘laroq,ilmiy asoslangan tavsifga ega bo‘lish uchun foydalanuvchilarni qo‘shimcha tarzda o‘rganish talab qilinadi.

Foydalanuvchilar taqrizi turli ehtiyojlarning, jumladan mutolaa ehtiyojining qondirilishi bo‘yicha ularning fikrini o‘rganish maqsadida tahlil qilinadi.

Foydalanuvchilar taqrizi mazmuni bo‘yicha(mutolaa qilingan kitoblar yoki kutubxona faoliyati to‘g‘risida) va shakli bo‘yicha(yozma va og‘zaki) farqlanadi.

Foydalanuvchilar taqrizini yig‘ish va tahlil qilish ularning qiziqishi, nashr mahsulotlari haqidagi ijtimoiy bahoni, shuningdek, kutubxona faoliyati haqida foydalanuvchilar fikrini aniqlashga yordam beradi.

Taqrizlarni tizimga solish: ijobiy yoki salbiy; nashr mahsulotini mazmuni yoki shakliga ko‘ra baholash; mustaqil yoki nomustaqil belgilarga ko‘ra amalga oshirilishi mumkin.

Nashr mahsulotlari haqidagi taqrizlarni yig‘ish quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

1. Bitta foydalanuvchining bir qancha nashr mahsulotlari haqidagi taqrizini solishtirish, taqqoslash, uning mutolaaga oid qiziqishining turg‘unligi va rivojlanganligini aniqlashga yordam beradi.

Nashr mahsulotlari haqidagi taqrizlar foydalanuvchining tafakkuri, mutolaa madaniyati va didini ham to‘la bilishga yordam beradi.

2. Bir nechta foydalanuvchilarning taqrizlarini tahlil qilish va umumlashtirish muayyan guruhga xos bo‘lgan qiziqishlar va mutolaaning boshqa o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi.

3. Bitta nashr mahsuloti haqidagi bir nechta foydalanuvchining taqrizi uning ijtimoiy bahosi haqida fikr yuritishga yordam beradi.

Kutubxonalarda bibliografik sharxlar, kitoblar muhokamasi, adabiy kechalar, ma’ruzalar, kitob ko‘rgazmalari yana qanday ommaviy tadbirlar o‘tkazish zarurligi haqidagi istaklar va takliflar ham yig‘ib boriladi.

Foydalanuvchilarning kutubxona-axborot xizmati haqidagi fikrlari ham hisobga olinadi.

Barcha an’anaviy metodlar u yoki bu darajada subyektiv xususiyatga ega bo‘lganligi uchun muayyan kamchiliklardan xoli emas. Shuning uchun ham tadqiqotchilar ko‘pincha hujjatlar mazmunini o‘rganishning formallashtirilgan metodlaridan foydalanishni afzal ko‘radilar. Shunday metodlardan biri kontent-tahlildir.

Ushbu metod asosida kutubxonada mavjud bo‘lgan kutubxonachilar kundaligi, kutubxona tadbirlari bayonnomalari, foydalanuvchilar tarjimai holi, taqrizlar, savollar asosida muayyan statistik va mantiqiy qayta ishlash va tahlildan so‘ng olingan sifatiy va miqdoriy ma’lumotlardan nazariy va amaliy muammolarni hal etishda foydalaniladi.

Kutubxona-axborot xizmati jarayonida foydalanuvchilar tomonidan kutubxonachiga berilgan savollarni miqdoriy va mazmuniy jihatdan tahlil qilish ham kontent-tahlil metodining alohida ahamiyatga ega bo‘lgan yo‘nalishidir. Savollar miqdori yakka va ommaviy tartibda yondashuv jarayonida taqdim etilgan muayyan bosma nashrga nisbatan auditoriyaning faolligini, qiziqishini anglatadi.

Berilgan savollar mazmunini tahlil qilish esa foydalanuvchilar qiziqishining o‘ziga xosligi, mavzu yo‘nalishlari, ularning tafakkur kengligi, muammoni qo‘ya bilishi mutolaa ma’daniyati darajasini aniqlashga yordam beradi.

5. 5 Foydalanuvchilarni o‘rganishning kutubxona-axborot xizmatiga oid maxsus metodlari

Kutubxona statistikasi materiallari tahlili, foydalanuvchi formulyarini tahlil qilish, nashr mahsuloti formulyari tahlili, ma’lumot-bibliografik ish materiallari tahlili, foydalanuvchilar talabnoma varaqalarini tahlil qilish metodlari foydalanuvchilarni o‘rganishning kutubxona-axborot xizmatiga oid maxsus metodlari hisoblanadi.

Kutubxona-axborot xizmatiga oid statistik hisob va hisobot foydalanuvchilar haqidagi va ularga berilgan nashr maxsulotlari haqidagi miqdoriy ma’lumotlarni to‘plash, tizimlashtirish va umumlashtirishdan iborat bo‘lganligi uchun ular maxsus metodlar sifatida qo‘llaniladi.

Kutubxonaning yillik hisobotida foydalanuvchilarning asosiy guruhlar bo‘yicha tarkibi, miqdori, berilgan nashr mahsulotlari xajmi, uning kutubxona tasnifi bo‘limlari bo‘yicha taqsimlanishi aks etadi. Ushbu ma’lumotlar umumiy asosda foydalanuvchilar miqdori va ularning so‘rovlarini ham aks ettiradi.

Kutubxona statistikasi materiallari tahlili qiyosiy tarzda bo‘lishi zarur. YA’ni foydalanuvchilar tarkibi, kitob berish, turli davrlarda tasnif bo‘limlari bo‘yicha fondlarning aylanishi haqidagi ma’lumotlar taqqoslanishi kerak. Taqqoslash uchun qancha uzoq davr olinsa, shu davrdagi miqdoriy o‘zgarishlar yuz bergan sifat o‘zgarishlarini aks ettirishi mumkin.

Qisqa davr oralig‘idagi miqdoriy ma’lumotlar tahlili va ularni taqqoslash esa yakka tartibda xizmat ko‘rsatishni tashkil etish, fondni to‘g‘ri tashkil etish va h .k nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir.

Kutubxonachilar materiallar tahlilini yanada chuqurlashtirish uchun foydalanuvchilar guruhi va berilgan kitoblarni yanada maydaroq guruhlashtirishi alohida nashr mahsulotlari mutolaasini alohida hisobga olishi, foydalanuvchilar guruhlari va nashr mahsulotlari mavzularidan foydalanishning alohida hisobini olib borishlari mumkin.

Maxsus metodlar tizimida foydalanuvchi formulyari yakka tartibda va guruhli tartibda tahlil qilinishiga ko‘ra alohida farqlanadi. Yakka tartibdagi tahlil ayrim foydalanuvchini o‘rganishiga qaratilgan bo‘lib, kelgusida uning mutolaa madaniyatini shakllantirishga zamin tayyorlaydi. Guruhli tartibda tahlil qilishning vazifasi ayrim nashr mahsulotlarining muayyan guruh tomonidan mutolaa qilinishi haqida malumotga ega bo‘lishdan iboratdir. Guruhli tartibdagi tahlil malum manoda yakka tartibdagi tahlilni mazmunan to‘ldirishga ham xizmat qiladi.

Yakka tartibdagi yoki guruhli tartibdagi tahlil uchun kutubxonadagi o‘qituvchilar, talabalar, o‘quvchilar, mutahassislar, fermerlar, tadbirkorlar,

shifokorlar, uy bekalari, imkoniyati cheklanganlar, vaqtincha ishsizlar guruhidan tadqiqot obyekti sifatida foydalanish mumkin.

Malumotlarni umulashtirish mazkur guruh bilan kelgusida qanday ishlar olib borish zarurligini aniqlashga imkon beradi.

Koʻpgina kutubxonalarning tajribasi foydalanuvchi formulyarini har kvartalda bir marta tahlil qilish , avvalgi kvartallardagi holat bilan muntazam taqqoslanib borilishi asosidagina kutilgan natijaga erishish mumkinligi, natijaning obyektivligi ham oshib borishini koʻrsatadi.Lekin, takidlash lozimki, foydalanuvchi formulyari uning qoniqtirilmagan talabi, oʻz shaxsiy kutubxonasi uchun sotib olgan kitoblari, boshqa kutubxonalardan foydalanganini aks ettirmaganligi uchun bu metod ham malum darajada cheklangandir.

Nashr mahsuloti formulyarini tahlil qilish foydalanuvchilar oʻrtasida nashr mahsulotlarining aylanishini oʻrganish maqsadida qoʻllaniladigan metoddir.

Nashr mahsuloti formulyari tahlilini foydalanuvchilar taqrizi bilan birga oʻrganish uning ijtimoiy qimmatini oʻrganishga yordam berishdan tashqari kitobning muayyan foydalanuvchilar guruhi oʻrtasida aylanishining yuqori yoki past darajasi haqidagi ijtimoiy fikrni ham hosil qiladi.

Formulyar tahlili inventar nomeri orqali nashr mahsuloti kutubxonaga olingan vaqtni, nushalar miqdorini, kitobning foydalanishga olingan miqdoriy koʻrsatgichini aniqlash orqali muayyan vaqt davomida uning aylanishi aniqlanadi.

Bu usuldan foydalanish orqali fond tarkibi ham aniqlashtirilib olinishi mumkin.

Malumot-bibliografiya ishi materiallari tahlili metodi –foydalanuvchilar qiziqishini oʻrganishda muhim metodlardan biri boʻlib, uning asosida bibliografik axborotni tashkil etish yotadi.

Bibliografik soʻrovlar esa foydalanuvchilarning nashr mahsulotlariga boʻlgan talabini, qiziqishlarini va mutolaa maqsadini yoritadi.

Malumot-bibliografiya ishlarining hajmi va uning hisobga olinishi turlicha boʻlib, bazi kutubxonalarda kutubxona kundaligining maxsus boʻlimida, bazilarida bibliografiya boʻlimida, katalog zallarida oʻz ifodasini topadi.

Bu borada tematik talablarning tahlili alohida ajralib turadi.

Ayrim foydalanuvchilarni o‘rganishda har bir bibliografik so‘rovning mazmuni hamda o‘zlashtirish tahlil qilinadi. Bibliografik so‘rovlar maxsus blankada hisobga olinadi va ularni bajarilishini muntazam tahlil qilib borish talab qilinadi.

Foydalanuvchilarning talabnoma varaqalarini tahlil qilish foydalanuvchi so‘rovini kuzatib borishning maxsus metodidir.U mustaqil metod sifatida kutubxonalarning o‘quv zallarida talabnoma qog‘ozlarini to‘ldirish orqali foydalaniladi.

Talabnoma varaqasi ikkiga : chunonchi, tez-tez so‘raladigan talabnoma varaqasi hamda so‘ralgan manbaaga rad javobi berilgan varaqaga ajratiladi.

Ular bir-birini to‘ldiradi hamda foydalanuvchining muayyan manbaga bo‘lgan talabining yo‘nalishini aniqlashga yordam beradi.

Tez-tez so‘raladigan talabnoma varaqasi u yoki bu foydalanuvchining qaysi manbani ko‘p so‘raganligini aniqlaydi; rad javobi berilgan varaqalari esa kutubnona fondining to‘ldirilishidagi kamchiliklarni ko‘rsatib beradi va ularning bartaraf qilinishiga ko‘maklashadi.

Talabnoma varaqalarining har ikkala turini ham muntazam tahlil qilib borish kutubxona-axborot xizmati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

VI. BOB. Kutubxona-axborot xizmati jarayonida mutoola madaniyatini shakllantirish

Bugungi kunda mamlakatimizda 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi asosida barcha soha va tarmoqlarda ulkan o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Ayniqsa ma’naviy islohotlar jarayoni sifat jihatdan o‘zining yangi pog‘onasiga qadam ko‘yayotgan bugungi kunda jamiyat hayotida milliy qadriyatlar va an’analarni chuqur qaror toptirishda, yosh avlodning ma’naviy taraqqiyoti, ongu-tafakkuri, dunyoqarashini yuksaltirishda mislsiz ahamiyatga ega bo‘lgan mutolaa madaniyati va kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga alohida e’tibor berilmoqda.

Bu jihatdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil, 16 sentabrda qabul qilingan "Kitob mahsulotlarini nashr ettirish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida"gi Qarori ushbu soha taraqqiyotiga keng imkoniyatlar yaratib bergan muhim hujjatdir.

Axborot oqimi kuchayib borayotgan, virtual dunyo turli-tuman axborotlar bilan to‘lib toshgan bugungi kunda barcha fuqarolarning, ayniqsa, yoshlarning ma’naviy tafakkurini tarbiyalash, ularda mutolaa madaniyatini, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, ushbu madaniyatni doimiy va muntazam ko‘nikmaga aylantirish har qachongidan ko‘ra dolzarb ahamiyat kasb etmokda.

Ma’lumki, tarixda o‘tgan buyuk allomalarning barchasi kitobni nurga, tafakkur quvvatiga, ma’naviyat timsoliga, bilim manbaiga, eng yaqin maslahatdosh va sodiq do‘stga tenglashtirganlar va qiyoslaganlar.

Insoniyat jamiyatining ikki ming yilligi davrida ko‘plab olamshumul kashfiyotlar qilingan bo‘lsada uning taraqqiyotiga beqiyos hissa qo‘shgan buyuk voqea sifatida kitob chop etishning ixtiro qilinishi dunyo olimlari, siyosatchilari, jamoat arboblari, jamoat tashkilotlari tomonidan bir ovozdan tan olingan.

"Mutolaa" so‘zi aslida o‘qish ma’nosini anglatsada, bugungi axborot asrida u kitob o‘qishdan ko‘ra kengroq ma’noni anglatmoqda.

Mutolaa madaniyatining tarkibiy unsurlari bo‘lgan ixtiyoriylik, anglangan bilimga intilish, erkin tanlangan faoliyat, o‘z-o‘zini takomillashtirishga ongli ragbat inson ma’naviy yuksalishining harakatlantiruvchi omillaridir.

Kitob o‘qish va kitobxonlikka ijobiy munosabat o‘zbek oilalarida qadimdan mavjud bo‘lib kelgan. Navoiy, Fuzuliy, Bedil, Mashrab, Uvaysiy, Nodira g‘azallari, Abdulla Qodiriy asarlarini guruh-guruh bo‘lib, oilaviy tarzda, qo‘lma-qo‘l mutolaa qilganlar. Lekin, XXI asr voqeligiga xos bo‘lgan muhit ulkan axborotlar oqimidan keraklilarini tez qabul qilish, tez tahlil qilish va ulardan samarali foydalanish mahoratiga ega bo‘lishni talab qilmoqda.

Mutolaa madaniyatini shakllantirishda foydalanuvchilar qiziqishi va ehtiyojini o‘rganish asosiy yo‘nalishlardan biri bo‘lganligi uchun ularning foydalanish manbalarini aniqlash maqsadida Respublika axborot –kutubxona markazi foydalanuvchilari o‘rtasida 2018-yilda o‘tkazilgan so‘rovnomalari natijalariga ko‘ra respondentlarning (jami 1436 kishi) 32 foizi o‘ziga kerakli ma’lumotlarni kitobdan, 26 foizi internetdan, 18 foizi elektron kitoblardan, 10 foizi televideniye va radiodan, 4 foizi ish joyidan olishlarini bildirganlar. Demak, foydalanuvchilarning asosiy qismi o‘z mutolaa ehtiyojlarini kitoblar orqali qondiradilar.

Professor E.Yo‘ldoshevning "Bolalar o‘qishiga rahbarlik qilish" o‘quv qo‘llanmasida ta’kidlanishicha mutolaa madaniyati juda keng tushuncha bo‘lib, kitobga qiziqish va sevishni, adabiyot bilan kengroq tanishishni, kitob va u bilan ishlash haqidagi maxsus bilimlarga ega bo‘lishni, shuningdek, kitobdan to‘liq ravishda foydalanishga yordam beruvchi ko‘nikma va malakaga ega bo‘lishni taqozo etadi. Mutolaa madaniyati kitobxonni adabiyotni to‘laqonli tushunishga, undan estetik zavq olishga, yozuvchi fikrini va g‘oyasini to‘g‘ri anglash hamda baholay olishiga o‘rgatadi. Bundan tashqari kitob va kutubxonadan foydalanish, ma’lumot-bibliografik apparatidan o‘zini qiziqtirgan yoki kerakli masalalarga doir kitoblarni topa olish va undan o‘qishda, ishda, hayotda foydalanish yo‘llarini

oʻrgatadi. Kitobni tanlash, uni tez oʻqish, avaylab saqlash, shaxsiy kutubxona tashkil etish, oʻqilgan kitoblarni boshqalarga tavsiya eta olish ham mutoola madaniyatiga kiradi.

Yuqorida keltirilgan adabiyotlarda mutoola madaniyatiga oid fikrlarni umumlashtirgan holda quyidagicha taʼrif berish mumkin: Mutoola madaniyati tushunchasi keng maʼnoda rejali tarzda mutoola vaqtini toʻgʻri tashkil qila bilish; tartibli va uzluksiz tarzda oʻqish; mustaqil tarzda kitob va maʼlumot tanlash hamda saralay bilish; ilmiy-ommabop yoki badiiy adabiyot, turli axborotlar haqida toʻgʻri fikr yuritish, tanqidiy baholash va toʻgʻri xulosa chiqarish koʻnikmasi; kerali adabiyotlarni, maʼlumotlarni bibliografik koʻrsatkichlar va boshqa axborot manbalari orqali topa bilish; kitobdan boshqa matbuot nashrlaridan avaylab foydalana bilish; mutoola gigiyenasiga amal qilish, maqsadga koʻra mutoola tezligini tashkil etish; eng sara kitoblarni va qimmatli maʼlumotlarni boshqalarga tavsiya eta olishdan iborat boʻlgan faoliyatni ifodalaydi.

Bugungi kunda ilmiy tadqiqotlarda mutolaa tushunchasi nafaqat kitob yoki boshqa nashr mahsulotlarini oʻqish, shuningdek, turli axborot manbalaridan axborotni oʻzlashtirish jarayoni sifatida ham talqin qilinmoqda.

Jumladan, professor A.Umarovning "Mutolaa madaniyati: shaxs, jamiyat, taraqqiyot" kitobida "Mutolaa - bu faoliyatning bilish, oʻrganish, ilm olish hodisasidir. Buning zamirida faollik, maqsad sari yoʻnaltirilgan, oʻqish va ijtimoiy subyektning turli ehtiyojlariga qarab matndagi maʼlumotlarni egallash yotadi" deb taʼkidlanadi.

Ota-onalar farzandlariga ularning yoshi, qiziqishi, didini hisobga olib kitob tanlashga yordam berishi, mutolaa uchun tanlangan kitobning tarbiyaviy jihatlariga alohida eʼtibor berishlari talab qilinadi. Bunda avvalo ota-onaning oʻzlari muntazam mutolaa bilan shugʻullanishlari, farzandlariga namuna boʻla olishlari asosiy ahamiyatga egadir.Taʼlim muassasalarida yaʼni bolalar bogʻchalari, quyi sinflar, oʻrta sinflar, yuqori sinflar, akademik liseylar, kasb-hunar kolejlari oʻquvchilari, oliy oʻquv yurtlari talabalari uchun ularining yosh xususiyatlari, mutaxassisliklarini hisobga olgan holda oʻqib chiqishi zarur boʻlgan

adabiyotlarning qat’iy ro‘yxatini tuzish, o‘rganish darajasini nazorat qilish, rag‘batlantirishning takomillashgan metodikasini yaratish zaruriyati paydo bo‘lmokda.

Ta’lim muassasalarida kitob mutolaasi targ‘iboti millatning tili, tarixi, dini, mustaqilligi, erkinligi, manfaati nuqtai nazaridan amalga oshirilsagina maqsadga erishish mumkin.

Shu nuqtai nazardan jamiyat va shaxsning tafakkuriga, axloqiga ijobiy ta’sir o‘tkazadigan kitoblar bilan mazmuni sayoz, axloqiy, estetik, ma’naviy qimmati past bo‘lgan kitoblarni ajrata bilish ko‘nikmasini shakllantirish asosiy maqsad bo‘lishi kerak.

Ta’lim muassasalarida shakllantirilgan mutolaa muhiti induvidual ta’sir ko‘rsatibgina qolmay, ommaviy va guruhli ta’sir kuchidan o‘rinli foydalanilgan holda ommaviy mutolaa madaniyatining shakllanishiga imkon beradi.

Ommaviy axborot vositalarida, ayniqsa televideniyeda kitob mutolaasi targ‘ibotini o‘zlari ko‘p o‘qigan, tahlil eta bilish qobiliyatiga ega bo‘lgan, tavsiya etilayotgan har bir asar haqida aniq, asosli fikr ayta oladigan kishilar olib borishlarn ijobiy samara bera oladi.

Aks holda, o‘zlarining tayinli kitob o‘qimaganligi bilinib turgan diktorlar, teleradio jurnalistlarining kitob mutolaasi borasidagi suhbatlari mutolaa madaniyatining shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmaydi.

Bugungi kunda yuqorida ta’kidlab o‘tilgan yo‘nalishlarda olib borilayotgan ishlar talab darajasida emasligini ta’kidlab o‘tish joizdir.

Jumladan, hamma ota-onalar ham o‘z farzandlariga ularning yoshiga mos keladigan kitoblarni tanlash, tavsiya etish, to‘gri, ifodali o‘qish qoidalarini bilmaganliklari uchun bu vazifa ko‘proq bog‘cha, maktab, kutubxonalar zimmasida bo‘ladi.

Muammolarning boshlanishi muammolar zanjiridagi yana bir tugunga kelib taqaladi. YA’ni, bog‘cha tarbiyachilari va maktab o‘qituvchilarining ko‘pchiligi hatto o‘z sohasiga oid yoki dars berayotgan fani bo‘yicha qanday yangi kntoblar, jurnal maqolalari va bibliografik ko‘rsatgichlar nashr qilinayotganligi bilan

qiziqmaydilar. Taassuf bilan aytish mumkinki, ulardan ba’zilari axborot-bibliografik ko‘rsatgich haqida tushunchaga ham ega emaslar.

Ko‘pchilik axborot-kutubxona muassasalari esa o‘zlarida mavjud bo‘lgan axborot-bibliografik anparatlar haqidagi bilimlarni o‘quvchilar va talabalar o‘rtasida targ‘ib qilmaydilar.

Kuzatishlar ko‘rsatmoqdaki, hatto oliy o‘quv yurtlari talabalarining ko‘pchiligi axborot-bibliorafik apparatdan to‘g‘ri foydalanishni bilmaydilar. Natijada mutolaa madaniyatining shakllanishi ko‘ngildagidek emasligi aholi umumiy mutolaa madaniyati darajasining o‘sishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shuning uchun ham jamiyat a’zolarining ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayot sohasidagi ulkan o‘zgarishlarga daxldorlik hissini tarbiyalash orqali faolligini oshirish vazifalari kutubxona axborot xizmatining‘ majmuaviy faoliyati sifatida foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatishni takomillashtirib borishni talab qiladi.

O‘zaro aloqador bo‘lgan ikki yo‘nalish - foydalanuvchilar mutolaasiga rahbarlik va axborot xizmati - kutubxona - axborot xizmatining asosiy mazmunini ifoda etadi.

Foydalanuvchilar mutolaasiga rahbarlik-milliy g‘oyamizning asosiy yo‘nalishlaridan biri-komil insonni shakllantirish maqsadida ommaviy mutolaa madaniyati mazmuniga ta’sir o‘tkazishning o‘ziga xos tizimidir.

Mutolaa-matn va belgilar orqali qayd etilgan ma’lumotlar, axborotlarni o‘zlashtirshiga yo‘naltirilgan kommunikativ faoliyatdir. Bu murakkab kommunikativ tizim muallif-nashriyot-bosma nashr(manba)-axborot-uni tarqatish tizimi-targ‘ibot-foydalanuvchini o‘z ichiga olgan bo‘lib, undagi har bir bo‘lim jamiyat hayotining muayyan sohasi bilan bog‘langan. ARMdan foydalanuvchi-axborot va targ‘ibot, tashviqot ta’siri o‘tkazish hamda bir paytning o‘zida tanlangan faol subyekt sifatidagi obyektdir.

Turli sosiologik tadqiqotlarda mutolaaning uzluksizligi, bosma nashrlar, elektron ma’lumotlar, axborotlarga munosabatning maqsadiga ko‘ra kishilarni aholining faol mutolaa qiluvchi qismiga kiritish yo‘nalishi yetakchilik qilishi holatlari ham uchraydi. Lekin bu ko‘rsatgichlar o‘zgaruvchan hususiyatga egadir.

Mutolaaning doimiyligi va uzluksizligi kishilarning bo‘sh vaqti va kasbiy faoliyatiga bog‘liq ravishda o‘zgarib turadi. Shuning uchun ham mutolaa xossalariga bog‘liq bo‘lgan asosiy farq qiluvchi belgini aniqlab olish zarurdir.

Bunday farq qiluvchi belgi – mutolaani shaxs ma’naviy ehtiyojlarini qondiruvchi faoliyatga aylantirishdir. Ushbu faolyat jarayonida subyektning ongida uning nashr mahsuloti yoki axborot manbalariga nisbatan o‘zaro munosabatlarini tartibga soluvchi mutolaa psixologiyasi shakllanadi.

Shunga ko‘ra foydalanuvchi shaxs - o‘ziga xos mutolaa psixologiyasiga ega bo‘lgan, ayni paytda muallif, nashr mahsuloti, axborot manbai, uni tarqatish va targ‘ib qilish tomonidan ta’sir ko‘rsatiladigan, o‘zining ma’naviy ehtiyojlariga muvofiq mutolaa doimiy faoliyati bo‘lgan ijtimoiy subyektdir.

Foydalanuvchilarni o‘rganish - ularga kutubxona - axborot xizmati ko‘rsatishni takomillashtirishga qaratilgan sosiologik, psixologik - pedagogik jihatdan asoslashga yo‘naltirilgan faoliyat hisoblanadi.

Bu kutubxona – axorot xizmati jarayonida foydalanuvchilar bilan olib boriladigan ishlarning shart-sharoiti va ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, kutubxona - axborot xizmati ko‘rsatish samaradorligini baholash uchun asos yaratishdan tashqari mutolaani boshqarish jarayonida qaytariluvchi aloqani ham ta’minlaydi.

Foydalanuvchilarni muayyan guruhlarga ajratish ularni mutolaa va foydalanuvchilar psixologiyasini shakllantirishga qat’iy ta’sir o‘tkazish belgilariga ko‘ra guruhlashtirishdir.

Foydalanuvchilarni guruhlashtirishda demografik, ijtimoiy - kasbiy, ijtimoiy psixologik belgilarga ham e’tibor qaratiladi.

Kutubxona-axborot xizmati ko‘rsatish foydalanuvchilarning qiziqishlari va ehtiyojlarining qondirilishi, mutolaaga rahbarlik, axborotlar bilan ta’minlash, bibliografik va axborot qidiruv ta’minoti singarilar orqali amalga oshiriladi va uni foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatishning tashkiliy shakllari tizimi sifatida ta’riflash mumkin.

Mutolaa madaniyatini shakllantiruvchi muassasalar tizimida kutubxonalar alohida o‘rin egallaydi. Lekin ushbu muassasalarda kitobxonlar bilan ishlash

bo‘yicha maxsus ma’lumotga va malakaga ega bo‘lgan xodimlarning mavjud bo‘lishigina mutolaa madaniyatini shakllantirishning muvaffaqiyatini ta’minlashi mumkin. Mutolaa

madaniyatining shakllanishi kitobxon faolligi bilan bog‘liq bo‘lganligi uchun uning maqsad sari intilishi, irodasi, mas’ulyatligi, o‘zini o‘zi nazorat qila bilishi orqali takomillashib borishi ko‘nikmasini tarbiyalashda Kutubxona-axborot muassasa xodimi o‘zining pedagog sifatidagi imkoniyatlaridan keng foydalanishi zarur bo‘lib, ma’naviy rag‘batlantirish, namuna qilib ko‘rsatish usullari qo‘llanilishi mumkin.

Kutubxona-axborot muassasalari axborot bilan ta’minlashning yangi texnologiyalarini qo‘llagan holda xizmat ko‘rsatishning yangi shakllarini taklif eta bilishi, an’anaviy kitoblar targ‘iboti bilan birga elektron shakldagi manbalarni to‘plash, masofaviy manbalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirib borishlari kerak.

Kutubxona-axborot muassasalari an’anaviy kutubxonashunoslik ishining ijobiy samara berayotgan shakl va usullari bilan birga yangi texnologiyalardan keng foydalanishni uyg‘unlashtirib, mutolaa madaniyatini shakllantirish uchun quyidagi holatlarga e’tibor berishlari zarur:

- Foydalanuvchilarni Kutubxona-axborot muassasalariga jalb qilishning yangi shakllari va usullaridan keng foydalanish;
- Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan mutolaa va kitobxonlik madaniyatiga oid dasturlarni amaliyotga tadbiq etishda faol ishtirok etish;
- Foydalanuvchilarda kutubxona axborot bibliografik apparatidan mustaqil foydalana olish ko‘nikmasini shakllantirish;
- Mutolaa jarayonining ilmiy-nazariy imkoniyatlarini optimallashtirish usullarni ishlab chiqish;
- Internetdan foydalanish malaka va madaniyatini shakllantirish;
- Kutubxona-axborot muassasa xodimlarining malakasini muttasil oshirib borish.

Ma’naviyatning shakllanishi, kishilarning, ayniqsa, yoshlarning qanday kitob o‘qiyotganligi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lganligi uchun mutolaa madaniyatini shakllantirishda Kutubxona xodimlarining faoliyati alohida ahamiyatga ega. Chunki foydalanuvchi fonddagi kitoblarning hammasini o‘qib chiqish imkoniga ega emas, balki ularning hammasini o‘qib chiqish shart emas.

Kitob eng yuksak ma’naviy boylikka qiyoslansada, kitob javoniga terib qo‘yilgan , lekin o‘qilmagan, birovlarga o‘qish uchun tavsiya qilinmagan kitoblar hech qanday qiymatga ega emas. Insonni o‘ylantiradigan, hayot yo‘li davomida asqotadigan, dunyoqarashi va yashash falsafasini o‘zgartiradigan, muayyan xulosaga kelishi asosida faoliyatni maqsad sari yo‘naltirishga yordam beradigan kitoblarninggina qiymati beqiyosdir.

Chunki, inson kitobni yashashdan maqsadini, hayotining ma’nosi, mazmunini anglash uchun mutolaa qilishi kerak. Yaxshi kitob fikrlashga o‘rgatadi, nutqni takomillashtiradi, tafakkurni yanada kengaytiradi va boyitadi. Shuning uchun kitoblar ichidan eng saralarni tanlab tavsiya qilish Kutubxona-axborot muassasadan foydalanuvchilar bila ishlashda eng muhim yo‘nalishlardan biri bo‘lishi kerak.

Qaysi kitobni o‘qishni bilmay turgan foydalanuvchining qo‘liga ushbu saralangan kitoblarning bir qismi tushsa va ularning mazmuni va maqsadini to‘g‘ri anglab yetishga erishilsa, bu kitob mutolaasidagi eng samarali uslublardan biri hisoblanadi. Eng sara kitoblarni o‘qigan kitobxon atrofdagi boshqa odamlardan farqli ravishda dunyoni o‘zgacha nigoh bilan kuzata boshlaydi, o‘zidan boshqalarning fe’l-atvoriga va ehtiyojlari, dunyoqarashi to‘g‘risidagi tasavvurlarini kengaytiradi, o‘zining menligidan tashqariga chiqib, hayotiy xulosalari ham umumlasha boradi.

Eng sara kitoblarni doimiy, izchil, tizimli tarzda mutolaa qiluvchi kishida imon shakllanadi. Imon umumlashtirilganda o‘tmishda bo‘lib o‘tgan,hozir mavjud bo‘lgan va kelajakda voqea bo‘ladigan narsalarning hammasida kamolotga intiluvchi iroda mavjud ekanligiga qat’iy , chin dildan ishonch va til tasdig‘idir. Ushbu ishonch va e’tiqodga ega bo‘lgan har bir inson mukammallashish va

kamolotga erishish jarayonining ishtirokchisiga aylanadi. Go‘zallik va ezgulikni kuzatish hamda his qilshga qodir bo‘lgan, meyor tuyg‘usiga ega bo‘lgan inson hayotda ham go‘zallikka intiladi,unga extiyoj sezadi, meyorga muvofiq faoliyat ko‘rsatadi. Kitob mutolaasi insonni o‘z orzularining hayotiy haqiqatga aylanishi, erishilgan darajaga asoslanib yangi orzular va intilishlarga ilhomlantiradi.

Yangi maqsadlarga erishish uchun o‘qish, izlanish, o‘z ustida muntazam ishlash zarurati esa ehtiyojni shakllantiradi. Mutolaa ehtiyoji shu tarzda vujudga keladi. Insoniyat jamiyatining bugungi taraqqiyot darajasi doimiy mutolaani talab qiladi. Ushbu uzluksiz jarayonni optimallashtirish jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy taraqqiyotida hamda unig yangi sifat bosqichlarga o‘tishida ma’naviy asos vazifasini bajaradi.

Bugungi kunda zamonaviy axborot oqimi, internetning imkoniyatlari kengayib borishi bilan kitobning inson va jamiyat hayotidagi o‘rni, ahamiyati kamayib boradi degan qarashlar ham paydo bo‘lmoqda.

Lekin xalqaro miqyosda o‘tkazilgan tadqiqotlar va so‘rovlarning ko‘rsatishicha internetdan foydalanuvchilarning o‘sishiga muvofiq tarzda kitob sotib olish va o‘qish ham o‘sib bormoqda. Agar bu holat G‘arb davlatlarida yuz berayotganlarini hisobga olsak ma’naviy yuksalishda kitobning o‘rnini hech narsa bosa olmasligi namoyon bo‘lmoqda. Bundan tashqari turli sohalar mutaxassislarining qiyosiy taxlillari natijalarga ko‘ra elektron kitoblar olib yurish qulay va tezkor bo‘lsada undan toliqish hissi kuchli bo‘lib, oddiy kitob singari mehr, hayajon , intiqlik, keng mushoxada qilish singari insoniy tuyg‘ularni uyg‘otmaydi. So‘nggi paytlarda mamlakatimizda ham kitob sotib olish va mutolaa madaniyatining sezilarli darajada o‘sayotganligini kuzatish mumkin. Chunki kitob do‘konlari oldida ba’zi kitoblarni sotib olish uchun odamlar navbat kutib turganligini ko‘p yillardan buyon hech kim ko‘rmagan edi. Bu holat kishilarning ma’naviyat sari, kitob mutolaasi sari yuz burayotganidan dalolatdir.

Demak, axborotlar oqimi kanchalik kuchayishidan qat’iy nazar “Internet” tarmog‘idagi ma’lumotlarning juda ko‘pligiga qaramasdan kitobning o‘rnini hech narsa bosa olmaydi. Bugungi kunda kitob mutolaasi targ‘ibotining eng yaxshi yo‘li

saralangan kitoblarni tanlab tavsiya qilishdir. Chunki nashr etish imkoniyatlarning kengayib borishi natijasida turli saviya va mazmundagi kitoblarning chop etilayotganligi uchun ular ichidan inson tafakkurini boyituvchi, ijobiy fazilatlarning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadigan kitoblar mutolaasiga yo‘naltira bilish zarur bo‘lmoqda.

Chunki faqat ma’rifiy dunyoqarashi shakllangan, jahoniy miqyoslarda fikrlaydigan insonlargina jamiyat tarqqiyotiga hissa qo‘sha oladi. Hayotning hamma sohalarida faqat bilimlar orqaligina muvaffaqiyatga erishish mumkinligi o‘zgarmas haqiqatdir.

Foydalanuvchilarning turli qatlamlari orasida mutolaaning o‘rnini aniqlash, axborot olishning asosiy manbalarni bilish, mutolaa darajasining kamayib ketishining sababini aniqlash, mutolaa madaniyatini shakllantirishni takomillashtirish yo‘llarini ko‘rsatishga erishish alohida ahamiyatga ega bo‘lib, shu orqali:

1. Mutolaa madaniyatini shakllantirishda an’anaviy kitobxonlik tamoyillarini, shakllari va usullarni to‘liq saqlash, davrimizning xususiyatlarini hisobga olgan holda yangi shakllar va usullarni qo‘llay bilish va takomillashtirib borish;

2. Zamonaviy elektron-texnik vositalardan to‘liq foydalana bilishni chuqur o‘zlashtirish, taxlil eta bilish asosida mutolaa madaniyatini davr talablariga javob bera oladigan darajada shakllantirish

3. Axborotlashgan jamiyatda elektron manbalarning ko‘payib borishini kitobning chetga surilishi emas, kutubxona-axborot xizmatlari doirasining yanada kegayishi va takomillashishi ekanligini keng tushuntirish

4. “Axborot madaniyati” , “Mutolaa madaniyati” alohida tushunchalar emas, aslida axborot madaniyati ham “kutubxona-bibliografiya savodxonligi” , “kompyuter savodxonligi” singari mutolaa madaniyati tarkibiga kiruvchi tushuncha ekanligini barcha foydalanuvchilar bilishlari zarur. Ana shundagina mutolaa madaniyatini shakllantirishda ba’zi ziddiyatlarga barham beriladi.

Kutubxona-axborot xizmati jarayonida mutolaa madaniyatini shakllantirish kutubxonalarni jamiyatning ma’naviy va ilmiy, texnologik, umuman madaniy taraqqiyotini ta’minlovchi muassasaga aylantirishga hizmat qiladi. Kutubxonalar ma’naviy-ma’rifiy muassasa sifatida jamiyat va shaxs rivojlanishini uyg‘unlashtirish asosida quyidagi vazifalarni bajaradi:

- Har bir foydalanuvchining talab va ehtiyojiga mos kutubxona-axborot xizmati ko‘rsatish;
- kutubxona-axborot xizmati orqali foydalanuvchilarning barcha guruhlarini ijtimoiylashuv jarayonlariga tortish;
- kutubxona-axborot xizmati orqali mutolaa madaniyatini shakllantirish;

Kutubxona-axborot muassasasi joylashgan hudud nuqtai nazaridan esa:

1.o‘lkashunoslik asosida mahalliy muhitning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘rganish, targ‘ib qilish va muhofaza qilish;

2. milliy qadriyatlarni asrash bilan birgalikda boshqa millatlar madaniyatini o‘rganish, dinlararo va millatlararo toleterantlikni shakllantirish;

3. jamiyat hayotida amalga oshirilayotgan ijtimoiy demokratik jarayonlarda faol ishtirok etishni ta’minlashdan iboratdir.

Bundan tashqari kutubxona-axborot xizmati orqali quyidagi vazifalar ham amalga oshiriladi:

- foydalanuvchilar o‘rtasida kommunikativ aloqa o‘rnatish
- foydalanuvchilar bilan yakka tartibda ish olib borishdan tashqari bahs-munozaralar tashkil etish;
- har bir foydalanuvchining individual rivojlanishiga hizmat qiluvchi “Foydalanuvchi-kutubxonachi”, “Foydalanuvchi-manba”, “foydalanuvchi-foydalanuvchi” aloqalarni takomillashtirish;
- har bir foydalanuvchining o‘z talab va ehtiyojlariga mos tarzda ma’lumot va axborot olishiga imkoniyat yaratishi;

- foydalanuvchilarning ijtimoiy-siyosiy , iqtisodiy, huquqiy bilimlarini oshirish orqali ularda jamiyatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy o‘zgarishlarda faol ishtirok etish imkoniyatlarini yaratish usullarini ishlab chiqish va targ‘ib qilish;
- o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muasasasalari o‘quvchilari, oliy o‘quv yurti talabalari uchun ilmiy-amaliy hamda uslubiy yordam ko‘rsatish;
- imkoniyati cheklangan foydalanuvchilarga, uy bekalarga, uyushmagan yoshlarga, keksalarga, vaqtincha ishsizlarga, ozodlikdan mahrum bo‘lganlarga va boshqa ijtimoiy demografik guruxlarga alohida hizmat ko‘rsatishdan iborat bo‘lishi kerak.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan vazifalarni amalga oshirishdan tashqari jamiyat ijtimoiy-madaniy taraqqiyotining intellektual omili sifatida mutolaaning ahamiyatini ko‘rsatib berish uchun alohida dasturlar ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Jumladan:

1. Bevosita mutolaa jarayonlarining shaxsning rivojlanish va jamiyatning taraqqiyoti uchun ahamiyatini targ‘ib qiluluvchi dasturlar;

2. Ijtimoiy ishlab chiqarish sohasida qatnashmayotgan aholi guruhlari uchun biron-bir ijtimoiy foydali faoliyat kasb yoki qiziqishni qondirish yoki davr talabiga mos holda boshqa kasbni chuqur o‘rganish, moslashuvda mutolaaning amaliy ahamiyatini ko‘rsatib beruvchi dasturlar

3. Davlat va jamiyat tomonidan ilgari surilayotgan taraqqiyotga oid vazifalarni amalga oshirish yo‘nalishlari bilan kutubxona-axborot xizmatini uyg‘unlaishrishga oid dasturlar

4. Jamiyat manfaatlari va shaxs manfaatlarning meyoriy muvozanati va uyg‘unligini ta’minlash uchun mutolaaga doir vazifalarni amalga oshirishga oid dasturlar

Kutubxona-axborot xizmati har bir foydalanuvchining ijtimoiy taraqqiyotidagi ishtirokini ta’minlashdagi vazifasini amalga oshirishga ko‘maklashish, yo‘naltirish, kuzatish, eksperimentlar o‘tkazish orqali tavsiyalar

berish jarayonlaridan iboratdir. Har bir foydalanuvchida kutubxona-axborot xizmati orqali mutolaa madaniyatining shakllanishi, ularning passiv faoliyatdan (ma'lumot va axborotni qabul qilish) faol faoliyatga (ma'lumot va axboro qabul qilish,qayta ishlash va taxlil qilish mohiyatini anglash orqali yangi ma'lumotlar va bilimlarni yaratish) o'tishlarini ta'minlab, shaxsning o'zigagina emas bir butun jamiyatning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Mutolaa murakkab ijtimoiy hodisa sifatida tarkibiy qismlardan iborat bo'lganligi uchun uning asosiy elementlaridan biri- mutolaa psixologiyasidir.

Mutolaa psixologiyasida shaxsning ijtimoiy faolligi alohida ahamiyatga ega bo'lib, ijtimoiy shart-sharoitlarni o'zgartirish, shaxsni ijtimoiylashtirish maqsadiga yo'naltirilgan faoliyat sifatida namoyon bo'ladi.

Mutolaa madaniyati tizimida foydalanuvchilarning ongli va maqsadli faoliyati markaziy o'rinni egallaydi va mutolaa jarayonlarida foydalanuvchilarning faoliyatini tahlil qilish, ularning psixologiyasi, shaxsi, o'zaro muloqotini ham ma'lum darajada o'rganishga imkoniyat beradi.

Mutolaa - psixologik faoliyatining murakkab ko'rinishi bo'lib, matnni o'zlashtirish va qayta ishlash orqali munosib bilimlarga erishishdan iborat bo'lgan jarayondir. Foydalanuvchi faoliyatining motivasiyasi, qiziqishi uning ijtimoiy demografik mansubligi hamda ijtomoiy -psixologik tafakkuri natijasida shakllanadi.

Har qanday faoliyat u yoki bu natijalarga bog'liq bo'lganligi uchun maqsadga erishishga qaratiladi va bu faoliyatda o'z aksini topgan psixologik holatlar va jarayonlar tizimi "motiv-maqsad"munosabatlaridan tashkil topadi.

Foydalanuvchi faoliyatining pirovard natijasi uchun o'zi va mualliflar bilim darajasi, nutqi va malakasi, hissiy irodasi, mutolaaning psixologik jihatlari, mutolaa uchun yaratilgan imkoniyatlar va shart –sharoitlar foydalanuvchilar diqqatini jalb qilish darajasi va boshqalarga bog'liqdir.

Mutolaa psixologiyasi foydalanuvchi faoliyatidan tashqari "o'zlashtirish", "tushuntirish", "mutolaa natijasi", " mutolaa samaradorligi" kabi tushunchalarni

xam oʻz doirasiga qamrab oladi. Mutolaa qilingan manbalarni anglab yetish, oʻzlashtirish foydalanuvchining murakkab psixik faoliyati hisoblanadi.

Manba matnini tushunish mutolaa samaradorligini tashkil qiladi. Samaradorlik esa natija,tushunish va qabul qilishning umumlashtirilgan jarayoni boʻlib, foydalanuvchining bir butun faoliyatini tavsiflaydi. Foydalanuvchi faoliyatining natijasi uning erishilgan mahorat koʻrsatgichidir.

Mutolaa ehtiyojining yaratishni asosiy shakllaridan biri mutolaa motivi hisoblanadi.

Motiv lotinchada “harakatlantiraman”, fransuzchada “undovchi sabab” tushunchalarini anglatadi. U shaxsni aqliy, amaliy harakat va xulq atvorni amalga oshirishga undovchi, muayyan ehtiyojlarni qondirish bilan uzviy bogʻliq mayl, ihtiyoriylikdir. Motivlarning bosh funksiyasi insonni harakatga undovchi sabab va ichki turtkilarni harakatga keltirishdan iborat.

Har qanday faoliyat muayyan motivlar ta’sirida vujudga keladi va yetarli shart-sharoit yaratilgandagina amalga oshadi. Shuning uchun ham foydalanuvchilar bilan ishlash jarayonida manbalarni oʻrganish va oʻzlashtirishni amalga oshirishni ta’minlash uchun ularda mutolaa motivlari shakllantirilgan boʻlishi kerak.

Foydalanuvchilarning muayyan manbalarni va axborotlarni oʻrganish asosida bilish motivlarni bilish maqsadini qaror toptirishga, bilim va koʻnikmalarni egallashga yoʻnaltiriladi.

Motivlar ikki xilda, tashqi va ichki motivlar koʻrinishida boʻlib, tashqi motivlar mutolaaga nisbatan ichki anglangan ehtiyojining mavjud emasligi, boshqalarga koʻr-koʻrona ergashish tarzida namoyon boʻlishi mumkin.

Ichki motivlar turkumiga yakka xususiyatga ega boʻlgan motivlar kiradiki, ular foydalanuvchi shaxsida muloqotga nisbatan alohida maqsadni roʻyobga chiqaruvchi ichki hissiyot negizada paydo boʻladi. Chunonchi, bilishga nisbatan qiziqishning vujudga kelishi foydalanuvchining ma’naviy darajasini oshirish uchun unda intilishlarning yoritilishidir.

Bunga o‘xshash motivlarning ta’sirida foydalanuvchilar bilan ishlash jarayonida ziddiyatli holatlar (vaziyatlar) vujudga kelmaydi

Albatta, bunday turkumga kiruvchi motivlar paydo bo‘lishiga qaramay, ba’zi qiyinchiliklar vujudga kelishi ehtimol tutiladi, chunki bilimlarni o‘zlashtirish uchun irodaviy zo‘r berishga to‘g‘ri keladi.

Bunday xossalarga ega bo‘lgan irodaviy zo‘r berishlar halaqit beruvchi tashqi ko‘zg‘atuvchilar kuchi va imkoniyatini kamaytirishga qaratilgan bo‘ladi. Pedagogika va psixologiya fanlari nuqtai nazaridan ushbu jarayonga yondashilganda, to‘laqonli vaziyatgina oqilona (optimal) deyiladi.

Foydalanuvchilar bilan ishlash jarayonida bunday vaziyatni yaratish kutubxonachining muhim vazifasi hisoblanib, uning faoliyati ichki anglashilgan motivlar, foydalanuvchilar shaxsini shakllantirishga, ularda maqsadni to‘g‘ri belgilay olish, kiziqish uyg‘otish va ideallarni tarkib toptirshga qaratilgan bo‘ladi.

Kutubxonachi foydalanuvchilar bilan ishlashda bugungi kunda psixologiya fanining yutuqlarga asoslanib, motivlarni quyidagi turkumlarga ajratgan holda yondashishi maqsadga muvofiqdir:

1.Foydalanuvchining dunyoqarashi bilan bog‘liq bo‘lgan salbiy motivlar.

2. Ichki va tashqi siyosatga nisbatan munosabatni aks ettiruvchi siyosiy motivlar.

3. Jamiyatning axloqiy qoidalari, tamoyillari, turmush tarzi, etno-psixologik xususiyatlariga asoslanuvchi axloqiy motivlar.

4. Voqelikka nisbatan go‘zallikni his etishga asoslangan, nafosatli (estetik) his etishga oid motivlar.

5.Keng qamrovli ijtimoiy motivlar (vatanparvarlik, fidoiylik, alturistik);

6. Faoliyat maqsulini baholashga, maqsadga erishuvga mo‘ljallangan rag‘batlantiruvchi motivlar.

7. Kasbiy tayyorgarlik va mahoratni o‘zida namoyon etuvchi motivlar

8. O‘qishga, bilishga, ijodga oid motivlar.

9. Qisqa muddatli, o‘tkinchi motivlar.

10.Uzoq muddatli, vaqt bilan chegaralanmagan, hotirjam hatti-xarakatlar bilan bog‘lik bo‘lgan motivlar.

Demak, motiv inson xissiyotini uyg‘otadigan, uning ma’naviy ehtiyojlarini kondirishga yordam beradigan omildir.

Mutolaa ehtiyoji nuqtai nazaridan mutolaa motivasiyasi manba mazmuni va boshqa barcha sifatlarining foydalanuvchi ehtiyojiga mos kelishiga asoslangan, ihtiyoriy intilishni keltirib chiqaradigan ichki hissiyotlardir. Masalan, har bir foydalanuvchi tasavvurida kitobni tanlash motivlari obrazlar shakliga (titilib, to‘zib ketgan kitob haqida malumot va tasavvurga ega bo‘lishga intilish, ya’ni kitobning titilib, to‘zib ketganligi, ushbu kitobning juda ko‘p kitobxonlarni qiziqtirganligi va qo‘ldan qo‘lga kelganligidan darak beradi), fikrlarga, boshqa kitoblar bilan taqqoslanganida ushbu kitobning bayon qilish va qiziqtirish uslubining yuqori o‘ziga xosliga xaqida mulohaza yuritish, qiziqtirishga (butun diqqat e’tiborni jalb etadigan syujetga ega bo‘lishi), istak-hoxishga (masalan Toxir Malikning barcha asarlarini o‘qib chiqish) va intilishga ega bo‘lish mumkin.

Foydalanuvchi uchun oxir-oqibatda mutolaa motivlarining namoyon bo‘lish shakllari emas, uni qiziqtirgan muammolar, ya’ni tanlangan kitobdan qanday javob kutishi, uning mazmuni, o‘z ehtiyojlariga qanchalik darajada mos kelishi muhimdir.

Yuqorida ta’kidlanganidek, mutolaa o‘z mohiyatiga ko‘ra ihtiyoriy faoliyat bo‘lishi bilan birga, unga bo‘lgan ehtiyoji - bu ijtimoiy subyektdir (alohida shaxs, ijtimoiy-demografik gurux, jamiyatdir) mutolaaga nisbatan uzluksiz, hayotiy, zaruriy faoliyat sifatida qarovchi munosabati hisoblanadi.

Mutolaa har bir foydalanuvchining ma’naviy ehtiyojlari va qiziqishlariga javob beruvchi muntazam faoliyatiga aylangan taqdirdagina mustaqil ehtiyoj sifatida rivojlanishi mumkin.

Mutolaa ehtiyojidan manbalarni tanlash zarurati kelib chiqadi.

Eng asosiysi mutolaa motivasiyasida uning majburiyat, ba’zan qiziqish tufayli amalga oshadigan darajasidan doimo qiziqish tufayli amalga oshadigan darajasiga o‘tish muximdir.

Kutubxona-axborot xizmati jarayonida foydalanuvchilar bilan ishlashni uzluksiz, muntazam davom ettirish uchun foydalanuvchilar qiziqishini o‘rganib borish zarur. Shuning uchun ham kutubxonada-foydalanuvchilarni o‘rganishdan asosiy maqsad ularning qiziqishini o‘rganish hisoblanadi.

Foydalanuvchi qiziqishi uni faoliyatga yo‘naltiruvchi omil bo‘lib, u manbalarni, ya’ni bosma nashr mahsulotlari, axborotlarni tanlashga, ularni tahliliy o‘zlashtirishga va baholashga ta’sir ko‘rsatadi. Foydalanuvchi qiziqishi uning boshqa ma’naviy qiziqishlari hamda mutolaaga bo‘lgan ehtiyojlari bilan aloqadorlikda rivojlanadi.

Foydalanuvchi qiziqishi mutolaa motivlarining ustunlik darajasi, xohish, intilish, ya’ni bilimlarni egallashdan, tafakkuri rivojlanishidan zavqlanish kabilar bilan tavsiflanadi.

Lekin, aniq bir manbaga nisbatan bevosita qiziqishni foydalanuvchining barqaror qiziqishi sifatida talqin eitsh mumkin emas.

Shunday vaziyatda kutubxonachining asosiy vazifasi foydalanuvchining muayyan manbaga nisbatan qiziqishini tahliliy yo‘nalishga solish, ya’ni saralangan manbalar orqali umumlashtirilgan va barqaror yo‘nalishga tushirilgan holatga kelishiga yordam berishdan iboratdir.

Demak, foydalanuvchilar qiziqishi shakllanishining qonuniyatlarini o‘rganish uchun ularning mutolaaga bo‘lgan aniq ehtiyojlarini, mutolaa ehtiyojlarining tushunib yetilganlik darajasini, ichki xohish-istak sifatida mutolaa maqsadi va motivlarining namoyon bo‘lishini muntazam va uzluksiz mutolaa xususiyatlarini birgalikda ko‘rib chiqish zarur bo‘ladi.

Bu foydalanuvchilar qiziqishining barqarorligi va beqarorligi, kuchli yoki zaifligi , faol yoki passivligi, kengligi yoki torligi, keng ko‘lamliligi yoki yuzaki ekanligini aniqlashga imkon beradi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, foydalanuvchilar qiziqishi ularning boshqa qiziqishlari bilan ham o‘zaro bog‘liq bo‘lib, mazmuniga ko‘ra kasbiy, ta’limiy va ilmiy xarakterdagi manbalarni mutolaa qilishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Foydalanuvchilar yoshi va ma’lumot darajasi ularning qiziqishlari mazmunini belgilashidan tashqari rivojlanish yo‘nalishiga ham ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Mutolaa jarayonlari mazmunida yoshning farqi ayniqsa, bolalar, o‘smirlar. o‘spirinlarda o‘ziga xos xususiyatlarga ko‘ra namoyon bo‘lishi kutubxona xodimlari tomonidan alohida e’tiborga olinishi kerak.

Bundan tashqari foydalanuvchilar bilan yakka tartibda ishlash jarayonida ular qiziqishining chuqurligi va qobiliyatlarining o‘zaro ta’sirini o‘rganib chiqish zarur. Chunki, foydalanuvchi qobiliyati uning qiziqishi rivojlanishiga alohida ta’sir ko‘rsatishini hisobga olgan holda kutubxonachi uning qiziqishini shakllantirib va muntazam mutolaaga yo‘naltirib, qobiliyatini yanada rivojlantirishga yordam berishi mumkin.

Mutolaa madaniyati tushunchasi turli bosma nashrlar, ma’lumotlar va axborot olamiga yo‘l topishdan tashqari “kitobga muhabbat”, “mutolaaga qiziqish”, “mutolaani his qilish va tushunish”, “Ijodiy mutolaa”, “Kutubxona-bibliografik savodxonligi” tushunchalarini ham o‘z doirasiga qamrab oladi.

Ayniqsa, Kutubxona-bibliografik savodxonligi malakali foydalanuvchi axborot xizmatidan foydalanishi uchun zarur bo‘lgan minimal darajadagi ko‘nikmalar va malakalar majmuasi hisoblanadi.

Kutubxona-bibliografik savodxonligi ilk bosqichda kutubxona kataloglari, kartotekasi, bibliografik qo‘llanmalardan, manbalardan foydalana bilish ko‘nikmasini hosil qilish, kurs ishlari, diplom ishlari, dissertasiyalar bo‘yicha foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatini tuzishni o‘rgatish orqali shakllantirilib boriladi.

Mutolaa madaniyati o‘z-o‘zidan shakllanmaydi va rivojlanmaydi. Buning uchun davlat va jamiyat taraqqiyotida zarur bo‘lgan ehtiyojlar asosida millatning tili, tarixi, dini, mustaqilligi, erkinligi, manfaati nuqtai nazaridan mutolaa madaniyati shakllantirib boriladi.

Mutolaa madaniyatini shakllantirishda kutubxona-axborot xizmati bilan birga oila, mahalla, ta’lim tizimi, mehnat jamoalari, davlat hokimiyati, siyosiy

partiyalar, jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari muhim omillar hisoblanadi.

VII. BOB. Kutubxona-axborot xizmati jarayonida axborot madaniyatini shakllantirish.

Bugungi kunda kutubxonalar bilim olishning asosiy dargoxdaridan biri bo‘lib, bu yerda xar bir foydalanuvchi ma’naviy madaniyat maxsulotlari va jarayonlari bilan faol muloqotga kirishadi, tafakkur durdonalarini o‘rganadi. Ushbu o‘rganish samarali bo‘lishi uchun mavjud manbalardan kanday foydalanish yo‘llarini o‘zlashtirib olish doimiy va muntazam kunikmaga aylantirish xar kachongidan ko‘ra dolzarb axamiyat kasb etmokda.

Ko‘pchilik foydalanuvchilar o‘zlari o‘rganayotgan manbalarning ko‘pligi va ularni izlash tizimlarining xaddan tashkari murakkab ekanligini ko‘rib, sarosimaga tushib kolishi mumkin. Shuning uchun kutubxonachilarning asosiy vazifalaridan biri kutubxona axborot xizmati jarayonini iloji boricha soddalashtirish va tushunarli tarzda tashkil etishga e’tibor berishdir. Foydalanuvchilarniig ma’lumot izlash jarayoni esa ularning kerakli ma’lumotni topgan va mutolaa paytida olgan zavki darajasidagi mashg‘ulotga aylanishiga xarakat kilinishi kerak. Kutubxonachi foydalanuvchilarniig bilim olishi yo‘lidagi doimiy xamroxi sifatida kerakli ma’lumotlarni osonlik bilan topish va samarali foydalanish uchun kerak bo‘ladigan malakalarni shakllantirishga yordam berishi zarur.

Foydalanuvchilarning muayyan ma’lumotlarni olishlari uchun mustaqil faoliyat ko‘rsatishlariga yordam berish orqali ularda axborot madaniyatini shakllantirib boriladi.

Axborot madaniyati, avvalo, axborotga bo‘lgan ehtiyojni his etish, uni topish, saralay bilish va baholash, tezkor tahlil qila bilish va samarali foydalanish uchun zarur bo‘lgan malakalar majmuasidir.

Axborot madaniyatini shakllantirish bibliografik tayyorgarlikdan boshlanib, o‘z ichi**g**a kutubxona bilan tanishtirish, turli mashg‘ulotlar, ma’lumotlarni topishiga yordam beruvchi belgilar bilan tanishish, ma’lumot berish vositalaridan foydalanish bo‘yicha yo‘riqnomalarni yaratish kabi tadbirlar majmuasidan iborat bo‘lib, xam umumiy extiyojni qondirish, xam foydalanuvchilarda yangi bilimlar xosil kilish malakasini shakllantirishni o‘z oldiga maksad kilib ko‘ygan faoliyatdir.

Yangi texnologiyalarning jadal rivojlanib borishi sharoitida axborot madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, tafakkurga asoslanish, tahlil qila olish asosida baholash ko‘nikmasini xosil kilish unda markaziy o‘rinni egallaydi. Ayniksa, mamlakatimizni rivojlantirishning 2017-2021 yillariga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasida belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirish maksadlariga to‘la yo‘naltirish uchun axborot madaniyati ma’lumot izlash, tankidiy va taxliliy yondashuv, tegishli ma’lumotlarga asoslangan xolda qaror qabul qilish, bilimni yangi vaziyatlarga yo‘naltirish, innovasion g‘oyalar va texnologiyalar yaratish, ilmiy-tadqiqot bilan ishlab chiqarish tarmoqlari o‘rtasidagi xamkorlikni mustaxkamlash, bilim almashish, amalga oshirilayoggan o‘zgarishlarga daxldorlik asosida samarali ishtirok etish, shaxsiy va estetik jihatdan o‘sishga intilishni taqozo qilmoqda.

Umuman olganda, axborot asri deb nom olgan XXI asr xar bir fuqaro uchun axborot madaniyatiga ega bo‘lgan inson sifatida quyidagi talablarni ko‘ymokda:

1) o‘zi uchun zarur bo‘lgan axborot ko‘lamini belgilay olishi;

2) o‘rganilgan ma’lumotlardan samarali foydalanishi;

3) axborot va uning manbalarini tankidiy baxolay olishi;

4) axborotdan samarali foydalanilgan xolda anik maksadni belgilash va erishish;

5) axborotdan foydalanishning iktisodiy, konunchilikka oid, ijtimoiy masalalarini tushunishi, axborotdan foydalanish etikasiga amal qilishi.

Kutubxonachilar o‘zlari faoliyat ko‘rsatayotgan kutubxona turiga ko‘ra axborot madaniyatini shakllantirishda muayyan o‘ziga xosliklarni hisobga olishlariga to‘g‘ri keladi. Jumladan, oliy ta’lim muassasasi kutubxonasi xodimlarining maqsadi seminar mashg‘ulotlariga, mustaqil tayyorgarlik ko‘rish bo‘yicha anik mavzuga yoki muayyan mavzuga oid tadkikotlarni amalga oshirish malakasini shakllantirishdan iborat. Kutubxona xodimi foydalanuvchi bilan ishlashni maktab, lisey, kasb- xunar kolleji kutubxonasi shakllantirgan malaka asosida davom ettirib,uni mustakil ravishda ma’lumot izlash malakasi bilan uyg‘unlashtirgan tarzda olib borish zarur. Ushbu jarayonning samarali natija

berishi eng avvalo, kutubxonachining oliy o‘kuv yurtida o‘qitiladigan turli fan sohalari professor-o‘qituvchilari bilan hamkorlik o‘rnatish darajasiga bog‘liqdir.

Kutubxonachilar va professor-o‘qituvchilar o‘rtasidagi hamkorlik munosabatlari talabalarga yuklatilgan vazifalarning, tadqiqot mavzularining shakllanishi yuqori darajada samarali bo‘lishiga imkon yaratadi. Axbort madaniyatini shakllantirishdagi professor- o‘qituvchilar bilan hamkorlik ilmiy tadkikotda plagiat (adabiy o‘g‘rilikka) karshi kurash nuktai-nazaridan xam ahamiyatlidir.

Talabalarga intellektual mulk yaratuvchilarning xuquqlarini ximoya

kilish, birovlarning fikriga tayanilgan xolatlarda manbalarni anik ko‘rsatish, iqtibos (havola) keltirish qoidalari, manbalardan foydalanish etikasi xakida tushunchalar berish professor-o‘kituvchilar vazifasiga kiradi. Chunki, haqiqiy axborot madaniyati izlayotgan ma’lumotni topishdangina iborat emas, balki yuqorida ta’kidlab o‘tilgandek, uni o‘rganish, taxlil kilish, mantiqiy tarkibiy kismlarga ajratish, kayta birlashtirish, qismning butundagi o‘rnini aniklash, olingan bilimdan foydalana bilishdir.

Axborot madaniyatini shakllantirishni ko‘pchilik gurux ko‘rinishida o‘tkaziluvchi tadbir deb o‘ylasalarda, kutubxonachilar ko‘p xolatlarda foydalanuvchilar bilan yuzma-yuz keluvchi muloqotlar paytida amalga oshirishni boshlaydilar. Bunda eng asosiy vazifa foydalanuvchining axborotni izlash va foydalana bilish darajasini aniklash, kizikishini o‘rganishdir. Foydalanuvchining kizikishi va axborotdan foydalanish malakasini aniklash mazkur jarayonni qiziqarli tashkil etish va u bilgan narsalarni takrorlashning oldini olish imkonini beradi.

Foydalanuvchining bilim olish va o‘rganishga moyilligini aniklab olish xam muhim ahamiyatga eta bo‘lib, undagi ishtiyok kuchli bo‘lsa kutubxonachi bundan samarali foydalanishi mumkin.

Virtual usulda ma’lumot berish jarayonida kutubxonachi savol-javob paytida foydalanish mumkin bo‘lgan qisqa xabarlardan foydalanishi maksadga muvofikdir. Foydalanuvchining savollariga berilgan javoblarga ilova qilingan bunday xabarlar, bir tomondan, uning savollariga javoblarni to‘ldiradi, ikkinchi tomondan uning

axborot madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Shuningdek, kutubxona veb-sayti orkali oliy o‘quv yurti talabalariga onlayn ko‘rinishidagi yo‘riqnomalar, bepul veb-saytlar hakidagi ma’lumotlar yetkazilishi mumkin.

Ta’lim muassasalarining har birida mavjud o‘kuv dasturlariga kutubxona manbalari, onlayn katalog ko‘rsatgichlaridan foydalanish kerakli davriy nashrlarni aniqlash va baholash hakidagi darslarning kiritilishi o‘kuvchilar va talabalarning manbalardan foydalanishga oid malakalarining oshishi orkali axborot madaniyatining shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Axborot madaniyatini shakllantirishga oid faoliyatni ta’lim muassasasi o‘kuv dasturiga uyg‘unlashtirish quyidagi yo‘nalishlarni qamrab olishi mumkin:

- Axborotga bo‘lgan ma’naviy extiyojni tarbiyalash;
- Axborot texnologiyalaridan foydalanish malakasini rivojlantirish;
- Kerakli manbalardan ma’lumotlarni topa bilish;
- Axborotni tankidiy o‘rganish, tahlil qilish va baholash ko‘nikmasi;
- Axborotdan samarali va ijodiy qaror qabul qilishda foydalana bilish;
- Axborotni saralash, taxlil qilish, hulosa chiqarish orqali bilimga aylantirish malakasini rivojlantirish;
- Axborot va axborot texnologiyalarining ijtimoiy-siyosiy, qonunchilikka oid va axloqiy jixatlarini tushunish va hurmat kilish;
- Uzluksiz ta’lim olish malakasini yanada rivojlantirib borish;

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi, internet tarmog‘ining kengayib borishi natijasida hajmi misli ko‘rilmagan darajada ortib borayotgan axborotlar qurshovida qolgan har bir inson uchun eng ishonchli tug‘ri ma’lumotlarni saralangan holda o‘rganishning ahamiyati tobora yuksalib bormoqda.

Shundan kelib chikkan holda kutubxonachilar har bir foydalanuvchiga mualliflik huquqi bilan himoyalangan, barcha erkin foydalanishi mumkin bo‘lgan axborog turlari, pullik va bepul tarzda havola etiluvchi axborot turlari o‘rtasidagi farqlarni tushuntirib borishi, eng maqbul axborot turlarini tavsiya etishi zarur.

Bundan tashkari, ma’lumot olayotgan manbalarning ishonchliligi, jumladai veb-saytning ishonchliligini aniklash uchun uning muallifi kim ekanligini, aslida

mavjudligi yoki mavjud emasligi, u xaqidagi ma’lumotlarni tekshirib ko‘rish, axborot sifati uning boshqa manbalarga iqtiboslari (havolalari), boshqa manbalarning mazkur saytga iqtiboslariga (xavolalariga) e’tibor berish doimo eslatib borilishi kerak.

Kutubxonachi har bir foydalanuvchiga samarali amaliy yordam ko‘rsatishi uchun uning o‘ziga kerakli axborotni izlash jarayonining qaysi bosqichida turganini anik bilishi, ma’lum yordam ko‘rsatilganidan so‘ng foydalanuvchining izlanishni mustaqil davom ettirishiga imkoniyag yaratishi, navbatdagi bosqichda kengrok ko‘lamdagi yordam zarur bo‘lganida doimiy maslahatchi va hamkor bo‘lib kolishi kerak.Chunki “axborot”, “ ma’lumot”, “bilim” tushunchalari ko‘pincha sinonim sifatida ishlatilsada, ular o‘rtasida juda katta farq mavjuddir.

Ma’lumot muayyan xulosa chiqarish yoki qaror qabul qilishga hizmat qilishi, saqlanishi, uzatilishi mumkin bo‘lsada, axborot sifatida amal qilishi mumkin emas.

Ma’lumotlarni tahlil qilish, eng muximilarni ajratish, taxlil qilish orqaligina axborotga aylantirish mumkin bo‘lganligi uchun, axborot oqilona foydalanishda muayyan tartibga solingan ma’lumot sifatida ko‘proq qimmatga ega bo‘ladi.

Lekin, xar qanday axborot xam bilim bo‘la olmaydi. Bilim tabiiy va ijtimoiy borliqning belgi shaklidagi ideal in’ikosi sifatida, axborotdan farqli holda shahsiy insoniy hodisa hisoblanadi, u subyektiv shaklda mavjud bo‘ladi.

Axborot obyektiv tarzda ham mavjud bo‘lganligi uchun aloqa tarmoqlari orqali bilim berish xususiyatiga ham ega bo‘lsa, bilim o‘z yaratuvchisining shaxsi bilan bevosita bog‘liqdir.

Masalaga boshqacha yondashish, axborotni faqat formallashtirilgan bilim deb, bilimni esa ongning mavjudligi shakli deb tushunadigan bo‘lsak, bilim tushunchasi axborot tushunchasidan kengroqdir.

Bilim insonning borliqqa nisbatan amaliy munosabatda bo‘lishi jarayonida yuzaga kelgan, inson faoliyatining zaruriy sharti hisoblangan borliqning hissiy va ma’rifiy shakllarining in’ikosidir. Bilim tarkibida doimo axborot mavjud bo‘lsada, bu “insoniy” axborot o‘z xususiyatlariga ega. Bilim-inson ongining

tarkibiy qismidir. Ong bilimdan tashqari, xissiyot, kayfiyat, sezgi, iroda va h.k larga ham ega. Bilim ongning tarkibiy qismi sifatida, ular bilan chambarchas bog‘liq. Muayyan subyekt bilimining mazmuni hech qachon idrok etilgan axborot mazmuni bilangina cheklanmaydi. Idrok etish, bilimning alohida turi sifatida axborotni anglab yetish, tushunish, talqin etishni nazarda tutadi. Har holda shu narsa aniqki, insoniyat hech qachon hozirgidek jadal sur’atlarda axborot to‘plamagan. Agar XIX asrda ilmiy axborot hajmi har 50 yilda ikki barobar ko‘paygan bo‘lsa, bugungi kunda 1,5 yilda ikki baravar ko‘paymoqda.

Axborotning jamiyat hayotidagi ahamiyati kundan kunga ortib borayotganligi sababli, axborot bilan ishlash usullari ham o‘zgarib, yangi axborot texnologiyalarini qo‘llash sohalari ham kengayib bormoqda.

Axborot bir qancha xossalarni o‘zida mujassamlashtirganligi uchun nafaqat aks ettirish, boshqarish, balki aloqa vositasi sifatida ham amal qilmoqda. Bunda axborotning kommunikativ funksiyasi birinchi o‘ringa chiqadi.

Axborot obyektiv reallikning muhim qismini ifodalovchi tushuncha bo‘lib, o‘zini saqlash, qayta ishlash va ta’sir natijalari (izlari)dan foydalanish uchun mo‘ljallangan moddiy tizimlarda namoyon bo‘ladi. Obyektivlik , moddiylashtirish va uzatish imkoniyatining mavjudligi-axborotning muhim xususiyatlaridir.

Bugungi kunda “axborot savodxonligi” alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ushbu tushuncha-shaxsning axborot tizimiga kira olish, qidirish, tanlash, tarkibiy qismlarga ajratish, taxlil qilish, baholash va foydalanish ko‘nikmasining hosil qilinishini anglatadi.

Axborot savodxonligi tushunchasi bilan kompyuter savodxonligi tushunchasi chambarchas bog‘liqdir. Hozirgi zamon jamiyatida global axborot makonining kengayishi axborot savodxonligi tushunchasining keng yoyilishiga sabab bo‘ladi.

Axborot savodxonligi tushunchasining mohiyatini yanada kengroq ochib beruvchi quyidagi tushunchalar mavjuddir:

-kompyuter savodxonligi;

- raqamli-resurslar savodxonligi;

-giper savodxonlik;

-axborot-texnologiya savodxonligi(axborotni tanlash, jamg‘arish, taxlil qilish va foydalanuvchiga yetkazib berishga yo‘naltirilgan hisoblash texnikasi, elektron aloqa va boshqa imkoniyatlar uyg‘unligi haqida ma’lumotga ega bo‘lish);

- interaktiv moslik va muvofiqlik;

-internet resurslaridan foydalanish mosligi va muvofiqligi;

-kutubxona resurslaridan foydalanshi mosligi va muvofiqligi;

- mediaresurslardan foydalanshi mosligi va muvofiqligi;

-ko‘p tomonlama foydalanish mosligi va muvofiqligi;

-verbal moslik va muvofiqlik;

- vizual moslik va muvofiqlik;

Ko‘rinib turibdiki axborot savodxonligi deganda masalaning ko‘proq texnik va texnologik tomonlariga e’tibor beriladi.

Lekin, axborot savodxonligi yoki axborot madaniyati tushunchasi zamonaviy foydalanuvchi umumiy madaniyatining ajralmas tarkibiy qismi sifatida uning gumanitar va ijtimoiy yo‘nalishlariga ham alohida e’tibor qaratishni talab qiladi.

Shunga ko‘ra, axborot madaniyati tushunchasini qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘lib, shaxsning axborot madaniyati, bir butun tarzda jamiyatning axborot madaniyati, ijtimoiy kasbiy gurux axborot madaniyati tushunchalarini qo‘llash mumkin bo‘ladi.

VIII. BOB. Kutubxonachi kutubxona-axborot xizmati jarayonining yetakchi ishtirokchisi sifatida

8.1. Kutubxonachining kasbiy va shaxsiy sifatlari.

Kutubxona-axborot faoliyati bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy islohotlarning faol ishtirokchisi, milliy g'oya targ'iboti va komil inson tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan nazariy bilimlarni chuqur egallagan, ziyoli mutaxassis bo'lishni talab qiladi.

Kutubxona-axborot xizmatining o'ziga xos xususiyati ta'sir o'tkazishning ikki obyekti-foydalanuvchi va bosma nashr mahsuloti, axborot bilan chambarchas bog'liqligi bilan belgilanadi. Uning faoliyati bir tomondan foydalanuvchilarni nashr mahsulotlari va axborot bilan ta'minlash, mutolaa madaniyatini shakllantirishdan iborat bo'lsa, ikkinchi tomondan nashr va axborot manbalarini o'rganish, tahlil qilish va ularni tavsiya qilishdan iboratdir.

Kutubxona-axborot xizmatining mazmuni shu sohada faoliyat ko'rsatayotgan shaxslarning ihtisosiga bog'liq bo'lib, bajaradigan lavozim vazifalariga ko'ra belgilanadi.

Kutubxona-axborot xizmati ko'rsatishi bilan bog'liq bo'lgan faoliyat murakkab majmuaviy xususiyatga ega bo'lganligi uchun kutubxonachi shaxsiga nisbatan muayyan kasbiy talablar qo'yiladi.

Bir tomondan, kutubxonachi mehnat faoliyatining mazmuni va shakllari, vazifalari, ikkinchi tomondan zaruriy bilimlar, ko'nikma va malaka, tayyorgarlik ko'rish mazmuni bilan belgilanuvchi hujjat-uning professiogrammasi hisoblanadi.

Kutubxona-axborot faoliyati texnologik va g'oyaviy, aqliy va jismoniy, ijodiy va xizmat ko'rsatishga oid yo'nalishlarni o'zida mujassam etadi. Ushbu faoliyatning texnologik qismi muayyan ajratilgan vaqt meyorlari bo'yicha bajariladi, lekin ijodiy va tarbiyaviy qismini vaqt meyorlariga sig'dirish amaliy jihatdan mumkin emas.

Foydalanuvchilarga kutuxona-axborot xizmati ko'rsatish jarayonida o'ziga yuklatilgan ma'suliyatli vazifasini bajarish uchun kutubxonachi oliy o'quv yurti

yoki kollej dasturi xajmiga muvofiq keluvchi bilimlarga, malaka va koʻnikmaga ega boʻlishi zarur.

Foydalanuvchilarga kutubxona-axborot xizmati koʻrsatish jarayonida kutubxonachi quyidagilarni bilishi shart:

-xar bir foydalanuvchining qiziqishi va ehtiyojidan kelib chiqib, alohida yondashuv asosida eng sara adabiyotlarni tavsiya qilish;

-bosma nashrlar haqida chuqur maʼlumotga ega boʻlish, manbalarni taqqoslash asosida taxlil qila bilish, turli ommaviy tadbirlarni oʻtkaza bilish malakasini egallash;

-kutubxona fondini va kataloglarini chuqur oʻrganganligi, bibliografik qidiruv asosida manbalarni tezkorlik bilan topish, koʻplab axborotlar oqimi va bosma nashrlar orasidan eng maqbulini aniqlay olish;

-turli koʻrgazmalar tashkil etish, tezkor axborot yetkazishning turli usullarni qoʻllay bilish, bibliografik sharhlar tashkil etish;

-oʻz bilimi, tajribasi, koʻnikma va malakasi orqali foydalanuvchilarga taʼsir oʻtkazish yoʻli bilan ularda mutolaa madaniyati va axboro t madaniyatini shakllantirish;

Bundan tashqari kutubxonachi:

-axborot yigʻish, tanlash va tahlil qilish, yetkazish, bibliografik maʼlumotlardan foydalanish usullaridan;

-foydalanuvchilarni oʻrganish, ular bilan ommaviy va yakka tartibda ishlash usullaridan;

-kutubxona-axborot xizmati, bibliografiya, mutolaa madaniyati, axborot madaniyati va x.k...lar boʻyicha ilmiy-tadqiqot olib borish metodologiyasidan toʻla xabardor boʻlish kerak.

Turli yoshga, jinsga mansub, maʼlumot darajasiga, dunyoqarashga ega boʻlgan foydalanuvchilar bilan ishlash uchun kutubxonachidan ziyolilik, suhbat, munozara olib borish maakasi, muomala va muloqot madaniyatiga ega boʻlishi ham talab qilinadi.

Foydalanuvchilar bilan ishlashning yuksak darajasi, ishchanlik muhiti, kutubxonachining ishbilarmonligi, tadbirkorligi, ishga ijodiy yondashuvi, faoliyatning yanada oqilona yo‘llarini topa bilishiga bog‘liqdir.

Kutubxonada tashkil topgan ijobiy ijtimoiy-psixologik muhit jamoadagi birlik va uyushganlikni mustahkamlaydi, umumiy maqsad sari faoliyat ko‘rsatishga ilxomlantiradi.

Foydalanuvchilar bilan ishlashni bugungi kun talablari darajasiga ko‘tarish uchun kutubxonachi quyidagi sifatlarga ega bo‘lishi talab qilinadi:

Tafakkur sifati: turli-tuman, ziddiyatli axborotlardan obyektivlikka yaqin hulosa chiqara bilish asosida tezkor xarakatchanlik , muammoning mohiyatini anglay bilash, hodisalar, voqealarni tanqidiy taxlil qilish, ma’lumotlar oqimidan kerakli axborotni ola bilishdan iborat.

Diqqatlilik sifati: faoliyatning bir turidan ikkinchi turiga tezlik bilan o‘ta olish qobiliyati.

Iroda sifati: har qanday zaruriy ishga o‘z-o‘zini majbur qila olish ko‘nikmasi.

Kommunikativ sifati: o‘z kasbdoshlari va foydalanuvchilarga fikrini erkin, tushunarli bayon qilishi,ishchanlik ruhida suhbat olib borishi, har bir foydalanuvchining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda yakka tartibda yondasha olish malakasi.

Demak, kutubxonachilik kasbining sifatlari bilimlar, ko‘nikma va malaka, faoliyat samaradorligi darajasini belgilaydigan holatlarning murakkab majmuidir.

Kutubxonachi professiogrammasi bajariladigan vazifalar, kutubxona-axborot xizmati foydalanuvchilari kategoriyasiga ko‘ra talablar, qiziqishlar va ehtiyojlarning qondirilishidan, kasbiy va shahsiy sifatlari majmuasidan tashkil topadi.

Ko‘pgina tadqiqotchilar yuqorida sanab o‘tilgan sifatlardan tashqari ma’suliyatlilik, ijodiylik, tashkilotchilik, zamonaviy kutubxona-axborot texnologiyalarini, pedagogika va psixologiyani bilish, moslashuvchanlik,

kompyuter savodxonligi, o‘z-o‘zini takomillashtirish qobiliyatining mavjud bo‘lishi zarurligini ta’kidlaydilar.

XXI asr boshlaridan ko‘pgina xorijiy mamlakatlarda kutubxonachilik ishida yangi mutaxassislik va ixtisosliklar, ya’ni, kutubxona-axborot sohasi menedjeri, bibliograf-analitik, kutubxonachi-texnolog, biblioterapevt, axborot bo‘yicha broker, ma’lumotlar bazasi bo‘yicha maslahatchi, imkoniyati cheklangan foydalanuvchilar bilan ishlash bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash yo‘lga qo‘yilgan.

Zamonaviy kutubxonachi bugungi kunda zaruriy bilimlardan tashqari pedogogik-psixologik, elektron texnologiyalar, axolining barcha tabaqalarini mutolaaga jalb etish metodlarini ham yuksak darajada o‘zlashtirgan bo‘lishi kerak.

Bundan tashqari, kutubxonachi muayyan xududda yashovchi aholining, ayniqsa, imkoniyati cheklangan shaxslarning (nogironlar, ishsizlar, ko‘zi ojizlar va h.k) xullas, har bir foydalanuvchining qiziqishi va ehtiyojini yaxshi bilishi zarur.

Kutubxonachi umumiy va yosh psixologiyasi, konfliktologiya bo‘yicha bilimlarga ega bo‘lishi va amaliyotda ko‘llay olishi, elektron axborot bilan ishlay olishi va uni foydalanuvchilarga tavsiya etish shakllari va metodlarini ham yaxshi o‘zlashtirgan bo‘lishi kerak.

Mutolaa va axborot madaniyatini chuqur egallagan holdagina kutubxonachi o‘z bilimini, ko‘nikma va malakasini foydalanuvchilarga yetkazish orqali jamiyatning mutolaa va axborot madaniyatini oshirishga o‘z hissasini qo‘shadi.

8.2. Kutubxonachining nutq madaniyati.

Kutubxonachi nutq madaniyati va notiqlik qobiliyatiga, san’atiga ega bo‘lishi shart. U o‘z kasbdoshlari va foydalanuvchilar bilan uzluksiz ravishda muloqotda bo‘lganligi sababli nutqi ixcham, ma’noli, oxangdor, muayyan ritm, intonasiya va diksiya, temp, yoqimli ovoz tembri chastotali bo‘lishligi muhim ahamiyatga ega. Nutqning jarangdorligi, so‘zlashganda pauza, mantiqiy urg‘uga rioya qilishlik uning ta’sirchanligini oshiradi.

Mutaxassislarning fikricha kutubxonachi nutq madaniyatini yuqori darajada egallash uchun quyidagilarga e’tibor berishi zarur:

Birinchidan, o‘z aqli bilan fikrlash.

Ikkinchidan, o‘zi xohlagan narsaga emas, foydalanuvchining xohishini tezda anglash asosida uning uchun dolzarb bo‘lgan muammoga asosiy e’tiborni qaratish.

Uchinchidan, foydalanuvchining nimalarga erishishini xohlashi bilan ko‘proq qiziqish.

To‘rtinchidan, o‘z fikrini mantiqan o‘ylab bayon etish.

Beshinchidan, o‘zidan avval kimdir gapirgan bo‘lsa, eng avvalo o‘sha ma’ruzachidan qolgan taassurotdan auditoriyani tez olib chiqishni o‘rganish.

Oltinchidan, bayon etiladigan fikrlarning e’tiborni tortadigan joylarini oldindan aniqlab olish, fikrlar foydalanuvchilar uchun tushunarli bo‘lishi va ular tomondan qo‘llab quvvatlanishiga erishish zarur.

Kutubxonachi nutqi uning tomonidan shakllantirilgan matnning tashqi ko‘rinishi bo‘lib, unga ham ruhiyat, ham nafosat singdirilgan bo‘lishi zarur. Nutqda aytilmoqchi bo‘lgan fikr foydalanuvchilar tomonidan to‘liq anglanishi, ularga muayyan ta’sir o‘tkazishi ahamiyatlidir.

Shunga ko‘ra, kutubxonachi nutqiga nisbatan ma’lum talablar qo‘yiladi. Bu talablar nutqning mantiqiy jihatdan aniq, ta’sirchan, maqsadga muvofiq bo‘lishidir. Ta’kidlash kerakki, nutq ma’lum shart-sharoitlarda amalga oshiriladi. Bunda joy, vaqt, mavzu va aloqa jarayonining maqsadi kabi omillar ham ahamiyatlidir. Shunday qilib, nutqning aloqaviy sifati deganda, quyidagi holatlarni nazarda tutish lozim bo‘ladi:

Nutqning to‘g‘riligi, eng avvalo kutubxonachining foydalanuvchi bilan o‘zaro bir birlarini tez va oson tushunishni ta’minlaydi.

Nutqning to‘g‘riligi nutq madaniyatining zarur va birinchi sharti sifatida adabiy tilning ma’lum paytda qabul qilingan meyorlariga qat’iy va aniq amal qilinishi, uning talaffuz, diksiya va grammatik meyorlarini egallash bilan bog‘liqdir.

Demak, nutqning to‘g‘ri bo‘lishi eng avvalo, uning adabiy til meyorlarga muvofiq kelishidir.

Kutubxonachi nutqining aniqligi uning shakllanishiga hizmat qiluvchi til va tafakkur birligiga bog‘liq bo‘lib, “nutq va voqelik”, “ nutq va tafakkur” munosabati asosida ham belgilanishi mumkin.

Aniqlik bu so‘zning o‘zi ifodalayotgan voqelikka mutlaqo mos va muvofiq kelishidir.

Aniqlik so‘zlashuv uslubida vaziyatga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, ilmiy uslubda atama va uning ifodalanishi asosiy o‘rinda tursa,badiiy nutq uslubida so‘z va iboralar faqat badiiy estetik vazifani bajarib qolmay, muallifning maqsadi va g‘oyasiga ham mos kelishi kerak.

Kutubxonachi nutqining mantiqiyligi uning asosiy sifatlari to‘g‘rilik va aniqlik bilan chambarchas bog‘liqdir. Chunki grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzilmagan nutq ham, fikrni ifodalash uchun muvaffaqiyatsiz tanlangan so‘z ham mantiqning buzilishiga olib kelishi tabiiydir.

Kutubxonachi nutqining ta’sirchanligi deganda og‘zaki nutq jarayoni nazarda tutiladi va uning foydalanuvchilar e’tiborini tortadigan va qiziqishini oshiradigan xususiyatlarga ega bo‘lishi hisobga olinadi.

Foydalanuvchilar tushunadigan tilda ularni ishontira olish san’atini egallash, mavzuni yaxshi o‘rganish, uni bayon etishning aniq rejasiga ega bo‘lish, samimiylik, hurmat bilan munosabatda bo‘lish ham ta’sirchanlikni oshiruvchi omillar hisoblanadi.

Shuning uchun ham har bir kutubxonachi muntazam ravishda o‘z ustida ishlashi, izlanishi, mashq qilishi talab qilinadi.

Kutubxona axborot xizmati foydalanuvchilar o‘rtasida ma’ruzalar qilish, suhbatlar uyushtirish, har xil chiqishlar qilish orqali amalga oshiriladi. Ularning foydalanuvchilarga qay darajada ta’sir qilishi, diqqatni qo‘yilgan masalaning mohiyatiga yo‘naltira olishi, ishontirishi kutubxonachidan katta mahorat talab etadi. Chunki har bir nutq , chiqish, suhbat ishontira oladigan, tushunarli, yorqin, ta’sirchan, mantiqli va aniq bo‘lgandagina foydalanuvchilarga o‘zgacha ta’sir ko‘rsatadi.

Taniqli notiqlar o‘z nutqlarining ta’sirchanligini oshirishda quyidagi holatlarga alohida e’tiborni qaratganlar:

1. O‘zi to‘xtalib o‘tayotgan masala yoki mavzuni chuqur o‘rganish va o‘zlashtirish.

2. O‘z dunyoqarashiga ega bo‘lishi, so‘z va ish birligi, fikrlarni ilmiy asoslab berish.

3. Ma’ruzalar, suhbatlar paytida tinglovchilar bilan yaqin va samimiy muloqot o‘rnata bilish.

4. Har bir mavzuning mazmunini to‘liq ochib berishga mas’uliyat bilan yondashish.

Bugungi kunda har bir kutubxonada auditoriyaning diqqat e’tiborini qaratish, foydalanuvchilarni qiziqtirish,ular ongiga ta’sir ko‘rsatishning xilma xil vosita va usullari mavjud: yuz va qo‘l harakatlari, turli ekran va sahna vositalari, ko‘rgazmali qurollar, suratlar, texnik vositalar, qolaversa eng an’anaviy usul bo‘lgan oddiy doska ham yordam berishi mumkin. Lekin, nutqning ta’sirchanligi, foydalanuvchilar ruxiyatiga ta’siri birinchi navbatda kutubxonachining til boyligidan foydalanish mahoratiga, nutqning ko‘rkamligiga bog‘liq. Chunki, nutq tovushlardan, so‘zlardan,gaplardan tashkil topadi.

Xullas, kutubxonachi o‘z nutqi uchun zarur bo‘lgan eng muhim belgilarga doimo e’tibor berishi kerak. Og‘zaki va yozma, publisistik yoki badiiy, ijtimoiy-siyosiy yoki boshqa nutqlarning eng muhim belgilari grammatik jihatdan to‘g‘rilik, mantiqiy asoslanganlik kabilardir. Bular nutqning tushunarliligi va asosliligini ta’minlab turadi. Tilning badiiy tasvir vositalari ham nutq uchun eng muhim belgilar bo‘lib, ta’sirchanlikni ta’minlaydi.

Grammatik jihatdan to‘g‘rilik, mantiqiy asoslanganlik kutubxonachi nutqining ishonchliligini oshirish orqali foydalanuvchilarga ta’sir etish darajasini o‘z-o‘zidan oshiradi.

Nutq madaniyati ko‘nikmalari tarbiya, madaniyatning umumiy darajasi, insonning muayyan shaxsiy sifatlari bilan bog‘liq bo‘ladi.

Shunga qaramasdan ushbu jarayon nutq madaniyatining asosiy qoidalarini bilgan holda to‘plangan kasb tajribasi jarayonida hosil bo‘ladi. Bu qoidalarni chuqur bilish kutubxonachiga o‘z nutqini ancha qulayroq shaklda foydalanuvchilarning samarali qabul qilishi nuqtai nazaridan ham, shuningdek, ularning kutubxonachi kasbiy sifatlariga ijobiy baho berishi nuqtai nazaridan ham taqdim etishga imkon beradi.

Nutq madaniyatining asosiy qoidalari universal xususiyatga ega bo‘lib, quyidagilardan iboratdir:

1)nutq madaniyati ko‘nikmalarini hosil etish;

2)nutq so‘zlashga bevosita tayyorgarlik ko‘rish;

3) nutq so‘zlash vaqtida o‘zini tutish.

Nutq madaniyati ko‘nikmalarini hosil qilish foydalanuvchilar bilan uchrashishga umumiy hozirlik ko‘rish jarayonida quyidagi usullarni qo‘llashni nazarda tutadi:

- ✓ tasavvur qilingan foydalanuvchilar oldida muayyan mavzu bilan so‘zga chiqish.
- ✓ kasb faoliyatida ishlatiladigan muayyan atamalar va tushunchalar ta’rifiga aniqlik kiritish.
- ✓ o‘z chiqishlarida audio yoki videoyozuvlaridan ko‘rgazmali qurollar va kompyuter texnikasidan foydalanish.

Nutq so‘zlashga bevosita tayyorgarlik ko‘rish nutq madaniyati ko‘nikmalarini hosil qilishning muhim bosqichi hisoblanadi.

Ko‘pincha kutubxonada vaqt yetishmasligi yoki o‘z kuchiga ortiqcha ishonishi tufayli bunga unchalik e’tibor berilmaydi. Shuni esda tutish kerakki, ko‘pincha kutubxonachining bilimi, tajribasi, malakasi, dunyoqarashi, madaniyati va boshqa shaxsiy sifatlari xaqida uning so‘zlariga qarab xulosa chiqariladi. Bu o‘z navbatida, o‘z-o‘zini namoyon qilish vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Umumiy holatlarda nutqning mavzusi, davomiyligi va foydalanuvchilarning hozirligiga qarab unga tuzatishlar kiritilishi va muayyan mazmun bilan to‘ldirilishi mumkin:

- kirish, nutqning o‘zak ma’nosi.
- qarab chiqilayotgan muammoning qisqacha tarixi.
- muammoning rivojlanish tendensiyalari.
- muammoni hal qilish yuzasidan to‘plangan tajriba.
- muammoni hal qilish yuzasidan takliflar.
- xulosa.

Kutubxonachi so‘zga chiqish uchun tayyorgarlik ko‘rish vaqtida og‘zaki nutqning yozma matndan farq qilishini esdan chiqarmasligi kerak.

Bu hol notiq tayyor matndan foydalanadigan bo‘lsa, u holda foydalanuvchilar bilan o‘zaro munosabatlarda qo‘shimcha muammolar keltirib chiqaradi. Ayni vaqtda og‘zaki nutq yozma matndan farqli o‘laroq,bir qator ustunliklarga ega bo‘ladi. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- nutqning ohangdorligini o‘zgartirish.
- asosiy fikrlarni ajratib ko‘rsatish, tinglovchilarning diqqat-e’tiborini nutqning ayrim joylariga qaratish.
- nutqning ifodaliligini oshirish uchun uslubiy shakllaridan (ritorik savollar, o‘zaro mulokot shakllari va shu kabilar) foydalanish.

Foydalanuvchilar auditoriyasida nutq so‘zlashda kutubxonachining xulq-atvori (o‘zini tutishi) axborotni yaxlit idrok etishga xalaqit bermasligi kerak. Ma’ruzachining ohangi tabiiy bo‘lishi, nutq qoidalariga va foydalanuvchilar tarkibiga mos kelishi zarur.

8.3.Kutubxonachi imidji.

“Imidj” tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda “obraz” ma’nosini anglatadi. Imidj yordamida jamiyatda u yoki bu kasb egasini qanday bo‘lishi kerakligi aniqlashtiriladi. Kutubxonachi imidji u kutubxona faoliyati bilan bog‘liq vazifalarni amalga oshirganligi nuqtai nazaridan kutubxona imidji doirasida aniqlanadi.

Kutubxonachi imidjining asosiy vazifasi uning xatti-harakati, nutqi, qiyofasi, ma’naviy olami va kasbiy yetukligi, muloqot orqali foydalanuvchilar ongida samimiy va mehribon maslahatchi obrazini yaratishdir.

Umuman olganda kutubxonachi imidji uning ichki va tashqi xususiyatlarining kutubxona-axborot xizmati jarayonida namoyon bo‘lishidir. Imidj quyidagi vositalar orqali shakllanadi:

1. Pozisiyalash-o‘zini boshqalar bilan taqqoslash, solishtirish orqali takomillashtirishga intilish.

2. Manipulyasiya-qo‘l bilan mohirona bajarilgan texnik harakatlar bo‘lib, o‘zga shaxsning idrok etish jarayoni va harakatlarini boshqarish, obyektga (yakka shaxs, gurux)ga davrning mazkur muddatida zarur deb hisoblangan axborotni singdirish, unga urg‘u berishdan iboratdir.

3. Verballashtirish-yaxlit imidjni yaratishning vositalardan biri sifatida kechinmalar, his-tuyg‘ular, fikr-mulohazalarni chiroyli ifodalashdir.

4. Detallashtirish-biron bir aksessuar, kiyim, soch yoki insonning butun ust-boshining xotirada yaxshi saqlanib qoluvchi, vaziyatning tafsilotlarini, inson qiyofasining asosiy jihatlarini hotirada tiklashga yordam beruvchi omildir.

Mutaxassislarning fikriga ko‘ra inson imidjining 80 foizi tashqi ko‘rinishi, imo-ishoralari, hatti-xarakatlaridan, 20 foizi esa so‘zlashuvidan iboratdir.

Lekin, shu narsani unutmaslik kerakki, so‘z qolgan 80 foizi ni ham qamrab olish imkoniyatiga egadir.

Demak, muloqotni tashkil eta bilish qobiliyati kutubxonachi imidjida alohida o‘rin tutadi.

IX. BOB. Kutubxona-axborot hizmati jarayonida muloqot madaniyati

9.1. Muloqot madaniyati tushunchasi va uning tarkibiy qismlari.

Foydalanuvchilarda muloqot madaniyati shakllantirish uchun kutubxonachi ijtimoiy pedagogika va psixologiya bo‘yicha metodik malakaga ega bo‘lishidan tashqari kasbiy, kommunikativ layoqatga ham ega bo‘lishi lozim.

Chunki kutubxonachilik kasbining asosiy maqsadi foydalanuvchilarning ma’naviy, mutolaaga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish, ularning salohiyati va qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Muloqot-boshqa kishi bilan axborot almashish jarayoni bo‘lib, so‘zlash, tinglash, dialog, tushunish, tushuntirish ushbu jarayonning tarkibiy qismlaridir.

“Dialog” tushunchasi yunonchadan tarjima qilinganda ikki yoki bir necha shaxs o‘rtasidagi suhbat, ular o‘rtasidagi yozma tarzda qayd etilishi mumkin bo‘lgan og‘zaki muloqot shakli degan ma’noni anglatadi.

Dialogda, unda qatnashuvchilarning ikki tabiiy intilishlari: fikrini yetkazishga va o‘zini tinglashiga erishish, shuningdek tushunish va tushunilishiga oid intilishlari ro‘yobga chiqadi.

Subyektlarning bir-birini bilishi va o‘zaro til topishishi aynan dialog orqali amalga oshadi. Tushunish jarayoni esa doimo dialog ko‘rinishida “Subyektlar uchrashuvi” tarzida namoyon bo‘ladi.

Shu jihatdan tushunish fikrlarni, ya’ni inson uchun ma’lum ma’noga ega bo‘lgan narsalarni aniqlash, mazkur ma’nolarga amalda egalik qilish sifatida har qanday bilish faoliyatining ajralmas qismini tashkil etadi.

Kutubxonachi boshqa kutubxonachiga yoki foydalanuvchiga yetkazilgan axborotni to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri tushunilgani haqida fikr yuritar ekan, “ma’no” tushunchasidan foydalanadi.

Tushunish inson faoliyatining ma’nolarini tushunish va ma’no hosil qilish tarzida kelishi mumkin. Tushunish boshqa shaxsning “ma’nolar olamiga” kirib borish, uning fikrlarini va kechinmalarini tushunib yetish va ularni talqin qilish bilan bog‘liq.

Tushunchaning ishtirokisiz muloqotni davom ettirish, harakatlarni muvofiqlashtirish, anglangan harakatni amalga oshirish va ta’sir o‘tkazishning imkoniyati mavjud emas.

Tushunish bilan bir qatorda muloqot jarayonining muxim tarkibiy qismi-tushuntirish ham mavjud. Tushuntirishning bosh maqsadi o‘rganilayotgan predmetning mohiyatini, rivojlanish sabablari, shartlari va manbalarini, harakat mexanizmlarini aniqlashdan iborat. Tushuntirish tasvirlash bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, muayyan dalil yoki hodisani umumlashtirishdir.

Demak, muloqot davomidagi eng muhim muammolardan biri o‘z fikrlarini boshqalarga tushunarli tilda ifoda etishdan iborat.

Ko‘pgina foydalanuvchilar o‘zini boshqalar eshitishigina emas, nima demoqchi ekanligini tushunishini istaydi. Shunga ko‘ra tinglash malakasi boshqa shaxs uzatayotgan xabarni qabul qilishgina emas, ya’ni u nazarda tutgan mazmunni tushunish, “sizni eshityapman” emas, “sizning fikringizni tushundim”ga erishishdir. Tinglash malakasi o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi va ko‘pchilik foydalanuvchilar uni qiyinchilik bilan egallaydilar.

Aksariyat foydalanuvchilar o‘zi gapirishni, o‘z g‘oyalarini ifoda etishni yoqtiradi. Ular boshqalarni eshitishga toqat qilavermaydilar, ko‘proq ularni boshqalar tinglashlari va tushunishlarini xohlaydilar.

Munozara, muloqot davomida bunday foydalanuvchilar boshqalarni diqqat bilan eshitishga emas, o‘z fikr mulohazalarni tezroq bayon etishga intiladilar.

Muloqot madaniyatini shakllantirishda kutubxonachi foydalanuvchilarning muayyan guruhlari uchun xos bo‘lgan quyidagi xususiyatlarni hisobga olishi kerak:

1. Ayrim foydalanuvchilar o‘z his tuyg‘ularini oshkor etishga o‘rganmaganliklari uchun, fikrlarini ham nutqda ifodalashga qiynaladilar va shuning uchun boshqalardan o‘zlarni chetga olishga harakat qiladilar.

2. Ikkinchi xil foydalanuvchilar his tuyg‘ulari va fikrlarni ochiq bildirishdan tortinadilar. Ular boshqa foydalanuvchilar ularning fikriga qo‘shilmasa yoki ularning his tuyg‘ularini tushunmasa, o‘zlarini noqulay sezmasliklari uchun tavakkal qilishni istamaydilar.

3. Uchinchi xil foydalanuvchilar o‘zlari o‘qib chiqqan kitoblari xaqidagi fikrlari e’tiborga loyiq emas deb hisoblaydilar. Shunga ko‘ra ular o‘zlarini past baholaydilar va fikr mulohazalarini hech kimga bildirmay, ichlarida saqlaydilar.

Kutubxonachining maxorati foydalanuvchilarning ba’zi toifalari uchun boshqalarni diqqat bilan eshita bilish, o‘z fikrini muayyan ajratilgan vaqt davomida qisqa ifodalash ko‘nikmasini, ba’zi toifalar uchun esa o‘z fikrini bosqichma bosqich, oddiydan murakkabga tomon bayon etish malakasini shakllantirishda namoyon bo‘ladi.

Buning uchun kutubxonachi quyidagi holatlarga e’tibor berishi kerak:

1.Foydalanuvchilarni tushunish, ularni farqlay olish va ularning ruhiyatini baholash

2.Ularning xulqi va holatiga emosional (hissiy) muvofiq ravishda javob berish.

3.Har bir foydalanuvchi bilan muloqot qilganda umumiy odob-axloq meyorlaridan chiqib ketmagan holda, uning shaxsiy xususiyatlariga mos muloqot tarzini tanlash.

Muloqot-hamkorlik faoliyatining ehtiyojidan kelib chiquvchi, shaxslararo munosabat o‘rnatishning ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1.O‘zaro hamkorlik faoliyatining qatnashchilari o‘rtasidagi axborot almashinuvi jarayoni kommunikativ xususiyatga ega bo‘lib, muloqotning muhim vositalardan biri hisoblanishi tilga va uning amaliy ifodasi bo‘lmish nutq faoliyatiga murojaat qiladilar.

2.Muloqotga kirishuvchilarning o‘zaro ta’siri, ularning nutq faoliyatida nafaqat so‘z orqali fikrlashuv, balki hatti-xarakat va xulq atvori bilan ta’sir o‘tkazish va ta’sirlanishidan iboratdir.

3.Muloqotga kirishuvchilarda o‘zaro bir-birini idrok qilish jarayoni namoyon bo‘ladi, ularning bir-biri haqidagi xulosalari shakllanadi.

Shundan kelib chiqqan holda, kutubxonachining faoliyati uchun eng muhim narsa-foydalanuvchilar bilan muloqotda bo‘lish qonuniyatlari, uning rivojlanishi

to‘g‘risidagi psixologik,pedagogik bilimlar, ko‘nikmalar va qobiliyatlarni egallashdir.

Foydalanuvchi bilan muloqot-bu kutubxonachining foydalanuvchiga tasir o‘tkazishning muayyan tizimi bo‘lib:

- Muloqot ishtirokchilarining o‘zaro axborot almashinuvi
- Turlicha kommunikativ vositalar yordamida kutubxonachi tomonidan foydalanuvchiga tasir o‘tkazish va o‘zaro munosabatlarni tashkil qilish;
- Muayyan maqsadni dasturiy asosda amalga oshirish vazifalarini bajarishdan iboratdir.

Muloqot madaniyatining yuqori darajada shakllantirilishi foydalanuvchilarning o‘zaro muloqotlari, hamda kutubxonachi va foydalanuvchi o‘rtasidagi muloqotning takomillashishi, natijada foydalanuvchilarni yanada chuqurroq o‘rganish orqali ularda muayyan ko‘nikmalarni hosil qilish, qobiliyatlarini yuzaga chiqarishga imkon beradi.

Kutubxonachi va foydalanuvchi o‘rtasidagi muloqot kerakli adabiyotlarni o‘qish, o‘qib chiqilgan adabiyotni muhokama qilish, boshqalarga tavsiya etish, axborot berish kabi jarayonlardan iborat bo‘lsada, uning mazmunini to‘la tushunish uchun insoniy muloqot umumiy qonuniyatlari bilan birgalikda qarab chiqilishi zarur.

Ijtimoiy psixologiya fanida muloqot bir tomondan u yoki bu faoliyatning xossasi sifatida, ikkinchi tomondan voqeilik sifatida ko‘rib chiqiladi.

Faoliyatning tarkibi subyekt va obyektni qamrab olganligi uchun muloqotni subyekt-obyekt munosabatlarining faoliyati sifatida ko‘rib chiqish mumkin.

Muloqotni o‘zaro ta’sir o‘tkazish sifatida taxlil qilgan holda uning tarkibiga kiruvchi o‘zaro aloqador kismlarni muloqot qatnashchilarining bir-birlariga o‘zaro munosabatlariga ko‘ra o‘rganish mumkin.

9.2. Kutubxonachi va foydalanuvchi o‘rtasidagi muloqot jarayonlari.

Kutubxonachi va foydalanuvchi muloqoti kutubxona muloqoti tarzida ham qo‘llaniladi hamda so‘ngi yillarda kutubxonachilik ishi nazariyotchilari va amaliyotchilarning alohida e’tiborini tortmoqda. Bu kutubxona-axborot xizmatining insonparvarlik yo‘nalishlariga alohida ahamiyat berilayotganligi, shaxs qadr-qimmatining oshib borishi, jamiyatdagi ijtimoiy-axloqiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq holda yuz bermoqda. Umuman olganda muloqot falsafiy kategoriya sifatida juda ko‘p fanlarning o‘rganish predmetini tashkil etadi. Muloqot inson mavjudligining asosiy shakli bo‘lib, uningsiz kishilarning o‘zaro munosabatlari ham,birgalikdagi mehnat jarayonlarining ham amalga oshishi mumkin emas. Jamiyatda yashash va rivojlanish faqat muloqot yo‘li orqali amalga oshiriladi. Ushbu jarayonda insonlar boshqa insonlar haqidagi olam haqidagi tasavvurlarini shakllantiradilar, o‘zaro bir-birlarini tushunadilar.

Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra muloqot insonning o‘z-o‘ziga, vijdoniga, xotiralariga murojaatini ham inkor qilmaydi. Shaxs muloqot jarayonida o‘zini chuqur anglashidan tashqari, boshqa kishilar qadrini ham anglab yetadi.

Kutubxona-axborot hizmati jarayonida, nashr mahsulotlari va elektron manbalar vositasida kutubxonada amalga oshadigan muloqot o‘ziga xos xususiyatga egadir.

Kutubxona muloqoti murakkab hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Kutubxona muloqotini tadqiqotchilar uchta yo‘nalishga ajratib ko‘rsatadilar:

- Kutubxonachilararo muloqot;
- Kutubxonachi va foydalanuvchi o‘rtasidagi muloqot;
- Foydalanuvchilararo muloqot.

Kutubxonachi va foydalanuvchi o‘rtasidagi muloqot muammoning asosini tashkil etadi. Asosiy metodologik masala kutubxona muloqoti jarayoni qatnashchilarining o‘zaro munosabatlari hisoblanadi ularning o‘zaro munosabatlarining mohiyatini anglab yetish muhim amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, kutubxona-axborot xizmati jarayonini to‘la tushunish ham unga bog‘liqdir.

Uzoq yillar davomida kutubxonachi va foydalanuvchi munosabati “subyekt-obyekt” munosabati sifatida qaralib kelindi. Bunda kutubxonachi subyekt funksiyasini bajaruvchi, foydalanuvchiga ta’sir ko‘rsatish esa “obyekt” tarzida qaralgan. Lekin so‘ngi yillardagi tadqiqotlar ushbu o‘zaro munosabatlar tabiatining murakkab ekanligini ko‘rsatmoqda.

Masalaning mohiyatiga chuqurroq yondashilganda foydalanuvchiga muloqot obyekti sifatida qarash kutubxonachi nuqtai nazaridan qaraganda to‘g‘ri hisoblanadi. Lekin foydalanuvchi o‘zi tomondan so‘rovlar bilan murojaat qilishida kutubxonachiga obyekt sifatida yondashadi. Boshqa tomondan qaraganda kutubxonada ko‘p hollarda kutubxonachi va foydalanuvchi birgalikda faoliyat ko‘rsatishi ham mumkin. Masalan, ularning birgalikda axborot izlashi bunga misoldir.

Kuzatishlar ko‘rsatadiki, kutubxonachi va foydalanuvchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarda “obyekt -subyekt” munosabatlari ham amal qiladi.

Muloqot jarayonining murakkab yo‘nalishida bir-biriga kirishuvchi psixologik va axloqiy jihatlar mavjud bo‘lib, kutubxona muloqoti uchun ularning har ikkalasi ham hosdir.

Bugungi kunda kutubxona muloqotning psixologik yo‘nalishi ma’lum darajada ishlab chiqilgan bo‘lib, tadqiqotchilar quyidagilarni asosiy muammolar deb hisoblaydilar:

- Kutubxona muloqotning xususiyati xaqidagi masala;
- Kutubxona muloqotida hissiyotning roli masalasi;
- Kutubxona muloqoti jarayonida kutubxonachining pedagogik-psixologik maqomining roli, konfliktlar va muloqot to‘siqlarini bartaraf qilish imkoniyatlari;
- Kutubxona muloqoti jarayonida kutubxonachi va foydalanuvchining shaxsiy sifatlarining roli, ularni har ikki tomonning qabul qilishi va boshqalar.

Kutubxona muloqotida uning har bir qatnashchisi alohida rol o‘ynaydi. Jumladan, kutubxonachi jamiyat talablari asosida o‘zining kasbiy ma’suliyatini his

qilgan holda burchini bajarsa, foydalanuvchi ham jamiyat uchun muayyan ahamiyatga ega bo‘lgan o‘zining shaxsiy, axborot va mutolaa ehtiyojini qondiradi.

Kutubxona sharoitida kutubxonachi va foydalanuvchi muloqoti quyidagi turli darajalarda amalga oshiriladi:

- Kutubxonachining yakka foydalanuvchi bilan muloqoti;
- Kutubxonachining muayyan gurux bilan muloqoti;
- Kutubxonachining muayyan tartibda foydalanuvchilar auditoriyasi bilan muloqoti.

Kutubxonachining alohida foydalanuvchi bilan muloqoti rasmiylashtirish, so‘rovni qabul qilish va uzatish, ma’lumotni berish va qabul qilish, maslahat singari bevosita bog‘lanish orqali xizmat ko‘rsatishning asosiy nuqtalari orqali amalga oshiriladi.

Kutubxonachining muayyan gurux yoki auditoriya bilan muloqoti boshqacha tarzda amalga oshadi. Kutubxonachi auditoriyaga ta’sir o‘tkazgani singari , o‘z navbatida auditoriya ham alohida shaxslardan tashkil topsada tadbir jarayonida bir butun organizm sifatida kutubxonachiga ta’sir o‘tkazib, uning o‘z hatti-harakati yo‘nalishini o‘zgartirishga ta’sir o‘tkazishi ham mumkin. Kutubxonachi va foydalanuvchining o‘zaro munosabati auditoriyadagi va guruh ichidagi shaxslararo munosabatlarning murakkabligiga ko‘ra ham muayyan darajada qiyinchilikni vujudga keltirishi mumkin.

Kutubxonachining foydalanuvchilar guruhi yoki auditoriyasi bilan muloqotida vaziyatni yengillashtiruvchi ijtimoiy-psixologik mexanizmlarni ishga solish talab etiladi. Shunday qilib, kutubxonachining yakka foydalanuvchi va guruh yoki auditoriya bilan muloqoti jiddiy farqlanadi.

Muloqot xarakteri uning davomiyligi o‘tkinchi va doimiy bo‘lishi mumkin. Doimiy muloqot yakka foydalanuvchi bilan ham, muayyan foydalanuvchilar guruhi yoki auditoriya bilan kutubxona-axborot xizmati yuzasidan amalga oshirilishi mumkin.

Har qanday muloqot, jumladan,kutubxona muloqoti ham aniq shart-sharoitlar, makon va zamon chegarasidan tashqarida yuz bermaydi. Ba’zi

holatlarda mavjud shart-sharoitlar muloqot o‘tkazishga ruhlantirib, rag‘batlantirsa, ba’zida uni murakkablashtirishi mumkin.

Umuman, muloqot shart-sharoiti qulay, noqulay va neytral bo‘lishi mumkin. Qulay shart-sharoit kutubxonachining yuksak kasb mahorati, foydalanuvchining haqiqiy qiziqishi, samimiyligi va boshqa holatlardan kelib chiqadi.

Noqulay shart-sharoit mashg‘ulot o‘tkazish uchun joyning yo‘qligi, xodimlarning e’tiborsizligi kabilardan kelib chiqadi. Kutubxona-axborot xizmati boshqa muloqot shakllari singari muayyan vositalar orqali amalga oshiriladi.

Muloqot vositalari til, imo-ishora,predmetlar, kodlar va belgilardir. Ularning hammasi kutubxona muloqotida keng qo‘llaniladi. Muloqotning eng asosiy vositasi til bo‘lib, insonning 100 foiz vaqti nutq bilan bog‘langandir. Shundan 45 foizda u eshitadi, 30 foizida eshittirib gapiradi, 15 foizida o‘qiydi, 10 foizida yozadi. Shunday qilib, kutubxonachi va foydalanuvchi o‘rtasidagi muloqot so‘z orqali amalga oshsada, tabassum, yuz ifodasi singarilar ham alohida ahamiyatga egadir.

Kutubxona muloqotida foydalaniladigan kitoblar, ko‘rgazmalar, bibliografik nashrlar, axborot ro‘yhatlari predmetli muloqot vositalari hisoblanadi. Xar hil chizmalar va jadvallar, shartli belgilar, kutubxona muloqotining kodli va simvolik(belgili) vositalari hisoblanadi.

Kutubxona muloqotida emosiya (hissiyot) alohida rol o‘ynaydi. Hissiyot boshqa individning hissiy holatiga bog‘liq signallarga javob bera olish, boshqa shaxsning ichki dunyosini tushunib yetish iqtidori ham hisoblanadi.

Lekin, tadqiqotlarning ko‘rsatishiga faqat 60 foiz kutubxonachilar o‘z hissiyotlarini boshqara oladilar, 40 foiz esa o‘z hissiyotlarini boshqara olmaydilar. Kutubxonachining o‘z hissiyotini boshqara olmasligi odatda uning o‘ziga qarshi qaratilgan vaziyatni yaratishi mumkin. Shuning uchun ham kutubxonachi foydalanuvchi bilan muloqotda ijobiy hissiy ta’sir ko‘rsatish orqali samimiy va ochiq muloqot muhitini yaratishi kerak.

Kutubxona muloqotida quyidagi hissiy holatlarni yaratish maqsadga muvofiqdir:

- altruistik, ihtiyoriy yordam koʻrsatish;
- kommunikativ- axborot yetkazish ehtiyoji;
- gnostik-bilish ehtiyojini shakllantirish;
- gedonistik-qulaylik ehtiyojini paydo qilish.

Kutubxona muloqotida hissiyotlardan tashqari oʻzaro taʼsir koʻrsatish unsurlari ham alohida rol oʻynaydi:

- kutubxonachining va foydalanuvchining bir-birini samimiy qabul qilishi;
- ularning bir-birlariga munosabati;
- ularning bir-birlariga murojaat qilishlarining shakllari.

Kutubxonachilar va foydalanuvchilarning bir-birlarini tushungan holda samimiy qabul qilishilari muloqot jarayonining koʻp tomonlama muvaffaqiyatini taʼminlaydi va uning natijalariga bevosita taʼsir koʻrsatadi.

9.3. Muloqot toʻsiqlari va ularni bartaraf etish

Muloqot jarayonida uning ishtirokchilarning bir-birlari tomonidan qabul qilinishida ularning tashqi qiyofasi, shaxsiy va kasbiy sifatlari ham muhim ahamiyatga egadir.

Koʻp yillik kuzatishlar asosida kutubxonachilar va foydalanuvchilarga xos boʻlgan baʼzi sifatlar munosabatlarni oʻrganishga yordam berishidan tashqari ularni qiyinlashtiradi deb hulosa chiqarish mumkin.

Foydalanuvchi nuqtai-nazaridan kutubxonachi bilan muloqotni uning tashqi koʻrinishi (kiyim-kechak, didsizlik, para-partishlik) kosmetikadan meyoridan ortiq foydalanish, ovoz, qarash, mimika singarilar qiyinlashtiradi. Foydalanuvchi bilan muloqotni kutubxonachining muloqot oʻrnata olmasligi, fondni bilmasligi kabi kasbiy sifatlari ham qiyinlashtirishi mumkin. Kutubxonachining yoqimli qiyofasi, kiyim-kechagi, yuz ifodasi, muloqot oʻrnatish malakasi ham vaziyatni yengillashtirishga yordam beradi.

Kuzatishlar koʻrsatadiki barcha yoshdagi, turli ijtimoiy-demografik guruhlarga mansub boʻlgan foydalanuvchilarning deyarli hammasi

kutubxonachining e’tiborsizligiga o‘ta salbiy munosabatda bo‘ladilar. Bu holat muayyan to‘siqlarga, undan esa konfliktlarga olib kelishi mumkin.

Yakka tartibda kutubxona-axborot xizmati ko‘rsatish jarayonida kutubxonachi va foydalanuvchining doimo o‘zaro aloqada bo‘lishi konfliktlar kelib chiqishi ehtimolini kuchaytiradi.

Konfliktlar kelib chiqishining sabablari turli-tuman bo‘lib, ba’zan obyektiv, ba’zan esa subyektiv xususiyatga ega bo‘ladi.

Ko‘p holatlarda konfliktlar xizmat ko‘rsatishida kutubxona ish tartibining foydalanuvchi uchun noqulayligi, kutubxonaga a’zo qilishdagi rad javobi, uyga kitob bermaslik, nusha olish bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar tufayli kelib chiqadigan norozilik sababli yuzaga kelishi mumkin.

Konfliktlar aksariyat hollarda foydalanuvchi so‘ragan manbaning fondda yo‘qligi, manbani topolmaslik, yo‘qolganligi sababli rad etilishi, kutubxonachi tomonidan uning o‘rnini bosuvchi manba deb hisoblangan bosma yoki elektron mahsulotni zo‘r berib tavsiya etishi natijasida ham kelib chiqadi. Konfliktlarga, shuningdek, xizmat ko‘rsatish sifati: foydalanuvchining buyurtma berilgan manbani uzoq kutishi, uning o‘rniga boshqa manbaning keltirishi ham sabab bo‘ladi.

Shunday qilib, bunday konfliktlarning kelib chiqishining obyektiv asosi-kutubxona-axborot xizmatining sifatiga bog‘liq tarzda kelib chiqadi.

Kutubxonachi muloqot madaniyati meyorlarini buzgan, foydalanuvchi muayyan kutubxonachini aybdor deb hisoblangan holatlarda ham shaxslararo konflikt kelib chiqishi mumkin.

Ko‘pgina tadqiqotchilarning umumiy fikriga ko‘ra jamiyat hayotida kutubxonalarning kommunikativ markaz sifatidan roli yanada oshib boradi. Shuning uchun kutubxona etiketining roli oshib borishi ham tabiiydir.

Axborotdan, axborot resurslardan to‘la va erkin foydalanishni tashkil etish, kutubxonachi shaxsi, foydalanuvchilarga yordam ko‘rsatishga yo‘naltirilgan faoliyati, ular o‘zaro munosabatining etikasi va etiketi kutubxona muloqoti muhitini tashkil etadi. Foydali axborot bilan to‘ldirilgan va foydalanuvchiga qulay

kutubxona muloqot muhiti-kutubxona-axborot xizmati samaradorligini oshirish shartidir.

9.4. Kutubxona muloqoti kvalitologiyasi va kvalimetriyasi

So‘ngi yillarda barcha mamlakatlarda kutubxona-axborot hizmati ko‘rsatish masalalariga e’tibor qaratish faollashib bormoqda.

Kutubxona muloqotida kvalitologiya sifat haqidagi fan , kvalimetriya sifat o‘lchamini o‘rganuvchi ilmiy yo‘nalish sifatida qaraladi.

Kutubxona muloqotining sifati kutubxona-axborot xizmati jarayonida turli qatnashchilarning qoniqish darajasi bilan o‘lchanadi. Boshqacha aytganda, subyektlarning muloqot maqsadiga muvofiq erishgan aqliy, hissiy, axloqiy taraqqiyoti, muayyan bilim va malaka darajasidir.

Kutubxonachining jamiyatga, o‘z-o‘ziga munosabatlari tizimi uning kasbiy etikasi meyorlarini tartibga soladi.

Foydalanuvchilar, jamoa, ijtimoiy hamkorlar, shuningdek, o‘zlarining faol faoliyatlari vositasida kutubxonachilarning o‘z kasbiy tayyorgarliklari, shaxsiy sifatlari namoyon bo‘ladi.

Umuman, insonning inson bilan muloqoti sifati, xususan, kutubxona muloqoti sifati foydalanuvchilarning o‘zlariga nisbatan ijobiy munosabatni kutishlari va muloqotning aniq sifati o‘rtasidagi farqqa ko‘ra belgilanadi.

X. BOB. Kutubxona – axborot xizmatining eng asosiy ijtimoiy yo‘nalishlari.

10.1. Kutubxona–axborot xizmati orqali uzluksiz ta’lim tizimiga yordam ko‘rsatish.

Uzluksiz ta’lim tushunchasi – fan-texnika taraqqiyoti, ilg‘or ishlab chiqarish texnologiyalarini amaliyotga keng ko‘lamda qo‘llash hozirgi zamon va istiqbolga mustaqil ravishda ijodiy faoliyat ko‘rsatish uchun shaxsga uning butun umri davomida yetarli bo‘lgan bilim, xatti-harakat usullari va shaxsiy fazilatlarni belgilangan vaqt davomida berish mumkin bo‘lmay, balki u butun hayoti davomida takomillashtirilib borilishini nazarda tutadi.

Uzluksiz ta’lim – malakali raqobatdosh kadrlar tayyorlash tizimining asosi bo‘lib, ta’limning barcha turlarini, davlat ta’lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko‘rsatish muhitini o‘z ichiga oladi.

Uzluksiz ta’lim O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlovchi, shaxs, jamiyat, davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor sohadir.

Uzluksiz ta’lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma’naviy boy shaxsning shakllanishi va yuqori malakali raqobatdosh kadrlarni tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni taqozo etadi.

Kutubxona–axborot xizmati ko‘rsatishda uzluksiz ta’limning quyidagi faoliyat ko‘rsatish tamoyillari hisobga olinishi zarur:

- Ta’limning ustuvorligi–uning rivojlanishining birinchi darajali ahamiyatga ega ekanligi, bilim, ta’lim va yuksak intellektning nufuzi;
- Ta’limning demokratlashuvi – ta’lim va tarbiya uslublarini tanlashda o‘quv yurtlari mustaqilligining kengayishi, ta’limni boshqarishning davlat-jamiyat tizimiga o‘tilishi;
- Ta’limning insonparvarlashuvi–inson qobiliyatlarining ochilishi va uning ta’limga bo‘lgan turli-tuman ehtiyojlarining qondirilishi, milliy va

umumbashariy qadriyatlar ustuvorligining ta’minlanishi inson, jamiyat, atrof-muhit o‘zaro munosabatlarining uyg‘unlashuvi;

- Ta’limning ijtimoiylashuvi – ta’lim oluvchilarda yuksak ma’naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish, estetik dunyoqarashni hosil qilish;
- Ta’limning milliy yo‘naltirilganligi – ta’limning milliy tarix, xalq an’analari va urf-odatlari bilan uzviy uyg‘unligi, O‘zbekistonda yashovchi xalqlarning madaniyatini saqlab qolish va boyitish, ta’limni milliy taraqqiyotning o‘ta muhim omili sifatida e’tirof etish, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyatini hurmatlash;
- Ta’lim va tarbiyaning uzviy bog‘liqligi, bu jarayonning har tomonlama kamol topgan insonni shakllantirishga yo‘naltirilganligi;
- Iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularga ta’limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish.

Bugungi kunda uzluksiz ta’lim rasmiy, qo‘shimcha, masofaviy, mustaqil ta’limni o‘ziga qamrab oladigan jarayon sifatida tushuniladi. Kutubxona– axborot xizmatining asosiy vazifasi uzluksiz ta’lim tizimining barcha yo‘nalishlari uchun mavjud manbalardan, ma’lumotlardan, axborotlardan hammaning foydalanishi uchun shart-sharoit yaratishdan iboratdir.

Uzluksiz ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan yangi axborot texnologiyalari bilimlarning egallanishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Kutubxona – axborot xizmati jarayonida foydalanuvchilar psixologiyasini o‘rganish, ularning qiziqishi va ehtiyojlarini aniqlash, zaruriy axborotlarini qidirishda yangi texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmasini hosil qilish kutubxonachilarning o‘zlarining ham bilim, ko‘nikma va malakalarini oshirib borishlarini talab qiladi. Ayniqsa, bugungi kunda foydalanuvchilarning turli guruhlari bilan ishlashning o‘ziga xos xususiyatlari, kompyuter savodxonligini o‘rganishga oid kurslar, dasturlar seminar-treninglarni muntazam tashkil etish muhim ahamiyatga egadir. Jumladan, YUNESKOning “Axborot hamma uchun”

Xalqaro dasturi ta’limni qo‘llab quvvvatlash, butun umr davomida bilim, ma’lumot egallashni davom ettirishga ko‘maklashishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan.

10.2 Kutubxona–axborot xizmati shaxsni ijtimoiylashtirish vositasi sifatida. Huquqiy ijtimoiylashtirish.

Kutubxonachining pedagogik vazifasidan kelib chiqqan holda ta’kidlash zarurki, kasbiy layoqatliligi muhim ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligidan tashqari faoliyati orqali boshqalarga ta’siri va oxir-oqibatda jamiyatga ta’siri ijtimoiylashuvning muhim tarkibiy qismini o‘zida aks ettiradi. Ijtimoiylashuv insonning madaniyat, kommunikasiya ta’siri ostida shakllanish jarayoni, o‘zaro muloqot natijasida ijtimoiy ta’sir ko‘rsatishini ifodalaydi. Ijtimoiylashtirish tushunchasi esa, jamiyatning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan namunali xulq, psixologik mexanizm, ijtimoiy meyor va qadriyatlarni o‘zlashtirish jarayonidir. Ijtimoiy – falsafiy, psixologik va pedagogik tadqiqotlar jarayonida shaxs ijtimoiylashuviga xos bo‘lgan quyidagi holatlar aniqlangan:

- Shaxs ijtimoiy ta’sirlar yordamida ilmiy bilimlar hamda kishilik madaniyati me’rosini o‘zlashtiradi, ularning negizida esa u aqliy jihatdan kamol topadi va axloqiy sifatlarga ega bo‘ladi – mazkur holat shaxs ijtimoiylashuvining ustuvor jihati hisoblanadi;
- Shaxsning ijtimoiylashuvi turli ijtimoiy tizimlar, jamiyat rivojlanishining muayyan davrlarida bir xil kechmaydi; har bir davr shaxsning ijtimoiylashuvida o‘ziga xos ko‘rinishda namoyon bo‘ladi;
- Ijtimoiylashuv yoshlikkagina xos xususiyat bo‘lmay, shaxs hayotining barcha davrlarini qamrab oladi.

Kutubxona – axborot xizmati jarayonida kutubxonachilarning vazifasi – huquqqa oid bosma nashr manbalari va axborotlarni o‘rganish, mutolaa qilish, tahlil qilish orqali foydalanuvchiga fikrlovchi shaxs, yetuk fuqarolik jamiyatining a’zosi bo‘lib shakllanishi, jamiyatda o‘z o‘rnini va xulq-atvorini, o‘z istak-maqsadlarining yo‘nalishini anglaydigan, umuminsoniy qadriyatlarni saqlash va

mustahkamlashga faoliyatini ongli yo‘naltira oladigan shaxs bo‘lishiga ko‘maklashishdan iboratdir.

Islohotlar Strategiyasiga ko‘ra jamiyat hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan ulkan o‘zgarishlarning yanada muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirilishi ko‘p jihatdan kishilarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasiga bog‘liqdir. Shunga ko‘ra mamlakatimizda huquqiy ta’lim va ma’rifatni, jamiyatda huquqiy bilimlar targ‘ibotini tubdan yaxshilashga yo‘naltirilgan maqsadli, keng ko‘lamli chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi. Ushbu dasturning amalga oshirilishi aholining huquq va erkinliklariga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lishni, fuqarolarda qonunga itoatkorlik tuyg‘usining yanada oshib borishini ta’minlaydi.

Fuqarolik jamiyatining shakllanib borishi, uning o‘ziga xos institutlarining tashkil topishi va faollashuvi bevosita shaxs faoliyatiga, uning huquqiy ijtimoiylashuviga bog‘liqdir. Shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvida hukumat qarorlari ustidan jamoatchilik nazorati, oddiy fuqarolarning ijtimoiy faolligi muhim o‘rin tutadi.

Mamlakat fuqrolarining har biri qabul qilingan qonunlarga rioya qilishi, o‘zlarida huquqiy madaniyatning shakllanganligi, tarbiyalanganligi bilan o‘z huquq va majburiyatlarini bilishlari shartdir. Shaxs huquqiy ijtimoiylashuvi jarayonida huquqiy bilimlar, xulq-atvor, huquqiy munosabatlar rivojlanib boradi.

Shaxs ijtimoiylashuvining huquqiy jihatlari bu – pedagogika, huquqshunoslik fanlarida o‘rganilishi shart bo‘lgan muammolardan hisoblanadi. Ijtimoiylashuvning huquqiy mexanizmi shaxsning huquqiy ongi, faoliyati, obyektiv, subyektiv ijtimoiy omillari, qonunning shaxsga ijobiy ta’siri, uning natijasi kundalik turmush tarzidagi faol hatti-harakatlarida namoyon bo‘ladi. Demak, shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvi barkamol avlodni tarbiyalash, huquq meyorlari, ma’naviy qadriyatlar fuqarolik jamiyatini shakllantirishda davlat siyosatining negizini tashkil etadi.

Huquqiy ijtimoiylashuv ijtimoiy–siyosiy, madaniy–ma’rifiy sohalarni yanada takomillashtirish, ijtimoiy adolatni, qonun ustuvorligini ta’minlash va shu

asosda fuqarolik jamiyatini barpo etishning keng koʻlamli amaliy jarayonlarini tashkil etish, demokratik tamoyillarning barqaror rivojlanishini yanada kuchaytirishga hizmat qilish, diniy aqidaparastlik, diniy ekstremizm, millatchilik, terrorchilik xurujlariga yoʻl qoʻymaslik kabi vazifalarni amalga oshirish, qonunlar yordamida jamiyatni boshqarish, ijtimoiy hayot, ijtioiy munosabatlarni tartibga solishning asosiy vositasidir.

Huquqiy ijtimoiylashuv bilim olish huquqi, burch, konstitusiyaviy huquq, milliy teng huquqlilik, milliy gʻurur, shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi, qonun, huquq, huquqiy davlat, huquqiy madaniyat, huquqiy meyorlar, huquqiy ong kabilarning mazmun-mohiyati, ularning shaxs kamolotidagi hamda jamiyat taraqqiyotidagi oʻrni va rolini chuqur anglashga oid qarashlar tizimi hamdir.

Bugungi kunda huquqiy ijtimoiylashuvga koʻmaklashuvchi quyidagi omillar mavjuddir:

- Davlat organlarining huquq sohasidagi siyosatining tizimli holatga keltirilayotganligi;
- Shaxs ijtimoiylashuviga huquqiy jihatdan shart-sharoit yaratishi, huquqiy ijtimoiylashuvni jarayon sifatida qabul qilish, uning ustidan jamoat nazoratini tashkil etish va boshqalar.

Lekin huquqiy ijtimoiylashuvga salbiy taʼsir koʻrsatayotgan omillarni ham koʻrsatib oʻtish zarur va ular quyidagilardir:

- Oila, maktab, oʻquv yurtlari, turar joy, dam olish va koʻngil ochish maskanlarida doimiy ravishda sogʻlom muhitning mavjud emasligi;
- Huquqiy ijtimoiylashuvga salbiy taʼsir koʻrsatuvchi zoʻravonlik, axloqiy buzuqlik, jinoiy turmush tarzi, jinoyat hisobiga hayot kechirishni targʻib qiluvchi adabiyotlar, kino, video mahsulotlari, gazeta, jurnal hamda boshqa axborot manbalarining kirib kelayotganligi;
- Davlat organlari, mansabdor shaxslarning tarbiya subyektlari, fuqarolarning oʻzini-oʻzi boshqarish organlari faoliyatiga noo'rin aralashuvi kabi holatlar huquqiy ijtimoiylashuvga oʻz salbiy taʼsirini oʻtkazadi.

Yana qayd etish zarurki, huquqiy ijtimoiylashuv jarayonida ishtirok etuvchi tarbiya subyektlarining idoralararo jamoatchilik bilan yashash joylarida amaldagi qonunlarda aniq belgilanmaganligi, hamkorlikni tashkil etish uchun ma’sul bo‘lgan kadrlarning davr talablariga javob bera olmasligi, ular bilan hamkorlikda faoliyat olib boruvchi “xalq posbonlari”, “chegara posbonlari” kabi jamoat tuzilmalarining huquqiy bilimlarining yetishmasligi, huquqiy ijtimoiylashuvga oid o‘quv mashg‘ulotlarining muntazam olib borilmasligi kabi holatlar ham o‘zining salbiy ta’sirini o‘tkazadi.

Huquqiy ijtimoiylashuv jarayonida ishtirok etuvchi ijtimoiy institutlar tizimida kutubxonalar oilada, maktabda, kollejlarda, oliy o‘quv yurtlarida olingan huquqiy bilimlarni yanada boyitish va mustahkamlashda alohida o‘rin tutadi. Chunki kutubxona tomonidan o‘zining ish mazmuniga ko‘ra shaxs huquqiy ijtimoiylashuvining “inson-inson” deb ataluvchi yo‘nalishda tashkil etgan axborot xizmati o‘z ahamiyatiga ko‘ra o‘ta muhim hisoblanadi.

Bu o‘rinda kutubxonalarning foydalanuvchilar huquqiy bilimlarini shakllantirish va takomillashtirish yo‘nalishlarini turli shakllar, usullar yordamida o‘tkaziladigan faoliyati samarali bo‘ladi.

XI. BOB. Alohida ehtiyojli foydalanuvchilarga kutubxona–axborot xizmati koʻrsatish.

11.1. Bolalar, oʻsmirlar, oʻspirinlarga kutubxona–axborot xizmati koʻrsatish.

Yoshlar kutubxonalardagi ma’lumot va axborot xizmatlaridan asosan uy vazifalarini bajarishda foydalanishadi. Shuning uchun ham oʻziga nima kerakligini unchalik bilmagan va bilishga unchalik ham intilmagan foydalanuvchi bilan ma’lumot berish oldidan savol-javob oʻtkazish ancha qiyin kechadi.

Bunday savol-javoblar odatda foydalanuvchining mavzuga qiziqishi, xabardorlik darajasi, izlanayotgan ma’lumot qanday maqsadlarda ishlatilishiga oid tasavvuriga bogʻliq boʻladi.

Bunda vaziyatni chigallashtiruvchi baʼzi omillar mavjud boʻlib, ular quyidagi holatlarda namoyon boʻladi: birinchidan, kutubxona xodimi oʻquvchi maktab kutubxonasida manbalarni izlash malakasini shakllantirib ulgurgan deb hisoblashi natijasida oʻquvchiga yetarli eʼtibor bermasligi, ikkinchidan, oʻqituvchilar oʻquvchilarga uy vazifasini berish chogʻida ularning oʻzlari uchun oson koʻringan vazifani bajarish keng koʻlamli izlanishlarni talab qilishi va qancha manbadan foydalanish kerakligi haqida yetarli tasavvurga ega boʻlmasligidir. Bundan tashqari ularning oʻquvchilarga internetdan foydalanishni maʼn qilishi, oʻquvchilarning baʼzi kerakli ma’lumotlarni topishi va samarali foydalanishiga imkon bermaydi.

Bosma nashr manbalari va kataloglardan foydalanish ancha urinishlar va vaqtni talab qilganligi va elektron manbalardan foydalanish ancha oson boʻlganligi bois oʻquvchilar va talabalar bosma nashrlardan foydalanishni unchalik xohlashmaydi. Shu boisdan yoshlar bilan ishlovchi kutuxonachi ushbu jarayonda yuzaga kelishi mumkin boʻlgan muammolarni oldindan koʻra bilishi, koʻrilishi mumkin boʻlgan choralar strategiyasini ishlab chiqishi lozim.

Bugungi kunda axborot savodxonligi axborotni topish, baholash, undan mas’uliyat bilan foydalanishdangina iborat boʻlib qolmasdan, yangi

texnologiyalardan samarali foydalana bilish hamdir. Aksariyat kutubxonachilar o‘z vazifasini foydalanuvchiga kerakli ma’lumotni topib berish yoki kerakli ma’lumotni topishida yordamlashishdan iborat deb tushunadilar. Lekin ular shuni unutmasliklari zarurki, yoshlar o‘zlari topgan axborotlarni o‘rganish va baholash uchun yetarli ma’lumotga ega emasliklari tufayli axborotni tartiblashtirishda kutubxonachining yordamiga muhtoj bo‘ladilar. Bunday sharoitda kutubxonachi foydalanuvchining savolini aniqlashtirishda ham ishtirok etishi lozim bo‘lib, bu axborot madaniyatini shakllantirishning bir turi bo‘lib hisoblanadi.

Kutubxonachi yoshlarning ma’lumot izlash jarayonida yo‘l qo‘yishi mumkin bo‘lgan xatolari bilan bir qatorda ular uchun mo‘ljallangan axborot manbalari joylashtirilgan saytlardan ham xabardor bo‘lishi lozim.

Shuningdek, ko‘pchilik yoshlar intellektual mulk tushunchasi bilan tanish bo‘lmaganliklari bois internetdagi ma’lumotlar kimningdir mulki bo‘lishi mumkinligini hayoliga ham keltirmagan holda ularni ko‘chirib olishi, video yoki audiofayllarni o‘zlashtirilib olishi – ular uchun oddiy holat bo‘lishi mumkin. Bunday holatlar kutubxonachilar tomonidan hisobga olinishi va foydalanuvchilarning axborot savodxonligini oshirishda, albatta, e’tiborga olinishi lozim.

Yoshlarning ma’lumotga bo‘lgan ehtiyoji o‘qitiladigan fanlar dasturlari asosida shakllanishi bois tajribali kutubxonachilar o‘quvchilar va talabalar qanday ma’lumotlarni so‘rab murojaat qilishlarini oldindan yaxshi bilishadi. Bunda kutubxonachining yaqin atrofdagi maktablarning o‘quv dasturlari va uy vazifalari ketma-ketligi bilan tanish bo‘lishi muhim ahamiyatga egadir. Maktab kutubxonalarida esa uy vazifalari ketma-ketligini belgilashda o‘qituvchilar bilan oldindan maslahatlashib olish ham alohida ahamiyatga egadir. Kutubxonachilar ko‘p qaytariluvchi mavzular bo‘yicha manbalar topish jarayonini osonlashtirish uchun oldindan chora ko‘rishlari natijasida kerakli manbalarni bir necha nusxada tayyorlab qo‘yish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bolalar, o‘smirlar, o‘spirinlar ham kutubxonachilarning yordamiga muhtoj bo‘lgan foydalanuvchilar sirasiga

kirganliklari uchun ularga kutubxona – axborot xizmati koʻrsatishda alohida eʼtibor talab qilinadi.

Psixologiya fanida oʻquvchilarning biologik-jismoniy, psixologik jihatlariga koʻra ularni 6 yoshdan 11yoshgacha kichik maktab yoshi davriga kiritiladi. Bu yosh davriga ajratish qatʼiy va mutlaq tarzda qabul qilinmasada, umumiy holatda bola idrokining oʻtkirligi, aniqligi, qiziquvchanligi, ishonuvchanligi, hayoliy dunyosining yorqinligi, xotirasining kuchliligi bilan boshqa yoshdagi oʻquvchilardan ajralib turadi.

Bola shu paytgacha bevosita kattalar rahbarligida u yoki bu axborotlarni egallab kelgan boʻlsa, endi u oʻz xohish irodasi bilan, muayyan motivasiyaga asoslangan holda zarur maʼlumotlar va axborotlar olishga, oʻz oldiga aniq maqsad va vazifa qoʻyishga harakat qiladi.

Bu yoshdan bolalar oʻqish, idrok qilish, oʻzlashtirish texnikasi bilan tanishishning muayyan darajasiga erishgan boʻladilar.

Bolalarda soʻz – mantiq xotirasining mavjudligi ularda matnning maʼnosini tushunib, esda olib qolish jarayonining samaradorligini oshirishga katta imkoniyatlar yaratadi.

Bolalar maʼnosiz soʻzlardan koʻra, koʻproq maʼnodor atamalarni yaratish, tuzish va esda olib qolish imkoniyatiga egadir. Ular eshitgan narsalarini, voqelik toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni toʻgʻri tushuntira oladi, mavjud axborotlarni muayyan tartibda bayon qila oladi, guruhlarga ajratish, taqqoslash, hukm chiqarish iqtidoriga ham egadir. Bolalarda shaxsga xos boʻlgan nisbiy mustaqillik, qatʼiylik, maqsad qoʻya bilish, burch, javobgarlik hissi singari fazilatlar va xususiyatlar koʻzga tashlana boshlaydi.

Kichik maktab yoshidagi oʻquvchilarning muhim xususiyatlaridan biri – oʻziga xos ehtiyojning mavjudligi boʻlib, ushbu ehtiyoj oʻz mohiyatiga koʻra muayyan bilim, koʻnikma va malakalarni egallashga qaratilgan boʻlmasdan, oʻquvchi boʻlish istagi bilan cheklangan boʻladi. Kichik maktab yoshidagilar oʻqishning tub mohiyatini va vazifasini toʻla tushunib yetmasalarda kattalarning

koʻrsatmalariga (kutubxonachining maslahatlariga) amal qilgan holda tirishqoqlik bilan mashgʻulotlarga kirishib ketishi mumkin.

Oʻquvchi maʼlum muddat oʻtgach oʻqishning irodaviy zoʻr berish, diqqatni taqsimlash bilan bogʻliq boʻlgan kundalik aqliy mehnat ekanligina anglab yetadi va dastlabki taassurotlar oʻzgarib, uning uchun maktabga xos boʻlgan baʼzi belgilar oʻz ahamiyatini yoʻqota boradi. Aqliy mehnat koʻnikmasiga ega boʻlmagan oʻquvchining oʻqishdan koʻngli sovib ketishining oldini olish maqsadida oʻqituvchi va kutubxonachi hamkorligida oʻqish-oʻrganishning oʻquvchi uchun ehtiyojga aylanishini taʼminlash alohida ahamiyatga egadir.

Oʻqish faoliyatiga qiziqish, moyillik, keyinchalik predmetning mazmuniga qiziqishni vujudga keltiribgina qolmay, balki bilim olish ehtiyojini tugʻdiradi, oʻqish motivlarini ham tarkib toptiradi.

Bilimni egallashga qiziqish oʻquvchining oʻz aqliy mehnati natijasidan qanoatlanish hissi bilan chambarchas aloqadordir. Ushbu his oʻqituvchi va kutubxonachining hamkorlikdagi yordami va ragʻbatlantirish orqali namoyon boʻladi, oʻquvchiga oʻz ustida yanada koʻproq va samaraliroq ishlash mayli paydo boʻladi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarda oʻqituvchining har bir soʻzi, har bir hatti-harakati, taʼsir oʻtkaish uslubi uning uchun haqiqat meʼzoni rolini oʻynaydi. Chunki oʻquvchilar oʻz oʻqituvchisiga juda qattiq ishonadilar, uning fikr-mulohazalariga quloq soladilar, qoʻygan talablariga hamisha amal qiladilar. Ana shu boisdan pedagog tomonidan berilgan barcha vazifalarni oʻz vaqtida bajarishga harakat qiladilar. Shuning uchun ham kutubxonachi oʻzining shaxsiy kuzatishidan tashqari oʻqituvchilardan har bir oʻquvchining oilaviy sharoiti, qiziqish darajasi, qiziqadigan yoʻnalishlari boʻyicha aniq maʼlumotlarni olishi va faoliyatida foydalanishi oʻqituvchi – kutubxonachi-foydalanuvchi hamkorligida aniq maqsadga erishish imkoniyatini beradi.

Ayni shu davrdan boshlab: 1) oʻquvchining psixikasiga tashqi taʼsir koʻrsatish; 2) atrof-mikromuhitdagi kishilarga yordam berishga undash; 3) nima bilan shugʻullanish zarurligi toʻgʻrisida yoʻllanma berish; 4) unga oddiy individual

yoki ijtimoiy xususiyatga ega bo‘lgan burch hissini tushuntirish; 5) uni to‘g‘ri mulohaza yuritishga o‘rgatish; 6) ijobiy his-tuyg‘ulari va ezgu niyatlarini quvvatlash; 7) o‘qilgan kitobni, san’at asarini birgalikda muhokama qilish ko‘nikmasini vujudga keltirish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarga kutubxona – axborot xizmati ko‘rsatish jarayonida ularning yosh individual xususiyatlarini hisobga olgan holda yondashish kutubxonachiga o‘qituvchi bilan hamkorlikda yuqorida aytib o‘tilgan vazifalarning to‘g‘ri bajarilishiga yordam beradi. O‘z faoliyatida kutubxonachi o‘quvchilarning individual tipologik xususiyatlarini qanchalik chuqur o‘rgangan bo‘lsa, ularga ta’sir o‘tkazish kuchi sezilarli va samarali bo‘ladi. Kutubxona – axborot xizmati jarayonida har bir o‘quvchining ruhiy dunyosiga oqilona yo‘l topa olish barcha muvaffaqiyatlarning garovidir. Psixologiya fanidagi tadqiqotlar natijalariga ko‘ra o‘quvchilar tafakkurining rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan “o‘quvchanlik” darajasi o‘quvchilarda har xil bo‘ladi. O‘quvchanlik fikrlashning faollashuvi bilan bog‘liq bo‘lgan intellektual xususiyatlar yig‘indisi hisoblanadi.

O‘quvchanlik darajasi va ko‘rsatgichi past bo‘lgan o‘quvchilar ta’lim jarayonida juda sust bo‘lib, ularda o‘qituvchi o‘quv materialini to‘la tushuntirib beradi degan xotirjamlik mavjud bo‘lib, umumlashtirish, analiz va sintez faoliyati ham bo‘shashgan holda amalga oshadi.

Kutubxonachilar ular bilan yakka holda ishlashni tashkil qilishda murakkab ilmiy va mavhum tushunchalarni ko‘rgazmalilik asosida tushuntirib berishi, axborotga bo‘lgan ehtiyoji va bilish motivini muayyan darajada qondirish uchun intilish tuyg‘usini kuchaytirishi maqsadga muvofiqdir.

Bo‘sh o‘zlashtiradigan o‘quvchilarga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatish tavsiya etiladigan ma’lumotlar va axborotlar hajmini bosqichma-bosqich oshira borish evaziga ko‘rsatiladigan yordamni kamaytirib borishini rejalashtirishga asoslanishi lozim.

Lekin, bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar axborotlarni mustaqil tahlil qila olishlariga ishonch hosil bo‘lgandagina ularga muayyan topshiriqlarni berish mumkin. Axborotlar hajmini kamaytirib borish esa ularning aqliy jihatdan

charchaganliklari aniqlangandagina to‘g‘ri bo‘ladi. Shuning uchun ham ba’zi holatlarni doimiy qoidalar tarkibiga kiritib bo‘lmaydi.

Uquvchanlik darajasi past bo‘lgan o‘quvchilarga nisbatan kutubxonachi tomonidan qo‘yilgan talablar ularning ma’lumotlar, axborotlar va bilimlarni o‘zlashtirish imkoniyatlariga mos tushmog‘i kerak. Aks holda ularda axborotlarni o‘zlashtirishning murakkabligidan cho‘chish, hadiksirash, mustaqil o‘zlashtira olishga ishonmaslik singari salbiy xususiyatlar yuzaga kelishi mumkin.

Bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarning fikr yuritishlarini rivojlantirishda ularga yakka tartibda yondashuvda kutubxonachi quyidagi talablarga aml qilishi shart:

1) Bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarning o‘ziga xos psixologik xususiyatlari va aqliy imkoniyatlari darajasini bilish;
2) Ularga interfaol ta’sir ko‘rsatish usullari va metodlarini to‘g‘ri qo‘llashda individual xususiyatlarini hisobga olish;
3) Kutubxonachi va o‘quvchi muloqotining oqibatlarini oldindan ko‘rish asosida asosiy maqsadga yo‘naltira olish.

O‘quvchilarning 10-11dan 14-15 yoshgacha bo‘lgan davri o‘smirlik yoshi bo‘lib, o‘z o‘tmishdoshlariga nisbatan jismoniy, aqliy va siyosiy jihatdan birmuncha ustunlikka egaligi ularning jinsiy yetilishi, ijtimoiylashuv jarayoni, psixik o‘sishlarida namoyon bo‘ladi.

O‘smirlarga kutubxona-axborot xizmati ko‘rsatishda ularning o‘ziga hos xususiyatlarini hisobga olish kutubxonachi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlarda anglashmovchilikning oldini oladi va psixologik muhitni sog‘lamlashtirishga ijobiy tasir ko‘rsatadi.

Bugungi kunda kutubxona – axborot xizmati ko‘rsatishda o‘smirlar guruhiga alohida e’tibor berilayotganligining asosiy sabablari quyidagilardir:

1) Fan-texnikaning rivojlanishi natijasida ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarning o‘zgarayotganligi;
2) Axborot tizimining misli ko‘rilmagan darajada kengayishi tufayli o‘smirlar onglilik darajasining oshishi;

3) O‘smirlarning dunyo voqealaridan, tabiat va jamiyat qonunlaridan yetarli darajada xabardorligi;
4) Jismoniy va aqliy kamolotlarining jadallashganligi;
5) O‘smirlar bilan ishlashda ma’naviy – ma’rifiy tartibga alohida yondashish zarurligi;
6) Shaffoflik, ijtimoiy adolat, demokratiya normalarining ijtimoiy hayotdan to‘la o‘rin olayotganligi;
7) O‘quvchilarning mustaqil, ijodiy fikr yuritishi, tafakkur erkinligiga, o‘zini-o‘zi boshqarishi, anglashi, baholashi va nazorat qilishlariga keng imkoniyat yaratilayotganligi.

O‘smirlik yoshi dunyoqarash, e’tiqod, nuqtai-nazar, o‘zligini anglash, baholash shakllanadigan davr hisoblanadi.

O‘smirlar shaxsining shakllanishida axloq alohida ahamiyat kasb etadi va ularning ko‘pchiligi qat’iyatlilik, mag‘rurlik, samimiylik, adolatlilik kabi tushunchalarni to‘g‘ri anglay boshlaydilar. O‘smirlarda o‘zini anglash jarayoni shaxsiy xulq-atvorini tushunishdan boshlanib, axloqiy fazilatlari, aqliy imkoniyatlari va qobiliyatini anglashi bilan yakunlanadi.

O‘smirning hatti-harakati, o‘z kuchiga, yoshiga loyiq ijtimoiy munosabatlari, muayyan muhitda o‘z o‘rnini topishga intilishi uning o‘z-o‘zini anglashining takomillashuviga zamin yaratadi.

Ular o‘zini anglashning yangi bosqichga ko‘tarilishi bilan o‘zlari uchun axloqiy namunani tanlay boshlaydilar. Ushbu axloqiy namuna bilan o‘zlarini taqqoslashlari natijasida ijobiy yoki salbiy jihatlarini anglab yetadilar. Natijada ularda o‘zini o‘zi tarbiyalash bilan bog‘liq bo‘lgan yo‘nalish shakllanadi.

Kutubxonachining tajribasi va mohirligi shunda namoyon bo‘ladiki u shunday vaziyatda kerakli nashr mashg‘ulotlarini, ma’lumotlarni taqdim etish orqali o‘smirning iroda kuchi va xarakterli xususiyatlarini ishga solib, faoliyatini kerakli yo‘nalishga burib yubora olishi kerak.

Kutubxonachi o‘smirlar bilan muloqotda ularda o‘z kuch-quvvati, chidamliligi, bilim saviyasi ortayotganligi natijasida kelib chiqadigan voyaga

yetish yoki kattalik hissini oʻrinsiz homiylik, ortiqcha nazorat, zeriktiradigan gʻamxoʻrlikdan xoli boʻlish istagini hisobga olgan holda faoliyat koʻrsatishi zarur. Ilk oʻspirinlik davri 15-18 yoshdagilarni (yuqori sinf oʻquvchilari, akademik lisey va kasb-hunar kollejlari oʻquvchilari) qamrab oladi. Ilk oʻspirinning 16yoshida mamlakat fuqarosi boʻlishi va 18 yoshida saylash, saylanish huquqiga ega boʻlishi fuqaro sifatida ijtimoiy jihatdan jihatdan voyaga yetishi, oʻz taqdirini oʻzi hal qilishi, shaxs sifatida maʼnaviy shakllanishi uchun shart-shaoitlarning yaratilganligini koʻrsatadi.

Ilk oʻspirinlik yoshidagilarning oʻzlari taʼlim olayotgan shart-sharoitlar taʼsirida ijtimoiy hayotdagi dolzarb muammolarni hal etishda qatnashishlari, dunyoqarashlarining, barqaror eʼtiqodlarining, masalalarga ijodiy yondashuv va mustaqil fikrlashlarining shakllanishiga olib keladi.

Ilk oʻspirinlik davridagi oʻquvchilar oʻzlaridagi ijobiy fazilatlarni ongli, izchil va muntazam rivojlantirib borishga ehtiyoj sezganliklari uchun oqilona oʻlcham, meʼzon, mukammal timsol obrazini izlaydilar.

Masalan, ular oʻzlarining idealarini taniqli kishilarning qiyofalari, badiiy asar qahramonlari timsoliga tasavvur qiladilar. Ular burch, vijdon, gʻurur, masʼuliyat, or-nomus kabi tushunchalarni tahlil qilishga harakat qilsalarda, axloqiy tushunchalarning mohiyatini toʻla anglab yetmaydilar.

Ilk oʻspirinlarda axloqiy tushunchalarni oqilona shakllantirish uchun ularga eng saralangan kitoblar mutolaasini tavsiya etish, eng yaxshi filmlarni koʻrish, taxlil qilish asosida xulosa chiqarish koʻnikmasini shakllantirish zarur. Ularning ruhiyatiga va maʼnaviyatiga salbiy taʼsir koʻrsatuvchi “asarlar” taʼsiridan asrash pedagoglar bilan hamkorlikda kutubxonachilarning ham asosiy burchidir.

Ilk oʻspirin turli xil kitoblarni oʻqish, muayyan maʼlumotlar va axborotlarni oʻrganish, tushunish orqali mustaqil fikrlashga mulohaza yuritish va munozaraga oʻrgana boradi. Tabiat va jamiyatga nisbatan shakllangan nuqtai nazar va qarashlar, eʼtiqodlar mustaqil fikrlash, toʻgʻri xulosa chiqarishning natijasidir.

Ilk oʻspirinlarning kitoblar, jurnal maqolalari, turli maʼlumotlarni va axborotlarni oʻrganishlari ular haqida oʻz shaxsiy fikrlarini bildirishi, bahslashuvi

orqali insoniy xislatlarining ishtiroki ular tafakkuridagi tanqidiylikning koʻrinishidir.

Kutubxonachining ana shu paytdagi asosiy vazifasi – ular tafakkuridagi tanqidiylikni oʻqib chiqilgan har bir manbaning mohiyatini ilmiy jihatdan chuqur anglab yetishga oʻrgatish asosida haqqoniylik darajasini koʻtarish, voqelikni odilona baholay bilishga oʻrgatishdir. Buning uchun foydalanuvchilarga tavsiya etiladigan manbalar oddiydan murakkablikka tomon takomillashtirib borilishi talab qilinadi.

Buning uchun kutubxonachi eng avvalo oʻquvchining bilim saviyasini, oʻqishga nisbatan munosabatini, qiziqishining xususiyat va darajasini, mavjud oʻqish koʻnikmasi va malakasini oʻrganishi asosida manbalarni tavsiya etishga alohida e'tibor berishi lozim.

Ilk oʻspirinlar oʻz faoliyatlarida hissiyot va iroda kuchi, tafakkur faoliyatigagina tayanib qolmasdan shaxs sifatida mustaqillikga ham intiladilar. Ular uchun kutubxonada tashkil etiladigan koʻrgazmalar, uchrashuvlar, davra suhbatlari, turli mavzulardagi bahs-munozaralar katta qiziqish, motiv, moyillik uygʻotuvchi omillar hisoblanadi.

Kutubxonachi ushbu omillardan unumli foydalanish orqali oʻquvchilarning har birida mustaqil ravishda oʻz bilimlarini uzluksiz oshirib borish qobiliyatini takomillashtirib borishi mumkin.

Ma'lumki, ilk oʻspirinlik davrida tengdoshlar oʻrtasidagi muloqotning yoʻnalishlaridan biri axborot uzatishdir. Axborot uzatish orqali ilk oʻspirinlar oʻz tengdoshlaridan muayyan darajada tabiat, jamiyat, fan va texnika haqidagi ma'lumotlarni oladilar.

Jinslar (genderlik) haqidagi ma'lumotlarning ham aksariyati tengdoshlar oʻrtasidagi muloqot, muomala jarayonida oʻzlashtiriladi, bir-birlariga nisbatan shaxsiy munosabatlari ham shakllanadi. Lekin, tengdoshlari bilan kam muloqotda boʻluvchi, munosabatga koʻp kirishmaydigan oʻquvchilarda axborot taxchilligi natijasida chetlashish, sustlik,loqaydlik kayfiyatlari ham shakllanishi mumkin.

Har qanday hodisalar haqidagi ishonchli bilimlarning shakllanishidagi eng to‘g‘ri yo‘l ma’rifiy yo‘l bo‘lib, bu har qanday bilimni hosil qilishda sinalgan, ishonchli manbaga tayanish yo‘lidir.

Kutubxona–axborot xizmati ko‘rsatishda ilmiy manbalar asosida ilk o‘spirinlarning axborotga bo‘lgan ehtiyojini qondirish bilan birga, yakka tartibda yondashuv chetlashish kayfiyati ustun bo‘lgan o‘quvchilarni tengdoshlari qatoriga qo‘shish, ular dunyoqarashining shakllanishida ma’rifiylik ustunligini ta’minlashga ham yordam beradi.

O‘spirinlikning ikkinchi bosqichi oliy o‘quv yurtidagi o‘qish davriga to‘g‘ri kelib, 17-22 yoshni o‘z ichiga oladi. Ushbu davrning asosiy xususiyatlaridan biri ijtimoiy yetuklikning jadal sur’at bilan ro‘yobga chiqishining amalga oshishi davri bo‘lib, shaxsdan ilmiy qobiliyatdan tashqari turli ijtimoiy rollarni ham bajara olishni talab qiladi.

Hozirgi zamon fani va texnikasining rivojlanishi natijasida bir tomondan axborotlar va ma’lumotlar haddan tashqari ko‘payib ketgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan bilimlarni egallashga nisbatan barqaror qiziqishlar kamayib borishi natijasida ijodiy izlanish, iroda kuchiga ishonish o‘rniga loqaydlik, faoliyatsizlik kuchayib bormoqda. Kompyuter, internet kabi vositalar inson mehnatini yengillashtirib, ularni aqliy zo‘r berishdan ozod qilmoqda. Shunday holatda talabalarga mustaqil bilim olish, o‘z faoliyatini o‘zi tashkil etishi, o‘z-o‘zini boshqarish, innavasion g‘oyalarni ishlab chiqarishga o‘rgatish kutubxona – axborot xizmati ko‘rsatish tizimiga ham muhim vazifalarni yuklaydi.

Psixologiya fanidagi tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, 18-20 yoshda insonning fiziologik imkoniyatlari yuksak darajada rivojlanadi, uquvlilikning ham qulay imkoniyati vujudga keladi. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, uquv-insonning axborotlarni qabul qilish, eslab qolish va xotirada saqlash qobiliyatini anglatadi. Shu davrdan boshlab, insonga xos bo‘lgan belgilar quyidagiga bo‘ladi:

1) turli funksiyalarning rivojlanishi bir tekisda bormasdan almashuv tarzida, ya’ni bir bosqichda xotira, bir bosqichda tafakkurning rivojlanishi tarzida boradi;

2) turli funksiyalarning rivojlanishi o‘zaro muvofiqlashgan xususiyatga ega bo‘la boshlaydi;

3) o‘zaro muvofiqlashish jarayonida keskin pasayishlar sodir bo‘lmaydi;

4) uquvlilik darajasi ham nisbiy barqarorlik holatida bo‘ladi.

Oliy o‘quv yurtida ta’lim olish jarayonida ularning ko‘pchiligi o‘quv faoliyatini boshqarishning umumlashgan usullarini ta’riflash, anglash, ushbu faoliyatni qanday tartibda amalga oshirishni to‘liq tasavvur qila olmaydilar. Ular ta’limiy usullardan foydalanishga qo‘yiladigan umumiy talablarni aniq ko‘rsatishda qiynalganliklari sababli muammolar doirasidan chetlashadilar.

Mana shu muammolar va qiyinchiliklarni mohiyati va shakliga ko‘ra uch guruhga ajratish mumkin:

1) Bilishdagi qiyinchiliklar: Oliy o‘quv yurtida o‘qitishning turli shakl va usullarining qo‘llanilishi, ularning murakkabligi, muammoliligi, ilmiyligi, talabalarning mustaqil bilim olish malakasining yetishmasligi;

2) Ijtimoiy–psixologik qiyinchiliklar: hayot va faoliyatning barcha jabhalarida muammolarni mustaqil hal etish, iroda kuchi va qobiliyatiga tayanishi zarurligi, o‘ziga unchalik ishonmaslik natijasida sessiyani topshira olmaslikdan xavotir, o‘qishdan haydalib ketishdan qo‘rquv va xavfsirashning paydo bo‘lishi;

3) Moslashuvdagi qiyinchiliklar: jumladan, oliy maktab shart-sharoitlariga tez moslasha olmaslik, avvalgi noto‘g‘ri tasavvur natijasida ko‘nikma, malaka va odatlarni egallashda orqada qolish kabilardir.

Kutubxonachi ushbu xolatda seminarlar, mustaqil ta’lim, kurs ishlariga tayyorgarlik ko‘rishning muntazam tartibga aylanishi, mustaqil bilim olish yo‘llari va usullari, egallangan bilimning mustaqil dunyoqarashni shakllantirishdagi ahamiyatini shunchaki tushuntiribgina qolmasdan, zaruriy adabiyotlar, ma’lumotlar va axborotlarni tavsiya qilish, ularni o‘rganish va taxlil qilishning ahamiyatining amalda namoyon bo‘lishi yo‘llarini ko‘rsatishi kerak.

Bunda kutubxona–axborot xizmatining asosiy vazifasi talabalarning tipologik va yosh xususiyatlari, aqliy imkoniyatlari, aql-zakovatini hisobga olgan holda ular faoliyatini oliy ta’lim muhitiga moslashtirishda ham namoyon bo‘ladi.

Kutubxona – axborot xizmatining yana bir muhim vazifasi talabalarni o‘quv materiallarining asosiy va qo‘shimcha manbalari bilan ishlashga o‘rgatishdan, ular asosida mustaqil bilim olish faoliyatini tashkil qilishdan, o‘zini-o‘zi boshqarish usullari bilan tanishtirishdan iboratdir.

Oliy ta’lim talabaning maqsadga muvofiq, muntazam, rejali, izchil o‘quv faoliyatini ta’limning barcha bosqichlarida amalga oshirishni taqozo etganligi uchun mustaqil o‘quv faoliyatini ham muntazam uyushtirishni talab qiladi.

11.2. Oilaviy mutolaani tashkil etish.

Mamlakatimizning kelajagi bo‘lgan yosh avlodni har tomonlama kamolotga erishgan shaxslar sifatida tarbiyalash, ularni ilk yoshlik davridan ilm-fan, ijod, yaratuvchilik va ma’naviyatga yo‘naltira bilish tarbiyaning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Oilada ta’lim-tarbiya jarayoni qanchalik erta va maqsadga muvofiq tarzda yo‘lga qo‘yilsa, uning ijobiy samarasi ham shunchalik yuqori bo‘lishi dunyo tajribasida ham, milliy qadriyatlarimizda ham o‘z ifodasini topgan.

Bugungi yuksak texnologiyalar asrida televizorlar, internet o‘yinlari, uyali telefonlar bolalar hayotidan keng o‘rin egallab borayotgan bir davrda ularning ma’naviy oziqlanishi, ma’lumot olishi, bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishida kitob mutolasining ahamiyatini anglab yetish o‘ta dolzarb masaladir.

Kitob mutolaasi insonga bilim beribgina qolmay, uni insoniyatning yashash tajribasi bilan ham qurollantiradi. Ziyoli oilalarda kitobga muhabbat, uni o‘qishdan tashqari asrab-avaylash qadimiy an’ana sifatida avloddan avlodga o‘tib kelgan. Insonni ma’naviy kamolot yo‘liga olib chiqqan vosita – bu kitobdir.

Hamid Olimjonning buyuk shoir bo‘lib yetishishida, Xudoyberdi |To‘xtaboyevning atoqli yozuvchi bo‘lib yetishishida ularning o‘zlari e’tirof etganlaridek, buvilar aytgan ertaklar turtki bo‘lgan. Oybekning “Bolalik” povestida yozilganidek, uning hayotida ham kitob ulkan rol o‘ynagan. Shuning uchun ham oilada bolalarga ko‘p kitob o‘qish kerakligini ta’kidlash bilan cheklanib qolmasdan ularning yoshiga mos kitoblarni topa bilish, eng yaxshi kitoblarni mutolaa qilish

imkoniyatini yaratish zarur. Buning uchun ota-onaning o‘zlarida mutolaa madaniyati shakllangan bo‘lishi kerak.

Ular farzandlarining mutolaa darajasini o‘rganish orqali qanday kitoblarni o‘qiyotganligini nazorat qilib borishlari, birgalikda tahlil qilishlari, mutolaa qilishda eng foydali va to‘g‘ri yo‘lni topishga yordam berishlari lozim. Ota-onalar farzandlariga o‘zining yoshi va qiziqishiga mos kitoblarni topishiga va tanlashiga yordam berishlari zarur. Chunki bolalar kitob o‘qiganlarida ma’nosini tushunishlari, his etish, o‘qigan narsalarga o‘zining shaxsiy munosabatini bildira olish ko‘nikmasiga ega bo‘la borishi darkor.

Buning uchun ota-onalar bolalarning mutolaa bilan mashg‘ul bo‘lishlariga sharoit yaratish bilangina cheklanib qolmasdan o‘zlarining ham kitob o‘qishga qiziqishlarini namoyish qilishlari, bolalar muayyan kitobni o‘qib chiqqanlaridan so‘ng ularning kitobdan olgan taassurotlari haqida fikr almashishlari, o‘z fikrini mustaqil ifoda qila bilishi uchun yo‘nalish berishi, kitob mazmuni bo‘yicha eng qiziqarli joylarini aytib berishi, davomini o‘zi mustaqil o‘qib, bilib olishiga turtki berishi, oxirigacha o‘qib chiqqanligini nazorat qilib borishi kerak.

Lekin, afsuski bugungi kunda ko‘pchilik ota-onalarning o‘zlari kitob mutolaasi bilan shug‘ullanmaydilar, asosiy vaqtlarini televizor ko‘rish yoki internetdan foydalanishga sarflaydilar. Agar masalaga kattalar, ota-nalar namunasi nuqtai-nazaridan yondashiladigan bo‘lsa, tabiiyki bunday oilalarda bolalar kitob mutolaasiga qiziqmaydilar. Shuning uchun ham ota-onalar o‘zlarining televizor ko‘rish va internetdan foydalanishga sarflaydigan vaqtlarini muayyan darajada kamaytirishi, kitob mutolaasi bilan shug‘ullanishni muntazam mashg‘ulotga aylantirishlari va farzandlarining mutolaasi uchun mutaxassislar ta’kidlaganlaridek har kuni 40-60 daqiqa vaqt ajratishlari kerak bo‘ladi. Albatta, hamma ota-ona farzandlarida kitob mutolaasi ko‘nikmasini shakllantirish uchun muayyan bilim va tajribaga ega emaslar. Bunday holatlarda o‘qituvchilar va kutubxonachilar bilan maslahatlashish hamda hamkorlikda faoliyat yuritish tavsiya qilinadi.

Mutaxassislarning ta’kidlashicha kitobxonlik ruhi bolalarda kitobni takror va takror o‘qishdan, undagi so‘zlarni yod bo‘lib ketganicha qaytarish va takrorlashdan

boshlanadi. Oilada yosh bolaning otasiga yoki onasiga “Ertak aytib bering” yoki “Kitob oʻqib bering” – degan iltimosi hech qachon inkor etilmasligi kerak.

Turli bahonalar koʻrsatib, inkor etish bolaning koʻnglida uygʻonib kelayotgan havas, intilishni ildizi bilan qoʻporib tashlash demakdir. Ota-ona biron-bir soʻzning maʼnosini axtarib lugʻatni, biron-bir mamlakatga oid faktni axtarib ensiklopediyani varaqlaydigan boʻlsa iloji boricha uni bolaning koʻz oldida qilishi, bolaning shuurida bilmagan yoki unutilgan narsani faqat kitob orqali topish mumkin degan tushunchani uygʻotishi zarur. Shunday naʼmunaviy faoliyat koʻrsatish hamda kitobga nisbatan tushuncha hosil qilish kutubxonada ham amalga oshirilishi zarur. Bu holat kutubxonachi va ota-ona hamkorligini mustahkamlovchi omillardan biri boʻlib xizmat qiladi. Bolalar albatta kompyuter oʻyinlari bilan mashgʻul boʻladilar, zamonaviy multiplikasion filmlarni koʻradilar. Albatta, ularni taqiqlab boʻlmaydi, hamma gap ularning mazmunida boʻlib, ijobiy bilimlar, maʼlumotlar berish yoki ularni mahliyo qilib, tajovuzkorlik urugʻini sepishni maqsad qilib qoʻyganligi bilan bogʻliqdir. Bunday holatlarda multiplikasion filmlardagi voqealardan ham qiziqroq voqealar kitoblarda bayon etilganligini koʻrsata bilish, maʼlum kitobning kerakli joyini topib oʻqib berish, baribir kitob qiziqarliroq ekanligi, asosiy ibrat kitobda ekanligini asoslab berishdan erinmaslik kerak. Buning natijasi bolada kerakli maʼlumotlarni faqat kitobdan izlash xususiyatlarining oʻsganligida koʻrinadi.

Ota-onalar bolaning eʼtiborini kitobga jalb qilishda bolaning uzoq vaqt davomida diqqatini bir joyda saqlab tura olmasligini hisobga olishlari zarur. Biz yuqorida taʼkidlab oʻtgan 40-60 daqiqa eng maksimal vaqt boʻlib, muayyan bosqichlarni oʻz ichiga oladi. Chunki, tavsiya etilgan kitob qanchalik qiziq boʻlmasin dastlab 5-10 daqiqa, soʻngra 15-20 daqiqadan keyin bolaning diqqati kitobda boʻlayotgan voqealarga nisbatan soʻna boshlaganini sezish mumkin. Shuning uchun, bolaning qiziqishiga koʻra vaqt miqdori asta-sekin oshirib boriladi. Bundan tashqari, bolalar 4-5 yoshlarda faol oʻyinlarga qiziqib ketishlari mumkin. Shunday paytda bolaning kitob oʻqishidagi rejalilik, muntazamlilik, tartibning buzilmasligi alohida nazoratda boʻlishi zarur.

“Qush uyasida ko‘rganini qiladi” – deganlaridek bolada kitobga mehr uyg‘otish uchun eng avvalo ota-ona doimiy mutolaa qilsa, xonadonda kitobga nisbatan alohida munosabat mavjud bo‘lsa, bolalar kitob o‘qishga rag‘batlantirilsa, mutolaa madaniyati uchun muhit va shart-sharoit yaratilgan bo‘lsa, bunday ruh bolalarga ham albatta singadi.

11.3. Nogironlarga kutubxona–axborot xizmati ko‘rsatishning o‘ziga xos xususiyatlari.

Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasida har bir inson irqi, terisining rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yohud boshqa e’tiqodlaridan, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy yohud tabaqaviy yoki boshqa sharoitidan qat’i nazar barcha huquqlar va erkinlarga ega bo‘lishlari shart ekanligi belgilab qo‘yilgan. Bu nogironlarga ham bevosita to‘la taalluqlidir.

Shu bilan birga nogironlik buzilgan salomatlik hamda munosabat va muhit to‘siqlari o‘zaro munosabatlari natijasi bo‘lib, bu nogironlarning jamiyat hayotida boshqalar bilan teng va samarali ishtirok etishiga halaqit beradi. Xalqaro jamiyat buni hisobga olgan holda, nogironlarning o‘ziga xos xususiyatlarini hurmat qilish va buni insoniy turfa xillikning tarkibi va insoniyatning uzviy ajralmas bir qismi sifatida qabul qilish, ularning jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotida to‘laqonli ishtirok etishlarini ta’minlashning huquqiy asoslarini yaratgan.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi tomonidan 2006-yil 13-dekabdagi 61/106-rezolyusiyasi bilan qabul qilingan **“Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya”** hamda **“Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyaga Fakultativ protokol”** ana shu xalqaro hujjatlarning asosiylari hisoblanadi. Ularda nogironlarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatlarini rag‘batlantirish va himoya qilish, shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarini va bu huquqlardan boshqalar bilan teng ravishda foydalanish imkoniyatlarini kafolatlash tamoyillari belgilab qo‘yilgan.

Ushbu Konvesiyada nogironlirning huquqlari va asosiy erkinliklari, xususan ularning yashash, fuqarolik, huquqiy himoyalanish, ta’lim olish, salomatliklarini saqlash, boshqalar bilan teng ravishda mehnat qilish, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotda, bo‘sh vaqtni o‘tkazish, dam olish va sport bilan shug‘ullanishda ishtirok etish, o‘zlari va oilasi uchun yetarlicha turmush sharoitiga ega bo‘lish va ijtimoiy yordam huquqlari e’tirof etilgan va ularni amalga oshirishning huquqiy kafolatlari belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi hukumati Birlashgan Millatlar Tashkilotining **“Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya”**sini imzolagan.

Nogironlarning ta’lim olishi, ularni kasbga tayyorlash va malakasini oshirib ishlab chiqarishdan ajralgan v ajralmagan shakllarda, eksternat, masofadan o‘qitish, davlat ta’lim standartlari asosida oiladagi ta’lim va mustaqil ta’lim shakllarida amalga oshiriladi.

Nogironlik bo‘yicha jahon miqyosidagi ma’lumotlarga ko‘ra, dunyoda bir milliarddan ortiq turli nogironligi bor odamlar yashaydi. Bu esa yer yuzi umumiy aholisining 15 foizini tashkil qilgan bo‘lib, “dunyoning eng yirik ozchiligi”dir. 2006 yilda BMT Bosh Assambleyasi BMT Nogironlar Huquqlarini himoya qilish Konvensiyasini (UNCPRD) va nogironligi bor odamlarning huquqlarini va sha’nini himoya qilishga qaratilgan Fakultativ protokolini qabul qildi. U 2008 yilda kuchga kirdi.

Nogironlik – bu tadrijiy rivojlanib boruvchi tushuncha, nogironlik buzilgan salomatlik hamda munosabat va muhit to‘siqlari o‘zaro munosabatlari natijasi bo‘lib, bu ularning jamiyat hayotida boshqalar bilan teng va samarali ishtirok etishiga halaqit berishini tan oladi.

Nogironlarning axborotdan foydalanish imkoniyatini ta’minlaydigan yordam va qo‘llab-quvvatlashning boshqa zarur shakllarini rivojlantirish, nogironlarning yangi axborot-kommunikasiya texnologiyalari va tizimlaridan, shu jumladan internetdan foydalanish imkoniyatlarini rag‘batlantirish, avvalboshdan foydalanish

imkoniyati bo‘lgan, kam harajat talab etadigan axborot-kommunikasiya texnologiyalari va tizimlarini loyihalash, ishlab chiqish va tarqatishni rag‘batlantirish lozim.

Ishtirok etuvchi davlatlar nogironlarning ta’lim olish huquqini e’tirof etadi. Ishtirok etuvchi davlatlar ushbu huquqni kamsitmasdan va imkoniyatlar tengligi asosida amalga oshirish maqsadlarida barcha darajalarda inklyuziv ta’limni va butun umri davomida o‘qitilishlarini ta’minlaydi:

- Brayl alifbosi, muqobil shriftlarni, muomalani kuchaytiradigan va muqobil usullar, vositadar va shakllarni, shuningdek, mo‘ljal olish va harakatanish ko‘nikmalarini egallashlariga hamda tengdoshlari tomonidan qo‘llab-quvvatlanishga va murabbiylikka ko‘maklashadi.
- Ishorali tilni egallash va karlarning o‘ziga xos tilini egallashga yordam beradi.
- Shaxslarni o‘qitish, jumladan, ko‘zi ojizlar, karlar yoki ko‘zi ojiz va kar bo‘lgan bolalarni o‘qitish ularga eng maqbul bo‘lgan til va usullarda, muomala vositalarida hamda bilimlarni egallash va ijtimoiy rivojlnishga iloji boricha eng ko‘p yordam beradigan vaziyatda amalga oshirilishini ta’minlaydi.

Jismoniy va aqliy yetishmovchiliklar natijasida faoliyat ko‘rsatish imkoniyati cheklangan, ijtimoiy yordam va himoyaga muhtoj bo‘lgan shaxs nogiron deb hisoblanadi.

Faoliyat ko‘rsatish imkoniyatining cheklanganligi o‘z-o‘ziga xizmat qilish, harakat qilish, mo‘ljal olish, muomala, o‘z xulqi ustidan nazorat hamda mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish qobiliyati yoki imkoniyatining butunlay yoki qisman yo‘qotilganligida ifodalanadi.

Imkoniyatning cheklanganligi:

– Harakat funksiyalarining buzilishi;
– Qon aylanishi, nafas olish, ovqat hazm qilish, modda va enetgiya almashinuvi, ichki sekresiya funksiyalarining buzilishi;
– Sensorli (ko‘rish, eshitish, hid bilish);

– Psixik (qabul qilish, diqqat, xotira, hissiyot, idora) holatlarda namoyon boʻladi.

Dunyoning rivojlangan davlatlarida nogironlarning kutubxona – axborot xizmatidan foydalanishga boʻlgan ehtiyojlarni qondirish muammosiga katta ahamiyat beriladi.

Kutubxona – axborot xizmatidan foydalanish orqali doimiy mutolaa bilan shugʻullanish nogironga oʻz hayotining qadrini va ijtimoiy ahamiyatini qaytadan koʻrib chiqish, oʻziga shaxs sifatida ijobiy qarashni shakllantirish, oʻzining mumkin boʻlgan yutuqlarining kelajagini koʻrish, kelajakka moʻljallangan rejalar qurishiga yordam beradi.

Kutubxona – axborot xizmatining turlaridan qat'iy nazar ular quyidagi tamoyillarga asoslanishi lozim:

– Gumanizm (insonning oʻz bahosini tan olishi, rahm-shafqat, hamdardlik, hayotiy faoliyati cheklangan kishilarni qoʻllab-quvvatlash);
– Rivojlantirish (nogironlarni cheklovlarga (ularni yengib oʻtish oʻzida rivojlanturuvchi ma'noga ega boʻlganda)qaramay individual mutolaaga yoʻnaltirish);
– Da'vat qilinganlik (hayot faoliyatining bir qismi sifatidagi mutolaaga faol kirishishga yordamlashish);
– Moslashganlik (soʻz bu yerda, insonning cheklanganligi xususiyatlariga maksimal darajada moslashgan, ikkinchi tomondan, nogironlarni ijtimoiy tomondan mahsulli holatga moslashtiruvchi axborot-kommunikativ tizimni yaratish toʻgʻrisida bormoqda).

Nogironlarga kutubxona – axborot xizmati koʻrsatishda quyidagi funksiyalar asosiy oʻringa chiqadi:

– Kompensatorli (rivojlanishning, kasbiy tayyorgarlikning qoʻldan chiqarilgan yoki amalga oshirilmagan imkoniyatlarini, hayot faoliyati cheklanganligi natijasida paydo boʻlgan noqulayliklarning oʻrnini toʻldiradigan);

– Korreksion (mutolaa ehtiyojlari, nogironlarning o‘z real imkoniyatlari doirasidagi axborotlarga bo‘lgan so‘rovlariga nisbatan kutubxona – axborot xizmati ko‘rsatish mazmuni va sharoitlariga moslashtirish va o‘zgartirishlar kiritishga imkon beruvchi);
– Qo‘llab-quvvatlovchi (yo‘naltiruvchi, maslahatlar orqali ijtimoiy-psixologik yordam berish).

Nogironlarga kutubxona – axborot xizmati ko‘rsatishda ularga nisbatan ochiqlik va imkoniyatlariga moslik tamoyilining qo‘llanilishi jihozlarni, fiziologik va psixologik maqsadga muvofiq mazmun hajmini, tezlikni, vaqt rejimini, mutolaaga tavsiya etilgan manbani tegishli ravishda tanlashni talab qiladi.

Nogironlar uchun kutubxona – axborot xizmati ko‘rsatishda quyidagi holatlar faoliyatni yengillashtiruvchi ta’sir ko‘rsatishi mumkin:

– Mutolaa jarayonini axborotli qo‘llab-quvvatlash uchun telekomunikasiyalar va ma’lumotlar bazasi imkoniyatlaridan keng foydalanish;
– Internet tizimidan foydalanish orqali ilmiy, o‘quv-metodik axborotlar to‘plamiga ochiqlikni ta’minlash;
– Tayanch-harakat apparatida muammolari bo‘lgan, zamonaviy kutubxona-axborot muassasasidan, uzoq bo‘lgan joylarda yashaydigan nogironlar uchun alohida dolzarb bo‘lgan onlayn tizimini rivojlantirish;
– Maxsus tayyorlangan joylarni foydalanuvchi nogironlarning psixik holatlarini hisobga olgan holda jihozlash (zaif eshituvchilar uchun magnitofonlardan, tayanch-harakat apparatida muammolari bo‘lgan shaxslar uchun maxsus reabilitasiya texnik vositalaridan foydalanish).

Faol mutolaa imkoniyatlarini kuchaytirish uchun quyidagilar hisobga olinishi lozim:

– Keys-texnologiyalari, bunda nogiron foydalanuvchi o‘zi o‘rganayotgan yo‘nalish bo‘yicha o‘quv qo‘llanmasi uning disketi, vedeokassetadagi yoki multimedia dasturi ko‘rinishidagi elektron nusxasi hamda tipik

muammolar va ularning yechimlarining variantlari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ladi;

– Tarmoqli texnologiyalar (internet, hududiy, lokal telekomunikasion tarmoqlar);
– Televizion texnologiyalar (yo‘ldoshli televideniye yordamida amalga oshiriladi);
– O‘quv filmlari.

Kutubxona – axborot xizmati ko‘rsatish amaliyotida nogironlarga axborot qidirish va mutolaa jarayonida uchraydigan qiyinchiliklarni yengishda zaruriy yordam ko‘rsatish kutubxonachining asosiy vazifasi bo‘lib hisoblanadi.

Nogironlarning kutubxona – axborot xizmatidan foydalanishi va mutolaaga bo‘lgan motivasiyasini oshirish uchun misollar tariqasida bugungi kunda sezilarli yutuqlarni qo‘lga kiritgan nogironlarning muvaffaqiyatlaridan misol tariqasida foydalanish mumkin.

Ma’lumki, nogironlar o‘zlarining hayot faoliyatida cheklovlari bo‘lmagan foydalanuvchilar muhitida to‘laqonli ishtirokchilar va kommunikativ aloqalarning tashabbuskorlari sifatida o‘zlarini yetarli baholay olmaydilar.

Bunda kutubxonachining asosiy vazifasi – shaxsning erkinlikka chiqishiga muloqotdan, talqin qilishdan va turli nuqtai nazarlarning tahlilidan foydalanish yo‘li bilan yordam beruvchi sharoitlarni yaratishdir.

Foydalanuvchilarni imitasion modellashtirish, guruhli refleksiya, hamkorlikda ijodiy mahsulot yaratish kabi turli guruhli faoliyat shakllariga jalb qilish muayyan samara beradi.

Bunday sharoitda nogironga odamovilik va ba’zi psixologik to‘siqlarni yengish oson bo‘lib, ularning jamiyatga ijtimoiylashuv jarayonini yanada yengillashtirishga xizmat qiladi.

Muloqot va mutolaa jarayoni nogironlarni o‘rab turgan ijtimoiy soha doirasini kengaytirish, ularni ijtimoiy hamkorlik tizimiga kiritishga yordam beradi.

Nogironlarga kutubxona – axborot xizmati ko‘rsatishning usullari, shakllari, yaratilgan tashkiliy sharoitlar aniq insonga, uning psixofiziologik imkoniyatlariga,

ijtimoiy tajribaning butun majmuini hisobga olgan holda maksimal darajada yaqinlashtirishi lozim.

Nogironlarga kutubxona – axborot xizmati koʻrsatish ularni qiziqtiradigan muammolar doirasi, ular bilan ishlaydigan kutubxonachiga yuqori kasbiy darajaning va oʻzining lavozim vazifalari doirasidan chiqish va imkoniyatlari cheklangan shaxslarning muloqoti va mutolaasi muammolarini keng insonparvarlik asosida alohida koʻrib chiqish imkonini beradigan maʼnaviy – axloqiy sifatlarga ega boʻlishini koʻzda tutadi. Nogironlar bilan ishlashdan tashqari kutubxonachi ularning qarindoshlariga nisbatan ham maʼrifiy missiyani bajarishga majbur boʻladi, chunki ularning yordamisiz muloqot va mutolaa jarayonini tashkil qilish juda mushkul boʻlishi mumkin.

Nogironlar bilan doimiy muloqot olib borish katta jasorat, rahm-shafqat, ularning hayotiy va maʼnaviy muammolari mazmuniga kirish, har doim ham ijobiy boʻlmaydigan reaksiyalar va xulqlari sabablarini tushunish iqtidoriga ega boʻlishni talab qiladi. Eng muhimi – kutubxonachining oʻz vasiyligi ostidagilarga hurmati, mehribonligi, ularning hayotiy va ijodiy salohiyatlariga ishonch, faoliyatiga nisbatan fidoiyligidir.

11.4. Koʻzi ojiz foydalanuvchilarga kutubxona–axborot xizmati koʻrsatish.

Koʻzi ojiz kishilarga insonparvarlik nuqtai nazaridan yondashish masalasi XIX asrdayoq koʻtarilib chiqilgan. XX asrning 20-yillariga kelib esa ularning ijtimoiy ahvoli bilan jiddiy qiziqish boshlangan. 1925-1926 yillarda Koʻzi ojizlar jamiyati tuzilganidan soʻng, 1926 yilda Toshkent va Samarqand shaharlarida, 1928 yilda Buxoroda ushbu jamiyatning boshlangʻich tashkilotlari faoliyat yurita boshladi.

1929 yilda Toshkent shahrida mahalliy mutaxassis V.F.Detushev tomonidan Brayl yozuvining oʻzbek alifbosiga oʻtkazilgan shakli ishlab chiqildi va amaliyotga qoʻllanila boshladi. Brayl yozuvi aslida 1825 yilda fransuz pedagogi Lui Brayl

tomonidan ixtiro qilingan bo‘lib, bo‘rtma nuqtali shriftlardan iborat va hozirgi paytda ham dunyo bo‘yicha ko‘zi ojizlar alifbosi sifatida qo‘llanilib kelinmoqda.

1945 yildan esa O‘zbekiston ko‘zi ojizlar jamiyati qoshida maxsus bosmaxona tashkil etilib, muntazam ravishda Brayl alifbosida yozilgan badiiy va boshqa turdagi kitoblar nashr etilishi yo‘lga qo‘yildi. Ko‘zi ojizlar ehtiyojlarini hisobga olgan holda 1957 yildan O‘zbekiston Ko‘zi ojizlar jamiyatining “Bir safda” jurnali chop etila boshlandi. Bosmaxonada adabiyotlarni magnit tasmalariga tushirish ishlari ham yo‘lga qo‘yildi.

Nashr ishlarini tezkor rivojlantirish o‘z navbatida mamlakatning turli hududlarida maxsus kutubxonalarning ko‘payishiga olib keldi. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimida 81ta ko‘zi ojizlar kutubxonasi mavjud bo‘lib, ulardan 2tasi Respublika, 12tasi viloyat miqyosida faoliyat yuritmoqda. Tumanlarda esa 67ta kutubxona ko‘zi ojilarga xizmat ko‘rsatmoqda.

Bugungi kunda Respublika markaziy ko‘zi ojizlar kutubxonasi ko‘rish qobiliyati cheklangan fuqarolarga kutubxona – axborot xizmati ko‘rsatish bo‘yicha metodik va muvofiqlashtiruvchi markaz bo‘lib hisoblanadi. Respublika ko‘zi ojizlar kutubxonasi ko‘rish imkoniyati cheklangan foydalanuvchilarga, ko‘zi ojizlar jamiyati tizimidagi tashkiliy, muassasa va korxonalarda xizmat qiluvchilarga, ko‘z kasalliklari bo‘yicha mutaxassislar, ko‘zi ojiz bolalar, maktab o‘quvchilari va o‘qituvchilariga xizmat ko‘rsatadi.

Respublika ko‘zi ojizlar kutubxonasining fondi Brayl alifbosidagi nashrlar, magnit tasmalariga yozilgan “gapiruvchi” kitoblar va kassetalar, gramilastinkalar, elektron disk yozuvlari va Brayl alifbosidagi vaqtli bosma nashrlardan iborat. Keyingi yillarda ko‘zi ojizlar kutubxonalarining rivojlanishi uchun bir qancha imkoniyatlar yaratilmoqda. Jumladan, 2006 yilda “San’at gulshani” madaniyat saroyiga ovoz yozish studiyasi tashkil etilishi natijasida “gapiruvchi” kitoblar nashr etish ishi yo‘lga qo‘yildi.

2013 yildan boshlab esa “San’at gulshani” madaniyat saroyi mas’uliyati cheklangan jamiyatga aylantirilib, endilikda bu jamiyat kutubxonalarning talab va takliflariga ko‘ra ko‘zi ojizlar uchun “gapiruvchi” kitoblar chiqarmoqda.

2014 yilda Respublika ko‘zi ojizlar kutubxonasida “So‘zlar sehri” studiyasi ochildi. Bugungi kunda studiya kitob yozish bilan birga kutubxona fondida mavjud bo‘lgan gramplastinkalar, o‘ramlar, kassetalarni qayta ishlab, raqamlashtirib, disk shaklida foydalanuvchiga taqdim etmoqda.

Axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan bugungi kunda ko‘zi ojizlarning kompyuterda ishlay olishlari uchun muhim qulayliklar yaratilgan. Jumladan, ularning imkoniyatlari cheklanganligini hisobga olgan holda maxsus kompyuter qismlari – klaviatura, printer, skanerlar va kompyuterning turli dasturlarida ishlay olish imkonini beradigan ovozli dasturlar, ko‘rish qobiliyati past kishilarga mo‘ljallangan Human Were, Smart sens va My Peader maxsus kompyuter dasturlari mavjud.

Ushbu qulayliklarga ega bo‘lgan kompyuterlar bilan ko‘zi ojiz foydalanuvchilar Brayl yozuvidagi matnlarni lotin yozuvi asosidagi o‘zbek tilida yoki aksincha chop qilish (printerdan chiqarish), kompyuterda mustaqil Microsoft Word dasturida ishlash – matn kiritish, kiritilgan matnni ovozli dastur yordamida qayta tekshirish, saqlash, nusxa ko‘chirish va umuman, barcha Word dasturida amalga oshirish mumkin bo‘lgan buyruqlarni bajarishlari, kompyuterning boshqa dasturlarida ham erkin ishlay olishlari, matn, rasm, dastur elementlarini o‘zlari ko‘ra oladigan darajadagi hajmlarda o‘qishlari va ular bilan ishlashlari mumkin bo‘ladi. Shu bilan birga ta’kidlash zarurki, bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda ko‘zi ojiz va ko‘rish darajasi past kishilar uchun texnik vositalardan mustaqil foydalana olish imkonini beradigan ovozli dasturlar, matn va mayda detallar, xususan rasmlarni kattalashtirib ko‘rsatadigan, o‘zi bilan birga olib yurishga mo‘ljallangan ixcham qurilmalarning ikkinchi, uchinchi avlodlari ham joriy qilingan.

Bunday imkoniyatlarni mamlakatimizda ham bosqichma-bosqich yaratish masalasi hal etilishi zarur bo‘lgan muammolardan biri bo‘lib turibdi. Shuningdek,

koʻzi ojizlar uchun matnni ovoz chiqarib oʻquvchi kompyuter dasturlari, Brayl shriftidagi matnni lotin alifbosidagi oʻzbek tiliga oʻgiruvchi skaner dasturlari, oʻzbek tilidagi matnni Brayl yozuvida chop qiluvchi printerlar dasturlari ishlab chiqib, kutubxona – axborot xizmati koʻrsatish tizimiga joriy qilish masalasi ham dolzarb boʻlib turibdi.

Ushbu yoʻnalishlar boʻyicha xorij tajribasini oʻrganish, koʻzi ojizlar jamiyatlari, tashkilotlari bilan hamkorlik aloqalarini kuchaytirish ham zarur masalalardan biridir. Bunday zaruriy imkoniyatlarning yaratilishi koʻzi ojiz, koʻrish darajasi past boʻlgan foydalanuvchilarning oʻzlarini erkin shaxs sifatida his etishlari, kelajakka boʻlgan ishonchlarining ortishi, amalga oshirilayotgan ijtimoiy oʻzgarishlarda faol qatnashishlariga imkon yaratadi.

11.5. Uy bekalariga kutubxona – axborot xizmati koʻrsatish.

Soʻnggi yillarda anʼanaviy ayollar funksiyalari va rollarini bajarish uchun ayollarga kutubxona – axborot xizmati koʻrsatishda maxsus koʻnikma va malaka talab qiladigan tikish, toʻqish, yumshoq oʻyinchoqlarni, bezaklarni, bezakli amaliy mahsulotlarni tayyorlash, ovqat pishirish, oila iqtisodiyoti, uy dizayniga oid maʼlumotlardan foydalanish ommalashib bormoqda. Bundan tashqari homiladorlikka moslashish, oilani rejalashtirish, maktabda oʻqiyotgan bolalariga amaliy yordam berish lozimligidan kelib chiqib, pedagogika asoslari va boshqa diniy-ilmiy bilimlarga murojaat qilish holatlari ham kuchaymoqda.

Lekin, shuni ham hisobga olish lozimki, oʻzlarini “xotin” va “ona” rolida koʻradigan ayollar, “uy bekasi” sindiromiga koʻproq chalingan boʻlib, u zaiflik va umidsizlik, tez-tez depressiyaga uchrash, oʻzini past baholashda namoyon boʻladi. Faqatgina oila tashvishlariga bagʻishlangan yillar ayollarni mustaqillik va munosib oʻrnini anglashni his qilishdan uzoqlashtiradi, oʻzining “men” ligini yoʻqotishga olib keladi.

Uy-bekalarining asosiy tashvishi uylari va oilalari boʻyicha boʻlib, hech qachon vaqtlari yetishmaydi. Ularning koʻpchiligiga oilaviy majburiyatlar muhim boʻlganligi va barcha ishlarni bajarishga ulgurish uchun ular shaxsan oʻzlariga ajratiladigan vaqtlarini ham qurbon qiladilar. Ayollar erkaklarga nisbatan koʻproq

darajada mutolaaga tayyor, ular tirishqoqlik va javobgarlik, mas'uliyat bilan o‘qishga intiladilar. Lekin ular uchun bir shartni bajarish lozimki, mutolaa jarayoni, ma'lumotlar va axborotlar bilan tanishuv jarayoni ayollar uchun qulay bo‘lgan vaqtda tashkil etilishi lozim. Bu shartga amal qilinmagan zahotiyoq ularning o‘z malakalarini oshirishga va ma'naviyatlarini yuksaltirishga bo‘lgan munosabatlari butunlay o‘zgaradi. Turli tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, ayollar dastlab holatning emosional (hissiy) tomonlarini, so‘ngra mohiyatini qabul qilishi aniqlangan. Ular hech qachon passiv tinglovchilar bo‘lishni xush ko‘rmaydilar, o‘zlarini ko‘rsatishni, o‘zlariga qaytar aloqa ehtiyojini sezadilar. Shuning uchun ham uy bekalari bilan interfaol metodlarni keng qo‘llagan holda munosabatda bo‘lish talab qilinadi.

Uy bekalariga kutubxona – axborot xizmatini ko‘rsatishda "umumiy yuk samaradorligi" metodini qo‘llash qulaydir. Uning mohiyati shundaki, ayollar yolg‘iz mutolaa qilishni unchalik yoqtirmaydilar. Birinchidan, ayollar olingan axborotni albatta kimlardir bilan bo‘lishishlari zarur, ikkinchidan, qo‘shni bilan nimanidir maslahatlashish, mutolaa bo‘yicha javobgarlikni bo‘lishish orqali o‘zlarini muhofaza qiladilar.

Kutubxona–axborot xizmatidan foydalanish jarayonida izlangan axborotning osonlik bilan topilmasligi, topilgan taqdirda ham tushunishning oson bo‘lmasligi, maqsadga erishishdagi qiyinchiliklar ularni tez siqilishga asabiylashishga, hatto kasallikka ham olib kelishi mumkin. Ayollar erkaklarga nisbatan ko‘proq o‘z-o‘zini jazolashga moyildirlar.

Kutubxonachiga ayollarning o‘z-o‘zini jazolashi va kelajakda kutubxona – axborot xizmatidan foydalanish, mutolaaga bo‘lgan ehtiyojni yo‘qotishning oldini olish uchun quyidagilar tavsiya qilinadi:

– Kutubxona – axborot xizmatini, mutolaani tashkil etish jarayonida aqlli, chaqqon, faol, ongli singari shaxsiy sifatlarga emas, balki, malaka, ko‘nikma, vazifa, operasiya, harakat, bilim, yechim kabi harakatlar bilan bog‘liq bo‘lgan so‘zlarga ko‘proq diqqat-e'tiborni qaratish zarur;

– Xatolarni shaxsiy tarzda koʻrsatish, masalan, “Siz bu yerda xato qilyapsiz” emas, “Bu yerda xato ketibdi” shaklida ishlatish;
– Natijaga erishish qiyin boʻlgan hollarda albatta hammasini toʻgʻrilash mumkin degan holda, boshqa yutuqlarini maqtash, koʻnglini koʻtarish;
– Yutuqlar va xatolarda hech qachon ayollarni bir-birlari bilan taqqoslamaslik, bugungi natijalarni kechagisi bilan solishtirgan holda bugungi yutuq uchun ragʻbatlantiruvchi munosabat bildirish.

Uy bekalarini qiziqtirgan axborot bilan taʼminlash boʻyicha faoliyat rejasini ishlab chiqishda esda tutish lozimki, ayollar oʻzlarining shaxsiy vaqtlaridan, hatto bu vaqt ularning shaxsiy maʼnaviy rivojlanishlari uchun sarflansa ham juda ogʻirsinish bilan ajraladilar. Lekin ayollar uchun bunday manbalarni oʻrganishdan keladigan foydani toʻliq tasavvur qilishiga erishilsa ularning mutolaaga boʻlgan ehtiyojini ancha osonlik bilan shakllantirishi mumkin.

Kutubxonada uy bekalari bilan ishlash tizimida kutubxonachilarning roli koʻp jihatdan foydalanuvchilar – uy bekalari xulqini shakllantirishga yordam beradi. Oʻz jinslari vakillari bilan ishlaydigan ayol kutubxonachilar ular uchun oʻzlarining tashqi koʻrinishlari, fikrlash, harakat, muomala maqomigacha namuna boʻlishlari mumkin.

Erkak kutubxonachi esa ayollar auditoriyasi sharoitida ragʻbatlantiruvchi rolni oʻynaydi va gender hamkorligining shakllanishiga ijobiy taʼsir koʻrsatadi.

Ayollardagi oʻziga xoslik yuqori hissiyotlilik, sezgirlik, shaxslararo munosabatlarning yuqori ahamiyatliligi, “ayol mantiqi” va boshqa bir qator maxsus ayollik xususiyatlari bilan ham tavsiflanadi.

Kutubxona – axborot xizmati va mutolaa jarayonini tashkil etishda ushbu oʻziga xoslik va xususiyatlarni hisobga olish kutubxonachi faoliyatining samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, har bir mayda detallarga eʼtibor qaratish, motivasiyalashtirish, maqsadlarni va foydalanuvchidan kutilayotgan natijalarni mufassil tushuntirish, ayollar guruhining optimal tarkibini toʻgʻri shakllantirish,

oʻrnatilgan vaqtga rioya qilish ham samaradorlikni oshiruvchi omillar boʻlib xizmat qiladi.

11.6. Vaqtincha ishsizlarga kutubxona – axborot xizmati koʻrsatish.

Band boʻlmagan aholi (ishsizlar) – ishga joylashishga muhtoj boʻlgan, qonunchilik doirasida ishsiz sifatida rasmiy roʻyhatdan oʻtgan shaxslar, mehnatga layoqatli yoshda boʻlsada vaqtinchalik band boʻlmagan, haq toʻlanadigan ish yoki mashgʻulotga ega boʻlmagan, mustaqil ish qidirayotganlar yoki mehnat qilishni istamaydiganlar ham boʻlishi mumkin.

Ishsizlikning sababi quyidagicha guruhlarga ajratib koʻrsatiladi:

1. Shtatlarning qisqarishi, korxona yoki tashkilotning tugatilishi;
2. Oʻz xohishiga koʻra ishdan ozod qilinishi;
3. Koʻp vaqt ishlamaganligi;
4. Ta’lim muassasasini tugatgan, lekin ishga joylashmagan;
5. Kasbi yoʻq.

Birinchi guruhga mansub ishsizlar ichida bandlik xizmatini boqimandalik bilan qabul qiluvchi kishilar koʻpchilikni tashkil etadi, ikkinchi guruhdagilar bandlik xizmatlari insonning unda mavjud boʻlgan kasb orqali ishga joylashtirishga majbur degan tasavvurda boʻlib, bunda uning kasbiy mehnatiga boʻlgan bozorning talabi odatda e’tiborga olinmaydi.

Bunday ishsizlarda passivlik, sarosimalilik, frustrasiyalanganlik (lotincha frustration – omadsizlik, aldov, natijasiz kutish), toʻsatdan oʻgargan ijtimoiy-iqtisodiy reallikka moslashish qobiliyatining yoʻqligi kuzatiladi.

Uchinchi guruh vakillarining talablari har doim ham mehnat bozori talablari va bandlik xizmatining imkoniyatlariga mos kelavermaydi. Toʻrtinchi guruh ishsizlar bandlik xizmatining maqsad va vaifalari, imkoniyatlarini tushunadilar, har qanday ish yoki kasbga qayta oʻqishga va moslashishga tayyordirlar. Beshinchi guruhga mansub ishsizlar bandlik xizmatiga unchalik ishonmaydilar, oʻzlarining ijtimoiy va shaxsiy faolligiga, psixologik holatlariga tayanadilar.

Ishsizlarning hamma guruhlariga xos bo‘lgan sifatlar umumlashtirilsa, ularda ijtimoiy dadillik darajasining yuqori emasligi, itoatkorlik, umidsizlik va ehtiyotkorlik, shubhalanish, ishonmaslik va tushkunlik, qo‘rquv va xavotirlikning yuqori darajasi, ijtimoiy xulq meyorlarini bajarishda majburiyatlilik xususiyatlari ustunlik qiladi.

Vaqtincha ishsizlarga kutubxona – axborot xizmati ko‘rsatishda quyidagi mezonlarni hisobga olish zarur:

– Dastlabki bosqichlarda ishsiz o‘zini qo‘lga olishga, ish qidirish usullarini yangilashga harakat qilsa, keyingi bosqichlarda u o‘zining harakatlari va hissiyotlari ustidan nazoratni yo‘qota boshlaydi, agressivligi kuchayadi, hayotga bo‘lgan qiziqishini yo‘qotadi va depressiv holatga tushadi;

– Vaqtincha ishsiz o‘zining bo‘sh vaqtini tashkil etishda qiyinchilik tug‘ilsa, uni mazmun bilan to‘ldira olmasa turli buzilishlarga tez duchor bo‘lishi mumkin;

– Ishsizlik natijasida ishchan aloqalar va noformal munosabatlar ham qisqarishi muqarrardir. Shuning uchun ham kutubxonachining eng muhim vazifalaridan biri vaqtincha ishsiz bo‘lgan foydalanuvchilarda o‘ziga va o‘z imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchni tiklashga qaratilgan xayrixoh muhitni yarata bilishdir. Barcha bilan javob reaksiyalarining xarakteridan qat’iy nazar bir maromda va hamkorlikda muomala qilish psixologik bosimni yengillashtirishga imkon beradi.

Foydalanuvchi ishsiz bilan tanishish jarayonining o‘zida u yoki bu axborot bilan ta’minlash, ma’lumot yoki nashr mahsulotini tavsiya qilish, mehnat bozorida mavjud bo‘lgan vakansiyalar bo‘yicha, kasbiy tayyorgarlik bo‘yicha adabiyotlar, manbalarni tavsiya etishdan iborat bo‘lishi mumkin.

O‘z navbatida, tavsiya etilgan bosma nashr yoki elektron manba qo‘shimcha stressni paydo qilmasligi, insonning ichki imkoniyatlarini faollashtiruvchi muvaffaqiyat muhitini yaratishi juda muhimdir. Vaqtincha ishsiz foydalanuvchilarga tavsiya etilgan manbalar o‘ta yengil ham, o‘ta qiyin ham bo‘lmasligi lozim, aks holda u o‘zining samaradorlik ahamiyatini yo‘qotadi.

Ishsizlarga kutubxon – axborot xizmati ko‘rsatadigan kutubxonachi ushbu jarayonni psixologik – optimistik holatga aylantira borib, biblioterapiya usulidan ham foydalanishi mumkin. Kutubxona – axborot xizmatining faol shakllari va metodlaridan foydalanish nafaqat bilimlarga bo‘lgan qiziqishni oshirishga yordam beradi, balki kutubxonachidan yuqori professionallikni talab qiladi.

XII. BOB. Foydalanuvchilarga kutubxona–axborot xizmati ko‘rsatishning asosiy ma’lumot manbalari.

12.1. Foydalanuvchilarni bibliografik manbalar yordamida ma’lumotlar bilan ta’minlash.

Zamonaviy axborot texnologiyalari davrida ham bibliografik manbalar o‘zining muhim ahamiyatga ega bo‘lgan o‘rnini saqlab turibdi. Bibliografik manbalar kitoblar, jurnallar, gazetalar, turli axborot vositalari (media), kutubxonalar va nashriyot ishi to‘g‘risidagi axborotni tashkillashtirilgan va izchil tarzda taqdim etishning eng maqbul usulini taklif etadi. Foydalanuvchilar bunday ma’lumotlarni Internet tarmog‘i orqali qism-qism ko‘rinishida topish imkoniyatiga ega bo‘lsalarda, bibliografik ko‘rsatgich ko‘plab manbalardan olingan ma’lumotlarni bir-biriga taqqoslash asosida qiyosiy xulosa chiqarish imkonini beradi.

Savollarning ko‘pchiligi foydalanuvchilar ilgari ko‘zdan kechirgan manbalardan olgan ko‘chirmalarni tasdiqlash yoki o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha yangi manba bor yoki yo‘qligini tekshirish zarurati tufayli kelib chiqadi. Bibliografik manbalar, shuningdek, o‘tgan asrlarda chop etilgan kitoblar yoki jurnallarning nusxasini topish, maxsus kolleksiyali kutubxonalar fondidagi adabiyotlarni aniqlashga yordam beradi.

Bibliografik ko‘rsatgichlar, muallif, sarlavha, mavzu bo‘yicha tartibga solinishi mumkin bo‘lgan kitoblar va boshqa materiallar ro‘yxatidir. Ushbu ro‘yxatda har bir adabiyotning muallifi, nomi, tahriri, chop etilish joyi, nashriyot nomi, nashr sanasi, necha betdan iborat ekanligi ko‘rsatib o‘tiladi. Bibliografik ko‘rsatkichlar o‘z miqyosiga ko‘ra keng qamrovli, barcha zaruriy axborotlarni qamrab oluvchi yoki tanlab olinadigan ko‘rinishda bo‘lishi kerak. Ayrim bibliografik ko‘rsatgichlar zamonaviy axborotni o‘z ichiga olib, ular muntazam ravishda yangilanib boriladi. Boshqalari esa, endilikda nashr qilinmaydigan adabiyotlar ro‘yxatini jamlaganligi uchun “retrospektiv bibliografiya” deb nomlanadi.

Bibliografiya tarixi juda uzoq o‘tmishga ega bo‘lib, chop etish uskunalari ixtiro qilingunga qadar ham insonlar yozma materiallarning ro‘yxatini tuzib borganlar. Eramizdan avvalgi XVII asrda Ossuriyadagi Nineviya shahri Sennacherib kutubxonasida loydan yasalgan taxtalarga yozilgan ma’lumotlar ro‘yxatlari yuritilgan. Bugungi kunda aniqlik, ishonchlilik, qamrov va uslub, bibliografik tarkib, dolzarblik bibliografik manbalarni baholashning asosiy mezonlaridir.

– Aniqlik bibliografik manbalar uchun eng asosiy, muhim meʼzon bo‘lib, bibliografik ko‘rsatgichlar, kitoblar va boshqa materiallar haqidagi ma’lumotlarni tasdiqlash, ularning joylashuvini aniqlash maqsadida foydalanilganligi bois alohida ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham bibliografik qaydning har bir qismi to‘g‘ri va aniq bo‘lishi shart.

– Ishonchlilik. Bibliografik ko‘rsatgich tuzuvchisi va uni chop etuvchi nashriyotga nisbatan qat’iy ishonch kutubxonachi va foydalanuvchiga bibliografik manbadan hech qanday shubhasiz foydalanish imkonini beradi.

– Qamrov va uslub. Bibliografik ko‘rsatgichning kirish qismida uning qamrovi va uslubining tavsifi beriladi.

Bibliografiya tuzuvchisi unga kiritilgan har bir asar bilan tanishib chiqqanligini bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxsan tanishilmagan asarning ro‘yxatga kiritilishi xatolikka yo‘l qo‘yilishi ehtimolini kuchaytiradi.

– Bibliografik tarkibni o‘rganib chiqish undagi axborot manbalarini aniqlash va topish oson yoki qiyinligini oldindan bilishga imkon yaratadi.

– Dolzarblik. Bibliografik ko‘rsatgich o‘zi qamrab olgan materiallar va manbalar doirasida dolzarb bo‘lishi zarur.

Ana shundagini bibliografik ko‘rsatgichga foydalanuvchilarni ma’lumot bilan ta’minlashning asosiy manbalaridan biri sifatida tayanish mumkin.

12.2. Foydalanuvchilarni ensiklopediyalar vositasida ma’lumot bilan ta’minlash.

Ensiklopediyalar internet paydo bo‘lgunga qadar inson faoliyatining hamma jihatlarini qamrab olgan asosiy ma’lumot manbai bo‘lib kelgan. Bugungi kunda ham ensiklopediyalar har qanday kutubxonaning axborot negizini tashkil etadi,negaki har qanday savolga eng tez javobni aynan ensiklopediyadan topish mumkin bo‘lganligi uchun internet tarmog‘ining ko‘lami kengayib borayotganligiga qaramasdan ulardan foydalanish imkoniyatlari sezilarli darajada oshib bormoqda. “Ensiklopediya” so‘zi yunonchadan kirib kelgan bo‘lib “har tomonlama ta’lim” ma’nosini anglatadi. Ensiklopediyalarning inson bilim darajasini oshirishdagi ahamiyati Aristotel davridan buyon o‘zgarmagan bo‘lsa-da, uning turlari bugungi kunga kelib juda xilma-xildir.

Dastlabki ensiklopediyalar qadimgi mutafakkirlarning o‘zlari tomonidan shaxsiy foydalanish maqsadida yaratilgan. Zamonaviy ko‘rinishdagi ensiklopediyalarning ilk namunasi XVIII asrda yaratilgan bo‘lib, unda turli mutaxassislar tomonidan yozilgan maqolalar alfavit tartibida berilganligidan tashqari mualliflarning biografiyalari bilan to‘ldirilgan. O‘tgan XX asrda ensiklopediyalar odatda jiddiy ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanayotgan mutaxassislarga mo‘ljallanib nashr etilgan bo‘lsa, bugungi XXI asrda boshlang‘ich sinflar, o‘rta sinflar, o‘smirlar uchun, katta yoshdagilarning barcha guruhlari uchun mo‘ljallangan ensiklopediyalar mavjuddir.

Shuningdek, avval keng qamrovli, umumlashtirilgan ensiklopediyalar nashr etilgan bo‘lsa, hozirgi paytda ma’lum yo‘nalishdagi mavzularni chuqur va batafsil yoritishga qaratilgan ixtisoslashgan ensiklopediyalarni nashr etishga ko‘proq e’tibor berilmoqda.

Asrimizning dastlabki o‘n yilliklarida ensiklopediyalarning shakllari juda o‘zgarib ketdi. Disketlar, CD va DVD lar ortda qolib, endilikda ensiklopediyalar foydalanish mumkin bo‘lgan turli shakllarda va onlayn ko‘rinishida mavjuddir.

Ensiklopediyalarda mavzular ko‘lami imkon qadar kengroq qamrab olishga harakat qilinsada, har bir mavzuning mazmunini talab darajasida chuqur

yoritishning koʻpincha imkoni boʻlmaydi. Shuning uchun kengroq va chuqurroq yoritish uchun turli bibliografik koʻrsatgichlar va maʼlumotnomalardan foydalanishlariga toʻgʻri keladi. Mavzuga aloqador boshqa manbalar roʻyxati bugungi kunda har bir ensiklopediyada mavjud boʻlib, bu orqali foydalanuvchilar oʻzlarini qiziqtirgan mazular boʻyicha ixtisoslashgan qoʻshimcha adabiyotlar va manbalarni qayerdan topish mumkinligini bilib oladilar. Ensiklopediyalar mazmunidan tashqari qaysi davrda chop etilganligi bilan ham ahamiyatlidir. Bu foydalanuvchiga inson tafakkuri rivojlanib borishi bosqichlarini oʻrganishga imkon berishidan tashqari, oʻsha davrda u yoki bu tushuncha yoki hodisaga nisbatan munosabatni aniqlashga ham yordam beradi. Lekin, taʼkidlash kerakki, ham bosma, ham onlayn koʻrinishidagi ensiklopediyalar kompyuter texnologiyalari kabi tez rivojlanib borayotgan sohalardagi barcha yangiliklarni toʻliq aks ettira olmaydi. Shunga qaramasdan, qulaylik va mavzular koʻlami ensiklopediyaning ommabopligini taʼminlab turgan asosiy omillar hisoblanadi. Ensiklopediyalarga kiritilgan maʼlumotlar tuzilishi jihatidan ham, tahliliy mazmuniga koʻra ham foydalanuvchilar uchun eng qulay manbalardan biri boʻlib qolmoqda.

Ensiklopediyalarning ikki turi mavjud boʻlib, barcha savollarga javob berishga yoʻnaltirgan umumiy ensiklopediyalar (Masalan, “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi”) va ixtisoslashgan ensiklopediyalar (Masalan, “Pedagogika ensiklopediyasi”) shaklida boʻlishi mumkin. Kutubxonachi foydalanuvchilar ehtiyojiga toʻla javob berishi nuqtai nazaridan ensiklopediyaning kimlar uchun moʻljallanganligi, sifati va ishonchliligi darajasini bilishi uchun quyidagi omillarga eʼtibor berishi kerak:

– foydalanuvchining yoshi;

– ensiklopediyaning yangilanib borishi tartibi;

– ensiklopediyada qoʻshimcha maʼlumot va manbalar haqida axborot berilganligi;

– ensiklopediyaning elektron shakli bor-yoʻqligi;

– ensiklopediyaning oʻziga xos, diqqatga sazovor jihatlari.

Ushbu omillarni tahlil qilish orqali ensiklopediyaning afzalliklari, foydalilik darajasi va muayyan kamchiliklarini aniqlash mumkin. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek bugungi kunda ensiklopediyalarning onlayn shakli kengayib bormoqda. 1808 yildan buyon Germaniyada chop etiluvchi eng nufuzli ensiklopediyalardan biri – Brokgauz (Brockhaus) 2008 yildan boshlab o‘zining 300 mingga yaqin maqolasini elektron hajmga o‘tkazdi va ulardan onlayn tarzda bepul foydalanish imkoniyatini yaratib berdi. Avval umumiy mazmundagi ensiklopediyalar onlayn ko‘rinishga o‘tgan bo‘lsa, ayni paytda ixtisoslashgan ensiklopediyalar ham internet tarmog‘iga kirib bormoqda.

Jumladan, 2001 yil 15 yanvardan internetga kiritilgan Vikipediya onlayn ensiklopediyasidan xohlagan odam ma’lumot olishi, ma’lumot joylashtirishtirishi va tahrir qilishi mumkin. 2008 yil 23 iyulda Google ham o‘zining Knol erkin ensiklopediyasini sinov rejimida ishga tushirdi. Mazkur manbalarning Vikipediyadan farqi shundaki, mualiflar o‘z ism-familiyasini ko‘rsatishi shart qilib qo‘yilganligidan tashqari o‘z surati va biografiyasini ham joylashtirish imkoniyati yaratilgan. Elektron ensiklopediyalar axborot izlash jarayonini osonlashtirish va tezlashtirish imkoniyatini berishdan tashqari foydalanuvchiga qisqa vaqt ichida katta hajmdagi ma’lumotga ega bo‘lish imkoniyatini beradi. Onlayn shakldagi manbada ma’lumotlarni tez tahrir qilish va yangilab borish bosma nashrga nisbatan osonroq bo‘lganligi uchun elektron ensiklopediyalar ommalashib bormoqda.

12.3. Foydalanuvchilarni lug‘atlar yordamida ma’lumot bilan ta’minlash.

Lug‘atlar tilda mavjud bo‘lgan barcha so‘zlarning ma’nosi, ishlatilishi, talaffuzi, kelib chiqish tarixi, bo‘g‘inlarga bo‘linishi va hakozolar haqida ma’lumot beradi. Lug‘atlarning turi juda ko‘p bo‘lsada ularning hammasi so‘zlarning ma’nosini tushuntirib beruvchi manba sifatida xizmat qiladi.

Ma’lumot berishning asosiy manbalaridan biri sifatida lug‘atlardan foydalanishning asosiy sabablari quyidagilardir:

– so‘z ma’nosini bilishga bo‘lgan ehtiyoji so‘zlarning turli toifasini – oddiydan tortib, jargon iboralar, ilmiy va adabiy so‘zlargacha hammasini qamrab oladi;

– ma’no bilan birga so‘z e’timologiyasi, so‘zlarning yozilishi, urg‘uni to‘g‘ri qo‘yish masalalarigacha qamrab olinadi;

– lug‘atlar talaffuz va bo‘g‘inlash uchun bebaho yo‘riqnoma bo‘lib, ularda fonetik belgilardan foydalanish bo‘yicha ma’lumotlar beriladi. Ayniqsa onlayn va elektron lug‘atlarda audio talaffuz imkoniyati ham mavjud bo‘lib, foydalanuvchi so‘z talaffuzidagi xususiyatlar bilan amalda tanishishi mumkin;

– lug‘atlar orqali aksariyat so‘zlarning sinonimlarini ham bilib olish mumkin. Sinonimlar borasida batafsilroq ma’lumot izlovchilar uchun alohida sinonimlar lug‘ati ham mavjuddir;

– lug‘atlar tildagi shevalar haqida ham ma’lumot berib, shu orqali kutubxonachilar foydalanuvchining savoliga imkon qadar to‘liq va aniq javob qaytarishi uchun sharoit yaratiladi. So‘zlarning ma’nosini tushuntirib beruvchi manba sifatida lug‘atlardan foydalanish miqyosining kengligidan kelib chiqqan holda ularni umumiy, xorijiy tillarni o‘rganuvchilar uchun mo‘ljallangan lug‘atlar, qisqartmalar lug‘atlari, ixtisoslashgan, ko‘p tilli, tarixiy, etimologik va hakozo turlarga ajratish mumkin.

Umumiy lug‘atlar tarkibidagi so‘zlar soniga qarab yana turlarga bo‘linganligi uchun to‘liq (250 mingdan ziyod so‘z), qisqartirilgan (140 mingdan ziyod so‘z) va cho‘ntak lug‘atiga (30-35 ming atrofidagi so‘z) ajratilishi mumkin. Xorijiy tillarni o‘rganuvchilar uchun mo‘ljallangan lug‘atlar lo‘ndaligi, foydalanish osonligi, muloqotda ishlatiladigan so‘zlarga asosiy e’tibor berishiga ko‘ra farqlanadi. Ularga kundalik muomalada ishlatiladigan “tirik” so‘zlar ko‘proq kiritiladi. Jamiyat taraqqiy qilgani sari qisqartmalar soni ham misli ko‘rilmagan darajada ko‘payib bormoqda. BMT, YUNESKO, SHHT, MDH singari qisqartmalar hayotga chuqur o‘rnashib ulgurgan. Elektron muloqot vositalarining ko‘payib borishi natijasida qisqartmalarning ishlatilish ko‘lami yanada kengayib bormoqda. Natijada qisqartmalar lug‘atini tuzish va nashr etish ham alohida ehtiyoj

sifatida kelib chiqdi. Ixtisoslashgan lug‘atlarda muayyan mavzularga aloqador bo‘lgan o‘zgarishlarning ma’nosini tushuntirish, ularni sinchkovlik bilan ta’riflash barobarida asosiy e’tibor yana quyidagi omillarga qaratiladi:

– so‘z ma’nosiga chuqurroq kirib borish va uni kengroq ta’riflash;

– lug‘atning yaratilishida soha mutaxassislari ishtirok etgani bois ularning ishonchlilik darajasi ham yuqori bo‘lishiga erishish;

– yangi so‘zlar borasidagi axborotning yangilanib turishini tezlashtirish;

– nisbatan keng tarqalmagan sohalar, masalan, kutubxonachilik kasbi bilan bog‘liq so‘z va atamalarning ma’nosini ochib berishga e’tibor qaratish;

Ixtisoslashgan lug‘atlar muayan kasb egalari, ilmiy-tadqiqot ishi bilan shug‘ullanuvchi foydalanuvchilar uchun qimmatli manba bo‘lib hisoblanadi. Xullas, kutubxona – axborot xizmati orqali foydalanuvchilarga taklif qilinayotgan yuzlab lug‘atlardan bir nechtasini saralash orqali kutubxonachi o‘z bilimi va malakasini birinchidan so‘z manbalarini shakllantirishga, ikkinchidan, ma’lumot berishga yo’naltirishi zarur bo‘ladi.

12.4. Foydalanuvchilarga ma’lumot berish xizmati samaradorligini oshirish.

XXI asrda jamiyat hayotining barcha sohalarida yuz berayotgan o‘zgarishlar tabiiyki kutubxonalar faoliyatiga ham yangi texnologiyalarning kirib kelishiga sabab bo‘ldi. So‘nggi o‘n yilliklarda kutubxona – axborot xizmati ko‘rsatish sohasidagi o‘zgarishlarning sur’ati jadallashdi. Ayniqsa ma’lumot berish xizmatlari va manbalar foydalanuvchilarning ehtiyojini qondirish maqsadida yanada takomillashmoqda. Kompyuter texnologiyasining rivojlanishi, Internet tarmog‘ining taraqqiyoti, Vikipediya singari erkin saytlarning kishilar hayotiga kirib kelishi, ijtimoiy tarmoqlarning ommalashuvi kutubxona – axborot xizmatidagi ba’zi tamoyillar va avval ustuvor bo‘lgan yo‘nalishlarning o‘zgarishiga olib kelmoqda. Bu jarayonlar yanada takomillashishda davom etmoqda. Shuning uchun ham kutubxonachilar o‘z foydalanuvchilarining qanday texnologiyalardan foydalanayotganliklarini alohida hisobga olishlari, ularning

axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini yanada samaraliroq ta’minlash maqsadida kutubxona – axborot xizmati jarayonida takomillashgan texnologiyalardan foydalanishni yo‘lga qo‘yishlari zarur bo‘ladi.

Bugungi kunda Google kabi qidiruv saytlaridan foydalanishning nisbatan osonligi bilan birga foydalanuvchilarga qidiruv saytlari bilan savol-javob tizimlari orqali olinayotgan axborotlar har doim ham to‘g‘ri bo‘lavermasligini tushuntirish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Shuning uchun ham har bir kutubxonachi jamiyatda axborot savodxonligini yuqori darajada shakllantirish jarayonida faol ishtirok etishi va foydalanuvchilarga topilgan axborotlarni chuqur o‘rganish, taqqoslash, tahlil qilish, to‘g‘ri baholash, undan to‘g‘ri foydalanish malakasini tarbiyalashda yordam berishi zarurligini taqozo etmoqda. Texnologiyalarning takomillashuvi va axborotlarni topish usullarining soddalashib borishi foydalanuvchilarga kutubxona – axborot xizmati ko‘rsatishda mavjud manbalar va xizmatlardan foydalanishni ham soddalashtirishni kun tartibiga qo‘ymoqda. Kelajakda ma’lumot berish xizmatlari qanday bo‘lishi mumkinligi to‘g‘risida ko‘plab mutaxassislarning fikrini jamlaydigan, tahlil qilish asosida umumiy xulosa chiqaradigan bo‘lsak mutolaa madaniyati, axborot madaniyatini shakllantirish, savollarga javob berish, foydalanuvchilarga maslahat berish, ma’lumot manbalarini targ‘ib qilish singari xizmatlar o‘zgarishsiz davom etadi. Shu bilan birga, texnologiyalarning yanada takomillashuvi natijasida kutubxona – axborot xizmati ko‘rsatish sohasida ham yangi vositalar qo‘llanila boshlaydi, o‘rganish va o‘rgatishga bo‘lgan talab oshadi, tayyor faktologik ma’lumotlarga bo‘lgan talab kamayadi, kutubxonachilarning yangi axborotni yaratish va ularni saqlash borasidagi ahamiyati pasayadi.

Bundan tashqari kutubxonachilar o‘z malakalarini yangi yo‘nalishdagi talablarga mos ravishda oshirib borishlari zarur bo‘lib, bu yo‘nalishlar:

– axborot manbalarini baholash va ularning sifatini aniqlash; – ma’lumot izlash borasidagi murakkab texnika va vositalardan foydalanish va qo‘llay bilish;

– foydalanuvchilarning tabiatini o‘rganish;

– foydalanuvchilar ehtiyoji, mavjud muhit va vaziyatni inobatga olish;

– foydalanuvchilar uchun axborot manbalarini to‘plash va tartibga solish;

– ularga o‘z-o‘ziga yordam berish usullarini o‘rgatish, axborotini baholash va undan foydalanishga ko‘maklashish;

– muayyan savollarga javob berishdan ko‘ra foydalanuvchilarga batafsil va keng ko‘lamli axborot topishda ko‘maklashish;

– asosiy maqsad foydalanuvchilarning ahtiyojini birinchi o‘ringa qo‘yish, ushbu ehtiyojni qondirishda har bir foydalanuvchining hayotida, ishida, ilmiy faoliyatida kutubxona – axborot xizmatining o‘rnini va ahamiyatini chuqur his qilish va uni anglab yetishiga erishishdan iboratdir.

Internet jamiyat hayotining ajralmas bir qismiga aylanib borayotgan bir sharoitda kutubxona xizmatining an’anaviy shakllari u bilan raqobatlashishda davom etmoqda. Xususan, ular faoliyatida elektron pochta, chat, SMS orqali ma’lumot berish kabi xizmatlar yo‘lga qo‘yildi. Elektron pochta vositasida kutubxonalar foydalanuvchilar bilan kutubxonadan tashqarida muloqot olib borish imkoniyatini qo‘lga kiritdilar.

Foydalanuvchilarga qanday ma’lumot kerakligini aniqlash maqsadida o‘tkaziladigan savol-javobni elektron pochta orqali amalga oshirish mushkul bo‘lganligi bois, kutubxonachilar ularga maxsus savolnoma yuborish orqali aynan qanday ma’lumot kerak ekanligini aniqlashtirish usulini amaliyotga tadbiq etdilar. Bu usulning muayyan kamchiliklari bo‘lsada (elektron xatlarga javoblar ba’zan tez, ba’zan kech keladi) u ancha qoniqarli deb hisoblanadi, chunki kutubxonachi vaqt jihatidan savolga malakaliroq javob berish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Chat orqali ma’lumot berishning afzalligi shundan iboratki, kutubxonachi va foydalanuvchi o‘rtasidagi muloqot real vaqt davomida kechganligi uchun aynan kerakli ma’lumotni aniqlash va qisqa muddat ichida taqdim etish mumkin bo‘ladi.

Bir zumda xabar almashish va SMS texnologiyasi ham kutubxona – axborot xizmatida keng qo‘llanilmoqda. Chunki ushbu texnologiyalar ularning foydalanuvchilari tomonidan o‘zaro keng miqyosda foydalaniladi. Ushbu usullar orqali ma’lumot berish jarayoni bir zumda, interaktiv ravishda va har qaysi joydan turib amalga oshirilishi mumkin. Muloqotning ushbu usullari keng qo‘llanilib

borilishi natijasida kutubxonachilar ham ulardan foydalanish borasidagi malakalarini oshirib bormoqda. Qo‘llanilayotgan yangi usullarning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligi ko‘p jihatdan kutubxonadagi marketing xizmatiga ham bog‘liqdir. Bosma ko‘rinishdagi manbalar soni ma’lumot va bilim berish sohasining ajralmas qismi sifatida mavjud bo‘lsada, ularning raqamlashtirilgan ko‘rinishlari va raqamli hajmdagi yangi materiallar soni ham sezilarli darajada ko‘paymoqda. Garchi bu yangi bilimlarga erishishning cheksiz olami hisoblansada, unda harakatlanish axborot savodxonligi, ko‘nikmasi malakasini talab qiladi.

Albatta bugungi kunda kutubxonalar o‘z foydalanuvchilariga o‘zlarining onlayn bibliografik va to‘liq matnli ma’lumot bazalarini targ‘ib qilish uchun urinmoqda. Buning uchun ular saytlarga yangi-yangi dasturiy mahsulotlarni joylashtirmoqda. Ayniqsa muayyan mavzuga aloqador ma’lumotlarni bir necha ma’lumot bazalaridan izlaydigan dasturlarning qo‘llanilishi foydalanuvchilar uchun katta qulayliklar yaratmoqda.

12.5. Foydalanuvchilarga ma’lumot berish xizmatining yangi turlari.

Internet tizimi qanchalik kengayib foydalanuvchilar hayotiga qanchalik chuqur kirib borsa kutubxonachi va foydalanuvchi o‘rtasidagi yuzma-yuz muloqot hajmi ham shunchalik kamayib boradi. So‘nggi paytlarda kutubxonalarga tayyor faktlarga oid ma’lumotlarni so‘rab murojaat etuvchi foydalanuvchilar soni kamayib, keng ko‘lamli izlanishlarni taqozo qiluvchi savollar soni ko‘payib borayotganligi qayd qilinmoqda. Xorijiy mamlakatlarda ko‘pgina kutubxonalar foydalanuvchilarga o‘zlari murojaat qilish tartibini yo‘lga qo‘yib, ilmiy muassasalar bilan hamkorlikda internetga ulangan maxsus kompyuterli xonalar ochib, ular orqali mutaxassislarga kutubxona manbalaridan foydalanish imkoniyatini bermoqda. Bu orqali kutubxonalar o‘z faoliyatini foydalanuvchilarning xohish va istaklariga binoan tashkillashtirib, kutubxona – axborot xizmati sifatini yanada oshirishga harakat qilmoqda.

XXI asrdagi axborot texnologik jarayonlari natijasida kelib chiqayotgan yangi talablar kutubxonachilar uchun quyidagi malakaviy darajaga erishish vazifalarini qo‘ymoqda:

– kutubxona – axborot xizmatlarini yangi avlod ma’lumot texnologiyalariga asoslangan holda tavsiya eta olish;

– elektron manbalarni saralay bilish;

– ma’lumotni onlayn shaklda qidira olish;

– foydalanuvchiga maslahat bera olish malakasiga ega bo‘lish; – bilim berish iqtidoriga ega bo‘lish;

– kutubxona – axborot xizmati faoliyatini internet tarmog‘i orqali samarali targ‘ib qila bilish;

– manbalarni baholay olish qobiliyatiga ega bo‘lish;

– darturni marketing qilish muhimligini anglay bilishi;

– shaxsiy munosabatlarni o‘rnata olish qobiliyatiga egaligi;

– o‘zgarishlarga moslasha olish qobiliyatiga egaligi;

– ish faoliyati davomida yangi bilim olishga doimiy intilish.

Albatta kutubxonachilarning foydalanuvchilarning turli savollariga javob berishiga oid faoliyatlari davom etadi, lekin, yuqorida ta’kidlanganidek, endi savollar faktlarga doir emas, balki keng ko‘lamli izlanishlar orqali topiladigan javoblarga oid bo‘ladi hamda savollarning ko‘pchiligi yuzma-yuz emas, balki onlayn muloqot davomida beriladi. Kutubxonachilarning maslahat berish bilan bog‘liq faoliyati kengayib boradi va ular foydalanuvchilarning mushkul savollariga javob topishda yordam berishlari hamda ehtimol tutilgan yordamga tayyor bo‘lib turishlari zarur bo‘ladi. Foydalanuvchilarning savollariga javob berish izlash strategiyasini shakllantirish, kerakli ma’lumotni aniqlash, uni topish, baholash va muvaffaqiyatli tarzda yetkazish bilan bog‘liq bo‘lgan axborot savodxonligining turli jihatlariga e’tibor qaratishdan iborat bo‘ladi. Bugungi kun kutubxonachilari ma’lumot berishning yangi texnologiyalari bilan ishlashni yaxshi o‘zlashtirib olishlari, tezlikda yuz berayotgan o‘zgarishlar va innovasiyalar bilan moslashgan tarzda faoliyat ko‘rsatishlari kerak. Ularning Feysbuk (Facbook) va My Space kabi

ijtimoiy tarmoqlardan, bloglardan, vikilardan mohirlik bilan foydalanish salohiyati foydalanuvchilar bilan tezlikda bog‘lana olish imkoniyatini beradi.

Kutubxona bosma nashr manbalari bilan ular kutubxona fondidan joy olishiga qadar qanday jarayonlar amalga oshirilsa kutubxonachilar elektron manbalarni ham saralash, baholash, ularni elektron fondga qo‘shish, ular haqidagi ma’lumotlarni foydalanuvchilar orasida tarqatish kabi faoliyatni amalga oshiradi. Axborot savodxonligini oshirishda kutubxonachilar va foydalanuvchilar ishtiroki muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu jarayon ham yuzma-yuz, ham guruhlar ko‘rinishida amalga oshirilishi mumkin. Foydalanuvchilar elektron manbalar, ayniqsa onlayn kataloglardan foydalanishni bilishlari shart bo‘lib, ularning murakkab tuzilishga egaligiga ko‘ra taqozo etilmoqda.

Axborot savodxonligi bo‘yicha yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish yuzma-yuz, elektron pochta orqali, chat orqali amalga oshirishi mumkin. Foydalanuvchilarning ehtiyojiga asoslangan kutubxona–axborot xizmatining takomillashtirilishi, o‘z navbatida ularga maslahat berish malakasining ham takomillashtirilib borilishini talab qiladi. Bundan tashqari, kutubxonachilar marketing sohasidagi malakalarini oshirib borishlari uchun o‘z foydalanuvchilarining axborotga bo‘lgan ehtiyojini tizimli tarzda o‘rganishi va ma’lumot berish xizmatlarini muntazam baholab borishlari ham zarur bo‘ladi.

Kutubxonalar qaysi turga mansub bo‘lishidan qat’iy nazar ularning asosiy maqsadi foydalanuvchiga sifatli xizmat ko‘rsatishdan iboratdir. Foydalanuvchining kutubxonachi bilan muloqoti ko‘p holatlarda elektron pochta, chat, SMS yoki boshqa usullar orqali amalga oshib borishi kutubxonachining faoliyatning boshqa turlari bilan shug‘ullanishi uchun vaqt va imkoniyat yaratadi.

Kutubxonachilar foydalanuvchilarga maslahatlar berish, ma’lumotlar bilan ta’minlash, mutolaa sosiologiyasi va psixologiyasini o‘rganish, mutolaa madaniyatini shakllantirish, foydalanuvchilarni o‘rganish, kutubxona – axborot xizmati texnologiyalarini takomillashtirish, axborot madaniyatini shakllantirish, kutubxona veb-saytidan foydalanish uchun qo‘llanmalar, ko‘p uchraydigan savollarga oldindan javoblar tayyorlash bilan shug‘ullanadilar. Bundan tashqari,

internet tarmog‘iga foydalanuvchilar uchun kerak bo‘lgan manbalarni joylashtirish, keraksizlarini olib tashlash, o‘z xizmatlarini targ‘ib qilish ishlari bilan ham shug‘ullanishlari uchun imkoniyat paydo bo‘ladi. Shuni ta’kidlash zarurki kutubxona – axborot xizmati ko‘rsatishning an’anaviy va zamonaviy shakllarining rivojlanish nisbati qanday bo‘lishidan qat’iy nazar ma’lumot berish sohasining rivojlanib borishiga ishonch ortib bormoqda. Ayniqsa, foydalanuvchilarga kelajakda kutubxona – axborot xizmati ko‘rsatishda tezkorlik, interaktivlik, shaxsga qaratilganlik, mobillik alohida ahamiyatga ega bo‘ladi. Tezkorlik – chat orqali ma’lumot berish yoki bir zumda xabar yetkazishda eng avvalo foydalanuvchining ehtiyojini hisobga olish va sutkaning xohlagan paytida xizmat ko‘rsatishga bo‘lgan intilishdir.

Interaktivlik – chat va bir zumda xabar almashish texnologiyalarining qo‘llanilishi natijasidir. Shaxsga qaratilganlik – kutubxona veb saytini foydalanuvchilarning talab va ehtiyojlariga moslashtirishdir. Mobillik esa kutubxona veb saytidan har qayerda va har doim foydalanish imkoniyatini yaratish orqali ta’minlanadi. Har qanday holatda kutubxona – axborot xizmatining asosiy vazifasi qanday vositalar, shakllar va usullar qo‘llanilishidan qat’iy nazar foydalanuvchi talabi va ehtiyojining qondirilishi hamda unga yuqori darajada xizmat ko‘rsatishdan iboratdir. Asosiy maqsad esa kutubxona – axborot xizmatining an’anaviy va zamonaviy usullari, shakllarini bir-biriga qarama-qarshi qo‘yish emas, ularni uyg‘unlashtirish, barcha ijobiy natija beruvchi imkoniyatlarni foydalanuvchilarning ehtiyojlarini sifatli ta’minlashga yo‘naltirishdan iborat bo‘lishi kerak.

12.6. Foydalanuvchilarga maslahat berish xizmatining rivojlanish yo‘nalishlari.

Foydalanuvchilarga kutubxona – axborot xizmati ko‘rsatish muayyan axborot tizimi orqali ma’lum ehtiyojini qondirishga xizmat qiluvchi amaliy ma’lumot bilan ta’minlash jarayoni hamdir. Ma’lumot berish jarayoni yakka tartibda xizmat ko‘rsatishga ixtisoslashgan bo‘lib, foydalanuvchining savolini

aniqlashtirish, uning axborotni mustaqil topa olish qobiliyatini, axborot madaniyatini oshirish uchun zarur bo‘lgan tayyorgarlik darajasini aniqlash uchun ham zarurdir. Foydalanuvchilarga maslahat berish xizmatlari axborot bilan ta’minlash tomonidan qamrab olinuvchi ko‘lamdan ko‘ra kengroq ma’noga ega va undan tashqari o‘z faoliyatida rasmiy taqdimotlar, bahs-munozaralardan keng foydalanadi.

Bundan tashqari foydalanuvchidagi axborot taqchilligi va ehtiyojlarni hisobga olgan holda uning muammolarini hal etishga e’tibor qaratadi. Ayniqsa mutolaa madaniyatini shakllantirishga alohida e’tibor berilayotgan hozirgi paytda foydalanuvchilar bilan muloqotda bo‘lish, ularga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishga jiddiy e’tibor berish talab qilinadi. Shu o‘rinda yoshlar tomonidan beriluvchi savollarning bir qismi albatta adabiyot sohasiga aloqador ekanligini ko‘rsatib o‘tish zarur. Masalan, muayyan kitobni o‘qish uy vazifasi sifatida topshirilgan o‘quvchi yoki talaba kutubxonaning ma’lumot berish bo‘limiga murojat qilishi va o‘ziga kerakli kitobni topishga yordam so‘rashi tabiiydir.

Badiiy kitob o‘qish orqali insonning dunyoqarashi kengayishidan tashqari u dam oladi. Badiiy kitobni o‘qish natijasida hosil bo‘lgan dunyoqarash asosan to‘rtta yo‘nalish orqali shakllanadi:

1) Odamlar va munosabatlar;

2) Turli mamlakatlar, madaniyatlar, davrlar;

3) Hayotiy tajribaning oshishi;

4) O‘zgacha qarashlardan xabardor bo‘lish.

Foydalanuvchilarga maslahat berish xizmatlarini amalga oshirish jarayonida kutubxonachi shuni hisobga olishi kerakki, mutolaa jarayonida har xil axborotlar va ma’lumotlar olinishi mumkin. Shu bilan birga kompyuterdan foydalanish barcha ma’lumot va bilim olish jarayoni faqat elektron usulda amalga oshiriladi degan ma’noni anglatmaydi. Shuningdek foydalanuvchilar mutolaa jarayonida elektron vositalardan foydalanmaydi deyish ham noto‘g‘ridir.

Nashr mahsulotlari haqida maslahatga muhtoj bo‘lgan foydalanuvchi bilan muloqot boshlangandan so‘ng kutubxonachi uning qiziqish va ehtiyojlari haqida

imkon qadar koʻproq maʼlumot olishga harakat qilishi lozim. Buni foydalanuvchiga maslahat berish jarayonida amalga oshiriluvchi savol-javob deb ham atash mumkin. Aslida bu kutubxonachining foydalanuvchiga maʼlumot berishi emas, aksincha uning qaysi manbaga qiziqayotganligini aniqlash yoʻli bilan maʼlumot olish jarayonidir. Bu foydalanuvchiga maslahat berish chogʻidagi maʼlumot berish jarayonidan tubdan farqlanuvchi va foydalanuvchining kayfiyati, his-tuygʻularini birinchi oʻringa chiqaruvchi strategiyani qoʻllashni talab qiladi.

Foydalanuvchiga maslahat berishda shaxsiy muloqotning qoniqarsiz oʻrnatilishi ushbu jarayonni izdan chiqarishi va foydalanuvchida salbiy taassurot qoldirishi mumkin. Ayniqsa muloqot oʻrnatishda kutubxonachining oʻzini oʻta bandday koʻrsatishi, foydalanuvchi goʻyo uni kutishga majburdek his qilishi yoʻl qoʻyilgan birinchi xato hisoblanadi. Shuning uchun foydalanuvchi kutubxonachi qarshisiga yaqinlashib kelayotgan paytdayoq nigoh bilan birinchi muloqotni oʻrnatishi, foydalanuvchi soʻragan maʼlumotni kompyuter orqali qidiradigan boʻlsa uni kompyuter qarshisiga taklif etib, maʼlumotni qaysi manba orqali izlayotganini tushuntirishi ham muloqot vaziyatini yaratishda alohida rol oʻynaydi.

Foydalanuvchiga xizmat koʻrsatish jarayonida uning verbal va noverbal hatti-harakatlarini kuzatish, uning fikrlarini oʻrganish, tahlil qilish kutubxonachiga mavjud vaziyatni toʻgʻri baholash, maʼlumotni izlash toʻgʻri yoʻnalishda borayotganligiga ishonch hosil qilish imkonini beradi.

Kutubxonachi foydalanuvchining baʼzi savollariga javob qaytarishda ensasi qotayotganligi, asabiylashayotganligini sezdirmasligi kerak. Ayniqsa jahli chiqayotganligini namoyon qilishi kutubxonachining oʻz kasbiga loyiq emasligini, uning xizmatidan iloji boricha tezroq voz kechish lozim ekanligini koʻrsatadi.

XIII. BOB. Kutubxona – axborot xizmati texnologiyasi:

13.1. Texnologiya va kutubxona – axborot xizmati texnologik jarayonlari haqida tushuncha.

Texnologiya iborasi grekcha – “techne” – mahorat, san’at va “logos” – ta’limot, o‘rgataman yoki o‘rganaman ma’nosini anglatadi. U kutubxona – axborot xizmatiga ishlab chiqarish sohasidan kirib kelgan.

Ishlab chiqarish nuqtai nazaridan olib qaralganda, texnologiya mehnat obyektiga maqsadga muvofiq ta’sir etib, uning holati, xususiyati, shakli kabilarni o‘zgartirish sanati, mahoratini o‘zlashtirish ma’nosini anglatadi.

Kutubxona–axborot xizmati nuqtai nazaridan olib qaralganda, texnologiya foydalanuvchilar ongi, tafakkuri, his-tuyg‘ulari, sezgilariga maqsadga muvofiq ta’sir etib, ularda ko‘zda tutilgan bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy fazilatlarni shakllantirish tizimi sifatida ta’riflanadi. Bunda kutubxona – axborot xizmati jarayoni ishtirokchilarining shaxsiy va turli zamonaviy vositalardan foydalana olish imkoniyatlari hisobga olinadi.

Kutubxona–axborot xizmati ko‘rsatish jarayonida foydalanuvchining ma’naviy yetukligi; moddiy va ma’naviy qadriyatlarni o‘zlashtirishi uning shaxsiy faoliyati orqali amalga oshadi. Agar foydalanuvchi o‘zining ma’lumot va axborotlarni o‘rganish, mutolaa, bilish faoliyati mohiyatini anglab yetmasa o‘zlashtirgan bilimlari yuzaki xarakterga ega bo‘ladi. Bundan har bir foydalanuvchining aqliy yetukligida mavjud muhit bilan birga shaxsiy faoliyat muhim ahamiyat kasb etishi kelib chiqadi. Foydalanuvchining faoliyati uning ichki dunyosi, tafakkur kechinmalari, diqqati, hayoli, hissiyoti bilan uzviy bog‘liq. |Kutubxonachining mahorati eng muhim, zaruriy ma’lumot, axborot, turli nashr mahsulotlarini tavsiya etish, foydalanuvchida unga nisbatan ongli munosabatni paydo qiladigan holatni tashkil etishdan iborat.

Chunki shaxs – motiv, hissiyot, shaxsiy fikr va faoliyat vositasida namoyon bo‘ladi. Demak, faol kutubxona – axborot xizmati foydalanuvchining axborot izlash, mutolaa, bilish faoliyatini ongli tashkil etish bilan uzviy bog‘liq bo‘lib,

muammoli izlanish, tadqiqotchilik, dialogik va poliologik muloqot va munosabatlar talab etiladi.

Ma’lumki, kutubxona–axborot xizmati texnologiyasining asosiy maqsadi axborotlar va bilimlarni foydalanuvchilar mulkiga aylantirishning maqbul shakli, usullari va vositalaridan foydalanish shart-sharoitlarini yaratish hamda ulardan oqilona foydalanishni koʻzda tutadi.

Eng muhimi kutubxona–axborot xizmati jarayonida qoʻllaniladigan texnologiyalarga qoʻyiladigan asosiy talablar ortiqcha (ruhiy, jismoniy) zoʻriqish kuchlari, vaqt, mablagʻ sarf etmagan holdan yuqori sifat va samaradorlikka erishishdan iboratdir. Bundan tashqari ishtirokchilar oʻrtasida ongli muloqot va munosabatlarni qaror toptirish, foydalanuvchilarning axborotlarni oʻzlashtirish, bilimlar hosil qilish usullarni egallashlariga koʻmaklashish, faol, mustaqil, tahliliy va tanqidiy fikrlash va xulosa chiqarish koʻnikmalarini shakllantirish, oʻz imkoniyatlarini roʻyobga chiqarishi uchun muayyan shart-sharoitlarni yaratishdan iboratdir.

Kutubxona–axborot xizmati texnologiyasi oʻz ichki tizimiga koʻra quyidagilardan tashkil topadi:

– tushuntirish – axborotning ma’no-mazmunini, undan foydalanish tartibini turli vosita va usullarni qoʻllab, kutubxonachining oʻzi tushungan darajada foydalanuvchilarga yetkazish faoliyatidan iborat jarayon;

– tushunish – axborotning ma’no-mazmunini idrok qilish, undan koʻrsatilgan tartibda mustaqil foydalana olish;

– oʻrgatish – axborotdan foydalanish va turli harakatlarni bajarishi koʻnikmalarini oʻrgatuvchining oʻzi oʻrgangan darajada boshqalarning takrorlay olishini turli vosita va usullarni qoʻllab amalga oshirish faoliyatidan iborat jarayon;

– oʻrganish – axborotdan foydalanish va turli harakatlarni koʻrsatilgan tartibda mustaqil bajarish koʻnikmalarini egallash;

– oʻzlashtirish–tushunish, oʻrganish orqali axborotning ma’no-mazmuni, undan foydalanish yoki harakatlarni bajarish tartibi toʻgʻrisida bilim va koʻnikmalar hosil boʻlishi.

Kutubxona–axborot xizmati texnologiyasi – texnokratik ilmiy ongning kutubxona – axborot xizmati sohasiga ijodiy qo‘llanilishi bo‘lib, foydalanuvchilarning ixtiyoriy faoliyatlariga asoslangan holda mutolaa va axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tashkil etilishi jarayonidir.

Ma’lumki, ijtimoiy tajriba va bilimlarni egallash jarayonida insonning har bir harakati axborot olish yoki uzatish, undan foydalanish yoki o‘rganish, o‘zlashtirish, saqlash va boyitishdan iborat. Shuning uchun ham hozirgi insoniyat sivilizasiyasi, asr nuqtai nazaridan axborot asri deb ataladi.

Shu nuqtai-nazardan sivilizasiya – axborot to‘plash, tahlil qilish, foydalanish hamda atrof-muhit va o‘zi haqida axborot yaratish uchun eng ko‘p ma’lumot olishga qodir bo‘lgan madaniyat taraqqiyotining eng yuksak bosqichidir.

Sivilizasiyaning bosh belgisi axborotni to‘plash, abstraktlikdan aniqlikka tomon tahlil qilish, jamiyat taraqqiyoti uchun foydalanishdan iboratdir. Bundan axborotni o‘rganish, tahlil qilish va undan foydalanishning shakl, usul va vositalarini takomillashtirib borish zarurligi va unda kutubxona – axborot xizmati texnologiyasi alohida ahamiyatga ega ekanligi anglashiladi.

Kutubxona – axborot xizmati jarayonida pirovard maqsad barkamol insonni shakllantirish va rivojlantirish bo‘lib, asosan quyidagilardan tarkib topadi:

– muloqot madaniyatini shakllantirish;

– mutolaa madaniyatini shakllantirish;

– axborot madaniyatini shakllantirish;

– mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlilga o‘rgatish;

– bilim, ko‘nikma, malakalarni shakllantirish, ularning o‘zlashtirilishiga erishish;

– turli shakllar, usullar, vositalardan foydalanish va takomillashtirish;

– sosiologik tadqiqotlar olib borish va ularning natijalarini umumlashtirib borish;

– insonparvarlik, shaxsga qaratilganlik, mafkuraviy tamoyillarga asoslanish;

– foydalanuvchilarning tayyorgarlik darajasini, psixologik, fiziologik, yosh xususiyatlarini hisobga olish;

– kutubxona – axborot xizmati menedjmenti, marketing talablari va xulosalarini, ijtimoiy motivlarni hisobga olish.

Bugungi kunda kutubxona –axborot xizmati texnologiyalari ushbu tizimning turli yo‘nalishlarini takomillashtirish maqsadlarida yaratilib, quyidagi yo‘nalishlarda rivojlanmoqda:

Kutubxona – axborot xizmati jarayonini takomillashtirish, uni foydalanuvchi shaxsiga yo‘naltirishga asoslangan texnologiyalar: hamkorlik texnologiyasi, insonparvarlikka asoslangan texnologiya va boshqalar.

Kutubxona–axborot xizmati jarayonini samarali boshqarish va tashkil qilishga qaratilgan texnologiyalar: yakka tartibdagi, guruhli, ommaviy, dasturlashtirilgan, kompyuterlashtirilgan, virtual va hakozo.

Rivojlantiruvchi texnologiyalar. Bularga foydalanuvchilarning turli sohalardagi bilimlarini, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyalari kiradi. Shuningdek, kutubxona–axborot xizmati jarayonida qo‘llaniladigan texnologiyalarning boshqa yo‘nalishlari ham mavjud bo‘lib, ulardan asosiylari empirik, kognitiv, evristik, kreativ, inversion, integrativ, adaptiv, inklyuziv texnologiyalardan iborat.

Empirik (tajriba) – mutolaa jarayonida axborot qabul qilishda sezgi a’zolarining tabiiy rivojlanganlik imkoniyatlariga tayangan holda axborot bilan ta’minlash va ularni takomillashtirib borishga qaratiladi.

Kognitiv (bilishga oid) – atrofdagi olam to‘g‘risidagi bilimlar doirasini kengaytirish texnologiyasi. U tabaqalash (tarkibiy qismlarga ajratib o‘rganish) tafakkurini shakllantiradi, bilish ehtiyojlarini rivojlantiradi.

Evristik (haqiqatni topish) – yo‘naltiruvchi, aniqlashtiruvchi savollar berish yo‘li bilan faollikni rivojlantiruvchi texnologiyadir. Optimallashgan (ko‘p variantlardan eng ma’qulini, mosini, muvofig‘ini tanlash) tafakkurni rivojlantiradi.

Kreativ (ijodiy) – tadqiqot harakteriga, xususiyatiga ega bo‘lib, foydalanuvchilarda maqsadga yo‘naltirilgan ijodiy tafakkurni rivojlantiradi.

Inversion (almashtirish) – axborotlarni turli tomondan o‘rganish, o‘rnini almashtirish xususiyatiga ega bo‘lib, tafakkur (fikrlash) tizimini shakllantiradi.

Integraktiv (yaxlitlash) – axborotlarni tashkil qiluvchi cheksiz ko‘p qismlarning o‘zaro ajralmas bog‘liqligi, ularning yaxlitligi, bir butunligi asosida yagona to‘g‘ri xulosaga kelish.

Adaptiv (moslashtirish) – axborotlardan foydalanish jarayonini o‘rganish hamda o‘rgatish uchun qulaylashtirish, moslashtirish asosida kutilgan natijaga erishish texnologiyasi.

Inklyuziv (tenglik) – kutubxonachi va foydalanuvchining o‘zaro munosabatlarida tenglik asosida kutubxona – axborot xizmati jarayonini tashkil qilish. Shu bilan birga imkoniyati cheklangan foydalanuvchilarni sog‘lom foydalanuvchilar bilan birgalikdagi muloqotini tashkil qilish texnologiyasi.

Mazkur texnologiyalardan vaziyatga muvofiq tanlay bilish va foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek o‘zgaruvchan vaziyatlarda ularga muvofiq keluvchi boshqa yangi texnologiyalar ham qo‘llanilishi mumkin.

Ushbu texnologiyalardan qay birining qo‘llanishi muayyan kutubxona moddiy – texnik asosiga bog‘liq tarzda amalga oshiriladi.

13.2. Ma’lumot va axborot so‘rovining kutubxona – axborot xizmatidan foydalanuvchilar qiziqishi va ehtiyoji bilan bog‘liqligi.

Kutubxona – axborot xizmatining hal qiluvchi mexanizmi foydalanuvchilar qiziqishi va foydalanuvchilar ehtiyojiga ko‘ra asoslanadigan foydalanuvchi so‘rovidir. Foydalanuvchi so‘rovi foydalanuvchi tomonidan kutubxonachiga bosma nashr yoki axborotni topib berish so‘ralgan iltimosni anglatadi. Foydalanuvchi so‘rovi muayyan yoki nomuayyan bo‘lishi mumkin. Foydalanuvchining muayyan so‘rovi aniq bosma nashr, axborot yoki mavzuga oid, ya’ni mavzu yoki muammoning mazmunini, mohiyatini yoritishga yordam beruvchi axborotni topishga yordam so‘ragan holda kutubxonachiga murojaat qilishidir.

Foydalanuvchining mavzuga oid so‘rovi tadbirkorlikka oid, o‘quv jarayoniga oid yoki mustaqil mutolaa bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Foydalanuvchining nomuayyan so‘rovi bo‘sh vaqtdagi muloqot bilan bog‘liqdir. Kutubxonada zarur bosma nashr mavjud bo‘lmagan holatlarda foydalanuvchiga rad javobining berilishi qoniqtirilmagan so‘rovdir.

Kutubxona – axborot xizmati texnologik jarayonlariga so‘rov berilgan nashrning o‘ziga xosligi va abonomentda, o‘quv zalida, ochiq kitob fondida va h.k…larda kutubxona jarayonlarining tashkil etilishi ta’sir ko‘rsatadi.

So‘ralayotgan bosma nashrni taqdim etishning texnologik jarayoni quyidagi operasiyalarni o‘z ichiga oladi: foydalanuvchidan so‘rovni qabul qilish; so‘rovni aniqlashtirish; so‘rovni fondga uzatish; nashrni fonddan qidiruv; nashrni o‘quv zaliga yetkazishni rasmiylashtirish; nashrni o‘quv zaliga uzatish; nashrni foydalanuvchiga yetkazish.

Elektron manbalardan foydalanish muhitida foydalanuvchi so‘rovini bajarish texnologiyasi esa quyidagi operasiyalardan tashkil topadi: foydalanuvchidan so‘rovni qabul qilish; so‘rovni aniqlashtirish; ma’lumotlar bazasidan, elektron katalogdan qidirish; mavzu bo‘yicha axborotni va uning joylashgan makonini aniqlashtirish; axborotni foydalanuvchiga yetkazish.

Shuningdek, so‘rovni qanoatlantirish hujjatlarni elektron tarzda yetkazish orqali ham amalga oshirilishi mumkin. Shunday qilib, an’anaviy muhitda ham, elektron muhitda ham foydalanuvchilar so‘rovini amalga oshirish texnologiyalarida og‘zaki yoki yozma qabul qilish, so‘rovning maqsadini aniqlashdan iborat bo‘lgan umumiy operasiyalar amalga oshiriladi. Foydalanuvchi so‘rovining asosini foydalanuvchi qiziqishi va foydalanuvchi ehtiyoji tashkil etadi.

Kutubxonachilar tomonidan foydalanuvchilar qiziqishi shart-sharoitga bog‘liq va shaxsiyatli asoslarga ajratiladi. Shart-sharoitga bogliq asos tashqi ta’sirlar (kitob muqovasi, gazetadagi taqriz, tomosho qilingan film va h,k…)ga bog‘liq tarzda kelib chiqadi va sharoit o‘zgarishi bilan osonlikcha o‘zgarishga uchraydi. Shaxsiyatli asos shaxsning yetakchi ma’naviy qiziqishlariga tayanganligi uchun barqaror hisoblanadi. Foydalanuvchilarning shaxsiyatli va guruhiy

qiziqishlari o‘zaro aloqadordir. Chunki har bir shaxs yoshi, kasbi, jinsi kabilarga ko‘ra muayyan guruhlarga mansubdir.

Foydalanuvchilarning shaxsiyatli qiziqishiga ma’lum guruhlar tomonidan qabul qilingan meyorlar, baholar, urf-odatlar an’anaviy o‘zgarishlar tarzida ta’sir ko‘rsatadi.

13.3. Foydalanuvchilar qiziqishining o‘z mazmuniga ko‘ra tasniflanishi.

Foydalanuvchilar qiziqishi shartli ravishda badiiy, ilmiy, siyosiy, iqtisodiy, axborotshunoslik singari adabiyotlar sohasiga asosan tasniflanishi mumkin. Ushbu sohalarning ichki tizimiga ko‘ra qiziqishlar janrlar, mavzular, mualliflar, asarlar va h.k…larga nisbatan ifodalanadi. Amaliyotda ko‘rilganidek, ba’zan qiziqishlar bir emas, bir necha yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi. Foydalanuvchilarning qiziqishlari faol va passiv, barqaror va beqaror, chuqur va yuzaki, keng diapazonda yoki tor doirada bo‘lishi mumkin.

Foydalanuvchi qiziqishi umuman shaxsning mutolaaga ehtiyoji, xususan, aniq nashrga mutolaa ehtiyoji bilan umumiy aloqadorlikda shakllanadi. Mutolaa ehtiyoji – shaxsning aqliy, ma’naviy va hissiy rivojlanishi bilan mustahkam aloqadorlikdagi muhim ma’naviy ehtiyojlaridan biridir.

Mutolaaga bo‘lgan ehtiyoj jarayoni murakkab bo‘lib, bolalaikdan shakllana boshlaydi va unga oila muhiti, shaxsiy kutubxonaning mavjudligi va h.k… omillar ta’sir o‘tkazadi.

Ichki qo‘zg‘atuvchi kuch sifatida tadqiqotchilar mutolaa motivini va mutolaaga rag‘batni alohida ta’kidlab ko‘rsatadilar. Foydalanuvchilar qiziqishi mutolaa ehtiyoji natijasida kelib chiqadi va rivojlanadi.

13.4. Kutubxona – axborot xizmatining tasniflanishi.

Kutubxona – axborot xizmati foydalanuvchiga qulayligi, bajaruvchi bilan birligi, kutubxona resurslaridan foydalanishning ta’minlanganligi sifatlariga ega bo‘lib, umumlashtirilgan natija sifatida namoyon bo‘ladi.

Kutubxona – axborot xizmatining turlari foydalanuvchilar uchun barcha imkoniyatlarning yaratilishi nuqtai nazaridan ahamiyatlidir.

Kutubxona – axborot xizmati turlariga ko‘ra quyidagicha tasniflanadi:

– Abonoment xizmati;
– Ma’lumot-tahliliy xizmat;
– Kundalik axborot xizmati;
– Aniq muammolar bo‘yicha axborot berish xizmati;
– O‘quv-maslahat xizmati;
– Kutubxona muloqotini tashkil etish bo‘yicha xizmatlar;
– Kutubxonada qulaylikni tashkil etish bo‘yicha xizmatlar;
– Tarjimachilik xizmatlari;
– Nusxa ko‘chirish xizmatlari;
– Muqovalash xizmatlari.

Kutubxona – axborot xizmati jarayonlariga yangi texnik vositalar va axborot texnologiyalarining kirib kelishi xizmat ko‘rsatishning yangi usullari va shakllarining paydo bo‘lishiga olib kelmoqda.

13.5. Kutubxona–axborot xizmatini tashkil etishning zamonaviy texnologiyalari.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi, yanada takomillashgan texnika vositalarning paydo bo‘lishi bilan kutubxona – axborot xizmatining turlari ham ko‘payib bormoqda. Ularga elektron kataloglar va ma’lumotlar bazasi to‘la matni bo‘yicha qidirish, hujjatlarni elektron tarzda yetkazish, virtual ma’lumot xizmati, kompyuter savodxonligiga o‘rgatish, masofaviy o‘qitish, muharrirlik va nashriy xizmatlar, turli ilmiy nashrlardan nusxalar olish, skaner qilish, videoyozuvlardan nusxalar olish, internet – kafelar, internet – o‘quv zallaridan foydalanish kabilarni kiritish mumkin.

Bugungi kunda kutubxonalar foydalanuvchilarga portativ kompyuterlar (noutbuklar), videoapparatlar, kartinalar, skulptura asarlarini vaqtinchalik foydalanishga bermoqdalar.

Eng zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda kutubxonalar foydalanuvchilarga tahliliy sharhlar, daydjestlar taqdim qilmoqdalar.

Hujjatlarni elektron tarzda yetkazish, CD – ROMlarning to‘liq matnli ma’lumotlarini berish ishlari amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda ko‘pgina kutubxonalarda pullik xizmat turlari yo‘lga qo‘yilgan. Lekin kutubxonada amalga oshiriladigan har qanday pullik xizmatning bepul xizmat ko‘rsatiladigan yo‘nalishi bo‘lishi talab qilinadi.

Xorijiy mamlakatlarda bepul xizmat ko‘rsatish nogironlar, qariyalar, o‘quvchilar, yosh bolalar uchun keng yo‘lga qo‘yilgan. Jumladan Kolumbiyada ko‘zi ojizlar va xira ko‘ruvchilar uchun audiokitoblardan tashqari ko‘ngilli xizmat ko‘rsatuvchilar tomonidan o‘qib berish, Daniyada elektron muhitda ishlashni yengillashtirishga yordam berish maqsadida internet stansiyalar, Fransiyaning Bordo shahrida varaqlab beruvchi, ekran tasvirini kattalashtirib beruvchi mexanizmlar, nutq sintezatorlari keng qo‘llanilmoqda. Bunday xizmatlar turlari Niderlandiya, Germaniya, Portugaliya singari mamlakatlarda ham mavjuddir. Buyuk Britaniyadagi Ueseks grafligida uydan chiqish imkoniyati bo‘lmaganlarga kitob yetkazish xizmati yo‘lga qo‘yilgan. Ko‘pgina Yevropa mamlakatlarida kutubxonalar masofaviy ta’lim tizimiga faol qo‘shilgan holda faoliyat yuritmoqdalar. “Qishloq joylarda masofaviy ta’lim” Yevropa loyihasi an’anaviy ta’lim bo‘yicha qiyinchilikka duch kelayotganlarga kutubxonalarning yordami sohasidagi faol nuqtai-nazarni ifodalaydi. Kutubxona – axborot xizmati turlarining kengayib borishi bugungi kunda xorijga ham, mamlakatimizga ham xos bo‘lgan xususiyatdir.

XIV. BOB. Yakka tartibda kutubxona – axborot xizmati koʻrsatish texnologiyasi.

14.1. Yakka tartibda kutubxona–axborot xizmati koʻrsatishning ahamiyati va vazifalari.

Bugungi kunda yakka tartibda kutubxona – axborot xizmati koʻrsatishning asosiy maqsadlaridan biri kutubxonaning shaxsning mutolaa orqali ijtimoiylashuvi va uning axborot bilan ta’minlanishida yordam berishdan iboratdir.

Foydalanuvchilarning axborotga boʻlgan ehtiyojlarini qondirish, shaxsning mutolaa madaniyati va axborot madaniyati darajasini oshirishga yordam berish, foydalanuvchi va kutubxonachining hamkorligi uchun shart-sharoitlar yaratish, shaxsning oʻquv, kasbiy, dam olish va boshqa faoliyatida oʻz-oʻzini anglashi, oʻzini namoyon qila olishida yordamlashish singari yoʻnalishlar yakka tartibda kutubxona-axborot xizmati koʻrsatishning asosiy vazifalari hisoblanadi.

Yakka tartibda kutubxona-axborot xizmati koʻrsatishning zamonaviy falsafiy va pedagogik–psixologik asoslari Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligi (MDH) tomonidan 2003 yilda yangi tahrirda qabul qilingan “MDHga a’zo davlatlar uchun na’munaviy kutubxona Kodeksi” nomli hujjatda oʻz aksini topgan.

Kutubxona kodeksining asosiy maqsadi tarixiy jihatdan tashkil topgan koʻp tomonlama madaniy, ilmiy-texnikaviy va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga koʻmaklashish maqsadida Hamdoʻstlik mamlakatlarida kutubxonalar faoliyatini tartibga solish orqali jahon va milliy madaniyatlarni saqlab qolish va tarqatish, fan va ishlab chiqarish yutuqlarini almashish, fuqarolarning jahon sivilizasiyasi yutuqlaridan foydalanish, bilim, obyektiv va keng qamrovli ma’lumotlarni olish huquqlarini amalga oshirishdan iborat.

14.2. Yakka tartibda kutubxona–axborot xizmati ko‘rsatish shakllari va metodlari.

Kutubxona – axborot xizmati jarayonida mutolaa madaniyatini shakllantirish va axborot yetkazishda yakka tartibda yondashuv eng asosiy tamoyil sifatida tan olingan.

Foydalanuvchilar bilan ishlashda asosiy vazifa bo‘lgan ma’naviy ahloqiy yetuk insonni shakllantirish masalasi har bir foydalanuvchiga yakka tartibda yondashuvni talab qiladi.

Lekin, yakka tartibda yondashuv muayyan jamoa ichida, jamoa orqali, jamiyat nomidan amalga oshiriladi.

Yakka tartibda yondashuv kutubxonachi va foydalanuvchi o‘rtasidagi ikki tomonlama faollikni, muloqot jarayonidagi doimiy hamkorlikni talab qiladi.

Foydalanuvchilar bilan yakka tartibda ishlashning muhim shakllaridan biri – suhbatdir. Suhbatning yakka tartibda ishlash tizimidagi o‘rni va ahamiyati uning mazmuni, shakli va tashkil etilishidagi sharoitga bog‘liqdir.

Foydalanuvchilar bilan o‘tkaziladigan suhbat kutubxonachi faoliyatining quyidagi darajalariga mos kelishi zarur:

1) Foydalanuvchilarni jalb qilish – foydalanuvchining kutubxona – axborot xizmatini, manbalarni qidirish tizimini o‘zlashtirishiga yordam berish, foydalanuvchi va mutolaani o‘rganish;

2) Mutolaa jarayoniga ta’sir ko‘rsatish–foydalanuvchilarga manbalar, mutolaa mavzusi haqida axborot berish, mutolaani tashkil etishda yordam berish;

3) Foydalanuvchilarni tarbiyalash – ya’ni ularning fikrlari, ishonchlari va hatti-harakatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatish.

Kutubxonachi ushbu darajalarni bosqichma-bosqich qo‘llashi bilan birgalikda foydalanuvchining tayyorgarligi va ehtiyojlari, tarbiyaviy ish rejasini aniq foydalanuvchiga nisbatan qo‘llash bilan uyg‘unlashtirilgan tarzda olib borishi zarur. Kutubxonachi va foydalanuvchi o‘rtasidagi suhbat yo‘nalishida

kutubxonachining yetakchilik rolini tan olgan holda suhbatning tuzilishi quyidagi holatlarni hisobga olishni talab qiladi:

– suhbat sababini tushunarli tarzda bayon qilish (kutubxonadagi shart-sharoit va qoidalar bilan foydalanuvchini tanishtirish kutubxonachining asosiy maqsadi ekanligini anglatish);

– foydalanuvchiga suhbatning foydali ekanligini tushuntira bilish;

– foydalanuvchining ehtiyojlari va so‘rovini aniqlash;

– manbalar haqida zaruriy suhbat o‘tkazish;

– bilim, ma’lumot, axborot manbalarini tavsiya qilish, ochiq kitob fondi haqida ma’lumot berish;

– bibliografik manba, kitob ko‘rgazmasi bilan bevosita tanishishga imkoniyat yaratish;

– tavsiya natijalarini tekshirib turish.

Ba’zi adabiyotlarda suhbatning to‘rtta turi: foydalanuvchini rasmiylashtirish, manbani tavsiya qilish, o‘qib chiqilgan manba haqida suhbat, manbani rasmiylashtirish ajratib ko‘rsatiladi. Lekin suhbat qanday yo‘nalishda bo‘lishini oldindan aytish imkoniyati bo‘lmaganligi uchun kutubxonachining intuisiyasi va muloqotni tashkil etish mahoratiga bog‘liq tarzda amalga oshiriladi.

Har qanday suhbatning tarkibi murakkab, asosiy maqsadi shunchaki muloqot bo‘lmaganligi uchun uning o‘ziga xosligi, kutubxonachining ta’sir o‘tkazuvchi subyekt, foydalanuvchining ta’sir o‘tkaziluvchi obyekt, suhbat turi ta’sir o‘tkazish vositasi sifatida aks etishi zarur. Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan fikrlar xulosasi sifatida suhbatning quyidagi tasnifini berish mumkin:

– maqsadiga ko‘ra: ma’lumot, axborot berish, tarbiyalash;

– vazifasiga ko‘ra:kutubxona – axborot xizmatiga jalb qilish, tavsiya etish;

–foydalanuvchiga nisbatan munosabatiga ko‘ra: yakka, guruhli, umumiy (barcha foydalanuvchilar uchun);

– kutubxonachiga nisbatan munosabatiga ko‘ra: shaxsiy; bilvosita (kutubxonadagi boshqa vositalar orqali); shaxssiz (kutubxonachi tomonidan tayyorlangan, lekin uning ishtirokisiz o‘tkaziladigan) suhbatlar;

– axborot manbalari bo‘yicha: kutubxona fondi haqida; foydalanuvchida mavjud bo‘lgan manbalar haqida; boshqa axborot manbalari hamda ulardan foydalanish haqida;

– mutolaa bo‘yicha: mutolaa qilingan; mutolaa qilanayotgan; mutolaa qilinmagan;

– muloqot vositalari bo‘yicha : nutq; ovozli texnik vositalarni qo‘llash; ko‘rgazmali vositalardan foydalanish va h.k...;

– muloqot shakli bo‘yicha: tanishtirish, ma’lumot berish, munozarali, qo‘llanish tartibi;

– xizmat ko‘rsatish bo‘yicha: foydalanuvchini rasmiylashtirish; manbani tavsiya qilish;

– natija bo‘yicha: foydalanuvchini kutubxona – axborot xizmati jarayoniga jalb qilish; kutubxonachi tavsiyasini bajarish; foydalanuvchini ijtimoiy yo‘naltirish;

–ehtimol tutilgan natijani baholash bo‘yicha: yo‘naltiruvchi; taqiqlovchi.

Metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilgan suhbat foydalanuvchilar bilan olib boriladigan yakka tartibdagi kutubxona – axborot xizmatini yanada takomillashtirish, foydalanuvchining kutubxonachiga va mutolaaga munosabatini o‘zgartirish, kutubxonachining foydalanuvchilar bilan ish olib borish tajribasining oshib borishiga yordam beradi.

Yakka tartibdagi rejali mutolaa bolalar va o‘quvchi – yoshlar bilan ishlashda qo‘llaniladigan o‘ta muhim metod bo‘lib, zamonaviy kutubxona amaliyotida uning uchta turi qo‘llaniladi:

1.Mutolaaning foydalanuvchilar so‘rovini tahlil qilish asosida tuzilgan namunaviy rejasi;

2.Eng dolzarb mavzular bo‘yicha tuzilgan adabiyotlar ro‘yhati;

3.Mutolaaning kutubxonachi va foydalanuvchi tomonidan tuzilgan yakka tartibdagi rejasi.

Rejali mutolaaga bolalar, o‘quvchi – yoshlar, muayyan mavzularda (hayvonot olami, sog‘lom turmush tarzi, tarixiy) shug‘ullanuvchi foydalanuvchilar

koʻproq jalb qilinadi. Yakka tartibda axborot bilan taʼminlash metodi aniq foydalanuvchining alohida axborot ehtiyojlarini hisobga olgan holda axborot yetkazishni anglatadi. Yakka tartibda xizmat koʻrsatish jarayonida tavsiyalar, bibliografik, mavzuga oid, faktografik maʼlumotlar berish, elektron pochta, telefon, faks, SMS, chat singari bevosita foydalanuvchiga axborotni elektron tarzda yetkazish singari shakllari qoʻllaniladi.

Faoliyati alohida ijtimoiy ahamiyatga ega boʻlgan shaxslar (olimlar, mutaxassislar) tanlangan tarzda axborot bilan taʼminlash, rahbar shaxslarga yakka tartibda xizmat koʻrsatish, axborotni operativ tarzda yetkazish kutubxona – axborot xizmatining alohida shakli hisoblanadi. Foydalanuvchilarni tanlangan tarzda axborot bilan taʼminlashning asosiy maqsadi mamlakatimizdagi va xorijdagi fan, texnika va texnologiya yutuqlarini oʻrganish asosida yangi ilmiy muammolarni samarali hal etish uchun shart-sharoitlar yaratish, ularning bilim darajasining zamon talablari darajasida boʻlishini taʼminlashdan iboratdir.

Tanlangan tarzda axborot bilan taʼminlash tizimi foydalanuvchilarni birlamchi axborotlar bilan maksimal darajada toʻliq va operativ taʼminlash, hujjatlar mazmuning qisqa yoritilishi boʻyicha talablariga mos boʻlishi kerak.

Tanlangan tarzda axborot bilan taʼminlashda xizmat koʻrsatishning maksimal toʻliqligi ilmiy xodimlar va mutaxassislar uchun alohida dolzarb masaladir. Ushbu talab kutubxonaga kelayotgan bibliografik manbalar (referativ jurnallar, internet resurslar) va boshqa manbalar haqidagi axborotlarni tanlangan holda taqdim etish orqali amalga oshiriladi. Hujjatlar mazmunining yoritilishi, referat, annotasiya, mavzu nomining tarjimasi, kalit soʻzlarni taqdim etish orqali bajariladi.

Referat, annotasiya, kalit soʻzlarning boʻlishi mavjud hujjatlar mazmunining foydalanuvchi talabiga mos kelish nuqtai nazaridangina emas, taqdim etilayotgan axborotning foydalilik darajasi haqida xulosa chiqarishga ham imkon beradi.

Axborot bilan taʼminlashda operativlik va muntazamlilik foydalanuvchini oʻz vaqtida uni qiziqtirgan yoʻnalishdagi yangiliklar bilan taʼminlash zaruratidan kelib chiqadi.

Axborot bilan ta’minlashdagi nomuntazamlilik samarasizlik va befoydalilikka olib keladi.

Doimiy amal qiluvchi qaytariluvchi aloqa foydalanuvchilarga yetkazilayotgan axborotning ular talabiga mos kelishi darajasini baholash, xizmat ko‘rsatish samaradorligini aniqlash imkonini beradi.

Tanlangan tarzda axborot bilan ta’minlash texnologiyasi quyidagi operasiyalardan tashkil topadi: foydalanuvchilar tarkibini aniqlash, axborot ehtiyojini tahlil qilish, axborot yetkazish mavzusini aniqlash, axborot manbalarini tanlash, axborot-qidiruv tilini tanlash, foydalanuvchi bilan qayta aloqa o‘rnatish.

Tanlangan tarzda axborot bilan ta’minlash tizimi bajaradigan vazifalarning samaradorligi foydalanuvchilar tomonidan berilgan so‘rov va axborot bilan ta’minlashning bir-biriga mosligiga ko‘ra aniqlanadi.

14.3. Yakka tartibda kutubxona –axborot xizmati ko‘rsatish jarayonida kutubxonachi va foydalanuvchi hamkorligi

Kutubxona–axborot xizmati jarayonida foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatishda kutubxonachi va foydalanuvchi hamkorligini o‘rnatish faqat ularning muloqot ehtiyojini qondirish vositasi emas, balki o‘qishga olingan kitoblarni o‘zlashtirishning ham vositasidir. Samarali hamkorlikni vujudga keltirish uchun qulaylik yaratish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bunda eng avvalo kutubxonachi kitobxonning shaxs sifatidagi xususiyatlarini, maqsad va ehtiyojlarini hisobga olishi shartdir.

Lekin foydalanuvchilar bilan ishlashning turli bosqichlarida kutubxonachi va foydalanuvchilarning turli hamkorligi qanday uyushtirilishi masalasi to‘la hal bo‘lgan emas. Binobarin ko‘pchilik kutubxonachilarda foydalanuvchilar bilan ishlash faoliyatini hamkorlik asosida tashkil etish ko‘nikmasining yetarli emasligi qator muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Foydalanuvchilar bilan ishlash jarayoni har bir foydalanuvchining ijtimoiy-madaniy, ma’naviy qadriyatlarni egallash jarayoni ham bo‘lganligi uchun uning shaxsining rivojlanishidagi “yaqin kamolot hududi”nigina emas, balki “ma’naviy

dunyosiga kirib borish hududi”ni ham yaratadigan yo‘sinda loyihalash zarur bo‘ladi.

O‘zaro hamkorlikning muhim omili va foydalanuvchilar o‘zaro munosabatlari xususiyatini belgilovchi asos kutubxonachi va foydalanuvchi hamkorligining shakllaridir. Hamkorlikdagi faoliyat kutubxonachi va foydalanuvchi munosabatlarining birgalikdagi hatti-harakatlarining alohida tizimidirki, u o‘zlashtirish obyektini, bilish faoliyatining barcha qismlarini qayta ko‘rishni ta’minlaydi. Hamkorlikdagi faoliyat usuli deganda, kutubxonachi va foydalanuvchining birgalikdagi hatti-harakatlarining tizimini tushunmoq kerak. Bunday hatti-harakatlar kutubxonachining foydalanuvchiga ko‘rsatadigan yordamidan boshlanadi va foydalanuvchining faolligi asta-sekin o‘sa borib, butunlay uning o‘zi boshqaradigan amaliy va aqliy harakatga aylanadi, kutubxonachi va foydalanuvchi o‘rtasidagi munosabat esa sheriklik xususiyatiga ega bo‘ladi.

Bunday hamkorlikning bir necha shakli bo‘lib, ular quyidagilardir:

1) faoliyatga kirishish; 2) mustaqil harakatlar (kutubxonachi va foydalanuvchi hamkorlikda bajaradilar); 3) madad harakatlar (kutubxonachi foydalanuvchiga oraliq maqsadni va unga erishish usullarini tanlashda yordam beradi hamda oxirgi natijani nazorat qiladi); 4) o‘zini-o‘zi boshqarish harakatlari (kutubxonachi umumiy maqsadni ko‘rsatishda va natijani baholashda ishtirok etadi); 5) o‘zini-o‘zi qo‘zg‘atuvchi harakatlar; 6) o‘zini-o‘zi uyushtiruvchi harakatlar.

Hamkorlikdagi faoliyat usullari birgalikdagi hatti-harakatlar shaklida namoyon bo‘lib, unga muloqot davrlari singari mazkur faoliyatning oddiy birliklari deb qarash mumkin. Hamkorlikdagi faoliyat davri quyidagi almashuvni o‘z ichiga oladi: Kutubxonachi faol tarzda harakatni boshlab beradi, foydalanuvchi uni davom ettiradi yoki tugallaydi.

Kutubxonada hamkorlikdagi faoliyatning xususiyatlarini o‘rganish va tajribada sinab ko‘rishning asosiy maqsadi foydalanuvchilarning nashr mahsulotlari mazmuni yoki axborotlarni o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklarning

sabablarini va manbalarini tadqiq etish hamda hamkorlik jarayonida yoki hamkorlikdagi faoliyatda nashr mahsulotlari mazmuni va axborotlarni o‘zlashtirish samaradorligini oshirishning asosiy omillarini aniqlashdan iboratdir.

Bunda kutubxonachi asosiy ta’sir o‘tkazuvchi sifatida foydalanuvchining barqarorligi, xarakterining mustahkamligi, ehtiyoj, motiv, maslak, salohiyati singari subyektiv shart-sharoitlarni hisobga olishi, uning imkoniyatlarining ro‘yobga chiqishiga ko‘maklashishi kerak.

Bu imkoniyatlar foydalanuvchining o‘zini-o‘zi kashf etishi, o‘ziga-o‘ziga buyruq berishi, o‘zini-o‘zi takomilashtirishga intilishi, o‘zini-o‘zi baholay bilishi, o‘zini-o‘zi nazorat qila bilishi, o‘zini-o‘zi boshqarishi ko‘nikmalarini shakllantira bilishi orqali namoyon bo‘ladi.

XV. BOB. Ommaviy va guruhli tarzdagi kutubxona – axborot xizmati texnologiyasi.

15.1. Ommaviy tarzda kutubxona–axborot xizmati ko‘rsatish hamkor muassasalar bilan aloqadorlikni mustahkamlash va kutubxonalar ta’sirini kengaytirish vositasi sifatida.

“Ommaviy xizmat” tushunchasi kutubxonalar tomonidan madaniy – bo‘sh vaqt faoliyatini turli tadbirlar vositasida amalga oshirish tizimidir.

Kutubxonada amalga oshiriladigan tadbirlar mutolaa va faoliyatning boshqa turlari bilan birga foydalanuvchilar ehtiyojining mavjudligi va rivojlanishini ta’minlaydigan shakllardan biri hisoblanadi.

Ommaviy xizmatning maqsadi – kutubxona-axborot xizmatidan foydalanuvchilarning barchasini maksimal darajada to‘liq axborot bilan ta’minlash, bilish faoliyatini rivojlantirishdir.

Kutubxona – axborot xizmatining maqsadi kutubxonaning axborotga oid, ta’limiy, madaniy, kommunikativ, ijtimoiylashtiruvchi vazifalaridan kelib chiqadi. Ko‘pgina tadqiqotlar natijalariga ko‘ra kutubxonachi turli ommaviy tadbirlarga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish uchun ish vaqtining 30-50 foizini sarflaydi.

Chunki ommaviy xizmat foydalanuvchilarning muayyan yoki barcha guruhlariga ta’sir o‘tkazishning ko‘rgazmali og‘zaki, bosma nashrlarga tayanadigan majmuaviy vositasi hisoblanadi.

O‘tkaziladigan ommaviy yoki guruhiy tadbirning sifati eng avvalo uning mavzusining tanlanishi va shakllantirishiga bog‘liqdir.

Mavzuning dolzarbligidan kelib chiqqan holda ularning har biriga bag‘ishlab alohida tadbir tashkil etish maqsadga muvofiq emas.

Aksincha o‘tkaziladigan tadbir mazmunini yanada chuqurroq ochib berishga xizmat qiladigan vositalarning qo‘llanilishiga e’tiborni qaratish zarur.

Masalan, adabiy kecha yoki og‘zaki jurnal mazmunining to‘la ochilishi uchun muayyan sohadagi mutaxassislarni ham taklif etish muhim ahamiyatga egadir.

Tadbir mavzusining shakllantirilishiga ham alohida e’tibor qaratish zarur. Uning mavzusi diqqat e’tiborni jalb etadigan, bo‘lajak tadbir auditoriyasining shakllanishiga xizmat qiladigan “tashrif kartotekasi” bo‘lib xizmat qilishi kerak.

Bundan tashqari tadbirlarning tashkil etilishi kutubxonachilar tomonidan amalga oshirilishi bilan birga ularda faol foydalanuvchilarning ham ishtirok etishi uning samaradorligining oshishiga xizmat qiladi.

Kutubxonada tanlov sifatida o‘tkaziladigan tadbirlar o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, u dars jarayonida, mustaqil o‘rganish asosida olingan bilimlarni mustahkamlash, to‘ldirishga xizmat qiladi; kitobxonlarning qiziqishiga ko‘ra uyushtiriladi; g‘oliblar aniqlanadi va rag‘batlantiriladi; tadbir jarayonida har bir kitobxonning ma’naviy qiziqishi, qobiliyati, saviyasi, tarbiyalanganlik darajasi namoyon bo‘ladi; tadbirni o‘tkazishda reja va dastur asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ayniqsa tadbirga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida tarixiy, diniy, adabiy, lisoniy manbalarni o‘rganish, ularni tashkil etish, qiyoslash natijasida bahs-munozaralar uyushtirish foydalanuvchilar ma’naviyati va bilim darajasining oshib borishiga xizmat qiladi. Kutubxonada tashkil etiladigan bahs-munozaradan quyidagi maqsadlarda foydalaniladi:

- Yangi bilimlarni shakllantirish;
- Foydalanuvchilarga u yoki bu savollarni chuqur o‘ylab ko‘rish, tub ma’nosiga yetishga motivasiyani ta’minlash;
- Foydalanuvchilarni dalil va dalilga asoslangan xulosa orasidagi farqni tushunib yetishga o‘rgatish;
- Kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish, foydalanuvchilarda o‘z fikrida mustaqil turish va uni himoya qilish layoqatini shakllantirish;

Erkin munozara foydalanuvchilarni faollashtirish maqsadida o‘tkazilganligi uchun kutubxonachi boshlovchi, hakam, yakunlovchi sifatida qatnashib, ularni o‘z dalillarini aniq ifoda etishga rag‘batlantirib borishi lozim. Bundan tashqari kitobxonlarda mustaqil fikrlash, mavzuni o‘rganishda mavjud manbalardan to‘g‘ri foydalanish, erkin mulohaza yuritish ko‘nikmasi ham shakllantiriladi.

Bugungi kunda kutubxonalarda “Madaniyat sohasidagi jaholat va unga qarshi ma’rifiy yo‘l bilan kurashish”, “Tadbirkorlik etikasi nima?”, “Iste’mol savatchasi nima?”, “Yoshlarning ma’naviy dunyosi qanday bo‘lishi lozim?”, “Vatan tuyg‘usi nima?”, “Baxt nima?” mavzularida qiziqarli bahs-munozaralar o‘tkazish mumkin.

Albatta bahs-munozara uchun tanlangan mavzu o‘tkazilayotgan davr uchun dolzarb ekanligi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, foydalanuvchilarni to‘la jalb eta bilishi kerak.

Foydalanuvchilarning har bir mavzu bo‘yicha munozaraga tayyorgarlik ko‘rishi jarayonida o‘z ustlarida qunt bilan ishlashi ularda o‘zligini anglashga bo‘lgan insoniy sifatlarning yuksalib borishiga ta’sir ko‘rsatadi. Bahs-munozaralarni samarali tashkil etishda foydalanuvchilardan quyidagi uchta qoidaga doimiy amal qilish talab qilinadi: “Munozaraga kirishdingmi, o‘yla, tafakkur qil va faol ishtirok et”, “Boshqa ishtirokchilarning shaxsini va fikrini hurmat qil”, “Mulohaza yuritishda mantiqiy tahlil qilishga va aniq manbalarga asoslanishga o‘rgan”.

Foydalanuvchilar bahs-munozarada qatnashar ekanlar, o‘z nuqtai nazarlarini bayon etish bilan birga, amaliy faoliyatlariga, axloqiy mezon va meyorlarga, hatti-harakatlariga ham murojaat etadilar.

Munozara mavzusiga singdirilgan ma’naviy – axloqiy mezonlarni o‘zlarining ma’naviy fazilatlari bilan uyg‘unlashtirib boradilar. Bunga “Baxt nima?” mavzusida o‘tkaziladigan munozarani misol sifatida keltiradigan bo‘lsak, foydalanuvchilar munozara davomida “baxt” so‘zining mohiyati, buyuk mutafakkirlar, ulug‘ allomalarning “baxt” haqidagi ta’riflari, baxt va baxtiyorlikning shoirlar nazdidagi madhlari, qanday kishilarni baxtiyor odamlar toifasiga qo‘shish mumkin, umuman baxtning muayyan o‘lchovi va meyori bormi?, boylik baxt o‘lchovi bo‘la oladimi? Siz baxtli insonlar deganda kimlarni tushunasiz? Baxtning har bir kishi uchun alohida o‘lchovi mavjudmi? Kabi ko‘plab savollarga javob topishga harakat qiladilar. Muayyan mavzularga oid munozaralar ushbu yo‘nalish bo‘yicha foydalanuvchilarni ko‘plab kitoblar bilan tanishib

chiqishdan tashqari ma’lumot-bibliografiya tizimidan ham foydalanishga yo‘naltiradi. Bu o‘z navbatida mutolaa madaniyatining shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Yuqorida bildirilgan fikrlarni umumlashtirgan holda ta’kidlash mumkinki, kutubxonada amalga oshiriladigan ommaviy xizmatlar quyidagi vazifalarni bajaradi:

- Kutubxonadan foydalanuvchilarning axborot madaniyatini shakllantirish;
- Mutolaa va axborotdan ijtimoiy va intelektual muammolarni hal etish vositasi sifatida foydalanish ehtiyoji va malakasini shakllantirish;
- Zamonaviy insoning rivojlanishida mutolaa, kutubxona, axborotga real qadriyatlar sifatida munosabatda bo‘lish tuyg‘usini shakllantirish;
- “o‘qimaydiganlar”ni mutolaa jarayoniga jalb etish.

Ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda kutubxonalar bilan o‘zaro hamkorlik qiluvchi tashkilotlar va muassasalarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Tadbirlarni o‘z bazasida o‘tkazishdan manfaatdor bo‘lgan va shu asosda kutubxona bilan hamkorlik qiluvchi tashkilotlar va muassasalar bo‘lib, ularga bolalar uylari, maktablar, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari, oliy o‘quv yurtlari, turli uyushma va jamiyatlar kiritiladi.
2. Madaniy tadbir darajasini oshirish maqsadida imkoniyatlaridan keng miqyosda foydalanish mumkin bo‘lgan muassasalar: muzeylar, teatrlar, yozuvchilar, rassomlar, kompozitorlar ijodiy uyushmalari, medisina dispanserlari, harbiy komissariat kabilar. Ular bilan birgalikda kutubxonalar ijodiy uchrashuvlar, sog‘lom turmush tarzi muammolari, vatanparvarlik tarbiyasi va hakozolarga oid tadbirlar uyushtirishi mumkin.
3. Davlat muassasalari – aholini ijtimoiy himoya qilish organlari, yoshlar ittifoqi, jismoniy tarbiya va sport qo‘mitalari bilan hamkorlikda tadbirlar o‘tkazishidan tashqari, ular ushbu tadbirlarga homiylik qilishlari ham mumkin.

4. Tijorat tashkilotlari, zavodlar, ishlab chiqarish korxonalari. Ular bilan hamkorlikda mehnat veteranlari, yubiliy kechalari bolalar bayramlarini tashkil etish mumkin.
5. Kutubxonalar turli tadbirlar va xizmatlarni reklama qilish, eng na’munali foydalanuvchilar haqida axborot berib borish uchun ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qiladilar.

Zamonaviy texnologiyalarning keng qo‘llanilishi natijasida “ommaviy xizmatlar”ning an’anaviy shakllari bilan birga internet – konferensiyaalr o‘tkazish, web-dizaynni qo‘llash va ko‘rgazmalilikning samaradorligini kuchaytiruvchi vositalardan keng foydalanilmoqda.

15.2. Xorijiy mamlakatlarda ommaviy tarzda kutubxona–axborot xizmati ko‘rsatish tajribasi.

Xorijiy mamlakatlarda ommaviy kutubxonalar, asosan, munisipalitet kutubxonalari kundalik faoliyatida, jumladan ommaviy xizmat ko‘rsatishda aholining bo‘sh vaqtini tashkil etish, ularni madaniyat va san’atning eng yaxshi namunalaridan bahramand qilishga alohida e’tibor beradilar. AQSH, Irlandiya, Portugaliya ommaviy kutubxonalari kompyuterda ishlash malakasi bo‘yicha Yevropa namunasidagi hujjatlariga ega bo‘lish markazlari hisoblanadi. Ular muloqotdan tashqari kompyuter savodxonligini o‘rgatish uchun keksalar klublarini tashkil qiladilar. Ispaniya, Buyuk Britaniya singari mamlakatlarda kutubxonalar tomonidan “Kitob klublari”, “Tarix festivallari”, “Uy vazifalarini bajarish klublari” tashkil etilgan.

AQSH kutubxonalari mahalliy jamoalar va o‘lkashunoslikka oid axborotlarning markazi sifatida o‘zlarining asosiy faoliyatidan tashqari kurslar va klublar, mahalliy jamoalar uchun axborot xizmati tashkil qiladilar, muntazam tarzda ko‘rgazmalar, konsertlar, musiqaviy va poeziya kechalari o‘tkazib boriladi. Kasalxonalarda davolanayotganlar, keksalar uylarida yashaydiganlar, qamoqxonadagilar uchun ko‘chma kutubxonalar o‘z xizmatlarini taqdim qilmoqdalar.

15.3. Guruhli va yalpi tarzda kutubxona–axborot xizmati koʻrsatish.

Ommaviy tarzda kutubxona – axborot xizmati koʻrsatish guruhli va yalpi shakllarga ajratiladi.

Guruhli tarzda kutubxona – axborot xizmati koʻrsatish muayan qiziqishlariga koʻra birlashgan foydalanuvchilarning ehtiyojlariga binoan tabaqalashitirilgan yondashuvga asoslanadi. Guruhlar yoshi, kasbi, ijtimoiy-demografik va boshqa belgilariga koʻra shakllanadi. Yosh xususiyatlariga koʻra maktabgacha yoshdagilar, kichik maktab yoshdagilar, oʻsmirlar, oʻspirinlar kabi guruhlarga ham ajratilishi mumkin. Ushbu guruhlarni bosma nashr mahsulotlari, axborotlar orqali ijtimoiylashuv jarayonining qatnashchilari sifatida ota-onalar, tarbiyachilar, oʻqituvchilarga ham xizmat koʻrsatiladi.

Guruhli va yalpi tarzda kutubxona–axborot xizmati koʻrsatishni amalga oshirishda koʻrgazmali, ogʻzaki va majmuaviy usullar, shakllar, metodlar qoʻllaniladi. Koʻrgazmali shakllar, ya’ni kitob koʻrgazmalari va kutubxona plakati orqali hujjatlar namoyish qilinsa, boshqa tasviriy vositalar orqali ularning mazmuni ochib beriladi.

Kutubxona koʻrgazmasi – kutubxona fondini namoyish qilish vositasi boʻlib, eng yaxshi bosma nashrlar va axborotlar haqida ma’lumot berish hamda ularni targʻib qilishdir.

Kutubxona koʻrgazmalari quyidagi belgilariga koʻra tasniflanadi:

- Mazmuniga koʻra (universal va mavzular boʻyicha);
- Foydalanuvchilarga moʻljallanganligiga koʻra (yosh xususiyatlari boʻyicha, mustaqil ta’limga yordam, oʻqishga yordam va boshq.);
- Oʻtkaziladigan joyi (muassasada yoki koʻchma);
- Oʻtkazilish vaqti (doimiy, muvaqqat).

Soʻnggi yillarda kutubxonalar koʻrgazmalarining koʻrgazma – dialog, koʻrgazma – vernisaj, koʻrgazma – munozara, mualliflar taqdimoti koʻrgazmasi, kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda virtual koʻrgazmalar va boshqa koʻp turlari paydo boʻlmoqda.

Kutubxonalar koʻrgazmalarining ushbu turlari bilan ham cheklanib qolish mumkin emas, chunki kutubxonachilarning ijodiy yondashuvlari asosida yangi-yangi turlari kashf qilinmoqda.

Kutubxonalar koʻrgazmalarini oʻtkazishga tayyorgarlik koʻrishning asosiy texnologik bosqichlari quyidagilardir:

1. Mavzuning tanlanishi va oʻtkazish vaqtini belgilash. Mavzu foydalanuvchilar uchun qiziqarli hamda dolzarb boʻlishi kerak. Mavzuni belgilash uchun ensiklopediyalar, lugʻatlar, darsliklar, oʻquv qoʻllanmalarini oʻrganib chiqish zarurdir.
2. Foydalanuvchilar qiziqishi, ehtiyojga koʻra maqsadni belgilash ommaviy tadbirlarga tabaqalashtirilgan tarzda yondashishning muhim talablaridandir.

Koʻrgazma maqsadi, mazmunini toʻgʻri anglashga ta’sir oʻtkazuvchi omillar foydalanuvchilar yoshi, jinsi va ma’lumot darajasidir. Koʻrgazmalarini tashkil etishda maqsadga yoʻnaltirilganlik mutolaa motivi va kutubxonaga qatnovga muvofiq keladi.

Zamonaviy foydalanuvchilarning mutolaa motivi kutubxona sosiologlari fikriga koʻra yangilikka intilish, mustaqil bilim olish va oʻz-oʻzini namoyon qilishdir.

3. Koʻrgazmaning tuzilishini belgilash (mavzuni ochib berish uchun qanday boʻlimlar mavjud boʻlishi aniq belgilanadi). Ushbu boʻlimlardan biri albatta oʻlkashunoslikka oid boʻlishi tavsiya qilinadi.
4. Ashyolarni namoyish qilishga tayyorlash: hujjatlarning bibliografik tasviri. Chet tillardagi hujjatlarni namoyish qilishda sarlavhaning tarjimasi, annotasiya, referat mavjud boʻlishi shart.
5. Kutubxona koʻrgazmasini tashkil etish ijodiy jarayon boʻlganligi uchun qatnashchilar e’tiborini qaratish uchun uning dizayni, oʻziga xosligi, nomlanishi, moddiy madaniyatga oid ashyolardan foydalanish ham alohida taasurot qoldiradigan boʻlishi zarur.

6. Koʻrgazmani namoyish etish. Ushbu bosqich targʻib qilishdan iborat boʻlib, sharxlar uyushtirish, suhbatlar oʻtkazish, kompyuterlar orqali taqdimot oʻtkazish kabilarni qamrab oladi.
7. Samaradorlikni hisobga olish. Koʻrgazma samaradorligini belgilovchi asosiy meʼzon nashr mahsulotlari, maʼlumotlar va axborotlar berishning miqdori hisoblanadi.

Qatnashchilarning koʻrgazmaga munosabatini soʻrov, anketa, kuzatish metodlari orqali aniqlanadi. Bunda eng qulayi kuzatish metodi boʻlib, kutubxonachi oldindan tayyorlangan jadval orqali qatnashchilarning koʻrgazmaga munosabatini qayd etib boradi. Jadval quyidagi nuqtai nazardan tuzilishi mumkin:

– Diqqat – eʼtibor bermasdan koʻrgazma yaqinidan oʻtib ketdi, koʻrgazma yaqinidan oʻtdi, lekin salgina eʼtibor berdi;
– Koʻrgazmaga yaqin keldi, baʼzi hujjatlarga eʼtibor berdi va ketdi; koʻrgazmaga yaqin keldi, baʼzi kitoblarni varaqlab koʻrdi;
– Koʻrgazma bilan tanishdi, oʻz formulyarida qayd ettirish uchun kitob oldi.

Kuzatish oxirida kutubxonachi qatnashchilarning koʻrgazmaga munosabatini umumlashtiruvchi hisobot yozadi. Koʻrgazmadagi asosiy hujjatlar qatnashchilar tomonidan olib boʻlinishi yoki koʻrgazmaga nisbatan qiziqish pasayishi bilan koʻrgazma namoyishi ham toʻxtatiladi.

Nashr mahsulotlari haqida axborot beruvchi anʼanaviy shakllarga matn va bezaklar uygʻunligidan tashkil topgan kutubxona plakati ham kiritiladi. Kutubxona plakatlari axborot beruvchi, metodik, targʻib va tashviq qiluvchi yoʻnalishlarda boʻlishi mimkin. Kutubxona plakatlari dolzarb mavzular, alohida kitoblar, muayyan yozuvchi yoki shoirning ijodiga bagʻishlanib va ularga foydalanuvchilar eʼtiborini jalb etish maqsadida tuziladi.

Kutubxona plakatini yaratishda eng avvalo uning kimlarga moʻljallanganligi, mavzuning obrazli tarzda ochilishi, qanday matnlarning berilishi, qanday kitoblar roʻyxatini qoʻshimcha ravishda tavsiya etish mumkinligini avvaldan chuqur rejalashtirilgan boʻlishi kerak. Shuningdek,

kutubxona plakatining foydalanuvchilarga ijobiy ta’sirini doimo saqlab qolish uchun bir xillik, yuzakilik bo‘lmasligi kerak.

Bibliografik sharh – mantiqiy izchillikda joylashtirilgan ma’lumotlarning qisqa bayonidir. Bibliografik sharhlarning vazifasi eng yaxshi bosma nashrlar haqida axborot berish va ularni reklama qilishdir. Bibliografik sharxlar kitoblar sharhi, davriy nashrlar sharhi, bibliografik qo‘llanmalar sharhi va h.k. ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Axborot sharhlari va yangi kelgan nashrlar haqidagi sharhlar ham bibliografik sharhning alohida turi hisoblanadi. Ular universal va mavzuga oid bo‘lishi mumkin. Mavzuga oid sharhlar o‘zlarining xilma-xilligiga ko‘ra mavzuli ko‘rgazmalarga yaqindir. Tayyorgarlik ko‘rish texnologiyasiga ko‘ra audiovizual ashyolar va multimediaviy texnologiyalardan foydalangan holda sharxlar o‘tkazish ancha murakkab hisoblanadi.

Kutubxona ko‘rgazmasi sharhi ham mavjud bo‘lib, u ko‘rgazma mavzusini va dolzarbligini asoslash, foydalanuvchilarga yo‘naltirilganligini aniqlash va tuzilishini ochib berishdan iborat. Keyingi yillarda yozma bibliografik sharhning yangi turi – daydjes (qisqa mazmun) keng tarqalmoqda. Daydjest – boshqa murakkab nashrlarning soddalashtirilgan, qisqa mazmunini aks ettiruvchi nashr turidir. Bibliografik sharhlar o‘tkazish kutubxona ommaviy tadbirlari majmuasida alohida ahamiyatga ega bo‘lgan mustaqil tadbir hisoblanadi.

Foydalanuvchilarning bo‘sh vaqti va qiziqishlari bo‘yicha atoqli yozuvchilar, shoirlar, olimlar, kompozitorlar, jamoat arboblari bilan uchrashuvlar, konkurslar, tadbirlar, bahs-munozaralar, qiziqishlar yo‘nalishi bo‘yicha klublar, mavzuli kechalar shakllarida o‘tkazilishi mumkin.

Bugungi kunda mamlakatimizda tadbirkorlik, kichik biznes innovasion g‘oyalar va texnologiyalarga katta e’tibor va ahamiyat berilayotganligi uning ma’naviy va intelektual asoslarini, ya’ni kutubxona – axborot xizmatini ham yuksak darajaga ko‘tarishni talab qiladi.

Ayniqsa hozirgi paytda sifatli va raqobatbardosh axborot xizmatiga ehtiyoj kuchayib bormoqda. Shundan kelib chiqqan holda kutubxona – axborot xizmatining quyidagi turlarini tavsiya qilish muhimdir:

– Dolzarb axborotlarni yig‘ish va elektron pochtalar orqali tezkorlik bilan yetkazish;
– Seminarlar tashkil etish, an’anaviy va telekommunikasion texnologiyalar yordamida axborot qidirish va topishga o‘rganish;
– Kichik biznes yo‘nalishi bo‘yicha konsultasiyalar tashkil etish;
– Ma’lumotlar bazasiga kirishni ta’minlash va h.k…

15.4. Kutubxona – axborot xizmatining samadorlik ko‘rsatgichlari.

Kutubxona–axborot xizmati samadorlik ko‘rsatgichlarini aniqlab olishdan avval “samara”, “samaradorlik” tushunchalari nimani anglatishini ko‘rib chiqmoq kerak.

“Samara”, “samaradorlik” tushunchalari “oqibat”, “natija”, “erishilgan daraja”, “foydalilik” ma’nolarini anglatadi. Iqtisod sohasida samaradorlik mahsulot ishlab chiqarish, sarflangan xarajat va olingan foyda nisbatiga ko‘ra baholansa, kutubxona – axborot xizmatida samaradorlik maqsadga erishish darajasi bilan bog‘liq bo‘lib, uni belgilash murakkab jarayondir.

Demak, kutubxona–axborot xizmatining samaradorligi faoliyat natijasining qo‘yilgan maqsadga muvofiqlik darajasi bilan belgilanadi.

Faoliyat samaradorligi ko‘rsatkichlari tizimi quyidagilarni baholash orqali aniqlanadi: 1) xizmat ko‘rsatish resurslari; 2) ulardan foydalanish intensivligi; 3) kutubxona – axborot xizmatining alohida turlari; 4) kutubxona – axborot xizmati ko‘rsatish madaniyati.

Baholash uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar kutubxona hujjatlari, kutubxona statistikasi, kuzatish, ekspertlar bahosi, anketa so‘rovi kabilarni tahlil qilish orqali aniqlanadi.

Kutubxona–axborot xizmati ko‘rsatish resurslarini baholash quyidagilarni aniqlash imkonini beradi:

– Kutubxona–axborot xizmatining ta’minlanganlik darajasi, ya’ni: kutubxona fondi, kutubxona mutaxassislari, moddiy – texnik asos (bino,

zamonaviy texnik jihozlar, dasturiy ta’minot, moliyaviy ta’minlanganlik va h.k…);

- Mavjud resurslar bilan maqsadga erishish imkoniyatlari;
- Kutubxona–axborot xizmati haqida foydalanuvchilar fikrlari;
- Nashr mahsulotlari bilan ta’minlanganlik (foydalanuvchilar tarkibi va muayyan hudud aholisi);
- Fondning aylanishi (bir butun tarzda, mavzuli bo‘limlar, hujjatlar turi bo‘yicha);
- Fonddan foydalanish darajasi (ochiq fond, yopiq fond);
- Ma’lumot qidiruv apparatidan foydalanish darajasi;
- Kutubxonaning ish vaqti;
- Xizmat ko‘rsatuvchi personal bilan ta’minlanganligi;
- Yangi nashrlar bilan ta’minlanganligi va h.k…

Bundan tashqari kutubxona – axborot xizmati ko‘rsatish turlarining kengayib borishi yoki qisqartirilishi, foydalanuvchilarning psixologik holatini hisobga oluvchi kutubxonadagi qulaylik darajasi ham ko‘rib chiqiladi.

Samaradorlik ko‘rsatichlarining ikkinchi guruhi kutubxona axborot xizmatining intensivligini baholashga imkon beradi.

Intensivlik quyidagi o‘rtacha ko‘rsatgichlar yordamida aniqlanadi:

Kutubxonaga qatnov (qatnov miqdori foydalanuvchilar miqdoriga bo‘linadi);

Fondning aylanishi (berilgan bosma nashrlar va ma’lumotlar miqdori fond miqdoriga bo‘linadi);

Mutolaa (berilgan bosma nashrlar va ma’lumotlar miqdori foydalanuvchilar miqdoriga bo‘linadi);

Bosma nashrlar va ma’lumotlar bilan ta’minlanganlik (fond miqdori foydalanuvchilar miqdoriga bo‘linadi);

Har bir kutubxonachi yuklamasi (foydalanuvchilar, bosma nashrlar va ma’lumotlarni yetkazish, yangi bosma nashrlar bilan ta’minlanganlik).

Koʻrsatgichlarning uchinchi guruhi kutubxona – axborot xizmatining alohida yoʻnalishlarining natijalarini baholashni aks ettiradi (ularning bajarilishi sifati, taqdim etilgan axborotlardan foydalanuvchilarning qoniqish darajasi ham qoʻshiladi).

Foydalanuvchi soʻrovining qoniqtirilishi yoki qoniqtirilmaganligi natijaviylikning asosiy koʻrsatgichidir.

“Foydalanuvchi soʻrovining qoniqtirilishi” koʻrsatgichi “soʻrovning bajarilishiga yaqinlashuv”, “soʻrovning aniq bajarilishi va ehtiyojlarning rivojlanishi” darajalariga boʻlinadi.

Kutubxona–axborot xizmatining natijaviyligi “foydalanuvchining axborot madaniyati darajasi” va “kutubxonachining foydalanuvchilar bilan muloqot madaniyati darajasi” bilan ham belgilanadi. Kutubxona – axborot xizmatining koʻrsatgich sifati – tezkorlikdir.

Foydalanuvchi soʻrovining qondirilishi darajasi muayyan vaqt davomida barcha soʻrovlarning qondirilishiga nisbatan olingan miqdoriy koʻrsatgichga asoslanadi.

Guruhiy va yalpi ommaviy kutubxona – axborot xizmati koʻrsatish samaradorligining koʻrsatgichlari quydagilardir:

-tadbirda qatnashgan mutaxassislar miqdori va darajasi;

-tadbirda qatnashgan mutaxassislar miqdori va nomenklaturasi;

-foydalanuvchilarga tanishishi uchun taqdim etilgan hujjatlar miqdori va turi.

Kutubxonada oʻtkaziladigan tadbirlar (axborot kuni, foydalanuvchilar anjumani, kutubxona koʻrgazmasi, suhbat va munozaralar va h.k) natijaviyligi foydalanuvchilar extiyoji va maqsadining muvofiq kelishiga binoan quyidagi holatlar boʻyicha belgilanadi.

1) Tadbir mavzusi;
2) Mavzu boʻyicha taqdim etilgan hujjatlar mazmuni;
3) Xizmat koʻrsatish shakllari;
4) Jihozlanishi;

5) O‘tkaziladigan joy;
6) O‘tkaziladigan vaqti (amalga oshirish vaqti va davomiyligi).

Ushbu ko‘rsatgichlar ekspertlar bahosi va anketa savollari orqali aniqlanadi. Kutubxona–axborot xizmatini muntazam tarzda baholab borish foydalanuvchilarning o‘zgarib boruvchi extiyojlariga muvofiq ushbu tizimning moslashuvi va marketinggi uchun shart – sharoit bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun kutubxona – axborot xizmatining shaxs, jamiyat hayotida madaniy qadryatlarni, bilimlarni, ahloqiy meyorlarni tarqatishdagi roli oshib boradi.

XVI. BOB. Kutubxona – axborot xizmatini tashkil etish tizimi.

16.1. Kutubxona – axborot xizmatining tarkibiy bo‘linmalari.

Kutubxona–axborot xizmati ko‘rsatishning an’anaviy tizimi asosan abonoment va o‘quv zalidan iborat bo‘lsada so‘ngi yillarda nashr mahsulotla- ridan tashqari mediateka, artoteka, diateka, videoteka singari turlari ham faoliyat ko‘rsatmoqda.

16.2. Abonoment - kutubxona – axborot xizmatinining asosiy bo‘limi.

Abonoment – nashr mahsulotlari yoki boshqa hujjatlardan muayyan vaqt davomida kutubxonadan tashqarida foydalanish uchun foydalanuvchilarga yakka tartibda yoki jamoaviy xizmat ko‘rsatish shaklidir.

Abonomentning quydagi turlari mavjud:

-Foydalanuvchilarning barcha ijtimoiy qatlamlariga xizmat ko‘rsatuvchi umumiy abonoment (kichik kutubxonalarda);

- Foydalanuvchilarning muayyan qatlamlari yoki guruhlariga xizmat qiluvchi (o‘smirlar, talabalar, ilmiy xodimlar va h k...) guruxlashtirilgan abonoment;

- Foydalanuvchilarga muayyan bilim sohalari (iqtisodiyot, texnika, badiiy adabiyot, san’at, notalar va musiqaga oid va h.k…) bo‘yicha xizmat ko‘rsatuvchi sohaviy abonoment;

-Konsul’tant, tanlangan nashr mahsulotini qayd etish, topshirilgan nashr mahsuloti yoki hujjatni qabul qilish turli kutubxonachilar tomonidan amalga oshiriladigan funksional abonoment.

Kutubxonalararo abonoment – muayyan kutubxona fondida mavjud bo‘lmagan hollarda boshqa kutubxonalar fondidagi bosma nashrlar yoki hujjatlardan ma’lum muddatga olib foydalanish shaklidir. KAT (Kutubxonalararo abonoment tizimi) birinchi bo‘lib, 1892 yildan Germaniyada qo‘llanila boshlagan .

Mamlakatimizda bugungi kunda ushbu tizmning rivojlanishiga alohida e’tibor berilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil, 17-

sentabrdagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish , kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi tug‘risida”gi Qarorida “O‘zbekiston Milliy kutubxonasi va axborot – kutubxona markazlaridagi barcha turdagi axborot – kutubxona resurslarining yagona bazasini shakllantirish va undan boshqa axborot – kutubxona muassasalarida turib foydalanishni ta’minlash” masalasi alohida ta’kidlangan. Kutubxonalararo Halqaro abonoment turli mamlakatlarning yirik kutubxonalarida mavjud bulib, IFLA (Kutubxonalar Assosiasiyasi Xalqaro Federasiyasi) tomonidan ishlab chiqilgan qoidalar asosida faoliyat ko‘rsatadi.

16.3. O‘quv zallarida kutubxona – axborot xizmatini tashkil etish.

O‘quv zali mahsus jihozlangan bino bo‘lib, unda foydalanuvchilar uchun har tomonlama qulaylik yaratilishi, ularning ijodiy faoliyat yuritishlari uchun shart – sharoit, muhit mavjudligiga alohida e’tibor beriladi. Kutubxonalarning katta-kichikligiga qarab umumiy va maxsus o‘quv zallari mavjuddir. Kichik kutubxonalarda hamma foydalanuvchilar uchun bitta umumiy zal mavjud bo‘lib, kutubxona fondidagi barcha nashr mahsulotlari turlari bo‘yicha xizmat kursatadi. Yirik kutubxonalarda esa barcha foydalanuvchilar tabaqalanishiga ko‘ra (talabalar, ilmiy xodimlar, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar, o‘smirlar va x.k…) maxsus o‘quv zallari xizmat ko‘rsatadi. Bundan tashqari bilim sohalari (texnika adabiyotlari, ijtimoiy fanlar, yuridik adabiyotlar va x.k…), nashr mahsulotlari turlari (davriy nashrlar, dissertasiyalar, noyob kitoblar, patentlar, meyoriy - texnik nashrlar, yangi nashrlar) o‘quv zallari ham mavjuddir.

O‘quv zalida kutubxona – axborot xizmati ko‘rsatish kutubxonaning barcha bo‘limlari uchun umumiy bo‘lgan foydalanuvchi xizmati bo‘yicha amalga oshiriladi. Ko‘pgina xorijiy mamlakatlarda (Finlyandiya, Daniya) foydalanuvchilarga shahardagi barcha kutubxonalar uchun umumiy bo‘lgan foydalanuvchi xujjati orqali xizmat ko‘rsatilsa, ba’zi mamlakatlarda ijtimoiy karta (avtomobildan vaqtincha foydalanish, aviabilet ham sotib olish mumkin) orqali amalga oshiriladi. O‘quv zali kutubxonadagi boshqa bo‘limlar ish rejasidan uzoq

davomiyligiga koʻra farqlanadi. Koʻpgina xorijiy mamlakatlarda universitet kutubxonalarining oʻquv zallari sessiya paytida ertalabki 4 gacha ishlaydi.

Soʻngi oʻn yilliklarda axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan kutubxona – axborot xizmatining doimiy tizimi ham oʻzgarishlarga uchrab, elektron oʻquv zallari, internet-sinflar, biznes-axborot markazlari paydo boʻlishiga olib keldi. Elektron oʻquv zali foydalanuvchilarning axborotlarni elektron vositalar orqali olish yoki internetdan kutubxona kompyuterlari, shaxsiy noutbuk orqali olishni anglatadi. Koʻpincha elektron oʻquv zalini virtual oʻquv zali tushunchasi bilan bir qatorda quyiladi. Aslida virtual oʻquv zali internet tizimi bilan bogʻlangan, har qanday foydalanuvchi uchun har qanday joyda mavjud boʻlgan, jismoniy xususiyatga ega boʻlmagan ,,oʻquv zali’’dir. Shuning uchun ham u aniq kutubxonadagi elektron oʻquv zalidan farq qiladi.

XVII. BOB. Kutubxona – axborot xizmatini nashr mahsulotlaridan tashqari amalga oshirish shakllari.

Kutubxona – axborot xizmatini nashr mahsulotlaridan tashqari amalga oshirish shakllari mediateka, artoteka, diateka, videotekadan iboratdir. Mediateka tushunchasi fransuzcha ma’noga ega bo‘lib, axborotni nashr mahsulotlariga bog‘liq bo‘lmagan holda yetkazuvchi ixtisoslashgan kutubxona ma’nosini anglatadi. Mediateka – uzluksiz ta’lim maqsadlarida tashkil yetilgan, shaxsning bugungi hayoti davomida rivojlanishi, o‘qishi va mustaqil ta’lim olishi bilan bog‘liq bo‘lgan ehtiyojlarining qondirilishi maqsadida tashkil etilgan axborot beruvchi, ta’limiy va madaniy markazdir. Mediateka orqali foydalanuvchilar kompyuter savodxonligi va videoma-daniyat asoslarini egallagan holda kino, video, teledasturlarni ko‘radilar, video, audio, lazer texnikasidan foydalanadilar va yangi texnologiyalarni o‘rganadilar, madaniy tadbirlar o‘tkazadilar, ko‘rgazmalar tashkil etadilar. Shuning uchun ham mediatekani tashkil etish maxsus bino va jihozlar mavjud bo‘lishini talab qiladi.

Mediatekaning tarkibiy qismlari artoteka, diateka, videotekalardir. Artoteka – insonning estetik va ma’naviy rivojlanishi uchun vosita sifati-da xizmat qiluvchi san’at asarlari, ayniqsa rassomlik san’ati bilan bog‘liq bo‘lgan ijod namunalari to‘plami hisoblanadi. Diateka – diafil’mlar va slaydlar to‘plamidir. Videoteka – turli fil’mlarning kompakt disklardagi to‘plamidir. Kutubxonalarning maxsus bo‘linmalari uchun hos bo‘lgan maxsus fondlar tashkil etish va saqlashning muayyan shart – sharoitlarini talab qiladi.

Ko‘pgina xorijiy mamlakatlar kutubxonalari mediatekalarga egadir. Yevropaning Fransiya, Germaniya singari davlatlarida, Amerika Qo‘shma Shtatlarida mediatekalar kutubxonaning alohida bo‘linmasi sifatida ham, alohida muassasa sifatida ham mavjuddir. Jumladan, Shtutgart mediatekasi yoki Parijdagi Jan Pol Mel’vill nomidagi mediatekani misol sifatida keltirish mumkin.

XVIII. BOB. Foydalanuvchilarga kutubxonadan tashqari xizmat koʻrsatish turlari

Kutubxona –axborot xizmatining ushbu turi muayyan sabablarga koʻra kutubxonaga kela olmaydigan foydalanuvchilarga xizmat koʻrsatish orqali muhim ijtimoiy vazifani bajaradi. Kutubxonadan tashqarida xizmat koʻrsatishning ananaviy shakllari kutubxona punktlari, koʻchma kutubxonalar, jumladan bibliobuslardir. Kutubxona punktlari kutubxona mavjud boʻlmagan axoli yashash joylarida, muassasalarda, oʻquvchilar, talabalar turar joylarida, bolalar yozgi lagerlarida muvaqqat tashkil etilishi mumkin. Kutubxona punktining ochilishida muayyan muassasa va kutubxona oʻrtasidagi shartnoma asos boʻladi hamda kutubxona punktini nashr mahsuloti bilan taminlaydi, muntazam yangilab boradi. Fondning tarkibi kutubxona punktidan foydalanuvchilar extiyojiga koʻra shakllantiriladi va unga kutubxona shtatida boʻlgan kutubxonachi xizmat koʻrsatadi. Koʻchma kutubxonalar chekka hududlardagi manzillarda, yozgi yaylovlarda faoliyat koʻrsatuvchilar uchun xizmat koʻrsatishga moʻljallangan. Xorijiy mamlakatlarda koʻchma kutubxonalar qariyalar uylarida yashovchilar va nogironlar uchun. kasalxonalar va hatto turmadagilar uchun ham xizmat koʻrsatadi. Koʻchma kutubxonaning bugungi kundagi eng tarqalgan turi –bibliobuslar boʻlib, kompyuterlar, axborot yetkazishning elektron vositalari bilan ham maxsus jihozlangan boʻladi. Ananaviy xizmat koʻrsatish turlaridan tashqari bibliobuslar yozuvchilar, aktyorlar bilan uchrashuvlar tashkil etishi, oʻz foydalanuvchilarining extiyojlarini oʻrganishi boʻyicha tadqiqotlar oʻtkazishi ham mumkin. Bibliobusning harakat yoʻnalishi , ish vaqti, muayyan hududdagi punktda turish vaqti kutubxona va mahalliy hokimiyat oʻrtasidagi kelishuvga binoan belgilanadi. Bibliobuslar orqali kutubxona-axborot xizmati koʻrsatish kutubxonada amalga oshiriladigan xizmatdan unchalik farq qilmaydi. Bugungi kunda bibliobuslardan koʻpgina mamlakatlarda xususan AQSH, Argentina, Avstraliya, Gresiya, Buyuk Britaniyada keng foydalanilmoqda. Kitobni uyga yetkazish insonparvarlik maqsadlarida keng qoʻllanilib, nogironlar va qariyalarga xizmat koʻrsatadi. Xizmat

ko‘rsatishning ushbu shakli kutubxonadan foydalanuvchilar miqdorini saqlash, muloqot va mutolaa yordamida amalga oshiriladigan ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashda muhim ahamiyatga egadir.

Kitobni uyga yetkazish amaliyoti xorijiy mamlakatlarda keng qo‘llaniladi. AQSH da Amerika kutubxonalari assosasiyasi tomonidan 1964-yildayoq qabul qilingan “Kutubxonalarning qariyalarga nisbatan masuliyati” nomli hujjatda kutubxona xizmati ko‘rsatish shakllari qariyalar, nogironlar va ularga tenglashtirilgan ijtimoiy muassasalar ehtiyojlariga ham mos kelishi shart ekanligi belgilab qo‘yilgan. Xizmat ko‘rsatishning ushbu turlari ko‘pgina Yevropa mamlakatlarida, Kanada va Yaponiyada ham mavjuddir.

XIX. BOB. Virtual (elektron) kutubxona xizmati

Virtual (elektron) kutubxona xizmati haqida so‘z byuritishdan avval elektron kutubxona tushunchasini aniqlashtirib olish zarur. Elektron kutubxonalarning yaratilishi mavjudligi va rivojlanishi tarixiy nuqtai nazardan quyidagilar bilan taqozolanadi:

Birinchidan, kutubxona omillarining tashqi jihatlariga munosabatiga ko‘ra kompyuter va kommunikativ tehnologiyalarning barcha uchun ochiq imkoniyatlarining mavjudligi;

Ikkinchidan, jamiyatning, eng avvalo, iqtisodiyot va yuksak tehnologiyalar taraqqiyotiga mos holda kutubxona-axborot tehnologiyalarning rivojlanishi. Shuni alohida takidlash joizki elektron kutubxonalar ananaviy kutubxonalarni inkor etuvchi emas, balki axborot xizmatini to‘ldiruvchi sifatida qabul qilinishi kerak. Aslida virtual kutubxona, raqamli kutubxona, mediateka, elektron kutubxona tushunchalari bir xil manoda qo‘llaniladi. Ularning ichida eng keng tarqalgani elektron kutubxona tushunchasi bo‘lganligi uchun ushbu tushuncha ko‘proq qo‘llaniladi. Elektron kutubxona –yalpi (lokal) yoki taqsimlangan elektron resurslarning tizimlashtirilgan jamlanmasidir. Elektron kutubxonalarning yaratilishidan asosiy maqsad :

1. Bosma nashr mahsulotlarining mazmuni bilan tanishish sharoitini yaratish orqali hizmat ko‘rsatish sifatini takomillashtirish; axborot xizmati sifatini oshirish,har qanday turdagi va mavzudagi axborot xizmati ko‘rsatilishi uchun imkoniyat yaratish, quyidagilar xisobiga elektron resurslardan foydalanishga o‘tishda foydalanuvchilar miqdorini oshirish;

- har qanday turdagi multimediya axboroti, tasvir va ahborot matni bilan tanishish uchun imkoniyat yaratish; turli jamlanmalar va fondlarda mavjud bo‘lgan ashyolar, turli darajadagi nashrlar, milliylik va muassasaga mansublik bo‘yicha chegaralanmagan malumotlar bilan tanishish imkoniyatini yaratish; keng

imkoniyatlarga ega bo‘lgan taminotchilar va axborot oluvchilar doirasini yanada kengaytirish;

- jismoniy yoki ijtimoiy jihatdan cheklangan foydalanuvchilarning axborotga ega bo‘lishidagi imkoniyatlarini oshirish; axborotning har qanday joyga (uyga, ofisga)yetib borish imkoniyatlarini kengaytirish; axborot olish uchun murojaat qilish va unga ega bo‘lish vaqtidagi cheklovlarni bartaraf qilish;
- yil davomida va har sutkada 24 soat foydalanishni taminlash;

2. Bosma nashrlar eng avvalo noyob va qimmatli nashrlarni saqlash,bosma va qo‘lyozma ashyolarga ilmiy sharhlar berish yo‘li bilan yangi xossalar bag‘ishlash, turli shakllarda, shuningdek, multimediyaning video,audio,shakllarida havolalar berish;

Elektron kutubxona turli xildagi resurslar:

- Kutubxona mulki sifatida uning serveri yoki binolarida saqlanayotgan resurslar;
- Ahborot bilan taminlovchilar serverida joylashtirilgan chekkadagi resurslar;
- Muayyan elektron kutubxona xodimlari tomonidan ko‘rib chiqilgan va baholangan chekkadagi resurslar;
- Chekkadagi barcha resurslardan foydalanish xizmatini tashkil etadi.Ulardan foydalanish foydalanuvchining erkin tanlovi va malakasiga bogliqdir. Elektron kutubxona kutubxonachisi mavzuli izlashni amalga oshirishga yordam berishni bilishi kerak.

  Elektron kutubxona mavjud bo‘lgan elektron resurslardan tashqari “buyurtmaga oid tijorat” tehnologiyasini keng qo‘llashi mumkin.Elektron kutubxonaning kutubxona axborot tizimidagi o‘rni va rolini to‘liq tushunish uchun quyidagi tushunchalarni bilish zarur:

- Ham ananaviy, ham elektron tehnologiyalar uchun yaroqli bo‘lgan kutubxona avtomatlashtirilgan tizimning turli tuman lokal va chetga joylashgan resurslar bilan aloqadorlikda faoliyat ko‘rsatishi.Portal-ajratilgan tarmoqda mavzuli qidiruvni jo‘natish nuqtasi, elektron resurslar katalogini avtomatik tarzda yaratish, axborotni avtomatlashtirilgan tarzda yig‘ish

tehnologiyasidir.Elektron resurslar va hujjatlarni elektron tarzda yetkazish tizimining tabiiy shart-sharoitlari sifatida paydo bo‘lgan kutubxonalararo abonement (KA) bir butun internet tizimi uchun ham hos bo‘lib, jamoa tarzida yoki yakka tartibda foydalanuvchilar uchun kitoblar, maqolalar, elektron materiallarni uzatish, hujjatlarni yetkazib berishdir. Pochta, faks, elektron pochta, buyurtma tarzda skaner qilish, elektron tarzda yetkazib berish – yetkazish mehanizmidir. Elektron resurslarni yaratish vositalari yoki bosma nashrlarni elektron resursga o‘tkazish kutubxonalarning nashriyotchilik funksiyasining o‘zgarishi va kengayishi, kataloglar, bibliografik ko‘rsatkichlar, sharhlar, uslubiy tavsiyanomalar, maqolalar chop etishdan tashqari kutubxona bosma nashr fondining asosiy mavzulari bo‘yicha lokal elektron resursni yaratishdir.Elektron kutubxonadan foydalanish:

- axborot tehnalogiyalarining rivojlanishi orqali tehnik taraqqiyotga erishishda;
- axborotlarni uzatish yangi turlarining paydo bo‘lishida;
- elektron ashyolarni saqlash va qayta ishlashning qog‘ozdagi nashrlarga nisbatan qulayligi va arzonligi;
- ijtimoiy, telekomunikasiyalar aloqa tizimining kengayishi;
- axborotlar, xujjatlardan erkin foydalanish;
- uzoq hududlarda joylashgan resurslardan keng foydalanish va kutubxonalar faolyatini uygunlashtirish hamda uyushtirishda muhim ahamiyatga egadir. Elektron resurslar, elektron ashyolar hujjatlar jamlanmasi bo‘lib, elektron kataloglar, bibliografik, referativ va faktografik malumotlar bazasi , elektron kitoblar va to‘liq matnli elektron jurnallar singarilarni o‘z ichiga oladi.

Metamalumot-axborot haqidagi ahborot hisoblanadi. Elektron kutubxona resurslaridan foydalanish quyidagi qulayliklarni yaratib beradi:

1. Ko‘p joy egallamasligi;
2. Bog‘lanishning osonligi, erkinligi;

3. Axborotga tezlikda ega bo‘lish;
4. Kuchli qidiruv aparatining mavjudligi;
5. Bir paytning o‘zida ko‘p foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatish mumkinligi va hakozolar.

Foydalanuvchilarning savollariga elektron pochta chat, sms orqali javob berish kutubxona axborot xizmatining virtual (elektron) usullari jumlasiga kiradi. Bu usullar yuzma-yuz javob berishdan unchalik farq qilmasada aloqa paytida kutubxonachiga foydalanuvching ovozi, yuz va tana harakatlari malum bo‘lmaganligi uchun uning ehtiyoji qanchalik darajada qondirilalayotganligini aniqlash imkoniyatining mavjud emasligi ularning asosiy kamchiligidir. Shuning uchun ham kutubxonachilarga virtual savol-javob jarayonini yuzma yuz aloqa davomida kechadigan tartibda shakllantirish tavsiya qilinadi. Lekin vaqti cheklangan, uydan chiqish imkoniyatiga ega bo‘lmagan, yuzma yuz aloqada tortinchoq bo‘lgan foydalanuvchilar uchun qulayligi, manbalarning barcha uchun ochiqligi sababli aksariyat kutubxonachilar faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi. O‘zining maqsadli yo‘nalishiga ko‘ra virtual(elektron) kutubxonalar quyidagi tartibda tavsiflanadi: -muayyan shaxslar yoki xodisalar haqidagi hujjatlarni uzoq muddat saqlash uchun mo‘ljallangan virtual (elektron)kutubxonalar;

- muayyan fanni uning yo‘nalishini yoki mavzusini mukammal o‘rganish uchun tayyorgarlikning yuksak darajasiga ega bo‘lgan mutahassislar va ilmiy hodimlar uchun mo‘ljallangan ilmiy virtual (elektron)kutubxonalar;
- talimni qo‘llab quvvatlashga yo‘naltirilgan o‘quv uslubiy virtual (elektron) kutubxonalar;
- fanning barcha sohalari bo‘yicha zaruriy axborotga ega bo‘lish uchun universal ensiklopediya tarzida tuzilgan malumotlar kutubxonasi;
- umumtalim darajasida muayyan fan yoki uning mavzusini majmuaviy tarzda yoritishga mo‘ljallangan ilmiy - ommaviy hususiyatga ega bo‘lgan marifiy harakteridagi kutubxonalar;
- muayyan maqsadga yo‘naltirilgan virtual (elektron) kutubxona.

Elektron pochta orqali malumot berish rivojlangan mamlakatlar kutubxonalarida XX asr 90-yillari o‘rtalaridan boshlangan. Elektron pochta orqali malumot olish uchun to‘ldirilishi lozim bo‘lgan savolnomalar ko‘pchilik kutubxonalarning veb-saytlarida joylashtirilgan bo‘lib, ularning eng qulayi internet ijtimoiy kutubxonasi (**www.ipl.orq**) savolnomasidir.

Elektron pochta orqali foydalanuvchiga malumot berish jarayoni sekinroq kechsada, bu usul kutubxonachiga tahlil qilish uchun qo‘shimcha vaqt beradi va javobning kengroq miqyosda amalga oshirilishiga imkoniyat yaratadi.

Malumotning qoniqarli bo‘lishi foydalanuvchiga elektron pochta orqali ko‘proq axborot olish uchun yana murojaat qilishi va uning hizmatidan takroran foydalanishga undaydi.

Virtual usulda axborot yetkazishning istiqbolli usullari sifatida chat, bir zumda xabar yetkazish va SMS orqali muloqot qilishni ham ko‘rsatib o‘tish lozim. Masalan, chat usulining afzalligi shundaki, u foydalanuvchi bilan savol – javob ko‘rinishida o‘tkazilishidan tashqari, unga kelajakda qo‘l kelishi mumkin bo‘lgan maslahatlarni ham berish mumkin. Muloqot real vaqt davomida amalga oshirilishi, vaqtning chegaralanganligi uchun savollarga shu zahoti javob qaytarishni maqsad qilgan kutubxonachilar chat usulidan ko‘proq foydalanadilar.

Foydalanuvchi tomonidan berilayotgan savollar izlanayotgan malumot va axborotning mazmunini chuqurroq tushunib yetish uchun kutubxonachi unga kerakligini tushuntirishi va nimani qidirishi kerakligini uning o‘zidan tasdiqlatib olishi lozim.

Foydalanuvchi kutubxonachining qanday ish bilan mashg‘ul ekanligini ko‘rib turishning imkoniyati yo‘qligi tufayli, unga bajarilayotgan ish haqida muntazam tarzda axborot berib borish tavsiya qilinadi. Ular o‘rtasidagi muloqot matn yozish orqali amalga oshirilayotganligi bois kutubxonachilarning foydalanuvchi hatti – harakatlarini kuzatib turish uchun imkoniyati bo‘lmaydi va muloqotning qanchalik samarali amalga oshayotganligini faqat foydalanuvchining yozayotgan javoblarini diqqat bilan o‘qib borish orqaligina aniqlashi mumkin. Eng asosiysi, foydalanuvchiga berilgan malumot uning ehtiyojini qanchalik darajada

qondirayotganligidadir. Kutubxonachi foydalanuvchiga qo‘shimcha malumot olish uchun savollar bilan doimo murojaat qilib turishi mumkinligini eslatib turishni unutmasligi kerak. Chat usuli orqali malumot berib turishning eng katta afzalligi shundaki, kutubxonachi keyinchalik ham muloqot jarayonini takroran ko‘rib chiqish imkoniyatini saqlab qoladi.

Kutubxonachi foydalanuvchilarni axborot bilan taminlash maqsadida aloqada bo‘lish jarayonida matn terar ekan, o‘zining doimo yordamga shay ekanligini namoyish qila olishi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu foydalanuvchining kutubxona axborot xizmatidan muntazam foydalanishi uchun mustaxkam zamin yaratdi.

Qanday malumot kerakligini aniqlashga qaratilgan savol – javobning muntazam amalga oshirilishi, tekshirilgan manbalarni tavsiya qilish, berilgan malumotning foydalanuvchining ehtiyojini qay darajada qondirilganligini tekshirib turish, foydalanuvchilar nazarida ularning ehtiyojining qondirilishiga alohida etibor qaratayotgan kutubxona va kutubxonachiga nisbatan ijobiy fikr uygonishiga olib keladi. Foydalanuvchilar bilan faol ishlovchi kutubxonalar kutubxona haqidagi malumotlar yoki savollarga javoblarni “feysbuk” (**www.facebook.com**) sayti vositasida taklif qilmoqda.

Lekin, shuni ham takidlash lozimki, virtual usulda malumot berish ko‘p holatlarda foydalanuvchilar mazkur usul to‘grisida bexabar bo‘lgani bois keng foydalanilmaydi. kutubxonalar o‘z saytlarida mazkur xizmat turini ko‘rinarli tarzda belgilashi va u kutubxona vebsaytining barcha sahifalarida ko‘rinarli tarzda bo‘lishini taminlash muhim ahamiyatga egadir. Virtual malumot berish tartib – qoidalari, mazkur xizmatdan kimlar foydalanishi mumkinligi ham hammaga ochiq oydin bo‘lishi ham ushbu xizmat usulining yanada kengayishi va takomillashishiga yordam beradi.

Virtual usulning yana bir qulayligi shundan iboratki, u orqali malumot beruvchi kutubxonachilar o‘z hamkasblarining faoliyatlarini kuzatish tizimlarini ham yaratishi mumkin bo‘lib, shu orqali bir – birlariga ish sifatini yaxshilashda yordam berish imkoniyati oshadi. Foydalanuvchilar bilan amalga oshirilgan

yozishmalarning transkripsiyalari muntazam tarzda o‘rganilishi va shu orqali ko‘rsatilayotgan xizmatlarning sifati darajasini aniqlab borish mumkinligi ham katta ahamiyatga egadir.

Malumot berish xizmatining barcha turlarida muvaffaqiyat faqat yetkazilgan axborot bilan cheklanib qolmasdan, foydalanuvchi va kutubxonachi o‘rtasidagi munosobatlarning darajasiga ham bogliqdir.

Ayniqsa, foydalanuvchining olingan axborot va kutubxonachining munosabatidan qoniqqanligini kutubxonachining quyidagi harakatlari belgilab beradi:

1. Foydalanuvchini diqqat bilan samimiy tinglash;
2. Axborot manbalarini foydalanuvchi bilan birga izlash;
3. Axborot manbalari bilan taminlash;
4. Foydalanuvchiga uning savollariga qanchalik darajada to‘liq javob berilganligi bilan qiziqish;
5. Foydalanuvchiga qo‘shimcha malumot kerak bo‘lgan taqdirda qaytadan murojaat qilishi mumkinligini takidlash orqali doimo yordamga tayyor ekanligini namoyon qilishi.

Kutubxona – axborot xizmati foydalanuvchilariga yordam va yo‘l – yo‘riq ko‘rsatish usullari ham zamonaviylashib va takomillashib borayotgan hozirgi paytda yuqori darajada xizmat ko‘rsatishga tayyorgarlik ko‘rish ular ehtiyojining qondirilishini taminlashda asosiy omil ekanligini doimo yodda tutmoq kerak.

XX. BOB. Kutubxona – axborot xizmatiningXXI asrdagi rivojlanish yo‘nalishlari

XXI asrning dastlabki o‘n yilliklari davomida axborot manzarasi jadal o‘zgarib borayotganligi hisobga olinayotgan bo‘lsa, kutubxonalar taqdim etayotgan asosiy xizmatlar turlarini ham qayta ko‘rib chiqish talab qilinadi.

Bir necha o‘n yillik davomida kutubxona – axborot xizmatlarini amalga oshirishda tashqi subyektlarni jalb qilish tendensiyasi kuzatilmoqda. YAni, odatda kutubxonalarda asosiy hisoblangan ko‘p vazifalar tashqi ijrochilar tomonidan amalga oshirilmoqda. jumladan, ko‘pchilik rivojlangan mamalakatlarda kutubxonalar kitoblarni taminotchidan shtrixli kod, yorliq va kiritib qo‘yilgan havfsizlik tasmalari bilan tayyor holda sotib olmoqdalar. Elektron to‘plamlar kam hollarda bevosita kutubxonalar tomonidan boshqarilmoqda.

Tashqi ijrochilar, taminotchilar odatda kutubxona amalga oshirishi zarur bo‘lgan o‘zlashtirish, saqlash va foydalanuvchilarga yetkazish bilan bogliq bo‘lgan vazifalarni ham bajarishga o‘tmoqdalar.

Xullas, kutubxona ishining ko‘p tomonlari tanlash, qo‘lga kiritish, katalog tuzish, kutubxonalararo abonoment, saqlash va tizimlar – tobora kengroq ravishda kutubxonadan tashqarida taminlanmoqda.

Arzon texnologiya va tarmoqli hisoblash jarayonlari axborot yaratilishi, tarqatilishi, tashkil qilinishi va foydalanilishi yo‘llarini tubdan o‘zgartirib yubormoqda. Kutubxonalar uchun ushbu hodisalardan eng muhimi axborotning markazlashgan doiradan chiqishi va uning barqaror bo‘lmagan shakllarda saqlanishidir. Kutubxonalarning vazifalari axborot resurslarini saqlab borish va undan markazlashgan tartibda foydalanish imkoniyatini yaratish bo‘lganligi tufayli texnologiya rivojlanishi jismoniy axborotni saqlashdan ko‘ra ko‘p hollarda boshqalar saqlab borayotgan elektron axborotdan foydalanish imkoniyatini taminlashdan iborat bo‘lib boradi.

Ayniqsa, raqamli repozitoriy kelajakda juda qiziqarli va muhim rol o‘ynaydi. Lokal jihatidan alohida kutubxonaga tegishli bo‘lsada, repozitoriyning haqiqiy

qimmati uning yuqori qimmatga ega resurslardan iborat tarmoqning qismi bo‘lganligidan kelib chiqadi. Natijada egalik va foydalanuvchilarga xizmat qilayotgan salmoqli raqamli to‘plamni yaratsada, kelajak avlod kutubxonasi boshqalar foydalanayotgan raqamli repozitoriy, shuningdek, boshqa axborot manbalar bilan o‘zaro foydalanishning yuqori darajasiga erishishi kerak bo‘ladi.

Raqamli repozitoriy raqamli resurslar yigindisi bo‘lib, materiallar analog, masalan, qogoz shaklidan o‘girilgan yoki raqamli shaklda yaratilgan bo‘lishi mumkin. Resurslar turidan qatiy nazar, raqamli repozitoriyning asosiy vazifalaridan biri elektron resurslarni saqlash bo‘lib, bundan tashqari raqamli materiallarning katalogini yaratish, indekslash va qidirib topish tizimini taqdim etishlari lozim.

Raqamli resurslarni aniqlash, qo‘lga kiritish, ularga ishlov berish va saqlash ananaviy kutubxona materiallari bilan ishlashdan farq qiladi.

Raqamli nashr usullari takomillashib borgani sari ko‘proq xizmatlarni raqamli muhitga o‘tkazish amalda qulaylashib bormoqda. Resurslarga jismoniy ishlov berishning ahamiyati pasayib bormoqda va uzoqda saqlanayotgan resurslarning joyini aniqlash va uni mavjud vositalarga o‘tkazib olish orqali foydalanish imkoniyatlari oshib bormoqda. YAni raqamli repozitoriyning samaradorligi shundan iboratki, u kutubxonada faqat jismoniy resurslar bilan ko‘rsatilgan xizmatlarga qaraganda yanada boyroq fonddan kengroq miqyosda foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Repozitoriylar kutubxonalarga noyob resurslarni foydalanuvchilarga taqdim etish imkoniyatini kengaytirishdan tashqari, ularni qaytarib berish zarurati yo‘q, qulay va polkalardagi qimmatli joylarni egallamaydi. Shuning uchun raqamli repozitoriylar kutubxona – axborot xizmatida tobora ortib borayotgan ahamiyatga ega bo‘ladilar.

Kutubxonalar muayyan hududda yagona bo‘lgan axborotdan foydalanishi mumkin bo‘lganligi tufayli, o‘zlari ham axborotni boshqalar bilan baham ko‘rish imkonini beruvchi usullar bilan tanish bo‘lishlari zarur. Axborotni boshqa muassasalar bilan baham ko‘rishni o‘rganish jarayonida kutubxonalar shuningdek,

xohlagan masofadagi manbadan olingan axborotni jamlashda malakasi oshib boradi. Kompyuterlar orqali uzoqdan turib kutubxonadan foydalanuvchilar soni oshib borgani sari malumot bazalaridan, elektron kitoblardan, raqamli repozitoriylardan va veb – saytlardan foydalanish o‘sib boraveradi. Kutubxona – axborot xizmatidan foydalanuvchilar ehtiyojini to‘laroq qondirish uchun resurslardan qaysi birida ularga kerakli axborot saqlanishini bilmasdan turib ham ularni qidirish imkonini beradigan vositalarni yaratish zarur bo‘ladi. Bu bir tomondan kutubxonalar avval imkoni bo‘lgandan yuqoriroq daraja va sifatda xizmat ko‘rsatishga olib boradigan o‘zgarishlarni anglatadi.

Kutubxonalar manaviy – marifiy muassasa vazifasini ham bajarganligi uchun muayyan vaqt davomida orttirilgan bilimni saqlash ham o‘ta muhimdir.

Kutubxonalarning “ ananaviy ” hisoblangan xizmatlarining davr talablariga javob beradigan yo‘nalishlarini saqlash va takomillashtirish bilan birga yangi ananalarning, innovasiyalarning qo‘llanishda davom etishini ham tushunib yetish muhimdir.

Chunki, hech qanday tizim abadiy emas, shuning uchun eng yaxshi usul, vosita yaratilib bo‘lindi deb o‘ylash mutlaqo xatodir. Kelajak avlod hozirgi usullar vositalar va bilimlarni yanada takomillashtirib boradi.

Bugungi kunda kutubxonalar foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatuvchi boshqa muassasalardan tezroq va samaraliroq taminlashga moslashgan xizmat turlariga asosiy etiborni qaratishlari lozim. Xizmatlarning bazi turlarini avtomatlashtirib bo‘lsada, ko‘pchiligini avtomatlashtirish mutlaqo mumkin emas. Kutubxonalar keng miqyosda hamkorlik va axborot resurslarining inson tomonidan baholanishini talab qiladigan xizmatlarni boshqa taminotchi muassasalarga nisbatan yaxshiroq bajaradilar. Kutubxonalar yuz yillar davomida yaratilgan ijodiy maxsulotlarni kataloglarda yig‘ma tarzda aks ettiradi.

Bundan tashqari, kutubxonalar boshqa kutubxonalarda mavjud bo‘lgan manbalarni va resurslarni qayerdan topish mumkinligini tez aniqlash amaliyotini ham ishlab chiqqanlar. Kutubxonada mavjud bo‘lmagan holatlarda foydalanuvchiga zarur

bo‘lgan manbalarni kutubxonalararo abonoment tizimi (KAT) orqali tezda yetkazib berish imkoniyati mavjuddir.

Raqamli axborotning ahamiyati ortib borsada, o‘tmishga oid ulkan axborot faqat qog‘oz shaklida mavjud bo‘lib, uni faqat kutubxonalardan topish mumkin bo‘ladi. Kutubxona kataloglarining kamchiligi bo‘lsada, millionlab yagona narsalarni tashkiliy holatga keltirishda samarali ekanligi isbotini topgan.

Yirik – yirik birlashmalar kataloglari orqali o‘nlab kutubxonalarda qidiruv ishlarini olib borish imkoni mavjud ekan, hali kutubxonalar taqdim qilishi mumkin bo‘lgan manbalar ko‘pdir.

Ko‘p yillar davomida yig‘ilgan va muayyan tizimda tartiblashtirilgan materiallar va resurslardan foydalanishni maksimallashtirish uchun hamkorlikda bajarilgan chora – tadbirlarga qo‘shimcha ravishda kutubxonalar muayyan xizmatlarni ko‘pgina muassasalarga nisbatan yaxshiroq taminlash imkoniyatlariga egadir.

Foydalanuvchilar bazan o‘zlariga nima kerakligini bilmagan holatlarda ham kutubxonachining maslahati, qidiruv vositasi yoki taminotchi malumot bazasidan ancha ko‘proq foyda keltiradi.

Kutubxonachi foydalanuvchiga yordam beradigan ma’lumot yoki axborot qaysi bir taminotchida bo‘lishi mumkinligini biladi va ushbu malumot yoki axborotni qo‘lga kiritishga yordam beradi. Yuqorida kutubxonalar haqida bildirilgan fikrlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, ular kelajakda ham hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan xizmatlarni bajaradi.

Xozirgi paytda global internet millionlab kompyuterlarga bir – biri bilan muloqot qilish imkonini bermoqda. Chunki, kompyuterlar birlashtirilganda foydalanuvchilarga eng zamonaviy super kompyuter ham bajarib berishi mumkin bo‘lmagan xizmatlarni bajarish imkonini beradigan, aql bovar qilmaydigan kuchli resursni vujudga keltiradi.

Raqamli repozitoriylar tarmogi ham kengayib borgandagina qadri oshib boradi. Shuning uchun ham ushbu sharoitda kutubxonalarning asosiy vazifasi mavjud axborotlarni to‘plash, undan foydalanish imkoniyatini yaratish, kutubxonalararo abonoment xizmatining elektron makonini kengaytirishdan iboratdir.

Xizmatlarni birlashtirish, metamalumot va axborotni baham koʻrish texnologiyalarini qoʻllash va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qilish kutubxonalarga, foydalanuvchilarga yaxshiroq, tezkorroq xizmat koʻrsatish imkonini berish uchun boshqa muassasalar ishi va resurslaridan foydalanishga yoʻl ochadi. Kutubxona – axborot xizmati koʻrsatishning yangi turlari boʻyicha ixtisoslashuv, ehtiyojlarning qondirilishida hamkorlar va taminotchilar bilan aloqalar tizimini kengaytirib borish orqali oʻzining kelajakdagi ahamiyatini saqlab qolishidan tashqari bir paytda koʻplab axborot manbalaridan malumot olish orqali bugungi kunda koʻpgina xizmatlar yoʻnalishini yoʻlga qoʻyishi mumkin.

Malumki, foydalanuvchilarga barcha turdagi axborotlar kerak, aloxida olingan har bir kutubxona esa ular istagan resurslarning faqat bir qismigagina tegishli boʻlgan huquqlarga ega boʻladi. Foydalanuvchilar oʻzlarini qiziqtirgan manbalarni mavjud boʻlgan minglab repozitoriylardan qidirib topadi deb oʻylash mutlaqo haqiqatga toʻgri kelmaydi. Koʻpchilik foydalanuvchilar istagan narsalarini vebdagi kam sonli qidiruv tizimlaridan birini qoʻllab topishlari kabi, kutubxona materiallarini ham bir qidiruv orqali topishni istashning ehtimoli yuqoridir. Yaxshi raqamli repozitoriylar foydalanuvchilarga kerakli manbani bir paytda koʻplab axborot manbaalarida qidirish imkoniyatini berishi kerak.

Vaqt oʻtib borishi bilan boshqa kutubxonalar va muassasalar alohida kutubxonalar ega boʻlgan va foydalangan resurslarning ortib borayotgan qismidan foydalanadilar. Shunday qilib, kutubxona fondini boshqarish manbalarga egalik qilishga emas, balki foydalanish imkoniyatiga asoslangan boʻladi.

Yagona va foydali axborot saqlanayotgan, yaxshi boshqarilayotgan raqamli repozitoriy keyingi avlod kutubxonalarining hal qiluvchi tarkibiy qismi boʻladi. Internet kompyuter hisoblashni markazlashtirishdan chiqargani kabi, raqamli repozitoriy kutubxona xizmatlarini markazlashtirishidan chiqaradi.

20 – 1 rasmda kutubxonalar odatda axborotni qanday boshqargani va foydalanuvchilarga yetkazgani koʻrsatilgan. Ushbu modelga binoan, kutubxona barcha manbaalarga egalik qiladi va talab qilingan malumot yoki axborotni

yetkazib beradi. foydalanuvchiga kerak bo‘lgan axborotni topish uchun tegishli taminotchi muassasa resursidan qidiradi.



20 – 1 rasm. Kutubxona-axborot xizmatining odatdagi modeli



20 – 2 rasm. Keyingi avlod kutubxona axborot xizmati modeli.

20 – 2 rasmda keyingi avlod kutubxonasi foydalanuvchilarga qanday xizmat koʻrsatishi namoyish qilingan. Ushbu diaggrammaning 20 – 1 rasmda koʻrsatilgan odatdagi modeldan farq qiluvchi ikki muhim jihati mavjuddir. Birinchidan, foydalanuvchilar har bir alohida resursda qidiruv olib borishi shart emas. Kutubxona shunchaki turli taminotchilar (kutubxonaning oʻzi ham)dan olingan metamalumotni topadi va bir – biriga bogʻlaydi.

Ikkinchi farq qiluvchi jihati shundan iboratki, foydalanuvchi axborotni kutubxonadan olmasligi ham mumkin. Koʻp holatlarda kutubxona, kutubxonalararo abonoment- vositachi vazifasini bajaradi. Ammo, asosiy vazifasi turli – tuman manbalardan metamalumotni birlashtirib va uni foydalanuvchiga yordam beradigan tarzda qidirish, topish va foydalanish imkoniyatini yaratishdan iboratdir.

20 -2 diagrammada koʻrsatilganidek foydalanuvchining yashash joyidagi mahalliy kutubxona boshqa axborot malumotchilaridan resurs haqidagi axborotni (yani, metamalumotni) yigʻib oladi. Amalda esa kutubxona metamalumotni yigʻib oladigan muassalarning oʻzlari ham foydalanuvchilariga xizmat koʻrsatish uchun metamalumotni yigʻib oladilar. Ularning hammasi axborotni yigʻish va foydalanuvchilarga yetkazish tizimida birga ishlaydi.

Alohida kutubxonalarga qanday metamalumot yigʻib olinishi va u qanday taqdim etilishini tanlash imkonini berib, foydalanuvchilar turli virtual fondlarni brauzing (internet dasturiga asoslangan holda ulanish) qilib amalga oshirishlari mumkin. Barcha axborot taminotchilari uchun hamma metamalumotni bir joyda saqlashning texnikaviy imkoniyatlari mavjud boʻlsada, tashkiliy muammolar va noqulayliklar afzalliklardan koʻproq darajada oshib ketadigan darajada salmoqlidir. Metamalumotdan standartlarga muvofiq bahramand boʻlish orqali kutubxonalar barcha manbalardan foydalanishi mumkin boʻlishi uchun mahalliy ehtiyojlarga va imkoniyatlarga mos boʻlgan operasion muhit va dasturiy taminotdan foydalanishi imoniyatini yaratadi.

Keyingi avlod modelida axborot taminotchilari soni juda koʻpaygan va xizmat koʻrsatish joyi foydalanuvchi tarmoqqa kirish imkoniyatiga ega joyda taminlanishi mumkin. Buning manosi shundan iboratki, foydalanuvchilar kutubxonaga kirmaydilar va kutubxonachilar foydalanuvchilarni koʻrmaydilar. Internet hech qachon shaxsan uchrashmagan kishilar bilan yaqindan aloqada boʻlish imoniyatini yaratib berganidek, kutubxonachilar ham butun jahonda sochilgan resurslarni bir joyda toʻplashga harakat qilish va kutubxonaga tashrif buyurmasada foydalanuvchilarga yuqori darajada shaxsiylashtirilgan xizmat koʻrsatishga harakat qiladilar.

Raqamli repozitoriylarning eng muhim tomoni zarur axborotlar elektron shaklda saqlanganligida emas, balki rang – barang ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiladigan, boy fondga ega boʻlgan keng tarmoqda muayyan ahamiyatga ega boʻlgan rolni bajarishidadir.

Foydalanuvchilarga bilimlar sohasida malumot va axborot izlashni koʻplab repozitoriylarda amalga oshirish uchun maxsus lugʻatlar talab qilinadi. Kutubxonalar uchun koʻplab repozitoriylardan foydalanishni boshqarishda zarur boʻlgan lugʻatlarni aniqlash amalga oshirish mumkin boʻlgan ishdir.

Kutubxona – axborot faoliyatida oʻzlarining oʻrinlarini saqlab qolishdan tashqari axborot bilan taminlash tizimida yanada yuksakroq mavqega ega boʻlish uchun kutubxonalar raqamli repozitoriy va foydalanuvchilarning ehtiyojlarini qondirish maqsadida tarqalgan resurslardan foydalanish imkonini beradigan boshqa xizmatlarni rivojlantirishlari zarur boʻladi.

Bu yoʻnalishda oʻzgarishlarni amalga oshirish uchun kutubxonachilar boshqalar qaramogʻidagi resurslardan foydalanish imkoniyatlarini taminlashga koʻproq va resurslar ustidan jismoniy nazoratni saqlab qolishga kamroq etibor berishlari talab qilinadi. Kutubxonalar kataloglar tuzish va kutubxonalararo abonoment maqsadlari uchun yigilgan ulkan hajmdagi malumot va axborotni aniqlash, izlagan manbalarni topish uchun odamlarga zarur boʻlgan infratuzilmalarning hal qiluvchi qismi boʻlishda davom etadi.

Bugungi kunda kutubxonalar yaxshiroq xizmatni arzonroq taminlash uchun katalog tuzishni qanday baham koʻrayotgan boʻlsalar, xuddi shu tarzda ular raqamli repozitoriylarda saqlanayotgan resurslardan ham kengroq miqyosda foydalanishlari kerak boʻladi.

Raqamli repozitoriy elektron resurslarga ishlov berish va foydalanish maqsadida ular saqlab turiladigan virtual makondir. Raqamli repozitoriydan foydalanish maxsus bilim va koʻnikmalarni talab qiladi.

Raqamli repozitoriylardagi resurslar kompyuterlarni ishlatib qoʻlga kiritiladi, ularga ishlov beriladi, foydalanishga olinadi. Shuning uchun ham elektron resurslarni aniqlash, qoʻlga kiritish, ularga ishlov berish va saqlab qoʻyish jarayonlari puxta ishlab chiqilishi lozim.

Bugungi kunda kutubxonachilar asta – sekin tarmoqli muhitda foydalanuvchilar ehtiyojlarini qondirish muassasalaridan resurslarga toʻgridan toʻgri egalik qilish bilan emas balki ulardan foydalanish imkoniyatini berish yoʻli bilan axborotga boʻlgan talabni bajarish prinsipiga etibor berishni talab qilishini tushunib yetmoqdalar. Shunday boʻlsada, aksariyat kutubxona amaliyoti hozirgacha kutubxonalar foydalanuvchilarga kerak boʻlgan barcha materiallarni jismoniy nazorat qilishlari kerak, degan modelga asoslangan.

Kutubxona katalogi asosan oʻzida alohida qidiruv olib boriladigan axborot ombori boʻlib xizmat qilgan. Biroq keying yillarda kerakli narsalarni topish uchun tobora koʻproq kutubxonalar va foydalanuvchilar yirik birlashmalar darajasidagi kataloglar, World Cat yoki metaqidiruv vositalaridan foydalana boshladilar. Ushbu amaliyot resurslarni toʻplash va axborotlarni birlashgan tarzda qidiruv tomon moyillik borligini aniq koʻrsatadi.

Hozircha kutubxona – axborot xizmati koʻrsatishda ananaviylik va zamonaviylik oʻrtasida raqobat ketmoqda. Bunda shu narsani nazarda tutish zarurki hozirgacha barcha manbaalar, hujjatlar, malumotlarning 90 foizi qogʻoz variantlarda mavjuddir. Har xolda ulardan shaxs va jamiyat rivojlanishi uchun ijobiy xususiyatga ega boʻlgan tomonlariga etibor bergan holda foydalanish muhimdir.

Xulosa

O‘quv qo‘llanmada ijtimoiylashtiruvchi nistitut bo‘lgan kutubxona-axborot muassasasida amalga oshiriladigan jarayonlarning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan kutubxona axborot xizmatining asosiy yo‘nalishlarini yoritishga harakat qilindi. O‘quv qo‘llanma mualliflari bunda ijtimoiy subyektlarning ehtiyojlarini qondirish va rivojlantirish maqsadida jahon axborot resurslari asosida kutubxona-bibliografik va axborot faoliyati vositalari yordamida turli usullar va shakllarda kutubxona-bibliografik va axborot mahsulotlarini hamda xizmatlarini taqdim etishdan iborat ekanligi nuqtai nazaridan yondashishdilar.

Xizmat ko‘rsatish, mutolaa madaniyati, axborot madaniyatini shakllantirish kutubxonalarning yetakchi funksiyalaridan bo‘lganligi uchun barcha mavzularning yoritilishida kutubxona-axborot faoliyatining asosiy yo‘nalishi ehtiyojlar mazmuni va yo‘nalishiga faol ta’sir ko‘rsatishdan iborat ekanligiga alohida e’tibor qaratildi.

Kutubxona-axborot xizmati kursining predmetini yoritishda umumiy mafsad, vazifalar, metodologik tamoyillar asosida birlashgan, o‘zaro aloqadorlikdagi asoslar (mutolaa va foydalanuvchilarni o‘rganish), mazmuniy yo‘nalishlar (foydalanuvchilar mutolaasiga rahbarlik qilish va ularni axborot bilan ta’minlash), tashkiliy shakllar (foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatish) birligidagi majmuaviy faoliyat sifatida foydalanuvchilar bilan ishlash qonuniyatlarini o‘rganishga alohida yondashildi.

Foydalanuvchilar kutubxona-axborot xizmati ko‘rsatish ilmiylik, tizimlilik, majmuaviylik, nashr mahsulotlari, ma’lumotlar va axborotlardan foydalanishda ongli va faol munosabatni tarbiyalash tamoyili, foydalanuvchilarni o‘rganish asosida guruhlashtirilgan tarzda yondashuv, ko‘rgazmalilik tamoyillari foydalanuvchilarga kutubxona-axborot xizmati ko‘rsatish bir butun jarayonining turli tomonlarini aks ettiradi, lekin ular bir birini to‘ldiradi, o‘zaro aloqador va bir birini taqozo qiladi.

Kutubxona-axborot xizmatini ijtimoiy-madaniy faoliyat sifatida tushunish kutubxonaning ijtimoiy institut sifatida bilimlarni axborotlarni yig‘ish va saqlash,

asrashdan tashqari ularni avloddan avlodga, insondan insonga yetkazishga ham asoslanadi.

Shunga muvofiq kutubxona-axborot xizmati foydalanuvchilarning madaniy, ma'naviy, ta'limiy va axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi va kutubxonalarni qonuniyatli tarzda madaniyatlararo ijtimoiy kommunikatsiya institutlari bilan bir qatorga qo'yadi.

Kutubxona-axborot xizmatining rivojlanish jarayoni uning ishtirokchilari bo'lgan kutubxonachi va foydalanuvchilarning o'zaro bog'liqlikdagi munosabatlarini hisobga olishni talab qiladi. Ushbu jarayonni tashkil etishning samaradorligi iqtisodiy va madaniy o'zgarishlarga muvofiq ehtiyojlari o'zgarib boruvchi foydalanuvchilarni o'rganish bilan birga kutubxonalarning ham kasbiy sifatlarini o'rganishga bog'liqdir. Shunga ko'ra kutubxona muloqotini o'rganish ehtiyoji ham kelib chiqadi. Bugungi kunda kutubxonalar asta-sekin tarmoqli muhitda foydalanuvchilar ehtiyojini qondirish muassasalaridan resurslarga to'g'ridan to'g'ri egalik qilish bilan emas balki ulardan foydalanish imkoniyatini berish yo'li bilan axborotga bo'lgan talabni bajarish tamoyiliga e'tibor berishni talab qilishini tushunib yetmoqdalar. Shunday bo'lsada, aksariyat kutubxona amaliyoti hozirgancha Kutubxona-axborot muassasalari foydalanuvchilarga kerak bo'lgan barcha materiallarni jismoniy nazorat qilishlari kerak, degan modelga asoslangan. Kutubxona-axborot xizmatida keyingi yillarda qo'llanayotgan amaliyot resurslarini to'plash va axborotlarni birlashgan tarzda qidiruv tomon moyillik borligini aniq ko'rsatmoqda.

Hozircha kutubxona-axborot xizmati ko'rsatishda an'anaviylik va zamonaviylik o'rtasida raqobat kelmoqda. Bunda shu narsani nazarda tutish zarurki hozirgacha barcha manbalar, xujjatlar, ma'lumotlarning 90 foizi qog'oz variantlarda mavjuddir. Har holda ulardan shaxs va jamiyat rivojlanishi uchun ijobiy xususiyatga ega bo'lgan tomonlariga e'tibor bergan holda foydalanish muhimdir.

“Kutubxona - axborot xizmati: nazariyasi va uslubiyoti” kursini o‘rganish jarayonida keng qo‘llaniladigan atamalarning izohli lug‘ati.

ABONEMENT — Ma’lum bir muddatga va ma’lum bir shart asosida bosma asarlarni va boshqa hujjatlarni kutubxonadan tashqariga berishni ko‘zda tutuvchi yakka tartibda hamda jamoa bo‘lib kitobxonlarga xizmat ko‘rsatish.

AXBOROT (lot. informatio — tanishtirish,tushuntirish) - falsafada qadim zamonlardan buyon qo‘llanib kelinayotgan, kibernetikaning taraqqiyoti tufayli keyingi vaqtda yangi, kengroq ma’no kasb etgan markaziy kategoriyalar sifatida maydonga chiqqan tushuncha. Axborot tushunchasi xususiy axborotlar uchun umumiy bo‘lib qoladi. G‘oyalar yig‘indisi va matematik vositalar kompleksini o‘z ichiga olgan axborotga yondashuv esa, umumilmiy tadqiqot vositasiga aylandi. Ma’lumot ma’nosidagi axborotning dastlabki tushunchasi XX asrning o‘rtalarigacha saqlandi. Kommunikativ vositalar taraqqiyoti munosabati bilan ehtimol metodlaridan foydalanishning kengayishiga qarab axborotlar soni o‘sib bordi. Keyinchalik axborot matematik nazariyasining boshqa variantlari - tipologik, kombinatorlik va h.k. sintaktik nazariya degan umumiy nom oldi. Axborotning mazmuni va aksiologik tomonlari semantik va pragmatik qarashlar doirasida tadqiq qilinadi. Hozirgi zamon fanida axborot tushunchasining taraqqiyoti turli-tuman dunyoqarashlar, falsafiy tushuntirishlarning paydo bo‘lishiga olib keldi. O‘tgan XX asr oxirida axborot vositalarining nihoyatda tez ko‘payishi bu asrni-ya’ni XXI asrning Axborot asri deb atalishiga sabab bo‘ldi.

AXBOROT BILAN ISHLASH MADANIYATI - axborotlar bilan maqsadga muvofiq tarzda ishlash, ularni o‘zlashtirish maqsadida qayta ishlash, komp.li axb. texnologiyasi, zamonaviy texnik vositalar va usullarni qo‘llash. Faqat yuqori darajadagi axborot madaniyatiga ega bo‘lgan kutubxonachi va foydalanuvchilargina kutubxona-axborot resurslarini aniq hisobga olish

imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa kutubxona-axborot xizmati sifati va samaradorligini oshirish imkonini beradi.

AXBOROT BILAN ISHLASH USULI - foydalanuvchilar guruhi va kutubxona xodimlari faoliyatini muvofiqlashtirish jarayonida qo‘llaniladigan usul. Turli ma’lumotlarni to‘plash, qayta ishlash va uzatishdan iborat. Axborotlar bilan ishlash kutubxona-axborot xizmati jarayoni subyektlari faoliyatlarini muvofiqlashtirish imkonini beradi. Bunda kutubxona-axborot xizmati jarayoni ishtirokchilari hisoblangan kutubxonachi va foydalanuvchilar uchun asosiy vosita axborotlar hisoblanadi.

AXBOROT JAMIYATI ko‘pchilik ishlovchilarning (axborotlar bilan shug‘ullanuvchilarning) axb., ayniqsa, uning oliy shakli bo‘lgan bilimlarni ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va amalga oshirish bilan band bo‘lgan jamiyat. Bu sohadagi ishlar rivoji bevosita ta’lim-tarbiya va ilmiy muassasalardagi olimlar, mutaxassislar ijodiy mehnati bilan bog‘liq. Bularni yangi o‘quv adabiyotlarisiz va o‘qitishning innovasion texn. isiz, jumladan, axb. texnologiyasiz tasavvur etib ham bo‘lmaydi. Axborot jamiyatida nafaqat ishlab chiqarish, balki butun turmush tarzi va qadriyatlar tizimi ham o‘zgaradi. Bu jamiyatda intellekt, bilimlar o‘zlashtiriladi va iste’molga kiritiladi, natijada shaxs muntazam ravishda aqliy mehnat bilan shug‘ullanadi.

AXBOROT IZLASH - axborot ko‘lamida oldindan belgilangan izlash sharti, so‘rovi talabini qondiruvchi yozuvlar borligini aniqlash, agar ular mavjud bo‘lsa, bunday yozuvlar joylashishini tekshirish jarayoni.

AXBOROT- KOMMUNIKASION TEXNOLOGIYALAR – foydalanuvchilarning muayyan yo‘nalishdagi bilimlarini takomillashtirishda yangi texnik universal didaktik vosita. U ta’lim oluvchining amaliy tafakkurini kengaytirib hamda chuqurlashtirib, ularda muayyan yo‘nalishdagi bilimlarni yuqori darajaga ko‘taradi.

AXBOROT RESURSI - axborot tizimi tarkibida mavjud bo‘lgan elektron shakldagi axborot, ma’lumotlar banki, ma’lumotlar bazasi. U

ma’lumotlar bazalari va banklari, turli xil arxivlar, kutubxonalar, muzeylar fondi va boshqalarni ham o‘z ichiga oladi. Resurs - biror narsa yoki hodisaning zahirasini belgilaydi. Shunga ko‘ra, u axborot tizimidagi alohida hujjat va hujjatlarning butun bir majmuidir.

Axborot resursi algoritm, model, loyiha, dastur, bilimlar banki va shu kabilar asosida faoliyat yuritadi. Axborot resurslarini boshqarish deganda: har bir darajada va boshqarish funksiyasi darajasida axborotga bo‘lgan ehtiyojni baholash; xujjatlar turi, shakllarini standartlash, axborot va ma’lumotlarni to‘plash, ma’lumotlarni boshqarish tizimini yaratish anglanadi.

Axborot resursi kishilar tomonidan boshqariladi va ular manfaatlariga xizmat qiladi hamda obyektni boshqarishda mustahkam ilmiy-texnik asos bo‘ladi. Bu tizimlar ularning axb.li jihatlarini tadqiq qilishda muhim ahamiyat kasb etadi hamda muammoning optimal yechimini topish imkoniyatini yaratadi.

AXBOROT-TA’LIM MUHITI - o‘rganuvchi, o‘rgatuvchi (kutubxonachi) va yangi axb. texn. vositalari o‘rtasidagi o‘quv axb.li xatti-xarakatlar jarayonining paydo bo‘lishi, rivojlanishiga imkon beruvchi shart-sharoitlar majmuasi hamda aniq bir o‘quv kursi bo‘yicha ta’limiy jarayonning tarkibiy komponentlari (komp.ga ulanuvchi turli xil o‘quv, namoyish qiluvchi jihozlar, dasturiy vosita va tizimlar, o‘quv ko‘rgazmali vositalar va b.) jamlangan sharoitda o‘rganuvchi va o‘rgatuvchining faol bilish faoliyatini shakllantirish jarayoni.

Axborot ta’lim muhitiniig maqsadi kutubxona-axborot xizmati jarayoni subyektlarining ijodiy tashabbuskorliklarini rivojlantirish asosida ularga bilimlarni mustaqil egallash va sifatli o‘zlashtirish uchun shart-sharoit yaratish hamda natijalarni taxlil qilishni avtomatlashtirishni ta’minlashdan iborat.

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI - axb.ni to‘plash, saqlash, izlash va unga ishlov berish xamda uni tarqatish uchun foydalaniladigan usul va jarayonlar majmui. Axborot texnologiyalarining ta’minotlari uning tarkibiy qismlarini o‘z ichiga oladi. Ular dasturiy, texnik, huquqiy, axborot, tashkiliy, mat. va lingvistik ta’minotlardan iborat.

Dasturiy ta’minot – axborot texnologiyalari ishini amalga oshirishda zarur bo‘lgan komp. dasturlari to‘plami. Texnik ta’minot – axborot texnologiyalarining o‘z vazifalarini amalga oshirish jarayonida ishlatiladigan barcha texnik vositalar majmui. Matematik ta’minot – axborot texnologiyalaridan foydalanishda amaliy masalalarni yechishda qo‘llaniladigan mat. model, usul va ma’lumotlar bazasini boshqarish algoritmlari to‘plami. Axborot ta’minoti - hujjat aylanmasi va hujjatlar shaklining samarali tarzini o‘z ichiga olgan axborotni joylashtirish hamda tashkil qilish bo‘yicha uslub va vositalar yig‘indisi. Lingvistik ta’minot - inson va tizim orasidagi muloqotni ishlab chiqish hamda ta’minlash uchun axborotlarga ishlov berish va foydalanishning turli bosqichlarida ishlatiladigan til vositalari majmui. Tashkiliy ta’minot – axborot texnologiyadan foydalanish, unga samarali axborot xizmatini ko‘rsatish bo‘yicha tashkiliy tadbirlar va boshqarish hujjatlari majmuasi. Huquqiy ta’minot – axborot texnologiyalarini yaratish va joriy qilishni tartibga soluvchi huqukiy meyorlar yig‘indisi.

AXBOROT TEXNOLOGIYASI FANI - axborotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va rejalashtirilgan maqsadni amalga oshirishda, ularni uzatish xamda qayd etilgan jarayonlarni amalga oshirishda texnik vositalardan foydalanishni o‘rgatadigan o‘quv fani. Axborot texnologiyasi fani ta’lim va kadrlar tayyorlash jarayonini axborotlashtirishning optimal variantlarini topishda asosiy intellektual manba xisoblanadi. Axborot texnologiyasi fani va loyihalash ishlari hamda ta’limni boshqarishda, shuningdek, muayyan sohaga oid yangiliklardan tezkorlik bilan xabardor bo‘lish, to‘g‘ri va istiqbolli qarorlar qabul qilishda ishonchli ma’lumotlarga tayanish imkoniyatlarini beradi.

AXBOROT SIVILIZASIYASI - axborotni to‘plash, tahlil qilish va undan foydalanish hamda atrof-muhitda o‘zi haqida axborot yaratish uchun eng ko‘p ma’lumot olishga qodir bo‘lgan jarayon. Insoniyat hayoti va uning taraqqiyoti jamiyatni axborotlashtirish bilan bog‘liq holda o‘rganiladi, ya’ni insonning xar bir harakati axborot olish va uzatish, undan foydalanish, uni o‘rganish, o‘zlashtirish, saqlash va boyitishdan iborat. Bu omil insoniyat sivilizasiyasini axborot sivilizasiyasi deb atashga olib keladi.

Axborot sivilizasiyasining bosh belgisi axborotni to‘plash, ularga aniqlik kiritish, tahlil qilish va undan o‘z intellektual salohiyatini boyitishda foydalanishdan iborat. Axborot sivilizasiyasi axborotlarni to‘plash, tahlil qilish va undan foydalanishning shakl, usul va vositalariii takomillashtirib borishga imkoniyat yaratadi. Uning negizida yangi axborot texnologiyalari yuzaga keladi.

AXBOROTLAR BANKI - kutubxona-axborot xizmati jarayonida foydalanuvchilarning bilish faoliyati bo‘yicha axborotlarni aniq maqsad yo‘lida yig‘ish, saqlash, tizimlarga ajratish va foydalanishga mo‘ljallangan texnik, dasturiy, algoritmik tillar va ularning tashkiliy vositalari majmuasi. Axborotlar bankining maqsadi ma’lumotlarni qayta ishlab, foydalanuvchilarni undan foydalanishga o‘rgatishdan iborat vazifasi esa xizmat ko‘rsatish jarayonini maqsadga muvofiq tarzda amalga oshirish, ta’limni boshqarishda axborot ta’minotiga erishish va ularning samaradorligiii nazorat qilishdan iborat. Axborotlar banki ta’limni boshqarish, kutubxona – axborot xizmati jarayonini zarur ma’lumotlar bilan ta’minlash hamda uning kechishini nazorat qilishda boshqaruv algoritmini tuzish imkoniyatini beradi. Axborotlar bankidan kutubxona-axborot xizmatining axborotli ta’minoti va shular asosidagi kasbiy komp.li tizimlar yaratishda foydalaniladi. Axborotlashgan jamiyat tizimining barcha bosqichlarida axborotlar bankiga murojaat qilinadi. Ular asosida zamonaviy xizmat ko‘rsatish texnikalari yaratiladi hamda kutubxona-axborot xizmati jarayonlarini optimal boshqarish imkoniyati vujudga keltiriladi.

AXBOROTLAR DARAJASI NI ANIQLASH - materialni o‘rganishda dastlab tadqiqot obyektini ifodalovchi ma’lumotlar va ular asosida hosil qilinadigan axborotlarning qay darajada maqsadga muvofiqligini bilish jarayoni.

AXBOROTLAR TIZIMI - axborotni to‘plash, saqlash, izlash, unga ishlov berish va undan foydalanish imkonini beradigan, tashkiliy jihatdan tartibga solingan axborot resurslari, axborot texnologiyasi va aloqa vositalari. Axborotlar tizimi o‘z tarkibida kompyuterlar, komp. tarmoqlari, axborot va dasturiy ta’minot hamda kutubxona-axborot xizmati jarayoni ishtirokchilarining hamkorlikda faoliyat ko‘rsatishini aks ettirib, u foydalanuvchilarni axborot bilan ta’minlaydi.

Axborotlar tizimining asosiy vazifasi - hodisa va jarayonlar kechishini boshqarish imkoniyatlarini yaratish; axborotlarga asoslangan, maqsadi oldindan belgilangan va unga erishish dasturi ishlab chiqilgan boshqariluvchi kutubxona-axborot xizmati jarayoniga ta’sir ko‘rsatish. Xizmat ko‘rsatish jarayonida axborot tizimlariiing asosiy vazifalari – xizmat ko‘rsatilayotgan obyektga tegishli barcha axborot resurslarini optimal boshqarish yordamida foydalanuvchiga kerak bo‘lgan axborotlarni ishlab chiqish va ulardan ta’sir o‘tkazish obyektini boshqarishda foydalanish uchun axborotli va texnikaviy ta’minot muhitini yaratishdan iborat. Mazkur tizimdan kompyuter tarmoqlari axborot va dasturiy ta’minot va shu kabilarni yara- tishda foydalaniladi. Axborotlar tizimi - kutubxona-axborot xizmati xodimlarining ishini yengillashtirishga samarali ta’sir ko‘rsatadi, ya’ni ular yordamida obyekt tadqiqot metodologiyasi bo‘yicha axborotlarni jamlash, saqlash, tadqiqot maqsadiga mos guruhlarga ajratish va uzatish jarayonini samarali amalga oshiradi.

Axborotlar tizimining ijro etuvchi axborotlar, qarorlar qabul qilishni qo‘llab-quvvatlash tizimlari, ekspert tizimlari kabi turlari mavjud. Axborotlar tizimining barcha tarkibiy qismlari, ya’ni texnik vositalar - mat., dasturiy, lingvistik ta’minot, odamlar bilan o‘zaro xamkorlikda uyg‘un holda faoliyat yuritishni taqozo etadi. Muammoning qo‘yilishiga qarab axborot tizimidagi axborotlar xajmi ortib boradi.

Axborotlar tizimining maqsadi tadqiqot manbaini ma’lumotlar va axborotlar tizimlari nuqtai nazaridan o‘rganish; obyektni ifodalash va undagi jarayonlar kechishi qonuniyatlarini tadqiq etishga bo‘lgan axborotlar ehtiyojini aniqlash; axborotlar to‘plash, guruhlarga ajratish va ulardan ko‘rsatkichlar orasidagi aloqadorlikni o‘rganish maqsadida axborotlarni qayta ishlash metodologiyasini yaratishdan iborat.

Bunday tizimlar kutubxona-axborot xizmati jarayonlarining axborot ehtiyojlarini qondiradi va ularni optimal boshqarishga imkon yaratadi. Axborotlar tizimi kutubxona xodimlarining ishlarini yengillashtirishga samarali ta’sir ko‘rsatadi, ya’ni ulardan obyekt va tadqiqot metodologiyasi bo‘yicha axborotlarni

jamlash, saqlash, tadqiqot maqsadiga mos guruhlarga ajratish va uzatish jarayonida foydalaniladi.

Axborotlar tizimi qayta ishlangan axborotlardan foydalanish, tadqiqot maqsad-vazifalarini amalga oshirishda ularning yaroqliligi, qulayligi, to‘liqligi va ahamiyatliligini baholash hamda baholangan axborot asosida obyektni tadqiq etishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqishni nazarda tutadi.

Zamonaviy tadqiqotlarda ijro etuvchi axborotlar tizimi qarorlar qabul qiluvchi axborotlar tizimi, ekspert tizimlar, avtomatlashtirilgan axborot tizimlari kabi atamalar keng qo‘llanilmoqda.

AXBOROTLARNI O‘ZLASHTIRISH — ilmiy-tadqiqot ishi davomida ma’lumotlarni to‘plash, ularni tadqiqot maqsadi va vazifalariga mos tizimlarga ajratib, axborotga aylantirish.

Axborotlarni o‘zlashtirish sinash orqali ularni muayyan mantiqiy izchillik, isbot yoki dalillarga asoslangan holda oddiy amaliy misollar orqali ko‘rib chiqish jarayonidan iborat. Undan ko‘zlangan maqsad ilmiy-tadqiqot ishining amaliy ahamiyati haqida xulosa chiqarishni anglatadi.

AXBOROTLASHTIRISH - zamonaviy axborot texnologiyasi yordamida ta’lim jarayonini rivojlantirish, takomillashtirish va jadallashtirish imkoniyati. Axborotlashtirishning asosiy maqsadi sifat jihatdan yangi axborotlashgan kutubxona muhitini barpo etishdan iborat. Kutubxona tizimini axborotlashtirish kutubxona – axborot xizmati jarayonining rivojlanishi va axborotlarning shaxs bilim darajasiga ijobiy ta’sirini ta’minlaydi. Kutubxona tizimini axborotlashtirish jarayoni xizmat ko‘rsatish vazifalarini jadallik bilan bajarish imkonini beradi. Axborotlashtirish muhim jarayon bo‘lib, unda texnologik, pedagogik-psixologik jarayonlar uyg‘unlashtiriladi. Bu esa foydalanuvchilarning o‘zlashtirish darajalarini keskin oshiradi. Kutubxonada axborotlashtirishning asosini kutubxona-axborot xizmati jarayonini axborotlashtirish tashkil qiladi.

Axborotlashtirish kompyuterlashtirish, xisoblash texnikasi, axborot texnologiyasi, modellash, ma’lumotlar manbai, dasturlashtirish, shaxsiy kompyuterlar, dastur bilan ta’minlash va boshqa ilmiy tushunchalar

axborotlashtirish jarayonining muhim xususiyatlarini ifodalaydi. Kutubxonani axborotlashtirish xizmat koʻrsatish jarayoni dinamikasini taʼminlash omili sifatida uning natijalariga sezilarli taʼsir koʻrsatadi. Shu asosda kutubxona-axborot xizmati jarayoni sifati va samaradorligini taʼminlash imkoniyati ortadi.

AXBOROTLI MODUL - taʼlim maqsadini belgilash va rejalashtirilgan natijalar bilan chegaralangan, fanlararo hamda oʻquv fani ichidagi bogʻliqlikni hisobga olib tuzilgan va yakuniy nazoratlarning darajali tizimini qamrab oladigan, oʻquv fani mazmunining muntazam va tugallangan qismi.

AXBOROTNI FAKSIMILE SHAKLIDA UZATISH - taʼlim jarayoni subyektlari orasidagi axbort almashinuvi, axborotni faksimile shaklida uzatish yordamida matn, gazeta qoʻlyozma, grafik, fotosurat va boshqa har kanday hujjatni bir obyektdan ikkinchi obyektga yetkazib berish.

AXBOROTNING VALIDLIGI - axborotning ishonchliligi, boshlangʻich nazariy asoslar bilan bogʻliq xatolarning mavjud emasligi. Mazkur atama boshlangʻich statistik axborotga muvofiq tadqiqotlar jarayonida qoʻllaniladi; kutubxona-axborot xizmati anketa natijalari sifatini aniqlovchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi.

AXLOQIY MADANIYAT – jamiyatdagi axloqning yuksaklik darajasi, fuqarolarning axloqiy saviyasini aks ettiruvchi tushuncha. U shaxsning jamiyatdagi asosiy axloq meyorlarini egallashi va oʻzgalar bilan shu asosda munosabatda boʻlishi, oʻzini axloqiy tomondan muntazam takomillashtirib borishi singari jihatlarni oʻz ichiga oladi. Axloqiy madaniyatning eng muhim koʻrinishlaridan biri muomala odobidir. Insonlar bir-birlari bilan hamkorlik qilmasdan oʻzaro tajriba almashmasdan oʻzaro taʼsir koʻrsatmasdan yashashi mumkin emas. Binobarin, muloqot, muomala inson uchun asosiy ehtiyoj, zaruratdir. Axloqiy yetuklik muomala odobini egallashdan boshlanadi. Axloqiy madaniyat muayyan holat uchun faqat bir xildagi qoidalashtirilgan xatti-harakatlarni taqozo etadi. Axloqiy madaniyat keng qamrovli hodisa hisoblanadi. U oddiy insoniy munosabatlar bilan bir qatorda xalqaro miqyosda qabul qilingan muomala qonun-qoidalarini ham oʻz ichiga oladi. Masalan, kutubxonachi etiketi,

foydalanuvchi etiketi kabi. Axloqiy madaniyatning zamonaviy koʻrinishlaridan tashqari, uning milliy anʼanaviy shakllari ham mavjud. Ularsiz Sharq xalqlari madaniyatini tasavvur qilish qiyin. Masalan, shirinsuxanlik, lutf, mehmon kutish kutish odobi va hokazo. Milliy harakterdagi axloqiy madaniyatning muhim koʻrinishlaridan yana biri – odob bilan goʻzallikning uygʻunligidir. Axloqiy madaniyat shaxsning jamiyat axloqiy tajribalarini egallashi va bu tajribalardan boshqa odamlar bilan boʻlgan munosabatlarida foydalanishi, oʻz-oʻzini muntazam takomillashtirib borishi singari jihatlarini oʻz ichiga oladi.

Axloqiy madaniyatning koʻrinishlari insonparvarlik, halollik, tashabbuskorlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, faollik, ijodkorlik, saxiylik, masʼuliyatlilik, kamtarlik, poklik kabi sifatlardan iborat.

BIBLIOGRAFIK AXBOROT – Jamiyatda yaratiladigan va qoʻllaniladigan hujjatlar haqida, ularni izlash, tanlab tavsiya va tashviqot etish toʻgʻrisidagi axborot. Hozirgi zamon bibliografiya-shunoslikka ushbu tushuncha bibliografiya nazariyasiga asos qilib olingan boʻlib, bibliografik holatlarni bibliografik boʻlmagan holatlardan farqlashga nisbatan umumiy meyor yoki mezon vazifasini bajardi. Unga binoan bibliografik axborotni yaratish va foydalanuvchiga yetkazish bilan bogʻliq boʻlgan har bir ish bibliografik holat sifatida roʻyobga chiqadi.

BIBLIOTERAPIYA – foydalanuvchilarga kutubxona-axborot xizmati koʻrsatishdagi yangi yoʻnalish boʻlib, “kitob vositasida davolash” maʼnosini anglatadi. Kengroq maʼnoda bemorning psixik holatiga badiiy adabiyot vositasida taʼsir koʻrsatishdir. Biblioterapiya- kitobshunoslik, psixologiya va psixoterapiyaning murakkab sintezidir. Biblioterapiya davolash jarayonida yordamchi, baʼzi hollarda teng huquqqa ega boʻlgan metod sifatida vrach-psixoterapevt va maxsus tayyorgarlikdan oʻtgan kutubxonachi hamkorligida qoʻllaniladi.

BIBLIOGRAFIK FAOLIYAT — Bibliografik axborotga boʻlgan talabni qondirish boʻyicha hujjatli—axborot faoliyatning sohasi, yaʼni hujjat kommunikasiyasi tizimida kutubxona ITA (ilmiy-texnika axboroti) organlari (muassasalari) nashriyot va boshqa ijtimoiy institutlar tomonidan oʻquv-ilmiy

ishlab chiqarish, tarbiyaviy, targ‘ibot va boshqa maqsadlarda amalga oshiriladigan har tomonlama ta’minot (axborotga bo‘lgan talabni aniqlash va qondirish va shakllantirish), tarkibiy nuqtai nazardan esa turli jarayon (bibliografiyalash, bibliografik xizmat va h.k)larni tashkiliy shakllarni, subyekt va obyetlarni, natijalar va vositalarni o‘z ichiga oladi.

BIBLIOGRAFIK TASNIF – 1. Amerikalik kutubxonachi Genri Ivlin Bliss (1870-1955) tomonidan ishlab chiqarilgan kutubxona-bibliografik tasnifning bosqichli yig‘ma tizimi. “Bibliografik tasnif”ning o‘ziga xos xususiyati shundaki, unda kutubxona ixtisosidan kelib chiqib bir xildagi material tasnifiga turlicha yondashishga imkon beradigan muqobillik tamoyilini izchil qo‘llash mumkin.

2. Buyuk Britaniyada yaratilgan zamonaviy analitik-sintetik tasniflash tizimi.

BIBLIOGRAFIK MASLAHAT – Bibliografik izlanishning yo‘l va vositalaridan mustaqil foydalanish uchun alohida talabga ko‘ra beriladigan maslahatlarni o‘z ichiga olgan javob.

BIBLIOGRAFIK MA’LUMOTNOMA – Bibliografik tasvir va bibliografik qayd sarlavhasini tuzishda qo‘llaniladigan hujjat haqidagi ma’lumotlar.

BIBLIOGRAFIK QO‘LLANMA – Maqsadi, mazmuni, shakli va boshqa belgilari asosida birlashtirilgan bibliografik qaydlarning tartibga solingan yig‘indisi.

BIBLIOGRAFIK QIDIRUV – Yetishmaydigan (yoki) noto‘g‘ri berilgan (chalkashgan) elementlarni aniqlash bilan bog‘liq bo‘lgan bibliografik izlashning turi.

BILIM — ijtimoiy -tarixiy, amaliyotda tekshirilgan va mantiqan tasdiqlangan, voqelikning bilish jarayonida erishilgan natijasi; shu voqelikni inson ongida tasavvurlar, tushunchalar, muhokama va naariyalar orqali ifodalangan in’ikosi. Kishilarning tabiat va jamiyat hodisalari haqida hosil qilgan ma’lumotlari; voqelikniig inson tafakkurida aks etishi. Kundalik tasavvurimizda nimaning nima ekanligiga ishonsak va bu ishonchimiz biz odatlangan voqea va hodisalarga (qoidalarga) zid kelmasa, bunday ishonch bilim hisoblanadi. Voqelik haqidagi bilgan ma’lumotlarimiz bilim darajasiga ko‘tarilishi uchun quyidagi shartlarni

qanoatlantirishi lozim: birinchidan, bu ma’lumotlarning voqelikka mutanosibligi; ikkinchidan, yetarli darajada ishonarli bo‘lishi; uchinchidan, bu ma’lumotlar dalillar bilan asoslangan bo‘lishi lozim. Uchala shart birgalikda mavjud ma’lumotlarni bilim darajasiga olib chiqadi. Inson ijtimoiy taraqqiyot jarayonida bilmaslikdan bilishga, mavhum bilimlardan mukammal va aniq bilimlar hosil qilish tomon boradi. Kishining moddiy dunyo to‘g‘risidagi bilimi nisbiydir, u doim rivojlanib boradi. Bilim kundalik tajriba, kuzatish orqali to‘planadi. Bilimlarni tadqiq etuvchi ta’limot — epistemologiyada perseptiv (hissiy), hayotiy — kundalik (sog‘lom aql) va ilmiy bilim shakllari ajratib ko‘rsatiladi. Ilmiy adabiyotlarda bilimlarning ilmiy va ilmdan tashqari shakllari ham farq qilinadi. Ilmdan tashqari bilimlarga madaniyat, adabiyot, san’at, mifologiya, din va shu kabi sohalarga oid bilimlar kiradi. Odatdagi fan sohalarida tadqiq etiladigan bilimlar ekzoterik (ko‘zga tashlanuvchan) bilimlar deb atalsa, astrologiya, va shu kabi sohalarga oid bilimlar ezoterik (pinhoniy) bilimlar deyiladi. Ekzoterik bilimlar ilm-fan qoidalariga zid kelmaydigan bo‘lsa, ezoterik bilimlar bunday qoidalarga zid kelishi mumkin.

BILISH — olamning inson ongida in’ikos etishi jarayoni. Inson o‘zini qurshab olgan atrof-muhit to‘g‘risida bilim va tasavvurga ega bo‘lmay turib, faoliyatning biron-bir turi bilan shug‘ullana olmaydi. Bilishning mahsuli, natijasi bilim bo‘lib, har qanday kasbni egallash faqat bilim orqali ro‘y beradi. Bilish faqat insongagina xos bo‘lgan ma’naviy ehtiyoj, hayotiy zaruriyatdir (yana k,.*Bilish nazariyasi*).

BILISH NAZARIYASI, (gnoseologiya) — falsafa bo‘limi bo‘lib, u bilish qonuniyatlari va imkoniyatlari, bilimning obyektiv reallikka munosabatini o‘rganadi, bilish jarayonining bosqichlari va shakllarini, bilishning ishonchliligi va haqqoniyligi shartlari va mezonlarini tadqiq qiladi. Bilish nazariyasi hozirgi zamon fanida qo‘llaniladigan usullar (tajriba, modellashtirish, analiz, sintez va h.k)ni umumlashtirib, uning falsafiy-metodologik asosi sifatida namoyon bo‘ladi. Bilish jarayonida tajriba va amaliyotning katta ahamiyati bor. Bu o‘rinda amaliyot (praktika) keng ma’noda bo‘lib, insonning jamiyatga ta’siri, tabiat hodisalarini

oʻzgartirishi, yangi narsalar, jamiyatning yashashi uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratishi tushuniladi. Kishilarning tabiat qonunlari haqidagi bilimiga asoslangan amaliy faoliyatlari bilish taraqqiyotini, fan va texnika ravnaqini belgilaydi. Sezgi, tasavvur va tushunchalarimizning obyektivligini tekshirish bilish jarayonining eng muhim vazifasidir. Amaliyot — haqiqat mezoni. Bilimlarimizning haqiqiyligi amaliyot orqali tekshiriladi, tasdiqlanadi. Bilish jarayoni jonli mushohada (hissiy bilish) - dan abstrakt (mavhum) tafakkurga, undan esa amaliyotga oʻtish bilan harakterlanadi. Jonli mushohada, deganda biz *sezgi, idrok, tasavvur* kabilarni, ya'ni, sezgi a'zolari orqali tashqi olamning miyaga ta'siri natijasida paydo boʻladigan in'ikos shakllarini tushunamiz. Sezgi dunyoni in'ikos etishning boshlangʻich shaklidir. Demak, sezgi — obyektiv dunyoning subyektiv inikosi. U sezgi a'zolari orqali dunyo hodisalarini, buyumlarning xususiyat va sifatlarini ayrim-ayrim, bir-biri bilan bogʻlanmagan holda aks ettiradi. Idrok qilish hissiy bilishning murakkabroq shakli boʻlib, u sezgi a'zolariga bevosita ta'sir koʻrsatuvchi buyumni yaxlit holda aks ettiradi. Inson miyasining umumlashtiruvchi faoliyatiga asoslangan bu aks ettirish jarayoniga kishining oldingi tajribalari, abstrakt tafakkurning faoliyati va b. ham kelib qoʻshiladi. Shularga asoslangan idrok qilish narsalarning zarurroq, chuqurroq tomonlarini aqlan (fikran) ajratib olishga va bilishga imkon beradi. Miya inson ilgari idrok qilgan narsani oʻz xotirasida saqlab qolish va uni qayta tiklash qobiliyatiga ega. Sezgi a'zolariga ta'sir koʻrsatmayotgan buyumning ana shunday qayta tiklangan qiyofasi tasavvur deb ataladi. Inson hissiy bilish bosqichida toʻxtab qolmaydi. U mazkur bosqich doirasidan chiqishi, buyumlarning umumiy, zaruriy va muhim xususiyatlari hamda munosabatlarini, ularning bevosita hissiy mushohada qilib boʻlmaydigan qonuniy aloqalarini bilib olishi mumkin. Bunga abstrakt tafakkur — bilishning mantiqiy bosqichi orqali erishiladi. Bilish jarayonining sifat jihatdan yangi, oliy bosqichi — mavhum tafakkur jamiyatdan va tildan tashqarida boʻlmaydi. U — amaliyotning, tarixiy taraqqiyotning mahsuli. Tafakkur voqelikning umumlashtirilgan, ya'ni bilvosita aksidir. Tafakkur va til bir-biri bilan chambarchas bogʻlangan. Til boʻlmas ekan umumlashtirish jarayoni ham

boʻlmaydi. Hissiy bilish singari mavhum tafakkur ham muayyan shakllarda roʻy beradi. Bu shakllar *tushuncha*, *muhokama* va aqliy xulosalardir. Tushuncha narsa va hodisalarning umumiy va muhim tomonlarini aks ettiradi. Mas., «odam» tushunchasi hamma insonlarga xos eng asosiy belgilarni oʻzida ifoda etadi. Muhokamada buyumlarda muayyan xususiyatlar mavjudligi taʼkidlanadi yoki inkor qilinadi. Tilda muhokamalar gap orqali ifodalanadi. Bir yoki bir necha muhokama vositasi bilan yangi muhokama olish imkonini beradigan tafakkur shakli aqliy xulosa deb ataladi. Bunday usul bilan mavjud bilimlarga tayanib, yangi bilimlar hosil qilinadi. 19-a. va 20-a. boshida bilish toʻgʻrisidagi taʼlimotda empirizm, empiriokritisizm, idealizm, illyuzionizm, pozitivizm, pragmatizm, realizm, sensualizm, skeptisizm kabi koʻpdan-koʻp yoʻnalishlar paydo boʻldi.

BILISH USULLARI — bilish jarayonining tamoyili, qonun-qoidasi, talablar tizimi, uslub va vositasi. Qad. fay.lar bilish metodlariga katta eʼtibor berishgan (Aristotel). Oʻrta Osiyo mutafakkirlari (Forobiy, Beruniy, Ibn Sino) bilish jarayonida usulning tutgan oʻrni va ahamiyatini keng yoritib berganlar. Ushbu muammo Yangi davrga kelib, mustaqil oʻrganila boshlandi. 17—18-a. fay.lari — F.Bekon, R.Dekart va b.lar bu muammoga katta eʼtibor berib, uning yaratuvchanlik ahamiyatini taʼkidlashgan. Bilish jarayonida empirik va aqliy uslublardan qaysi birining ustuvorligi muammosi ilmlarni empirizm (Bekon) va ra-sionalizm (R.Dekart) yoʻnalishlarga burib yubordi. Fan taraqqiyoti ilmiy bilish usullarini yuzaga keltirdi. Bilish, oʻz navbatida, ikki pogʻona — empirik va nazariy uslublarga boʻlinadi. Kuzatish, tajriba, tavsiflash, oʻlchash va b.lar empirik bilish usullari sifatida oʻrganiladi. Nazariy bilish metodlari deganda, mavhumiylik, rasmiylashtirish, kompyuterda modellashtirish va h.k.lar tushuniladi. Lekin, hoz. kungacha bilish usullari rivoji fan taraqqiyotidan ancha orqada qolgan. (J.Bernal). Har qanday usulning bir qancha, jumladan: obyektiv mohiyati, operasional, qadriyatlar jihatlari mavjud. Birinchi jihatda, usul nazariya boʻlib, u orqali, narsaning jihatlari va mohiyatida bilish yotadi, yaʼni, bu holda, usul nazariya bilan tenglashtirilib, amaliyotda u obyektlarni bilishga qaratilgan. Operasional jihat asosida subyektning kompetentligi, qobiliyati yotadi. Uning ushbu tomoni

nazariyani qoida, tamoyillar tizimiga aylantira borishga asoslangan. Qadriyatlik jihati esa usulning samaradorligi, aniqligi, tushunarliligi, ishonchliligi kabi xususiyatlarini tashkil etadi. Fan usullarini, turli asoslarga koʻra, sifat va miqdor, mohiyat va formal, tarixiy, mantiqiy va boshqa usullar sifatida tasniflash mumkin.

BADIIY TARBIYA - yoshlarga san'atga nisbatan qiziqish va uni oʻrganishga boʻlgan ishtiyoqni shakllantirish hamda ularda badiiy faoliyatni koʻnikma va malakalarni tarkib toptirish jarayoni. Badiiy tarbiya jarayonida yosh foydalanuvchilarda san'at vositasida olamni idrok etish koʻnikmalari shakllantiriladi. San'atni idrokni etish oʻz-oʻzicha va pedagogik yoʻnalishda amalga oshirilishi mumkin. Badiiy tarbiya foydalanuvchilarni ularning idroki orqali san'atning har bir turlari bilan yaqinlashtiradi. Shu asosda ularda shaxsiy xarakterdagi ijodiy faoliyat tajribasi shakllanadi.

Ma'lumki, san'atning har xil turlari obyektiv tarzda yosh foydalanuvchilarni oʻrab turadi. San'at bola hayotining dastlabki yillaridan boshlab uning his-tuygʻulari, tarbiyasi hamda hayotga boʻlgan munosabatiga ta'sir koʻrsatadi. Ulgʻaya boshlagach, bola san'at olamiga ongli tarzda kirishga intiladi va harakteriga yaqin boʻlgan san'at turini tanlagan holda ijodiy faoliyat koʻrsatishga harakat qiladi. Kutubxona-axborot xizmati jarayoniga badiiy tarbiyani uygʻunlashtirish oʻsib kelayotgan yosh avlodni madaniyat va san'atning turli jihatlariga yaqinlashtirish imkonini beradi. Shu asosda yosh foydalanuvchilar san'at asarlari ustida fikrlashga oʻrganadilar.

Badiiy tarbiyaning boshqa bir jihati – yoshlarning shaxsiy ijodiy faoliyatida namoyon boʻladi. Badiy tarbiya orqali yoshlar ajdodlar ijodiy merosiniig vorisi sifatida namoyon boʻladi. Badiiy tarbiya yoshlarning koʻrish, tinglash, fazoviy tasavvurlari, ranglarni xis etish, konstruktiv kompozisiyalash layoqatlarini kengaytiradi. Bunday layoqat istiqbolda barcha kasb soxiblari uchun zarur hisoblanadi. Badiiy tarbiyaning vazifasi kutubxona-axborot xizmati jarayonida kutubxonachilar, ota-onalar, oʻqituvchilar yordamida yechiladi. Buning uchun ular goʻzallik olami bilan yoshlar orasida aloqa oʻrnatish layoqatiga ega boʻlishlari lozim.

Maqsadga yo‘naltirilgan badiiy tarbiyaning prinsiplari va metodlarini to‘g‘ri tanlash, bir tomondan, badiiy asarning turi, janr xususiyatlari, san’atning ijt. tabaqalanishini anglash va oydinlashtirish bilan bog‘liq bo‘lib, badiiy ijod soxibining jamiyatdagi o‘rnini aniqlashga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan badiiy bilimlarni ommalashtirishning umumiy prinsiplarini aniqlashdan iborat.

18-asrdayoq F.Shiller ilmiy ongni badiiy ongdan farqlash haqidagi g‘oyalarni o‘rtaga tashlagan edi. Ajdodlarimiz yoshlikdan boshlab bolalarning badiiy didini tarbiyalash sohasida juda katta tajribaga ega bo‘lganlar. Shuning uchun ham aksariyat bolalar yoshlikdan she’r mashq qilgan, rasmlar chizib, kuylar chalishgan. Alisher Navoiy, Zaxiriddin Muxammad Bobur, Kamoliddin Bexzod va ulariing ko‘plab zamondoshlari ijodi bunga misol bo‘la oladi.

20-asrning boshlaridan ta’lim muassasalariga badiiy tarbiyani olib olib kirish muammosiga alohida e’tibor qaratilgan. Boshlang‘ich sinflarda badiiy tarbiya musiqa, tasviriy san’at darslarida, turli ekskursiyalar jarayonida amalga oshiriladi.

Ilgari badiiy tarbiya asosan, darsdan tashqari ta’lim-tarbiya jarayonlarida amalga oshirilgan. Bunda turli muzeylarga uyushtirilgan sayohatlar, badiiy kechalar, konsertlar, teatr tomoshalari muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. O‘quvchilarni san’at vositasida badiiy tarbiyalash ta’lim jarayonida ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda badiiy tarbiya uzluksiz ta’lim jarayonining tarkibiy qismiga aylangan. Yoshlarni badiiy tarbiyalashda adabiyot, musiqa, tasviriy san’at darslari aloxida o‘rin egallamoqda. Badiiy tarbiya darsdan tashqari, jumladan, kutubxona-axborot xizmati jarayonlarida ham o‘z o‘rniga ega bo‘lmoqda.

BADIIY TA’LIM - uzluksiz ta’lim tizimining tarkibiy qismi. Badiiy ta’lim odatda, tasviriy san’at ta’limi sifatida talqin etiladi. Chunki badiiy-estetik turkum fanlari - «Musiqa madaniyati», «Adabiyot» o‘quv fanlari negizida amalga oshiriladigan ta’lim musiqiy ta’lim, adabiy ta’lim sifatida talqin etiladi.

Badiiy ta’lim ikki yo‘nalishda amalga oshiriladi. Birinchi yo‘nalish bevosita badiiy kasblar bo‘yicha professional rassom, xaykaltarosh, dizaynerlar, xalq amaliy san’ati ustalari tayyorlashga ixtisoslashgan o‘rta maxsus, kasb-hunar

ta’limi hamda oliy ta’lim muassasalarida amalga oshiriladigan badiiy ta’limdan iborat. 1997 yilda UzBA tashkil etilishi munosabati bilan professional badiiy ta’limning yangi uzluksiz tizimi yuzaga keldi. Bu tizimga Kamoliddin Bexzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti, Respublika rassomlik kolleji, Xo‘jayev nomidagi Dizayn kolleji, viloyatlardagi san’at kollejlari, BA tasarrufidagi ixtisoslashtirilgan liseylar, maktab, internatlarda uzluksiz professional badiiy ta’lim amalga oshirilmoqda. Shuningdek, oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimidagi universitetlarning “san’at fakultetlarda” ham professonal badiiy ta’lim amalga oshiriladi.

Badiiy ta’limning uzluksiz tizimi XTV tasarrufidagi ta’lim muassasalarida ham keng qamrovli tarzda amalga oshiriladi. Xususan, maktabgacha ta’lim muassasalarining maktabga tayyorlov guruhida “tasviriy faoliyat” yo‘nalishida maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga rasm chizish (72 soat), loy yoki plastilindan haykal yasash (36 soat), applikasiya (18 soat), qurish yasash (18 soat, jami 140 soat. Maktabgacha ta’limning umumiy yuklamasining 29, 9 foizi) bo‘yicha badiiy ta’limning birinchi bosqichi sifatida dastlabki saboqlar beriladi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida badiiy ta’lim «Tasviriy san’at» o‘quv fani negizida amalga oshiriladi. Mazkur ta’lim sohasining DTS talablariga muvofiq 1-7-sinflarda haftasiga bir soatdan tabiat va san’atni idrok etish (1-4-sinflarda), naturaga qarab tasvirlash, kompozision faoliyat (rangtasvir, haykaltaroshlik va amaliy san’atda kompozisiya) hamda san’atshunoslik asoslari (1-7-sinflarda) kabi faoliyat turlaridan olib boriladigan darslarda o‘quvchilarga bidiiy ta’limning asosiy komponentlari, xususan, atrof-muxitdagi va san’at asarlaridagi go‘zalliklarni estetik idrok etish, san’atning ijtimoiy ahamiyatini anglash; tasviriy, amaliy san’at va dizayn sohasi xamda me’morlikning o‘ziga xos xususiyatlarini bilish; tasviriy va amaliy san’atining turli vositalari, texnika va qonuniyatlarining dastlabki nazariy asoslari hamda amaliy ko‘nikmalarini egallash vositasida o‘quvchilarda estetik did, estetik ong hamda badiiy tasavvur hamda tafakkurni shakllantirish va rivojlanirishga yo‘naltirilgan badiiy ta’lim jarayonlari amalga oshiriladi.

Tasviriy san’at vositasida yosh avlodga badiiy estetik ta’lim berish tajribasi uzoq tarixiy shakllanish va rivojlanish jarayonini bosib o‘tgan. Badiiy ta’limning dastlabki maktablari Yunoniston, Rim, Misr, Xitoy va Hindistonda yuzaga kelgan. Mamlakatimizda badiiy ta’lim tizimining shakllanish tarixi ham uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Ayniqsa, temuriy shaxzoda Boysunqur Mirzo davrining o‘ziga xos badiiy ta’lim maktabi – “Nigoriston akademiyasi” badiiy ta’limni professional darajada tashkil etishning namunaviy maktabi sifatida madaniyat va san’at tarixidan o‘rin olgan. Sharqning buyuk musavviri Kamoliddin Behzod aynan shu akademiyada Mirak Naqqoshdan musavvirlik hamda naqqoshlik saboqlarini olgan, Sultonali Mashhadiydan esa xattotlik sirlarini o‘rgangan.

Badiiy ta’limni tizimli tarzda amalga oshirish 16 – asrda bir qator Yevropa mamlakatlarida badiiy maktab–akademiyalar tashkil etish orqali yo‘lga qo‘yilgan. Ayniqsa, san’at tarixida alohida o‘rin tutgan Florensiya tasviriy san’at akademiyasi (1563), Rim (1577), Bolonya (1585), Parij rangtasvir va haykaltaroshlik Qirollik akademiyasi (1648), Vena (1692), Berlin (1696) hamda Peterburg (1757) Badiiy akademiyalari badiiy ta’lim tizimini shakllanish va taraqqiy etishida muhim rol o‘ynagan.

O‘zbekistonda badiiy ta’lim sohasida muntazam ta’lim berish 1918 yilning noyabrida Toshkentda faoliyat ko‘rsata boshlagan tasviriy san’at maktabi bilan bog‘liq. 1919 yilda O‘zbekistonda badiiy ta’lim berish amaliyotini yaxshilash maqsadida Turkiston Maorif komissarligida tasviriy san’at bo‘limi tashkil etilgan. Bo‘limning asosiy maqsadi badiiy ta’lim bo‘yicha ped. kadrlar tayyorlashga yo‘naltirilgan bo‘lib, keyinchalik 1920 yilda Andijon va Buxoroda ochilgan rangtasvir maktablari, 1922 yilda Toshkentda ish boshlagan badiiy texnikum, ayniqsa, 1929 yilda Samarqandda ochilgan badiiy bilim yurti professional rassomlar bilan bir qatorda rassom-pedagoglar tayyorlash ishini sezilarli tarzda jonlantirgan. Shu tariqa 1923-24-o‘quv yilidan «Birinchi bosqich maktablarida badiiy tarbiya» nomli o‘quv dasturi joriy etilgan. Mazkur dastur turli yillarda har xil nomlainb, O‘zbekistonda badiiy ta’limni meyoriy asoslarini, mazmunini belgilab bergan. Jumladan, dastur 1937 yilda «Rasm va haykaltaroshlik», 1938

yildan «Rasm» va nihoyat 1967-68-o‘quv yilidan hozirgi kungacha «Tasviriy san’at» nomi b-n o‘qitib kelinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasinnng 1998 yil 13 maydagi “O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta ta’limni tashkil etish to‘g‘risida»gi 203-sonli qaroriga muvofiq barcha umumta’lim fanlari qatori “Tasviriy san’at” o‘quv faii ham mazmunan, ham shaklan isloh qilinib, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 16 avgustdagi «Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi qarorida belgilangan tartibda amalga oshirilib kelinmoqda. Mazkur meyoriy hujjat va o‘quv dasturi jamiyatning ijtimoiy ehtiyoji, taraqqiyot talablari, ta’lim sohasida amal qilayotgan tendensiyalarga monand tarzda modernizasiyalash, optimallashtirish, uzviylashtirish vositasida bosqichma-bosqich takomillashtirilib borilmoqda.

Respublikamizda badiiy ta’limning yana bir jabhasi maktabdai tashqari ta’lim muassasalaridagi badiiy-estetik yo‘nalishdagi to‘garak mashg‘ulotlari shaklida amalga oshirilib, ta’lim mazmuni belgilangan davlat talablari asosida olib boriladi. Aynan maktabdai tashqari ta’lim muassasalarida badiiy ta’limni kompleks tashkil etish imkoniyatlari mavjud.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbus”ining birinchi yo‘nalishi yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san’atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste’dodlarini yuzaga chiqarishga xizmat qilishi alohida ta’kidlangan. Shunga muvofiq ushbu yo‘nalishda har tomonlama mukammal takomillashgan tizimni yaratishga harakat qilinmoqda.

Ushbu tizimning manbalar bilan ta’milash, hamkorlik asosida samaradorligini oshirishda kutubxona-axborot xizmati alohida ahamiyatga ega bo‘lgan vazifani bajaradi.

BADIIY O‘QISH METODI - ta’lim usuli, sheriy, nasriy, publisistik janrdagi adabiy asarlar, dramatik parchalarning kutubxonachi yoki foydalanuvchi

tomonidan foydalanuvchilarga asar mohiyatini badiiy ta’sirchan tarzda ifodali o‘qish usuli. Yosh foydalanuvchilarning badiiy asarlarni ifodali o‘qish tarkibiga kiradigan asosiy metodlar quyidagilardan iborat:

1) Kutubxonachining kitobdan yoki yoddan o‘qishi. Bu foydalanuvchilarga matnni so‘zma-so‘z yetkazishni nazarda tutadi. Kutubxonachi muallifning fikrini saqlagan holda foydalanuvchilarga uning barcha fikrlarini taqdim etadi. Shu asosda badiiy asar foydalanuvchilarning aqli va idrokiga ta’sir ko‘rsatadi. Badiiy asarlarning asosiy qismi kitobdan o‘qiladi; 2) Kutubxonachining hikoya qilib, so‘zlab berishi. Bu jarayonda foydalanuvchilarga badiiy asar matni erkin tarzda yetkaziladi. So‘zlab berish orqali kutubxonachi foydalanuvchilarning fikrlarini badiiy asarga jalb etish sohasida katta imkoniyatga ega bo‘ladi; 3) Inssenirovka usuli. Bu metod foydalanuvchilarni badiiy asar bilan ikkilamchi tanishtirish usuli hisoblanadi; 4) Matnni yod olish usuli. Foydalanuvchilarga badiiy asarni yetkazish metodlari uning janr xususiyatlari va ularniig yoshi bilan bog‘liq holda tanlanadi.

An’anaviy tarzda bolalarning nutqini o‘stirish metodikasida ularni badiiy asar bilan tanishtirishning ikki xil shakli mavjud: a) badiiy asarni o‘qish va so‘zlab berish, mashg‘ulotlarda she’rlarni yod olish; b) ommaviy tadbirlarda faoliyatning turli ko‘rinishlarida xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanish.

Tadbirlarda badiiy o‘qish va so‘zlab berish metodlari asosida ularning bir iyecha turlarga ajratish mumkin: 1) Har bir gapni o‘qish va so‘zlab berish; 2) yagona mavzu yoki qahramonga ega bo‘lgan bir necha asarlarni o‘qish va umumlashtirgan holda so‘zlab berish. Bu o‘rinda bir yoki bir necha janrga mansub asarlarni birlashtirish mumkin. Bunday mashg‘ulotlarda yangi yoki tanish bo‘lgan materiallar birlashtiriladi; 3) san’atning har xil turlariga mansub bo‘lgan asarlarni birlashtirish: a) badiiy asarni o‘qish va rassomning unga ishlagan illyustrasiyalarni tomosha qilish; b) musiqa bilan uyg‘unlashtirib o‘qish; 4) ko‘rgazmali materiallar yordamida o‘qish va so‘zlab berish: a) o‘yinchoklar bilan uyg‘un tarzda o‘qish va so‘zlab berish; b) stol ustida karton qog‘ozlar yordamida teatr tashkil etgan holda o‘qish: v) qo‘g‘irchoq va soya teatrlari yordamida o‘qish; g) diafilm, kinofilm, teleko‘rsatuvlar shaklida o‘qish; 5) nutq o‘stirish darslarining muayyan qismida

o‘qish; a) mazkur o‘qishlar o‘z mazmuniga ko‘ra, dars mavzusi bilan bog‘langan bo‘lishi, masalan, kuz fasli haqida suhbatlashish jarayonida shu mavzuda she’rlar o‘qish, maqol va topishmoqlar aytish mumkin; b) mutolaani tadbirning mustaqil qismi sifatida amalga oshirish, bunda mashg‘ulotni mustahkamlash sifatida hikoya va she’rlar o‘qish nazarda tutiladi.

Bunday mashg‘ulotlar jarayonida yosh foydalanuvchilarga quyidagi topshiriqlar bilan murojaat qilinadi: “O‘qigan badiiy asarlaringiz haqida suhbatlashing», «Ma’lum parchalarni takror o‘qing» «Illyustrasiyalardan foydalanib o‘qigan asaringizni so‘zlab bering» va hokazo.

BIBLIOGRAFIK BAYON - belgilangan qoidalar asosida topilgan hamda hujjat identifikasiyasi va umumiy tavsifi haqida ma’lumot beradigan hujjat to‘g‘risidagi bibliografik ma’lumotlar majmui.

BIBLIOGRAFIK KATALOG - kutubxona fondi (uning qismi) yoki bir nechta hujjat fondlari tarkibi va mundarijasi haqida ma’lumot beruvchi bibliografik qo‘llanma.

BIBLIOGRAFIK SHARH - 1) kutubxonaga so‘nggi paytlarda kelib tushgan yoki foydalanuvchilarni yoki bu mavzu, muammo bilan tanishtiruvchi adabiyotlarni og‘zaki targ‘ib qilish usullaridan biri; 2) ma’lum hujjatlar guruhi mazmun-mundarijasini ochib beruvchi bibiografik qo‘llanma.

BIBLIOGRAFIYA (yun. - bib lion - kitob + grapho - yozaman) — o‘rganiladigan asarlar ro‘yxati, miqdori, ilmiy bayoni to‘g‘risidagi zaruriy ko‘rsatkichlar ifodasi. Shuningdek: I) bosma va qo‘lyozma mahsulotlar ro‘yxatini tuzish hamda ular haqidagi axborotni to‘plash bilan bog‘liq ilmiy-amaliy faoliyat: 2) mavzuga oid adabiyotlarning to‘liq yoki tanlab olingan ro‘yxati, shunday ro‘yxatlarii o‘z ichiga olgan maxsus nashrlar (ma’lumotnoma, katalog, sharh); 3) yangi chiqayotgan kitoblarning qisqacha sharhiga bag‘ishlab davriy nashrlar tarkibida tashkil etiladigai bo‘lim ma’nolarini ifodalaydi.

BILIM ALMASHISH - foydalanuvchilarda o‘z bilimlari, qarash va fikrlarini targ‘ib qilish ehtiyoji hamda ko‘nikmasini shakllantirishga xizmat qiluvchi tarbiya usuli. U do‘stlar orasidagi kundalik targ‘ibot va tushuntirish

ishlarini olib borishga asoslanadi va bunda jamoa tarbiyaviy ish subyekti sifatida ahamiyatlidir. Bu jarayonda kutubxonachi yordamchi va maslaxatchi vazifasini bajaradi.

BILIM DARAJASI - belgilangan meyor (ta'lim standartlari) bo'yicha foydalanuvchilar egallagan bilimlar ko'lami. Foydalanuvchining qiziqish darajasini aniqlash muammosi kutubxona-axborot xizmatining yetakchi masalalaridan biri xisoblanadi. An'anaviy yondashuvlarda bilishning ikkita asosiy darajasi ajratiladi: nazariy va empirik bilish. So'nggi yillarda bilishning uchinchi darajasi xaqida ham fikrlar o'rtaga tashlanmokda. Bu bilishning metanazariy bilish darajasidir.

Ilmiy bilimlar, asosan, bilish jarayoninnng aqlga muvofiq keladigan bosqichlari mahsulidir. Ilmiy bilimlar tushunchalarga asoslangai holda mantiqiy fikrlash natijasi sanaladi. Bu nafaqat nazariy bilish, balki empirik bilishga xam xosdir. Bu holat ilmiy kuzatishlar, tajribalar natijasida aniqlanadi.

Empirik bilish darajasining tabiatini tushunish uchun A. Eynshteyn faoliyatiga murojaat qilish lozim. Buning uchun turli obyektlarnipg uchta turli sifatlar bilan bog'liq turlarini farqlash talab etiladi: 1) buyumlarning o'z-o'zicha o'ziga xosligi; 2) hissiy ma'lumotlar orqali va ularni tasavvur etish; 3) empirik jihatdan abstrakt obyektlar sifatida qabul qilish va boshqalar.

Inson ongining tashqi axborotlarni saralashi bilish darajasining rivojlanishida o'ziga xos ahamiyatga ega. Empirik harakterdagi aqliy bilish darajasida empirik obyektlarni hissiy obyektlar negizida shakllantirishga asos bo'ladi. Uning farqi saralash jarayonining miqdori, ongning faolligi va konstruktivligi, hissiy bilish darajasida jadal rivojlanishidadir. Bilishning empirik darajasida bunday saralash vazifasini quyidagilar o'taydi: a) bilishga asoslangan amaliy qoidalari; b) tafakkurning tahliliy imkoniyatlari; v) til talablari; g) empirik bilimlar zahirasining to'planishi; d) mavjud nazariyalarning talqin qilish quvvatlari va boshqalar.

Empirik bilimlar empirik xarakterdagi obyektlar haqida aytilgan fikrlar asosida aniqlanadi. Bunda aynan o'xshatishning uzun zanjiri namoyon bo'ladi. Bu

shaxsning obyektiv borliq haqidagi bilimlaridir. Empirik bilimlar yordamida bevosita obyektiv borliq tasvirlanadi.

Foydalanuvchilar har doim ham o‘z bilish darajasini maqsadga muvofiq tarzda baholash imkoniyatiga ega bo‘lmaydilar. Foydalanuvchilarning bilish darajasi o‘zlashtirilgan bilimlar va izchil mehnat mahsuli hisoblanadi. Foydalanuvchilar o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri baholay olganlaridagina bilishning yuqori darajalarini egallashga intiladilar. Buning uchun ularning bilimlari bir darajadan ikkinchisiga o‘tish imkonini berishi kerak.

BILIM, KO‘NIKMA VA MALAKALARNI MUSTAHKAMLASH – kutubxonachining ma’lumotlar va axborotlar taqdim etish jarayonida mustahkamlik prinsipini ta’minlashga qaratilgan maxsus ishlari. Buning uchun kutubxona-axborot xizmatida nazariy va amaliy yo‘nalishda maxsus yakka tarzdagi mashg‘ulotlar tashkil etiladi.

BILISH VAZIFALARI – Yosh foydalanuvchilarga yangi bilimlar, ko‘nikmalar, usullarni izlash imkonini beradigai o‘quv topshiriqlari tizimi. Ular yordamida kutubxona-axborot xizmati jarayonida turli aloqalar, dalillar, munosabatlarni faol qo‘llash imkoniyati vujudga keladi. Bilish vazifalari tizimi xizmat ko‘rsatish jarayonining barcha bosqichlarida qo‘llaniladi. Ular mazmun jihatdan muayyan izchillikka ega bo‘lib, muntazam murakkablashib boradi. Bunda bilish vazifalarining yechish usullari muhim ahamiyat kasb etadi. Kutubxona-axborot xizmati jarayonida turli-tuman xarakterdagi bilish vazifalari o‘quv predmetlarining imkoniyatlari bilan bog‘liq bo‘lib, foydalanuvchilarning yosh xususiyatlari, kutubxona – axborot xizmati harakteridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Bilish vazifasining pedagogik-psixologik jihatdan asoslangan tizimi kutubxona-axborot xizmati jarayonining barcha vazifalarini amalga oshirish imkonini beradi. Shu bois ham har bir bilish vazifalarida nafakat uning bilimlarni o‘zlashtirishdagi ahamiyatini ajratib ko‘rsatish, balki o‘quv materiali mantiqi tarkibida tutgan o‘rnini ham belgilash talab etiladi. Bunday bilish vazifalari foydalanuvchilarning bilish faoliyatlarini jadallashtirishga xizmat qiladi. Bilish

vazifalari tayyor namunalar asosida yechilmaydi, balki foydalanuvchilar yangi yechimlarni bashorat qiladilar. Buning uchun foydalanuvchilar farazlarni ilgari surishlari, bilishning istiqbolli yo‘nalishlarini chuqurlashtirishlari, mavjud bilimlarini takomillashtirishlari kerak.

Muammoli o‘rganish jarayonida bilish vazifalari alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday vazifalar yordamida kutubxonachi foydalanuvchilarni qarama-qarshiliklarga rubaro‘ qiladi, ulardan chiqish yo‘llarini izlashga undaydi, ularning bilish quvvatlarini faollashtiradi. Bilish vazifalarini bajarish jarayoni foydalanuvchilardan irodaviy zo‘riqish, intellektual bosimning kuchayishiga olib keladi. Ularning yechimi esa yakunlovchi bilish akti bo‘lib, foydalanuvchilarda qoniqish va ijobiy his- tuyg‘ularni hosil qiladi.

BILISH JARAYONI – insonning hayoti uchun zarur bo‘lgan tabiat, jamiyat hamda o‘zi xaqidagi bilimlarni uzluksiz egallashga yo‘naltirilgan jarayon. O‘z mazmuniga ko‘ra keng ko‘lamli, ko‘pqirrali atama. U inson uchun zarur bo‘lgan bilimlarni egallash va muntazam yangilash jarayonini anglatadi. Bilish, birinchi navbatda, aqliy faoliyat hisoblanadi. Uning natijasi moddiy olamdan xabardorlikni ifodalaydi. Bilish turli xayollar, fantaziyalarning tug‘ilishiga ham asos bo‘ladi. Bunday xayollar ba’zi hollarda obyektiv reallikka to‘g‘ri kelmasligi ham mumkin. Bilish insonning o‘ziga xos, beqiyos faoliyati hisoblanadi. Bu faoliyat uni o‘rab turgan muhitning ideal modelini yaratishga qaratilganligi bilan ham o‘ziga xosdir. Bu jarayonda inson faol subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Uning faoliyati obyektiv borliqni to‘la-to‘kis o‘zlashtirishga yo‘naltiriladi. Mazkur subyektning hissiy hamda mantiqiy faolligi bilish munosabatlariga kirishadigan obyektga yo‘naltirilgan.

Zamonaviy pedagogik-psixologik yondashuvlar nuqtai nazaridan qaraladigai bo‘lsa, bilish jarayoni bilish faoliyati natijasida subyekt tomonidan yaratilgan ideal model bo‘lib, u hech qachon o‘z obyektiga o‘xshamasligi bilan ajralib turadi. Bilish insonning turli-tuman ehtiyojlari mahsuli sifatida vujudga keladi. U inson bilan obyekt orasidagi o‘rnatilishi mumkin bo‘lgan munosabat hisoblanadi. Uning natijasida esa reallik haqidagi muayyan axborot sifatida namoyon bo‘ladi.

Psixologik-didaktik nuqtai nazardan mazkur atama insonning oʻylash, eslash, koʻra bilish layoqatini ifodalaydi. Bilish va bilim tushunchalari har doim bir-birini taqozo etadi. Chunki bilim bilish jarayoning maqsadi va natijasini ifodalaydi. Pedagogika va psixologiyada bilish jarayonining faol, ijodiy harakterga ega boʻlishi lozimligi alohida ta'kidlanadi.

BILISH METODI - bilish jarayoni prinsiplari, qonun - qoidalari, talablar tizimi, uslub va vositalari. Ajdodlarimiz, buyuk mutafakkirlar va faylasuflar bilish metodiga alohida e'tibor berganlar. Aristotel, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Abu Nasr Forobiy kabi mutafakkirlar oʻz asarlarida bilish jarayonida met.ning tutgan oʻrni va ahamiyatini alohida yoritib berganlar. Bilish metodi muammosini oʻrganish masalasiga 17-18-a. faylasuflari - F. Bekon, R. Dekart va boshqalar katta e'tibor berib, uning yaratuvchanlik ahamiyatini ta'kidlaganlar. Bilish jarayonida empirik va aqliy metodlardan qaysi birining ustuvorligi masalasi ilmlarni empirizm (F.Bekon) va rasionalizam (R.Dekart) yoʻnalishlarga burib yubordi. Fan taraqqiyoti ilmiy bilish metodlarini vujudga keltirib, bilish oʻz navbatida ikki empirik bilish va nazariy bilish met.lariga boʻlinishi, kuzatish, tajriba, tavsiflash, oʻlchash va b. empirik bilish metodlari sifatida oʻrganilishini koʻrsatdi.

Nazariy bilish metodlari deganda abstraksiyalash, formalashtirish, modellashtirish va h.k.lar tushuniladi. Kutubxona-axborot xizmatida ushbu metodlar oʻziga xos tarzda qoʻllaniladi.

BILISH FAOLIYATINI BOSHQARISH TEXNOLOGIYALARI - foydalanuvchilarning bilish faoliyatini boshqarishga yoʻnaltirilgan kutubxona-axborot xizmati majmuasi. Uning tarkibiga maslahat berish, manbalar bilan ishlash, kichik guruhlarda ishlash, foydalanuvchilarning alohida guruhlari bilan ishlash kabi ped. texn. kiradi. Bilish faoliyatining yoʻnalishi, mazmuni va b. xususiyatlariga koʻra ularning alohida yoki bir necha turlari qoʻllaniladi.

BIR YOQLAMA TAFAKKUR - shaxs tafakkurining cheklanganligi, uning voqelikni toʻliq va xolisona ifoda eta olmasligini anglatuvchi tushuncha. Bir yoqlama tafakkur mohiyatiga koʻra, inson, jamiyat va ijt. voqelikdagi oʻzgarishlar, voqea- hodisalarni asl holicha aks ettirmaslik, uni buzib talqin qilish yoki

aksincha, boʻrttirib koʻrsatish shakllarida namoyon boʻladi. Bir yoqlama tafakkur inson maʼnaviyatining cheklangan mahsuli hamdir. Zero, inson tafakkurga ega mavjudot sifatida dunyoni nafaqat anglashi, balki uni toʻgʻri talqin etishi orqaligina faoliyat yuritishi mumkin. Shy maʼnoda, bir yoqlama tafakkurga ega boʻlgan kishining maʼnaviy qiyofasi, insonlarga, oilaga, jamiyatga nisbatan munosabati adovat, yotsirash yoki befarqlik kasb etishi mumkin. Bir yoqlama tafakkur jamiyatning muayyan tarixiy davrlari, mavjud voqelik bilan chambarchas bogʻliq.

Bir yoqlama tafakkur ham ijt., ham individual xarakterga ega. U alohida bir shaxsning qarashlari va tafakkur tarzida ham namoyon boʻladi. Bunda insonning ijt. kelib chiqishi, yashayotgan muhiti, oilaviy sharoiti, faoliyati, turmush tarzi, maʼlumotlilik darajasi, madaniy qadriyatlarga munosabati kabi omillar muhim ahamiyat kasb etadi.

Ajdodlarimiz tomonidan insonning bir yoqlama tafakkurini taʼlim-tarbiya, kamolot sari intilish, oʻqish, izlanish orqali bartaraf etish mumkinligi taʼkidlangan. Masalan, Abu Nasr Forobiy («Fozil odamlar shahri»), Ibn Sino («Tib qonunlari»), Imom Abu Homid Gʻazzoliy («Kimyoi saodat»), Alisher Navoiy («Maxbub ul-qulub») inson tafakkurini rivojlantirishda nafaqat nazariy bilim, tajriba va koʻnikmalarni shakllantirish, balki mashq qilish orqali xotirani charxlash, ogʻzaki va yozma nutqni rivojlantirish, qiroat, kitobxonlik, mutolaa, muloqot, hamkorlik va b. muhim oʻrin egallashini taʼkidlaganlar. Mustaqillik davrida barkamol avlodni voyaga yetkazish maqsadida taʼlim tizimini isloh qilish borasida amalga oshirilayotgan oʻzgarishlar mustaqil fikrlovchi barkamol shaxsni shakllantirishda katta ahamiyatga ega ekanligini taʼlim va tarbiya sohasida erishilgan yutuqlar yaqqol koʻrsatmoqda.

BOʻSH VAQT - odamning tabiiy, ijtimoiy va iqtisodiy majburiyatlaridan tashqaridagi, uning shaxs sifatidagi maʼnaviy-jismoniy kamolotini taʼminlash uchun oʻz ixtiyori bilan tasarruf qilinishi mumkin boʻlgan vaqt. Yoshi, ijt. mavqeidan qatʼi nazar har qanday odamning kundalik hayotini ish vaqti va ishdai tashqari vaqt tarzida ikkiga ajratish mumkin. Ish vaqti insonning ijt.-tashkiliy

faoliyatda ishtirok etgan vaqtini anglatib, ish kuni, ish haftasi, ish oyi, ish yili bilan o‘lchanadi. Balog‘at yoshidagi bolalardan tashqari kichik yosh- dagi bolalarning MTM, o‘quvchilarning maktabdagi, talabalarning OUYudagi faoliyati ham ish vaqti hisoblaiadi. Ishdan tashqari vaqtni shartli ravishda uyqu, dam olish, ovqatlanish, o‘ziga qarash, uy ishlari bilan shug‘ullanish, bo‘sh vaqt singari turlarga ajratish mumkin.

Bo‘sh vaqt har bir shaxsning ham jismoniy-biologik, ham ma’naviy-intellektual jihatdan kamolotga erishishini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega tushunchadir. Har bir shaxsning ma’naviy-aqliy darajasi uning bo‘sh vaqtidan qanday foydalanishi bilan belgilanadi. Shaxslar va oilalardan tarkib topgai jamiyatning rivojlanganlik darajasi ham fuqarolarning o‘z bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishlari bilan belgilanadn. Shuniig uchun ham taraqqiyot yo‘liga kirgan va fuqarolarining ma’naviy yuksalishini istagan mamlakatlarda bo‘sh vaqt miqdorining borgan sari ko‘payishiga alohida e’tibor qaratiladi.

Har bir oila o‘z a’zolarining bo‘sh vaqtidan to‘g‘ri foydalanishlariga erishgandagina millat, jamiyat saviyasi yuksalishi ta’minlanadi. Buning uchun bo‘sh vaqtni shaxsning ijodkorligini oshirish, madaniy – ma’rifiy saviyasini ko‘tarish. ijt.-siyosiy faolligini kuchaytirish kitobxonlik darajasini orttirish, san’at va sport bilan shug‘ullanishlarini ta’minlash, bolalar bilan birga bo‘lish maqsadida sarflashlariga erishish lozim.

Turli madaniy muassasalar, kino-teatrlar, oromgohlar, muzeylar, sayilgohlarga tez-tez borib turish orqali bolalarning ma’naviy olami, dunyoqarashlari boyib boradi. Oilaviy sayrlar, tabiat qo‘yniga chiqish, e’tiborga loyiq tarixiy obidalar va muqaddas joylarni ziyorat etish esa doimo uy bilan ovora bo‘lib qolish oqibatida yuzaga keladigan ko‘ngilxiralik, charchoq va asabiylikning oldini oladi. Oilada bolalarning bo‘sh vaqtlarini tashkil etishga alohida e’tibor qaratish talab etiladi. Ularning bo‘sh vaqtida faqat turli o‘yinlar bilan band bo‘lishi yoki televizor qarshisida xoxlagancha o‘tirishlariga ruxsat berib qo‘yish bilangina cheklanmaslik kerak. Bolalarni bunday vaqtda ota- onalari, kattalarga yordam berishlari, kitob o‘qishlari, tabiat qo‘ynida sayr qilishlari, sport bilan

shug‘ullanishlari, ijodiy faoliyat ko‘rsatishlari uchun qulay sharoit yaratish talab etiladi. Bolalarning maktabdan bo‘sh vaqtlarida fakat ko‘chada o‘ynab yurmay, o‘zlarining har tomonlama yuksalishlariga yordam beradigan ish va mashg‘ulotlar bilan band bo‘lishlarn ularning turli yomon odatlarga o‘rganishlarining oldini oladi. Bolaning bo‘sh vaqtidan foydalanib, u bilan tarbiyaviy mavzularda suhbatlar o‘tkazish, turli hikoyalar, ertaklar, hikmatli so‘zlar aytib berish, ularda insoniylik, ezgulik, vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishga xizmat qiladi. Bolalarnnng o‘z o‘rtoqlarini vaqt-vaqti bilan uyga taklif qilishlari, uyda o‘z do‘stlari bilan turli o‘yinlar o‘ynashlariga ruxsat etish kerak. Bunda ota-onalar o‘z farzandlariniig kimlar bilan o‘rtoklashayotganidan xabardor bo‘ladi.

O‘zbekistonda bolalar bo‘sh vaqtlarinini samarali tashkil etishda Barkamol avlod markazlariniig alohida o‘rni bor. Mazkur markazlar o‘quvchi-yoshlarning bo‘sh vaqtlarini va dam olishlarini tashkil etish, jamiyatdagi barqarorlik, ma’naviy barkamollikni ta’minlashda muxim rol o‘ynaydi. Shunnng uchun xam O‘zbekistan Respublikasida o‘quvchi-yoshlarga ta’lim berish va ularni kamol toptirishga yo‘naltirilgan xizmatlar ko‘rsatuvchi muassasalar tarmog‘ini kengaytirish va bunday xizmat turlari, mas., xalk hunarmandchiligi bilan shug‘ullanadigan «Ustoz-shogird» guruhlariii ko‘paytirishga ahamiyat berilmoqda. Ota-onalar bunday imkoniyatlardan foydalanishlari zarur. Bolalarning bo‘sh vaqtini to‘g‘ri tashkil etishda ularni ommaviy sport va jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish tadbirlari, bolalar turizmiga jalb etish bo‘sh vaqtini shakllaitirishda alohida ahamiyatga ega.

VERBAL MULOQOT SHAKLLARI (lot. verbalis - og‘zaki) - so‘z, ma’ruza, suhbat, savol-javob, nasihat, munozara, bahs, xabar, tabrik, tanbeh, salomlashish-xayrlashish kabilardan iborat bo‘lgan og‘zaki muloqot turi.

Verbal muloqot shaklida qo‘llaniladigan nutk intonasiyalari so‘zlovchinnng fikrlaridagi uning maqsadiga muvofiq bo‘lgai mazmun - mohiyatini chuqurlashgirish, yorqinroq ifodalash imkonini beradi.

Kutubxonachi foydalanuvchilar uchun ma’lum bo‘lgan tushunchalarga asoslangai holda, yangi axborotlarni ularga taqdim etib tushuntiradi. Bu jarayonda foydalanuvchilar diqqatni jamlash, tinglash, eshitish, anglash, tushunish, idrok

qilish, mantiqiy fikrlash (tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish), xotirada saqlash, qayta eslash faoliyatini amalga oshiradilar. Bunda foydalanuvchilarning qiziqishlari, ehtiyojlari, manfaatlari, qobiliyatlari, iste'dodlari, iqtidorlari ular erishgan muvaffaqiyatlarning asosini tashkil etadi.

VIRTUAL PEDAGOGIKA - ta'limni axborotlashtirish sharoitida zamonaviy maktablarda bilishga oid teledasturlar turkumini infokommunikativ texnologiyaga asoslangan holda, elektron ta'limni faol tatbiq etish maqsadida amalga oshiriladigan jarayon.

Ma'lumki, ta'lim muassasalarida darslar axb.-kommunikasiya texnologiyasidan foydalanilgan holda tashkil etilmokda An'anaviy o'qitish tizimida o'qituvchi o'quv topshiriqlarnni doskaga bo'r bilan yozib chiqar, bu vaqt ichida o'quvchilar bir-birlari bilan gaplashib o'tirishar edi. Ular o'z kundaliklariga muntazam tarzda tuzatishlar kiritishgan. Virtual pedagogika amal qilayotgan sharoitda esa o'quvchilar bunday imkoniyatga ega bo'lishmaydi. Chunki o'quv jarayoni yangi texn. yordamida amalga oshiriladi. Natijada darslar o'quvchilar uchun tobora qiziqarli jozibali bo'lib bormoqda. O'qituvchilar kompyuter yordamida samarali ishlash imkoniyatiga ega bo'lishmoqda. Ular darslarga uyda tayyorlanishadi. Shuning uchun darslarda vaqtni ko'proq iqtisod qilish imkoniyati mavjud. Ular komp. va video-proyektorlar yordamida o'quv materiallarini ekranda namoyish qilish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bu jarayonda o'qituvchilar loyixa va taqdimotlarni mustaqil ishlab chiqish ko'nikmasiga ega bo'lishmoqda.

Zamonaviy ta'limning o'ziga xos qulay shakllaridan biri - masofadan turib o'qitishdir. Muayyan sababga ko'ra dars qoldirgan o'quvchi avvallari o'zlashtirishda orqada qolar edi. Zamonaviy sharoitda esa mazkur muammo masofadan turib o'qitish imkoniyatining yaratilganligi tufayli bartaraf etiladi. O'quvchilar qoldirgan darslari ustida elektron manzillar orqali ishlaydi. Kutubxonachi foydalanuvchilarga kerakli malumot yoki axborotni qayerdan olish va qaysi lozimligi bo'yicha maslahat beradi. Foydalanuvchilar esa mavzu ustida mustaqil ishlashadi va o'zlari bajargan topshiriqlarni elektron manzil orqali kerakli

manzilga yuborishadi. Bu sohada videoaloqa imkoniyatlaridan ham foydalanish mumkin.

VIRTUAL STENDLAR - haqiqiy obyektlar, jarayonlar va xodisalarning elektron modeli. Virtual stendlarni yaratishdan asosiy maqsad-texnik mutaxassislar tayyorlash jarayoni samaradorligini ta’minlashdan iborat. Stendlar shaxsiy komp.lar tarkibida yaratilib, termodinamika teplotexnikaga oid i. t.lar natijalariga tayanadi. Ular yordamida o‘rganilgan ilmiy nazariyalar, ma’lumotlar hayotiy haqiqatga yaqinlashtiriladi. Shuningdek, ulardan keng ko‘lamda o‘zgaruvchan sharoitlarda foydalanish nazarda tutiladn Texnika va texn. sohasidagi mutaxassislarni o‘quv rejasiga muvofiq keladigan o‘quv fani bo‘yicha o‘quv dasturlarni asosida o‘qitish, talabalarning ilmiy izlanishlarni amalga oshirishlarini tashkil etish, o‘quv laboratoriyalarida bo‘lgani kabi internet yordamida texn.dan foydalanishga o‘rgatish maqsadida qo‘llaniladi.

Virtual stendlarning axb.larni mobil tizimi quyidagilarni o‘zida mujassamlashtiradi: Foydalanuvchining ish joyi; ma’lumotlar bazasini to‘ldirish tizimi; masofaviy ish joyi. Mazkur tizim virtual stendlarni o‘zida saqlaydi. U haqiqiy lab. jixozlariga muvofiq keladi. Virtual stendlarning dasturiy lab. jihozlarini ifodalovchi mat. modellarining tasvir- lovchi birliklar, lab. jixozlariniig o‘zaro aloqasi, elementlari, holati orasidagi aloqadorlik va ularni boshqarish tizimining tasviridan iborat bo‘ladi.

Virtual stendlar - axb.larni ko‘rgazmali tarzda taqdim qilishning uslublaridan biri hisoblanadi.Bunda kutubxona-axborot xizmati jarayoni subyektlarining vaqti tejalib, axb.larni o‘zlashtirish qulayligi ta’minlanadi. Ularni kutubxona-axborot xizmati jarayonida qo‘llash natijasida foydalanuvchilarning turli manbalarni o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishlari ortadi.

Virtual stendlar multimedia vositasi sifatida kutubxona-axborot xizmati jarayoni subyektlari uchun alohida qulaylikka ega. Chunki u axb.larni taqdim etishning eng qulay va keng tarqalgan vositasidir.

VIRTUAL TA’LIM - o‘quv jarayoni subyektlarining axb.-kommunikativ texn.i yordamida vujudga kelgan hamkorligi. Virtual ta’lim axb.-kommunikativ

texn.ni amaliyotga tatbiq etish orqali an’anaviy o‘quv jarayonini masofaviy ta’limga almashtirayotgan o‘quv muassasalari soni ortib boradi. Chunki ko‘pchilik o‘quvchi hamda talabalar o‘zlarinipg shaxsiy komp. lariga ega. Shuniig uchun ham ularda o‘quv materiallarini internetdan olingan axb.lar hisobiga boyitish imkoniyati mavjud. Chunki o‘quvchilar va talabalar turli kitoblardan axb.larni izlashdan ko‘ra uni internetdan olishni afzal ko‘rishadi.

Virtual ta’lim muhiti tushunchasi keng ko‘lamli bo‘lib, u axb.li ta’lim muhiti tushunchasidan kelib chiqadi. Bu o‘quv jarayoni amalga oshiriladigan umumiy tarzdagi ta’lim maydonidir.

Virtual o‘qitish muxiti - komp. vositalari va texn.i majmui bo‘lib, subyektlar orasidagi aloqa va ta’lim muhitini boshqarishni amalga oshirishni anglatadi. Virtual ta’lim muhiti - jadal rivojlanuvchi, ko‘pdarajali, ko‘pvazifali tizim bo‘lib, bir qator holatlarni mujassamlashtiradi. Ular: 1) o‘quv jarayoni subyektlari hamkorligi uchun xos bo‘lgan ped., didaktik, met.texn.; 2) axb. resurslar: ma’lumot va bilimlar banki, kutubxonalar, elektron o‘quv materiallari; 3) zamonaviy dasturiy vositalar: dasturiy vositalar, elektron aloqa vositalari va b.

Virtual ta’lim muhitining vazifalari: a) axb. li o‘rgatuvchi, uning tarkibiga zarur o‘quv axb.lari kiradi; b) aloqa o‘rnatuvchi, bunda dialog o‘quv jarayoni ishtirokchilari orasida amalga oshiriladi; v) nazorat qiluvchi - boshqaruvchi, BKMni nazorat qilish hamda boshqarishga oid kompleks chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Virtual ta’lim - ta’lim jarayoni subyekt va obyektlari orasidagi hamkorlikning natijasi bo‘lib, virtual ta’lim muhitini yaratish orqali boshqariladi. Uning o‘ziga xos jihatlarini kutubxona –axborot xizmati jarayoni subyektlari va obyekti belgilaydi. Virtual ta’lim jarayoniniig mavjud bo‘lishi kutubxonachi, foydalanuvchilarning o‘zaro aloqasisiz amalga oshmaydi. Virtual ta’lim muhiti kutubxona –axborot xizmati jarayoni ishtirokchilari bo‘lgan obyekt va subyektlar yordamida vujudga keladi.

Yangicha harakterdagi kutubxona –axborot xizmati jarayonida tahsil olish mavjud ta’lim shakllariga zid tarzda amalga oshirilmaydi. Mavjud ta’lim

an’analarini inkor qilmaydi, aksincha, mazkur tizimni to‘ldiradi, rivojlantiradi va yangi an’analar bilan boyitadi.

GIPERMEDIA KITOBLAR - multimedia kitoblarining takomillashgan shakli. Bunda foydalanuvchn asosiy matndan tashqari turli qo‘shimcha manbalarga ham (sharhlar, atamalarning izohlari, tuzatishlariga) murojaat qilishi mumkin bo‘lgan darslik yoki kitoblar.

Gipermedia atamasi T. Nelson tomonidan 1965 y.da iste’molga kiritilgan. U dastlab mazkur so‘zni o‘zining «Complex information processing: a file structure for the complex, the changing and the indeterminate» kitobida qo‘llagan. Gipermedia - gipermatn bo‘lib, uning tarkibidan chizmalar, tovush, video birliklar, matnlar, havolalar joy olgan. Gipermedia nomuntazam axb.lar muhitiii yaratish uchun tatbiq etilgai. Gipermedia multimediyaga aloqador bo‘lib, interaktiv bo‘lmagan, tadrijiy ma’lumotlarni tasvirlaydn. U shu jihati bilan multimediaga o‘xshaydi

GUMANIZM (lot. humanus-insoniy)- insonni ulug‘lovchi fal. ta’limot, shaxs sifatida inson qadriyati, uning erkin kamol topish va o‘z qobiliyatlarini namoyon qilish huquqlarini e’tirof etish, ijt. munosabatlarning baho mezoni sifatida kishi baxt-saodatini qaror toptirish. Gumanizm tushunchasi Sharq mutafakkirlari ijodida o‘z aksini topgan va ularning asarlaridagi g‘oyalar Yevropa mutafakkirlari ijodiga ta’sir o‘tkazgan. Gumanizmning dastlabki ko‘rinishlari ajdodlarimiz tomonidan asoslangan bo‘lib, u Avestoda «Ezgu fikr», «Ezgu so‘z», «Ezgu amal» shiori ostida namoyon bo‘lgan. Uyg‘onish davriga kelib gumanizm g‘oyalari barkamol shaxs tarbiyasiga oid qarashlarda rivojlantirilgan. Ibn Sino, Forobiy, Beruniy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muxammad Bobur mazkur g‘oya tarafdorlari bo‘lishgan. Faqatgnna 15-19-a.lardagina. G‘arb ilm-fani namoyandalari tomonidan asoslangan.

Tor ma’noda — Uyg‘onish davri (13— 16-a.lar)da sxolastika va cherkovning ma’naviy hukmronligiga qarshi turgan dunyoviy hurfikrlilik ifodasidir. G‘arbiy Yevropadagi bir necha mamlakatlarda gumanizm ijt. tafakkur sohasida, ad., san’at va ilm-fanda katolisizm va shaxsning qulligiga qarshi qaratilgan ilg‘or harakat

sifatida namoyon bo‘lgan. Nazariy asoslangan gumanistik g‘oyalar, insonni himoya qilish zarurati haqidagi asarlar 15-19-a.larda vujudga kelgan (T.Mor, T.Kampanella, SH. Furye, K. A. Sen-Simon, R.Ouen va b.). gumanizmning ilmiy asoslarini mashhur fransuz ma’rifatparvarlari - F. Volter, SH. Monteskye, D.Didro, G1. Golbax, K. Gelvesiy va J. Lametrilar yaratishgan. Ular insoniyat o‘z hayoti davomida uch asosiy tamoyil - ozodlik, tenglik va birodarlikka suyanishi kerak, degan fikrni ilgari surganlar. Ular xuddi shu uch tamoyil dunyoning barcha burchaklarida yashab turgan har bir inson zotiga uning millati, irqi, jinsi, siyosiy qarashlari, dinidan qat’i nazar tegishli ekanligiii isbotlab, barchaga birday insoniy munosabatda bo‘lishga da’vat qilganlar. Insoniyat o‘z tarixiy tajribasi asosida gumanizm tamoyillarining hayot va fan rivojiga tatbiq etilishi zarurligini anglab yetdi. Gumanizm siyosiy chaqiriq va oliyjanob g‘oya holatidan hayotiy tamoyilga aylana boshladi. Gumanizm zamonaviy dav. qurish va jamiyat hayotini barpo etish, shaxsga ta’lim-tarbiya berish va uni rivojlantirishning muhim prinsipi ekanligi bilan umuminsoniy ahamiyat kasb etdi. Hozirgi davrda BMT, YUNESKO va b. nufuzli xalqaro tashkilotlar o‘z faoliyatlarida gumanizm tamoyiliga tayanishadi va har bir xalqaro muammoni hal qilishda gumanizm talablariga rioya qilishni zaruriy shart deb bilishadi.

Gumanizm insonparvarlik tamoyillarining ustuvorligi barcha tuzum, dav. va jamiyatlar uchun asosiy faoliyat mezoni bo‘lishi lozimligini ifodalaydigan hodisadir. Aksariyat G‘arb mutaxassislari gumanizmning «antroposentrizm» (inson borliq mohiyatining asosiga qo‘yilishi) g‘oyasiga tayanishini e’tirof etadilar. O‘rta aslardagi gumanizmning rivojlanish yo‘lini quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin: I) ilk gumanizm - 14-a.ning 30 - 90-y. lari; 2) Gumanizmning yuksalish davri - 14-a. ning 1-yarmi: 3) bevosita gumanistik talqindagi neoplatonizmning tarkib topishi - 15-a.ning 2-yarmidan 16-a. boshlarigacha; 4) Gumanizm g‘oyalari mazmunidan chekinishlar va gumanizm harakatining so‘nish davri - 16-a.ning 2-yarmi.

Ilk gumanistlar insonning hayotiy ehtiyojlariga e’tibor qaratib, uni borliq markaziga qo‘ygan. Bu davrda inson haqidagi ilmlar, aynqsa, she’riyat va axloq

ilmiga qiziqish kuchaygan. Qad. yunon va Rim allomalari yaratgan meros jiddiy o‘rganilgan. Bu davr mutafakkirlari yerdagi moddiy hayot faqat inson uchun yaratilgan, uni ezgulik va adolatning tabiiy qonunlariga muvofiq ravishda tartibga solish ham insonning o‘ziga bog‘liqdir, degan g‘oyani ilgari surgan. 15-a.ning 2-yarmidan boshlab gumanistlar neoplatonizm g‘oyalarini yangicha talqin etishga kirishgan. Neoplatonchilar insonning tangriga bo‘lgan munosabatini talqin etishda ibtidoiy tasavvurlardan voz kechib, borliqni yaxlit tizim sifatida tushunib, tabiat va ilohiy mohiyatning o‘zaro ichki bog‘liqligiga e’tibor qaratgan. Ular o‘rta asrlarga xos tarki dunyochilik kayfiyatidan yuz o‘girib, yorug‘ dunyo go‘zalligini ilohiylashtirgan. Jamiyat ijt.-siyosiy hayotida yuz bergan o‘zgarishlar ta’sirida inson shaxsi borliq asosiga qo‘yilib, uni ulug‘lashga yo‘naltirilgan qarashlar majmui sifatida talqin etila boshlandi. Shu ma’noda, gumanizm tushunchasi turli tarixiy davr va xududlarda tarqalgan ta’limotlar va dunyoqarash tizimlariga tatbiqan ham qo‘llanadi.

O‘zbek tiliga keng ma’nodagi gumanizm tushunchasi «insonparvarlik» deb o‘girilgan. Keyinchalik fanga «Antik davr gumanizmi», «Sharq gumanizmi», «Xristian gumanizmi», «Islom gumanizmi» kabi tushunchalar kirib kelgan. Gumanizm bugungi kunda ma’naviyat talab va tamoyillarini amalga oshirish usuli va vositasi sifatida xizmat qilib kelmoqda.

GUMANIZM G‘OYALARI - mazmun-mohiyatiga ko‘ra bashariyatga xos bo‘lgan, insonni inson qiladigan, uning hayotini teran ma’no-mazmun bilan boyitadigan yuksak ma’naviy-ahloqiy fazilatlarni o‘zida mujassam etadigan qarash va ta’limotlarni anglatuvchi tushuncha. Gumanizmga ko‘ra, har bir insonning asosiy fazilati tabiiy ehtiyojlarni qondirish bilan emas, balki mehnat qilish, aql-idrok va tafakkurga ega bo‘lish, fikrlay olish, bilimlar hamda o‘z xalqining madaniyati, ma’naviyatini egallash bilan belgilanadi. Bozor iqtisodiyoti hamda globallashuv jarayoni jamiyat hayotining barcha sohalariga kirib borayotgan sharoitda inson qadr-qimmati masalasi dolzarb mavzuga aylanib bormoqda. Ma’lumki, jamiyatdagi iqtisodiy, ijt.-siyosiy munosabatlardagi tub o‘zgarishlar inson tafakkuri va faoliyatiga ta’sir ko‘rsatib, uni yanada faolroq

harakat qilishga undaydi. Bu esa, o‘z navbatida, jamiyat taraqqiyoti mexanizmlarining takomillashuviga olib keladi. Ana shu jarayonda insonparvar g‘oyalardan samarali foydalanish g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuvning shakllanishi uzoq tarixiy tajribalar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, uning mazmun-mohiyati gumanizm g‘oyalarining muayyan bir davrda jamiyat va shaxs taraqqiyotiga ko‘rsatadigai ta’sirida namoyon bo‘ladi.

Azaldan gumanizm g‘oyalari tabiiy-ilmiy, fal., axlokiy, estetik, ijt.-siyosiy qarashlar bilan mutanosib ravishda rivojlantirilgan. Mas., G‘arbda gumanizm g‘oyalari shakllanishida qad. Sharq fal. tafakkuri va hurfikrlilik an’analari, yunon va rim madaniyati, materiya va ruhning abadiyligi, aqlnipg faolligi, iroda erkinligi kabi g‘oyalarning ahamiyati beqiyos bo‘lgan. 13-17-a.lar davomida Italiyada gumanizm g‘oyalari rivojida Leonardo da Vinchi, Jordano Bruno, Galileo Galiley, Makiavelli; Fransiyada 15-16-a.larda yashab ijod etgan Monten, Rame, Sharron, Leferd Etapl’, Dole; Germaniyada 6-12- a.larda Myunser, I.Reyxlin, Gutten, S.Frank, Kepler; Angliyada 16—17-a. larda Tomas Mor, F.Bekon; Gollandiyada E.Rotterdamskiy, Polshada N. Kopernik va uning izdoshlari; Shveysariyada Parasels; Chexiyada Y.A. Komenskiy kabi mutafakkirlarning gumanizm g‘oyalari muhim ahamiyat kasb etgan. Sharq fal. tafakkurida gumanizam g‘oyalari ulug‘ ajdodlarimizning qarashlarida o‘z aksini topgan. Jumladan, Imom al-Buxoriyning «Al- Adab al-mufrad» («Odob durdonalari»), Imom Termiziyiing «Al-jome’ as-sahih» («Ishonchli to‘plam») asarlarida gumanizm g‘oyalarining mazmun-mohiyati ilm egallash, ota-ona va farzandlarning bir-birini hurmat qilishi, ta’lim-tarbiya, xulq-odob qoidalari, xalollik, poklik, saxiylik, adolat, insof va b. insoniy qadriyatlarda ifodalanadi. I. Karimov «Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch» asarida Imom al-Buxoriyning «Al-jome’ as-saxix», Muxammad ibn Iso Termiziyning «Sunani Termiziy» asarlari o‘n ikki asrdan buyon millionlab insonlar qalbini iymon nuri bilan munavvar etib, haq va diyonat yo‘liga chorlab kelayotgani haqida to‘xtalib, bu ulug‘ zotlarning «...asrlar davomida olimu fuzalolarga dastur bo‘lib kelgan insof va adolat, insonparvarlikni targ‘ib etuvchi g‘oyalari hozirgi murakkab davrimizning ko‘plab axlokiy-ma’naviy masalalarnni

hal etishda muhim ahamiyat kasb etishi bilan e’tiborga molikdir», - deya ta’kidlagan.

Forobiyning ta’kidlashicha, insonni baxt-saodatga eltuvchi jamoa haqiqatan fazilatli, yetuk, xosiyatli jamoadir. Insonning kelajagi, uning baxt-saodati haqida g‘amxurlik qilish, qayg‘u-alamiga sherik bo‘lish hissi o‘zgalarda, birinchi navbatda, dav. arbobida shakllangan bo‘lmog‘i lozim. Mutafakkir inson kamoloti muammosini ilm bilan bog‘laydi. Uning fikricha, voqelik sir-asroridan boxabar bo‘lmasdai, Allox in’om etgan aql ne’matidan mavjud imkoniyat darajasida foydalanmasdan turib, yetuk inson martabasiga erishib bo‘lmaydi. Chunki inson dunyo taraqqiyotining eng mukammal va yetuk yakunidir.

Ibn Snnoning inson to‘g‘risidagi qarashlarida ilm va ahlokiy fazilat mushtarakligi, insonning donishmand va oliyjanob shaxs darajasiga ko‘tarilishi mumkinligi ta’kidlanadi. Mutafakkirning ta’kidlashicha, kishilardagi fazilatlar shaxsiy va o‘zgalar tajribasi, ajdodlar an’analari, ta’lim-tarbiya natijasida shakllanadi va muayyan ijt. mavqega erishadi.

Maxmud Qoshg‘ariy esa insonlarga yaxshilik qilish, o‘zaro hurmat, mehr-shafqatli bo‘lish, nochorlarga saxovat ko‘rsatish kabi fazilatlar haqida so‘z yuritadi. «Xalqqa yaxshilik qil, - deydi mutafakkir, — uni suv ostiga tashlasang-da, suv ustida ko‘rasan».

Yusuf Xos Hojibning insonparvarlik ruhi bilan sug‘orilgan ilg‘or g‘oyalari gumanizm g‘oyalarining rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Axmad Yugnakiyning ijodiy merosida ham inson va uning fazilatlariga alohida e’tibor qaratilgan. Alloma saxiylik, yaxshilik, mehr-shafqat, do‘stlik, kamtarlik, tavoze’ kabi insoniy xislatlarni yuksak baholaydi. «Yaxshi yaroqli oshingni kishiga yedir, yaroqli narsa (kiyimlik) topsang, yalang‘ochlarning yirtilgan kiyimini butla»,-deydi mutafakkir.

Xalqimiz ma’naviy dunyosining shakllanishiga g‘oyat kuchli va samarali ta’sir ko‘rsatgan ulug‘ zot Hazrat Ali sher Navoiyning gumanizm g‘oyalari rivojiga qo‘shgan xissasi ham beqiyosdir. Uning oqillik, odillik, saxiylik, iffatlilik, shijoatlilik, poklik kabi tuyg‘ularning inson hayotida tutgan o‘rni, xarom-xarish, riyokorlik, xazar qilish haqidagi g‘oyalari xalqimiz, jamiki insoniyatniig ma’naviy

yuksalishi, jamiyatimizda yuksak fazilatlarni qaror toptirishga xizmat qilib kelmoqda.

Keyingi davrlarda yashab ijod etgan mutafakkir va adiblar ijodida ham insonparvarlik g‘oyalari o‘z davridagi ijt.-siyosiy o‘zgarishlar bilan uzviy bog‘liq tarzda ifodalangan. Mas., Yusuf Qorabog‘iy ijt. hayot muammolari, axloq- odob masalalariga e’tibor qaratib, jamiyatdagi adolatsizlik, zo‘ravonlik, o‘zboshimchalik, shafqatsizlik, insonga nisbatan behurmatlik va manmanlikni qoralaydi, aql-zakovat rayiga quloq tutish, baxt-saodat, jismoniy va ruhiy-ma’naviy kamolot sari intilishni inson hayotining mazmuni, deb biladi.

Bobur, Mashrab, Nodira, Anbar Otin asarlarida ham gumanizm g‘oyalari bilan uyg‘unlashgan qarashlar ilgari surilgan hamda tenglik, adolat, insof, odamgarchilik kabi fazilatlar tarannum etilgan. Ijt.-fal., ped. tafakkur tarixida ilgari surilgan insonparvarlik g‘oyalari orqali inson, ta’lim-tarbiya va jamiyatning har bir davrga xos maqsad-muddaolari, orzu-umidlari va dunyoqarashi o‘z ifodasini topgan.

GUMANIST (lot. humanus - insoniy, odamiy) - gumanizm tarafdori; gumanizm ruhi bilan sug‘orilgan insonparvar shaxs.

GUMANISTIK MUNOSABATLAP - *insonparvarlik*ka oid;. insonni ulug‘lash g‘oyalari bilan sug‘orilgan munosabatlar. Gumanistik munosabatlar - insoniylik, odamgarchilik chegarasida amalga oshiriladigan ishlar, odamga yarashadigan, unga zeb bo‘ladigan, shaxsini ulug‘laydigan fazilatni, hayot, odamzod taqdiriga gumanistik munosabatni anglatadigan tushuncha. Gumanistik munosabatlar g‘oyalari uzoq tarixga ega bo‘lib, uning yorqin ifodasi bo‘lgan ijod namunalari, real dalil va misollar xalq og‘zaki ijodiyoti, badiiy ad., diniy va fal. ta’limotlar, turli xalqlarning tarixi, madaniy merosida asrlar davomida yashab kelmoqda. Sharqning buyuk mutafakkirlaridan Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Bahouddin Naqshband, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Zaxiriddin Muhammad Bobur kabi mumtoz siymolarning asarlarida inson erkinligi, uning qadr-qimmati, shaxslararo munosabatlar, ustoz-shogird orasidagi muloqot kabi gumanistik g‘oyalar ilgari

surilgan. Xususan, Alisher Navoiy ijodida dunyodagi eng katta boylnk xazrati insondir, degan g‘oya badiiy so‘z orqali asoslab berilgan. Uning fikricha, butun borliq, undagi mavjudotlar, inson, uning baxt saodati, ravnaqi uchun xizmat qilishi lozim. «Odamiy ersang demagil odami, Oniki yo‘q xalq g‘amidin g‘ami», - deya ta’kidlagan edi buyuk mutafakkir. Shoirning birgina shu baytida uning ijodida gumanizm g‘oyasi shaxslararo insoniy munosabatlar naqadar katta o‘rin egallaganligi namoyon bo‘ladi.

Boshqa ulug‘ ajdodlarimiz ijodida ham gumanistik munosabatlar va insoniylik g‘oyalari ustuvor o‘rin egallagan. Sharq xalqlarining tafakkuri taraqqiyotida insoniylik g‘oyalari keng tarqalgan bo‘lib, ajdodlarimizning ko‘p mingyillik tarixi davomida mazkur qarashlar sayqallanib yuksalib borgan. Yevropada esa gumanistik munosabatlar yaxlit dunyoqarash tizimi sifatida ilk bor Fapb Uyg‘onish davri (15-17-a.larda) Sharq xalqlarining gumanistik tafakkuri ta’sirida shakllangan. O‘rta asrlarda xudo va din nomidan kamsitib, xaqoratlab, minglab insonlarni inkvizisiya gulxaniga tashlagan (ya’ni, odamlarni qiynab, sud hukmiga tortgan) shafqatsiz dindorlar va ularni qo‘llab-quvvatlagan cherkov hokimiyatiga qarshi, Yevropada gumanistik munosabatlarga oid g‘oyalar o‘ziga xos kurash dasturi sifatida namoyon bo‘la boshlagan. U ijt. fikrni keng qamrab olib, ad., fal., san’at, ta’lim-tarbiya va b. sohalar rivojiga yangicha mazmun va ruh kasb etgan. 14-17-a.larda iisoniylik g‘oyalari dastlab Italiyada, keyinchalik esa Yevropaning boshqa mamlakatlarida tarqala boshlagan. Insoniyatning shundan keyingi taraqqiyoti davomida gumaniyatik munosabatlarga oid g‘oyalar tadrijiy tarzda rivojlandi. Jahon ilmiy, siyosiy, ijt., fal. fikr taraqqiyotida insonparvarlik “gumanizm” nomi bilan rivojlanadi. Bu atama ilm fanda birinchi marta 19 asr boshlarida qo‘llanilgan va 20 asrning o‘rtalarigacha jamiyatdagi adolatsizlik va tengsizlik ko‘rinishlarini tanqid qilish uchun g‘oyaviy asos bo‘lib xizmat qildi.

Insoniyatning 15-a.dan 20-a.ning o‘rtalarigacha bo‘lgan tarixi asta-sekin gumanistik munosabatlarga oid g‘oyalarni o‘zlashtirishga asos bo‘ldi. Mazkur g‘oyani inkor etish esa insoniyatni qanday katta fojialarga undashi mumkinligini ko‘rsatdi. Shu asosda 2-jahon urushidan keyingi davrda dunyo taraqqiyotida tub

o‘zgarishlar yuz berdn. Bu davrga kelib gumanistik munosabatlarga oid tajribalarni o‘zlashtirish yo‘lida muhim qadamlar qo‘yildi. Buni BMT, YUNESKO kabi nufuzli xalqaro tashkilotlarning vujudga kelganligi, boshqa sohalar qatori gumanitar masalalar ham siyosiy muhokama mavzusiga aylanganida ko‘rish mumkin.

Gumanistik munosabatlarga kirishish o‘zbek xalqi milliy mentalitetining muhim jihatlaridan biri hisoblaiadi. Gumanistik munosabatlar barcha davrlarda o‘zbek xalqi hayoti va faoliyatida muhim o‘rin egallagan. Shuning uchun ham gumanistik g‘oyalar mutafakkir ajdodlarimiz qarashlarining asosini tashkil qilgan. Gumanistik munosabatlar yurtimiz va o‘zbek xalqi ongiga tashqaridan kiritilgan emas, balki uning tafakkuri, ijodkorlik dahosi mahsulidir. Bu jarayon mustaqillik yillarida yanada jadallashdi.

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasi barcha sohalarda, shu jumladan, Gumanistik munosabatlarga keng yul ochish borasida ham insonparvarlikning yuksak mezoni va talablari asosida siyosat olib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va qonunlari, shu jumladan, «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ham, avvalo, insonni ulug‘lash,. uning manfaatlarini himoya qilishga qaratilganligi, o‘zbek xalqi ma’naviyati, milliy qadriyat va an’analarimnz rivojiga berilayotgan e’tibor va ushbu yo‘nalishdagi keng ko‘lamli ishlarda o‘z ifodasini topgan.

DIDAKTIK ADABIYOT - 1) ahloqiy- ta’limiy, ilmiy-fal., diniy bilim va g‘oyalar badiiy talqin qilingan pand-nasihat yo‘nalishidagi kitob; 2) o‘quv adabiyoti. Didaktik adabiyot ma’naviy, ahloqiy, diniy, siyosiy, fal., tarbiyaviy yoki ilmiy qarashlar badiiy shaklda ibratomuz yo‘sinda bayon etilgan asarlar majmui hisoblanadi. Musulmon mamlakatlarida yozma badiiy ad. dastlab didaktik ad. shaklida paydo bo‘lgan. Didaktik adabiyotda kitobxonni to‘g‘ri yo‘lga boshlash, uning hayotda o‘z o‘rnini topib olishiga yordam berish maqsadi ustuvor o‘rin egallaydi. Kaykovusning «Qobusnoma» asari o‘z davri turmushining barcha masalalari yuzasidan yoshlarga nasihat tarzida yozilgan. Lekin unda shunchaki nasihat qilish emas, balki aytilgan gaplarning ta’sirchanligiga erishish uchun

badiiy ifodaning o‘ziga xosligiga ham e’tibor qaratilgan. Bunday asarlar jahon xalqlari tajribasida ham ko‘plab uchraydi (hind eposi namunalari bo‘lgan «Kalila va Dimna», Sa’diy Sheroziyning «Guliston», «Bo‘ston»i va b. asarlar). Bevosita ta’lim-tarbiya masalalarini aks ettirishga bag‘ishlangan badiiy asarlar ham didaktik adabiyot namunalari hisoblanadi.

Mahorat bilan yozilgan hamda muammolarning badiiy tadqiqiga bag‘ishlangan didaktik asarlar o‘z davri va keyingi zamonlar uchun ham juda katga ahamiyat kasb etadi. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig», Ahmad Yugnakiyniig « Hibat ul-haqoyiq», Alisher Navoiyning «Maxbub ul-qulub», «Hayrat ul-abror», Husayn Voiz Koshifiyning «Axloqi muhsiniy», Gulxaniyning «Toshbaqa bilan chayon», Hamzaning «Yolg‘onchi bola» asarlari didaktik adabiyotning yetuk namunalari sirasiga kiradi.

Didaktik adabiyot namunalarini oila davrasida o‘qib, muhokama qilish ajdodlarimiz tajribasida keng o‘rin egallagan. Ular shu yo‘l bilan yoshlarni barkamol shaxs sifatida shakllantirish muammosiga yechim topishgan. 20 asr boshlarida jadid ma’rifatparvarlarining asarlarida ham pand nasihatga keng o‘rin ajratilgan. Ularning maktablar uchun yozgan qo‘llanmalari va maqolalarida didaktik adabiyotdan olingan ko‘plab ta’lim tarbiyaviy fikrlar keltirilgan.

DIQQAT -- (arab. Aniqlik, sinchkovlik, noziklik) – inson faoliyatining biror obyekt yoki hodisaga jalb qilinishini anglatuvchi atama. U har qanday ongli faoliyat samaradorligining zarur shartidir. Bosh miya po‘stlog‘ining muayyan qismlaridagi optimal qo‘zg‘alish manbalari diqqatning fiziologik asosini tashkil qiladi. Diqqat ikki turga bo‘linadi: ixtiyorsiz (sust) va ixtiyoriy (faol) diqqat. Ixtiyorsiz diqqat biror tashqi sabab ta’sirida kishi xohishidan qat’iy nazar hosil bo‘ladi. Bunday diqqat odamdan irodaviy kuchni talab qilmaydi. Diqqatni jalb qilish uchun qo‘zg‘atuvchining kuchi katta ahamiyatga ega. Masalan, narsaning chiroyliligi, yorqinligi, o‘tkir hidliligi va b. xususiyatlari inson diqqatini beixtiyor o‘ziga tortadi. Ixtiyoriy diqqatda psixik faoliyat oldindan belgilangan maqsad bilan muayyan narsaga ongli ravishda jalb etiladi. Diqqatning ushbu turi insondan iroda kuchini talab qiladi; shuning uchun bunday diqqat irodaviy diqqat deb ham ataladi.

Insonning barcha ongli harakatlari, shu jumladan, o‘quv–biluv faoliyati ham ixtiyoriy diqqat vositasida amalga oshiriladi.

Inson diqqati barqarorlik, ko‘chuvchanlik, bo‘linuvchilik kabi xususiyatlarga ega. Diqqatning barqarorligi uning yagona, umumiy (mas., kitob o‘qish, masala yechish va b.) ishga xizmat qiluvchi narsa yoki hodisaga uzoq muddat jalb bo‘la olishidan iborat. Bunda harakat obyektlari (mas., kitob matni, masalada berilgan sonlar va b.) hamda harakatning o‘zi (mas., masalani yechish yo‘llari) o‘zgarib turishi mumkin, lekin faoliyatning umumiy yo‘nalishi o‘zgarmay saqlanishi lozim. Ko‘chuvchan diqqat bir faoliyat yoki narsadan boshqa faoliyat yoki narsaga tez jalb bo‘ladi. Bu xususiyat diqqatning avvalgi narsaga qay darajada qaratilganligi va yangi faoliyatning xususiyati (uning diqqatni qanchalik qarata olishi)ga bog‘liq. Diqqatning bo‘linuvchanlik xususiyati bir vaqtning o‘zida 2 yoki undan ortiq ish–harakatni bajarishda aks etib, aksariyat kasb egalari (mas., o‘qituvchi, haydovchi, uchuvchi) uchun katta ahamiyatga ega. Bu xususiyat bir faoliyatni bajarish avtomatlashib, ikkinchi faoliyat ko‘nikmasi hosil bo‘lgandan keyin tarkib topadi.

Diqqat ko‘lami uning eng qisqa vaqt ichida o‘z doirasiga sig‘dira olishi mumkin bo‘lgan narsalar miqdori bilan belgilanadi. Shu jihatiga ko‘ra, diqqat keng yoki tor ko‘lamli bo‘lishi mumkin. Odatda, keng ko‘lamli diqqat yaxshi diqqat hisoblanadi. Diqqat ko‘lami idrok qilinayotgan narsalar hamda ularga diqqati jalb qilinayotgan shaxsning vazifasi va xususiyatiga bog‘liq.

Diqqatning aksi parishonxotirlikdir. Bunda odam diqqatini biror narsaga to‘play olmay, hamma vaqt boshqa narsalarga chalg‘iyveradi. Bunday holat kishi qattiq charchaganda, uning uchun ahamiyatsiz juda ko‘p qo‘zg‘atuvchilar mavjud bo‘lganda yoki, aksincha, bitta ham qo‘zg‘atuvchining odam uchun ahamiyati bo‘lmaganda ro‘y beradi. Mashqlar yordamida parishonxotirlikka barham berish mumkin. Inson diqqati bilan bog‘liq bo‘lgan bunday xususiyatlarni o‘qituvchilar yaxshi bilishlari va o‘z faoliyatlari davomida bunga amal qilishlari kerak.

Diqqatning turlari va xususiyatlari insonning yoshlik davridan boshlab rivojlanadi va hayoti davomida o‘zgarib, murakkablashib boradi. Diqqat aqliy jarayonlarining sifatini ta’minlaydigan ichki faollikdir. Diqqat boladagi o‘yin,

oʻqish faoliyatining ham zaruriy shartidir. Oʻquvchilarning dars materiallarini muvaffaqiyat bilan oʻzlashtirishlari ularda diqqatning tarkib topganligiga bogʻliq. Shuning uchun ham kutubxonachilar, oʻqituvchilar va ota–onalar foydalanuvchilar, oʻquvchilar va farzandlarining diqqatini barqarorlashtirish ustida muntazam ishlashlari lozim.

DUNYOQARASH (arab. - jahon, olam + karash) - ta'lim oluvchilarning dunyo va insonning undagi oʻrni, oʻz atrofidagi voqelik va oʻz-oʻziga munosabatiga boʻlgan umumiy qarashlar tizimi. Dunyoqarash shaxsning e'tiqodi, ideali, bilish va faoliyat tamoyillarini ifodalaydi.

Shaxs dunyoqarashini shakllantirish uzluksiz jarayon boʻlib, u umr boʻyi davom etadi. Dunyoqarashning boshlangʻich elementlari bolada maktabgacha ta'lim jarayoni va oilada shakllantiriladi. Oila va MTMida bolalar ota onalari va tarbiyachilari yordamida tabiatdagi mavsumiy oʻzgarishlar, voqea va hodisalar, ona Vatan haqidagi tushunchalarni bilib oladilar.

Boshlangʻich sinflarda oʻqish jarayonida oʻquvchilarga oʻqituvchi va ota onalar, kutubxonachi koʻmagida tabiat va jamiyatdagi dastlabki tasavvurlar, ular oʻrtasidagi aloqa va bogʻlanishlar tushuntiriladi. Shuning uchun bolaning dunyoqarashi, didi, salohiyati shakllanadigan boshlangʻich sinflarga eng yetuk va eng tajribali murabbiylar, kutubxona-axborot xizmatida esa talab darajasidagi iqtidorga ega boʻlgan kutubxonachilarning biriktirib qoʻyilishi maqsadga muvofiqdir.

Dunyoqarashni targʻib toptirish jarayoni oʻquvchilar umumiy rivojlanishidagi doimiy va uzluksiz oʻzgarishlar bilan bogʻliq boʻlganligi uchun atrof toʻgʻrisidagi tasavvurlar, tushuncha va gʻoyalar tizimi ham ularning maktabdagi oʻqish va tarbiyalanishining turli davrlarida har xil boʻladi. Oʻsmirlik yoshida dunyoqarashning rivojlanishi intellektual, hissiy va amaliy harakatlar doirasidagi aloqadorlikka asoslanadi. 5-9-sinf oʻquvchilarida dunyoqarashni shakllantirish muayyan psixologik-ped. sharoitlarni taqazo etadi. Bularning eng muhimlari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, o‘quvchilar dunyoqarashni shakllantirish bo‘yicha maktabda olib boriladigan ishning umumiy tizimida har bir o‘quv fanining o‘rnini belgilash, fanlararo aloqani o‘rnatish, o‘qituvchi rahbarligida va kutubxonachi maslahati orqali o‘quvchilar o‘quv materialini o‘qishdan tashqari va mustaqil ishda chuqur, puxta o‘zlashtirish asosida ta’riflay oladigan asosiy fal., ijt.-siyosiy va ahloqiy g‘oyalarni ajratib olishlari muhim. O‘qituvchi ajratib olingan g‘oyalarni o‘quvchilarga tushuntira boshlaydi, ularni o‘quv fanlarini o‘rganish davriga izchillik b-n taqsimlaydi. Biror loyihani rivojlantirishning har bir bosqichi muayyan yoshdagi o‘quvchilarnnng psixologik xususiyatlari, ularning shaxsiy tajribalari b-n bog‘langan bo‘lishi lozim. Shu tarzda o‘qituvchi va kutubxonachi hamkorlikda o‘quvchilarnnng bilish usullari, o‘qitishning shakl va uslublarini belgilab, ular yordamida ta’lim oluvchilarning o‘qishi, ularda milliy g‘oyaga asoslangan dunyoqarash negizlarini qaror toptirishni boshqara oladi.

Ikkinchidan, tabiat va ijtimoiy hayotning bilish mumkin bo‘lgan hodisalariga o‘quvchilarning shaxsiy munosabatini shakllantirish. Dunyoqarash g‘oyalarini idrok etishda o‘quvchilarning ular mazmuniga munosabati turlicha bo‘lishi mumkin. O‘quvchi idrok etilayotgan g‘oyaga ijobiy munosabatda yoki unga nisbatan befarq bo‘lishi va salbiy yondashishi mumkin. O‘quvchilarning dunyoqarashi g‘oyalarini o‘zlashtirishga faol va ijobiy munosabati g‘oyalarning haqqoniyligiga ishonch tug‘diradi, uni «ichki harakat»ga aylantiradi.

Uchinchidan, olingan bilimlarni o‘zlashtirishi va qo‘llashning birligi. Agar bilimlar tanqidiy fikrlab olingan, amalda tekshirilgan bo‘lsa, ular aqliy bisotning “Passiv ashyosi” emas, balki shaxsiy dunyoqarash mohiyatiga aylanadi. Shu va boshqa omillar ta’sirida o‘quvchi tevarak atrofda sodir bo‘layotgan voqea hodisalarni anglash, o‘zining kundalik tajibalari doirasidan tashqariga chiqadigan dunyoni shaxsiy tushunishni qaror toptirishga intiladi. Dunyoqarashni tarbiyalashda bola shaxsiyati har tomonlama ochiladi. Xuddi shu vaqtda ma’naviy boy, g‘oyaviy, psixologik va met. tayyorgarlikdan o‘tgan murabbiy pedagog, bilim darajasi, shaxsiy qarashlari keng shakllangan kutubxonachi bolaga yordam berishi kerak. Bunda kutubxonachining oddiy, do‘stona, samimiy, dilkash so‘zlari, uning

shaxsiy e’tiqodi va milliy g‘oya bilan qurollanganligi eng muhim ahamiyat kasb etadi.

YOSH PSIXOLOGIYASI - psixologiya fanining turli yoshdagi odamlar xususiyatlari, bir yosh davri (bolalik, o‘smirlik, o‘spirinlik)dan boshqasiga o‘tishda ularning psixik rivojlanish qonuniyatlarini, odam psixikasida sodir bo‘ladigan sifat o‘zgarishlari dinamikasini o‘rganuvchi bo‘limi. Yosh psixologiyasi odamning tutilganidan boshlab to keksayguniga qadar bo‘lgan davr (ontogenez)da amalga oshadigan ruhiy rivojlanishi va shakllanishi bosqichlarini o‘rganadi. Yosh psixologiyasi mustaqil fan sifatida 19-a.ning oxirlarida shakllangai. U dastlab bolalar psixologiyasi sifatida yuzaga kelgan. Yosh psixologiyasi uzoq vaqt bola ruxiy rivojlanishi mexanizmlarini o‘rganish bilan cheklanib kelgan. Biroq insoniyat taraqqiyotinipg keyingi darajalari odam ontogenetik rivojlanishini yanada kengroq va chukurroq o‘rganishni taqozo qilganligi munosabati bilan bu fanning tadqiqot doilari kengaygan. Natijada Yosh psixologiyasining bolalar psixologiyasi, yetuklik davri psixologiyasi, gerontopsixologiya (keksalik psi-xologiyasi) kabi sohalari yuzaga kelgan. Ped. va psixologiyada odamlariing, ayniqsa, ta’lim olish yoshidagi bolalarning ruhiy rivojlanish bosqichlari qonuniyatlarini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun bola shaxsining umumiy psixologik xususiyatlari bilan bir qatorda ular bilan olib boriladigan ta’limiy va tarbiyaviy ishlarning sifati va samaradorligini ta’minlashning muhim jihatlariga alohida e’tibor qaratiladi. Bolaning individual tipologik xususiyatidagi ayrim jihatlar (idrok, xotira, sezgi, fikrlash va b.)ning shakllanish va rivojlanish jarayonlaridagi o‘ziga xosliklarni hamda o‘ziga monand ta’limiy yondashuvlar shunday jihatlar sirasiga kiradi. Bu, o‘z navbatida, bolaning bilim olish, psixik jihatdan rivojlanishi uchun mavjud ehtiyojlar, qiziqishlar, tabiiy moyillikdar, faoliyat motivlarini to‘g‘ri yo‘naltirish, uning xatti-harakatlarini yangi sifatlarni shakllantirishga safarbar qilish imkoniyatini beradi. Shuning uchun ham kutubxona-axborot xizmati ko‘rsatish jarayonida o‘quvchi-talabalarga maqsadga muvofiq tarzda yondashuvni amalga oshirish uchun kutubxonachilar yosh psixologiyasiga oid bilimlar bilan qurollangan bo‘lishlari lozim.

JONLI MUSHOHADA - hissiylik, bilish. Insonning bilish qobiliyatlaridan biridir. Bilish jarayoni J.m. (hissiy bilish)dan mavhum tafakkurga, undan esa amaliyotga o‘tishi bilan harakterlanadi. J. m. deganda sezgi, idrok, tasavvur kabilarii, ya’ni sezgi orqali tashqi olamning inson miyasiga ta’siri natijasida paydo bo‘ladigan in’ikos tushuniladi.

Garchi inson doimo tasavvurlar va umumiy tushunchalar bilan ish ko‘rsa-da, bilimning dastlabki natijasi fikr hisoblanadi. Fikr narsalar, ularning xossalari va o‘zaro munosabatlarini hodisalar darajasida aks ettiradi, vaziyat va narsalarni ularning birligida va aniqligida qamrab oladi. Voqelikni uning rang-barangligida va tashqi aloqadorliklari bilan birga aks ettirish bilishning “jonli mushoxada” deb atash mumkin bo‘lgan bosqichiga xos.

J.m obyektlarning ichki mohiyatiga tomon mavhum tafakkurning murakkab yo‘li boshlanadi. Bu muayyan mohiyatning bir tomonini bilishdan boshqasiga tomon, uni uzuq-yuluq tasvirlashdan bir butun ifodalashga, sayoz mohiyatdan chuqurroq mohiyatga tomon boradigan yo‘ldir. Bu endi jonsiz hissiy aniqlik emas, balki real mavhumlikdir. Uning tomonlari faqat oxirgi bosqichda tafakkur yordamida yagona bir butunlikka, aniq fikriy holatga birlashadi.

Voqelikni mavhum-fikriy bilishning ikki jihati mavjud: a) mulohazaviy; b) aqliy. Shunga muvofik ravishda inson qobiliyatlari mulohaza va aqlga bo‘linadi. Bunday bo‘linish ma’lum asosga ega. Bu haqida mashxur faylasuf I.Kant shunday degan: «Bizning barcha bilimimiz hissiyot (sezgi)lardan boshlanadi, keyin mulohaza yuritishga o‘tib, aql bilan tugaydi». Kutubxona-axborot xizmati jarayonida foydalanuvchilarning bilish faoliyatlarini tashkil etish va loyihalashda kutubxonachilar xuddi mana shu fikrdan samarali foydalanishlari kerak. Shundagina foydalanuvchilarning bilish faoliyatlarini tizimli rivojlantirish imkoniyati vujudga keladi.

IDROK (arab. - erishish, faxmlash, ong, tushuncha, aql) - 1) aql asosidagi murak- kab bilish jarayoni, ruxiy-intellektual qobiliyat. Tafakkur - fikrlash, taxlil etish orqali bilish bo‘lsa, Idrok narsa- hodisalarning xossa va xususiyatlarini umumlashtirish orqali bilishdir. Idrok etish jarayoni qiska yoki uzoq, muddatli

bo‘lishi mumkin. Appersepsiya hodisasi tufayli odamlar o‘z idrokining mazmuni bilan bir-biridan muayyan darajada farq qiladi. YA’ni ular aynan bir narsani, o‘z bilim saviyasi, maslagi, nuqtai nazari, dunyoqarashi, ijt. kelib chiqishiga qarab, turlicha Idrok qiladi yoki aks ettiradi.

Idrok vaqt (zamon), harakat, fazo (makon) yordamida atrof-muhit, biosfera va ijt. turmushning mohiyatiga daxldor axborotlarni qabul qilib turadi. Narsa va hodisalarning yashash shakli, uzluksiz harakatda bo‘lishi, muayyan obyektiv vaqt birligida hukm surishi inson ongida bevosita aks etadi. Idrok etish jarayonida uning fenomenlari (yun. pliainomenen – noyob, g‘ayriodatiy holat) hodisalarni aks ettirishda ishtirok etadi: a) gallyusinasiya (lot. hallycinatio - alaxlash, bosinqirash, sarob, ya’ni yo‘q narsalarning - ko‘zga ko‘rinishi, eshitilishi, sezilishi): b) illyuziya (lot. illysio - xato, adashish. yanglishish); v) attraksiya (frans. yavadyup - o‘ziga tortish, maxliyo etish, qilish); g) yaqqol ko‘rinish (rus. «yasnovideniye - oldindan yaqqol ko‘rish, g‘oyibdan aniq xabar olish) kabilar shular jumlasidandir. Idrokning predmetliligi, yaxlitligi, aniq tarkibiy tuzilmaga ega ekanligi (strukturaviyligi), konstantligi (o‘zgarmasligi), anglanganligi, tanlovchanligi uning eng muhim xususiyatlaridir. Idrok muayyan turlarga, bosqichlarga (persepsiya, appersepsiya, antisipasiya - oldindan payqash; refleksiya - tushunish, anglash; subsensor, subseptiv, sensomotor va h.k.), qonuniyatlarga, mexanizmlarga ega bo‘lgan bilish jarayonidir.

2) Idrok - tirik organizmning ma’lumotlarni qabul qilib, qayta ishlash jarayoni. U organizmga obyektiv reallikni aks ettirish va tashqi olamdagi yangidan-yangi vaziyatlarni baholab, shunga yarasha harakat qilish imkonini beradi. Idrok ongning, miyaning ijodiy jarayonidir. Idrokning fiziologik asosi bosh miya yarim sharlari po‘stlog‘ining analiz va sintez faoliyatidan iborat. Bu faoliyat sezgi a’zolari- mizga ta’sir qilib turgan narsalarning bitta xususiyati b-n emas, balki jami xususiyatlarining ta’siri bilan bog‘liq. Idrok ana shu barcha xususiyatlar o‘rtasidagi muvaqqat bog‘lanish natijasida yuzaga keladi. Inson miyasining umumlashtiruvchi faoliyatiga asoslangan Idrok jarayonida kishining tajribasi, bilimi, abstrakt tafakkurning faoliyati va b. ham ishtirok etadi. Shuning uchun kishilar ayni bir

narsa yoki hodisani yoshlari, ma’lumotlari, turmush tajribalari, kasblari, ijt. kelib chiqishlari, xarakter, qobiliyat va qiziqishlarida ko‘rinadigan shaxsiy xususiyatlariga qarab xar xil idrok qiladilar.

Idroknig muhim xususiyatlaridan biri barqaror (konstant)ligidir. Inson bir vaqtda idrok qilgan narsani o‘z xotirasida saqlab qolish va uni qayta tiklash qobiliyatiga ega. Bir narsaning ana shunday qayta tiklangan timsoli Idrok jarayoniniig ajralmas qismi. Idrokning xususiyati ko‘p jihatdan hissiy kechinmalarga (shodlik, g‘amg‘inlik, tajanglik va x.k.) ham boglik. Mas., kishining ta’bi xira vaqtida tabiat manzaralari unga allaqanday so‘niqdek ko‘rinsa, ta’bi chog‘ vaqtida u butunlay boshqacha ko‘rinadi.

Idrok sezgilarning o‘sishi asosida rivojlanadi. Ammo idrok ayrim sezgilarning shunchaki yig‘indisi bulmaganidek, Idrokning rivojlanishini ham ayrim sezgilarning o‘sishidan iborat deb bo‘lmaydi, idrokning rivojlanishi ancha murakkab jarayondir. Maktabgacha yoshdagi va kichik maktab yoshidagi bolalarning idroki ulardagi xis-tuyg‘u hamda xatti-xarakatlar b-n chambarchas bog‘liq. Bu yoshdagi bolalar dastavval o‘zining yorqinligi b-n hayratga soluvchi, ajab- lantiruvchi narsalarni idrok qiladilar. Kichik yoshdagi bolalarning idroki, odatda, uncha rivojlanmagan bo‘ladi. Albatta, idrok yosh b-n bog‘liq. Ayni vaqtda bolaning turmush tajribasi, bolaga berilgan ta’lim-tarbiya darajasi va shu kabilar ham idrok darajasiga ta’sir ko‘rsatadi. Ta’lim jarayonida bolalar narsani sinchiklab ko‘zdan kechirishga, uning asosiy va muhim xususiyatini ajrata olishga o‘rganadilar. Idrok maqsadga yo‘nalgan ongli jarayonga aylanib boradi. Bolaning yoshi ulg‘aygan sari uning idroki yanada mazmunli bo‘ladi. Bola idrokining ko‘lami kengayadi, u narsalarni ixtiyoriy ravishda izchil va har tomonlama idrok qilishga o‘rganib boradi.

O‘smirlik davrida bola ma’lum maqsadni ko‘zlagan holda idrok qilishning uddasidan chiqa biladi - narsa va hodisalarning muayyan bilimlar olish uchun zarur bo‘lgan tomonlarini idrok qiladi. Bu jihatdan qaraganda, o‘quvchining qiziqishlari birinchi darajali ahamiyatga egadir. O‘smirlar o‘zlariga yoqadigan narsalarni qunt va sabot bilan idrok qiladilar. O‘smirlarning narsa va hodisalarning

notanish tomonlarini bilishga intilishi ilk bolalik davriga qaraganda kuchliroq bo‘ladi. Yosh bolalar o‘zlariga ilgari tanish bo‘lgan narsani idrok qilishdan ham huzurlanaveradi. Shuning uchun ular bir ko‘rgan multfilmini qayta- qayta ko‘raveradilar. O‘smirga esa narsa va hodisalarning yangi tomonlarini mustaqil ochish juda yoqib tushadi. Bu yoshdagi bolalarning kahramonlar jaso rati, buyuk vokealar, ulkan kashfiyotlar haqidagi xikoyatlarni zo‘r e’tibor b-n tinglashlariga, qahramonona ishlar, sarguzashtlar haqidagi hamda ilmiy- fantastik adabiyotlarni sevib o‘qishlariga sabab ham shundadir.

Yuqori sinf, kollej va lisey o‘quvchilarining idroki maqsadga ko‘prok yo‘nalgan bo‘ladi va ular idroklarini o‘zlari idora qila biladilar. Kishi shaxsining idrokka ta’sir ko‘rsatishi mana shu yoshdagi davrda ayniksa yaqqol ifodalanadi. Mas., o‘zining bo‘lajak ixtisosini tanlab olgan o‘quvchilar shu sohaga aloqador fanlarni to‘larok, chuqurroq va har yoqlama idrok qiladilar.

O‘qituvchi-murabbiylar, kutubxona xodimlari, ota-onalar tomonidan bola f-yatiga yo‘naltirilgan maqsad ko‘zlagan holda, rahbarlik qilish jarayonida o‘quvchilarning idroki muvaffaqiyatli ravishda rivojlanadi. Katta yoshdagi bola idrokida televizor va internet tarmog‘i ta’siri katta ekanligini ham e’tirof etmoq kerak.

Idrok qilish va kuzatishlar jarayonida o‘quvchilarning kuzatuvchanlik qobiliyati o‘sib boradi. Chinakam kuzatuvchanlik o‘quvchining fan asoslarini har tomonlama chuqur, puxta o‘zlashtirishiga imkon beradi, o‘quvchida sinchkovlik, ziyraklik, o‘tkir zexnlilik kabi fazilatlarni o‘stiradi.

IDROK QILISH - tushunchaning shakllanish jarayoni. YA’ni noma’lum bo‘lgan narsani ma’lum narsa bo‘lagi b-n bog‘lash va shu asosda foydalanuvchilarning ma’lumotlarini kengaytirish.

Turli faoliyat turlariga mos ravishda quyidagicha ma’lumotlar foydalanuvchilar xotirasida saqlanib qoladi, agarda foydalanuvchi quyidagi holatlarda f-yat yuritsa: o‘qisa, ma’lumotlarning 10 % i; eshitsa ma’lumotlarning 26 % i; ko‘rsa, ma’lumotlarning 30 % i; ko‘rsa va eshitsa , ma’lumotlarning 50 % i; boshqalar bilan muhokama qilsa, ma’lumotlarning 70 % i; shaxsiy tajribaga

asoslansa, ma’lumotlarning 80 % i; bajarilayotganda gapirsa, ma’lumotlarning 90 % i; boshqalarga o‘rgatsa, ma’lumotlarning 95 % i o‘zlashtiriladi. Albatta, bu holat eng avvalo, foydalanuvchilarning yosh xususiyatlariga bog‘liqdir.

IJODKORLIK - yangilik uchun kurashish, fan-texnikaning eng so‘nggi yutuqlarini tahlil qila bilish va undan o‘zining faoliyatida oqilona foydala- nishga erishish, doimo o‘z ustida ishlash.

Ijodkorlik - insonning ongli, ma’lum maqsadga yo‘nalgan, harakatchan faoliyatidir. SHU yo‘nalishli f-yat b-n u yaratuvchanlikka, ijodkorlikka moyil bo‘ladi.

Ijodkorlik- ko‘pchilikka noma’lum va murakkab xususiyatlarni o‘rganishga imkon beruvchi inson tafakkuri va ruhiyatining har xil sharoitlarda o‘ziga xos fikrlash modeli. Ijodkorlik - bu aql gimnastikasi, u nafakat donishmandlarga kerak, xatto oddiy ijodkor odamga ham zarur. Ijodkorlik – bu, avvalo, mehnatga ijodiy munosabatda bo‘lishni tarbiyalash, yangi bilimlarni o‘zlashtirishni uddalay olish, maqsad sari intiluvchanlik, g‘alaba uchun kurash, o‘z-o‘zini takomillashtirish va o‘zlikni anglashdir. Ijodkorlik - insoniyatning bir necha ming yillik tarixiy rivojlanishi davrida alohida kishilarning ilm-fanda erishgan oliy ne’mati bo‘lib, bugungi kunda insoniyat yaratayotgan barcha moddiy hamda ma’naviy boyliklar ana shu oliy ne’matning u yoki bu ko‘rinishi, ya’ni mahsulidir.

Ijodkorlik ijt. hodisa bo‘lib, avvalo, ijt. ehtiyoj va jamiyadagi zaruriyatlar tufayli sodir bo‘ladi. Shu jihatdan, ijodkorlikka asoslangan faoliyat natijalari fan. texnika va madaniyatni boyitishga xizmat kiladi, bilimni rivojlantiradi. Shuning uchun kutubxona-axborot xizmati jarayonida foydalanuvchilarning ijodkorlikka asoslangan faoliyatlarini rivojlantirish va qo‘llab- quvvatlash alohida ahamyatga ega.

IJTIMOIYLASHUV - 1) biron-bir voqea-xodisa, shaxs yoki harakatning ijt. mohiyat kasb etib, ko‘pchilikka daxldor bo‘lib, ijtimoiy munosabatlar mujas- samiga aylanib borishi Ijtimoiylashuv jarayoni va uning o‘ziga xos xususiyatlari fal., sosiologiya, ijt. psixologiya, ped., tarix va etnografiya fanlari tomonidan o‘rganiladi. Ijtimoiylashuvning fal. talqiniga G.Tard asos solgan. Shuningdek, I.

muammolari 3. Freydning klassik psixoanalizida, interaksionizmda, L.Vigotskiy va A. Leontyev ijodida, T.Parsonsning tarkibiy-funksional taxlilida tadqiq etilgan. Hozirgi kunda Ijtimoiylashuv jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari Chikago va Ayovadagi simvolik interaksionizm maktablari va «psixodrama» yo‘nalishi namoyandalari tomonidan o‘rganilmoqda. Bu masalaga kutubxona-axborot faoliyatiga oid fanlarda ham alohida e’tibor qaratilmoqda.

Ijtimoiylashuv kishilik madaniyati, xususan, milliy madaniyat an’analarini o‘zlashtirib borish jarayoni sifatida ham talqin etilishi mumkin. Madaniy muhitga moslashish jarayoni sifatida Ijtimoiylashuv insonning butun umri bo‘yi davom etadi, biroq bu jarayon bolaning 2 yoshdan 6 yoshgacha bo‘lgan davrida boshlanadi. Mazkur davrda bola madaniy qadriyatlarni o‘rganish jarayonidan uzib qo‘yilsa, ijtimoiylashuv jarayoni to‘xtab qoladi. Insonning madaniy an’analarni o‘zlashtirish jarayoni uning individualligining shaklla- nishi b-n hamohangdir.

Ijtimoiylashuv jarayoni murakkab ped. -psixologik mexanizmga ega. Bu mexanizmning ruhiy, ped. va ijimoiy-madaniy yo‘nalishlari mavjud. Ijtimoiylashuv jarayonining ped.-psixologik jihatlari shaxs tomonidan ma’lum ijtimoiy rollarning qabul qilinishi, o‘zlashtirilishida namoyon bo‘ladi. Uning ped. ijt-madaniy jihati esa insonning til, san’at, din, va shu kabilar orqali madaniy qadriyatlarni o‘zlashtirishiga yo‘naltirilgan ped. jarayonni qamrab oladi. Ijtimoiylashuv jarayoni o‘z bosqichlariga ega. Bu bosqichlarni aniqlashda turli yondashuvlar asos qilib olinadi.

Shaxsni ijt.lashtirishga yo‘naltirilgan kutubxona –axborot xizmatiga oid jarayonlarni tashkil etishda ontogenetik, filogenetik yondashuvlarni inobatga olish zarur. Ijtimoiylashuvning ijt, funksiyalari quyidagilardan iborat: a) ijt.-tarixiy jarayon subyektini shakllantiradi; b) madaniyat va sivilizasiya taraqqiyotida vorisiylikni ta’minlaydi; v) shaxsni ijt. muhitga moslashtirish orqali jamiyatning bir maromda taraqqiy etishiga zamin yaratadi. Bugungi kunda imuammolarini o‘rganishda fal., sosiologik, pedagogik, ijt.-psixologik va tarixiy-etnografik tahlil natijasida yaratilgan uslub va yondashuvlardan kutubxona-axborot xizmati jarayonida kompleks foydalanish tendensiyasi vujudga kelmoqda; 2) jamiyatning

muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan ijt. tizim, ijt. meyor va qadriyatlarni shaxs tomonidan o‘zlashtirish jarayoni. Ijtimoiylashuv insonning madaniyat, kommunikasiya ta’siri ostida shakllanish jarayonini ham anglatib, subyektlarning bir-biri bilan muloqotga kirishishlarini ham anglatadi. Bu jarayon insonning butun umri bo‘yi davom etadi. Ijtimoiylashuv masalalari bilan 3.Freyd va b. olimlar shug‘ullanishgan. 3.Freyd bolaning rivojlanishidagi ayrim mexanizmlarga ahamiyat beradi. Uning ta’kidlashicha, bolaning kamol topishi, shaxs bo‘lib shakllanishida ota-onalar bilan bo‘ladigan munosabatlar muhim. J. Piaje shaxsning rivojlanishida ayrim davrlar bo‘lishini tan oladi, lskin bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o‘tishda ijtimoiy ta’sir muhim deb hisoblaydi. Uning ta’kidlashicha, shaxsning ayrim sxemalari kognitiv strukturalar orqali boshqarilgani uchun bolaning ijtimoiylashuvi yuqorida ko‘rsatilgan struktura, sxemalarga moslashadi, yangi tajribalar orqali «muvozanatlashadi». T. Parsons, R. Beyla va 3. Freydlar ijtimoiy ta’sir va ijtimoiy sistema tushunchalaridan foydalanib, ijtimoiy obyektning ta’siri natijasida madaniyat elementlari, umumiy bilimlar, bilimdonlik, xulq yordamida shakllanishini ifodalab berganlar.

M. Mid va R.Benedikt individ rivojlanishining turli davrlarida madaniyat, ota-onalarning ta’siri qandayligini tekshirib, har bir davr uchun alohida ijtimoiylashuv to‘g‘ri kelishini ko‘rsatgan. Ijtimoiylashuv muammolariga, ayniqsa, psixologiyada keng ahamiyat beriladi. Ayrim mualliflar fikricha, ijtimoiylashuv faqat bolalik davrigagina xos bo‘lmay, insonning butun hayoti davomida amalga oshadi. Ijtimoiylashuv ikki yoqlama harakterga ega bo‘lgan jarayon bo‘lib jamiyat taraqqiyotiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

IJTIMOIYLASHTIRISH - subyektlarda yuksak ma’naviyat, madaniyat va ijodiy faoliyatni shakllantirishdan iborat harakat. Mazkur harakat kutubxona-axborot xizmati jarayonda ijodiy muhitni yaratishga xizmat qiladi.

IJTIMOIY BILIMDONLIK - shaxsning obro‘-e’tibori, ya’ni ijtimoiy jihatdan yetukligi, ma’lum axloqiy sifatlarga egaligi, shaxsiy tajriba va kuzatishlar asosida o‘z mustaqil fikrlarini shakllantira olishi, atrofdagilarga ta’sir ko‘rsata

olishi, shaxslararo munosabatlarni yo‘lga qo‘ya olish sohasidagi bilimdonlik darajasini ifodalovchi tushuncha.

IJTIMOIY IDEAL - jamiyat, millat va xalq, Vatan yoki ayrim ijtimoiy guruhlar hayotini eng yuksak mezonlar asosida o‘zgartirish haqidagi orzu-umidlar va shunday darajaga yetish yo‘llarini ko‘rsatib beradigan fikr va ta’limotlarni aks ettiradigan tushuncha. Dav. va jamoat arboblari, mutafakkirlar, faylasuflar, ilm-fan yoki san’at ahli ijtimoiy idealni ifoda etadigan kuch bo‘lishi mumkin. Ijtimoiy ideal qaysi ijtimoiy guruh yoki toifa manfaatlarini qo‘llashi, hayotiyligi va insoniyatga naqadar foydali ekanligiga qarab ijobiy, taraqqiyparvar. milliy yoki umumbashariy ahamiyatga molik bo‘ladi. «Avesto»da ezgu fikr, ezgu so‘z va ezgu amal ustuvor bo‘lgan jamiyat qad. yunon fal.sida xalqning dono vakillari, donishmandlar boshqaradigan ma’rifatli dav., ahlokiy barkamollik, yunon san’atida esa jismoniy go‘zallik va harbiy qudrat, qullarni itoatda saqlash, Sharq falsafasi va diniy-ijtimoiy. ta’limotlarda adolat, komillik, tasavvuf ta’limotida barcha illatlardan poklanib, faqr va fano maqomiga erishish ijtimoiy ideal hisoblanadi. Insoniyat tarixida umumbashariy ijtimoiy idealdan tashqari har bir mutafakkir yoki san’atkorning o‘ziga xos qarashlari bo‘ladi. Mas., Sharq va Fap6 Uyg‘onish davrlarida ijod qilgan mutafakkirlar Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Abu Rayxon Beruniy, Ibn Sino, Ibn Rushd, Ibn Tufayl, Rafael, Leonardo da Vinchi, Servantes, Lope de Vega, Mikelanjelo va b.ning ilmiy va badiiy asarlaridan o‘rin olgan insoniyat baxt-saodati haqidagi i.i.lar butun insoniyat uchun hozirgi kunga qadar dolzarb bo‘lib kelmoqda.

Alisher Navoiyning adolatli jamiyat va komil inson to‘g‘risidagi qarashlari ham i. i.dir. O‘zbekistonda dunyodagi eng rivojlangan davlatlardagi kabi taraqqiyot va hayot darajasiga erishib, huquqiy demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati barpo etishi. i bo‘lib, O‘zbekiston xalqi bu ezgu maqsad sari izchillik va qat’iyat bilan ilgarilab bormoqda.

IJTIMOIY TARBIYA - shaxs ongu tafakkuri, ma’naviy-ma’rifiy olamini

jamiyatning maqsad va vazifalariga uyg‘un hamda xamohang ravishda shakllantirish va rivojlantnrish jarayoni, kishilarni ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy

xayotda faol ishtirok etishga da’vat qiladigan barcha ezgu ta’sir hamda omillar majmui. Ijtimoiy tarbiya - tarbiyaviy ta’sirning aniq maqsad asosida amalga oshiriladigan, oila tarbiyasi, maxalla tarbiyasi, maktab tarbiyasi, o‘rta maxsus va oliy ta’lim tarbiyasi, mehnat jamoasi tarbiyasi, jamoatchilik tarbiyasi kabi tarbiya institutlarini qamrab oladigan murakkab ma’naviy-ma’rifiy jarayondir. Ijtimoiy tarbiya tizimi samaradorligini oshirish ushbu jarayon tashkilotchilari va targ‘ibotchilarining uning maqsad va vazifalari, ustuvor yunalishlari, omil va vositalarni usul- uslublari xaqida aniq tasavvurga ega bo‘lishi, zamon talablari asosida ish olib borishiga bog‘lik. Mamlakatimizda yangi jamiyat asoslari barpo etilayotgan hozirgi sharoitda Ijtimoiy tarbiyaning asosiy maqsadi fuqarolarni insonparvar demokratik jamiyat, huquqiy davlat qurish ishiga safarbar etish, yagona umummilliy g‘oya atrofida birlashtirishdan iborat. Uning asosiy vazifasi esa jismoniy baquvvat, ma’naviy yetuk, ruhan tetik, mustaqil fikrlash, ishlash va yashash qobiliyatiga ega bo‘lgan, zamonamizning ilm-fan, texnika-texnologiya yutuqlarini, ilg‘or kasb- egallagan barkamol insonni shakllantirishdan iborat. Har bir davrning o‘ziga xos ijtimoiy tarbiyaning usullari va vositalari bo‘ladi. Qadim zamonlarda ijtimoiy tarbiya yosh avlodning keksa avlod tajribalarini olishidan iborat bo‘lgan. Ijtimoiy tarbiyaga asosan, mehnat faoliyati (ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik kabi) jarayonida, turli urf-odatlar va marosimlarni o‘tkazish vaqtida amalga oshirilgan. U, asosan, jismoniy baquvvat bo‘lishga qaratilgan. Ijtimoiy tarbiyaning jismoniy, harbiy, vatanparvarlik, tarixiy tarbiya, ma’naviy-ma’rifiy, estetik tarbiya singari turlarga bo‘linadi. Jismoniy, harbiy, vatanparvarlik, estetik, axloqiy, ekologik tarbiya mohiyatida mushtaraklik ham, o‘ziga xoslik ham borki, ular shaxsning ijtimoiylashuvini ta’minlaydi. Jismoniy tarbiyada insonning gavda va vujudi chiniqtiriladi, xarbiy t-yada harbiy bilim berilib, zarur ko‘nikmalar hosil kilinadi. Vatanparlik tarbiyasida insonning ruhi tarbiyalanib, unda ona Vatan taqdiri uchun mas’ullik fazilatlari rivojlantiriladi. Ijtimoiy tarbiyada ota-ona mehri, Vatan muhabbati, ustoz-shogirdlik an’analari, milliy qadriyatlar, shuningdek, mahalla va jamoat nazorati ham katta ta’sir kuchiga ega bo‘lib, yoshlar kamolotida muhim ahamiyat kasb etadi. Globallashuv davri tarbiyaning

boshqa shakllari qatori ijtimoiy tarbiya tizimini ham takomillashtirishni talab etmoqda. Shundan kelib chiqqan holda yurtimizda samarali ijtimoiy tarbiya tizimi shakllantirildi.

Ijtimoiy tarbiya dastlab ota-onalar, tarbiyachilar, o‘kituvchilar, murabbiylar va keng jamoatchilik tomonidan amalga oshiriladi. Ijtimoiy tarbiya natijasida shaxsning ijtimoiylashish jarayoni tezlashadi. U ijtimoiy munosabatlarga kirishish usullarini o‘zlashtiradi. Shaxsga kasb-hunar o‘rgatish va umuman, kishining g‘oyaviy va ma’naviy kiyofasini shakllantirishga qaratilgan hatti-harakatlar jarayoni ijtimoiy tarbiyadir. Ijtimoiy tarbiya - bola ongini muayyan jamiyatning maqsad va vazifalariga muvofiq ravishda tarkib toptirish va rivojlantirish jarayoni hamdir. Kishilarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotdagi faol ishtirokiga qaratilgan barcha ta’sirlar ijtimoiy tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. Ijtimoiy tarbiya ta’lim bilan uzviy tarzda bog‘langan bo‘ladi. Oila, turli jamoat tashkilotlari, fan, texnika, ad., san’at, ommaviy axborot vositalari, ta’lim muassasalari, kutubxonalarda amalga oshiriladigan targ‘ibot- tashviqot ishlari ham ijtimoiy tarbiya manbaidir. Ma’lumki, jamiyat yashashi va rivojlanishi uchun moddiy va ma’naviy boyliklar nihoyatda zarur. Moddiy-ma’naviy boyliklarni yaratish uchun, avvalo, shaxsni tarbiyalash lozim. Ijtimoiy tarbiya orqali o‘tmishning moddiy va ma’naviy boyliklariga avlodlarning vorisligi ta’minlanadi: o‘sib kelayotgan yosh avlod o‘tmish tajribalarini o‘zlashtirib, uni yanada boyitadi. I. t. shaxsning axlokiy, akliy, jismoniy kamolotida muhim o‘rin tutadi. Ijtimoiy tarbiya umuminsoniy harakterga ega. Shaxs istagan soha bo‘yicha ta’lim-tarbiya ko‘rib, o‘zi xohlagan ixtisosni egallashga haqli. Bunda cheklash bo‘lishi mumkin emas. Lekin undagi xohish bilan irsiy imkoniyat hamma vaqt ham bir-biriga uyg‘un kelavermaydi. Odatda, ota kasbini, to‘g‘rirog‘i, bobomeros kasbni tutgan yoshlar hayotda ko‘proq muvaffaqiyat qozonganliklariga ko‘p shohid bo‘lamiz. Chunki bolada otaning qoni, undagi salohiyatga monand o‘quv mavjud bo‘ladi.

Ijtimoiy tarbiyaning an’anaviy, zamonaviy turlari va usullari ko‘p. Ota-onalar, ayniqsa, murabbiylar, kutubxonachilar bolalarni tarbiyalashda mana shu usullardan unumli foydalanishlari lozim.

ILMIY-YORDAMCHI BIBLIOGRAFIYA - bibliografiya turini ifodalovchi tushuncha. Ilmiy yordamchi bibliografiya ilmiy va ixtisosli ishlab chiqarish f-yatiga koʻmaklashadi. Alohida xizmat koʻrsatish sohalari b-n uzviy bogʻliq, shu tufayli u hamisha aniq foydalanuvchilar guruhiga ega. Ilmiy yordamchi bibliografiya mutaxassis, ilmiy xodimlarga ularni qiziktirgai masalalarga oid adabiyotlar haqida toʻliq maʼlumot beradi; zarur hollarda asarning mazmunini ham (annotasiya, referat yordamida) yoritadi. Ilmiy yordamchi bibliografiyada bibliografiyaning universal, retrospektiv; tarmoq kundalik yoki retrospektiv; oʻlkashunoslik kundalik yoki retrospektiv va boshqa shaxsiy turlari jamlanadi.

ILMIY-OMMABOP ADABIYOT - fuqarolarni fan va texnika masalalari, yutuqlari hamda fan arboblari tarjimai hollari b-n tanishtirish uchun moʻljallangan nashrlar (kitob, risola, jur. va b.). Bu nashrlar ilmiy masalaning mohiyatini toʻla saqlagan holda, uni keng omma uchun tushunarli uslubda bayon etadi, shaxsning gʻoyaviy-ilmiy saviyasini oʻstirish, dunyoqarashini kengaytirishga yordam beradi.

Ilmiy-ommabop adabiyot tarixi kitob bosish ixtiro qilinganidan koʻp asrlar muqaddam (Xitoyda mil. av. 12-10 asrlardan, qad. Misrda mil.av. 2-ming yillikning oʻrtalaridan) boshlangan. Abu Nasr Forobiyning «Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi», Abu Rayxon Beruniyning «Mineralogiya», Abu Ali ibn Sinoning «Donishnoma», «Tib konunlari», adabiyotshunos olim Olim Sharafiddinovning «Navoiy hayoti va ijodi» asarlari, pedagog olimlar tomonidan yaratilgan «Tarbiya» ensiklopediyasi Ilmiy-ommabop adabiyotlar sirasiga kiradi.

Respublikada bunday kitob va risolalarni «Oʻzbekiston», “Fan” “Oʻqituvchi”, «Qomuslar» bosh tahririyati (hoz. «Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti) chop etadi. Mazkur nashriyotlarda «Fan haqida suhbatlar», “Salomatlik - tuman boylik”, “Yosh faylasuflar kutubxonasi” kabi turkumlarda I.o. a.lar nashr etiladi. Respublikada «Fan va turmush», «Tafakkur» jurnallari ilmiy-ommabop vaqtli nashrlar sanaladi.

INNOVASIYA (ing. innovationas - kiritilgan yangilik. ixtiro) - oldin mavjud boʻlmagan predmet, tuzilma, qadriyat va f-yat met.lari (texnologiyasi) ni yaratish, paydo boʻlgan yangiliklarni belgi, ramz va timsollarda ifodalash, ijt. oʻzlashtirish

hamda tarqatish orqali j-yat va inson hayotining barcha sohalariga tatbik qilish jarayoni; yangilanishni, o‘zgarishni amalda ta’lim tizimiga joriy etish jarayoni va f-yati.

Innovasiya atamasi dastlab madaniyatshunoslik fanida madaniy o‘zgarishlar, turli konkret-tarixiy ijt. uyushmalarda yangilikni qabul qilish hamda o‘zlashtirish fenomenini ifodalash va tushuntirish maqsadida qo‘llanilgan.

Mohiyatiga ko‘ra, innovasiya hozirgacha mavjud bo‘lgan barcha ijt. tizimlar, shu jumladan, sivilizasiyalarning vujudga kelishi va taraqqiyotini ta’minlab beradigan ijt.-madaniy, ijodiy ta’limiy jarayonni bildiradi. Innovasiya insoniyat tarixining «birinchi sahifasida» dastlabki mehnat va f-yat quroli, muloqot tili, san’at, mifologik tasavvurlarning yaratilishida namoyon bo‘ladi. Fanida innovasion jarayon va innovasion f-yat tushunchalari farqlanadi. Innovasion jarayon yangilanishning texnologik tomonini bildiradi, yangiliklarning paydo bo‘lishi, qabul qilinishi, o‘zlashtirilishi, tarqatilishi va tatbiq qilinishini o‘z ichiga oladigan keng qamrovli hodisadir. Innovasion faoliyat yangilanishning ijodiy tomonini bildirib, mavjud tafakkur va hayot tarzi, mehnat vositalari, predmet va usullar, ijt. tuzilma va texn.ni o‘zgartirishga qaratilgan har qanday ijodiy faollikda namoyon bo‘ladi. Har qanday I.ning zaminida insonning ijodiy faoliyati yotadi. Ijodiy faoliyatning tafakkur va hayot tarzini o‘zgartirishga olib keladigan innovasion faoliyat darajasiga ko‘tarilishi innovasiyaga sabab bo‘lgan subyektiv (motiv, ehtiyoj) va obyektiv omillarning mavjudligini taqozo etadi.

Innovasiya - eskilikning yangilik bilan o‘zaro o‘rin almashinishiga xizmat qiladigan tezkor jarayon bo‘lib, ta’lim muassasasi faoliyatining turli sohalariga yangiliklarni joriy etishni ifodalaydi. Innovasiyalarning ijobiy tavsifi va o‘ziga xos xususiyatlaridan biri tizim osti ijt - madaniy va ijt.-psixologik innovasion jarayonlarning asosiy ramzlari, funksiyasi va belgilari sifatida tasvirlanadi.

Boshqaruvda o‘zaro ta’sir etish madaniyatining rivojlanishi innovasion o‘zgarishlar bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. Innovasiyalar boshkaruv madaniyatining eng muhim va asosiy ramzlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi va ular innovasion jarayonlarda nafaqat o‘zining tavsifi va xususiyatlari bilan balki, boshqaruv

madaniyatining eng muhim xususiyatlari sifatida ham belgilanadi. Bu, o‘z navbatida, innovasiyalar sifatini belgilash b-n bir qatorda ularning namoyon bo‘lish vaqtlarini ham oldindan belgilaydi.

INTELLEKT (lot. intellectus - akl, idrok, zehn) - kishining voqea-xodisa mohiyatini to‘laligicha bilishiga asoslangan va u orqali namoyon bo‘ladigan faoliyati; insonning aqliy qobiliyati: hayotni, atrof-muhitni ongda aynan aks ettirish va o‘zgartirish. fikrlash, o‘qish- o‘rganish, dunyoni bilish va ijt. tajriba- ni qabul qilish qobiliyati: turli masalalarni xal kilish, bir karorga kelish. oqilona ish tutish, voqea-hodisalarnn oldindan ko‘ra bilish layoqati.

Intellekt kishilarning aqli, idroki. zakovati, ma’naviy jihatdan yetuklik darajasini ham ifodalaydi: tasavvur, idrok, sinchkovlik orqali jamlangan materialni bilish usullari (taqqoslash, abstraksiya, tushuncha, hukm va h.k.) orqali asosli bilimga ega bo‘lish yoki mavjud bilimni tanqidiy tahlil etish qobiliyatini ham anglatadi. Tafakkur tarixida Intellekt to‘g‘risidagi fikr-mulohazalar turlicha bo‘lgan. O‘rta asrlarda intellekt irodaga bo‘ysunadimi yoki iroda intellektgami degan masala bo‘yicha qizg‘in munozaralar avjiga chiqqan. O‘sha davrlarda bilishning eng yuksak - iloxiy usuli sifatida inson tafakkuriga qarshi qo‘yilgan. Birinchi nuqtai nazar tarafdorlari Duns Skot va Uilyam Okkam bo‘lsa, ikkinchi qarash tarafdorlaridan biri Foma Akvinskiy edi. Hozirgi zamon falsafasida I ham, iroda ham mavjud holatga asoslangan holda namoyon bo‘ladi yoki I. ma’naviyatga taalluqli bo‘lgani uchun ruhiy holat mahsuli sifatida irodadan ustun turadi, degan tasavvurlar mavjud. Intellektual resurs insonlarda bilim, hayotiy tajriba va idrok hamda zehn asosida, avvalo, o‘z aqliy-omilkorlik salohiyatini, turmush tarzini turli yo‘nalish va shakllarda yanada boyitish, uning yangi qirralarini ochish, mukammallashtirish imkoniyatidir. Inson bosh miya qobig‘ida o‘n to‘rt milliarddan oshiq neyronlar mavjud. Ularning vazifasi inson faoliyatini har tomonlama, to‘la boshqarishdan iborat. Kishining bajarayotgan har bir harakati neyronlar faoliyati mahsulidir. Bu jahon tibbiyotida chuqur o‘rganilgan va to‘la tan olingan haqiqatdir. Shuning uchun ham, aytish mumkinki, insonning o‘zligini

namoyon qilishida I.ning imkoniyatlari - resurslarning o‘rni beqiyos. Lekin inson ana shu intellektual imkoniyatlar, ya’ni resurslarning bor-yo‘g‘i 4-4.5 foizidan foydalanadi. Shundan 4 foizini 8-11 yoshgacha bo‘lgan davrda oladi va qolgan yarim foizini butun umri davomida qabul qiladi. Tabiatan iqtidorli kishilar esa o‘sha qolgan yarim foiz ma’lumotni 11 yoshidan keyingi umriga — to‘g‘ri taqsimlay olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Inson bosh miyasining fiziologik tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, uning miyasidagi intellektual kuch atom yadrosidagi beqiyos kuchga teng bo‘lar ekan. Gap uni qanday rivojlantirish va qay darajada ishlata bilishda. Tarixiy manbalarning guvoxlik berishicha, beshikdagi har bir go‘dakda daho bo‘lish imkoni mavjud. Asosiy masala unga qanday ta’lim tarbiya berishda Bugungi kundagi ilm-fan xulosasiga ko‘ra, insoniyat tarixida atigi 400 yaqin kishi daholik maqomiga sazovor bo‘lgan, xolos. Bu esa daho insonlarni tarbiyalash qanchalik qiyin ish ekanini ko‘rsatadi. Gap shundaki, daholarni tarbiyalab voyaga yetkazishda nafaqat bir oila yoki bir xalqning, balki butun insoniyatning ma’naviy yutuq va tajribalaridan foydalanish kerak.

INTELLEKTUAL (LOT. intellectus – aql- idrok, bilish, tushunish) - 1) ma’naviy ehtiyojlar bilan yashovchi yoki aqliy faoliyatning eng yuksak va murakkab turlari bilan shug‘ullanuvchi shaxs; 2) intellektga oid: aqliy, ma’naviy.

INTELLEKTUAL AXBOROTNI IZLASH TIZIMLARI - tadqiqotchi yoki mutaxassisning o‘z ish joyida turib tegishli bilimlar omboridagi kerakli axborotni topishiga imkoniyat beruvchi tizim. Bunda tadqiqotchi uchun o‘zining shug‘ullanayotgan sohasi bo‘yicha dunyo ning turli burchagidagi yangiliklardan o‘z vaqtida xabardor bo‘lish imkoniyati tug‘iladi. Mutaxassislar o‘zlarining kasbiy faoliyatlari uchun zarur bo‘lgan axborotlarni o‘z vaqtida olish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

INTELLEKTUAL MULK - ijodiy- aqliy faoliyat mahsuli. Ixtirochilik va mualliflik huquqi obyektlari sirasiga kiruvchi, fan, adabiyot, san’at va ishlab chiqarish sohasidagi, ijodiy f-yatning boshka turlariga mansub adabiy, badiiy, ilmiy asarlar, ijrochilik, aktyorlik san’ati, jumladan, ovoz yozish, radio,

televideniye asarlari, kashfiyotlar, ixtirolar, rasionalizatorlik takliflari, komp.lar uchun dasturlar, ma’lumotlar bazasi, nou-xauning ekspert tizimlari, tovar belgilari, firma atamalari va b. aqliy mulk obyektlari- ga kiradi: Hoz. davrda Intelletual mulkni muhofaza qilish muhim vazifa hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi 1991 y. dekabrda Jahon intellektual mulk tash-kilotiga a’zo bo‘ldi. 1993 y.dan sanoat mulkini muhofaza kilish Parij kon-vensiyasiga qo‘shildi.

INTELLEKTUAL TIZIMLAR - insonning, insoniyatning intellektual mulki asosida shakllangan bilimlar ombori yordamida muammolarni hal qilishning aqliy-mantiqiy faoliyati tizimi.

INTELLIGENSIYA (lot. intellegens - bilimli, aqlli) - fan, texnika, madaniyat sohasida maxsus bilimga ega bo‘lgan, ma’lumotli, biror kasb bo‘yicha aqliy mehnat bilan mashg‘ul kishilardan iborat ijt. guruh, qatlam; shu guruh (katlam)ga mansub kishilar; ziyolilar; ijt. tizimda muayyan o‘ringa ega bo‘lgan, asosan, akliy mehnat faoliyati bilan shug‘ullanadigan ziyolilarning ijt. tabaqasi.

Aqliy, ijodiy mehnat sohasini asosiy kasb sifatida tanlagan odamlar guruhi qadimdan ijt. mehnat taqsimoti natijasida aloxida ijt. tabaqa sifatida shakllana boshlagan va bu jarayon o‘rta asrlardan yangi davrga o‘tish pallasida tugallangan. Intelligensiyaga mansub odamlar avval erkin bilim olish orkali akliy mexiat f-yatini boshlagan. Keyinchalik ular o‘quv yurtlarida bilim olish bilan birga, mehnat sohasini muayyan tizimga tushirishga ham erishgan. Intelligensiya vakillari barcha ijt. guruhlardan kelib chiqqan bo‘lishi mumkin. «Kompyuter asri», «Yangi texnika asri», «Axborot asri» degan nomlar bilan atalayotgan bu zamonda Intelligensiyaning o‘rni va ahamiyati yanada ortib bormoqda. Ayniqsa, rivojlangan mamlakatlarda ijt. tizim tobora intelligensiyalashib (ziyolilashib), uning miqdor va sifat darajalari ortib borayotgani hozirgi davr jahon sivilizasiyasiga xos umumiy qonuniyat sifatida e’tirof etilmoqda.

IJTIMOIY TARBIYA - butun jamiyatga, xalqqa millat, tabaqaga ko‘rsatilgan maqsadga muvofiq tarbiyaviy ta’sir. Ijtimoiy tarbiya yordamida fuqarolarning xulq atvori, xatti-harakati yagona maqsad tomon yo‘naltiriladi.

Xuddi shuning uchun ham ijtimoiy tarbiya – tarbiyaviy ta’sirning yagona dastur asosida amalga oshiriladigan ongli qismdir. Ijtimoiy tarbiya tizimining samaradorligini oshirish ushbu jarayon tashkilotchilari va targ‘ibotchilari, eng avvalo, uning maqsad va vazifalari, ustuvor yo‘nalishlari va sohalari omillari va vositalari, uslublari va usullari haqida tiniq tasavvurga ega bo‘lishiga bog‘liq. Chunonchi, mamlakatimizda yangi jamiyat qurilayotgan hoz. sharoitda ijtimoiy tarbiyaning asosiy maqsadi insonparvar demokratik jamiyat, huquqiy davlat, yagona umummilliy g‘oya atrofida fuqarolarni birlashtirishdan iborat. Ijtimoiy tarbiyaning asosiy vazifasi jismoniy baquvvat, madaniy-ma’naviy yetuk, ruhan tetiq, mustaqil fikrlash, ishlash va yashash qobiliyatiga ega bo‘lgan, zamonasining ilmiy-texnika taraqqiyoti talablariga mos kasb-kor mahoratini o‘zida mujassamlashtirgan barkamol insonni shakllantirishdan iboratdir. Barkamol inson shaxsini qaror toptirish borasidagi tarbiyaviy ishlar 5 asosiy: aqliy, mehnat, estetik va jismoniy yo‘nalishlarda amalga oshiriladi. Ijtimoiy tarbiyaning asosiy yo‘nalishlari orasidagi o‘zaro aloqadorlik: huquqiy, siyosiy, vatanparvarlik, umumbashariy, jinsiy va ekologik ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Xuddi shuning uchun ham yuqorida biz sanab o‘tgan ko‘rinishlar ijtimoiy tarbiyaning tarkibiy sohalaridir. Ijtimoiy tarbiyaning samaradorligi ikki omilning — ish vaqti va ishdan keyingi bo‘sh vaqtning tarbiyaviy ta’siri bilan bevosita bog‘liq. Ijtimoiy tarbiyaning maqsadi va vazifalari omma ongiga fan, adabiyot, matbuot, radio, televideniye, kino, muzey, targ‘ibot va tashviqot kabi vositalar yordamida singdiriladi. Ijtimoiy tarbiya ta’sirchanligini oshirishda turli uslublar (tushuntirish, ishontirish, majbur qilish) va usullar (alohida, jamoaviy, ommaviy)dan oqilona foydalanish zarur. Ijtimoiy tarbiya tizimida eng asosiy o‘rinni umumiy ta’lim maktablari egallaydi, chunki, endigina oila va uning yalovbardorlari bo‘lmish ota, ona, bobo, momolarning individual tarbiyasi ta’sirida bo‘lgan yosh nihol, umumiy ta’lim maktablarining rejalashtirilgan tarbiyaviy, ya’ni mafkuraviy ta’sir doirasiga kiradi. O‘sha kundan e’tiboran, murg‘ak qalb faoliyatini jamiyat, millat manfaati tomon burish uchun dastlabki qadam tashlanadi. Umumiy ta’lim maktablarida amalga oshirilayotgan tarbiyaviy ishlar jamiyatning boshqa ijtimoiy institutlari,

oila, maktabgacha tarbiya muassasalari, o‘rta maxsus va oliy o‘quv yurtlari, mehnat jamoalari, turli jamoat tashkilotlari, madaniy-ma’rifiy muassasalar (jumladan, kutubxonalar), uyushmalar amalga oshirayotgan bir butun, tarbiyaviy ta’sir doirasida bo‘lib, o‘sha maqsadli, ongli faoliyatning davomidir. Jamiyatning turli ijtimoiy institutlari, aniq dastur, reja asosida amalga oshirayotgan tarbiyaviy ishlarining hammasi yaxlit, bir butun tizimini tashkil etadi.

ILMIY IZLANISH — ilmiy tadqiqotning o‘ziga xos ko‘rinishi bo‘lib, yangilikni topishga qaratilgan faoliyat, yangi natijalar olishda davom etish, yangi bilim hosil qilish. Ilmiy kashfiyot o‘zining natijaviy xulosalari bilan tafakkurda yangi ufqlar ochishga xizmat qiladi. Ilmiy izlanish tadqiqotchining ilm darajasi, ijodiy jasurligi, qat’iyat ila intilishiga bog‘liq. Tadqiqotchi o‘z zamonasining ilg‘or g‘oyasi bilan qurollangan, mustaqil fikrlaydigan, yangilikni his qiladigan bo‘lgandagina, izlanish samarali va foydali bo‘lishi mumkin. Ilmiy izlanish fan oldiga, ilmni ma’lum bir ijtimoiy maqsad sari rivojlantirishga doir yangi vazifa va masalalarni qo‘yadi. Hoz. sharoitda ilmiy izlanish zamonaviy fan rivojlanishining asosiy shakli sifatida maydonga chiqmoqda. Fanning taraqqiyot darajasi, ahamiyati, jamiyatdagi o‘rni kabi xususiyatlaridan ilmiy izlanishning mohiyati namoyon bo‘ladi. Hoz. zamon fanida ilmiy izlanishning o‘ziga xos tomonlari, xususiyatlari quyidagilardan iborat.

1. Hoz. zamon fanlari tadqiqot obyektida o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Fanda murakkab tizimlar, chiziqli bo‘lmagan jarayonlar va o‘z-o‘zidan tashkil bo‘lish hodisalari keng o‘rganilmoqda, uyushgan murakkabliklar tahlil qilinmoqda.

2. Fanning ushbu obyektlari xususida murakkab tashkil etilgan va o‘z-o‘zidan rivojlanuvchi tizimlar haqidagi tasavvurlar ishlab chiqilmoqda. Yangi obyektlar haqidagi naz-iy konsepsiyalar, qonunlarning yangi sinfiy ko‘rinishi ishlab chiqilmoqda va bular asosida, murakkab obyektlarning chuqur xossalari o‘rganilmoqda.

3. Ilmiy tushuncha, qonun va naz-yalarning bilish jarayonidagi o‘rni masalasi, ular haqidagi tasavvurlarning o‘zgarishi ilmiy bilishning tabiati

xususidagi masalalar tadqiq qilinmoqda. Buning natijasida bilishning empirik va naz-iy bosqichlari, uning yangi xususiyatlari, tuzilishi to‘g‘risida qo‘shimcha ma’lumotlar olish imkoniyatlari tug‘ilmoqda.

4. Jarayon va hodisalarning mohiyatini ifodalovchi yangi tushunchalar tengsizlik, beqarorlik, ko‘p bosqichlilik, maqsad va maqsadga muvofiqlilik, bifurkasiya va h.klarni va tadqiq qilishni o‘rganish olamning ilmiy manzarasi to‘g‘risida yangi ma’lumotlar olish imkoniii beradi.

5. Ilmiy izlanishning ilmiy uslub va shakllari boyib bormoqda. Yangi uslublar, tamoyillar kashf etilmoqda.

6. Voqelikni tadqiq qilishda matematik modellarning o‘rni ortib bormoqda. Hoz. zamon fanida matematik modellar tadqiqotning asosi hisoblanadi.

7. Ilmiy izlanish inson hayotiy faoliyatining muhim unsuri, tarkibiy qismi ma’naviy hayotning muhim unsuri tarzida namoyon bo‘lmoqda.

8. Ilmiy izlanish ko‘p hollarda o‘zini, fan qadriyatini belgilovchi, asosiy omil tarzida namoyon etmoqda.

INTELLEKTUAL RESURS - insonlarda bilim, hayotiy tajriba va idrok hamda zehn asosida avvalo o‘z aqliy-omilkorlik salohiyatini, inson turmush tarzini turli yo‘nalish va shakllarda yanada boyitish, uning yangi qirralarini ochish, mukammallashtirish imkoniyatlari - resurslarining mavjudligi. Inson bosh miya qobig‘ida o‘n to‘rt milliarddan oshiq neyronlar joylashgan. Ularning vazifasi inson faoliyatini har tomonlama, to‘la boshqarishdan iborat. Kishining qilayotgan har bir harakati, uning qandayligidan qatiy nazar neyronlar faoliyatining mahsulidir. Bu jahon tibbiyotida chuqur o‘rganilgan va to‘la tan olingan haqiqatdir. Shuning uchun ham aytish mumkinki, insonning intellektual o‘zligini namoyon qilish imkoniyatlari - resurslar juda ham beqiyosdir. Lekin, inson shu mavjud intellektual imkoniyatlardan, ya’ni resurslardan bor yo‘g‘i 4 - 4,5 foizidangina foydalanadi. Shundan to‘la 4% ma’lumotini kishilar 8-11 yoshgacha oladilar va umrning oxiriga qadar qolgan 0,5%gina qabul qilish imkoniyatiga ega. Tabiatdan iqtidorli kishilar o‘sha qolgan 0,5%ni 11 yoshdan keyingi umr yo‘liga to‘g‘ri taqsimlay olish imkoniyatiga ega bo‘lganlar bo‘lib hisoblanadi. Tibbiy bilimlar nuqtai

nazaridan inson bosh miyasining fiziologik tahlili ma’lumotlariga qaraganda, odam miyasidagi intellektual kuch, atom yadrosidagi beqiyos kuchga teng. Gap uni qanday rivojlantirish va qay darajada ishlata bilishdadir. Tarixiy manbalarning guvoxlik berishicha, beshikdagi har bir go‘dak — bir daho yoki bo‘lg‘usi daho bo‘lishi mumkin. Biroq, hamma gap ushbu «daho»larni daholar darajasiga yetkazib tarbiyalashdadir. Daholarni tarbiyalashning sermashaqqatliligi natijasi bo‘lsa kerakki, bugungi kundagi ilm-fan xulosasi va hisob-kitobiga ko‘ra insoniyat tarixida atigi 400ga yaqin kishi daholar sifatida ulug‘langan, xolos.

KOMIL INSON - ijtimoiy taraqiyotning asosini g‘oyalaridan biri. Komil inson va uni amalga oshirishga bo‘lgan intilishlar insoniyat sivilizasiyasining ma’no-mazmunini tashkil qiladi. Tarixga nazar tashlasak, har qanday jamiyatda komillikning eng asosiy ko‘rsatkichi insonning ezgulikka, ijtimoiy baxt-saodatga, gumanistik g‘oyalarga munosabatida hamda ularga asoslangan amaliy faooliyatida namoyon bo‘ladi, ya’ni, jamiyatning umumiy rivojiga, insoniyat sivilizasiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi komillik mezoni shaxsning barkamolligi orqali jamiyatni baxt saodatli qilishdan iborat bo‘lib kelgan. Insondagi komillik, eng avvalo, uning fikr, tafakkur va amaliy faoliyat erkinligini anglashidir. Shu ma’noda buyuk fay. Suqrotning: “O‘zing o‘zingni bil”, - degan da’vati ham insonning o‘z nasl-nasabini hayot mazmunini, kishining kelajak avlodlar oldidagi mas’uliyat va majburiyatini anglashga qaratilgan chaqiriqdir. Komil inson g‘oyasini milliy istiqlol g‘oyasidan ajratib bo‘lmaydi. Boshqacha aytganda, komil insonning mohiyati, avvalo jamiyatni barkamol qilish yo‘lidagi say-harakatlarda namoyon bo‘ladi. Komil inson va jamiyat munosabatlarida o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ikki jarayonni ko‘rish mumkin. Birinchisi komil insonning jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta’sir qilishi. Komil inson g‘oyasining mavjudligi va u bilan bog‘liq amaliyot jamiyat rivojlanish darajasini belgilaydigan mezon sifatida namoyon bo‘ladi. Zero, biz har qanday jamiyatni unda yashayotgan kishilarning xatti-harakatlariga qarab baholaymiz. Ikkinchisi, jamiyatning harakteri, uning komil inson qilib tarbiyalash borasidagi imkoniyatlarida, unga bo‘lgan munosabatida namoyon bo‘ladi. YA’ni, erkinlik, mustaqillik komil inson g‘oyasini amalga oshirish uchun tegishli shart-

sharoit yaratadi. Shuning uchun ham O‘zbekistonda komil insonni tarbiyalash uchun ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy-tashkiliy vazifalar davlat siyosatining eng muhim va ustuvor yo‘nalishi etib belgilangan. Zero, barkamol avlod kelajagi uchun qayg‘urmagan xalq, millat va davlatning istiqboli bo‘lmaydi.

KONFLIKTOLOGIYA (*lot.* conflictus — to‘qnashuv) — mojarolar mohiyatini o‘rganish va ular muammolarining yechimiga qaratilgan optimal taklif va tavsiyalar ishlab chiqish haqidagi bilim sohasi. Konfliktologiya ijtimoiy taraqqiyot, ijtimoiy-siyosiy boshqarish, ijtimoiy munosabatlarni uyg‘unlashtirish va mutanosiblashtirish zaruriyati siyosatshunoslik, siyosiy ruhiyatshunoslik, sosiologiya fanlari oralig‘ida vujudga keldi. Hoz. davrda shakllantirilgan konfliktologiya bilim sohasi siyosatshunoslik va sosiologiya fanlari erishgan yutuqlarga suyangan holda, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, ma’naviy-axloqiy munosabatlar jarayonlarida kelib chiqayotgan to‘qnashuv-mojarolarni tinchlik bilan guruhlararo, davlatlararo, millatlararo, jamoalararo, xalqaro miqyoslarda kelishuv-murosa yo‘li bilan bartaraf etish mexanizmlarini ishlab chiqib amaliyotga kiritishga muvaffaq bo‘lgan. To‘qnashuvlar doimiy harakatda bo‘lib, to‘qnashuv vaziyatlardan kelib chiqadi va shu vaziyat tabiatiga ko‘ra, ularni sekin-asta «sovutib» yo‘qqa chiqarish yoki «yoqilg‘i sepib» alangalatish imkoniyatlaridan foydalanadigan ijtimoiy yoki siyosiy kuchlar jamiyatda doim mavjud bo‘ladi. Shuning uchun ham konfliktologiyaning asosiy strategik vazifasini «alanga olib bo‘lgan» to‘qnashuv-mojarolarning yechimini izlab topishgagina emas, balki kelib chiqishi kutilayotgan har qanday kelishmovchiliklarning oldini olishni ilmiy-amaliy asoslarini ishlab chiqib, jamiyat hayotining barcha jabhalariga ularni joriy qilish mexanizmlarini belgilab berishdan iboratdir.

KASB ODOBI – kishilar o‘rtasidagi kasbiy faoliyat bilan bog‘liq munosabatlarga ma’rifiy tus beradigan xulq-atvor kodeksi; jamiyat tomonidan qabul qilingan axloq qoidalarini kishilarning ixtisosliklariga nisbatan tatbiq qiladigan kasbiy burch, sha’n, or-nomus, qadr-qimmat kabi hatti-harakatlarning majmui.

Kasb odobi barcha uchun birdek taalluqli bo‘lmagan, balki muayyan kasb-kor egalarigagina tegishli ijtimoiy xulq-atvor qoidalari, meyorlaridir. Kasb odobi avvalo, nima uchun bu kasbni tanlaganini teran anglamog‘i, insonlarni qanday tarbiyalash kerakligini tushunib yetmog‘ini anglatadi. Bu esa pelagogik faoliyat va etiketning asosiy omilidir. Bolaning ichki dunyosiga kira bilish, ishongan do‘sti bo‘lish, uni ezgulikka yo‘naltirish, jamiyatga foydali inson etib voyaga yetkazish, unda mas’uliyat hissini shakllantirish pedagogikaning bosh tamoyilidir. Kasb odobi qonun qoidalari mehnat faoliyati jarayonida shakllanadi, takomillashib boradi. Kasbiy omilkorlik, o‘z ishini yaxshi bilish, qaysi kasb bo‘lishidan qat’iy nazar, axloqiy meyorlarning boshlanishidir. Kasb odobi meyorlari aynan voqeligu, amaliyot bilan uzviy bog‘liqligi bois sohada, shu jumladan, kutubxona-axborot xizmati jarayonida yuzaga keladigan murakkab masalalar yechimini topishda yordam beradi.

KASBIY IDROK - mutaxassisning o‘z kasbining nozik sir-asrorlarini bilish, tushunish. Uni yaxlit his etishi.

KASBIY KUNIKMA VA MALAKA maxsus tayyorgarlik va ish tajribasi natijasida ma’lum bir sohada kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun nazariy bilimlar majmuasi hamda amaliy ko‘nikma va malakalarni egallagan shaxsning jismoniy imkoniyat, aqliy qobiliyat va yuridik huquqlar asosidagi insoniy mehnat faoliyatiga layoqatlili ekanligini ifodalovchi tushuncha. Kasbiy ko‘nikma va malaka kishidan mehnat faoliyati, doimiy mashg‘ulot, ish turini malakali bajarishga imkon beradigan bilim, mahorat va tajribani talab etadi.

KASBIY MADANIYAT - insonning olgan bilimi va tajribasiga asoslangan malakali xarakatlari yoki mehnat faoliyatinnng mahsulidan bunyod bo‘lgan narsalar, o‘zgalarda zavq uyg‘ota oladigan ijt. hodisa. Shaxsning kasbiy madaniyati bilimi, malakasi, ko‘nikmasi, qobiliyati, axlokiy va estetik rivojlanishi, dunyoqarashi, odamlar bilan o‘zaro muloqot qilish usul va shakllari, iste’dodi darajasida amalga oshiradigan kuchi va salohiyatni o‘z ichiga oladi. Kasbiy madaniyat, madaniyatni o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari va natijalari kishining kasbiy

layokatliligi, ishlab chiqarish, foydalanish, ishchi holatida saqlab turish qobiliyatlari, kasbiy harakatchanlik, o‘qish, bilimlarni va texn.ni qo‘llash malakasini oshirish; ixtisoslashish qobiliyati; tashkiliy - kasbiy faoliyat masalalari borasida o‘zini o‘zi axborot bilan ta’minlash, o‘z xatti-harakatlarini xamkasblari bilan muvofiqlashtirish, qaror qabul qilishda o‘zini o‘zi idora qilish, mustaqillik, yakuniy natijaga yo‘naltirilgan o‘zini o‘zi tekshirish, rasmiy shaxslar bilan ish yuzasidan olib boriladigan munosabatlarni amalga oshirishda, ishga qabul qilish hujjatlarini rasmiylashtirishdagi kasbiy, axlokiy ko‘rinishi, ish joyi va jihozlarni tutishi, ilg‘or tajriba, innovasion jarayonlar, zamonaviy texnologiyani anglashi va qo‘llashga bo‘lgan ijodiy qobiliyatlaridir

Kutubxonachining kasbiy madaniyati barcha bilimlari, layokati, muloqotga kirishuvchanligi, mahorati, foydalanuvchilar bilan munosabatini o‘zida mujassamlashtiradi.

KASBIY MAHORAT - 1) kutubxona-axborot xizmati jarayonida strategik maqsad va vazifalarni to‘g‘ri belgilash, qarorlar qabul qilish, ta’lim jarayonini loyihalashtirish, innovasion faoliyatni tashkil etish, kutubxona-axborot faoliyatini boshqarish jarayoniga tizimli yondashuvlarni loyihalash texnologiyasini joriy etish hamda boshqaruv usullari, metodlari va tamoyillaridan samarali foydalanishdan iborat kasbiy texnika darajasi; 2) kutubxona-axborot faoliyatini boshqaruvda strategiya, strategik maqsadlar va vazifalarni to‘g‘ri belgilash, qarorlar qabul qilish, kutubxona muassasasining umumiy faoliyatini loyixalashtirish, inn- on f-yatni tashkil etish, boshqaruv jarayoniga tizimli yondashuvlarni loyihalash texnologiyasini joriy etish xamda boshqaruv usullari, metodlari va tamoyillaridan samarali foydalanish.

KASBIY LAYOQAT - biror kasbga yaroqlilik, qodirlik, qobiliyat. Shaxsning muayyan kasbga qobiliyatliligi.

KITOB (arab. – yozilgan, muqovalangan asar) – axborotlarni, g‘oya, obraz va bilimlarni saqlash hamda tarqatish, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy, estetik qarashlarni shakllantirish vositasi: bilimlar targ‘iboti va tarbiya quroli: badiiy, ilmiy asar. ijt. ad, Xalqaro statistikada YUNESKO tavsiyasiga ko‘ra, xajmi 48 saxifadan kam

boʻlmagan, taboqlab tikilgan nodavriy nashrni, shartli ravishda. K. deyish qabul qilingan.

Kitob ishi Kitobni yaratish, tayyorlash, uni tarqatish, saqlash, tavsiflash va oʻrgatish bilan bogʻliq katta jarayonni oʻz ichiga oladi. Fan. ad,, sanʼat asarlaridan matbaada kupaytirish va tarqatish uchun tanlash, ularga ilmiy va badiiy nuqtai nazardan yondashish, tahrir qilish, badiiy bezash, matbaa ijrosini belgilash va nashrga tayyorlash noshirlikning vazifasi. Kitobni koʻplab chiqarish - kitob bosish ishi poligrafiya sanoatida amalga oshiriladi. Kitoblarni toʻplash, saqlash, targʻib qilish, ulardan foydalanish uchun qulay sharoit yaratish kutubxonaning vazifasidir. Kitob va boshqa bosma nashrlar haqida muayyan maqsad bilan foydalanuvchilarga maʼlumot berish va ularga kutubxona-axborot xizmati koʻrsatishni kutubxona xodimlari amalga oshiradi.

Kitobning paydo boʻlish tarixi yozuvning yaratilishi va shakllanishi jarayoni bilan bogʻliq. Yozuvning tuzilish xususiyatlari (belgilar tizimi. ularning joylashish tartibi), yozuv materiali va qurolining oʻziga xos tomoni va boshqa maʼlum darajada kitob tuzililishini ham belgilab beradi. Qadimgi Misr, Rim, Yunoniston va Oʻrta Osiyoda kishilar tosh, palma daraxti barglari, sopol va boshqa materiallarga yozib fikr izhor etganlar. Har bir kitob oʻnlab shunday materiallardan tayyorlangan plitalardan iborat boʻlib, ogʻirligi bir necha kg boʻlgan. Yozuv materiali sifatida papirus oʻsimligi ishlatilishi (mil. av. 4—3-ming yilliklarda) b-n oʻrama kitoblar paydo boʻldi. Bunday kitoblarning uzunligi oʻrtacha 10 m atrofida boʻlib, ingichka, yumaloq tayoqlarga oʻralgan va maxsus charm yoki yogʻoch gʻiloflarda saqlangan. Sharq mamlakatlari, Qad. Rim va Yunonistondagi koʻpgina nodir asarlar papirusga bitilgan. Mil. av. 2-a.ga kelib kitob materiali sifatida pergament (teri)dan foydalanish keng rasm boʻlgan. Dastlab bunday kitob oʻrama holda saqlangan. Ayrim maʼlumotlarga qaraganda, Markaziy Osiyoda, xususan, Xorazmda mil. av 1-ming yillikning 1-yarmida vujudga kelgan zardushtiylik dinining muqaddas kitoblaridan “Avesto”ning qad. nusxasi ham 12 ming mol terisiga bitilgan.

2-4-asrlardan Qad. Rimda xuddi hozirgi kitoblarning varaqlari singari buklab, tikib tayyorlangan va bir-biriga biriktirilgan, muqovali kitoblar - kodeks paydo bo‘lgan. Ular dastlab papirus, so‘ng pergamentga yozilgan. Bunday kitoblar og‘ir va besunaqay edi. 6-asrdan boshlab kodeks shakli asosida hozirgi ko‘rinishdagi kitoblar paydo bo‘lgan. Teriga ishlangan noyob kitoblardan biri - Mushafi Usmon, Qur’oni karimning bu nusxasi 644-656 y.larda xalifa Usmon ko‘rsatmasi b-n Muhammad (s. a. v.)ning kotiblari Zayd ibn Sobit, Amir ibn Os va Hishom ibn Hakim tomonidan kufiy xatida yozilgan. Mazkur Mushaf Amir Temur tomonidan Samarqandga olib kelingan. Jami 353 varaq, hajmi 68 x 53 x 22 sm. O‘zbekiston musulmonlari idorasi kutubxonasida saqlanadi.

Qog‘ozning kashf qilinishi kitob tarixida yangi davr ochdi. Ayrim ma’lumotlarga qaraganda, 650 yillardayoq Samarqandda qog‘ozli kitoblar bo‘lgan. 13-asrdan Yevropada qog‘oz asosiy yozuv materiali bo‘lib qoldi. Qog‘oz kitobning ko‘payishiga va tarqalishiga yangi imkoniyat ochdi. Kitob bezashga alohida ahamiyat berildi. Uning sahifalariga turli miniatyuralar, xoshiyalariga bezaklar ishlana boshlandi. Asta-sekin xattotlik (kalligrafiya), muqovasozlik kabi kasblar ajralib chiqdi. Ayniqsa, Markaziy Osiyo xududida o‘rta asrlarda xattotlik san’ati keng rivojlandi. Mashhur xattotlarning ko‘p avlodlari kitob tayyorlash usulini materiallar, siyoh, xat ko‘chirish texnikasini takomillashtirib bordilar.

10-12-asrlarda Movarounnaxrda alohida soha sifatida shakllangan kitobat san’ati 14-15-asrlarda yangi taraqqiyot boskichiga ko‘tarildi. Har bir kitob qog‘ozidan tortib muqovasigacha, siyohdan to buyoqlari-yu zarhaligacha ma’lum meyordagi modda, reja va qoida asosida tayyorlanadi, hatto kitobdan xushbo‘y hid anqib turishi uchun ba’zan siyohga gulob yoki anbar qo‘shilgan. Qo‘lyozmalar nafis xusnixat, zarafshon (tilla suvi sochish), suvli buyoqlar bilan hoshiyaga nafis naqshlar ishlab badiiy bezatilgan. 15- 16-asrlarda bir qancha iste’dodli hattot, musavvir, lavvoh va sahhoflar yetishib chiqqanlar. Ular Abdurahmon Xorazmiy, Sultonali Mashhadiy, Sultonali Xandon, Mirali qilqalam va boshqalar.

Turkistonda nashr ishlari Markaziy Osiyo Chor Rossiyasi tomonidan bosib olinganidan so‘ng boshlangan. Bu davrgacha o‘lkada bosmaxona ham, litografiya

(toshbosma) ham bo‘lmagan. Adabiyotga bo‘lgan ehtiyoj esa Turkistonga tashqaridan kirib qolgan ayrim sharqiy toshbosma qo‘lyozmalar bilan qondirilgan, xolos. Rossiyada arab, fors va turkiy tillardagi kitoblarni bosish 18-asrning 20-yillaridan boshlandi. Musulmon (arab) yozuvidagi birinchi rus bosmaxonasi 1723 y. Astraxanda paydo bo‘ladi, so‘ngra Peterburg, Moskva, Qozon, Qrim, Kavkaz mintaqalarida ishga tushiriladi. Sharqda kitob nashri Yevropadagiga qaraganda, o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, asosan, toshbosma usulida chop etilar edi.

KITOB MUTOLAASI - kitobxonning ilm olish yoki estetik zavqlanish maqsadida o‘zi tanlab olgan biror mavzudagi kitobni o‘qish jarayoni. Mutolaa bo‘sh vaqtdan unumli foydalanishning eng keng tarqalgan turi bo‘lib, barcha yoshdagi va barcha kasbdagi kishilarning sevimli mashg‘ulotidir.

Badiiy asarlar mutolaasi ilmiy va ilmiy-ommabop asarlardan farq qiladi. Badiiy asar shaxsning ruhiy hissiyotlariga ta’sir etadi, unda o‘z ona tiliga muxabbatini shakllantiradi, asar qahramonlariga qayg‘udosh bo‘lish, ularning kechinmalarini his eta olish qobiliyatini vujudga keltiradi.

Mutolaaga kirishishdan oldin, birinchi navbatda, gigiyenik omillarga e’tibor berish kerak: xonaning havosi toza va yaxshi yoritilgan bo‘lishi lozim. Miriqib kitob o‘qishning eng asosiy sharti tinchlikdir. Ammo tinch osoyishta sharoit doim ham mavjud bo‘lavermasligi mumkin. Shu bois iloji boricha har qanday sharoitda ham (qo‘shnilarning baland ovozdagi suhbatlari, balandlatib qo‘yilgan radio yoki televizor, boshqa shovqinlar) diqqat bilan o‘qishga o‘rganish kerak. O‘qish joyini ko‘ngildagiday tashkil etish ham katta ahamiyatga ega. Stolning eng qulay balandligi tirsaklar stolga bemalol yotgan vaziyat hisoblanadi. Joylashish- erkin bo‘lishi lozim. Stol lampasi yoki boshqa yoritish manbalari chap tomonda bo‘lib, yorug‘lik ko‘zga emas, balki kitobga tushib turishi kerak. O‘qish jarayonida kitob uchun taglikdan foydalanish (ayniksa, bolalarga) tavsiya etiladi.

Kitob mutolaasidan charchagan paytlarda dam olish uchun boshqa ishlar bilan mashg‘ul bo‘lish kerak. Har bir soatda (eng uzog‘i bilan har 2-3 soatda) kitob o‘qishdan to‘xtash, dam olish zarur.

Ilmiy va badiiy sohaga oid adabiyotlar, jurnallarni navbati bilan, almashtirib oʻqib borgan maʼqul. Esda saqlab qolininishi lozim boʻlgan maxsus kitoblar ertalab yoki kunning birinchi yarmida oʻqilgani yaxshi. Kechki paytdagi oʻqish unchalik samarali boʻlmaydi. Kitoblarni, ayniqsa, davriy nashrlarni faqatgina uy sharoitida oʻqish shart emas. Uzoq muddatga uydan chiqilganda kitob, jurnal yoki gazetani oʻzingiz bilan olganingiz maʼqul, chunki kun davomida mutolaa uchun qulay vaziyat vujudga kelib qolishi mumkin. Bolalarda kitobga muhabbat hissini uygʻotish gʻoyatda muhim. Bola oʻqishni oʻrganishidan oldinroq kattalar vositasida u bilan muloqotda boʻladi, bolalarning kitob olamiga kirishi-ehtiyotkorlik bilan, ularga mos kitoblarni tanlash, bunda bolalarning yoshini hisobga olish kerak. Bolaning 6-7 yoshidan boshlab uni kitobga oʻrgatish, mutolaani ijodiy jarayon sifatida uning ongiga singdirish lozim. Agar bola yoshligida tinglovchi sifatida faol boʻlmasa, oʻqishni oʻrganib olganidan soʻng ham shunday qolaverishi mumkin.

Bolalarning kitobga nisbatan mehr-muxabbati kattalarga, ularning kitob tanlash, oʻqib berishdagi muvaffaqiyatlariga bogʻliq. Bu ishda kutubxonachi eng yaqin yordamchi va maslahatchi boʻla oladi. Kitobni ovoz chiqarib oʻqib berishning dvomiyligi bolaning yoshi, uning oʻziga xos xususiyatlari, oʻsha paytdagi kayfiyati va kitobning yengil yoki jiddiyligiga bogʻliq. Kitob oʻqish bola uchun oddiy bir hol, shunchaki, bir ish emas, balki sirli, goʻzal, ertaknamo, quvonch va shodlik bagʻishlovchi bir jarayon boʻlmogʻi lozim. Baʼzi kitoblarni bolaga bir necha marta oʻqib berishdan bosh tortmaslik kerak. Katta hajmli, yaxlit bir mavzuni oʻz ichiga olgan, bir necha kunlar davomida oʻqiladigan kitoblarni oʻqib berishda uni eng qiziq joylarida toʻxtatish kerak. Chunki shunday qilinganda bolaning bu kitobga boʻlgan qiziqishi pasaymasdan, balki uning davomini sabrsizlik bilan kutadi.

KOMPYUTER (ING. COMPUTET; LOT. COMPUTARE – XISOBLAMOQ, HISOBLAB CHIQMOQ) - MURAKKAB QURILMAGA EGA BOʻLGAN ELEKTRON HISOBLASH MASHINASI. U HOZIRDA FAQAT XISOBLOVCHI BOʻLMASDAN, MATEMATIK AMALLAR, TOVUSH, VIDEO VA BOSHQA MAʼLUMOTLAR USTIDA HAM AMALLAR BAJARADI

SHUNGA QARAMASDAN, HOZIRDA UNING ESKI NOMI SAQLANGAN. UNING ASOSIY VAZIFASI TURLI MA'LUMOTLARNI QAYTA ISHLASHDAN IBORAT.

KOMPYUTER GRAFIKASI - grafik displey (monitor) ekranida tasviriy informasiyani vizuallash («koʻrinadigan» qilish), shuningdek, oʻrganilayotgan obyekt boʻyicha modellarni va ularning tasvirlarini yaratish, saqlash hamda kerakli maqsadda ularni qayta ishlash jarayonini amalga oshirishdagi universal texnik-didaktik vosita. Tasvirni qogʻozda, fotoplyonkada, kinolenta va b.da aks ettirish usulidan farqli ravishda kompyuter grafikasida hosil qilingan tasvirni darhol oʻchirib tashlash, unga tuzatish kiritish, istalgan yoʻnalishda toraytirish yoki choʻzish, yaqinlashtirish va uzoqlashtirish, rakursni oʻzgartirish, burish, harakatlantirish, rangini oʻzgartirish va boshqa amallarni bajarish mumkin. Kitoblarni bezash, rasm va chizmalarni tayyorlash, buyumlarni loyihalash va modellarni yasash, telereklamalar yaratish, televizion koʻrsatuvlardagi toʻldiruvchi tasviriy lavhalarni, multfilmlarni yaratish, kinofilmlarda qiziqarli kadrlar hosil qilish va boshqa koʻp sohalarda qoʻllaniladi.

KOMPYUTERDA DASTURLASH - komp. uchun dastur tuzish jarayoni; kompyuter dasturlari, dasturlar tuzish usullari, ularni tekshirish va mukammallashtirish haqidagi fan.

KOMPYUTERLASHTIRISH – inson faoliyatining turli sohalariga kompyuterlarni joriy etish, ularni kompyuter bilan ishlashga oʻtkazish jarayoni. Kompyuter jarayoni ma'lumotlarni toʻplash, qayta ishlash va uzatish ishlarini avtomatlashtirishni qamrab oladi. Natijada shaxsning intellektual salohiyati rivojlanadi; aqliy mehnatni ilmiy asosda tashkil etish imkoniyatlari kengayadi; ta'lim-tarbiyada kafolatlangan natijaga erishish uchun qulay sharoitlar yaratiladi.

KOMPYUTER MADANIYATI – odamning oʻz faoliyatida axborot texnologiyasi majmuidan tegishli tarzda foydalana olish layoqati darajasi. Yuksak ijtimoiy va ishlab chiqarish madaniyatisiz kompyuter texnologiyasining rivojlanishi mumkin emas, kompyuterlardan kundalik faoliyatda samarali va oqilona foydalanish esa kompyuter sohasida muayyan bilim va koʻnikmalarga ega boʻlishni taqazo etadi.

KOMPYUTERLI MODELLASHTIRISH – kompyuter vositasida muayyan o‘quv modellarini yaratish jarayonini ifodalovchi atama.

KOMPYUTER TARMOQLARI - axborotlarni uyg‘unlashtirib almashinish maqsadida uzatish yo‘nalishlari orqali bog‘langan alohida kompyuterlar majmui. Har qaysi axborot, iste’molchisiga axborot zaxiralari (ma’lumotlar bazasi, prosessor, xotira va x.k.) dan birgalikda foydalanish uchun qo‘shimcha imkoniyat yaratadi. Kichik xudud (korxona, tashkilot) doirasida foydalaniladigan kompyuter tarmoqlari lokal (mahalliy), keng xudud (o‘lka, davlat, qit’a va b.) ni qamrab oladigan kompyuter tarmoqlari global (umumiylashgan) deb ataladi (yana Kompyuter Internet, Internet).

KONFLIKT (lot. conflictus – ixtilof, to‘qnashuv, nizo, kelishmovchilik) - inson faoliyatining turli jabhalarida sodir bo‘ladigan qarama-qarshilik. Ularning kelib chiqishiga insonlarning muayyan vaziyat, holat va jarayonlarga nisbatan turlicha qarashlari sabab bo‘ladi. Zero, insonlarning dunyokarashi, muayyan vaziyatlarda amalga oshiradigan hatti-xarakatlaridagi o‘ziga xoslik natijasida qarama-qarshiliklar kelib chiqadi. Ayrim holatlarda konflikt kuchli ehtiroslar, dramatik to‘qnashuvlar, ziddiyatlar tarzida kuzatilishining asosiy omillari ham aynan kishilarning turli fe’l-atvor va dunyoqarashga egaligi hisoblanadi. Konflikt keng ma’noda yaxshilik va yolg‘onlik, ezgulik va yovuzlik, adolat va adolatsizlik o‘rtasidagi to‘qnashuv, ziddiyat, yangilikka intiluvchanlik va eskilikni saqlashga intilish sifatida namoyon bo‘ladi. Tor ma’noda san’atning turli sohalarida (badiiy adabiyotda ijobiy va salbiy obrazlar o‘rtasidagi ziddiyat, tasviriy san’atda kontrast ranglar vositasidan foydalanish va h.k.) badiiy asarning ta’sirchanligini oshirish uchun qo‘llaniladigan o‘ziga xos metod. Konflikt shaklidagi ziddiyat, qarama-qarshiliklar ilm-fan, shu jumlalan, pedagogika va psixologiya sohasida ham kuzatiladi. Ko‘p hollarda turlicha yondashuv va dunyoqarashlar o‘rtasidagi ziddiyatlar ilm-fan rivojiga ham ta’sir o‘tkazadi. Insoniyat hayoti shunday mazmunga egaki, unda, konfliktsiz jamiyat bo‘lishi mumkin emas. Konfliktning tasnifiga ko‘ra, bir shaxsning ichki dunyosidagi ziddiyatlari, ikki shaxs o‘rtasidagi ziddiyatlar, guruhlar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar, millatlararo

kelishmovchiliklar, mamlakatlararo konfliktlar, diniy mansublikka koʻra ziddiyatlar kabi toifalari mavjud. Kutubxona-axborot xizmati jarayonidagi konfliktlar kutubxona muloqoti orqali hal etiladi.

KUTUBXONA – kitob, jurnal va gazetalarni toʻplash, saqlash va ulardan foydalanishni taʼminlovchi madaniy-maʼrifiy va ilmiy-yordamchi muassasa; malum bir guruhga oid kitobxonlarga moʻljallangan kitoblar turkumining nomi. Ijt. taraqqiyotni belgilovchi omillar orasida kitoblar muhim oʻrin egallaydi. Kitob mutolaasi jamiyat aʼzolariinng maʼnaviy yuksalishiga, tafakkur doirasining kengayishiga yordam beruvchi asosiy vositadir. Mashhur faylasuf Deni Didro «Kim kitob oʻqishdan toʻxtasa, bilingki, u fikrlashdan ham toʻxtagan boʻladi», deb yozgan. Chunki insoniyatnint asrlar davomida toʻplagan bilim va tajribasi, tafakkur olami, maʼnaviyati, avvalo, kitoblarda aks etadi. Shu bois, kitoblar azaldan muqaddas hisoblanib, ular asrab-avaylab kelinadi. Mamlakatimizda kutubxonalar qadimiy davrlardan boshlab faoliyat koʻrsatgan, jamiyat taraqqiyotiga taʼsir koʻrsatadigan alohida mavqega ega boʻlgan omil sifatida qadrlanib kelingan.

Yozuvning paydo boʻlishi va hujjatli manbalarni, ayniqsa, qoʻlyozma va keyinchalik bosma kitoblarning koʻpayishi kutubxonalarning yuzaga kelishi va rivojlanishiga sharoit yaratdi. Kutubxonalar yozma yodgorliklarni saqlovchi xazina sifatida juda qadimda paydo boʻlgan. Mil. av. 2-ming yillikda sopol bitiklari saqlangan kutubxonalar boʻlgan. Mil. av. 7-a. oʻrtalarida Sharqdagi koʻp saroylarda. Qad. Misr va Rim ibodatxonalari qoshida kutubxonalar boʻlgan. Qadimgi davrdagi kitoblardan eng mashhuri Aleksandriya (Iskandariya) kutubxonasidir.

Gʻarbiy Yevropada ilk oʻrta asrlarda monastr va ibodatxonalar qoshida kitobxonalar tashkil etilgan. Kitob bosishning ixtiro qilinishi kutubxonalar rivojlanishida yangi davrni boshlab berdi. Sarbonna, Geydelberg universitetlari qoshida, Vatikan K. Parijdagi Qirollik kutubxonalari paydo boʻla boshladi.

Oʻzbekiston hududida mil. av. 1-ming yilliknnng soʻnggi asrlarida dastlabki kutubxonalar paydo boʻlgan. Hukmdorlar saroylarida va ibodatxonalarda tashkil

etila boshlangan. Turon xalqlari Misr, Eron, Yunoniston va ularga qo‘shni mamlakatlar bilan yaqin aloqalar o‘rnatgan, o‘sha davrlardagi mavjud qo‘lyozmalar bilan ham tanish bo‘lgan. O‘zbekiston xalqlarinint qad. yozma yodgorliklari saqlanmagan. Beruniyning xabar berishicha, kitob xazinalari va ularni saqlovchilar turli istilolar davri (7-9-a.lar)da yo‘q qilib yuborilgan. 9-10 asrlarda O‘rta Osiyoda Fan va madaniyat rivojlangan. Buxoro, Samarqand, Marv, Urganch va boshqa yirik shaharlar hukmdorlari saroylarida kutubxonalar barpo etilgan. Ayniqsa, Buxoroda ko‘p kutubxonalar mavjud bo‘lganligi haqida ma’lumotlar bor. Ulardan eng mashhuri, eng boy va yirigi Somoniylar sulolaviy kutubxonasi edi. Madrasa va masjidlar qoshida ham kutubxonalar bo‘lgan. Mo‘g‘ullar istilosi arafasida Marv sh.da 10 ta yirik kutubxonalar bo‘lganligi haqida ma’lumotlar bor. 13 asrda Samarqand, Buxoro, Farg‘ona, Balx va boshqa shaharlar madaniyat markazlari olimlar to‘planadigan joy bo‘lib, ularda yirik kutubxonalar mavjud edi. 14-a.ning 2-yarmidan Markaziy Osiyoda madaniy hayotning yangidan yuksalishi, kutubxonalarnpng qayta tiklanishida namoyon bo‘ldi. 14-a. oxirida Shayx Muhammad Porso umum uchun ochgan maskan vaqf kutubxonasi tarzida 19 asrning 40 yillarigacha faoliyat ko‘rsatgan. Buxoro, Samarqand, Qarshi, Xiva va boshqa shaharlardagi katta madrasalarda kutubxonalar bo‘lgan, ularning fondlari madrasaning qad. va nufuziga qarab turlicha bo‘lgan. Ba’zi tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Beruniy, Ibn Sino, Firdavsiy, Zamaxshariy, Umar Xayyom kabilarning shaxsiy kutubxonalari, Alisher Navoiyning qimmatbaho qo‘lyozmalarga boy yirik kutubxonasi, Abduraxmon Jomiyning shaxsiy kutubxonasi bo‘lib, ulardan Muhammad Sharif Sadr Ziyoning kutubxonasi bizgacha to‘liq saqlanib qolgan. 20 asrning boshlarida mahalliy o‘zbek va rus ziyolilari general Jo‘rabek, Dukchi Eshon nomi bilan mashhur Muhammadali xalfa Sobir o‘g‘li, V.L.Vyatkin, vrach G.M.Semyonov, Abdurauf Fitrat va boshqalarning shaxsiy kutubxonalari bo‘lgan.

20 asrning 10-20 yillari Turkiston hududida 2 ta xalq kutubxonasi bir necha shahar kutubxonalari mavjud bo‘lgan. Mahalliy aholi vakillari milliy yo‘nalishdagi 2 ta kutubxona va madrasalar huzuridagi kutubxonalardan foydalangan. Shu

kutubxonalar o‘z davrida davlat kutubxonasini tashkil etishda asosiy negiz bo‘lib, xizmat qilgan.

Kutubxonalarning jamiyatdagi o‘rni, maqsad va vazifalari, uning ijtimoiy tuzilma sifatidagi ahamiyati beqiyos. Mustaqillik yillarida ma’naviy- ma’rifiy muassasa hisoblangan kutubxonalarning mavqeini oshirish, moddiy-texnik ta’minotini mustahkamlash, kutubxonalar fondini muntazam ravishda yangi adabiyotlar bilan to‘ldirish, elektron asarlar bazalarini yaratish, kutubxonalarga keng kitobxonlar ommasini jalb etish masalalariga alohida e’tibor qaratildi. Bugungi kunda O‘zbekistonda 17 mingdan ziyod turli tizim va ko‘lamdagi kutubxonalar aholiga ziyo va ma’rifat tarqatish yo‘lida xizmat ko‘rsatib kelmoqda.

KUTUBXONA-AXBOROT RESURSI- moddiy obyektda matn, ovozli yozuv yoki tasvir tarzida qayd etilgan hamda identifikatsiyalash, saqlash va foydalanishni ta’minlash uchun rekvizitlarga ega bo‘lgan axborot.

KUTUBXONA-AXBOROT FAOLIYAT -kutubxona-axborot muassasalarining axborot-kommunikasiya texnologiyalari asosida kutubxona-axborot fondlarini shakllantirish va kutubxona-axborot xizmati ko‘rsatishni tashkil etish bo‘yicha faoliyati.

KUTUBXONA FONDI – Ma’lumot bibliografik apparati yordamida har tomonlama ochib beriladigan kitob, boshqa bosma asarlar, qo‘lyozmalar, video yozuvlar, audio yozuvlari va o‘zga mayeteriallarning kutubxona tomonidan uning vazifasiga muvofiq tarzda shakllantiradigan, tartibga solinadigan jamlamasi. Komplektlash yo‘nalishiga ko‘ra universal, ko‘p sohali, sohaviy, moslashtirilgan kutubxonani fondlaridan farqlanadi.

KUTUBXONA KATALOGI – Kutubxona (yoki bir necha kutubxonalar) fondida bor bo‘lgan hujjatning ma’lum qoida asosida tuzilgan va kutubxona fondlarining tarkibi va mazmunini ochib beruvchi ro‘yxat. Kartochka mashina o‘qiy oladigan shaklda, mikro tashuvchilar shaklida va shuningdek, kitob nashri shaklida amalga oshirilgan bo‘lishi mumkin. Katalogning nomida turli belgilar tartib bilan aks etadi: “Kitobxon, xizmat kataloglari, asosiy, yig‘ish usuli bo‘yicha (alfavitli, sistemali, predmetli), katalogda aks etgan hujjat turi bo‘yicha (kitoblar,

davriy nashr, notalar, kartografik nashrlar) kutubxonanng tarkibiy tarmog‘i bo‘yicha (o‘quv zali, noyob kitoblar bo‘limi va h.k.)

MAYL – (arab. – qiyalik, moyillik, intilish) – kishining narsa yoki ishga, biror ehtiyojini qondirishga bo‘lgan ishtiyoqi, qiziqishi, intilishi, havasi, moyillik, erk, ixtiyor, tirik organizmning biror o‘z ehtiyojini qondirishga intilishi. U qo‘msash, noaniq ichki dard, sababsiz zerikish tuyg‘ulari tarzida kechishi mumkin. Mayl irodaviy jarayonlarga taalluqli bo‘lgan intilish, havas, tilak, xohish, ishtiyoq, hatto orzu ko‘rinishlarida ham namoyon bo‘ladi. U bajo keltirilgan taqdirda kishiga mamnuniyat baxsh etadi. Mayl kishidagi qobiliyat yoki endigina shakllanib kelayotgan indivudual xislatlarning darakchisi sifatida erta namoyon bo‘ladi. Mayllarning ba’zilari rivojlanib, shaxsiy ehtiyoj va qiziqishga aylanadi, ba’zilari esa tormozlanib, batamom barham topadi yoxud birining o‘rnini ikkinchisi egallaydi. Ijobiy yo salbiy, kuchli va zaif, ko‘lami keng yoki tor, barqaror yo o‘tkinchi mayllar bo‘ladi.

Odatda, mayl –istak–niyat–orzu tizimi izchil bog‘liqlikka ega. Maylning anglanilgan darajasi moyillik deb ataladi. Moyillik shaxsni aniq faoliyat bilan shug‘ullanishga qo‘zg‘atuvchi turtkidir. Moyillik negizida faoliyatga yo‘naltirilgan barqaror ehtiyoj va unga taalluqli ko‘nikmalarni takomillashtirishga intilish yotadi.

Mayl har doim xam qobiliyatga mos kelavermaydi. Masalan, bolada musiqiy iste’dod bo‘lishi mumkin, ammo unda hali musiqa mashg‘ulotlariga bo‘lgan mayl shakllanmagan bo‘ladi, mashg‘ulotlarga qattiq qiziqish bo‘lmaydi, ular zerikarli va yoqimsiz bo‘lib tuyuladi. Ayni vaqtda, u boshqa narsaga, masalan, yaxshi o‘yin ko‘rsata olmasa ham, futbolga qiziqishi mumkin.

Ammo, odatda, qobiliyat ana shu mayl natijasida (zehn negizida) rivojlanadi. Chunki bolalar qiziqish uyg‘otgan mashg‘ulot turlari bilan har kuni soatlab shug‘ullanishlari mumkin. Bola biror mashg‘ulot tajribasiga ega bo‘lgandagina o‘zida muayyan qobiliyatni rivojlantiradi. Ba’zan farzandlari qaysi qobiliyatni rivojlantirishi kerakligi bo‘yicha ota-onalarning o‘z rejalari bo‘ladi: ayrimlari bola, albatta, matematik olim bo‘lishini, boshqasi musiqachi bo‘lishini xohlaydi. Bu yerda oddiy qonuniyat inkor etiladi: sog‘lom ijodiy shaxsda qobiliyat mayl asosida

rivojlanadi. Albatta, bolani o‘zi qiziqqan ish bilan shug‘ullanishga majbur qilish mumkin, xatto bu sohada muayyan muvaffaqiyatlarga erishadi ham. Ammo har qanday ijod uchun zarur bo‘lgan ichki qiziqish, havas bo‘lmasa, bunday “matematik” yoki “musiqachi” dan birorta yangilik yaratuvchi emas, nari borsa, malakali taqlid qiluvchi hunarmand chiqishi mumkin. Albatta, boladagi har qanday qiziqish unda chuqur mayl paydo bo‘lganligini anglatmaydi. Bola turli mashg‘ulotlarda o‘zini sinab ko‘rishi kerak. Bunda unga erkinlik berish, izlanishlarini rag‘batlantirish, o‘zining doimiy maylni topishga, ochishga yordam berish kerak.

Bola biror ixtisoslikni erta va tez egallashini xohlovchi ota–onalar shuni bilishlari kerakki, biror ish, qaysidir kasbga bo‘lgan haqiqiy, jiddiy havas faqat o‘zini o‘zi bilishda boy tajribaga ega va turli ishlarda o‘zini sinab ko‘rgan kishida shakllanishi mumkin. Bu holatni bilish kutubxona-axborot xizmatida ham ularning qiziqishlarini hisobga olishda katta yordam beradi.

MALAKA (arab, qobiliyath, iste’dod, xususiyat, odat) - kasbni. ishni yaxshi o‘zlashtirish natijasida orttirilgan tajriba, ko‘nikma, mahorat, o‘quvchi yoki talabada muayyan o‘quv materiali va kasbni chuqur o‘zlashtirish natijasida hosil bo‘lgan avtomatlashgan mahorat, psixologiyada - muayyan kasb, ishni yaxshi o‘zlashtirish natijasida orttirilgan mahorat. Odatda, biron ish jarayonida harakatlar anglanilgan yoki anglanilmagan tarzda amalga oshiriladi. Harakatni bajarishda ongning borgan sari kamroq ishtirok etishi tufayli ish g‘ayriixtiyoriy ravishda ijro etila boradi, ayrim mayda qismlarga e’tibor kamayadi. Harakatning qisman g‘ayriixtiyoriy ravishda bajarilishi tufayli uning tuzilishida ayrim sifat o‘zgarishlari yuz beradi. Harakatni xissiy nazorat qilish, uni markazdan turib boshqarish usullari o‘zgarib boradi. Harakat usullarini idrok etishdan diqqat xoli bo‘ladi va u harakat vaziyati hamda mahsuliga karatiladi. Natijada topshiriq ravon, ortiqcha kuch sarflamay, tez va sifatli bajariladi. Mayl hosil qilish tezligi uning murakkablik darajasi, kishining yoshi, individual xususiyati, bilimi va boshqa omillarga bog‘liq. Kishidagi malaka, ko‘pincha, boshqa mayl hosil bo‘lishiga yordam beradi. Bunday holatga ko‘chish deyiladi. Ba’zi hollarda esa mavjud mayl

boshka mayllar hosil bo‘lishiga xalaqit beradi. Bunga maylning interferensiyasi deyiladi. Uzoq mashq qilmaslik va organizmning meyoriy bo‘lmagan holatlari (kasallik, qattiq charchash, hayajonlanish va b.)da mayl yo‘qolishi mumkin. Bu sabablar bartaraf etilishi bilan mayl yana tiklanadi.

MA’LUMOT (arab. - axborot, xabarlar, bilim) - shaxsning o‘qish, o‘rganish natijasida o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikmalari hajmi, yo‘nalishi va darajasi. Ma’lumot ta’lim-tarbiya hamda mustaqil bilim olish jarayonida olinadi va insonning ongli faoliyati jarayonida o‘zlashtirib boriladi. Ushbu jarayon bolaning fikrlash qobiliyati shakllanishidan boshlab dastlab oilada, so‘ngra uzluksiz ta’lim tizimining turli bosqichlarida ta’lim-tarbiya olish davomida amalga oshiriladi. Uzluksiz ta’lim tizimining har bir bosqichida tegishli ta’lim standartlari hamda o‘quv dasturlari bilan belgilangan hajm va yo‘nalishdagi ma’lumot o‘zlashtiriladi. Ma’lumotni o‘zlashtirish jarayonini tashkil qilishning asosiy shakllaridan biri kutubxona-axborot xizmatidan foydalanishdir. Ma’lumot olish manbai darslik qo‘llanma, qo‘shimcha adabiyotlar, OAV, obyektiv voqelik hamda mantiqiy tafakkur jarayonidan iborat. Shu bilan birga, ma’lumot aniq bir yoshdagi shaxslarda bilim, iqtidor va ko‘nikmalarning o‘zlashtirilganligi, ularning intellektual qobiliyati o‘sganligi hamda ular asosida ilmiy dunyoqarash, shaxsiy sifatlar shakllanganligi, ijobiy kuchlari va qobiliyatlari qay darajada rivojlanganligini anglatadi.

MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLAR – keng ommani ma’naviy va ma’rifiy jihatdan tarbiyalash, ularning umumiy ma’naviy saviyasini yuksaltirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, bo‘sh vaqtlarini samarali o‘tkazishga ko‘mak beruvchi tadbirlar tizimi. Madaniy-ma’rifiy ishlar mazmuni, maqsad va vazifalari har bir zamon hamda makonning ijtimoiy siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy, g‘oyaviy, mafkuraviy xususiyatlariga chambarchas bog‘liq holda shakllanadi. Madaniy-ma’rifiy ishlar tushunchasi keng ma’noda o‘quv muassasalari, ta’lim-tarbiya maskanlari, klublar, axborot-resurs markazlari, madaniyat va istiroxat bog‘lar faoliyatini qamrab oladi. Bunda muzey, kinoteatr, teatr va boshqa madaniy-ma’rifiy muassasalar, shuningdek, OAV muhim o‘rin tutadi. Asrlar o‘tishi

bilan madaniy-ma’rifiy ishlar muassasalarining keng tarmog‘i tashkil etilishi, ular ning o‘sishi va takomillashuvi bilan unga rahbarlik qilish jarayoni ham mukammallashib borgan. Inson dunyoqarashini shakllantirish, ma’naviy-axloqiy tarbiya, g‘oyalar targ‘iboti, iqtisodiy bilimlarning ilmiy-texnikaviy targ‘ibot-tashviqoti, estetik va jismoniy tarbiya, badiiy xavaskorlik, madaniy dam olishni tashkil etish, yosh iste’dodlar- ni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash madaniy-ma’rifiy ishlarining turli yo‘nalishlaridir. Ezgulik va mehr-oqibat, ulug‘vorlik va go‘zallik, vijdonlilik va mehr-shafqat, boshqalarga hurmat hamda tabiat bilan uyg‘unlikni saqlash kabi ma’naviy xislatlar har bir kishiga asta-sekin, tadrijiy ravishda madaniy-ma’rifiy ishlar orqali singdirib boriladi. Madaniy-ma’rifiy ishlar jarayonida o‘quv va madaniy-ma’rifiy muassasalarda an’anaviy shakllar (suhbat, muloqot, ma’ruza, spektakl, konsertlar, she’rxonlik bilan birga mavzuli kechalar, kitobxonlar konferensiyalari va boshqa tadbirlar uyushtiriladi. Respublikaning barcha viloyatlari, yirik shahar va tumanlarida faoliyat yuritayotgan ma’naviy-ma’rifiy muassasalar ishtirokida katta xalq sayllari, hosil bayramlari, Mustaqillik, Navro‘z, Mehrjon bayramlari, «Sharq taronalari» xalqaro festivali, xonandalar, raqqosalar, eng yaxshi kasb ustalarining ko‘rik tanlovlari, «O‘zbekistan Vatanim manim», “Eng ulug‘, eng aziz”, «Kelajak ovozi» va boshqa ko‘rik-tanlovlar o‘tkazilmoqda. Yurtimizda ma’naviy-ma’rifiy muhitni yanada yaxshilash, ibratli an’ana va qadriyatlarni targ‘ib tashviq etish borasida ko‘plab tadbirlar tashkil etilmoqda. Shu mavzuda ilmiy-ommabop, publisistik asarlar, hujjatli filmlar va teleko‘rsatuvlar namoyish etilib, turli ko‘rgazmalar tashkil qilinmoqda. Bu sohadagi Madaniy-ma’rifiy ishlarning yo‘nalishi yosh avlod ongi va qalbiga milliy g‘oyani singdirish, barkamol avlodni shakllantirish, ezgulik, bag‘rikenglik, insonparvarlik, mehr-oqibat, iymon-e’tiqodni tarbiyalashga, ma’naviyatning milliy-etnik asoslari va zamonaviylikni uyg‘unlashtirishga qaratilgan.

MADANIY-MA’RIFIY TADBIRLAR SAMARADORLIGI – joylarda amalga oshirilayotgan ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlardan kutilgan natijaga erishish, shu soha xodimlarining faoliyati va tarbiyaviy salohiyatidan unumli foydalanish darajasining ko‘rsatkichi. Madaniy-ma’rifiy-tadbirlar samaradorligiga

erishish uchun ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni ta’lim jarayoni bilan uyg‘unlashtirish va ulardan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ta’lim-tarbiya jarayonida madaniy-ma’rifiy-tadbirlar samaradorliga ta’sir o‘tkazuvchi omillarning harakat qilish mexanizmlari va xususiyatlarini aniqlash, ulardan unumli foydalanish, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar orqali yoshlarni milliy va umumbashariy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Madaniy-ma’rifiy-tadbirlar samaradorligi yukori bo‘lishi uchun ularni tayyorlash va o‘tkazish jarayonida yoshlarda tarbiya va o‘zini o‘zi tarbiyalash hissini shakllantirish hamda rivojlantirish tashkilotchilarning diqqat markazida bo‘lishi lozim. Ta’lim tizimidagi ma’ruza, amaliy mashg‘ulotlarni ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar bilan uy-g‘unlashtirish, bir tomondan, ta’lim samaradorligini oshirsa, ikkinchi tomondan, ta’lim va tarbiyaning uzviyligiga xizmat qiladi. Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tayyorlash hamda o‘tkazishga yoshlarni keng jalb qilish ularda xamdardlik xissini uyg‘otadi va bu holat o‘tkazilgan tadbirning tarbiyaviy samaradorligini yanada oshiradi. Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlardan ma’naviy-axloqiy tarbiyada samarali foydalanishda har bir shaxsning xususiyatlari, muayyan voqea-hodisaga nisbatan fikri qay darajada shakllanganini hisobga olish lozim. Ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni rejalashtirish, tashkil qilish, tayyorlash va o‘tkazishga yoshlarni keng jalb qilish, ayniqsa, mavzu tanlash, reja tuzish, ssenariy tayyorlash, tadbir o‘tkaziladigan xonalarni jihozlash kabi yumushlarni yoshlarning o‘ziga topshirish lozim. Madaniy-ma’rifiy-tadbirlar samaradorligining oshishi o‘quv yurtlarida o‘tkaziladigan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning reja va ssenariylari prof.-o‘qituvchilar yoki ta’lim muassasasi xodimlari tomonidan tuzilgan taqdirda ularni talabalar muhokamasidan o‘tkazish va muxokama jarayonida bildirilgan fikrlarning inobatga olinishiga ham bog‘liq. Madaniy-ma’rifiy-tadbirlar samaradorligini oshirish maqsadida o‘quv yurtlarining ma’naviy-ma’rifiy muassasalar bilan hamkorligini mustahkamlashning ahamiyati katta. Bunday hamkorlik, bir tomondan, madaniy-ma’rifiy muassasalarni auditoriya, tomoshabin bilan ta’minlashga, ikkinchi tomondan, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning ta’sirchanligi va samaradorligini oshirishga ko‘maklashadi. Qolaversa, madaniy-

ma’rifiy-tadbirlarning mazmunan milliy ma’naviy- axlokiy qadriyatlar, milliy g‘oya va madaniyatimiz, ma’naviy merosimiz bilan uyg‘un holda hamda zamonaviy shakllar va interaktiv usullar asosida tashkil etilishiga bog‘liq.

MA’NAVIY TARBIYA - yuksak ma’naviyatni tarbiyalash vositasi, muayyan shaxs, jamoa, guruh, jamiyat, millatda jismoniy barkamollik, ruhiy, axloqiy, ma’naviy yetuklik kabi sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy ta’lim-tarbiya jarayoni. Insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan ma’naviy xususiyatlarni tarbiyalash uning eng asosiy qadriyat sifatidagi mohiyatini ta’minlaydigan qadimiy va abadiy qadriyatdir.

Inson va jamiyatning mavjudligini ta’minlaydigan qadriyatlar ma’naviy tarbiya tufayli ajdodlardan avlodlarga o‘tadi. Ma’naviy tarbiya atamasi keng ma’noda inson shaxsini shakllantirish, uning ishlab chiqarish va ijtimoiy, madaniy, ma’rifiy hayotda faol ishtirokini ta’minlashga qaratilgan barcha ma’naviy ta’sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig‘indisini anglatadi. Bunday tushunishda ma’naviy tarbiya - faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi g‘oyalari, adabiyot, san’at, kino, radio, TV, OAV faoliyatini ham o‘z ichiga oladi. Shuningdek, keng ma’nodagi ma’naviy tarbiya tushunchasi tarkibiga bu sohada ta’lim va ma’lumot olish ham kiradi. Tor ma’noda, ma’naviy tarbiya muayyan shaxsning ma’naviy rivoji, dunyoqarashi, axloqiy qiyofasi, estetik didini o‘stirishga yo‘naltirilgan f-yatni anglatadi. Bunday ma’naviy tarbiya oila va ta’lim muassasalari hamda jamoat tashkilotlari doirasida amalga oshiriladi. Har qanday ma’naviy ta’lim bilan chambarchas bog‘liq holdagina mavjud bo‘ladi. Chunki ta’lim va ma’lumot olish jarayonida shaxsning bilimi ko‘payibgina qolmay, balki ma’naviy-axlokiy sifatlarining qaror topishi ham tezlashadi. Shu bois ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo‘lmish ilmu ma’rifat, ta’lim-tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti deb bilgan.

Ma’naviy tarbiyada g‘oya va g‘ururni yuksaltirishga xizmat qiladigan timsollar, ramzlarning har biri katta bir darslik, kuchli tarbiya vositasi hisoblanadi. Bundan tashqari, buyuk ajdodlar tavallud sanalarini nishonlash ham ma’naviy va

tarixiy ahamiyatga ega. Bunday marosimlarni o‘tkazish orqali yoshlar yangi qadriyatlar asosida tarbiyalanadi, ular qalbiga tarixni anglash va qadrlash, o‘tmishga hurmat bilan yondashish, ularni asrab-avaylash, shu xalqqa mansubligi bilan g‘ururlanish tuyg‘ulari singdiriladi. Umuman olganda, ma’naviy jihatdan yaxshi tarbiya olgan shaxs o‘z aqli, tafakkuri, mehnati, mas’uliyati bilan ongli ravishda, ozod va hur fikrli inson bo‘lib yashaydi.

MA’NAVIY TA’SIR - muayyan kishi, millat yoki xodisalarning boshqalariga ta’siri. Ma’naviy tarbiya keng ko‘lamli murakkab tushuncha bo‘lib, u o‘z ichiga tarbiyaning ko‘plab turlari (axloq, xuquq, nafosat va b.) orasidagi o‘zaro ta’sir masalalarini qamrab oladi. Ma’naviy tarbiya tushunchasini ikki xil talqin etish mumkin: 1) har qanday inson, uning kamoloti ma’naviy tarbiya mahsulidir; 2) inson, xalqning o‘zi ham boshqalar uchun ma’naviy tarbiya manbaidir. Chunki har bir kishi atrofdagilardan yoki o‘zidan oldin o‘tgan ajdodlardan ta’sirlanadi. Bu ta’sir goh muayyan merosni qabul qilish orqali amalga oshsa, goh undan chekinish yoki inkor etish orqali yuz beradi. Shu bois ma’naviy tarbiya oddiy, doimo ham tezda namoyon bo‘ladigan, aniq ko‘rinib turuvchi hodisa emas, balki juda murakkab jarayon bo‘lib, turli odamlar, xalqlar, ma’naviy muhitlar orasida ham, biror millat hamda qardosh xalqlar doirasida ham o‘zaro ta’sir tarzida amal qiladi. Biroq, ma’naviy tarbiyaning yuqoridagi ko‘rinishlari asosida individual ta’sir yotadi.

MA’NAVIY EHTIYOJLAR - davlat jamiyat va shaxsning barqaror turmushida moddiy ehtiyojlardan boshqa ma’naviy, talablar, manfaatlar va ehtiyojlarini qondirishga bo‘lgan intilishi. Ma’naviy ehtiyojlar ijtimoiy, siyosiy, falsafiy, ilmiy, axloqiy, diniy, huquqiy va boshqa yo‘nalishlarda aniq namoyon bo‘ladi Shu bois ma’naviy ehtiyojlar ijtimoiy ong shakllariga tayanadigan faol harakat asosida ta’minlanadi. Ma’naviy ehtiyojlarning qondirilmasligi jamiyat barqaror hayotida turli buzg‘unchi g‘oyalarning paydo bo‘lishiga olib kelishi, davlat va jamiyat hayotiga jiddiy xavf tug‘dirishi mumkin. Bunday vaziyatda ma’naviy ehtiyoj tarzida namoyon bo‘lgan talablar va manfaatlarning bosqichma-bosqich qondirilishi bilan ijtimoiy muammolarni bartaraf etish mumkin. Xalqimiz

turmush tarzida ma’naviy ehtiyoj qadr va qadrlash mezonlari orqali namoyon bo‘ladi. Jamiyat va insonning ijtimoiy aloqalarida qadr-qimmat, or-nomusga nisbatan qilingan noto‘g‘ri munosabat yoki harakat ma’naviyat mezonlariga ziddir. Ma’naviy ehtiyojlarning moddiy ehtiyojlar bilan o‘zaro uyg‘unligi har bir davrning mazmun-mohiyatini belgilaydigan tarixiy zarurat hisoblanadi. Hozirgi kunda mamlakatimiz aholisi barcha moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini ta’minlashga qaratilgan tub o‘zgarishlar, inson manfaatiga xizmat qiladigan islohotlar, bozor iqtisodiyotiga asoslangan adolatli jamiyat, kuchli demokratik xuquqiy davlat qurish yo‘lidan bosqichma-bosqich ilgarilab bormoqda.

MA’NAVIY QADRIYATLAR – jamiyat a’zolarini tarbiyalash, ularning ma’naviy barkamolligini ta’minlashga xizmat qiladigan qadriyatlar tizimi. Ma’naviy qadriyatlar deganda, inson tarbiyasi va kamolotida muhim ahamiyatga ega, jamiyat va shaxs ma’naviyatini yuksaltiruvchi, tafakkur rivojida beqiyos ahamiyat kasb etadigan qadriyat shakllari tushuniladi. Ma’naviy qadriyatlar muayyan sharoitlarda shakllanadi va shu ma’noda milliy muhit ularni yaratish hamda saralashning asosiy manbaidir. Ma’naviy qadriyatlarni anglash kishining o‘z millati, yurti, eliga tegishli qadriyatlarni asrab-avaylashga, Vatan istiqboliga katta umid bilan qarashga undaydi, o‘ziga ishonch omillar uyg‘unligi shunchalik mustahkam va barqaror bo‘ladi. Fanda ma’naviy qadriyatlarning qator vazifalari o‘rganilgan. Ular, avvalo, jamiyat a’zolarini o‘zini o‘zi tarbiyalash, ajdodlardan meros qadriyat va ideallarga munosib bo‘lishga undaydi. Bu jarayonda ikki xil holat kuzatiladi: 1) Ma’naviy qadriyatlar jamiyat a’zolari tomonidan ongli tarzda yaratiladi, ya’ni odamlar o‘zlarida mavjud ma’naviy meyor va mezonlar haqidagi tushunchalar asosida ularga mos keladigan qadriyat va ideallarni yaratadi. Bunday say-harakatlar jamiyat a’zolarining ma’naviy faolligini oshiradi, izlash, izlanish va yaratuvchanlikka chorlaydi; 2) jamiyat a’zolari tomonidan o‘zlashtirilgan bilim, turli urf-odat yoki boshqa madaniy-ma’rifiy tadbirlar jarayonida olgan taassurotlari ham ma’naviy qadriyatlarning takomillashuviga xizmat qiladi. Ma’naviy qadriyatlarning shakllanishida har ikki holatning ham ta’siri kuzatiladi. Ma’naviy qadriyatlar ijtimoiy ong shakllariga mos keladigan madaniy, ma’rifiy, axloqiy,

diniy, huquqiy, ilmiy qadriyat kabi turlarga bo‘linadi. Ular insonning aqli, kamoloti, dunyoni bilish maqsadi, bilimlarining haqiqatga mos kelish darajasini aniqlash mezoni yoki biror ideal tarzida ham namoyon bo‘ladi. Ma’naviy qadriyatlarning yana bir muhim jihati – ularning ba’zilari insoniyat tarixi davomida asta-sekin shakllanadi va takomillashib boradi. Ular miqdori va sifatining ortishi jamiyat a’zolarining tafakkur darajasi yuksalishi hamda insoniyat taraqqiyoti qanchalik ilgarilab ketganligining ko‘rsatkichidir. Ma’naviy qadriyatlar va qadriyat mezonlari millat ma’naviyati va unga mansub kishilarning xulq-atvorini tartibga solish hamda to‘g‘ri yo‘naltirish vazifasini ham bajaradi. Bunday o‘ziga xos ma’naviy boshqarishning samaradorligiga erishish nihoyatda muhim. Zero, ma’naviy qadriyatlari bo‘lmagan millat yo‘q. Millat - ma’naviy qadriyatlarning soxibi, yaratuvchisi va asrab-avaylab saqlab turuvchidir. Millatning tanazzuli ma’naviy qadriyatlarning tanazzulidir. Ma’naviy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, buguni, kelajagi, urf-odat va an’analari, uni tashkil etgan avlodlar tafakkuri, ijtimoy qatlamlar, milliy ong, til hamda milliy madaniyat bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. O‘zbekistonda mustakillikdan keyin ma’naviy qadriyatlarga e’tibor kuchaydi. Zero, ma’naviy qadriyatlar mamlakatimiz mustaqilligi, xalqimizning irodasini mustahkam qiladigan, unga kuch bag‘ishlaydigan asosiy omillardan biridir. Xalqimizning asrlardan-asrlarga meros qolib kelayotgan ma’naviy qadriyatlari - uzoq tarixiy jarayonda shakllanib, rivojlanib kelgan. Bizning ma’naviy qadriyatlarimiz 3 ming yillik tamaddun bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ular millatimiz shakllangan makon va ona yurtga ehtirom, avlodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga hurmat, muomalada mulozamat, hayo, andisha va x.k.da o‘z aksini topadi. Ma’naviy qadriyatlarimizda jahonning boshqa xalqlariga o‘xshamaydigan urf- odat, rasm-rusum, marosim va an’analar ko‘plab uchraydi.

«MA’RIFAT» - ma’rifiy va ijtimoiy- siyosiy gazeta. Haftada 2 marta chiqadi. Muassislari: O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirliklari, O‘zbekiston ta’lim va fan xodimlari kasaba uyushmalari markaziy qo‘mitasi. Dastlab 1931 y. 4 iyulda «Madaniy inqilob», 1938 y. 25

yanvardan «O‘qituvchilar gazetasi» nomlarida chop etilgan. 1991 y.dan hoz. nomda. 1941 y. 1 iyuldan 1946 y. 9 martgacha gazeta vaqtincha o‘z faoliyatini to‘xtatgan. Gazeta ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun va KTMDda ko‘zda tutilgan masalalarni muntazam yoritadi. Gazeta turli rukn va sahifalarda mamlakatimizning bugungi ta’lim tizimi hayotidan hikoya qiladigan mavzularda har xil materiallar e’lon qiladi. Gazetada yosh avlod ongida milliy istiqlol g‘oyasini shakllantirish va ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mavzuida “Milliy istiqlol g‘oyasi” rukni tashkil etilgan. Ushbu ruknda berilayotgan maqolalar kutubxona xodimlari uchun xam eng zarur uslubiy manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

METOD (yun. methodos - bilish yoki tadqiqot yo‘li, nazariya, ta’limot) – kutubxona-axborot xizmati jarayonida taqdim etilgan amaliy va nazariy bilimlarni egallash, o‘zlashtirish, o‘rgatish, o‘rganish, bilish uchun xizmat qiladigan yo‘l-yo‘riqlar, usullar majmui; tabiat va jamiyat xodisalarini bilish, tadqiq qilish usuli.

Metodning kelib chiqish tarixi insonlarning amaliy faoliyatiga borib taqaladi. Biror ishni bajarish metodini egallagan kishi shu ishni boshqalarga nisbatan oson, tez va soz bajara oladi. Metodni egallamagan inson esa bu ishni bajarish uchun ko‘p vaqt va kuch sarflaydi. Metod amaliy yoki nazariy shaklda bo‘lishi mumkin. Insonning amaliy faoliyatiga oid metodlar ham vokelikka xos bo‘lgan qonuniyatlarni anglab yetish, bilib olishga borib taqaladi. Metodlar haqidagi ta’limot fanda metodologiya deb ataladi. Inson dastlab atrofdagi narsa va hodisalarni kuzatish, ularni bir-biriga taqqooslash, o‘xshatish, farq qilish asosida voqelik haqida bilimlarini to‘plab borgan. Voqelik xaqidagi fanlar rivojlanishi bilan fanlarda qo‘llaniladigan yo‘l-yo‘riqlar, metodlar ham takomillashgan. Fanning amaliy (empirik) va nazariy metodlari vujudga keldi.

FAN METODLARINING ASOSIY MAZMUNINI AMALIYOTDA SINALGAN ILMIY NAZARIYALAR TASHKIL ETADI. HAR QANDAY ILMIY NAZARIYA MOHIYATI JIHATIDAN METOD FUNKSIYASIGA EGADIR. METOD O‘Z NAVBATIDA, YANGI ILMIY NAZARIYALAR VA QONUNIYATLARNING OCHILI- SHIGA VOSITA BO‘LADI. SHU NUQTAI NAZARDAN,

METOD BILAN ILMIY NAZARIYA, FUNKSIYASIGA KOʻRA, BIR-BIRIDAN FARQ QILUVCHI ILMIY AMAL HISOBLANADI.

Falsafa va pedagogika tarixida ilmiy metodning mohiyatini tadqiq etish, yangi-yangi metodlarni kashf qilish alohida ahamiyatga ega. Har qanday buyuk ilmiy kashfiyotlarga nisbatan olimning biror yangilikni ochishda qoʻllagan ilmiy metodi koʻproq ahamiyatga egadir, chunki boshqa kashfiyotchilar ham shu olim qoʻllagan ilmiy metodga tayanib koʻplab yangiliklarni ochishi mumkin.

Bilish metodlari voqelikni qamrab olishi jihatidan 3 turga boʻlinadi: yalpi umumiy bilish metodlari - hamma fanlarda va bilishning barcha bosqichlarida ham qoʻllaniladigan umumiy va universal metodlar - metodologiya; umumiy bilish metodlari - bir qancha yoki barcha fanlarda qoʻllaniladigan va bilishning muayyan bosqichi (empirik, nazariy yoki empirik bosqichdan nazariy bosqichga oʻtish chegarasi)da qoʻllaniladigan bilish metodlari; xususiy yoki maxsus metodlar - ayrim fan doirasida qoʻllaniladigan bilish metodlari.

Forobiy, Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino va boshqalar fan metodlarini rivojlantirishgan. Xorazmiy olimlarni uchga boʻlib: «Ularning bir qismi ilmiy kashfiyotlarni ochishda qoʻllaniladigan yoʻl-yoʻriq va usullarni ishlab chiqib, boshqa olimlarning ilmiy izlanishlarini osonlashtiradi», deb yozganida, aynan shu metodlarni ishlab chiquvchi olimlarni nazarda tutgan.

Yaqin davr Yevropa faylasuf olimlari ham metod taraqqiyotiga salmoqli hissa qoʻshishgan. F.Bekon, G.Galiley, R.Dekart, G. Leybnis singari faylasuflar metodlar haqida maxsus asarlar yozishgan.

Hozirgi zamon fanlarida koʻplab umumiy, xususiy ilmiy metodlar qoʻllaniladi. Ayniqsa, keyingi asrda modellashtirish va matematik metodlarning yangi shakllari rivojlandi, kibernetik modellashtirish va komp. modellashtirish metodlari jamiyatning qariyb barcha sohalarida keng miqyosda qoʻllanilmoqda.

Tushunchalar - ped. jarayonda muhim ahamiyat kasb etib, ta’lim-tarbiya faoliyati subyektlarining oʻquv harakatlarini tashkil etish va ularni muvofiqlashtirishda qoʻllaniladigan ta’sir etish yoʻllari, usullarining majmuidan

iborat. Ta’lim-tarbiya tushunchalari asosini ta’sir ko‘rsatish mexanizmi tashkil etadi.

Kutubxona-axborot xizmati jarayonlariga tatbiq etiladigan tushunchalar ilmiy xulosalar, tajriba- lar va i. t.lar natijalariga asoslanib tanlanadi hamda ularning bu jarayondagi o‘ziga xos xususiyatlari inobatga olinadi. Kutubxona-axborot xizmati jarayonlariga, eng avvalo, foydalanuvchiga samarali ta’sir ko‘rsatuvchi, ya’ni ularda mutolaa mayllarini shakllantiruvchi, ma’lum bir tushunchalarni o‘zlashtirishda samarali deb topilgan tushunchalar va yondashuvlarning qo‘llanishi kutubxona-axborot xizmati jarayonida o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

METODIKA (yun. methodiks) - 1) biror ishni bajarish, amalga oshirish, ado etish tushunchalari, usullarining yig‘indisi; 2) o‘qitish usullari haqidagi ta’limot. Ped. fani sohasida ma’lum o‘quv fanini o‘qitish qonuniyatlarini tadqiq qiladi.

METODOLOGIYA (yun. methodos - bilish yoki tadqiqot yo‘li, nazariY. ta’-limot va logos - so‘z) - umuman, ilmiy metodologiya haqidagi, xususan, ayrim fanlarning tushunchalari haqidagi ta’limot, tadqiqotchining nazariy-amaliy ped. faoliyatini tashkil etish tamoyillari. U amal qiladigan meyoriy-huquqiy, nazariy-falsafiy yondashuvlar, qonuniyatlar, qarashlar yig‘indisi.

Metodologiya tushunchalar haqidagi ta’limot yoki umumiy bilish met.i sifatida ham tavsiflanadi. Metodologiya tushunchalarga va umumiy vokelikka qanday yondashish yo‘lini o‘rgatadi. Voqelikning muayyan qismi biror jihatini o‘rgatuvchi metodologiyaga metafizikani, voqelikning tizimli rivojlanish, o‘zgarish jarayoni va uni tashkil etuvchi elementlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni aks ettiruvchi metodologiyaga dilayektikani, voqelikda ro‘y beruvchi keskin, halokatli o‘zgarishlar, noizchil rivojlanish jarayonlarini o‘rganishda qo‘llaniladigan metodologiyaga sinergetikani misol sifatida ko‘rsatish mumkin.

Metodologiyaga ilmiy bilishning, voqelikni anglash va o‘zgarishning algoritmi sifatida ham qarash mumkin. Metodologiya taraqqiyotiga Sokrat, Aristotel katta hissa qo‘shishgan. Forobiy sharqona fikrlash uslubi nuqtai nazaridan Aristotel asarlarini sharxlagan. Bunday sharhlar Aristotel merosini o‘rganishda metodologik asos bo‘lgan. Metodologiya haqida F. Bekon, R. Dekart,

J. Lokk, G. Galiley va boshqa yevropalik olimlar maxsus kitoblar yozish- gan. Shuningdek, metodologiya rivojiga I. Kant, I. Fixte, F. Shelling, G.Gegel ulkan hissa qo‘shishgan. Gegel dialektik metodologiyaning asoslarini ishlab chiqqan. 20-a. da sinergetik, strukturalistik va germenevtik metodologiyalar fal.da eng obro‘li fal. M.lar sifatida nom qozondi, izchil va kompleks yondashish M.lari esa insonning barcha hayotiy jarayonlarida keng qo‘llanilmoqda.

Bugungi kunda sinergetika M.si olamning chigal muammolarini tadqiq etishda, halokatli portlashlar, tartibsiz o‘zgarish jarayonlarining mohiyatini tushunib yetishda, olamning vujudga kelishini ilmiy asoslashda kuchli evristik bilish quroli vazifasini o‘tamokda. Metodologiyaning ikki darajasi farqlanadi: 1) instrumental daraja. Bunda fikrlash va amaliy operasiyalarning o‘tishini ta’minlovchi talablar shakllantiriladi, fikr va harakatning mazmuni emas, balki yo‘nalishi belgilanadi; 2) konstruktiv daraja. U bilimni rivojlantirish, uning yangicha mazmun kasb etishiga erishishni nazarda tutadi.

20-a.ning 2-yarmiga kelib, bilish uslublarining bilish jarayoni, subyekt saviyasi, o‘rganiluvchi obyektlarga bog‘liqligi aniqlandi. Metodologiya asoslarining ijt.-tarixiy, ijt.-ilmiy, insoniy, shaxsiy, madaniy zaminlari mavjudligi qayd etildi. Insonlar faoliyati turlari doimo o‘zgarib turishi, yangilanishi m.ning shartliligi, o‘zgaruvchanliginn aniq-ravshan ko‘rsatmoqda. Bilish uslublarining yangilanishi, kategoriya va tushunchalarning o‘zgaruvchanligi hamda yangilanishning ijt., madaniy-tarixiy asoslari, mohiyati, bilish uslublari dinamikasi kabi masalalar m. tushunchasida o‘z aksini topdi. Umuman, m. tizimini falsafiy tushunchalar, g‘oyalar tashkil etadi. Fal. M. bilish jarayonini tahlil qilish bilan chegaralanmasdan, balki ijt. Borliqni yangilash va rivojlantirish muammolarini ochishda ham yordam beradi.

MEYOR (arab. - o‘lchov; andaza) - rasmiylashtirilgan, umum tomonidan qa-bul qilingan, barcha uchun majburiy xisoblangan, qonun hukmiga kirgan tartib-qoida; obyektning sifat va miqdoriy jihatdan o‘zaro bog‘liqligini anglatadigan, mazmun va shakl, imkoniyat va voqelik o‘rtasidagi zaruriy uyg‘unlik ta’minlanishini ifodalaydigan fal. tushuncha.

M. tushunchasi dastlab qad. Hindiston, Xitoy va Yunonistondagi fal. qarashlarda oʻz ifodasini topgan. Markaziy Osiyo mutafakkirlari (Ibn Sino, Beruniy va sh. k.) asarlarida ham M. tushunchasi tahlil etilgan. Ular oʻz asarlarida tabiiy va maʼnaviy-ruxiy M.ga oid fikr-mulohazalarni bildirishgan. M. fal. kategoriya sifatida Gegel fal.sida atroflicha tahlil etilgan. Har qanday obyektning sifati muayyan miqdor (moddiy tizimlarning xususiyatlari, unsurlari, soni va h.k.) bilan uzviy bogʻliqligi asosida belgilanadi. Ularning talablariga rioya qilish kundalik turmushimizda hamda bilish jarayonida koʻzlangan maqsadga erishishimizga imkon beradi. Meyorlar ilmiy bilishda qoidalarni, uslublarni, huquqiy sohada huquqiy meyoriy hujjat (mas., qonun, kodeks, buyruq va sh. k.)larni, axloq-odob meyorlarini va b. sohalardagi meyoriy fikrlarni ifodalaydi. Ularning bilishdagi va amaliyotdagi ahamiyati ana shu bilan belgilanadi. Meyor doirasida miqdor oʻzgarishlarining chegarasi mavjud. Ushbu chegaradan (miqdor oʻzgarishlari, unsurlarining katta-kichikligi, diskretligi, davriyligi, bogʻlanish tartibi, tuzilishi, harakati va x.k.) xatlab oʻtilganida, obyekt boshqa shaklda namoyon boʻlishi mumkin. Meyor obyektning sifat oʻzgarishlari, oʻz navbatida, miqdoriy oʻzgarishlarga olib keladi. Meyor musiqada ritm, garmoniya, meʼmorlikda ansambl va x,.k. asosini tashkil etadi. Jamiyatda meyor kategoriyasi muxim ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

MUALLIF (arab. - yaratuvchi, ijodkor) - muayyan badiiy, ilmiy yoki publi-sistik asar, loyiha, ixtiro sohibi va boshqa ijodkorlar.

Mamlakatimizda mualliflik huquqlarini himoya qilish toʻgʻrisida qator qonunlar qabul qilingan. Muallif Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligi boʻyicha, asar yoki kashfiyot kimning ijodiy mehnati bilan yaratilgan boʻlsa, ana shu fuqaro asar muallifi deb eʼtirof etiladi. Asardan daromad (foyda) olish maqsadida foydalanganligi yoki undan foydalanish bunday maqsadga qaratilmaganligidan qatʼi nazar, asar foydalanilgan deb hisoblanadi. Asarning mazmunini tashkil etuvchi qoidalar (kashfiyotlarni, boshqa texnikaviy, iqtisodiy, tashkiliy va shu kabi yechimlari)ni amaliy qoʻllanish asardan mualliflik huquqi maʼnosida foydalanganlikni anglatmaydi. Muallif yoki huquqqa ega boʻlgan boshqa shaxs

shartnomaga, shu jumladan, ochiq savdoda tuzilgan shartnomaga binoan asardan foydalanish borasidagi barcha huquqlarni o‘zga shaxsga berishi (foydalanish huquqini boshqa shaxsga o‘tkazishi) mumkin. Asardan foydalanish huquqi bir shaxsdan boshqa shaxsga universal huquqiy vorislik tartibida o‘tadi. Huquq egasi boshqa shaxsga asardan muayyan doirada foydalanish uchun ruxsatnoma berishi mumkin. Unday ruxsatnoma asardan uni dastlabki shaklida foydalanish uchun ham, qayta ishlangan shaklida, xususan, tarjima, nusxa ko‘chirish, aranjirovka tarzida va shu kabi usullarda foydalanish uchun ham talab qilinadi. Asardan foydalanishning har bir usuli uchun huquq egasining maxsus ruxsatnomasi talab qilinadi. Mualliflik huquqi ijodiy faoliyat natijasiga nisbatan, uning maqsadi, qadr-qimmati, ifodalanish usulidan kat’i nazar tatbiq etiladi. Asar og‘zaki, yozma shaklda yoki uni idrok etish imkonini beradigan boshqa obyektiv shaklda ifodalangan bo‘lishi lozim. Mualliflik huquqi e’lon qilingan (oshkor qilingan, chop etilgan) asarlarga nisbatan ham, e’lon qilinmagan asarlarga nisbatan ham tatbiq etiladi. Mualliflik huquqiy g‘oyalar, konsepsiyalar, tamoyillar, tizimlar, taklif qilinayotgan yechimlar, obyektiv mavjud kashfiyotlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

MULOQOT JARAYONI - odamlar orasida axborot almashinish, suhbatdoshining ichki dunyosiga kira bilish, o‘zaro faol aloqa va uyg‘unlik, inson insonni idrok etishi kabi holatlarning majmui sifatida ifodalanadigan tushuncha.

Har bir insonda muloqot qilish uchun mustaqil tarzda shakllangan ehtiyoj mavjud bo‘ladi. Bu ehtiyoj o‘z-o‘zini va boshqalarni bilish ehtiyoji bo‘lib, muayyan natijani keltirib chiqaradi.

3 oylikdan boshlab bolalarda muloqotga bo‘lgan ehtiyoj tarkib topa boshlaydi. Shaxslararo muloqotning katta ahamiyati ularning vazifalarini bajarishidadir. Mazkur vazifalar quyidagilardan iborat: 1) Muloqot jarayonida kishilar orasida axborot almashinishi amatga oshadi. M.ning axborot va aloqani ta’minlovchi muayyan vazifasi inson faoliyatining turli shakllari bilan bog‘liqlik darajasi bilan izohlanadi; 2) M. boshqaruvchilik, aloqa o‘rnatuvchilik vazifasini ham bajaradi. M. jarayonida xulq-atvor qoidalari, mayllari, maqsadlar, vositalar tarkib topadi va ularga amal qilish meyorlari o‘zlashtiriladi, xatti-harakatlar

baholanadi, qadriyatlarning o‘znga xos tadrijiy tizimi qaror topadi, insonni ijtimoiylashtirish darajasi vujudga keladi: 3) M. jarayonida inson o‘zining ahamiyatini anglaydi va his ztadi. Shu bois, kutubxona-axborot xizmati jarayonida foydalanuvchilarning M.ga to‘g‘ri yo‘naltirilishi shaxsning shakllanishi yo‘lida muhim manba bo‘ladi.

MULOQOT MADANIYATI – kutubxonachi va foydalanuvchining yuksak darajadagi muloqot meyorlarini o‘zlashtirganligi va ko‘nikmalariga egaligi.

MULOQOT MATNI - matnni qabul qilish va tushunish, matn nima xaqda ekanligi, nima maqsadda yaratilganligi, kommunikativ fikrni ochish maqsadida tilning qanday vositasidan foydalanganligi, o‘ylagan fikrini amalga oshira olganligini bilishdan iborat matn.

MULTIMEDIA (ing. multi + lot. media - o‘rta, markaz; vositalar, tadbir- lar) - axborot uzatishning xilma-xil vositalari (matn, ovoz, jonlantirilgan va grafik tasvir va b.)ni qamrab oluvchi texn. va shunday texn.dan foydalanuvchi dasturlar va kompyuter vositalari.

MUROJAAT QILISH (arab, murojaat - ko‘rib chiqish, taqqoslash, solishti- rish, biror narsani so‘rash, ishni qayta ko‘rish) - biror ish, iltimos, chaqiriq va shu kabilar bilan birovga qarata og‘zaki yoki yozma so‘z aytmoq.

Suhbatdoshga nomi, familiyasi, otasining ismi, lavozimi yoki kasbiy bel- gisini tilga olib, yuzlanishda namoyon bo‘ladi. Murojaat: 1) samimiylikning odatdagi ifodasi va suhbatdoshga bildirilgan hurmat; 2) muayyan xabar kimga atalganligi, mazkur murojaat kimga yo‘naltirilganligini ko‘rsatish; 3) muayyan kishiga oshkora e’tibor, murojaat etuvchining shaxsga ish yuzasidan yoki boshqa maqsadda subyekt sifatida qiziqqanligi; 4) suhbatdoshda ijobiy hissiyot va undan qanoatlanish tuyg‘usini uyg‘otish; 5) o‘zaro hurmat hissini ifodalaydi. Shunga ko‘ra, murojaat nutq odobi, samimiylik burchiga amal qilishgina emas, balki muloqotni boshqarishning psixologik yo‘sini hamdir. Ismi, otasining ismini aytib qilingan murojaat (D. Karnegi ta’kidlashicha, o‘z ismini eshitish inson qulog‘i uchun eng yoqimli musiqani tinglash bilan barobardir) ishga aloqador ishonchli muhitni vujudga keltiradi.

MUSTAQIL BILIM OLISH - rasmiy o‘quv dargohlaridan tashqari, o‘z ixtiyori, tashabbusi va qiziqishlari asosida bilim olishga yo‘naltirilgan faoliyat. Mazmun-mohiyati bilan sirtqi ta’limga yaqin keladi. Mustaqil bilim olish har qanday shaxs rivojlanishidagi asosiy shartlardan biri hisoblanadi. U odamda mavjud bo‘lgan irsiy, biologik aqliy va xissiy imkoniyatlarni kengaytirish va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Mustaqil bilim olish ta’lim tizimida barkamol shaxsni shakllantirish faoliyatining ajralmas qismi sanalib, ta’lim-tarbiya jarayonida olingan bilimlarni chuqurlashtirish, kengaytirish va yanada puxtaroq o‘zlashtirishga yordam beradi. Mustaqil bilim olishning asosiy usuli ilmiy, ilmiy-ommabop, siyosiy, o‘quv, badiiy va badiiy adabiyotlarni mustaqil ravishda o‘qib o‘rganishdir. Mustaqil o‘qish, ilm olish, shu bilan birga, san’at va badiiy adabiyot bilan tanishish shaxs taraqqiyotini ta’minlovchi omillar majmui sifatida kishining o‘z-o‘zini tarbiyalashida muhim o‘rin tutadi. Gazeta-jurnallar bilan tanishib borish, internet tarmog‘idan samarali foydalanish, radio va televideniyedagi axborotlardan xabardorlik maxsus tashkil etilgan ma’ruzalarga qatnash, kutubxona, muzey, ko‘rgazma, kino, teatrlarga borish, bilimdon kishilar, muayyan soha mutaxassislari va amaliyotchilar bilan muloqotlar Mustaqil bilim olishning manbalari hisoblanadi

Mustaqil bilim olish ko‘nikmasining shakllanishida kutubxona katta o‘rin tutadi. Maktabda bolalarga beriladigan barcha topshiriqlar keyinchalik bolalarni mustaqil bilim olishga yunaltirishga qaratilmog‘i lozim. Chunki maktab ta’limi inson hayotining muayyan davrini qamrab oladi. Mustaqil bilim olish esa uzluksiz davom etadigan jarayondir. Mustaqil bilim olish ko‘nikmasining paydo bo‘lishi va malakaga aylanishi, birinchi navbatda, o‘quvchining mustaqil ishlarni bajarishi bilan bog‘liq. Darsda o‘qituvchi bolalarga har xil yo‘naltiruvchi topshiriqlar beradi. O‘quvchilarni mustaqil bilim olishga yo‘naltirishda darsda va darsdan tashqari vaqtlarda qilinadigan ma’ruzalar, axborotlar, har xil mavzudagi referatlar katta ahamiyat kasb etadi. Turli sayohatlar, laboratoriya va tajriba ishlari jarayonida o‘quvchilarda kuzatish, taqqoslash va umumlashtirish ko‘nikmasi shakllanadi. Mustaqil bilim olishga yo‘llashda ota-ona, o‘qituvchi va kutubxonachilarning hamkorlikda bolalarni kitob o‘qishga yo‘naltira olishlari katta

ahamiyatga ega. Maktablarda kutubxona darslari tashkil etilib, kataloglar, kitoblar, ma’lumotnomalar va yordamchi adabiyotlardan foydalanish yo‘llari o‘rgatilishi kerak. O‘quvchilarning Mustaqil bilim olish malakasini rivojlantirishda sinf va maktabdan tashqari ishlar, to‘garak va uyushmalardagi mashg‘ulotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabda shakllangan Mustaqil bilim olish ko‘nikmasi AL, kasb-hunar kollejlari va OO‘Yuda rivojlantiriladi, chuqurlashtiriladi. Seminar darslar, qiziqishlar bo‘yicha to‘garaklar, studiyalar, talabalarning ilmiy-amaliy konferen-siyalari bunga ko‘maklashadi.

MA’NAVIYAT (arabcha - ma’nolar majmui) — kishilarning falsafiy huquqiy, ilmiy, badiiy, axlokiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmui.

Ma’naviyat insonning butun umri davomida uning kuchiga kuch qo‘shishga aql, idrok va zakovatini kengaytirib, mustahkamlashga xizmat qiladi. Ma’naviyat va ma’naviy boyliklar, qadriyatlar, davlat, millat, shaxsning bebaho xazinasi va taraqqiyot manbaidir.

Har bir millatning o‘z ma’naviyatini chuqur anglashi, ongining tarkibiy qismiga aylantirishi millatning kelajakka bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi, e’tiqod va qadr hissini boyitadi. Shuning uchun ham istibdod davrida hukmron mafkura doirasida milliy ma’naviyatga e’tibor berilmadi, to‘g‘rirog‘i, u har jihatdan kamsitildi. Oqibatda, o‘zbek xalki o‘z ma’naviy merosining ko‘pgina qatlamlarini o‘rganishdan mahrum bo‘ldi.

Mustaqillik tufayli o‘zbek xalqining ko‘p asrlik boy tarixiy, ilmiy, madaniy va diniy merosini o‘rganish, undan xalqning umumiy va bebaho mulki sifatida foydalanishga keng yo‘l ochildi. Ma’naviyatimizning qadimiyligini, mazmunan chuqurligi va rang-barangligi, bugungi kundagi salohiyati cheksiz ekanini to‘la ravishda ko‘rsatmoq uchun «Avesto»dan boshlab, Forobiy, Navoiy, Bobur, Furqat, Behbudiy, Fitrat, CHo‘lpon va Avloniy orqali to hozirgi kungacha bo‘lgan yaxlit manzarasi yaratilmoqda.

Mustaqillik ayni paytda ma’naviyatning ajralmas qismi bo‘lgan milliy til va madaniyatni taraqqiy ettirish, milliy o‘z-o‘zini anglash, milliy his-tuyg‘ular,

g‘ururni, vatanparvarlikni o‘stirish va mustahkamlashga ham yo‘l ochganini ta’-kidlash zarur. Mustaqil O‘zbekistonning taraqqiyoti jamiyat a’zolarining, har bir shaxs va ayniqsa, yoshlarning ma’naviy kamoloti, istiqlol g‘oyalarining kishilar ongiga, kundalik hayotiga chuqurroq singishiga bog‘liqdir.

Kelajagi buyuk O‘zbekistonni barpo etishda faol qatnashayotgan har bir fuqaro o‘z mamlakati, xalqi, millatining ajralmas bo‘lagi ekanini anglashi - milliy ma’naviyat va ongning tarkibiy qismidir.

Ilg‘or millat va rivojlangan davlat bo‘lishning zaruriy shartlaridan biri - boy ma’naviyatga ega bo‘lishdir. Shunday ekan, ma’naviyat va ma’rifatni ko‘tarish, targ‘ib qilish, boyitish, har bir fuqaroning yuksak ma’naviy darajasini ta’min etish eng dolzarb masalalardan biridir.

MADANIY-MA’RIFIY MUASSASALAR — 1**)** teatrlar, muzeylar**,** kinoteatrlar, kutubxonalar, klublar, madaniyat uylari va saroylari kabi tashkilotlarni kamrab oluvchi tizim; 2) milliy istiqlol g‘oyasini odamlar qalbi va ongiga singdirishning muhim vositasi. Madaniy-ma’rifiy muassasalar faoliyatidan keng foydalanish, kishilar dunyoqarashini yuksaltirish, odamlarga ruhiy, ma’naviy oziq beradigan tadbirlar majmuini ishlab chiqish va amalga oshirish bu sohada faoliyat ko‘rsatayotgan tashkilot, muassasa va xodimlarning dolzarb vazifasidir.

Ayni paytda, madaniy-ma’rifiy muassasalarda o‘tkaziladigan anjumanlar, kundan-kunga ommaviylashib borayotgan davra suhbatlari, bahs-munozaralar, yurtimizning mashhur kishilari - yozuvchi, shoir, olimlari bilan uchrashuvlar milliy mafkuramizning mazmun-mohiyatini jamiyatimiz har bir a’zosiga tushunarli tarzda asoslab berishda katta ahamiyatga molikdir.

Madaniy-ma’rifiy maskanlarning aholi, avvalo yoshlarimizni hayotga muhabbat ruhida tarbiyalashdagi o‘rni nihoyatda beqiyos. Ayniqsa, hozirgi bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida madaniyat va san’at muassasalariga e’tibor kuchaymoqda. Bu muassasalar faoliyatini yanada kuchaytirish, g‘oyaviy- badiiy sayoz, qadriyatlarimizga yot bulgan asarlarni olib chiqmaslik ham juda zarur ish hisoblanadi.

MADANIYAT (*arab.* — madinalik, shaharlik, ta’lim-tarbiya ko‘rgan) — tabiat va o‘zaro munosabatlarda aks etadigan inson faoliyatining o‘ziga xos usuli. Madaniyat alohida individning hayot faoliyati (shaxsiy madaniyat), ijtimoiy guruhning yoki jamiyatning hayot faoliyati usulini aks ettiradi. Dastlab madaniyat tushunchasi insonning tabiatga maqsadga muvofiq ta’siri (yerni ishlash va h.k), hamda insonning o‘zini tarbiyalash va o‘qitish ma’nolarini ifodalagan. Keyinchalik madaniyat tushunchasi orqali sivilizasiya bilan bog‘liq mazmun tushunila boshlandi. Uyg‘onish davrida madaniyat yetukligi deganda insonning gumanistik g‘oyalari, keyinroq, ma’rifatchilik g‘oyalariga muvofiqlikni tushuna boshladilar. Jamiyatdan tashqarida madaniyat mavjud emas. Ijtimoiy munosabatlardagi har qanday o‘zgarish madaniyatga ta’sir etadi va madaniyat bu munosabatlarning qanday natijalarga olib kelishidan xabar beradi. Shu boisdan madaniyat nafaqat o‘tmishga yoki bugunga, shu bilan birga kelajakka munosabatdir. Madaniyat inson faoliyatining ham mahsuli, ham sifat ko‘rsatkichi. Insoniyat o‘zi ham pirovard natijada madaniyat mahsulidir. Madaniy muhit qanday bo‘lsa, inson ham shunday shakllanadi. Madaniyatning ijodkori, eng avvalo, xalq. Xalq madaniyatida avlodlar yarattan moddiy va ma’naviy boyliklar jamlangan. Ularni o‘zlashtirmay, bilmay turib, madaniyatli kishi bo‘lib yetishish qiyin. Xuddi shuningek, madaniyat rivojida professional ijodkorlar va san’atkorlar ham katta o‘rin tutadilar. Ular tufayli madaniyatda yangi oqimlar, ijod turlari, badiiy estetik qarashlar yuzaga keladi. Madaniyat o‘z mohiyatiga ko‘ra, moddiy va ma’naviyga bo‘linadi.

MAFKURAVIY TARBIYA — inson, ijtimoiy guruh, millat, jamiyat dunyoqarashini shakllantirishga, ularni muayyan maqsadlarni ifoda etadigan g‘oyaviy bilimlar bilan qurollantirishga yo‘naltirilgan jarayon. Jamiyatdagi har bir ijtimoiy kuch yoki aholi qatlamlari o‘z manfaat va maqsad- intilishlarini ifoda etuvchi g‘oyalar tizimini yaratgach, boshqa guruxlarni ham shu g‘oyalar ta’siriga tortishga, o‘z tarafdorlari safini kengaytirishga harakat qiladi. G‘oyalar adolatli va haqqoniy bo‘lib, ko‘pchilikning talab-ehtiyojlariga mos kelsa, bu sohadagi tarbiya vositalari ta’sirchan, tarbiyachilar esa faol va fidoyi bo‘lsa, ko‘zlangan maqsadga

erishiladi. Jamiyat, xalq, hali o‘z manfaatlarini anglab yetmagan, o‘z mafkurasini shakllantirib, maqsadlari sari safarbar bo‘lmagan hollarda begona va zararli g‘oyalar ta’siriga tushish ehtimoli ortib boradi. Bu esa g‘oyaviy tarbiyani yo‘lga qo‘yish, sog‘lom mafkura tamoyillarini aholi qalbi va ongiga muttasil singdirishni dolzarb vazifaga aylantiradi. O‘zbekiston sharoitida mafkuraviy tarbiyaning asosiy vazifasi — xalqimizning ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo‘lidagi asriy orzu-istaklari, maqsadlarini, milliy istiqlol mafkurasining mohiyatini keng jamoatchilikka tushuntirish, va ayniqsa, yoshlar ongiga singdirishdan iboratdir. Mafkuraviy tarbiya jamiyatda, avvalambor, oila, maktabgacha yoshdagi bolalar muassasalari, maktablar, lisey, kollejlar, oliy o‘quv yurtlari, kutubxonalar ommaviy axborot vositalari, jamoat tashkilotlarining birgalikdagi faoliyatini taqazo qiladi. Uzluksiz ta’lim tizimi mafkuraviy tarbiyani olib boruvchi asosiy bo‘g‘indir, zero mafkuraviy maqsadlarni kishilar, ayniqsa, yoshlar ongiga singdirish vazifasi, asosan, ta’lim tizimi orqali amalga oshiriladi.

MAFKURAVIY TASAVVUR — mafkuraviy ta’sirning inson ongidagi in’ikosi. Bunday in’ikos turli shakllarda o‘z ifodasini topadi va inson xotirasida uzoq, vaqt saqlanib qoladi. Ushbu mafkuraviy obrazlar insonning kundalik amaliy faoliyatida o‘z ifodasini topadi. Mafkuraviy tasavvur ijtimoiy ongning muhim elementi bo‘lib, mafkuraviy faoliyatning ma’nosi va mazmunini ijtimoiy voqealikning xayoliy obrazi bilan bog‘laydi. Ayni paytda mafkuraviy faoliyat, xayoliy obrazlar bilan yaqindan ish ko‘rish, o‘zaro aloqadorlik mexanizmini yaratish imkonini beradi. Mafkuraviy tasavvur ijtimoiy muhitning ta’siri ostida odamlar ko‘rsatgan turli-tuman faoliyat tufayli hosil bo‘ladi. Bunday holat jamiyatda hamisha ma’lum bir maqsad tomon yo‘naltirilgan mafkuraviy sistema mavjud ekanligidan dalolat beradi. O‘z navbatida, xuddi shu holat mafkuraviy tasavvur jamiyatda mavjud bo‘lgan mafkuraviy sistema: mafkuraviy institutlar, mafkuraviy muassasalar mahsuli ekanligini inkor etmaydi. Mafkuraviy tasavvur hosil bo‘lishida jamiyatda mavjud bo‘lgan turli sinflar, tabaqalar, guruhlarning ijtimoiy tajribasi ham katta ahamiyatga ega. Ayni paytda mafkuraviy tarbiya

boshqa mafkuraviy muassasalarning zararli targʻibot va tashviqotlaridan himoya qiluvchi «bufer» vazifasini ham bajaradi.

MAFKURAVIY TAXDID — ijtimoiy-siyosiy harakat, oqim yoki siyosiy kuch oʻz manfaatini ifodalovchi mafkurasini qoʻrqituv, zoʻrlik yoʻli bilan boshqalarga tiqishtirish. Mafkuraviy tahdid jamiyat, davlat yoki xalq, millat yoki elat taqdiriga xavf solib turgan, fojeali oqibatlarga olib kelishi mumkin boʻlgan mafkuraviy xavf-xatarlar majmuasi. Oʻzbekistonda insonparvar, demokratik jamiyat qurilayotgan hoz. sharoitda fuqarolar ongi va faoliyatiga siyosiy ekstremizm, diniy va fundamentalizm, etnik va millatlararo ziddiyatlar, korrupsiya va jinoyatchilik, mahalliychilik va urugʻ-aymoqchilik, ekologik muammolar mafkuraviy tahdid shaklida namoyon boʻlayotir. Ayniqsa, oʻrta asr xalifaligini qayta oʻrnatish gʻoyasi xamda xalqaro terrorchilik va diniy ekstremizm markazlari orqali moddiy-gʻoyaviy taʼminlanayotgan aqidaparastlar mafkurasi bugun mintaqamizdagi tinchlik va barqarorlik uchun katta xavf boʻlib turibdi (Qarang: Milliy istiqlol gʻoyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar —Toshkent, 2000. 26-bet).

MOTIV *(lot.* moteo — harakatlantiraman, fransuz. motiv — undovchi sabab) shaxsni aqliy, amaliy harakatga va xulq-atvorni amalga oshirishga undovchi, muayyan ehtiyojlarni qondirish bilan uzviy bogʻliq mayl yoki sababiyat. Motivlarning asosiy funksiyasi insonni harakatga undovchi sabablar, ichki turtkilar vazifasidan iborat. Odamni faoliyatga undovchi asosiy sabab uning ehtiyojlaridir. Binobarin, hatti-harakatga va faoliyatga undovchi shaxsning anglashilgan xususiyati hisoblanuvchi, ehtiyojni aks ettirishning yuksak shakli sifatida paydo boʻluvchi ichki turtki motiv. Hatti-harakat va faoliyat motivlarining majmuasi motivasiya deyiladi. Motivlar ehtiyoj negizida vujudga keladi, rivojlanadi va shakllanadi. Motiv mazkur negizda oʻsib, barqarorlashib borib, ehtiyojning mustahkamlanishiga yordam beradi. Ehtiyojlarning barqarorlashuvi motivasiyaning samarali shakllanishini taʼminlashga xizmat qiladi. Odatda inson faoliyati va harakatiga taʼsir oʻtkazuvchi jarayonda oʻzaro bogʻliq ravishda ehtiyoj tomonidan motiv va maqsad aniqlanadi. Harakat faoliyatning tarkibi boʻlganligi tufayli faoliyatning maqsadi va motivi orqali boshqariladi. Lekin «motiv-faoliyat»,

«maqsad-harakat», «sharoit-operasiya» holatlari oʻrtasida qatiy aloqa hukm surmaydi. Ba’zan motiv tushunchasini «ustanovka», «emosiya», «maqsad» kabi atamalar bilan almashtirish hollari uchrab turadi. Goho motiv turtki, qoʻzgʻovchi, undovchi singari istilohlar bilan aynanlashtiriladi. Motivlar ehtiyojning ifodachisi, harakat va faoliyatning boshqaruvchisi boʻlganligi sababli ularni shaxsning dinamik xususiyati tarkibiga kiritish mumkin. Xuddi shu boisdan motivlar shaxsning yoʻnalganligi, maqsadga intilganligi bilan uzviy aloqadadirlar. Yoʻnalganlik motivga nisbatan kengroq, koʻlamga ega boʻlgan tushuncha hisoblanali va oʻz navbatida motivning shakllanishiga yordam beradi.

NUTQ — inson tomonidan ijtimoiy-tarixiy tajribani oʻzlashtirish, avlodlarga uzatish yoki kommunikasiya oʻrnatish, oʻz shaxsiy harakatlarini rejalashtirish va amalga oshirish maqsadida tildan foydalanish jarayoni. Nutq — axborot, xabar, ma’lumot va yangi bilim berish, aqliy topshiriqlarni yechish faoliyatidan iborat. Agarda til aloqa vositasi boʻlsa, nutq esa aynan oʻsha aloqa jarayonlarini amalga oshirishdir. Nutq rivojlanishi davrlari: 1) 2 oydan 11 oygacha; 2) 11 oydan 19 oygacha; 3) 19 oydan 3 yoshgacha. Nutq rivojlanishining xususiyatlari: gʻudurlanish, paradigmatik fonetika, nutqning vaziyatbopligi, nutq egosentrizmi. Nutqni vujudga keltiruvchi apparat sxemasi: a) Nutqning anatomik tasviri; b) Nutqning funksional elementlari; v) Nutqning ekvivalent blok sxemasi va b. Nutq verbal va noverbal turkumdan iborat. Noverbal nutq turli imo-ishora, mimika, pantomimika, exologik, signifikasiya, daktilogik (barmoq nutqi) koʻrinishlarga ega. Verbal nutq ogʻzaki, yozma, monologik, dialogik, polilogik, tashqi, ichki, ekspressiv, impressiv, lakonik (yigʻiq), epik (yoyiq), affektiv turlarga boʻlinadi. Tilning (orfografik, fonetik, morfologik, sintaksistik, orfoepik, lingvistik, fleksiv va b.) qonuniyatlariga asoslantan holda mazmun va mohiyatni uzluksiz, tadrijiy ravishda axborotlarga aylantiruvchi nutq turi yozma nutq deyiladi. Pauza, mantiqiy urgʻu, temp, tembr, chastota, ritmika va b. tashkiliy qismlar hamda mexanizmlarni oʻzida mujassamlashtirgan, tilning barcha qoidalari, qonunlari, shartli belgilar sifatida xizmat qilishga asoslanuvchi nutq turi ogʻzaki nutq deb ataladi. Ogʻzaki nutq oʻzining jarangdorligi, ta’sirchanligi, axborotlarni qabul qilishdagi qulayligi,

uzatilishdagi ixchamligi, toliqishning oldini olish imkoniyati mavjudligi kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Millat madaniyati, ma’naviyati, fan va texnikasi yutuqlari san’ati va adabiy merosini avlodlarga yetkazib berishda, millatlararo aloqa o‘rnatishda yozma nutqning ahamiyati cheksizdir.

NUTQ MADANIYATI – nutqning adabiy til meyoru mezonlarga asoslangan, muayyan bir holda mantiq ilmi talablariga bo‘ysungan holda namoyon bo‘lishidir. Nutq tafakkur va fikrlashda o‘zaro muloqot yordamida fikr almashish vositasining har bir kishi (shaxs)ga xos shakli, ko‘rinishidir. Nutq madaniyatining asosiy xususiyati nutqni ilmiy, sermazmun, aniq-ravshan, ravon, to‘g‘ri, ta’sirli, badiiy, mantiqiy, jarangdor, jozibali bayon etishdan iborat. Buning uchun nutq, avvalo, adabiy til qonun-qoidalariga to‘lik javob berishi lozim. Nutq madaniyati yakka shaxslar, chunonchi ma’ruzachi, pedagog, suxandon, davlat va jamoat arbobi, jurnalist, muxbir v.h.lar nutqlari orqali namoyon bo‘ladigan ijtimoiy hodisadir. Insonning intellektual saviyasi, millatning mentaliteti (q), ma’naviy boyligi qanchalik ortib borsa, nutq madaniyati ham shularga munosib ravishda yuksalib boradi. Nutq madaniyati nutq, so‘zlash, ma’ruza qilish, o‘zaro muloqotlar, savol-javob, davra suhbatlarida o‘zbek adabiy tilining boyliklaridan samarali foydalanish; g‘oyaviy, mafkuraviy, ma’naviy, tarbiyaviy jihatlarni singdirish, xalq og‘zaki ijodi, hikmatli so‘zlar, maqollar, kattalar o‘gitlarini o‘z o‘rnida, meyorida foydalanish; nutq qisqa, aniq-ravshan, teran, mazmunli, keng qamrovli bo‘lishiga, nutq, ma’ruza, suhbat oxirida qisqa xulosalar chiqarish; zaruriyat tug‘ilganda tinglovchilar, suhbatdoshlar bilan odob doirasida, vazminlik asosida baxslashish, munozara qilish kabi xususiyatlarni o‘zida mujassam etmog‘i lozim. Nutq madaniyati notiqning oldiga ham muayyan talablar qo‘yadi: notiq, nutq so‘zlashga o‘z yoshi, ishi, lavozimi, mavqei kabilarni hisobga olgan xolda, kamtarona kiyinib chiqishi, nutqni boshlashdan oldin tinglovchilar bilan samimiy salomlashishi; nutq mavzusiga oid lo‘nda, aniq-ravshan, qisqa javoblar berishi; bilmaganlariga uzr so‘rashi; nutq mavzuiga doir bo‘lmagan savollarga javob bermaslik; tinglovchilarning nafsoniyatiga tegmaslik, har xil noo‘rin hatti-

harakatlarga aslo yo‘l qo‘ymasligi lozim. Nutq madaniyati notiqni ulug‘laydi, qadr-qimmatini oshiradi, ijtimoiy mavqeini yuksaltiradi.

RESURS *(frans.* Ressouces — zarurat tug‘ilganda foydalanish mumkin bo‘lgan boylik, imkoniyat) inson turmush sharoitini yanada yaxshilash uchun narsalarning mavjud zahirasi. Resurslar shu paytgacha iqtisodiy va tabiiy farqlarga bo‘lib kelingan. Keyingi fan-texnika, ayniqsa, kompyuterlashgan turmush tarzi taraqqiyotining yuzaga kelishi intellektual va jismoniy resurslarning ham mavjudligini e’tirof etishni taqozo etadi. Intellektual va jismoniy resurslarning mavjudligi, ularning sifati va miqdoriy jihatdan salohiyatining yuqorililik darajasi, insoniylik fazilatlari nuqtai nazaridan barkamollik xususiyatlarining oshib borishi bilan, tabiiy va iqtisod resurslarning ko‘lami, o‘lchamini aniqlash hamda ulardan oqilona foydalanish meyorini to‘g‘ri belgilay olish imkoniyatlarini oshiradi.

TASNIF (arab, saralash, tartibga solish) — tushunchaning mantiqiy hajmini bir necha bosqichlarga bo‘lish yoki yagona birlikka bo‘ysunuvchi tushunchalar majmuasi. Ilmiy tasnif obyektning tizimdagi o‘rnini aniqlash maqsadida obyekt sinflari o‘rtasidagi qonuniy aloqalarni qayd etadi. Qat’iy amalga oshirilgan tasnif bilimning ilgarigi taraqqiyotiga yakun yasaydi, ayni vaqtda uning taraqiyotida yangi taraqqiyot bosqichini belgilaydi. Tasnif fanning empirik faktlar to‘plashdan nazariy sintez tomon rivojlanishiga yordam beradi. Ilmiy asoslangan tasnif fanning rivojlanish darajasini keng aks ettirish barobarida faktlar va qonuniyatlarga asoslangan holda ilmiy bashorat qilishga ham imkoniyat yaratadi. Asoslarning ko‘lamiga qarab tabiiy va sun’iy tasnifni ajratish mumkin. Agar asos sifatida muhim xususiyatlar olinsa, bunday tasnif tabiiy, aksincha bo‘lsa, bu sun’iy tasnif bo‘ladi (mas., alfavit-predmet ko‘rsatkichi, kutubxonadagi kataloglar). Tasnif nazyasiga qad. yunon faylasufi Aristotel, ilk uyg‘onish davri Sharq mutafakkirlari — *Al- Kindiy, Abu Nasr Forobiy, IBN Sino, Abu Rayxon Beruniylar* salmoqli hissa qo‘shdilar. Ayniqsa, buyuk mutafakkir Abu Abdullox Xorazmiyning «Mafotih al-ulum» («Ilmlar kaliti») asari tasnif tushunchasining rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

O‘QISH PSIXOLOGIYASI – O‘qish ko‘nikmalari shakllantirish masalalari, adabiyotni tushunish va o‘zlashtirish strukturasini o‘qish paytda kishining holati va

undagi ruhiy jarayonlarning xususiyatlarini, bularning bosma nashrning koʻrinib turgan sifati va shaxsning oʻqish psixologiyasi xususiyatlariga bogʻliqligini oʻrganuvchi ilmiy soha.

OʻQISHGA RAHBARLIK QILISH – Oʻqish mazmuni va harakteriga, adabiyotni tanlashga va kutubxona faoliyatining turli usullari yordamida oʻqilgan materialni oʻzlashtirishga aniq maqsadni koʻzlagan holda pedagogik taʼsir oʻtkazish.

OʻQISH TEZLIGI – Oʻqish samaradorligining taʼrifi, odatda bir minutda oʻqib ulguriladigan soʻzlar soni bilan oʻlchanadi. Oʻqish malakasi oʻqishdan koʻzlangan maqsad va matnning subyektiv qiyinligiga bogʻliq boʻladi. Jahon andozalariga koʻra oʻqish tezligi bir daqiqa 260 soʻz atrofida boʻlishi mumkin.

QADRIYATLAR — narsa va voqealar, jamiyat, moddiy va maʼnaviy boyliklarning ahamiyatini ifodalash uchun qoʻllaniladigan tushuncha. Qadriyatlarni Gʻarbda «Aksiologiya» fani oʻrganadi. Bu atama ilmiy bilimlar sohasiga oʻtgan asrning ikkinchi yarmida nemis aksiologi E.Gartman va fransuz olimi P.Lapi tomonidan kiritilgan. Aksiologiyani qadriyatlar toʻgʻrisidagi fan yoki toʻgʻridan-toʻgʻri «qadriyatshunoslik» deb atash ham mumkin. Har bir fanga oʻz nomini bergan asosiy tushunchalar boʻlgani kabi «qadriyat» tushunchasi ham «Qadriyatshunoslik» atamasi uchun shunday asos boʻla oladi. Gʻarbda bu atama grekcha «axio» (qadriyat) va «logos» (fan, taʼlimot) tushunchalaridan tashkil topgan.

Qadriyatlar axloqiy qoida va meyorlar, ideallar va maqsadlardagi baholash mezoni va usullarini ham oʻzida aks ettiradi. Ular halollik, poklik, oʻzaro yordam, adolatli lik, haqiqatgoʻylik, ezgulik, tinchlik, shaxs erkinligi, mehr-muhabbat, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi fazilatlar, burch, vijdon, or-nomus, masʼuliyat kabi tushunchalar shaklida namoyon buladi. Qadriyat oʻz tabiatiga koʻra, ijtimoiy-tarixiy xarakterga ega. Ijtimoiy taraqqiyot jarayonida u oʻzgaradi va takomillashadi. Shuning uchun qadriyat toʻgʻrisidagi taʼlimotlar ham takomillashib, rivojlanib boradi.

Qadriyatlarning xilma-xil shakllari bor: moddiy va ma’naviy, milliy, mintaqaviy, umumbashariy, jamiyat hayotining sohalari bo‘yicha iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ijtimoiy ong shakllariga mos keladigan ahloqiy, diniy, huquqiy va boshqalar.

Qadriyatlar bilishning maqsadi, ularning haqiqatga mos kelish darajasini aniqlash mezoni tarzida ham namoyon bo‘lishi mumkin.

Inson jamiyatning eng oliy qadriyati hisoblanadi. Uning mavjudligi, hayoti, yashash tarzi, umrining mazmuni nihoyatda muhim. Inson aql-zakovati, mehnati bilan paydo bo‘lgan odat, udum, ilmiy yoki badiiy asar, kashfiyot yoki buyum vaqt o‘tsa ham o‘zining qadr-qimmati bilan ijtimoiy ahamiyat kasb etib, qadriyatning ajralmas bir qismiga aylanadi. Ular qadrlanadigan narsa yoki obyekt sifatida o‘z ahamiyatini saqlab qoladi. Masalan, Eyfel minorasi yoki Ulug‘bek davrida ishlatilgan usturlob (sekstant) bugun bevosita o‘z vazifasini bajarmaydi, ammo tarixiy yodgorlik sifatida o‘z ahamiyati va qadrini saqlab qolaveradi.

Hozirgi zamonda ilg‘or davlatlar hayotining demokratik tamoyillari ham inson qadrini nechog‘li yuksaklikka ko‘tarishi bilan baholanadi. Mamlakatimizdagi tub o‘zgarishlar, islohotlarning mohiyati ham ana shu tamoyildan kelib chiqadi. Bu tamoyilni amalga oshirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligiga asoslangan yangicha dunyoqarash, sog‘lom tafakkurning shakllanishi katta ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng qadriyatlarga e’tibor kuchaydi. Mamlakatimizda umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi e’tirof etildi, milliy qadriyatlar hamda shaxs manfaatlarini umumbashariy talablarga moslashtirish va uyg‘unlashtirish asosiy vazifaga aylandi.

EHTIYOJ — inson talablari asosida paydo bo‘ladigan tabiiy xususiyat; jonli mavjudot hayot kechirishining yaqqol shart-sharoitlarga, uning shularga bog‘liq ekanligini ifoda etuvchi holat. Insonning faolligi boshqa mavjudotlardan tub darajada ham mohiyat, xam shakl jihatdan tafovutga ega bo‘lib, yuzaga kelgan ehtiyojlarning turli vaziyatlarda qondirilishda o‘z ifodasini topadi. Mavjudotlar (hayvonlar) ehtiyojlari maqsadga muvofiq ravishda kechgan bo‘lsa, bu esa o‘z

navbatida ularni qurshab olgan yashash muhitiga yengillik bilan moslashuvini ta’minlaydi. Lekin, insonlarning faolligi va bu faollik manbai hisoblanmish insoniy ehtiyojlar tubdan boshqacha manzaraga ega bo‘lib, biologik shartlanganlikdan tashqari, moddiy va ma’naviy ko‘rinishlardan iboratdir. Inson bir davrning o‘zida ham individuallik, ham ijtimoiylikni aks ettirgan bo‘lganligi sababli uning ehtiyojlari shaxsiy va ijtimoiy xususiyatga egadir. Odatda, kelib chiqish xususiyatlariga binoan ehtiyojlar tabiiy va madaniy turga ajratilali. Tabiiy ehtiyojlar tarkibiga odamlarning ovqatlanishi, tashnalikni qondirish, jinsiy moyillik, uxlash, o‘zini issiq va sovuqdan asrash, musaffo havoga intilish, tana a’zolariga dam berish kabilar kiradi. Madaniy ehtiyojlar obyektiga tabiiy ehtiyojlarni qondiruvchi uy-ro‘zg‘or buyumlari, mehnat faoliyati orqali b. kishilar bilan bog‘lanish vositalari, madaniy aloqalar o‘rnatish usullari, shaxslararo muomalaga kirishish uslublari, ijtimoiy turmush zaruratiga aylangan narsalar, o‘qish va tajriba orttirish yo‘llari kiradi. Ehtiyojlar o‘z xususiyatiga ko‘ra, moddiy va ma’naviy turlarga ajratiladi, ularni keltirib chiqaruvchi mexanizmlar manbai turlicha ekanligi e’tirof etiladi.

E’TIQOD (arabcha-ishonmoq, imon, amin bo‘lmoq,) — inson faoliyati uchun ma’naviy asos, yo‘l-yo‘riq, va mo‘ljal bo‘lib xizmat qiluvchi, aql, his va iroda vositasida anglangan bilimlar, g‘oya va tasavvurlar ifodasi bo‘lgan tushuncha.

E’tiqod insonning voyaga yetishi jarayonida shakllanadi. Bilimlarning o‘zlashtirilishi va to‘planib borishi o‘z-o‘zidan kishining ijodiy, aniq maqsadni ko‘zlovchi faoliyatiga olib kelavermaydi. Inson biror ishni boshlashdan avval aniq maqsadni belgilab oladi. Bu esa ehtiyojlar, manfaatlar va tajriba bilan bog‘liq holda kechib, o‘zlashtirilgan bilimlarning amalda qo‘llanish imkoniyatlari ham baholanadi. Shu tarzda insonning to‘plangan bilimlari, ehtiyoji va manfaatlari, hayotiy tajribasi asosida harakat qilish zaruriyatini anglashi jarayonida muayyan e’tiqod shakllanadi. U inson faoliyatining izchil, mazmunli, mantiqiy, maqsadli bo‘lishiga olib keladi.

Ijtimoiy jihatdan e’tiqod insonning faoliyatga bo‘lgan munosabatini (aloqadorlik holatini) ham ifodalaydi. Bilim va g‘oyalar insonning ham aqli, ham qalbi bilan o‘zlashtirib olinganidagina e’tiqodga aylanadi. Inson ma’naviyatining shakllanishi davomida barcha bilimlar ham to‘lik qabul qilinavermaydi, o‘zlashtirilavermaydi, balki har bir shaxs o‘ziga xos qarashlar, g‘oyalar, his-tuyg‘ularga ega bo‘ladi. U yangi bilimlarni qayta baholaydi, ularni takror va takror tanqidiy o‘zlashtiradi va anglaydi. Bu jarayonda kishilarning manfaatdorligi darajasi, ularning ehtiyoj va qiziqishlari ham muhim rol o‘ynaydi.

Dunyoni anglash jihatdan e’tiqod ongning zarur elementi hamda inson faoliyatining muhim xolati hamdir. U kishilarning turli hodisa va jarayonlarga, g‘oya va maqsadlarga, hissiyot va tuyg‘ularga bo‘lgan qat’iy ishonchiga tayanadi. Har bir inson o‘z e’tiqodiga ega bo‘la oladi. Bunda uning bilim darajasi, turmush tarzi va yashash sharoiti, dunyoqarashi va ijtimoiy mavqeining ham ulkan ta’siri bor.

Hayot hodisalariga ikkilanib munosabatda bo‘lish, jur’atsizlik, e’tiborsizlik va befarqlik kishi e’tiqodining bo‘shligi yoki hatto e’tiqodsizligidan dalolat beradi. Bunday kishilar ko‘pincha boshqalarga ergashib yoki taqlid qilib yashaydilar. Ularda aniq qadriyat mezonlari va maqsad bo‘lmaydi. Sharoitga karab goh u, goh bu tomonga og‘adilar. Ularning faoliyatida mantiq va izchillik yetishmaydi. E’tiqodiy bo‘shliq illati taraqqiyot yo‘liga G‘OV bo‘lishi mukarrar. Shuning uchun, kishilarda ijtimoiy qadriyatlarga, buyuk kelajakka, taraqkiyotga bo‘lgan ishonchni, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishga bo‘lgan e’tiqodni shakllantirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Agar e’tiqod ekstremistik, irqiy, shovinistik, tor siyosiy va iqtisodiy manfaatlar bilan cheklangan bo‘lsa, bunday holda, u buzg‘unchilikka, beqarorlikka xizmat qilishi, taraqqiyotga to‘siq bo‘lishi muqarrar. Taraqqiyotga, hurlikka yetaklovchi ishonch va e’tiqod bilan buzg‘unchi, aldamchi, adashtiruvchi, yolg‘on "e’tiqod"ni farqlash juda muhim. Milliy g‘oya mustaqil O‘zbekiston fuqarolarining umumiy manfaat va qadriyatlarini ifodalaydi, hamda shaklla-nayotgan sog‘lom va barkamol avlod e’tiqodining mazmun-mohiyatini belgilaydi.

SIVILIZASIYA (lotincha "civilis' fuqaroviy, ijtimoiy) — serqirra va murakkab mazmunga ega bo‘lgan ijtimoiy-falsafiy tushuncha. Bu tushunchani shotland tarixchisi va faylasufi A.Fergyusson (1723-1816) jahon tarixiy jarayonining ma’lum bir bosqichini ifodalash uchun, XVIII asrda yashagan fransuz ma’rifatparvarlari esa aql-idrok va adolatga asoslangan jamiyat degan ma’noda ishlatgan edilar. Undan keyin ham sivilizasiya tushunchasiga turlicha mazmun berish davom etdi. Ayrimlar uni madaniyatning, ba’zan faqat moddiy madaniyatning sinonimi sifatida ishlatgan bo‘lsalar, nemis faylasufi O.Shpengler, aksincha, uni madaniyatning antipodi ma’nosida, ya’ni madaniyatning halok bo‘lish jarayonini harakterlash uchun, ingliz sosiologi va tarixchisi A.Toynbi esa o‘ziga xos va nisbatan yopiq bo‘lgan jamiyatlarni ifodalash uchun ishlatgan.

Sivilizasiya tushunchasini belgilashda turlicha yondashuvlar hozirgi vaqtda ham saqlanib qolmoqda. Bu tushuncha hozirda: 1) umuman kishilik jamiyati rivojlanishining ma’lum bir bosqichini (neolit davri, antik davr yoki hozirgi zamon sivilizasiyasi); 2) ma’lum bir tarixiy davrdagi ishlab chiqarish bosqichini; 3) geografik jihatdan farqlanuvchi (Yevropa yoki Osiyo sivilizasiyasi); 4) diniy mansubligiga ko‘ra farqlanuvchi (xristian yoki islom sivilizasiyasi); 5) kelib chiqishi va planetar mansubligiga ko‘ra farqlanuvchi (yer sivilizasiyasi, yerdan tashkaridagi sivilizasiyalar); 6) etnik asosga ko‘ra farqlanuvchi ijtimoiy-madaniy (qadimgi Misr yoki Bobil sivilizasiyasi) birliklarni ifodalash uchun qo‘llanilmoqda.

Har qanday ilmiy tushuncha ma’lum mazmunni ifodalab, muayyan ijtimoiy hodisa, jarayonni tushuntirishga xizmat qilmog‘i, demakki, metodologik ahamiyatga ega bo‘lmog‘i lozim. Mana shu nuktai nazardan qaralsa, sivilizasiya tushunchasini yuqoridagi ma’nolarda ishlatishda muayyan bir yoqlamalik borligini ko‘rish mumkin.

Sivilizasiya tarix yoki jamiyatning sifat jihatidan o‘ziga xosligini, u yoki bu mintaqa yoki mamlakat doirasida amal qiladigan, ishlab chiqarish kuchlari, inson faoliyati, madaniyati tomonidan belgilanadigan umumiy ijtimoiy qonuniyatlarni ifodalaydi. Bularning barchasi sivilizasiyani yaxlit birlik sifatida mavjud bo‘lishi

uchun imkoniyat yaratadi. Bu xususiyatlarning yo‘qolishi sivilizasiyaning halokatini anglatadi. Sivilizasiyani xududiy jihatdan shakllarga ajratganda — umumbashariy (global), mintaqaviy (regional) va mahalliy (zonal) tarzda namoyon bo‘lishi e’tirof etiladi.

Qisqacha aytganda, sivilizasiya tushunchasi muayyan xalq, mamlakat (jamiyat)ga yoki uning rivojlanish jarayonida sifat jihatidan farqlanuvchi ayrim bosqichlariga nisbatan ishlatilgandagina, u aniq ilmiy mazmunga va demakki, metodologik ahamiyatga ega bo‘ladi. Aynan etnik birliklar, mamlakatlar darajasida sivilizasiyaning o‘ziga xosligi, asosiy xususiyatlari yaqqol namoyon bo‘ladi.

Sivilizasiyaning mohiyatini tushunishda unga mansub bo‘lgan madaniyatning rolini anglash muhimdir. Agar ishlab chiqarish sivilizasiyaning moddiy asosini tashkil etsa, madaniyat ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab olib, uning qiyofasini, xususiyatini belgilab beradi. Xalq hayoti va madaniyatining konkret namoyon bo‘lishini, uning real mavjudlik holatini aks ettiradi.

Bugungi kunda O‘zbekiston umumbashariy sivilizasiyaning tarkibiy qismiga, jahon hamjamiyatining teng huquqli a’zosiga aylandi. Mamlakatimizda bugungi dunyo sivilizasiyasining ilg‘or mamlakatlariga xos demokratik tamoyillar, umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi qoidalariga amal qilinmoqda. Shu bilan birga mustaqillik mintaqamiz sivilizasiyasi uchun yangi imkoniyatlar ochdi. Tarixi uch ming yildan ortadigan sivilizasiyamiz qadriyatlari, milliy davlatchilik an’analari qayta tiklandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev SH.M. “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob halqimiz bilan birga quramiz”. T.: “O‘zbekiston”, 2017 y. – 485 bet.

2. Mirziyoyev SH.M. “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz”. 1 jild T.: “O‘zbekiston”, NMIU, 2017 y. – 592 bet.

3. Mirziyoyev SH.M. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – halqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. (Prezident Mirziyoyev Shavkat Miromonovichning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasi). – “Halq so‘zi” gazetasi, 2017 yil, 4 avgust.

4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishi. “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatishni rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida” – “Halq so‘zi” gazetasi, 2017 yil. 13 yanvar.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Ma’naviy – ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida. – “Halq so‘zi” gazetasi, 2017 yil, 29 iyul.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Diniy – ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risida. – “Halq so‘zi” gazetasi, 2018 yil, 17 aprel.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Yoshlarni ma’naviy – ahloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim – tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora – tadbirlari to‘g‘risida. – “Xalq so‘zi” gazetasi, 2018 yil, 14 avgust.

8.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. O‘zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida. – “Xalq so‘zi” gazetasi, 2019 yil, 11 iyun.

9. Abdullayev H., Hasanov U. Estetika kursi. Ma’ruzalar to‘plami. – Toshkent.: 2008 y. 186 bet.

10. Avloniy, Abdulla – Tanlangan asarlar. 2 – jild.- Toshkent.: Ma’naviyat, 1998. 304 bet.
11. Behbudiy, Maxmudxo‘ja. Tanlangan asarlar. Toshkent.: Ma’naviyat, 1997. 232 bet.
12.Biblotechnoye obslujivaniye: Teoriya i metodika. Uchebnik\red A.Y. Ayzenberg. – Moskva.: Izd\va MGUKI, Liberiya, 1996. 200 s.
13.Dvorkina M.Y. Biblotechnoye obslujivaniye: novaya realnost. Leksii. Moskva.: Profizdat, 2003. 48 s.
14. Dergileva T.V. Biblotechnoye obslujivaniye: ucheb.- metod. posobne. Novosibirsk, GPNTB SO RAN, 2010. 136 s.
15. Ibroximov A. Ruhiy oziq mahzani. Toshkent.: “Yangi asr avlodi”, 2012. 426 bet .
16. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. Toshkent.: Fan va texnologiya, 2008. 130 bet.
17.Yo‘ldoshev E. Bolalar o‘qishiga rahbarlik qilish. – Toshkent.: “O‘zbekiston”, 2012. 266 bet.
18.Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent.: Movarounnahr – O‘zbekiston, 2009. 448 bet.
19.Melentyeva Y.P. Bibliotechnoye obslujivaniye: uchebnik – Moskva.: FAIR, 2006. 251 s.
20.Milliy g‘oya: targ‘ibot texnologiyalari va atamalar lug‘ati. Toshkent.: Akademiya, 2007. 350 bet.
21.Munavvarova M. Milliy g‘oyaning ma’naviy ildizlari. Toshkent.: Ma’naviyat, 2011. 96 bet.
22.Pedagogika. Ensiklopediya 1–jild. Toshkent.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2015. 318 bet.
23.Pedagogika Ensiklopediya 2–jild, Toshkent.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2015. 374 bet.
24.Pedagogik texnologiY. Toshkent.: Ishonch M.S. 2008. 186 bet.

25. Saidov U., Nig‘matova Z., Shamsiyev SH.M. Kutubxonashunoslik va bibliografiya atamalarining izohli lug‘ati. Toshkent.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. 223 bet.
26.Shayxova X. Intelektual salohiyat – taraqqiyot mezoni. Toshkent.: “O‘zbekiston”, 2011. 110 bet.
27.Shayx Muhammad Sodiq Muxammad Yusuf. Tasavvuf haqida tasavvur. Toshkent.: “Sharq”, 2011. 278 bet.
28.Shaposhnikov A.YE. Biblotechnoye obslujivaniye lis s ogranichennimi vozmojnostyami: materiali v pomosh biblotekam obslujivayushim invalidov. – Moskva.: 2002. 197 s.
29.Umarov A.O., Kovalenko A.P. Psixologiya chitatelya i chteniY. Toshkent.: Izd-vo nas. biblioteki Uzbekistana im. Alishera Navoi, 2004. 136 s.
30.Umarov A.O., Mutolaa madaniyati: Shaxs, jamiyat, taraqqiyot –Toshkent.: Fan, 2004. 194 bet.
31.Umarov E., Karimov R. va boshq. Estetik asoslari. Uzinkom sentr, 2002. 232 bet.
32.Falsafa. Qomusiy lug‘at. Toshkent.: “Sharq”, 2004. 496 bet.
33.Qosimov B. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik.Toshkent.: Ma’naviyat, 2002. 400 bet.
34.To‘rayev SH. Ma’naviy–ma’rifiy ishlar va uni tashkil etish metodikasi. Toshkent.: Paradigma, 2017. 155 bet.
35.G‘oziyev E. Psixologiya metologiyasi. Toshkent.: Nashr, 2013. 312 bet.
36.G‘oziyev E. Ontogenez psixologiyasi. Toshkent.: Nashr, 2010. 360 bet.
37.Erkayev A. Ma’naviyat va taraqqiyot. Toshkent.: Ma’naviyat, 2009. 477 bet.

Mundarija

Kirish ……..……..3

I.Bob “Kutubxona - axborot xizmati: nazariyasi va amaliyoti” kursining predmeti, tamoyillari , maqsadi va vazifalari.....5
1.1.“Kutubxona - axborot xizmati: nazariyasi va amaliyoti” kursiga kirish…….....5
1.1.1. “Kutubxona-axborot xizmati: nazariyasi va amaliyoti” kursining kutubxonashunoslik fanlari tizimidagi o‘rni va uning boshka fanlar bilan aloqadorligi.....5
1.1.2. Kursning predmeti va asosiy tushunchalari.....9
II.Bob Foydalanuvchilarga kutubxona-axborot xizmati ko‘rsatish tamoyillari.....16
2.1. Foydalanuvchilarga kutubxona-axborot xizmati ko‘rsatishda ilmiylik tamoyili.....17
2.2. Foydalanuvchilarga kutubxona-axborot xizmati ko‘rsatishda tizimlilik tamoyili.....22
2.3. Foydalanuvchilarga kutubxona - axborot xizmati ko‘rsatishda majmuaviylik tamoyili.....23
2.4. Bosma nashr mahsulotlari, ma’lumotlar, axborotlardan foydalanishda ongli va faol munosabatni tarbiyalash tamoyili.....24
2.5. Kutubxona - axborot xizmati kursatishda foydalanuvchilarni o‘rganish asosida guruxlashtirilgan tarzda yondashuv tamoyili.....26
2.6. Foydalanuvchilarga kutubxona - axborot xizmati ko‘rsatishda ko‘rgazmalilik tamoyili.....28
III.Bob Kutubxona - axborot xizmati ko‘rsatishning maqsad va vazifalar.....31
3.1. Barkamol inson tarbiyasi - kutubxona - axborot xizmati ko‘rsatishning asosiy maqsadi.....31
3.2. Foydalanuvchilarning umumta’lim, umummadaniy tayorgarligini oshirish....35
3.3. Foydalanuvchilarning kasbga va ixtisoslikka oid bilimlarini oshirish.....36
3.4. Milliy g‘oyani shakllantirish.....37
3.5. Ma’rifiy dunyoqarashni shakllantirish.....43
3.6. Axloqiy madaniyatni shakllantirish.....48
3.7. Estetik tarbiya.....51
3.8. Soglom ma’naviy ehtiyojni shakllantirish.....57
IV.Bob Kutubxona-axborot xizmati ko‘rsatishning xalqaro miqyosdagi va mamlakatimizdagi huquqiy - meyoriy asoslari.....67

V.Bob Kutubxonachi va foydalanuvchilar kutubxona - axborot xizmati ijtimoiy-madaniy jarayonining teng huquqli ishtirokchilari sifatida.....76
5.1. Foydalanuvchilarni o‘rganish umumjahon muammosi sifatida…….....76
5.2. Kutubxona -axborot xizmati jarayonini o‘rganishning sosiologik va psixologik yo‘nalishlari.....79
5.3. Foydalanuvchilarni o‘rganishning eng umumiy metodlari.....80
5.4. Foydalanuvchilarni o‘rganishning umumiy metodlari.....90
5.5. Foydalanuvchilarni o‘rganishning kutubxona - axborot xizmatiga oid maxsus metodlari.....94
VI.Bob Kutubxona-axborot xizmati jarayonida mutolaa madaniyatini shakllantirish.....97
VII.Bob Kutubxona-axborot xizmati jarayonida axborot madaniyatini shakllantirish.....116
VIII.Bob Kutubxonachi kutubxona-axborot xizmati jarayonining yetakchi ishtirokchisi sifatida 123
8.1.Kutubxonachining kasbiy va shaxsiy sifatlari.....123
8.2.Kutubxonachining nutq madaniyati.....126
8.3.Kutubxonachi imidji.....131
IX.Bob Kutubxona - axborot xizmati jarayonida muloqot madaniyati.....133
9.1. Muloqot madaniyati tushunchasi va uning tarkibiy kismlari.....133
9.2. Kutubxonachi va foydalanuvchi o‘rtasidagi muloqot madaniyati.....137
9.3. Muloqot to‘siklari va ularni bartaraf etish.....141
9.4. Muloqot madaniyati kvalitologiyasi va kvalimetriyasi.....143
X.Bob Kutubxona-axborot xizmatining eng asosiy ijtimoiy yo‘nalishlari.....144
10.1. Kutubxona-axborot xizmati orqali uzluksiz ta’lim tizimiga yordam ko‘rsatish.....144
10.2. Kutubxona-axborot xizmati shaxsni ijtimoiylashtirish vositasi sifatida. Huquqiy ijtimoiylashtirish.....146
XI.Bob Aloxida ehtiyojli foydalanuvchilarga kutubxona-axborot xizmati ko‘rsatish.....149
11.1. Bolalar, o‘smirlar, o‘spirinlarga kutubxona-axborot xizmati ko‘rsatish…….....149
11.2. Oilaviy mutolaani tashkil etish.....160
11.3. Nogironlarga kutubxona-axborot xizmati ko‘rsatishning o‘ziga xos xususiyatlari.....163
11.4. Ko‘zi ojiz foydalanuvchilarga kutubxona - axborot xizmati ko‘rsatish.....170
11.5. Uy bekalariga kutubxona - axborot xizmati ko‘rsatish.....172
11.6. Vaqtincha ishsizlarga kutubxona - axborot xizmati ko‘rsatish.....175

XII. Bob Foydalanuvchilarga kutubxona - axborot xizmati koʻrsatishning asosiy ma'lumot manbalari ….....177
12.1. Foydalanuvchilarni bibliografik manbalar yordamida ma'lumot bilan ta'minlash.....177
12.2. Foydalanuvchilarni ensiklopediyalar vositasida ma'lumot bilan ta'minlash.....179
12.3. Foydalanuvchilarni lugatlar yordamida ma'lumot bilan ta'minlash.....182
12.4. Foydalanuvchilarga ma'lumot berish xizmati samaradorligini oshirish.....184
12.5. Foydalanuvchilarga ma'lumot berish xizmatining yangi turlari.....187
12.6. Foydalanuvchilarga maslaxat berish xizmatining rivojlanish yunalishlari.....190
XIII.Bob Kutubxona - axborot xizmati texnologiyasi.....192
13.1. Texnologiya va kutubxona - axborot xizmati texnologik jarayonlari.....192
13.2. Ma'lumot va axborot soʻrovining kutubxona - axborot xizmatidan foydalanuvchilar qiziqishi va extiyoji bilan bogʻliqlik.....197
13.3. Foydalanuvchilar qiziqishining oʻz mazmuniga koʻra tasniflanishi….....198
13.4. Kutubxona - axborot xizmatining tasniflanishi.....199
13.5. Kutubxona-axborot xizmatini tashkil etishning zamonaviy texnologiyalari.....200
XIV.Bob Yakka tartibda kutubxona-axborot xizmati koʻrsatish texnologiyasi.....201
14.1. Yakka tartibda kutubxona-axborot xizmati koʻrsatishning ahamiyati va vazifalari.....201
14.2. Yakka tartibda kutubxona-axborot xizmati koʻrsatishning shakllari va metodlari.....202
14.3. Yakka tartibda kutubxona-axborot xizmati koʻrsatish jarayonida kutubxonachi va foydalanuvchi hamkorligi.....206
XV.Bob Ommaviy va guruhli tarzdagi kutubxona-axborot xizmati texnologiyasi.....208
15.1. Ommaviy tarzda kutubxona-axborot xizmati koʻrsatish - xamkor muassasalar bilan alokadorlikni mustaxkamlash va kutubxonalar ta'sirini kengaytirish vositasi sifatida.....208
15.2 Xorijiy mamlakatlarda ommaviy tarzda kutubxona - axborot xizmati kursatish tajribasi.....213
15.3. Guruxli va yalpi tarzda kutubxona - axborot xizmati koʻrsatish.....213
15.4. Kutubxona - axborot xizmatining samaradorlik koʻrsatgichlar……...218

XVI.Bob Kutubxona - axborot xizmatini tashkil etish tizimi.....221
16.1. Kutubxona - axborot xizmatining tarkibiy bo‘linmalari.....221
16.2. Abonoment - kutubxona - axborot xizmatinining asosiy bo‘limi.....221
16.3. O‘kuv zallarida kutubxona - axborot xizmatini tashkil etish.....222
XVII. Bob Kutubxona - axborot xizmatini nashr mahsulotlaridan tashqari amalga oshirish shakllari.....223
XVIII.Bob Foydalanuvchilarga kutubxonadan tashkarida xizmat ko‘rsatish turlari.....224
XIX.Bob Virtual (elektron) kutubxona xizmati.....225
XX.Bob Kutubxona-axborot xizmatining XXI asrdagi rivojlanish yo‘nalishlari……...232
Xulosa……242
“Kutubxona-axborot xizmati: nazariyasi va uslubiyoti” kursini o‘rganish jarayonida keng qo‘llaniladigan atamalarning izohli lug‘ati.....244
Foydalanilgan adabiyotlar 349
Mundarija.....352